

GULSEREN BUG'DAYJO'GLU

HAYOTGA QAYT

Mashhur "Qirmizi xana" serialigo asos bo'lgan voqealar yoritilgan mazkur psixologik roman ekran asaridan ancha ta'sirchandir, mutolaa jarayoni sizga yanada kuchli hayajon va hissiyotlar taqdim etadi. Hayotga muhabbat uyg'otadi!



GULSEREN BUG'DAYJIOG'LU

HAYOTGA QAYT

Psixologik roman



UO'K: 821.512.161-31

KBK: 84 (5 Tur)-44

B – 99

Bug'dayjiog'lu, Gulseren

Hayotga qayt: psixologik roman / Gulseren Bug'dayjiog'lu. Tarjimon: G.Mirzayeva. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – 432 b.

ISBN 978-9910-9722-4-9

Insonni hayotda ushlab turadigan ildizi, tutib turadigan tayanchi bo'lmasa unga naqadar qiyin bo'lishini tasavvuringizga sig'dira olasizmi? Bunday qiyin ahvoldagi insonlarning dardini aritish, hayotini o'zgartirish, ularning olamiga nur olib kirish uchun psixolog qanday bilim va malakaga ega bo'lishi lozim? O'z yo'lini butunlay yo'qotib qo'ygan, yashayotib dunyodan uzilgan insonga-chi, unga qanday ko'mak berish mumkin? Uni hayotga qaytarib bo'ladimi? Qo'lingizdagi mazkur asar qiyinchiliklar va murakkab vaziyatlar bilan yuzlashib, chiqish yo'lini topolmayotganlarga yechimlar taklif qiladi. Hayotdan zavqlanib yashash, shukr qilish, ertangi kunga katta umidlar bog'lashga chorlaydi. Kutilmagan burilishlarga boy psixologik asar mutolaasi qalbingizdan joy olishiga ishonamiz.

UO'K: 821.512.161-31

KBK: 84 (5 Tur)-44

Tarjimon

Go'zal MIRZAYEVA

Barcha huquqlar himoyalangan. Mualliflik huquqi egasining yozma ruxsatisiz kitobning ma'lum qismini yoki to'lig'icha turli shakl va ko'rinishda chop etish, matn, audio, videoyozuv holatida internet orqali tarqatish man etiladi.

ISBN 978-9910-9722-4-9

© Gulseren Bug'dayjiog'lu. Hayotga qayt: Yangi asr avlodi
2023-yil.

FARG'ONA VII QIYATI

SO'ZBOSHI

«Bizning taqdirimizni aslida ota-onalarimiz, bolaligimizda bizni ulg'aytirgan yaqinlarimiz yozadi. Ayniqsa, onalarimiz».

Gulseren BUG'DAYJIOG'LU

So'nggi yillarda psixologiyaga ehtiyoj sezayotgan insonlar soni tobora ortib bormoqda. Albatta, hammaning ham cho'n-tagi psixolog huzuriga borib, maslahat olishni ko'tarmasligi mumkin. Gulseren Bug'dayjiog'lu Turkiyada 2ta katta ishni amalga oshirishni uddalay olgan psixoterapevt hisoblanadi. Birinchisi odamlardagi «Psixoterapevt huzuriga faqat ruhan nosog'lom kishilargina boradi», degan noto'g'ri tushunchani o'zgartirdi va shu gapdan uyalib qanchadan qancha kishilarning dardi davolanmay qolib ketishining oldini oldi. Ikkinchisi esa seriallarga yozgan senariylari orqali bepul terapiyani yo'lga qo'ydi.

Psixoterapevtning asarlari kabi seriallari ham so'nggi yillarda Turkiyada shuhrat qozondi va bulardan ayrimlari o'zbek tomoshabinlariga ham tarjima qilinib namoyish etildi.

Lekin baribir mutolaa zavqining o'rnini hech qanday kino yoki serial bosa olmasligini aziz kitobxonimiz yaxshi biladi. Asarni ilk bor qo'limga olganimda Turkiyada mashhur bo'lgan «Qirmizi xona» seriali aynan ushbu asarga asoslangan ekanini anglagan edim. Lekin tarjima jarayonida shuni bil-dimki, kitob kinodan ko'ra ancha farqli hamda ta'sirli.

Asar badiiy uslubda psixoterapevt tilidan yozilgan bo'lib, unda turli dard bilan kelgan qahramonlarni uchratasiz. Asar-ning qahramoni, o'zining boshdan kechirganlari, shu bilan birga aql-zakovati bilan, hattoki psixoterapevtni ham lol

qoldirgan, uni kechalari mijja qoqmay izlanishga va o'qishga majbur qilgan – Alya ishonchim komilki, siz kitobxonni ham hayratda qoldiradi. Boshidan kechirgan voqealari oqimiga g'arq bo'lib, ham undan jahlingiz chiqadi, ham hikoyasini eshitib qalbingiz eziladi. Tajribali psixoterapevt tomonidan so'zlangan Alyaning hayot hikoyasiga oid ushbu so'zlarning o'zi insonni o'yg'a toldiradi: «Men eshitishga toqat qilolmagan bu sahnalarni bechora qiz yillarcha avval, kichik yoshida boshdan kechirgan. Inson degani shunday borliq aslida! Ya'ni biz o'ylagandan ancha kuchli va hayotga moslashish qobiliyati ancha yuksak!» «Bu qanday qismat bo'ldi ekan-a? Uni tinglar ekanman, dod deb yuborgim, isyon qilgim keladi».

Asardagi qahramonlar, ularning hikoyalari va psixoterapevt talqinlari o'z yo'liga-yu, biroq unda tarixiy voqealiklarning hikoya tarzida bayon etilishi va tahlil qilinishi kishini o'ziga jalb qilmay qolmaydi.

Asar o'z o'quvchisiga birinchi navbatda insonlarni ang'lay olishni, ularni osonlikcha ayblash va hukm chiqarishdan avval ularning o'tmishi va bolaligida duch kelgan muammolarini tahlil qilishni hamda insondek mavjudotni u qanday xarakterga yoki mavqega ega bo'lishidan qat'i nazar hurmat qilishni o'rgatadi. Chunki asarning boshida, hattoki psixoterapevt qabul qilishdan bosh tortgan qizning o'tmishini eshitgan shifokor keyinchalik o'zining ilk uchrashuvdagi u haqda gi fikrlaridan ko'p afsus chekadi.

Bu asarning qahramonlaridan birortasida aniqki, o'zingizni va o'z dardlaringizni ko'rasiz va uning kelib chiqishini hamda davo yechimlarini kashf qilasiz. Asar siz uchun beminat terapiya bo'la oladi, muhimi o'zingiz bilan yuzlasha olasiz. Bu asar psixoterapevtning ish tajribasi jarayonida yig'ilgan ma'lumotlarga asoslanadi va u yigirma yil davomida yozilgan.

Asar badiiy uslubda, ishonamizki, kitobxonlarimiz undan o'zi uchun qimmatli ma'lumotlar oladi.

Go'zal Mirzayeva



Kech kirdi. Biror yumush bilan band bo'lganda vaqt o'tib ketganini sezmay ham qoladi kishi! Madalyon klinikasida yana bir kun o'z nihoyasiga yetib bormoqda! Necha soatlar-dan buyon o'tirgan o'rindig'imdan turib, xonamdagi katta derazadan shaharni tomosha qilaman. Chiroqlar allaqachon yongan, lekin ayni chog'da hali tun kundan to'liq ayrilmagan. Ular go'yo hayot va o'lim kabi bir-biriga bog'langan, ajralish uchun go'yo nimanidir kutayotgandek. Anqaraning tund os-monida qop-qora bulutlar suzib yuradi.

Kecha oqshom qor yog'a boshladi. Shamol ta'sirida har tomonga o'ynab yog'ayotgan qor parchalari deraza oldidan uchqunlab o'tadi. Bolaligimdan bu manzarani juda-juda seva-man. Qor yog'ganda odam o'zini boshqacha his qiladi. O'tmish ham o'sha yerda, kelajak ham... Bu oppoq qorlar ichida ha-yotning go'zalligi bo'lganidek, o'limning sovuq nafasi ham mujassam, go'yo. Ba'zan qarab turib sarxushlikni his qilasiz, ba'zan esa o'zingizni chorasiz va yolg'iz sezasiz. Bolaligimda boshqacha edi ko'rganlarim, hozir esa tamoman o'zga.

Xuddi qor parchalari kabi xonamning devorlarida his-tuyg'ularim kezib yuradi. Psixolog huzuriga baxtli inson kelmaydi. Kimdir eng yaqinlarini yo'qotgan, kimdir aldangan, tark etilgan, yo'qotilgan, birov hayotda izlaganini topa olma-gan, boshqasining orzulari ushalmagan, ishidan ayrilgan, omad tark etgan. Shu bilan birga bu yerga keladiganlar orasi-da biror narsadan kami yo'q insonlar ham bor. Hech narsaga ehtiyoji yo'q, boshqalar ularni shunday tasavvur qilsa-da, le-

kin ko'ngillarining bir chekkasida qayg'u, alam va, hatto dard bor. Hamma ko'rib turgan bu tugallikni ularning o'zlari nima-gadir ichdan his qila olmaydilar.

Baxtli bo'lish, «Yaxshiyam ham tug'ilganman, yaxshiyam yashayapman, yaxshiyam bu go'zalliklarni ko'ra olyapman», deya olmoq uchun, eng avvalo, inson bo'lib dunyoga kelmoq kerak. Keyin esa baxtli bo'lishga ahd qilish... Bir kun bari-bir bu dunyoni tark etishini, hamma narsasini yo'qotishini bilishning o'zigina kishi qalban baxtli his qilishining yagona sababi bo'la oladi. Aks holda hayot uning baxtli bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Na tong saharda porlagan quyosh, na kecha-lari osmonni yoritgan oy, na yomg'ir, na qor hech biri inson-ni baxtli qila olmaydi. «Mana biz bu yerdamiz» deyotgandek go'yo! «Xohla baxtli bo'l, xohla baxtsiz, xohla quvon, xohla g'azablan, xohla bor bo'l, xohla yo'q...» Ba'zilar bu go'zallikni tomosha qilar ekan, chorasizligini, zaifligini, bir kun ham-ma narsaning tamom bo'lishini, bu olam yolg'onchi dunyo ekanini his qiladi, kimdir hayotda borligidan, nafas olayot-ganidan, hali hayot uchqunlari so'nmaganiidan, o'zini baxtli his qiladi.

Aslida baxt nima? Baxt bu ichimizni, qalbimizni egallab olgan yomon o'y-xayollardan qutulib, chuqur nafas olish, o'zimizda zavq va xotirjamlikni his qilishdir. Ammo insoni-yatga bu ishni qilish shunchalik osonmi?! Chunki biz tug'il-masdan avval boshqacha dasturlashtirilgan edik. Ichimizda bizni hech tinch qo'ymaydigan, tinimsiz talablari ortadigan, olib ulgurmasdan istaklari o'zgarib turadigan orsiz-orsiz bir narsalar bor. Istaganini bersang ham, bermasang ham tinch qo'ymaydi.

Hamma narsaga tezda ega bo'lishni xohlaydigan erkatoy boladek go'yo. Bu safar ham bergan tuhfalaringizdan char-chab, olganlarini istamay, yetolmaganlarining ortidan yugu-radi. Bizning baxt deb ataydiganimiz aslida bu emas. Yo'q bir nimalar payida bo'lib, butun umrni sarflash emas, hamma narsa o'zimizda ekanini bilishimiz baxt, aslida.

Men baxtli bo'lishni tanlaganlardanman. Har tong va eng ko'p kunning shu soatlarida baxtli ekanimni o'zimga eslatib turaman. Qishning ayozli kunida ayni shom vaqti dunyoga kelganman. Bilmayman, shundanmi aynan ushbu daqiqalarda ruhimda bir sokinlik, g'amginlik his qilaman. Darhol derazaning oldiga otaman o'zimni. Yashayotgan shahrimga, dunyoga, bu derazadan ko'rishim mumkin bo'lgan har bir joyga birma-bir qarayman. Hayot ekanligimni his qilaman. Yuragimdagi qayg'u asta-sekin tarqab, uning o'rnini baxt egalaydi. Xuddi qayta tug'ilgandek. Mana hozir dunyo hayotiga sho'ng'ish uchun shoshib boryapman. Ko'ra olishim mumkin bo'lgan har joyga bir-bir ko'z yugurtirib chiqdim. Oldinlari derazamdan dunyoning kichik bir bo'lagini kuzatishim mumkin edi.

Madalyon klinikasini yangi joyga ko'chirdik. Shunday katta klinikani sovuqda qanday ko'chiramiz demasdan, apil-tapil yangi joyimizga ko'chib o'tdik. Endi derazamdan dunyoning kichik bo'lagini emas, butun Anqarani ko'rish mumkin. Uzoqdan menga ko'z qisib turgan ufqni, Husayn G'oziy tog'ining bulutli cho'qqilarini, Xo'jatepa masjidining yorqin va nozik nurlar bilan yo'g'rilgan minoralarini, elchilar bog'idan tortib, Otaturk Bulvarigacha, qavat-qavat tomlarni, chiroqlari yonib turgan binolarni, yashilliklar ichidagi nafis pushtirang Prezident saroyigacha ko'rishim mumkin. Havo juda sovuq bo'lsa ham derazamni bir muddat ochaman. Quloqlarimga shaharning shovqini eshitiladi. Har bir shahar o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgani kabi, o'ziga xos hidga ham ega. Anqarada esa buni yanada kuchliroq his qilasiz. Anqaraning insonlarni o'ziga bog'laydigan, ko'ngilga xush yoqadigan nafasi bor. Xuddi biqirlab qaynayotgan qozonga o'xshaydi, qaynagan sari atrofga hid, bug' va umid sochadi. Azon ovozlari bilan dov-daraxtning shiviri bir-biriga qovushib ketgan, ba'zan kulgan, ba'zan yig'lagan shaharning tovushlarini eshitasiz.

Yuzimga urgan sovuq va tashqarida o'ynab yog'ayotgan qor parchalari derazamni ko'proq ochib turishimga yo'l qo'y-

maydi. Isitkichlar qo'l tekkizib bo'lmaydigan darajada issiq bo'lsa-da, xonam sovuq, lekin tashvishim o'tib ketdi. Mening xonam klinikaning to'rtinchi qavatida joylashgan. Bu qavatda men bilan birga yana oltita hamkasbim ham ishlaydi. Bizning qavatdagi mutaxassislar katta yoshli bemorlarga qaraydigan uchinchi qavatda esa bolalar bilan shug'ullanadigan shifokor va psixologlarimiz bor. Birinchi va ikkinchi qavatlarda davlatning ko'magi bilan turli xildagi kasalliklar davolanadi. Xullas kalom, Madalyon klinikasi har kuni yuzlarcha bemorga xizmat ko'rsatadigan juda katta muassasaga aylandi.

Xonamning eshigi ochiq! Klinikaning barcha zallaridagi musiqa sadolari xonamgacha yetib keladi. Klinikada qaysi qo'shiqning yangrab turishi haqida bir to'xtamga kelishimiz oson bo'lmadi. Hammaning tabiatiga bir xilda mos keladigan musiqani topish mushkul. Xuddi ba'zi ranglar kimlarnidir bo'g'ib qo'ysa, ba'zilarga juda yarashganidek. Yoki inson hamma rangli kiyimda o'zini qulay his qila olmaydi, aksincha, o'ziga mos va qulay bo'lgan narsani qidiradi. Ba'zi musiqalar qalbimizga kirib boradi, bizni o'zga olamga olib kiradi. Ba'zilarini eshitsak qayg'uga botamiz, lekin xafa bo'lsak ham qalbimiz bo'shab yengil tortamiz. Bunday musiqani eshitganimizda anchadan buyon ko'rmagan yaqinlarimizni, do'stlarimizni, ular bilan o'tgan baxtli lahzalarni eslaymiz-u, yuragimiz orziqadi. Aslida u eski do'st bizning o'zimiz, eski xotiramiz. Umr o'taveradi, eski xotiralar esa ortda qolaveradi. Balki shuning uchundir bu kabi musiqalarni ko'p eshitadigan, yoqtiradigan bo'lib qoldim.

Klinikasida bundan tashqari musiqa ham ijro etiladi. Ayni damda skripka ovozi yangramoqda. Bu ohanglar tinglayotganlarga qanday ta'sir qilayotganini kim biladi deysiz? Kimdir xotiralarini eslab nafratlanadi, kimdir siqiladi, eziladi, yana kimdir menga o'xshab o'tmishning chang-to'zonli yo'llarida o'zi bilan uchrashar ekan, qalbini yoqimli xotiralar chulg'aydi.

Ertalalabdan buyon juda ko'p insonlarni qabul qildim. Har birlarining o'ziga xos muammolari bor, hayotning turli qirra-

larini ko'rsatadilar menga. Yosh, qari, erkak, ayol, boy, yo'qsil, qishloqlik, shaharlik, ammo ularning bir mushtarakligi bor: tashvishlari borligi. Bu dunyo o'tkinchi ekanini bilib turib, yashayotgan odamzodning mahzun bo'lishi tabiiy, ammo men nainki insoniyatning, balki tirik jon borki, hech birining mahzun bo'lishiga yo'l qo'ya olmayman. Ajabo, men qilayotgan ishda qayg'u bormikan?! Baxtli insonlar psixologga muhtoj bo'lishi mumkinmi? Xotirjamlik va baxt parvoz qilib yurgan qushga o'xshaydi, qo'ngan joyida uzoq tura olmaydi. Qayg'u va alamni esa qo'ngan yeridan turg'izish juda qiyin... Garchi psixolog hayotning turli muammolarini ko'rsa-da, asosiy ishi g'am-tashvish bilan kurashishdir. Insoniyat bor joyda esa g'am va alam aralash.

Hech kim bu sehrlangan xonadan o'z vaqtida chiqib ketishni xohlamaydi. Yolg'izligimda na sehr, na boshqa narsa bo'ladi bu yerda. Ularning kuch-quvvati bilan mening energiyam shunday uyg'unlashadiki, g'am va baxt o'zaro birlashib, har biri uchun alohida qo'shiq yaratiladi bu xonada. Rashk bor, nafrat bor, sevgi, muhabbat, baxt bor, ba'zan o'lim, ayriliq mavjud bu qo'shiqlarda. Qiziq, bularsiz hayot shuncha alamli bo'larmidi? So'ngra har kim o'z qo'shig'i bilan o'z yo'llarida davom etadi. Ularning qo'shiqlaridagi ohang o'z hayotimning qo'shig'iga ham ta'sir qiladi. Yana bir kun shu ohanglar ta'sirida asta-sekin poyoniga yetib boradi, kun botadi. Kechalar esa juda uzun. Tong quyoshi takabburlik qilib derazadan ichkariga kiray demaydi. Ranglar sekin-asta yo'qolib, soyalar esa ko'payadi. Shunda siz, bir kuningiz ham o'z poyoniga yetib, tarixda qolganini anglaysiz.

Stolim ustida har doim bir qutida qog'oz sochiqlar tura-di. O'tgan kuni ular tugabdi, ishxonamizda bizni choy, qahva bilan ta'minlab turadigan qaqajon qizimiz Nevin qog'oz sochiqlarni stolim ustiga qo'yarkan, shunday deydi: «Ustoz, yig'loqi ro'molchangiz tugabdi, yangisini olib keldim». Biroz o'yga cho'mdim. Necha yillardan buyon stolimning usti bu qog'oz sochiqlarsiz turmaydi, chunki bu yerga qadami yet-

ganlarning hammasi dard bilan keladi, ichlaridagini ko'z yosh bilan bo'shatishadi, lekin ularga yig'loqi ro'molcha deyishga hech aqlim yetmabdi. Nevin haq, ular yig'loqi ro'molchalar. Boshqa shifokorlarning ish joylarida spirt, yod, bint hamisha bo'lganidek, mening stolimda qog'oz sochiqlarning bo'lishi tabiiy va bu ro'molchalar tez-tez bo'shab o'rniga yangisi keladi. Har bir quti bo'shaganda bir nazar tashlayman. «Turli xil ro'molchalarning taqdiri ham turlicha», deyman ichimda. Bu qog'ozlar insonlarning dardlarini aritish uchun yaratilgandir!

Bugun ham qog'oz ro'molchalardan bir qanchasi ishlatildi. Bemorlar psixologning yoniga yig'lash uchun emas, dardlarini aytishga, undan dalda olishga keladilar. Ko'ngillarini ochishni, ich-ichdan suhbat qilishni xohlaydilar, ammo og'izlarini ochdi degandan so'z o'rniga eng birinchi yig'i keladi ko'ngillaridan, ko'zlaridan oqayotgan yoshlarni esa shu ro'molchalar bilan artadilar. Men bu ko'z yoshlarning sababini juda yaxshi bilaman. Kim bilsin, qancha paytdan buyon davom etyapti ekan, oshkor qilinmagan, ammo bu xonaga kirganda ko'zlari ko'zlarimga tusharkan, bu ko'z yoshlarning jilovlarini bo'sh qo'yishlari. Ba'zan ichimda, ba'zan baland ovozda «Chiqarib tashlang» deyman ularga. «Xalos bo'ling» bu xonada chegara yo'q, qarshilik yo'q.

Mana shu holatda insonning ich-ichidagi yashirin his-tuyg'ulari chiqa boshlaydi. Odam bo'lish osonmi? Dard chekmasligi mumkinmi insoniyatning? «Inson insonning qurtidir» deganda faylasuf Tomes Hobbes qanchalik haq bo'lgan! Shuni angladimki, faqat insongina bir-birini xafa qilishi mumkin... Sevgani ham, qadrlaydigani ham, hurmat qiladigani ham, hayratga soladigani ham, intizor bo'ladigani ham ana o'sha insonlardir... Dushmanlar emas, aksincha, do'stlar ko'p xafa qilishadi. Onalar, otalar, bolalar, qarindoshlar, do'st-u yorlar xafa qiladi. Bu xonada biz eng ko'p shular haqida gaplashamiz va ularni bemorlarim bilan muhokama qilamiz.

O'n besh daqiqadan buyon yolg'izman. Na kelgan bor, na ketgan. Men bunga o'rganmaganman. Hech qachon klinikada

bo'sh vaqtim bo'lmaydi. Yo bemorga qarayman, yo klinika-ning boshqa masalalarga doir yig'ilishlari bo'ladi. Men ularni xasta deganimga e'tibor bermang. Hozir hamma psixologga kelgan insonlarni «mijoz» deyishadi. Men negadir shu atamani yoqtirmayman. Balki, yangilikka qarshidirman, lekin yoqtirmayman. Ular mijozlarim emas, men uchun qadrli bo'lgan bemorlarim. Har doim aytganimdek ularning aql-zakovati, saviyalari, ichki dunyosining kengligi jamiyatdagi o'rta qatlamlardan yuqori turadi. Balki, shuning uchundir ularni bemor deganimda ko'ngillariga olmaydilar. Ba'zida shu mavzuda hamkasblarim bilan ham tortishib qolaman. «Psixolog deganlari biroz havoyi bo'ladi, biroz xayoli parishon bo'ladi», deyman. Odatiy hayotda yashayotgan, aqli, dunyoqarashi odatdagiday bo'lgan insondan yaxshi psixolog chiqmaydi deb o'ylayman. Agar shu sohada bo'lmaganimda, shunchalik bilmidim, yo'qmi. Ozgina bo'lsa-da ularning hayotida yashamagan inson, ularni tushuna olarmidi, uni ham bilmayman!

Xonamdan chiqib, kutish zalini ko'raman, hech kim yo'q. Tuna, ya'ni sevimli kotibam bekorligimni ko'rib, jilmayib qo'yadi. Boshida quloqchin, ro'parasida kompyuter, bir tomonda gaplashib, bir tomonda qo'ng'iroq qilganlarni ro'yxatga olyapti. Telefonlarning tinimsiz jiringlashidan toliqqanga o'xshaydi. Charchaganida sal qattiqroq gaplashadi. Nima bo'ldi bizning bemorlarga hech biridan darak yo'q. Balki, qor tufayli yo'llar yopilib, vaqtida kela olmayotgandirlar, har doim ular meni soatlab kutishardi, endi bo'lsa men ularni kutyapman.

Yana xonamga kirdim, avval, devorga osilgan kitob javonining, keyin qip-qizil yumshoq o'rindiqlarning ikki yonidagi yoritkichlarni yoqdim. Bu hashamatli, kichkinagina ingliz o'rindig'ini juda yaxshi ko'raman. Ish faoliyatimni boshlagan paytlarimda sotib olganman, necha yillardan buyon ustidagi jildi o'zgarsa-da, qayerga ko'chib borsam o'zim bilan olib yuraman. Unga qancha qarasam, o'tmishimni shuncha eslayman. Yoritkichlarning qalpoqlari ham qizil! O'rindiqqa mosladim. Bekorga moslashtirmadim, qizil issiq rang. Yog'och-

larning och jigarrangi bilan qizildagi energiyani bir-biriga mosladim. Faqat ishxonamda emas, uyimda ham xuddi shu rang hokim. Har bir insonning dunyoqarashi bu. O'zimiz sez-magan yoki bilgan holda narsalarni tanlaymiz. Bular har bir odamning o'ziga xos narsalardir.

Endi o'rindig'imga yonboshlagan ham edimki, tashqari-dan ovozlari eshitildi. Va nihoyat, oxirgi bemorim yetib kel-di shekilli. Tashqarida shovqin ko'tarildi. Sizning savolingiz bormi? Bu yerda hech bunday shovqin-suron bo'lmasdi. Tuna juda ham mahoratli kotiba. Tashqariga chiqib aralashsammi yoki ozgina kutsammikan-a?

Tavba, bu baqirayotgan Tuna-ku! Nimalar bo'lyapti, Tuna nega ovozin ko'taryapti?! O'rnimdan irg'ib turib, tashqa-riga yugurdim. Shu payt Tuna ham shosha-pisha oldimga kirayotgan ekan. Eshikni tezda yopib, ichkariga kirdik. Yuz-lari oppoq, rangida rang qolmagan. Horg'in. Qanchadan bu-yon birga ishlaymiz, uni bunday ahvolda hech ko'rmagan-dim. O'zim ham shoshib qoldim. Eshikka suyanib, ko'zlarini biroz yumib, chuqur nafas oldi. Uning ro'parasida hayajon bilan qarab turibman.

– Nima bo'ldi Tuna, Xudo haqqi, nimalar bo'lyapti?

– Kechirasiz, Gulseren xonim. Nima bo'lganini bilganimda bunchalik bo'lmas edi, sal qolsa qizni urib yuboardim.

– Nima qilarding?

Ovozim xonada shunday jarangladiki, Tuna tok urgandek titrab ketdi.

– Nimalar deyabsan, Tuna? Sen kimni urmoqchiyding.

– Eshiting, iltimos, to'g'risi bunday bo'lishi xayolimga ham kelmagandi. Mening ham boshimni g'alvaga qo'ydi-ya. Ishoning, men yomon ish qilmadim. Kech bo'lganda qayerdan chiqdi bu telba qiz?

– Telba qiz deganing bemorimmi?

– Ha, xonim.

Necha yillik kotibamning qanday tili bordi? Bemorlarim men uchun qanchalik qadrli ekanini nahotki bilmaydi? Bun-

dan qanchalik jahlim chiqishini, g'azablanishimni bilmagan-dek, telba qiz deydimi?

– Uning ismi yo'qmi?

– E, oti o'chsin!

– Bo'ldi Tuna... Yetar bas... Sen bugun juda charchading, shekilli. Hozir pastga tush, ozgina dam ol. O'rningga boshqasi kelsin.

Tuna hayrat ko'zlari bilan menga qarab turardi. Achchig'i-dan badanlari taranglashgan, yumaloq kulib turadigan ko'zlari so'ngan, bayramdagi bolalar kabi ikki qo'lini ochgan, tashqari izg'irin bo'lsa-da, peshonasida ter tomchilari bor edi. Kim bil-sin necha yillardan buyon birga ishlaymiz... Hamma bemorla-rim uni yaxshi ko'radi. Faqat ular emas, men ham juda yaxshi ko'raman. Ba'zida mehribon onaday, ba'zida esa meni qo'llab turgan opamday. Bugun nima bo'ldi ekan-a, bu qizga? Yoshi o'ttimikan yoki charchadimi? Bemorning qabulxonaga kirga-niga hech qancha bo'lgani yo'q-ku? Nima qildiykan, shuncha-lik achchig'ini chiqaradigan? Ustiga-ustak bu joy psixolog xo-nasi, shunday bo'lgach hammasiga chidash kerak.

Tuna yana nimadir demoqchi bo'lib, og'iz juftlagan ham ediki, o'ng qo'limning ko'rsatkich barmog'ini labim ustiga qo'yib «jim» dedim unga, «yetar, jim bo'li!» Xonadan chiqmoq-chi bo'lib, orqasiga o'girilganda yosh to'la ko'zlarini ko'rib, ko'nglim buzilib ketdi...

Ochiq turgan eshikdan, qabulxonaga ko'z yugurtirdim. Derazaning oldidagi, divanning chetida o'tirgan, jigarrang sochlari patak bo'lib yotgan bir qiz hadik ko'zlari bilan men-ga qarab turardi. Yonida yonayotgan stol chirog'ining nurlari uning qora dog'li yuzlarida aylanib yurardi. Qoshlari qancha-lik qalin va qora, peshanasi esa shunchalik qisqaki, qosh qa-yerdan boshlanib, soch qayerda tugaganini bilish qiyin. Soch-lari ostida qalin bulut bordek, go'yo. Hatto qo'llari uzun qora tuklar bilan qoplangan. Egnida allambalo qop-qora kiyimlar. Kattagina sumkani xuddi chaqaloq ko'targandek quchoqlab olgan. O'zi yosh bo'lsa-da, ko'rinishidan bunga o'xshamaydi.

Ayniqsa, yangi bemorlar bilan tanishish meni juda hayajonlantiradi, unga qiziqish bilan qarab turaman. Bu qarashning boshqa tomoni ham bor, albatta. Eng avvalo, o'zimdani birinchi marta ko'rganimda nimani his qilganimni so'rayman. Insonning ruhiyati bilan ishlaydigan tabib uchun bu juda muhim. Yaxshi munosabatlar, birinchi ko'rishganda shakllanadi. Ichki kasalliklar shifokori esa bemor bilan obdan tanishib, uni o'rganadi va keyingina uning dardiga davo topadi.

Ishning texnik jihati ham mavjud. Psixolog bir qarashda eng yashirin tuyg'ularni ham ko'ra olishi kerak. Tirnog'idagi bo'yoqdan tortib, ko'ylagida osilib qolgan ipgacha, yuzidagi ajinlardan, qo'lidagi sumkasi, kiygan oyoq kiyimigacha ko'zdan kechirishi lozim. Hali u bilan suhbatlashmasdanoq, u bilan bog'liq jiddiy muammolarni ko'z qarashlari bilan bilishni xohlaydi. Psixologga kelganlarning hammasi shifokoriga o'zi bilan bog'liq, to'g'ri deb o'ylagan hamma narsani ayta oladilar. Inson qanchalik xohlamasin o'ziga qarshi ko'rsatma bera olmaydi. Shifokorning yolg'iz o'zigina faqat haqiqatni qidiradi.

O'zimni birozga bo'lsa ham mashhur izquvar Sherlok Xolms deb tasavvur qildim. Xuddi bir jinoyat sodir bo'lgan-u, lekin qo'lda hech qanday dalil yo'q, shu holatda izquvarlik qobiliyati va o'tkir zehn bilan bu boshqotirmalarning yechimini topishga harakat qilaman.

– Meni kutyapsiz, shekilli!

Boshini silkitdi. «Ichkariga kiring», deb xonamga kirib ketdim. Xayolim Tunada. Men ham juda qattiqqo'llik qildim, shekilli. Uning ham qilgan ishi to'g'ri emas-da. Joyimga kelib o'tirarkanman orqamdan hech kim ichkariga kirmadi. Nega kirmadi ekan? Men tashqariga chiqib uni ichkariga taklif qildim-ku? Bu qanaqa qaysarlik, ha mayli, yaxshilikkadir. Yana qaytadan qabulxonaga chiqdim. U hanuz sumkasini quchog'iga olgancha avvalgiday o'tirardi. Avvalgiday yana menga hadik ko'zlari bilan boqib turardi.

– Xonim afandi, meni eshitmadingizmi? Sizni kutyapman. Hamon boshini yon tomonga eggancha turardi. Bunday ho-

latni hech kutmaganim uchun battar g'azablandim. Uni deb Tunaga ham ozor berdim. Bu qiz nima qilmoqchi o'zi? Bir daqiqa nima qilishni bilmay dong qotdim. Keyin esa to'g'ri yoniga borib, sumkasini siqib turgan qo'llarini xuddi raqsga tortayotganday ushlab, xonamga olib kirishga harakat qildim.

– Men, shifokor, Gulseren Bidayjio'g'liman. Bugun men bilan uchrashuv belgilab, biroz kechikib bo'lsa ham bu yerga keldingiz, lekin ikki marta taklif qilgan bo'lsam ham xonamga kirmayapsiz.

Tok urgandek qo'lini orqaga tortib olib, yosh boladek yelka qisib qo'ydi, yoniga yaqinlashganimda esa undan aroq hidi kelayotganini sezdim. Hali kech bo'lmasdan ichkilik ichib olgan. Shunday ahvolda yana psixologga kelgan! Xuddi bu yerga majburan chaqirilgandek. Kiyimlarini to'g'rilaganimda bezovtalandi. O'ziga katta etigining ustidan kiygan baxillalari osilib turardi. Etigidan oqayotgan yomg'ir suvlari to'g'ri gilamga oqadi.

– Qo'ying shu baxillalarga teginmang, yuring tezda xonamga o'tamiz.

– Bizga... bu badbo'y narsalarni... nega kiydirmoqchisiz?

Bu qanday ovoz! Nozik, bolalarning ovozidek o'tkir va behuzur qiluvchi! Nima qilgani bu? Ham aytilgan vaqtda kelma, ham hamma narsani rad qil, ustiga-ustak shifokorning yoniga ichkilik ichib kel. Achchig'im kelsa-da, qizga qaragan vaqtim o'zim tushunmagan bir tuyg'u vujudimni chulg'adi. Bu qiz, nahotki shunchalik g'amga botgan bo'lsa?

– Bu yer qabulxona, hozir boshqalar ham kelib qoladi. Xonamga o'taylik, suhbatimizni o'sha yerda davom ettiramiz, maylimi?

– Kirmayman u xonaga.

– Lekin bu yerda ham gaplasha olmaymiz.

– Gaplashmayman.

– Siz bu yerga men bilan gaplashgani kelmaganmisiz?

– Koshkiydi kelmasam... To'ydim hammangizdan... Psixologiya markazida shunday bo'lsa... men dardimni kimga ayta-man? Avval eshik oldida asabimga tegishni boshlashdi.

– Nima qildilar sizga eshik oldida?

– Nima qildi?... hali eshikdan kirmasimdan mana shu bad-bo'y baxillalarni kiyishga majburlashdi.

Shunday yomg'irli kunlarda bemorlarimizga baxilla kiydiramiz. Buning nimasi yomon. Sal avval baxillalarga teginaverib, bir onda yomg'irning loyqa suvlarini gilamga sachratib ham oldi. Ichimdagi g'azab bo'g'zimga tiqilib kelgan bo'lsa-da, o'zimni bosdim, chuqur nafas olib, uni yana eski joyiga o'tqazishga harakat qildim. Sovuq demay kech bo'lsa-da kelgani uchun uni hech xafa qilgim kelmayapti, lekin bu qiz nega meni buncha qiynaydi? Bir-ikki yo'talib qo'yib, o'zimga kelib oldim, ovozlari ham yumshaganiga ishonch hosil qilgandan keyin yana suhbatlashishni boshladim.

– Bu yer markaz! Baxilla kiyishning nimasi yomon? Hatto-ki uni kiyishni ham bilmaysiz, qarang etigingizdan loyqa suv oqyapti.

– Shunday ekan siz nega kiymaysiz? Kotibangizning oyog'ida ham yo'q... Siz ozodasiz, shundaymi, biz – iflos?

– Nimalar deyapsiz kichik xonim! Sizlarga ozoda, shinam bir joyda xizmat qilaylik deb shu ishlarni qilyapmiz.

– Men kichik xonim emasman.

– Ismingizni bilmaganimdan keyin nima deb chaqiray?

– Siz yaxshisi... menga gapirmang...

Hech narsa demasdan birpas qizga qarab turdim. Vujudimni qora bulut qopladi, men uni ortiq majburlab olib qololmayman. Ham uchrashuv belgila, ham bu yerga kelib, injiqlik qil. Men hozir hammasiga qo'l siltab, xonamga kirib ketsam-u, u esa nimani xohlasa shuni qilsa! Ey, Hudo, Tunani ham pastga tushirib yubordim. Qabulxonada esa hech kim yo'q. Boshqa kotiba ham kelmadi. Bu qizni hozir yolg'iz qoldirish yaxshi emas. Negadir men bu qizni yoqtirmadim. Odatda, men unday emasman, har safar bu yerga kelgan bemorlarni mehr va muhabbat bilan qarshi olaman.

– Shifokorlar toza, ozoda bo'lishami?

– Siz bugun juda gina qildingiz yoki faqat menga shunday qilyapsizmi?

– Ha achchig'im kelgan... Bu yerga kelmasdan avval... asablarim joyida edi... sizlar aqldan ozdirasiz odamni.

Tushunarli bu qiz bu yerga janjal ko'tarish uchun kelgan. Uni bu yerga majburlab olib kelishgan desam holatini tushunsa bo'lardi, ammo yolg'iz keldi. Demak, o'z xohishi bilan uchrashuv belgilagan. Yana bu baqir-chaqirlari!

– Bu uchrashuvni siz uchun kim belgiladi?

– Kim belgiladi deganingiz nimasi? Mening sizdek qamishdan bel bog'lagan xizmatchilarim yo'q-ku, albatta o'zim.

Demak, men kabi qamishdan bel bog'lagan xizmatchilari yo'q. Javobi tayyor! Ko'p narsani biladi... qanday qiziq atama! Bu so'zni avval ham eshitganman. Buvim shunday derdilar. Qamishdan bel bog'lagan xizmatchi! Ammo bu qiz juda yosh.

– Mening xizmatchilarim borligini qayerdan bilasiz?

– Shunday katta klinikaning egasi ekaningizni bilmaydi deb o'ylamang. Madalyon yozuvidagi harflarning ichida sizning ismingiz aks etgan...

Ichkariga kirganda u yozuvlarni o'qimaslik uchun ko'r bo'lish lozim. Ichimdan kulgi keldi. To'g'ri uning old tomoniga mening ismim yozilgan, lekin bir kun kelib, ayniqsa, o'zining bemorlarimdan biri buni yuzimga soladi, deb hech o'ylamagandim. Buncha g'alati qiz ekan-a.

– Gapim sizga yoqmadimi?

– Nega unday deysiz. Siz nima deb o'ylasangiz, men o'shandayman.

Yuzimda kinoyali kulgi paydo bo'ldi. U bilan ortiqcha bahslashib o'tirishni to'xtatib xonamga kirishim kerakligini tushunsa ham meni gapga solmoqchi bo'lyapti. Yaxshi, lekin nima uchun xonamga kirishni xohlamayapti. U yerda bafurja suhbatlashardik.

– Demak, men haqdayotmisan. Siz o'shandaysiz. Lekin sal avval xizmatchilaringiz yo'qligini aytib o'tingiz-ku!

– Xizmatchilarim bo'lmasligi mumkin. Lekin sizdan ortiq biror joyim ham yo'q mening.

– Hech unday ko'rinmayapti.

– Qanday ko'rinyapman sizga?

– Mehnat qilib so'ngra pul to'lab, uchrashuv belgiladingiz.

Bu yerga juda kech keldingiz, sizga ajratgan vaqtim esa tugab boryapti. O'zingizni nima uchun men bilan solishtirganingiz menga qorong'i, lekin o'rningizda bo'lganimda kelgan zahoti xonaga kirib bergan pulimning hisobini chiqargan bo'lardim.

– Siz uchun pul shunchalik muhimmi?

– Shunday ko'rinyaptimi.

– Albatta... Menga pulga qaragandek qarayapsiz... Siz uchun qo'lingizdagi narxi to'langan tashrif qog'ozidan boshqa narsa emasman. Xavotir olmang, pulim juda ko'p, xohlasam sizni ham, klinikangizni ham sotib olishga va hatto o'sha yozuvlarining ichiga o'z ismimni yozdirishga ham qurbim yetadi.

Kulgim keldi-yu o'zimni tiydim. Necha yillik shifokorman. Hech kimdan bunaqangi gaplar eshitmagandim. Ammo bu qizdan achchiqlanishni ham bilmaysan kishi. Biroz oldingi g'azabim ham yo'qoldi. Yo tavba, nega bunday qilyapti? Bemorga ham o'xshamaydi, juda ginachi. Ishonchim komilki, bu g'azabning asl sababi men emasman, lekin shiforoklardan g'azablangani aniq.

– Shifokormisiz?

– Nima meni masxara qilyapsizmi?

– Negadir klinika ochish haqidagi gaplaringizdan, u ham shifokor bo'lsa kerak deb o'yladim.

– Shifokor bo'lganimda bu yerga kelib nima qilardim.

– Bu nima deganingiz. Shifokorlar odam emasmi, ular savol bera olmaydirlarmi?

– Ular savolga javobni o'zlari topishi kerak.

Tashqaridan shunday ko'rinsa-da, lekin psixiatrga keladigan eng ko'p bemorlar shifokorlarning o'zlaridir. Tik oyoqda turib charchadim, agar uning yoniga o'tiradigan bo'lsam xonamga kirmaydi. Aslida, qayerda suhbatlashish ahamiyatli emas, bu yer qabulxona. Shu paytda xonaning bo'shligi ayni muddao! Yaxshiyam hech kim yo'q, yana qancha shunday davom etadi bilmayman... Hech kim kelmasa ham kotiba kirib

qolishi aniq. Ustiga-ustak bu qavatda ishlaydigan shifokor bitta men emasman. Sal turib boshqa xonalardan ham bemorlar chiqishni boshlaydi. Tashlab ham keta olmayman!

– Qarang tik turaverib charchadim. Yaxshisi xonamda davom ettiraylik.

– Men bu badbo'y baxillalarni yechmasdan hech qayerga bormayman.

Ba'zida juda ehtiyotkor, ba'zida juda og'ir bemorlarimiz ham bo'ladi. Baxilla kiyish kimlarnidir mamnun qilsa, boshqa birovlarining g'ashiga tegadi. Bu ham o'shalardan biri, shekilli. Lekin ular juda farosatli insonlardir, bu narsalarni muomala bilan aytishadi va biz ham yaxshi gap bilan bu mumkin emasligini uqtiramiz. Zero, juda ehtiyotkor odam loy va suvlardan o'tayotganda oyoq kiyimlarini kir qilmaydi. Bu esa aksincha. Etiklari shalobbo!

– Hamma muammo oyog'ingizdagi baxilladami?

– Ha, shunda!

– Ular kir emas, toza. Ko'rib turibsiz, tashqari qor, hozir ularni yechsangiz, hamma yoq ho'l bo'ladi. Bu yerlarni iflos bo'lishini siz ham xohlamasangiz kerak.

– Majburmanmi hamma aytganlaringizni qilishga?

– Bu yerning ba'zi qoidalari bor. O'z xohishingiz bilan keldingiz va tartiblarga bo'ysunishga majbursiz.

– Yo'q, bo'sunmayman! Shunday deb oyog'idagi baxillalarni tezda yechib, xonaning o'rtasiga otib yubordi. Loyqa suvlari atrofga sachrab ketdi. Boz ustiga etigidagi balchiq ochiq rangli gilamlar ustiga tomchilashni boshladi. Hamma joy rasvo bo'ldi. Bu gilamlarni koridorga solish kerak emas deyishganda, ko'nmagan edim. Hamma narsaning eng yaxshisi, eng sifatlisi bo'lishini xohladim. «Bu yer turli xil kasalliklar klinikasi emas, psixiatrning bemorlari boshqacha bo'ladi», dedim. Bezaklari ham, e'tibor ham boshqa klinikalardan farq qilib turishini xohladim, bemorlarga bu ham boshqacha ta'sir qiladi, deb fikr qildim. Aynan mening yonimga kelgan bemor, hammasini barbod qildi, ko'zlarini lo'q qilib, butun

xonani loyqa ko'lmakka aylantirdi. Tozalashga tozalaymiz-u, lekin bemor bunday qilmaganida yaxshi bo'lardi. Klinikani ko'chirgan paytimda qanchalik avaylagandim. Hattoki professor do'stlarimiz ham narsalarni ehtiyotlab tashishgan, o'zimiz birin-ketin devorlarga ilganmiz. Kimdir bolg'a ko'targan, kimdir mix, yana kimlardir o'rindiqlarni devorlarning chetiga joylashtirgan. Jihozlar joylarini qayta-qayta almashtirib, yarim kechagacha mehnat qilgandik. Kechasi chiroqlarni yoqarkanmiz, nurlarning yog'dusida jihozlar shunaqa chiroyli ko'rindiki, ishlarini tugatgach, ozgina tamaddi ham qilib oldik, o'tirganimizda atrofga qarab ko'zlarimiz qamas-hdi, mehnatimizdan o'zimiz zavqlanib o'tirdik. Qilgan harakatlarimiz zoye ketmadi, dedik o'zimizcha. O'shalarni eslab yuzimga tabassum yugurdi, ammo hozirgi holatdagi ahvolimga yana qaytdim. Bu vaziyat kayfiyatimni buzdi. Ichim bilan tashim bir xil emasdi. Bu qiz bemor emas. Ham mast, ham tarbiyasiz... Xastalik insonning tarbiyasini buzmaydi. Inson har qanday holatda ham insondir. Xoh sog' bo'lsin, xoh betob. Birdan yarq etib, ko'zimning oldiga keldi... O'sha paytlar Xo'jatepada assistent edim. Ishga yangi kirgandim, buning ustiga bo'yimda bor. O'sha oqshom navbatchilikda edim. Hamma uxlagandan keyin yo'lakning oxiridagi xonamga kirib, yotoqqa cho'zildim. Endi ko'zim ilingan ekan, shovqindan uyg'onib ketdim. O'rnimdan sakrab turdim. Yaxshiyam oq xalatim ustimda ekan. Klinikada Nuriddin degan yosh yigit bor edi. Ahvoli ancha og'ir edi. Uni uxlatish uchun dozasi yuqori dori bergandik. Bir joyda turolmaydi, ichidagi olovini so'ndira olmaydi. Tinmay sakraydi, yuguradi, shu bilan ichidagi energiyani sarflashni, undan qutulishni xohlaydi. Ikkinchi marta tutqanog'i tutishi edi. O'zidan o'zi kuladi, o'zi bilan o'zi gaplashadi, lekin uning gaplarini hech kim tushunmaydi. Xonamdan chiqqan zahoti u bilan to'qnash keldim. Ko'zlari kosasidan chiqib ketay deydi, asabini buzgan odamni qidirardi. Uyqu ta'sirida hali karaxt edim. O'sha paytlar vaziyatni, holatni to'g'rilay olmaydigan darajada yosh va tajribasiz

bo'lganman. Baksyorlar kabi mushtini tugib, atrofimda aylanardi. Agar o'ziga kelsa bu kechani hech qachon eslay olmasa kerak, chunki o'shanda o'zidamasdi. U mushtini bir necha marta ko'tarib, keyin qornimga qaradi. Homilador ekanimni tushundi, orqasiga o'girilib, qo'llarini ko'tardi va boshiga mushti bilan ura boshladi. Bir tomondan u aqldan ozgandek qichqirdi, yana bir tomondan o'zini kaltakladi. Hatto o'zini tanib bo'lmaydigan darajadagi kasal holida ham menga zarar bermaslikka harakat qildi. Bu qiz kasal emas, tarbiyali ham emas... Indamasdan unga qarab turibman. Jahlim chiqqanini sezdi. Ko'z-ko'zga tushgan zahoti esa nigohini mendan olib qochdi. So'ngra qo'ynidagi sumkani o'rindiqqa tashladi-da, gilamdagi loyqalar ustida bolakaylardek sakray boshladi. Yuzlariga, ko'zlariga yoyilgan sochlari har sakraganda ko'tarilib tushardi. Aslida, men hozir xavfsizlik xodimlarini chaqirib uni bu yerdan chiqarib tashlashim mumkin, lekin buning chorasini o'zim topishni xohladim. Bemalol sakrasin deya bir qadam ortga tisarildim, lekin boshim achib ketdi. Bu qizning og'ir kasal emasligi aniq, ammo sog' ham deb bo'lmaydi. Buning ustiga kayfi ham bor. Nima xohlayotganini tushunmayapman. Atayin asabimni buzish uchun kelgandek. Sal avval Tuna bilan ham shunday holat bo'lgan va maqsadiga erishgan. Asabimni buzishni nega bunchalik xohlayapti? U meni aslo tanimaydi. Agar taniganida edi, bu ishlarini aslo qilmasdi. Chunki meni biladiganlarning hammasi qanchalik muloyim, mehribon, qalbi daryo, boshqalarni hurmat qiladigan, shu bilan birga bir so'zli, qat'iyatli ekanligimni yaxshi bilishadi. U esa bezrayib, yanada qattiqroq sakrardi. O'tirayotganida yana bir narsani payqab qoldim. Sakrayotgan bu sarxush va noxush hidli qizning o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'iga kattagina bandaj o'ralgan. Uni bandaj ham deb bo'lmaydi. Beparvoligim uning asabini buzayotgandi. Endi etigidan tushgan loy qoldiqlarini oyog'i bilan bosib gilamni kir qilishga harakat qilardi. Ko'zlaridagi g'azab, oyoq kiyimidagi loyqa suvlar kabi yuzimga otilayotgandi.

- Siz tozalik tarafdorimassiz shekilli-a? Hamma joyni iflos qildingiz. Endi bu kirlarni har ko'rganimda sizni eslayman, quloqlaringizni qizdiraman. Sarxushligidan zavqlanyapti chog'i. Sovuq nigohlari bilan: «Voy, voy, vanihoyat, sening ham asabingni buzdim», deyayotgandek edi. Hozir shunday yo'l tutayki, o'zi qazigan chohga o'zi tushsin. Qo'lidan ushlab xonamga olib kirishim ham mumkin. Xamirdan qil sug'urgandek ish, aslida. Qirq kilo yo chiqadi, yo chiqmaydi. Necha yillik psixiatrman, bunaqa narsalarni ko'raverib, ko'zim pishib ketgan, lekin buni xohlamayapmanda. Bu yerning xususiy klinika ekanini yaxshi biladi... Noxush vaziyat chiqmasligiga harakat qilishimizni ham. Shuning uchun atayin shunday yo'l tutmoqda. Lekin, eng avvalo, o'zim istamayman buni. Demak, odobsiz bo'lsa ham hamma narsaning fahmiga yetib turibdi. Nima uchun bunchalik qasdlashayotganini bilmadim-u, lekin juda puxta rejalashtirgan. Ammo hozir bu o'yinni u xohlagandek emas, men xohlagandek tugatishimiz kerak. Eshik tomonga o'girildim. Hozir kimdir kirsam bormi, ustimizdan rosa kuladi. Rostdan ham juda kulgili. Bemor qabulxonaning o'rtasida tinmay sakraydi, shifokor uni kuzatadi, men bo'lganimda qotib-qotib kulgan bo'lardim, ammo negadir hozir emas. Gilamlar ham iflos bo'ldi. Tunaning o'rniga keladigan kotiba ham zora kechikib kelsa. Ahvolimizni ko'rsa u ham hayron qolsa kerak. Negadir hozir bu ahmoq qiz bilan qanday kelishib olishni bilolmayapman. Darhol, yonimdagi o'rindiqqa ohista o'tirdim va yana bir ahmoqona tomoshani maroq bilan kuzatdim. Endi u o'lja bo'ldi, men ovchi. Sakrayverib nafasi tiqilib qoldi, lekin to'xtamadi. O'tirganim unga yoqmadi. Atayin asabiga tegish uchun bafurja oyoqlarimni chalishtirib, o'rindiqqa yaxshilab joylashib oldim. Endi uning navbati. Niyati mening asabimni buzib, bir g'avg'o chiqarish edi, eplolmadi. Aslida, buni ortig'i bilan bajardi, lekin natija chiqmadi. Hozir yana boshqa bir reja o'ylab topsa kerak. Qiyinalib nafas olayotgandi. Yana shunday davom etsa hushidan ketib qoladi. Lekin bunday bo'lishini xohlamayman. Ish u

xohlagandek bo'lmadi. Men qanchalik o'zimni sokin tutsam, u shunchalik bezovta edi. Buni o'zi ham yaxshi bilib turibdi.

Uni to'xtatmaganim, u xohlagandek javob qaytarmaganim uchun battar alam qilardi. Uning istagini bajarsam o'ziga ham, o'zimga ham, klinikaga ham zarar bo'ladi. Tabassum bilan uni olqishlay boshladim. «Ofarin» deb qo'shib qo'ydim. «Yaxshi tomosha. Shu paytgacha juda ko'p raqslarni ko'rganman, ammo bunaqasini birinchi ko'rishim, barakalla. Davom ettir, lekin sekinlashma». Ko'zlaridagi ayyorlik yo'qolib o'rnini qo'rquv egalladi. Xotirjamligim va qat'iyatimdan qo'rqdi. U ko'zlagan natijasiga erisholmaganini bilardi. Sakrashdan biroz to'xtadi. Zero shunchalik ko'p sakradiki, o'ziga kelolmaypti. Tezda o'rnimdan turib uni ushlab qoldim, asta yetaklab xonamga olib kirib, eshikni qulflab bu sarxush, jirkanch qiz bilan yakkama-yakka suhbatlashmoqchi bo'lib qo'llaridan mahkam tutdim. Avval qo'limdan chiqib ketmoqchi bo'lib, bir ikki silkindi, keyin esa o'zini tashladi. Men ham uni qo'yib yubordim. Shu payt qiz yerga tap etib tushdi, avval hushidan ketdimi deb o'yladim, keyin bilsam, atayin shunday qilgan ekan. Battar jahlim chiqdi. Unga teginmasdan ustidan sakrab o'tdim-da, joyimga o'tirdim. Sal o'tib o'rnidan turdi-da, uyqudan uyg'ongandek ko'zlarini suzib atrofga qaradi. So'ngra nigohini menga qaratdi.

Qayerdan buncha alam, men bu qizga nima qildimki, menda shuncha alami bor? Ko'zlaridan o't chaqnayapdi. Bu yaxshilik alomati emas, chunki ikki qo'li yerda, atrofiga diqqat bilan nazar solmoqda. Nima qilmoqchi? Men ham xonamni birinchi marta ko'rayotgandek, u qaragan joylarga bir-bir qarab chiqyapman. Ko'z tegmasin, bu xona juda chiroyli! Qizning tashida shunday... Hamma joy chiroyli narsalar, billur chiroqlar bilan to'la! Qizning niyati sovuq. Xonani rasvo qilmoqchi. Stolga qo'llarimni suwab, o'zimni to'g'riladim. Ayni paytda u mendan qo'rqishi kerak, bo'lmasa ko'ngliga kelganini qiladi. Qattiqqo'l, qat'iyatli jasur bo'lishim kerak. Bor ovozim bilan baqirdim.

– Tur, o'ringdan!

Shu onda ovozim komandirning ovozidan farq qilmasdi. Menga itoat etishi kerak edi. Aslida, bu rol menga juda mos keladi. Boshqalarga buyruq bersam maza qilaman! Ovozim ham shunga mos.

Odatdagi suhbatlarimda ham hukm ohangi yashiringan. Ayni damda bu xislatimni ishga solish vaqti. Ovozimni eshiti-boq boshini ko'tarib, hayrat va taajjub bilan yuzimga termildi.

– Tur dedim, tezda oldimdagi o'rindiqqa o'tir. Nigohlari menga qadaldi. Nima qilarini bilmay dovdirab qoldi. Yana bir bor ta'kidladim.

– O'zingni taroziga solma! Sabr kosamni to'ldirding.

Yelkasini qisdi. Baqir-chaqirlarim naf qilmadi, shekilli. Tezda o'rnimdan turib, yoniga bordim. Asta yelkasidan tutayotganimda, qo'llari bilan boshini himoya qildi. Bu unga odatiy hol, kaltak yemaslikka harakat qilyapti. Boshimga uradi deb o'yladi, shekilli. Juda ham ko'p kaltak yegan ko'rinadi. Ichimdagi g'azab o'rnini achinish egalladi, bir zumda! So'ngra uni ikki yonidan tutib, o'rnidan turg'izdim. Bu namuncha sertuk. Ro'paramdagi o'rindiqqa o'tkazdim. Bo'sh qopday o'tiradi o'rindiqqa. Qo'li bilan yuziga, ko'ziga tushgan sochlari to'g'rilayotganda, qo'lidagi kesilgan izlar diqqatimni tortdi. Bu qiz kasalmas. Xudo biladi bu yerga kelishidan oldin, aroq bilan birga biror giyohvand modda ham qabul qilgandir, balki. Naqadar insoniylikni unutish. Biroz vaqt jim qoldik. Men, aslida, uning nafas rostlab olishini kutayotgan va u bilan bog'liq yana nimadir qidirayotgan edim. Ayni kech bo'lganda bu yerga ichkilik ichib kelib, bunchalik janjal ko'tarishining bir sababi bo'lishi kerak. Sochlari ostida bekilib turgan yuzlarida na issiqlik bor edi, na nur. Men hamma insondan o'ziga tortib turadigan narsani topishga ustaman. Chunki insonlarni sevaman! Ham sevaman, ham qadrlayman. Men har doim insonlarning sevgi va hurmatga loyiq ekanliklariga ishonaman, lekin qanchalik urinmayin, bu qizning o'ziga tortadigan tomonini topa olmayapman. Yoki qattiq jahlimni chiqargani uchunmikan-a!? Og'zi, burni, terisi, ko'zlari va hatto qoshlari

ham shunchalik xunukki, yuzlari tuk bilan qoplangan. Xuddi og'ziga tuxum solgandek og'zi burnigacha yoyilgan, tishlari qiyshiq. Burni ham sal bir tomonga oqqan, oldiga osilib turibdi. Ko'zlari, qarashlari juda alamli! Terisi shunchalik nozikki, tomirlari ko'rinib turibdi. Juda ozg'in necha kg chiqarkin? Faqat spirtli ichimlik emas, narkotik ham qabul qiladi bu.

Tez-tez nafas olishdan to'xtagani yo'q. Haliyam atrofni tomosha qilmoqda. Yuzlarini menga qaratib turgan bo'lsa ham ko'zlari meni ko'rmayapti. Boshqa joylarga qarayapti. Orqamda xonamning derazasi bor, juda katta deraza. Sal avval u yerdan butun Anqarani tomosha qilib turgandim. Hattoki oynani ochib, xonani ham shomollatdim. Keyin yoptimmi yoki yo'qmi? Yopganimni eslayapman, hech ochiq qoldirmasdim. Qanday ofat ekan. Oqshom payti ancha kayfiyatimni buzdi. Hamon derazaga termilib turibdi. Bu qizdan hamma narsani kutsa bo'ladi. Bu yerdan o'zini tashlamasin deb umid qilaman.

– Qani menga tushuntir-chi, darding nima? Xuddi meni eshitmagandek, boshini oldinga egib, joyidan qimirlashni boshladi. Uni to'xtatishim kerak.

– Joyingda o'tir. Qimirlama, hatto nafas ham olma. Bundan ortig'ini hazm qila olmayman. Tushundingmi meni?

Hadik bilan boqdi. Nihoyat, o'z yo'rig'imga soldim, lekin juda charchagandim. Men bemorlarga baqirib, chaqirishga odatlanmaganman. Keragidan ortiq hurmat qilaman ularni. U bo'lsa boshini egib, qo'llarini birlashtirib, damini chiqarmasdan o'tiribdi. Kim bilsin sochlari qancha vaqtdan buyon yuvilmagan. Egnidagi kiyimlari o'ziga katta, to'q rangda chang bo'lib ketgan. Qo'llari kichkina, tirnoqlari kir va egri-bugri! Sochlari ham bitlagan. Har tarafni keragidan ortiq ivirsitdi, xonadan badbo'y hid kela boshladi, hali bitlamasak edi. Yo, tavba qiz ko'karib, bug'ilib ketdi.

– Qizim nafas ol, bo'g'ilib qolasan! U og'ir va xirillab nafas olardi, xuddi kimdir bo'g'ayotgandek. Keyin esa tez-tez nafas olganidan ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. Tomog'iga nimadir tiqildimi?

- Qizim nima bo'ldi senga, tomog'ingga nimadir tiqildimi?

- -----

- Gapirsang-chi nima bo'ldi, sal qolsa bo'g'ilib qolarding?

- O'zingiz aytdingiz-ku

- Nima dedim?

- Nafas ham olma dedingiz-ku.

- Sen nafas olmadingmi?

- Olmadim.

- Aqldan ozganmisan?

Nimlar deyapman? Bu yerga kelgan bemordan: «Siz aqldan ozganmisiz?» deb so'rayapmanmi? Bu qiz ham meni o'ziga o'xshatdi. Men unga «Siz, hatto nafas olmaysiz» deganim uchun, haqiqatan ham, u nafas olmadi. Rahm-shafqat hissi chulg'ab oldi meni. Hali ham tez-tez nafas olayotganda ko'zlaridan yosh chiqib, yutinib-yutinib qo'yayotgandi. Bir qaraganda ko'zlarida qo'rquv ko'rinsa, bir tarafdin bu holatdan ancha mamnunligi sezilib turardi. Qanday o'zgacha qiz! Ovozi ham juda g'alati. Bolalarnikiga o'xshaydi desam, bola tugul kattalarning ham ovozi o'xshamaydi. Juda beo'xshov tovush.

- Men aqldan ozgan emasman, yo'q... Menga devonadek munosabatda bo'lmang.

- Shunday qilib, siz aqllisiz! Qanday qilib, atrofimda tinmasdan sakragan qizga devonadek munosabatda bo'lishim mumkin, ilojisi bormi buning.

- Hammasini ataylab qildim.

- Ofarin, endi navbat e'tiroflarga. Bundan tashqari, siz sarxushsiz. Bunga ham bahonangiz bormi?

- Ha... Agar ichmaganimda bu yerga kelolmasdim.

- Xo'sh, nima uchun?

- Men u qadar jasur emasman.

- Bu yerga kelish uchun katta jasorat kerakmi?

- Hushyor bo'lganimda... Men bu narsalarni qila olmasdim.

- Nahotki? Hali bu tomoshalarining oldindan rejalashtirilganmidi?

- Ha, ha...

- Nima uchun? Nega bunday qildingiz?
- Sizning asabingizni buzmoqchi edim.

Bu qiz nima deyapti? Nahotki, hamma narsani oldindan o'ylab, shu maqsadda kelgan bo'lsa? Yaxshi, lekin bu qizni birinchi marta ko'rishim. Menda yoki klinikada qanday oldi-berdisi bor ekan, bu qizning? Bundan tashqari, o'z rolini juda yaxshi o'ynadi. Demak, uning maqsadi mening asabimni buzish bo'lgan. U maqsadiga batamom erishdi.

- Siz meni g'azablantirmoqchi edingiz-a? Lekin tushunmadim sizni, bir aybim bormi, biz hatto tanish ham emasmiz.
- Boshqalar nima qilgan bo'lsa siz ham o'shani qildingiz.
- Nima qildim men?
- Ishning haqiqati, qilganingiz emas, hech narsa qilmaganingiz.

- Gaplaringdan hech narsani tushunmadim.
- Bu safar avvalida boshlashga qaror qildim, boshqalarga oxirida qilardim.

- Boshqalar kim?
- Boshqa shifokorlar.
- Ularga ham shunday qildingmi?
- Qildim, lekin oxirida.
- Demak, endi mening navbatim!
- Navbat sizniki.
- Bunday qilishingga sabab nima?
- Hammangizning tilingiz bir, yomon ko'raman sizlarni.

Demak, mendan avval ham boshqa ko'plab shifokorlarga borgan va boshqa hamkasblarim ham uning nafratidan nasibalarini olishgan. Bunday insonga yordam berish mumkinmi? Kim bilsin nechta shifokorning jonini xalqumiga keltirgan ekan, navbat menga kelibdi.

- Mening yomon ekanimni qayerdan bilasan?
- Bilaman, siz kabilarning juda ko'pini ko'rganman.
- Bu yerga yana bir yomonni ko'rishga kelding, menimcha.
- Keldim... keldim mana... Pul bilan shundaymi? Xohlasam kelaman... xohlasam kelmayman.

– Shu ko'ngilxiralik bo'lmagandaydi, avval tanishganimizda edi sen bilan, balki munosabatimiz boshqacha bo'larmidi.

– Yo'q, unday bo'lmasdi. Navbat olish uchun kelganimda ko'rdim bu yerni. Kim bilsin kim-kimlar keladi bu yerga... Ular turganda menga qiyo ham boqmaysizlar.

– Demak, sen shunday deb o'ylaysan.

– Bunga ishonaman.

– Shunday bo'lsa ham kelding?

– E'tiroz qilmadingiz... «Senga ham qarayman» demadingiz... O'ylaganlarim haqiqat... Hammangiz bir go'rsiz... Shunday bo'lsa ham keldim.

Nutqi ham g'alati! To'xtab-to'xtab, kalta-kalta g'alati gapiradi. Xuddi og'zi ovqatga to'la, uni yutishni xohlaydi-yu, lekin yuta olmayotgan bolaga o'xshaydi. Yuzimga qaramaydi. Men bilan emas, o'ziga o'zi gapirayotganday, ro'parasida kimdir bor-u, uni yomon so'zlar bilan so'kayotganday edi, orada qo'llarini silkitib, o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'iga o'ragan, rangi qorayib ketgan lattani uyalmasdan oldimda o'ynaydi. Ichkilikdan yoki narkotiklardan shu ahvolga tushdimikan?!

– Demak, meni ham sinab ko'rmoqchi bo'lding? Qanday senga yoqdimi?

– Siz shifokorsiz shundaymi?.. Gippokrat qasamini ichmaganmisiz?.. Unday bo'lsa nega menga qaramayapsiz?

– Sen men bilan hazillashyapsanmi? Sen bu yerga shifo topish uchun emas, muammo chiqarish uchun kelgan bo'lsang. Seni bu yerda olib o'tirganimning o'zi bir xato. Sen mendan qanday yordam so'rayapsan qani, gapir, ayt maqsadingni?

– Ular nima qilgan bo'lishsa siz ham o'shani qilasiz-da.

– Ular senga nimalar qilishdi, yani boshqa hamkasblarim?

– Avval yaxshi qaradilar... Yana qabullariga tayinladilar... Ketdim... O'zlarini yoqtirganday qilib ko'rsatdilar... Meni yoqtirishmadi... Yaxshi munosabat ko'ratishmadi...

– To'g'ri qilishgan, men ham seni yoqtirmadim.

O'qrayib qaradi menga. Bu qarashda juda qattiq nafrat va adovat bor... Gaplarimni qog'ozga o'ramasdan, to'g'risini ayt-

dim-qo'ydim. Agar boshqacha gapirganimda ham yolg'on bo'lar-di. Men aytmam ham u hammasini boshidan kechirgan. Chunki men kabi boshqa hamkasblarim ham uni yoqtirishmagan.

– Demak, meni yoqtirmadingiz!

– Ha, yoqmading menga.

– Siz buni yuzimga qarab ochiq-oydin gapiryapsizmi?

– O'zingni bilmaslikka olma, nega yoqtirmaganim aniq emasmi?

– Men bo'lganimda ham yoqtirmagan bo'lardim.

– Birinchi marta aqlli gap gapirding.

– Hamma bilan shunday ochiqchasiga gaplashasizmi?

– Tushunmadim?

– Men taniydigan psixiatrlar, faqat o'yin o'ynashadi... ularning ichi bilan tashi bir xil emas, o'yinlarining qonun-qoidalari bor. O'sha qonunlarga bo'ysunib yashaydilar. Haqiqatni gapira olmaydilar. Nima qilmoqchi ekanlari aniq. Menga o'xshaganlardan tezroq qutulish payida bo'ladilar. Qutulishning ham o'ziga yarasha yo'li bor. Bu shaklda ochiq-oydin gapirmaydilar... Qabullariga kelganlarga «Sen menga yoqmading», demaydilar. Boshqacha yo'l tutadilar... Bu so'zlarni aslo aytmaydilar. Seni yoqtirmadim deyishmasa-da, lekin men hammasini tushundim. Shuning uchun ham shunaqa tomoshalar ko'rsatdim, ularga.

Boshqa psixiatrlarga nimalar qilgani yolg'iz Xudoga ayon. Bu ishlarning hammasini anglab, bilib turib qilgan. Qolaversa, narigi psixiatrlar begona emas, aytganlarida jon bor.

Bemor bilan bunday munosabatda bo'lmaslik kerak! Buni men ham yaxshi bilaman, ammo g'isht qolibdan ko'chdi, endi juda xohlasam ham munosabatimni yaxshilay olmayman.

– Nimalar qilding ularga?

– Oxirgi davolanish kunimda doimo g'avg'o chiqarar edim.

– Ya'ni?

– Bugungiga o'xshash qiliqlar... Bergan hamma narsalarini sindirdim, yirtdim... Hamma joyni rasvo qildim... Asablarini buzdim... Xafa qildim...

– Senga yaxshi qaramasligiga ishonmagan shifokoringga qaytib bormaysan shundaymi? Sen unday qilmaysan. Jazolaysan ularni.

– Ular jazoga loyiq.

– Ularning aybi nima?

– Birortasi ham meni yaxshi ko'rmadi.

– Shifokor hamma bemorlarini yaxshi ko'rishi kerakmi?

Shu gapni men aytyapmanmi? Yana bir marta yuragim siqildi. Chuqur nafas olib ichimdagi g'ashlikdan qutulishga harakat qildim, u gapini davom ettirdi.

– Nima bo'lganda ham ozgina sevgiga haqqim bordir... Ki-toplaringizni o'qidim... Siz bemorlaringizni juda sevasiz... O'qidim-u, yoningizga keldim... Lekin keyin niyatimdan voz kechdim... «U ham meni yoqtirmasa-chi», dedim o'zimga o'zim... «Bu esa eng yomoni... Hammani yoqtiradi, yolg'iz meni emas...»

Gaplarining hammasi to'g'ri! Men bemorlarimni juda yaxshi ko'raman. Uni ham yoqtirishni xohlardim, lekin shuncha urinsam ham qo'limdan kelmadi. Faqat sevilish uchun shifokorga kelish juda g'alati! Shunchalik yolg'izmikan-a?

– Kelgan zahoting bu tomoshalarni ko'rsatmaganingda munosabatimiz, balki, boshqacha bo'larmidi. Balki, seni tushunishga harakat qilarmidim.

– Hali ham meni yoqtirmadingiz... Bunga ishonchim komil...

– Ishonching komil?

– Ha... Ishonchim komil...

– Lekin men senga juda yaxshi munosabatda bo'lib, senga g'amxo'rlik qilmoqchi edim.

– Men buni xohlamayman.

– Faqat sevilish uchun shifokorga kelish, aqlli fikr emas.

– Faqat sevilish uchun emas... Sevgi bilan g'amxo'rlik ko'rish... Yuksalish uchun...

– Juda qiziq gap gapirding. Haqiqatda sening psixiatrga ehtiyojning bor.

– Bor... Bor, bor, bor...

– Ammo o'z yo'lingni o'zing bog'layapsan.

- Umid yo'q...
- Bu aniq.
- Oxirgi umidim siz edingiz.
- Ammo uni ham o'z qo'llaring bilan barbod qilding.
- Mendan... qutulishga harakat qilyapsiz.
- Unday emas.
- Boshqalar kabi...
- Ammo sen menga hech qanday imkoniyat qoldirmading.
- Qaniydi, shu ishlarni qilmaganimda... qani edi, meni kechirganingizda...
- Bu nimani o'zgartiradi?
- Siz juda to'g'riso'z, haqiqatgo'y ekansiz... Achchiqlansangiz ham... Yoqtirmasangiz ham... buni oshkor aytsangiz ham...
- Aaa?
- Balki keyin... yana bir marta...
- Nima keyin, nima balki?
- Balki yana qaytib kelarman...
- Demak, menga kelishing uchun shartlaring bor sening?
- Bor... Lekin siz hali ham jahl otidan tushganingiz yo'q.
- Ha, tushganim yo'q.
- Bu yaxshi... Ochiq-oydin gapirishdan voz kechmaysiz...
- Shartlarimni qaytarib oldim...
- Nima uchun?
- Zero, xohlamasam ham shunday qilasiz. Iltimos, meni kechiring. Davolanishga yana kelishga... ruxsat bering.
- Imkonsiz. Bu holat davolanishga juda salbiy ta'sir qiladi. G'azab ichidagi insonga professional yordam qilish imkonsiz.
- Aksincha, boshqa jahlingizni chiqarmayman...
- Boshqa shifokorlarning oldiga ularning jahlini chiqarish uchun borarmiding.
- Hmm...
- Bunday davolanib bo'lmaydi. Xushmuomala bo'lib, har xil qiliqlar qilmaganing-da edi, ular seni davolasharmidi!? Nega unday qilding?
- Ichki dunyosini... bilish uchun.

- Qanaqa qizsan-a? Senga yordam qilmoqchi bo'lgan insonga yomonlik qilgansan.

- Ular meni pisand qilishmadi. Ular darhol mendan voz kechishdi. Ketishimga umuman qarshilik ko'rsatishmadi. Mendan behuzur bo'lganlari yuzlaridan ko'rinib turardi.

- Sen ularni doimo sinab ko'rding. Bu tog'ri xatti-harakatlar emas. Sog'lom odamlar bu ishlarni qilmaydi. Senga haqiqatda yordam kerak. Bu yer katta muassasa. Seni boshqa shifokorga jo'natishim mumkin.

- Siz ham meni o'zingizdan soqit qilmoqchisiz.

- Bunday boshlangan uchrashuvning senga yordami tegmaydi. Ishon menga!

- Mendan... osongina qutulolmaysiz...

- Endi menga tahdid qilyapsanmi?

Uning ko'zlarida burchakka tiqilib olgan bir hayvonning qo'rquv to'la nigohini ko'ryapman. Aslida, uni bu yerdan jo'natishni ham istamayapman. Unga yordam beroladigan juda ko'p do'stim bor bu yerda. Juda xohlagan taqdirimda ham men uning uchun to'g'ri tanlov emasman. Bemoridan nafratlangan shifokor unga yordam bera olmaydi. Bu qizga shuni tushuntira olmadim, shekilli.

- Yo'q... bu tahdid emas... maqsad... umid uchquni... Birinchi bor o'zim uchun harakat qilaman... G'alaba qozonish uchun kurashaman.

- Biroz avvalgi taklifimni yaxshi tushunmading.

- Menga rahm qilmang. Aslo...

Unga marhamat qilishlarini ham xohlamaydi. Yaxshi, lekin bu qiz nima xohlaydi o'zi? Nima qilib bo'lsa ham uni boshqa hamkasbimga olib kirishim kerak.

- Gaplarimni noto'g'ri tushunding. Hozir ikkalamiz xonadan birga chiqib, seni o'zim ishonadigan bir do'stinga davo-lanishing uchun olib kiraman. Kelishdikmi?

- Meni alday olmaysiz.

Ich-ichimdan unga yordam berishni xohlayotgan bo'lsam ham u buni tushunmayapti...

- Aytgancha sening isming nima edi?
- Nihoyat, ismimni so'rash esingizga tushdi!
- O'rningda bo'lganimda bas qilardim, kelganingdan buyon telba-teskari ishlar qilyapsan. Yetar endi!
- Ismim Alya!.. Xohlasangiz ham... mendan qutulolmaysiz...
- Qani tur! Ortiq adi-badi aytishib o'tirmaylikda, bu ishni tugataylik. Boshim achib ketdi.

Bir tomondan asabimni buzgani uchun ko'rgani ko'zim yo'q, lekin unga bo'lgan qiziqishim g'azabimdan ustun kelyapti. Uni davolashim to'g'ri emas, harakatlari telba, gaplari aqlli buning.

- Qani, tur. Senga ajratgan vaqtim tugab bo'lgan.
- Turmayman o'rnimdan... Meni bu yerdan haydayolmay-siz... Kerak bo'lsa bu yerni ag'dar-to'ntar qilaman... lekin hech qayerga bormayman.
- Nima xohlaysan o'zi?

Bolalardek yelkalarini qisib, g'azab bilan yuzimga qaradi. Bu yerga yordam so'rash uchun emas, zarar berish uchun kelgan. Kelmasidan avval miyasiga quyib olgan. Bu ish yaxshilikcha, tinchlik bilan to'xtaydiganga o'xshamaydi. Uni yoqtirmaslikka to'liq haqqim bor. O'rindiqdan qo'mondonlardek haybat bilan turdim. Endi men ham u kabi g'azab va nafrat ichidaman.

- Tur o'rningdan! Tur dedim! Hozir tezda chiqib ketasan xonadan. Qilgan bitta kichik xatoying ham boshingga nimalar olib kelishini o'ylab ko'rdingmi? Shunday deb yoniga bordim. Mening shiddatimni va g'azabimni ko'rib qo'rqa-pisa o'rnidan turdi-da, eshikka qarab yurdi. Chiqayotganda undan so'radim.

- Sen qabul uchun to'lov qilganmiding?
- Ha.
- Pulingni qaytarib olib ket.
- Nimaga?
- Chunki hech qanday muolaja qilinmadi, yaxshi bor.

Men unga jahlim bilan baqirarkanman, qabulxonada hayrat bilan bizni tomosha qilib o'tirgan insonlarga ko'zim tush-

di. U esa yalinchoq ko'zlari bilan menga termiladi. Nima bo'ldi unga, g'azab to'la nigohlari qayerga ketdi? Bu qanday holat? Unga qarab o'zimni zolimlardek his qilyapman. Didem kotibaning joyida o'tiribdi. Aksiga olib qabulxona ham odamga to'la. Keksaroq bir ayol, uch-to'rtta yosh yigit-qizlar, onasining etagiga yopishib olgan bolakay va atrofda asabiy yurayotgan, o'rta yoshli, sochlari kir bo'lib ketgan, gavdali odam bor. Tinmay tasbeh aylantiradi. Oyoq ostiga qaradim, iflos qilingan joylarni allaqachon tozalab olishibdi. Hammaning ko'zi bizda. Bir menga bir qizga qarashadi. Kim bilsin, ular hozir men haqimda nima deb o'ylashayotgan ekan... Odatda, hech bunday qilmasdim. Har doim diqqat-e'tibor bilan ishlayman. Ammo bugun nima bo'lsa bo'ldi. Eshigim ustiga ismim yozilganidan ham, bemorini qattiqqo'llik bilan hurmatsiz qilgan bu xotinni hamma biladi. Ey, xudoyim, buning barchasini qanday qilib o'z o'rniga qo'yaman endi!

Bu qiz ham nima bo'layotganidan xabardor. Qizim bor ketaqol, tugasin shu tomoshalaring. Haliyam turibsanmi? Didemning stoliga yaqinlashib, hammasiga ayt, to'lov qog'ozlarining pullarini olishsin-da ketishsin, dedim. Qanchalik sekin gapirmay baribir hamma eshitdi. Didem meni ko'rgan zahoti o'rnidan sakrab turdi-da, hadik bilan qarab qoldi. Bu qizga nima bo'ldi. Mening vajohatimni ko'rib qo'rqdimikan? Sal avval xonamga kirgan zahoti eshikni yopib kerak bo'lsa qulflab, yolg'iz qolishni va hammasini unutishni xohlayman. Endi ortimga o'girilib, xonaga kirmoqchi ham edimki, Didem yonimga kelib qu-log'imga nimalarnidir shivirladi. Nima deganini tushunmadim. Ortiq u qiz bilan bog'liq hech narsa eshitishni xohlamayman. U esa qat'iyat bilan, holimdan bexabardek, hech ortga chekinmasdi. Shu payt asabiy yurib turgan oq sochli odam men tomonga keldi. Didem darhol stolidan bu tomonga o'tib, yugurib oldimga keldi. Xuddi biz u erkak bilan urushmoqchi bo'lgandek, qo'llarini ikki tomonga ochib, o'rtamizga turib oldi. Didem nima qilmoqchi? Shu payt oq sochli odam bilan ko'z ko'zga tushdi. Muncha g'azab! Xuddi meni o'ldirish uchun kelgandek.

– Xonimafandi siz Xudomisiz? Yoki o'zingizni shunday his qilyapsizmi?

Hech narsani tushunmay angrayib qoldim. U bor ovozi bilan baqirayotgandi. Bunisi kim bo'ldi? Mendan nima xohlaydi bular? Nima degani bu? Hali javob berishga ulguranim ham yo'q, u yana baqirib, meni so'roqqa tuta boshladi:

– Agar hozir men Prezident bilan ko'rishmoqchi bo'lganimda, shu paytgacha yuz marta ko'rishgan bo'lardim. O'zingizni kim deb o'ylayapsiz? Bunaqa o'yinlaringiz menga o'tmaydi. Telefonlarga javob bermaysiz, kelaman yo'qsiz, bu safar ham «Ichkarida bemori bor», deyishdi. Yarim soatdan beri kutyapman.

– Siz kimsiz?

– Kimligimga qarab ko'rishish yoki ko'rishmaslikni hal qilasizmi? Hamma tomoshabin, bu holatni mamnun bo'lib, zo'r qiziqish bilan kuzatib o'tirardi. Telba qiz haliyam turibdi, qalin qoshlari peshonasini yopib qo'ygan, bir menga qaraydi, bir baqirayotgan erkakka. Erkak bir yelkasini asta men tomonga egib, hamma qarab turganidan xursanddek, qo'lidagi tasbehini shiqirlatib, menga baqrayib turardi. Hammaning ko'z o'ngida meni shu ahvolga solganidan bag'oyat mamnun edi u. Didem xuddi tennis tomosha qilayotgandek, boshi u yoqdan bu yoqqa tinmay borib kelardi. Bugun har kungiga qaraganda boshqacha, xohlasam ham bugun boshqacha bo'la olmayman. Taqdir bunga ruxsat bermaydi.

– Kim bo'lsangiz ham avval qo'lingizdagi tasbehingizni olib qo'ying. Men bilan ko'rishmoqchi bo'lsangiz, tarbiyali bo'lishingiz kerak. Tushindingizmi?

U odam bunday javobni kutmagan edi. Nima deb o'ylagan edi? Shuncha baqirib, chaqirgandan keyin, poyida egilib turishim kerakmi? To'satdan tasbehini qo'lining ichiga olib, popugi pasayib qoldi. Men esa bu vaziyatdan foydalanib, tezda xonamga kirib ketdim-da, unga qaramasdan xitob qildim:

– Ortimdan kirishingiz mumkin. Eshikni yopib kirishni unutmang. U kishi, biroz g'azab, biroz hayrat bilan ichkariga

kirib, eshikni yopdi. Joyimga o'tirayotganda ko'z ostidan unga qarab qo'ydim.

– Xush kelibsiz, gapiring, eshitaman.

– Tik turib gaplashamizmi?

– Shu o'rindiqlardan biriga o'tirishingiz mumkin.

– O'rindiqqa omonatgina o'tirdi va gapirishni boshladi. Juda asabiy. Qiziq, bu odamning shuncha achchig'ini chiqaradigan nima ish qildim ekan-a?

– Uch kundan buyon yoningizga kelaman, ammo oradagi to'siqlardan hech o'tolmayapman. Bunaqa narsalarni umuman yoqtirmayman. Jahlim chiqdi... Achchig'im juda yomon. Hech kimni tanimay qolaman. Gitlerdan battarman desam yolg'on bo'lmaydi. Tap tortmasdan odam o'ldirishim mumkin. Vijdon-pijdon yo'q menda. Xato qilma, aqlli bo'l, rost so'z-la. Oqni oq deysan qorani qora. Adashma... Qurolim olovdir. Oyog'imdan o't chaqnaydi. Agar yonib ketmay desang, rost so'z-la. Rost so'zlasang hech so'zim yo'q. Haddingni bilmasang kechirmayman. Ishingni to'g'ri bajarasan. Bemor seni besabab qidirmaydi. Nega telefonda gaplashib bo'lmaydi siz bilan. U, Tuna ismli qizga og'zimga kelganini gapirdim. Kecha ham kelgandim, lekin sizni topa olmadim. To'palon qildim. Kecha bu yerdagilarning hammasi o'z nasibalarini olishdi. Hamma mendan zirilladi. Bugun meni ko'rishi bilan hamma-sining rangi o'chdi. Qarang, Tuna qo'rqqanidan qochib ketibdi. Joyida boshqa biron o'tiribdi. Yaxshiyam vaqtida qochibdi, bo'lmasa ko'radiganini ko'rardi. Aqlli insonlarni yoqtiraman. Nima bo'lishini bilib, indamay chiqib ketgan. Mashoyixlar, jasoratning o'ndan to'qqizi qochishdir, deb bejiz aytishmagan. Men haqimda aytishmadimi sizga?

Bu odam nimalar deyapti! Aybim telefonga javob bermaganimmi? Telefonga chaqirib bermagani uchun Tuna ayb-dormi endi. Demak, tushunarli hamma alamini Tunadan ol-yapti. Kecha klinikada emasdim, shunga achchiqlanyapti bu odam. Agar favqulodda vaziyat bo'lsa, Tuna nima ham qila olardi, men shu yerda bo'lsam darhol gaplashtirmasmidi?!

Sal avval kelgan qiz keragidan ortiq asabimni egovladi, endi orqasidan bu olovli qurol! Vaholanki, men hozir eshigimni yopib, orqamdagi katta derazadan Anqara oqshomini tomosha qilmoqchi, butun voqealarni unutmocchi edim. Keyin esa menga telefon qilgan, xat tashlab ketgan bemorlar bilan ishlamoqchidim. Lekin bo'lmadi. Shunday bo'lgani ham yaxshi bo'libdi, aks holda yumshoq qalbli ayol olovli qurolning oldiga chiqishi to'g'ri bo'lmasdi. Klinikadagilarning hammasini qo'ldan o'tkazgan, endi navbat kaminaga kelgan. Mening ham qo'rquvdan rangim oqarib, qo'l-oyog'im titrashi, bu janob bundan rohatlanishi kerak edi. Yo'q, aslo unday bo'lmaydi!

– Yo'q, hech kim gapirmadi. Bunday mayda-chuyda narsalarni menga aytishmaydi. Siz aytganingizdek mendan ha-yiqishadi.

– Menga juda past baho berdingiz, agar siz meni taniganingizda bunday demasdingiz.

– Siz ham shunday! Qabulimga kelish uchun to'lov qog'ozi olishingiz kerak edi. Men to'lovsiz bemor qabul qilmayman.

– Kim sizga meni bemor deb aytdi?

– Sizning shunchalik aqlingiz rasoki, sizga hech qanday shifokor kerak emas. Sizning kim ekaningizni men haligacha bilganim yo'q, lekin siz meni balodek tanib turibsiz.

– Doktor xonim, siz meni tushunmadingiz, shekilli.

Xudoga shukr, u shifokor ekanimni esladi.

– Siz nimani kutyapsiz? Atrofingizdagi insonlar sizdan qo'rqishini, tushundim. Hamma sizni hurmat qiladi, lekin bu qurol siz uchun yetarli emas. Sizni qabulxonada ko'rganimdan buyon menga shularni uqtirishga urindingiz. Shaxsan men sizga hech qanday hurmatsizlik qilmadim, lekin shunday davom etsangiz, xuddi siz kabi muomala qilishga majbur bo'laman.

– Menimcha, siz ham mendan unchalik farq qilmaysiz.

– Bu iltifotmi yoki haqorat?

– Telbalarining shifokorlari ham ularga o'xshaydimi?

– Yo'q, unday emas. Aslida, men ham unday emasman, ammo siz kabilarga toqat qilolmayman, xolos. Borgan joyin-

gizda hurmat qozonishingiz mumkin. Agar o'sha joyning qoidalariga rioya qilsangiz. Kotibam telefonga chaqirolmagan bo'lsa, sababi bo'lgan. Ichkarida bemor bo'lganda yoki shoshilinch vaziyatlarda telefonga chaqirolmaydi. Bu ichkaridagi bemorga nisbatan hurmatsizlik sanaladi. Kotibamga xat tashlab ketsangiz olam guliston edi. Kutib turganingizda o'zim qo'ng'iroq qilardim. Biroz sabrli bo'lishingiz kerak. Men emas siz o'zingizni kim deb o'ylayapsiz? Men olovli qurolman, Gitler kabi odamman, odam o'ldirish menga ishmas... Sizningcha, bular bilan kimni qo'rqitmoqchisiz? Nomerangiz bu yerda o'tmaydi, bey afandi. Bu psixiatriya klinikasi, qariyalar yotoqxonasi yoki shunga o'xshash narsa emas. Agar biz ularga ruxsat bersak, xohlasi Gitler bo'lishadi, xohlasi Napoleon.

– Yo, tavba men bu yerga sizga juda qattiq hazil qilaman deb kelsam, siz mendan ham o'tkazar ekansiz. Sal avval xonangizdan chiqib ketgan qiz mendan ham battar, shekilli. Juda asabingizni buzganmi deyman. Tayog'imni yashirishga biror joy bormi bu yerda?

Qisqa sukutdan so'ng xonamda kulgi ko'tarildi. «Jinni jinini ko'rib tayog'ini yashiribdi», demoqchi. Bu maqol shu vaziyat uchun ayni muddao.

– Nima bo'lganda ham mening g'azabim siznikini yonida bir shovqin, xolos. UZR, kech bo'lganda sizni bezovta qildim, ammo meni ayolim jo'natdi. O'tgan kuni kelgandi, dori yozgan ekansiz, lekin dori yozilgan qog'ozni yo'qotib qo'yibdi. Shuning uchun keldim.

– Turmush o'rtog'ingizning ismi nima edi?

– Hulya, Hulya Sako'g'lu.

Darhol, Hulya Sako'g'luning kartasini qidirdim. To'g'ri, Hulya xonimni juda yaxshi esladim. Turmush o'rtog'i haqida ancha gapirdi. Rosa yig'ladi. Bu yerga, aslida, o'zi emas, turmush o'rtog'i kelishi kerakligini, ikkita yosh o'g'li uchun xafa bo'lib, shu o'g'illarini asrash niyatida kelganini aytdi. Menimcha, u ayol hech qanday qog'ozini yo'qotmagan. Turmush o'rtog'ining bu yerga kelishi uchun bir hiyla bo'lsa kerak. Demak, bu

odam bilan do'st bo'lishning yo'lini topishim kerak. Bechora ayol erini shu yergacha jo'natibdi. Ko'raylikchi, men unga o'zi uchun ham bir ko'rik lozimligini tushuntira olarmikinman?

– Albatta, ayolingizni juda yaxshi esladim, siz haqingizda juda uzoq gapirdi.

– Albatta, u bu yerga, gumon qilganimdek, mendan shikoyat qilish uchun kelgan-da.

– Yana yanglishdingiz. Hamma narsani bilaman deb kerilasiz, lekin dunyodan bexabarsiz. Ayolingiz siz haqingizda rosa gapirdi, lekin men hech narsani tushunmadim. Sizni tushunish uchun tanish kerak ekan!

– Yomonmanmi shunchalik, doktor?

– Unisini bilmadim, lekin ayolingiz «Bahor havosiga o'xshaydi, erim», dedi.

– Rostdan shunday dedimi?

Xotinidan o'zi haqida yoqimli gaplarni eshitish uni hayajonlantirdi!

Insonlarni yengishning eng zo'r yo'li, unga yoqadigan so'zlarni aytish, lekin sal avval xonamdan chiqqan qizga negadir shunday qila olmadim.

– Haqiqatan, gaplari to'g'ri, boya ko'rganingizdek tez achig'im kelib, tez jahlimdan tushaman, keyin afsuslanaman.

– So'yib, o'ldirib bo'lganingizdan keyin afsuslanishning nima ma'nosi bor?

– Taassufki, shunday qilaman. O'zimga kelganimda esa hammasi vayron bo'lgan bo'ladi.

– Bugun bu yerda ko'p ham to'polon qilmadingiz.

– Qilmadim emas, qilolmadim. Siz bunga yo'l qo'ymadingiz. Ko'pchilik qo'rqib, darhol qo'rqanini sezdirib qo'yadi. Buni ko'rib men battar ko'tarilaman. Siz mard ekansiz.

– Siz qo'rqanlarni ko'pam yoqtirmaysiz, shekilli-a?

– Yoqtirmayman, albatta, nimasi u darrov ortga chekinish?

– Bilmayman, nima degani?

– Nima bo'lardi, haqiqiy soxtalik. Ichi bilan tashi bir emas. Ikkiyuzlamachilik bu. Ular meni aqlari bilan boshqarmoqchi bo'ladilar. Borini ayt. Oq bo'lsa oq, qora bo'lsa qora. Kimdir

o'zining haq ekanini bilsa, hech qachon orqaga qaytmaydi. Lekin biror narsani yashirgan bo'lishsa qo'rqib ketishadi. Chunki ular samimiy emas.

Qanday g'alati tushuncha tarzi. Unga yaxshi munosabatda bo'lsang-u, u baqir-chaqir qilsa qarshisidagi jim bo'lsa, unga hurmat ko'rsatsa, buning orqasidan bir illat qidirarkan. Qiziqarli bir kecha... Mening hozirgi ters holatimdan insonlar mamnun! Aksincha, o'sha qiz meni bunchalik achchig'imni chiqarmaganda, men bu kishiga mehribonlik bilan gapirgan bo'lardim. Lekin u paytda bunchalik samimiy suhbat qura olmasdik. Hulya xonimning duolari qabul bo'ldi.

– Xonaga kirganingizdan buyon endi gapimiz bir joydan chiqdi. Men ham insonlar insonlar tomonidan boshqarilishni yoqtirmayman. Nima deyishsa ham ochiq gapirishsin. Aslo yolg'on aralashtirmasin.

– Eee, otangizga rahmat, xuddi shunday!

– Siz bilan tanishmapmiz ham ismingiz nima edi?

– Aslan. Aslan Sako'g'li.

– Hursandman. Hech yolg'on aralashtirmasdan gapiradigan bo'lsam, ayolingiz menga siz haqingizda ko'p gapirdi. U sizning sog'ligingizdan xavotirda. «Juda g'azablanganda qon bosimi oshib ketadi», deydi. Men ham ayolingizga: «Bu yerga asli keladigan odam siz emas turmush o'rtog'ingiz ekan», deb aytdim. Sizni bu yerga suhbat uchun jo'natmadimi?

– U muloyimlik bilan nimalardir dedi, lekin jur'at qilib ochiq oydin aytgani yo'q.

– U holda men sizga aytay. Qabulxonadan tezda ro'yxatdan o'ting va cho'zmasdan ko'rikka keling.

– Qayerga?

– Qayerga bo'lardi, albatta, shu yerga. Tushunganingizdek bu yerga, asosan telbalar emas, aqllilar keladi. Asl telbalar ko'chalarda kezib yuribdi. Olov sochayotgan olov askarini bee'tibor qoldirib bo'lmaydi, shunday emasmi?

Yuzida tabassum paydo bo'ldi. Boshini egib, biroz o'ylagandan so'ng qaror qabul qilgandek ohangda ko'zimga qarab gapirishni boshladi.

– Yaxshi, kelishdik. Men ham qachondan buyon shifokorga borishni o'ylayotgandim. Kech qolgan bo'lsam ham kelaman endi. «Hechdan ko'ra kech» deb kattalarimiz bekorga aytishmagan.

– Yomon bo'lish juda qiyin! Yaxshilar buni tushunmaydi.

– Qarang, siz bilan yana bir marta gapimiz bir yerdan chiqdi. Yomonlik juda qiyin.

– O'zim ham yaxshi emasligimni bilaman, bugungi qilgan ishlarimdan ham yaxshi emasligimni ko'rdingiz. O'zini bilamaydigan bir qiz chiqdi, ichkaridan. «To'lov pulini qaytarib bering», dedingiz. Sal qolganda qizning qo'lidan ushlab otardingiz. Har qanaqa bemorga ham qaramaysiz, shekilli. Yoqtirmasangiz, ol-da pulingni jo'na, deysiz.

Pulingni ol-da, jo'na? Demak, boyagi qiz bilan bo'lgan jarayon tashqaridan shunday ko'ringan. Boshqa bemorlar ham shunday deb o'yladimikan?! Pul to'lagan bo'lsa-da o'ziga yoqmaydigan bemor bilan ishlamaydigan bir shifokor. Ustiga-ustak u shifokor psixiatr! Yo tavba! Men, aslida, unday inson emasman. Nima bo'ldi bugun menga o'zimni bemorlarga shu ahvolda tanitdim.

– Siz ham qolishmaysiz!

– O'zimga o'xshagan shifokor bilan uchrashaman deb hech o'ylamagandim.

Shunday deb o'rnidan turdi. Shu payt majlislar uchun mo'ljallangan stoldagi idishga solingan tasbehga ko'zi tushdi. Stolga yaqinlashib, tasbehlarga yanada yaqindan qaradi.

– Yoqtirasizmi, tasbehlarni? Va yana hovuchimdagi tasbehni ham ko'rди, qo'limni ochib unga uzatdim.

– Albatta, qarang, bu yerda ham bor. Siz qabulxonada tinmay tasbeh yurgizarkansiz, men ham ayni o'sha ishni qilmoqchi edim.

– Demak, shu paytgacha sabr qilyapsiz. Ayollarda bunga toqat yo'q deb o'ylarkanman.

– Men siz bilgan ayollardan emasman!

Birdan qahqaha otib yubordi. Bu safar men ham kuldim. Rahmatli ustozim Laylo Zilali esimga tushdi. Ular tasbeh

o'girmasdilar, aksincha, rangli qalamlari bor edi. U qalamlarni sira qo'lidan qo'ymasdi, doimo o'sha qalamlar bilan yonidagi qog'ozlarga nimalarnidir chizib o'tirardi. Kalta, orqaga silliq qilib taralgan kir sochlari va kalta ipak ko'ylagining ichiga yashiringan tanasiga hayron qararkan, nega bunday qilganiga tushunolmasdim. Yosh edim. Hozir men ham insonlarni eshitayotganda qo'lim nimalarnidir qidiradi. Bir kuni yaxshi ko'rgan bemorlarimdan biri qo'limga tasbeh tashlab ketdi. «Buni oling doktor xonim, birovlarining dardini eshitish oson emas, sizga yordam beradi», dedi. O'sha kundan buyon qo'limdan tushmaydi. Meni uzoq vaqtdan beri biladiganlar allaqachon bunga ko'nikib qolgan, ammo yangilari juda hayron. Ayol kishining qo'lida tasbeh ko'rish juda hayratlanarli.

– Siz, haqiqatan, men tanigan ayollardan emassiz. Bir ayolga taslim bo'laman deb o'ylamagan edim. Hayot juda g'الاتi! Vaholanki, juda yomon vajohat bilan kelgandim bu yerga. Mayli, muolajaga kelaman, lekin juda uzoqqa cho'zilib ketmasin. Mendan nima talab qilinsa hammasini bajaraman. Faqat siz ularga ayting, menga to'g'ri munosabatda bo'lsinlar.

– Ho'p, sizni tushundim, sizga buyruq bermaydilar nima gaplari bo'lsa, yuzingizga ochiq gapirishadi.

– Yo'g'e ja unchalik emas.

– U holda siz ularni avval hurmat qiling keyin ular ham sizga yaxshi munosabatda bo'ladilar. Esingizdan chiqmasin ular mening kotibalarim.

– Mayli, mayli.

– Bo'lmasa men iloji boricha oldinroqqa navbatga yozishga harakat qilaman. Hulya xonimning dori qog'ozlarini ham hozir yozib beraman. Ayolingizga mendan salom ayting, hech menga telefon qilmaydi biror savoli bo'lsa menga bexijolat qo'ng'iroq qilishi mumkin, men, albatta qaytib chiqaman.

– Katta rahmat sizga, doktor.

Salonga birga chiqqanimizni ko'rgan Dedem darhol o'rni-dan turdi. Shu kishiga oldinroqda muolaja uchun kun belgilab berishini so'radim. Kompyuterdan eng yaqin muddatni topib,

qog'ozga yozib u kishiga uzatdi. Aslanbey ketarkan minnatdorchilik bilan qo'limni siqdi.

– Tanishganimizdan xursandman.

– Men ham Aslanbey.

So'ng Didemga yuzlandi:

– Xayrli kech xonim, Tuna xonimga uzrimni yetkazib qo'ying.

Didem bunday vaziyatdan hayratda, ko'zlarining qiri bilan menga qararkan, u kishi bilan xayrlashdi. Aslanbeyni kuza-tib, qabulxonani ko'zdan kechirdim hech kim qolmagan edi. Didem ketishga tayyor. Ikki yonida osilib turgan sochlari chiroqlar yorug'ida yaltirab turardi.

– Didem, boshqa shifokorlar ketishdimi?

– Jengizbey bilan Mehmet Akifbeyning huzurlarida odam bor, qolganlari ketishdi.

– Sen pastga tush. Tunani menga jo'nat, qo'ng'iroq qiladigan bemorlarimiz bor.

– Xo'p xonim, yaxshi qoling.

– Yaxshi bor.

Xonamga kirib eshikni yopdim. O'rindig'im tomonga o'tarkanman, derazamning oldiga kelib, Anqara oqshomini bir zum tomosha qildim. Shu onda uyga ketishni juda xohlardim, lekin yig'ilishim bor. Telefon jiringladi. Tuna joyiga keldi, shekilli. Yana Tuna birin-ketin meni qidirgan bemorlarni navbati bilan telefonga bog'lashni boshladi. Telefon qo'ng'iroqlari tugagach, bu safar go'shakni o'zim qo'ydim va Tunani yonimga chaqirdim. Eshik ochilgach, unga peshvoz chiqib quchoqladim. U ham meni quchoqladi. Stolimning ro'parasidagi yumshoq o'rindiqlarga o'tirib, suhbatlashdik. Bo'lib o'tganlarni eslarkanmiz, qahqaha otib kuldik. Hamon Aslanbeyning salomidan sarxush edik. Shu payt o'g'lim Hasan ochiq turgan eshikdan qo'lida narsalar ko'tarib kelib qoldi. Orqasidan esa psixologlar. Bugungi voqealar tez tarqalgan, shekilli, mendan nima bo'lganini so'rashardi. Tuna bu fursatni boy bermasdan hammasini birma-bir tushuntira boshladi. Deraza yonida tur-

gan o'g'lim tabassum qilar, ko'z qiri bilan menga qarab, Tuna-ni eshitayotgandi. Suhbatning tugamayotganidan bezovtalanib, soatini menga ko'rsatdi. Dadasiga o'xshab sergap emas, yuragi siqiladi.

Hasan yozning jazirama kunlarida dunyoga keldi. Sochlari tim qora, ko'zlari ko'm-ko'k edi. Yangi tug'ilgan chaqaloqning sochlari va kipriklari bunday quyuq va qalin bo'lishi barchamizni hayratda qoldirdi. Uning sochlari hali ham qora, lekin ikki yoshigacha ko'k bo'lgan ko'zlari vaqt o'tishi bilan qorayib ketdi. Teran fikrlaydigan, kam gapiradigan, qancha gapirmasin, hech qachon ichki kechinmalarini ko'rsatmaydigan ozo-da va kelishgan yigit.

Bir inson bunchalik kam gapira turib, faqat qarashlari va xatti-harakatlari orqali odamlar bilan qanday yaqin va samimiy munosabatda bo'la olishi mumkin?! Shu kungacha buni na men bila oldim va na boshqalar. Aslida, u mana shu tashkilotning asosiy mudiri bo'lsa-da, yolg'iz qolgan paytimiz u barcha hamkasblarimning erkatoyi. Ular Hasanni cho'lpillatib o'pishni yaxshi ko'radi. Ayniqsa, Tuna. Boshqalarning yonida Tuna xonim deb murojaat qilgani bilan yolg'iz qolganlarida Tuna Hasanning xolasi. Tashqaridan og'ir bosiq, odamoviroq ko'rinsa-da, aslida, unday emas. Og'limning o'rtoqlari ko'p ekanini sezardim, lekin otasini yo'qotgan paytimiz uyimizga Hasanning ortidan tinimsiz kelgan yigitchalarni ko'rib, juda hayratda qoldim.

Hasanning bu kichik ogohlantirishidan so'ng hammamiz birga xonamdagi majlis stoli atrofiga yig'ildik. Maslahat qilinishi kerak bo'lgan ko'p masalalar bor. Majlis kim biladi soat nechida tugaydi. Uyga har doimgidek yana kech qaytaman, shekilli. Aydin bo'lganida edi: «Ishxonangda yotib qo'ya qolmabsan-da», derdi. Afsuski, u endi yo'q.



Mashinada protokol yo'lidan ohista tushib boryapman. Yo'llarga tuz sepilgan, ammo shunga qaramay haliyam sirpanchiq. Qor eribdi, hamma yoq loyga burkangan. Oyna tozalagichni tez-tez ishlatib, derazalarni tozalashga harakat qilyapman.

Vanihoyat, bir amallab klinikaga yetib keldim. Tashqarida meni haydovchimiz Aydin kutib oladi. Har kuni keladigan vaqtimni biladi va klinika eshigi oldida meni ko'zi to'rt bo'lib kutib turadi. Aydin bilan bir-birimizni qattiq hurmat qilamiz, u juda mehribon. Biroz rangim oqargudek bo'lsa, uning dunyosi qorayadi. Qo'lidan kelsa, meni butun yovuzliklardan hi-moya qiladi. Buni his qilishning o'zi menga o'zgacha kuch va sabr bag'ishlaydi. Mashina eshigini ochib, yiqilib tushmasligim uchun qo'limdan ushlab tushib olishimga yordam beradi. Turmush o'rtog'im kabi uning ham ismi Aydin. Faqat bu emas, klinikamizda shunday ismli yana ikki nafar shifokorimiz bor. Ammo baribir Aydinlarning eng sevimlisi kichik Aydin, ya'ni qizim Yag'murning o'g'li. Bu Aydinlarga mehrim bo'lak.

Ehtiyotkorlik bilan oyoqlarim uchida qadam tashlab ichkariga kiraman. Qanday soz, klinikaning ichkarisi issiqqina! Aslida, bahor kelib bo'lgan, mart ham oxirlab qoldi, biroq bu yil qish hech o'rnini bergisi yo'q. Bemor qabulxonasida o'tirgan Nabi yugurib kelib, lift eshigini ochadi, shu payt qisqa bo'lsa-da, hol-ahvol so'rashga ulgurib qolamiz. Lift to'rtinchi qavatda to'xtaydi. Tuna joyida o'tiribdi. Ikkita telefonda birdan gaplashayotgan paytda ham menga tabassum bilan bosh silkib, salomlashadi. Zalning har yoni gullarga to'la! Avvallari

bu mavsumda gul topish qiyin bo'lardi, hozir esa qolgan narsalar kabi gullarning ham mavsumi yo'q.

Xonamga kirishim bilan paltomni yechib, joyimga o'tiraman. Bir yondan kompyuterimni yoqib, bir tomondan qahvaxonaga qo'ng'iroq qilib, qahva so'rayman. Stolim usti yana tartibsiz. Ish stoli bunchalik tartibsiz bo'lmaydi. Ammo menda unday emas! Qizim va ikki kichkintoyimning suratlari, bronzadan yasalgan, mayda zumrad toshlar bilan bezatilgan qurbaqalarim, shamdonlarim, uchi tukli eski qalamim, billur tana o'laroq o'yilgan Otaturk rasmi, pastki qismi bronzadan yasalgan sariq stol chirog'im, ichi qalamlarga to'la mis qalamdonim, tashrif qog'ozlarim solinadigan bronza idishcha, retsept, muhr, kompyuter degandek... Xullas, harakat qilishim uchun umuman joy qolmabdi, hisob. Shoshgancha barchasini joyiga qo'yarkanman, ko'zimning qiri bilan kompyuterdagi ro'yxatga qarayman, yana horg'in bir ish kuni bo'larkan. Shu payt eshik oldida Tuna ko'rinadi:

- Xush kelibsiz, xonim, yaxshimisiz?
- Rahmat, yaxshi, Tuna, o'zing ham yaxshimisan?
- Rahmat, yaxshiman. Yo'llar juda yomon ekan, qiynalmay yetib keldingizmi ishqilib?
- Keldim, keldim.
- Gullarni ko'rdingizmi?
- Ko'rdim, yana o'sha qizdanmi? - deyman.
- Ha, undan. Klinikaga yomg'ir o'rniga gul yog'yapti. Gullar ham mayli, bugun qayta-qayta qo'ng'iroq ham qildi. Ertalabdan beri beshinchi marta qo'ng'iroq qilishi bo'lsa kerak. Bu qizni nima qilsak bo'ladi?
- Nima xohlayapti o'zi?
- Siz «Pulini qaytarib bering», degan ekansiz, ammo u shuncha talablarga qaramay pulini qaytarib olmabdi. Hozir ham qayta-qayta uzr so'rayapti va yana qabulga kirmoqchi.
- Qabulga kirmoqchimi?
- Kirishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas? Hali uning uchun qabul belgilaganim ham yo'q, bu qiz bilan muo-

mala qilolmaydiganga o'xshayman. Lekin chaqirmasak ham o'zi kelaveradi.

– Qanday kelar ekan?

– «Keladi, kechgacha shu yerda o'tiraveraman, qo'limdan tutib chiqarib tashlashmaguncha hech qayerga ketmayman», deyapti.

– Hali shunaqami?

– «Qabullar to'lgan, bir oy davomida kela olmaysiz», deb aytdim, lekin bu qizning qulog'iga hech gap kirmas ekan. Aniqki, pulini ham ataydan qaytarib olmagan. Har o'n daqiqa-da qo'ng'iroq qiladi, sizga bog'lab berarmishman, sizdan bir marta uzr so'ramoqchi ekan.

– «Doktor sizni kechiribdi, uzr so'rashga hojat yo'q», deb ayt. Agar xohlasa, psixolog Soliha xonimning qabuliga yozib qo'y.

– Xohlamayapti, necha marta aytdim, «Bu yerda ishlaydigan boshqa shifokorlarning qabuliga yozib qo'yishim mumkin», dedim, ammo natija chiqmadi. Siz qahva ichdingizmi?

– Yo'q, hali ichmadim. Lekin qo'ng'iroq qildim, hozir kelib qolsa kerak.

– Yana Aslanbey masalasi ham bor.

– Unga nima qilibdi?

– Biroz avval turmush o'rtog'i qo'ng'iroq qildi. Sizga salom aytdi. «Doktor xonimdan Alloh rozi bo'lsin», dedi.

– Demak, Hulya xonim qo'ng'iroq qildi degin, shoshmaylik, hali hech narsa qilmadik, umid qilamanki, yaqin kunlarda Hulya xonimga ham foydamiz tegib qolar.

– Bugun Aslanbeyning qabul kuni. Ayol bechora shunga qo'ng'iroq qilgan ko'rinadi. «Iltimos, doktor xonim qo'lidan kelganini qilsin, balki boshqa imkon bo'lmas», deyapti.

– Qo'limdan kelganini qilaman, xavotir olmasin.

Shu payt Nevin qo'lida patnis bilan kirib keladi. Xonamga qahvaning totli ifori yoyiladi. Qahvaning isi ham menga yoqimli tuyuladi. Endi o'zimni ancha yaxshi his qila boshlayman.

Ko'p bemor bor, tezroq ish boshlashim kerak. Uchrashuvlarni almashtirsam, bemorlarim ko'p kutib qolishadi, bundan

men ham xafa bo'laman. Chuqur nafas olaman, o'rindiqlar qaddimni tik tutib joylashib olganimdan so'ng bir daqiqaga ko'zlarimni yumaman. Didimning¹ o'sha ajoyib dengizlarini o'ylayman. Qoyalarga urilgan to'lqinlar ovozlari qulog'imda yangraydi, go'yo. Hayotning chang va g'uborlaridan qutulib, poklanishim va ana shu pokiza holatimda bemorlarimni tinglashim kerak. Bo'ldi, tayyorman, birinchi bemorni qarshi olaman.

Avval ichkariga bir yigitcha kiradi. Yigirma yoshlarda, chiroyli, kelishgan va yoqimtoy yigit. Bu yerga ilk marotaba kelishi. Biroz qiziquvchan, biroz xijolatli hamda menga beqaror ko'zlari bilan qaraydi. Tik turib, tabassum bilan qo'llarini siqaman, biroz egilib hurmat bilan qo'llarimni siqadi u ham. O'tirishi uchun qarshisida turgan o'rindiqlarga ishora qilaman, men o'tirmaguncha o'tirmaydi. Yaxshi oilada, chiroyli tarbiya ko'rgan yigit, lekin zamonaviy... Psixiatrga birinchi marta kelayotgani ko'rinib turibdi. Kompyuterga qarayman, ismi Ali, negadir familiyasi menga juda tanish tuyulyapti. Hali hech narsa demasimdan qulog'imga zaif tovushlar eshitiladi. «Dadam bo'ladi», deydi Ali. «Siz dadamni taniysiz, ancha muddat oldin qabulingizga kelgan». Demak, adashmabman, bu yigit Memduhning o'g'li.

Memduh bundan olti yil avval qabulimga kelgandi. O'sha paytlar turmush o'rtog'idan endigina ajrashgandi. Juda yosh uylangani uchun hayotda hech yolg'iz yashab ko'rmagan ekan, biroz odamovi va uyatchan erkak, shu bilan birga juda ozg'in va asabiy... Hayot bilan kurashda doim ortda qolar, avval oilasining, keyin esa ayolining orqasiga berkinib yurgan, boshi devorga urilishi bilan tasallini ichkilikdan izlar, turmush o'rtog'ining ajrashish haqidagi taklifini ham o'zi istamagan holda yo'q deyishni, isyon qilishni, kurashishni bilmagani uchun darrov qabul qilgan, natijada o'zi yolg'iz qolgandi. Bir yil davomida qabulimga har hafta kelib turdi. Ikki o'g'li bor edi. Farzandlariga juda mehribon edi, ammo ularga ham

¹ Aydin viloyatining tumanlaridan biri.

tuyg'ularini ochiq ko'rsatolmasdi. Katta o'g'li u bilan unchalik qiziqmasdi. Kichigi esa tez-tez otasini ko'rgani kelar, qo'lidan kelgancha uni qo'llashga harakat qilardi. Ota o'g'ilga emas, o'g'il otaga yordam berardi.

O'ziga bir uy olibdi, vaqt o'tib yolg'iz yashashga ham ko'nikibdi. Uyini yaxshi ko'rardi. Kichik, oddiy bir tom ostida yashardi. Insonlardan imkon qadar uzoq turar, majbur bo'lmaguncha uyidan chiqmas, faqat kichik o'g'li hafta oxirida uni ko'rgani kelgani uchun do'konga borib, uy uchun nimalardir xarid qilar, hatto farzandiga makaron pishirib berardi. Aslida, yaxshi bir kasbi bor edi, biroq xorijda olgan diplomlari uning bu hayotda dadil yashab qolishi uchun kamlik qilgan, boshqalar kabi yuzma-yuz kurashishni, hayot bilan jang qilishni uddalay olmagan, doim mag'lub bo'lgandi. Yutqazganini, bu jangda g'alaba qozona olmaganini juda yaxshi bilar va bundan uyalardi. Aslida, boshqalardan emas, o'zidan qochmoqchi edi. Eng ko'p unga qayg'uradigan o'g'lidan uyalardi. Ham ko'zi to'rt bo'lib, hafta oxiri bo'lishini, farzandi kelishini kutadi, ham unga qanday munosabatda bo'lishni, nima deyishini bilmaydi. Ichkilik ichgan shishalarini o'g'li ko'rmasligi uchun yashirib qo'yardi. U o'limni intizorlik bilan kutar, ammo otasi o'z joniga qasd qilgan, demasliklari uchun ulkan sabr va qahr bilan bu dunyoda o'tkazayotgan vaqti tezroq tugashini so'rab duo qilardi.

Ehtimol, hayotida ilk marotaba bu xonada o'zi nafratlanagan, yomon ko'rgan odamni, ya'ni o'zini anglatishga urinar, bu kechinmalardan qutulishni istagandek siniq ovoz hech to'xtamasdan o'zini o'tdan cho'g'ga urar, dunyoga kelgan kuniga la'natlar aytardi. Xuddi himoya reflekslarini butunlay yo'qotganga o'hshardi. Uni himoya qilish tugul mening ham uni ayblashimni, kamsitishimni xohlardi. O'zi haqida ijobiy fikrlar eshitishga aslo toqat qilolmasdi. Yil oxiriga kelib uning o'ziga bo'lgan nafrati biroz aridi. Xohlamasa ham bergan dori-larimni ichib ko'rdi. Ichkilikni kamaytirib, kitob o'qishni boshladi. Kitoblar unga eng yaxshi doridan ham yaxshi dar-

mon bo'ldi. O'zini unutdi, bilimga, adabiyotga, san'atga qiziq boshladi. Hatto kasbi bilan bog'liq bir mavzuda tadqiqot o'tkazdi va yozgan maqolasi Amerikaning mashhur jurnallaridan birida chop etildi. Bundan bir-ikki yil avval o'sha jurnalni menga yubordi va bu u bilan so'nggi muloqotimiz bo'ldi. Uni tabriklash uchun qo'ng'iroq qilganimda kayfiyati juda yaxshi edi. «Sizga ayta olmaganlarimni ham yozyapman», degandi, o'shanda menga. Qadrdon Memduhga nima bo'ldi ekan?

Hali so'ramasimdan xuddi dadasinikiga o'xshagan siniq ovozdagi Ali so'z boshladi, o'tgan yil shikoyatlari boshlanibdi, ammo doktorga borishga ko'nmabdi. Ali ham uni shifokorga olib borolmabdi. Oxiri, bir kuni dadasining yotoqdan tura olmayotganini sezibdi. Tez yordamga olib borishibdi, u yerda saraton tashxisi qo'yishibdi. Doktorlar «Nega bunchalik kech qoldingiz?» deb so'rabdi. O'sha paytda Memduh tabassum qilibdi. Hozir reanimatsiyada yotgan ekan, o'g'liga mening tashrif qog'ozimni beribdi, «Uning oldiga borishing kerak, sendan so'nggi iltimosim shu», debdi. Yigit ham shosha-pisha qabulimga yozilibdi. Katta o'g'il haqida ham so'radim. Amerikada ekan, bu mavzuga avvalgidek unchalik e'tibor bermabdi. Onasi turmush qurib, Istanbulda yashayotgan ekan. Ali dadasini tashlab keta olmagan uchun Anqaradagi universitetlardan birini tanlabdi. «Dadamni qutqara olmadim, o'z vaqtida doktorga olib kelolmadim», deya ich-etini yerdi yigitcha.

«Eh, Mamduh, eh», dedim ichimda. «Kim biladi, bu dunyodan ketayotganingdan qanchalik xursandsan. Sen hech kimga aytmasang ham qanchalik sog'inchi va sabr bilan o'limni kutganingni yaxshi bilaman. Demak, doktorlar «Nega bunchalik kech qoldingiz?» deganda kulding-a?! Vaholanki, men seni hech kulgan holatda ko'rmagandim. Yashab kulmasdan o'layotib kulish qanday qismat ekan-a? Bilaman, o'g'lingni xafa qilishni istamaysan. Sen o'layotganda Ali xafa bo'lsa, chin qalbdan kula olmagan, orziqib kutilgan visolga yetishgan kabi yugurib ketayotganing o'lim ham ichingga sig'maydi». Ichimdan nimadir uzildi, keyin ko'zlarim qarshimda jimgi-

na o'tirgan Aliga qadaldi. Memduh uni Alish derdi. Men ham shunday chaqiraman. Gapirishni boshlashim bilan dard to'la ko'zlari bilan boqadi. O'sha dard mening ko'zlarimda ham zo-hir. Sekin-sekin, pichir-pichir gaplashamiz Alish bilan. Seans davomida ko'zlarini ko'zlarimdan olmaydi.

Ketish uchun o'rnidan turganda yana bir-ikki daqiqa o'tirishini iltimos qilaman. Chunki dadasi Memduhga mak-tub yozmoqchiman. Taklifim unga ham ma'qul kelib, kres-loga o'tirgancha qiziqish va mahzunlik bilan meni kuzatadi. Shosha-pisha tortmadan maktub uchun qog'oz olib, tez-tez yozishga kirishaman. Aslida, unga nima yozishni bilmayman. Qo'yib beraman, qalam ichimdan nima kelsa o'shani yozsin...

Qadrli Memduh, yil davomida biror marta yuzingizda ta-bassum ko'rmagan edim. Ammo hozir kulayotgan ekansiz. «Odam kabi yashay olmadim, umid qilamanki, odamdek o'lish-ni uddalayman», degan edingiz menga. Orqangizda qolganlar bundan qiynalishi aniq, lekin aytganingizni qiladigan ko'rina-siz. Kitoblarimda zarif, tuyg'uga boy, uyatchan va siniq ko'ngilli bu inson haqida, albatta, yozaman. Aybga buyurmang, o'zingiz sevmasangiz ham o'quvchilar sizni juda yoqtirib qoladi. Xuddi Alish kabi... Alish sizga o'xshashidan doim qo'rqardingiz. Alish ham siz kabi kelishgan va hislarga boy inson, ammo xavotir ol-mang, uning tirnoqlari siznikidan ancha uzun. Hayotni, aniqki, mahkam tutadi va o'zi judayam yaxshi ko'rgan dadasini unut-maydi. Qanot qoqib uchadigan kun kelguniga qadar uning yonida bo'laman. Bu dunyoni kulib tark etish faqat sizga xos. Bunga nisbatan behurmatlik qilish mumkinmi? Cheksiz hur-mat bilan...

Dr. Gulseren

Yozganlarim o'zimni qattiq ta'sirlantirib yuboradi. Ichim-da nimadir qattiq titraydi. Qaniydi, ko'zlarim bu ishga ara-lashmay tursa deyman, biroq boshimni ko'tarishim bilan Ali ikkimizning nigohlarimiz to'qnashadi va bir-birimizga qara-

gan qorachilqlarimiz nam. Maktubni konvertga solib, Alining qo'llariga uzataman. «Ehtimol, bu maktubni unga o'zing o'qib berarsan», deyman. Maktubni ehtiyotlab joylarkan, boshini silkiydi, xonadan chiqishda biroz ta'zim qilib, qo'llarimni siqib qo'yadi. «Yana bir marta qabulga kelmaysanmi?» deb so'rayman, «Hozircha ro'yxatga yozilmay turaman, keyinroq, albatta, kelaman», deydi. Nima demoqchi ekanini tushunaman, dadasidan keyin kelmoqchi.

Ali chiqqach xonamning eshigini yaxshilab berkitib bir muddat eshikka suyangancha qolaman. Ichimda mahzunlik bor. Xayolim faqat Memduhda. Hozir ko'zlarini yumib yotgan bo'lsa kerak. Bilaman, ko'zlarini osonlikcha ochmaydi. Bir marta ranjidi. Biroz vaqt o'tib, xohlasa ham u ko'zlar ochilmaydi.

Keyingi bemorni qabul qilishdan oldin o'zimga kelib olishim kerak. Nima qilsam ekan-a? Tez joyimga qaytaman va hali yarmi ham ichilmagan qahvamdanda bir qultum ho'playman. Qahva muzlab ulguribdi. Axir, qahva yaxshi kayfiyat bilan ichiladi, bunday mahzunlik bilan ichilmaydi-ku... E'tiborimni katta-kichik bronza qurbaqalar tortadi. Navbat bilan hammasini qo'limga olib, aylantirib, diqqat bilan qarayman. Stolimda hozircha hamma narsa o'z joyida turibdi. Oqshomgacha kim biladi, bu stol qay ahvolga kelar ekan? Uyda ham shunday. Qay joyga borsam o'sha yerni to'zitib yuboraman. Chizib o'qiganim uchun kitoblar ham mening qo'limda yig'ilgisi keladi. Vaholanki, tartibsizlikni yoqtirmayman. Ham to'zitib, ham tartibga keltiruvchilardanman.

Mana, ancha yaxshiman, endi keyingi bemorni qabul qilsam ham bo'ladi. Telefon orqali Tuna bilan bog'lanaman. «Navbatdagi bemorni ichkariga kiritishing mumkin», deyman. «Ichkariga o'zim kiryaapman», deydi Tuna. Birozdan keyin qo'llarida katta guldasta bilan kirib keladi. Har birini alohida guldonlarga joylashtiradi, ammo gullarning keti hech uzilmaydi. Biroq oxirgi va eng katta guldastani qo'yishga na joy, na guldon topiladi. Bu esa Aslanbeydan kelibdi. Hammasiga qaramasdan bu odamga nisbatan menda iliqlik paydo

bo'ldi. Jahldor bo'lsa ham uning qandaydir pozitiv bir tomoni bor. Ko'ramiz, bugun menga nimalarni aytib berarkin? Tuna navbat Aslanbeyniki ekanini aytib, uni ichkariga kiritadi. Endi ikkisining orasida hech qanday muammo qolmadi, chunki Aslanbey menga yuborgan gullariga o'xshash gullardan unga ham jo'natibdi.

Nim tabassum bilan ichkariga kiradi, lekin shunda ham yuzidagi asabiylikni his qilib turaman. Egnida kulrang kostyum-shim, oppoq ko'ylagining yoqasi biroz ochiq, bo'yinbog' taqmadbi. Chakkalaridan boshlab oqargan sochlari orqaga qilib, tekis taralgan. Yana ham salobatliroq ko'rinadi. Ismi naqadar jismiga monand bo'lmasa bu odamning! U ichkariga kirgan paytda insonning qalbiga farahbaxshlik beruvchi atir isi xonani tutib ketadi. Qo'limni mahkam siqib qo'ygach, stolning oldida turgan o'rindiqlardan eshikka yaqiniga o'tiradi. Qo'lida yana sariq tasbehi bor. Hali men undan hech narsa so'ramay turib, u mendan hol-ahvol so'rashni boshlaydi. Sigaret sabab biroz yo'g'onlashib, bo'g'ilgan ovozida doim g'amnoklik va bu g'amginlikni yo'qotish istagi bilan kelgan jahl ham seziladi.

Keyin oqshomgacha buncha kishini tinglashga qanday kuch topayotganim haqida so'raydi. Kulib qo'ya qolaman. Suhbatimiz to'xtab qolishini xohlamaydi. Demak, unga savol berishimni istamadi. Yoki savol berishimdan qo'rqadi. Mayli, so'ramaganim bo'lsin. Unga choy yoki qahva taklif qilmoqchi bo'laman, ammo buni ham qila olmasam kerak. Telefon orqali o'zimga bir stakan choy so'rar ekanman, qo'l ishoralari bilan shivirlagancha undan ham nima xohlashini so'ragan bo'laman. «Shakarsiz va finjonda bo'lsin», deydi. Stolimda unga to'g'ri qarab, qo'llarimni birlashtirib, iyagim ostiga qo'yaman va shunday joylashib o'tiraman. Nigohlarimda biroz qiziqish, nima haqida va qancha gapirsa ham uni ayblamasligimni bildiruvchi mehribonlik bor.

Tasbehni oldida turgan stolga tashlarkan, chuqur xo'rsinadi. Bir daqiqada go'yoki qayerda ekanini unutib qo'ygan

kabi o'ngga yoki chapga qaraydi. Qo'llarini tizzalariga qo'yib, boshini biroz eggancha gapirishni boshlaydi. Onasini erta yo'qotgani, o'gay onalar, o'gay opa-uka, aka-singillar, o'sha paytda boshidan o'tkazgan nohaqliklar, adolatsizliklar bilan to'la hayoti. O'zidan boshqa uni himoya qiladigan va qo'llaydigan odam bo'lmagani uchun o'zini taniy boshlashi bilan hamisha himoya «zona»sida qolgan. O'z kuchi va kurashi bilan qiyinchiliklar ichida universitetni tamomlabdi. Bir qancha sinovdan keyin hozir ishxonasiga ishga kiribdi. Yutuqlari, mehnatsevarligi va yuksak axloqi bilan hammaning ko'nglidan joy olibdi. Boshliqlari unga juda tez ishona boshlabdi va oxiri, shirkatning eng oldi insonlaridan biriga aylanibdi. Birga ishlagan xodimlarni kamsitmabdi, boshliqlarga doimo hurmat saqlabdi va eng muhimi, har doim hammadan ko'p ishlabdi. Ish taqozosi bilan butun Turkiyani kezib chiqibdi. Ko'pincha talabga javob bermaydigan mehmonxonalarda tunab qolibdi. Topgan pulini bekor narsalarga sarflamabdi. Doim pul yig'arkan-u, oxiri o'ziga ishlatmoqchi bo'lganda yaqinlari uchun sarflashiga to'g'ri kelarkan.

Turmush o'rtog'i bilan o'z istagiga ko'ra va sevib turmush quribdi. Hali ham unga bo'lgan muhabbati zarracha kamaymaganini aytadi. Yoshligidagi bir-ikki voqealarni aytmasa, xotiniga hech qachon xiyonat qilmagan, mayxonalarda tunamagan ekan. Ko'zlariga qarab turib, uni har oqshom mast bo'lgan, deb o'ylaysan kishi, aslida, u ichishni yoqtirmaydi. Ko'p sigaret chekadi. So'ngra uch yil farq bilan ikki o'g'li dunyoga kelibdi. «Bolalarni men emas, turmush o'rtog'im katta qildi», deydi u, farzandlari biroz ulg'aygach ular bilan shug'ullanishni boshlabdi. Bolalariga qanchalik ko'p vaqt ajratmasin, negadir u istagandek bo'lib yetishishmabdi. Ishxonasida hammaga akalik, kerak bo'lsa otalik qilgan bu inson uyida na bolalariga, na rafiqasiga o'sha bag'rikenglikni ko'rsata olmabdi. Zero, ishidan tashqari barcha munosabatlarda hech kimga yaxshi muomalada bo'lmas, odamlarni tez ranjitar va janjallashar ekan.

– Bolalar har qanday mavzuda menga itoat qilishlarini istayman, axir ularning otasiman. O‘zimdan ham ko‘proq ularga qayg‘uraman. Men biror narsa deyayotgan bo‘lsam buning biror sababi borligi aniq.

Shu yergacha uning gaplarini bo‘lmasdan eshitaman. Nevin choylarni allaqachon olib kelgan. Ikkimiz ham ustida «tutun»lar kezib yurgan choylarimizni ho‘plab-ho‘plab ichamiz. Finjondan choy ichishni yoqtirmayman. Ingichka belli stakan bo‘lsa-yu, rangini ko‘rib tursam. U shakarsiz choyni yoqtirarkan, men bir emas, ikki dona oqqandni birdan stakanga otaman. Choyga qandni aralashtirayotganimda u o‘zgacha nigoh bilan qaraydi. Eh, Aydin, eh, hammasiga sen aybdorsan. Meni shirin choy ichishga sen o‘rgatib qo‘yding.

– Doktorlarning hammasi shunaqa bo‘ladi. Aytganlarini qilasiz-u qilganlarini qilmaysiz.

– Haqsiz, ammo aytganlarimizni qilib-qilmasliklari alohida mavzu.

– Hamma aytganingizni ham qilavermaymiz-ku...

«Mana endi nega bunchalik asabiylashganing aniq bo‘ldi, Aslanbey», deyman ichimda. «Uzun-uzun nutq so‘zlab, nasihatlar berishimdan qo‘rqyapsan». Avvaldan hamkasblarimizning ko‘pchiligi shunday qilar ekan. Balki, hali ham shunday yo‘l tutuvchilar bordir, lekin menimcha bunday qilmasligimiz kerak. Nasihatni kim tinglabdiki, psixiatrqa kelgan odam tinglasin? Biz ularga amakilari, xolalari, ota-onalari, do‘stlari aytgan gaplardan farqli so‘zlashlari kerak. Ularga o‘zlarini o‘zlari bilan bog‘liq bilmaganlarini ko‘rsatishimiz kerak.

Endi asta-asta gaplashishni boshlasam ham bo‘laveradi.

– Kim birovning hamma aytganini qilgan ekanki, siz shunday qilishingiz kerak, Aslanbey? Garchi siz bolalaringizdan qat‘iy talab bilan aynan shuni istayotgan bo‘lsangiz ham o‘zingizga kelganda hammasi o‘zgaryapti. Avvalo, shuni tushunishingizni istagan bo‘lardim. Men ayblovchi emasman. Hech kimni ayblamayman. Shunchaki «Nega?» deb so‘rayman. Buni ham sizdan emas, o‘zimdan so‘rayman. Nega? As-

lanbey nega bunday qilyapti? Bolalariga yelkalari ustida turgan miyalarini ishlatishga nega ruxsat bermayapti?

Bu so'zlarim qarshisida bir daqiqa nima deyishini bilmay qoladi. Oqlari pushtiga aylangan ko'zlarini katta ochib, biroz hayrat va jahl bilan yuzimga termiladi.

– Meni noto'g'ri tushunibsiz. Miyalarini mening yonimda emas, ko'chada boshqalarning oldida ishlatishsin. Tahlika uyda emas, ko'chada.

– Ularni ta'sirlantirgan, xarakterlari shakllanishida hissa qo'shgan ko'chadagilar emas, sizlarsiz. Siz ular uchun namuna ramzisiz. Yoki bunga bo'yin egib, isyon etishni, o'z istaklari va fikrlarini hayotga tatbiq qilishni butunlay rad etishadi yoki isyon qilishadi. Buning o'rtasida yo'l yo'q.

Bu gapim uni o'ylantirib qo'yadi. Qo'lini tizzalarining oldiga qo'yib, biroz oldinga va orqaga harakatlanib, uzoqlarga qaraydi. Menimcha, nima demoqchiligimni tushundi. Aslida, u yaxshi ota bo'lishni, bolalarini munosib voyaga yetkazishni istagan. O'zining ham otasi bo'lgan, ammo hech qachon unga otalik qilmagan ekan. Doim ota-onasi bor bolalarga hasad qilib kelgan. Hozir esa o'z sog'inchlarini bolalari ham boshdan o'tkazishini istayapti, lekin bu qo'lidan kelmagan ko'rinadi. Ularga tinimsiz tanbeh berarkan, niyati yomon emas. Faqat buni qanday qilishni bilmaydi. Farzandlarini dunyoning yomonliklaridan himoya qilishni istaydi, biroq asl yomonlikni o'zi bilmagan holda ularga o'zi qilyapti. Aslanbey bilan bu mavzuda juda uzoq gaplashamiz. Hatto bir marta unga «Televizorning pultiga o'xshaysiz, bolalaringizni uzoqdan turib boshqarishni istayapsiz», deganimda jilmayib qo'ygandi. Nihoyat, uni tushungan odam topilgani uchun hayajon va jo'shqinlik bilan ham gapiradi, ham meni jon qulog'i bilan tinglaydi.

– Bolalarimizning o'rniga o'ylay, ularning o'rniga biror ish qila olmaymiz, ularning o'rniga baxtli yoki baxtsiz ham bo'lolmaymiz. Xuddi ularning o'rniga o'lolmaganimiz kabi...

Kostyumining har ikki yoqasini ushlab, o'zini orqaga ot-

gandan keyin o'ngga yoki chapga qarab qo'yadi. Xuddi kimdandir, qayerdandir yordam kutayotganga o'xshaydi.

– Siz doim shunday otani orzu qilganmidingiz, Aslanbey?

– Biz ota ko'ribmizmi, doktor xonim? Onam bu dunyoni juda erta tark etdi. Dadamni so'rasangiz, u o'z dardi bilan ovora. Har doim kimsasiz edim. Hatto yolg'iz o'zim ham qololmadim. Buning ustiga, uka-singillar bilan mashg'ul bo'lish, ularning mas'uliyatlarini zimmamga olishim kerak edi. Ul-g'aygach meni unutgan bo'lsalar ham hayot shunday ekan...

– Orzularingizdagi ota shundaymidi?

– Albatta, shunday edi. Meni mendan ko'proq o'ylaydigan otam bo'lsa yomonmi?!

U bilan bog'liq ba'zi haqiqatlarni oshkor qilmay turib, ijobiy tomonlari haqida gapirishim, shunday desa ham aslida, yomon odam emasligini unga ko'rsatishim kerak bo'ladi. Odam o'zini sevmasa, yoqtirmasa, mensimasa, boshqalarga ham joni achimaydi, mehr ko'rsata olmaydi. Hatto bu o'z farzandlari bo'lsa ham! Birinchi kuni bo'lgan voqealarga qaramay uni yaxshi inson sifatida qabul qildim. Bizning ishimizda bemorga qanday qarashingiz juda muhim. Uni yoqtirmasangiz, biror nafingiz tegmaydi. Hozir butun ichki kechinmalarim bilan unga nisbatan hislarimni bo'lishaman.

– Aslida, oilangizga, bolalaringizga qanchalar g'amxo'r, qanchalar marhamatli, himoya qiluvchi, qo'llovchi inson ekaningizni ko'rib turibman. Ko'nglingiz juda ham yumshoq.

– Hech kimga buni ko'rsata olmadim. Siz ilk marta ko'rgan odamingiz bor edi-ku, hamma meni o'sha deb biladi.

– Bu kasbda bo'lmaganimda, balki men ham sizni shunday deb o'ylarmidim. Endi buning mas'uliyati ularning zimmasidami yoki sizning? Insonlar nima qilsin? Ko'ksingizni yorib ichiga qarashsinmi?

– To'g'ri aytyapsizku-ya, inson shuncha yillik turmush o'rtog'ini, dadasini tanimaydimi?

– Rafiqangiz sizni juda yaxshi taniydi, bolalaringizga kel-sak, siz ularni taniysizmi o'zi?

Qarshi zarba yegan bokschi kabi yuzimga qaraydi. So'ngra ko'zlarini shiftga qadab, jiddiy o'ylay boshlaydi. Hamon bi-ror javob topganga o'xshamadi. Gaplarimni jiddiy qabul qil-ganining isboti deb qabul qilsam bo'ladi. Keyin stol ustidagi tasbehini bir-ikki marta aylantirgach, ko'zlarimga tik qarab gapirishni boshlaydi.

– Ular hali bola bo'lsa, bolaning nimasini taniysiz? Ular odam bo'lishi uchun ularga yo'l ko'rsatamiz. Lekin o'ylab qol-dim, men yigirma yoshga yetganimda katta odam edim. O'sha paytda o'zimga tegishli bo'lgan olamim bor edi.

– Ehtimol, o'g'lingizning hali o'z olami mavjud emasdir, agar istasangiz, bu gapning davomini men emas, o'zingiz ayting.

– To'g'ri, chunki bunga ruxsat bermadim.

Xuddi xo'rsingan kabi chuqur nafas oladi. Ko'zlari uzoq-larga termiladi, qo'llarida tasbeh shiqirlab turadi. Sukunatni o'zim buzaman.

– Bolaligingizda va yoshligingizda juda qo'rqqan ko'rinasiz.

– Qo'rqdim.

– Bu yerga birinchi marta kelgan kuningiz meni qo'rqitib o'z qo'rquvlaringizdan qutulishga harakat qilayotgan edin-giz. Xafa bo'lishdan, ranjishdan, rad etilishdan, inson o'rni-da ko'rilmalikdan, yo'q hisobida bo'lishdan, sevilmaslikdan qo'rqasiz. Xato qilishdan, xo'rlanishdan, mensimasliklaridan qo'rqasiz. Yana sanayveraymi?

Tasbehni aylantirishni to'xtatib hovuchining ichiga olib, bor kuchi bilan siqadi. Boshini oldga, orqaga silkitgancha gaplarimni tinglaydi. So'zlab berganlarim uni ta'sirlantirib yuborgan. Ammo unga aytishni istagan gaplarim hali tuga-madi. Hozir qabul qilishga tayyor ekan, unga bilishi, tushu-nishi kerak bo'lgan hamma narsani aytishim kerak.

– Qo'rqqan insondan har doim qo'rqamiz. Chunki uning nima qilishi noma'lum. Qamoqxonalarda yotgan kishilarning aksariyati shu sababdan jinoyat qilgan. Ularning oralarida, hatto bu jinoyatlari bilan maqtanadiganlari ham topiladi. Aslida, shu bilan o'zlariga, o'z ruhiyatlariga tasalli berishni

istaydi ular. Yagona maqsadlari bor, qo'rqoq emasliklarini, jasur ekanliklarini o'zlariga isbotlay olish... Ish joyingizda nega bunday qilmaysiz? Shu yerda, meni ilk marta ko'rgan kuningiz nega ortga chekindingiz, nima sababdan o'z haqiqatingizda sobit turmadingiz?

– «Haq ekaniga ishonmasa, qo'rqadi, ortga chekinadi», dedim. Siz qo'rqmaysizmi?

– Qo'rqmay bo'lar ekanmi? Birinchi kun mendan «Nima, siz Xudomisiz?» deb so'ragan edingiz. Tavba qildim... Men ham qattiq qo'rqaman, ammo yakunda o'z qo'rquvlarim bilan yuzma-yuz bo'lishni uddaladim. Zero, buni bilganimdan so'ng kuchli bo'la oldim. Qo'rqaman, ammo qochmayman. Qochmagach, orada xafa bo'laman, yana ranjiyman, ba'zan ichim titraydi, lekin endi bularning barchasiga chiday olaman. Boshqalar ham xafa bo'lishini, ularning ham yuraklari titrashini o'shanda yana ham yaxshiroq his qilaman. «Yuragi qonagan yagona inson men emasman, yolg'iz emasman», deyman. Qattiq asabiylashgan kunimda ham menga og'ziga kelgan narsani aytgan insonga mehr berib, uni tushunishga urinaman va endi uning ham yuragida qanchalik og'ir jarohatlari borligini ko'ra olaman. Eski Aslanning qo'rqishga haqqi bor edi, ammo oradan ko'p yillar o'tdi. Insoniy qo'rquvlarimiz har doim bo'ladi. Ammo undan ortig'ining keragi yo'q. Harakat qilgansiz va uddalagansiz. Bu kunlarga peshona teringiz bilan kelib turibsiz. Baxtli kunlarda yashashga ham haqqingiz bor. Siz qo'rqib, o'zingizga jahl qilsangiz, boshqalar nima qilsin?

Chap qo'li bilan tizzasiga ohista urib, boshini o'ngga chapga qimirlatgandan keyin mahzun bir tabassum bilan xuddi o'zi bilan gaplashgandek mayin bir ovozda gapira boshlaydi:

– Dunyoning adolatsizligini qarang. Yillar davomida men hal qila olmagan hamma narsalarim haqida ayolim men sabab oldiga kelgan doktor aytib turibdi. Kamiga yana ayol kishi!

Keyin yuzimga qarab ko'zlarimga tik boqqancha gaplarida davom etadi:

– Qabulga yozilib, «telbalar» doktoriga kelishim aqlga sig'masdi. Birinchi marta tanishganimizda juda ta'sirlan-

gan bo'lsam ham bugun qayta qabulga kelish baribir men uchun qiyin bo'ldi. Boshqacharoq narsalar kutgandim va ular meni qo'rqitayotgan edi. Ichimda «Hozir menga uzundan-uzoq «ma'ruza» o'qiydi», degandim. Farzandingizga bunday munosabatda bo'ling, rafiqangizga esa bunday va hokazo... «Meni ayblab, menga nasihat qilishga tushib ketadi», degandim. Xuddi men bolalarimga qilgan munosabatni siz ham menga ko'rsatasiz deb o'ylagandim. Yana qabulga yozildim ham qaytib keta olmadim. Lekin meni yana bir marta hayron qoldirdingiz. O'zingizdagi nashtardan qanchalik mahorat bilan foydalanganingizni o'zingiz sezdingizmi? Keyin yana bir narsa haqida o'ylagandim. «Bu ayol menga bir vagon dori beradi. Bersa ham olmayman», degandim. Hozir shu xonadan chiqmay turib, menga dori berasiz va men uni olaman.

- Bermayman.

- Bermaysizmi? Rostan ham menga dori bermaysizmi?

- Bermayman, axir dori bilan sizda nimani ham o'zgartira olardik.

- Tinchlantiruvchi hammi?

- Ish joyingizda juda xotirjamsiz, nima o'sha yerda dori ichasizmi?

- Yo'q.

- Demak, darmon o'zingizda, agar istasangiz, hammasini o'zgartira olasiz.

- Meni yana bir marta uyaltirdingiz, doktor xonim... Yig'lamaganimga qaramang. Bir ojiza qarshisida bunday qilishni istamayman, ammo ishonavering, bo'g'zimga tiqilib turibdi. Har doim yomon bo'lishga harakat qildim, shunchalik ko'p yomonlik ko'rdimki, «Men ham ulardek bo'lay va shu iztiroblar bitsin», dedim. Ko'rinishim yomon bo'lsa ham ichki olamimni yomon qila olmadim. Insonlarni xafa qilib, ranjitib, eng ko'p o'zimga jahl qildim. O'zimga jahl qilish hech narsani tuzatmadi. Ular o'zlarini kechirmaganim haqida o'ylashdi, aslida esa men o'zimni kechira olmadim. Keyin hammasi ostin-ustin bo'lib ketdi. Ular kim, men kimman, bila olmay qoldim. Yura-

gimga nimadir mahkam joylashib oldi, uni siqib chiqarishni istadim, ammo bo'lmadi. Ularning yaxshiligi uchun qulf taq-sam ham yuragim qabul qilmadi. Bu ishlarning oxirida bari-bir yomon bo'lib o'tsam kerak deb o'yladim.

Tuyg'ularini bunchalar go'zal ifodalamasa! Qaniydi, shu gaplarni yaqinlariga, uni sevgan insonlarga ham ayta olsa!

– Ammo yomonlik sizga umuman yarashmasdi, Aslanbey. Sizga juda torlik qilardi.

– Bilasizmi, menga shu paytgacha yaqinlarimning hech biri «Siz yaxshi insonsiz», demagan. Onamni eslay olmay-man ham. Jigarlarim uchun nimalar qilmadim, lekin ular ham menga «Yaxshisiz», deb aytmedi. Navbat ayolim va bolalarim-ga keldi. To'qson to'qqiz marta xato qilgan bo'lsam bordir bir marta bo'lsa ham to'g'ri ish qilmadimmikin? Doim kimdir chiqib, «Siz yaxshi insonsiz», deyishini kutdim. Axir, o'zimga bu gapni ayta olmayman-ku, hech bo'lmasa, bittangiz chiqib menga yaxshi inson ekanimni ayting. Iltifot uchun so'zlangan jimjimali iboralarni yoqtirmayman. Ularga ishonmayman.

– Aslida yaxshi insonsiz!

– Unchalik ishonmayman bunga... Yelka tutuvchi kim-dir bo'lsa, ehtimol bu haqiqat o'zgarar. O'shanda men ham, olamim ham o'zgaradi. Mana bugun menga o'sha yelkani bu yerda siz tutyapsiz. Meni eng yomon holatimda tanidingiz. «Ayolim kelib, men haqimda aytgan», dedim ichimda. «Kim biladi, meni doktorga qanchalik yomonlagan ekan? Hozir bo-rib unga yomon qanday bo'lishini ko'rsatib qo'yaman», deb ahd qildim. O'zimni yomon qilib ko'rsatdim, ammo shunda ham jasorat bilan yonimda turdingiz, rad etmadingiz, hatto menga yordam berishga, tushunishga harakat qildingiz. Qan-day bo'lganini bilmayman, lekin menga «yaxshisan» degan-dek bo'ldingiz». Qo'rqma, o'zingga jahl qilma, harakat qilding, uddalading, endi sen yaxshi narsalarga loyiqsan», dedingiz. Bunchalik bo'lishini kutmagandim ochig'i. Bu yerda yana bi-roz qolsam o'zimni tutib tura olmayman. Hozir ketyapman, ammo yana qaytib kelaman. Kelishdan oldin yaxshilab o'y-

layman. Balki, ko'p yig'larman. Bu tosh yurakli Aslanning yig'lamaganiga ancha bo'ldi. Ehtimol, o'shanda yuragimga mahkam joylashib olgan yukdan, qorong'ilikdan qutularman. Hozir sizga quruq rahmat aytsam, ichimga singmaydi. Eng ma'quli boshqa hech narsa demasdan bu yerdan keta qolay.

Shunday dedi-yu, ko'zlaridagi yoshni ko'rmasligim uchun yerga qaragancha Aslanbey o'rnidan turdi. Men ham u bilan birgalikda turib, uni eshikkacha kuzatib qo'ydim. Qo'llarimni mahkam siqarkan ko'zlarimga qaradi. Yo tavba, gaplashmasdan, hech narsa demasdan bu ko'zlar menga rahmat aytayotgandi. Bu tashakkurni mamnuniyat bilan qabul qilaman va men ham bulardan qanchalik ta'sirlanganimni, qanchalik xursand bo'lganimni ko'zlariga boqqancha aytaman.

Bu dunyoda Aslan ismli bir odam yasharkan, bugun uni tanish baxtiga muyassar bo'ldim. Shunday qilib, hayotim yana boyidi. O'zimni xuddi ta'mi og'zimda qolgan bir kitobni mutolaa qilgandek his qilyapman. Vaqt qanday o'tganini bilmay qoldim. Soatga qarayman, allaqachon tushlik payti bo'libdi. Oshqozonimda yonish hissi boshlandi, bu olovni nega oldinroq his qilmadim? Bemorlarimning oldida soppa-sog'lom bo'lib qolaman. Oshqozonim ham yonish uchun bemorning chiqishini kutadi. Xonamdan oshqozonimni changallagancha chiqaman. Oshxonada Ayten bilan Nevindan boshqa hech kim yo'q. Stullardan biriga o'tiraman. Ikkisi ham birdan menga xizmat qilishga, oldimga issiq nimadir olib kelib qo'yishga urinadi. Tamaddi qilayotganimda eshik oldida Memo ko'rinadi. Memo, ya'ni psixolog Mehmet Akif Sayilgan. O'ziga choy olishga kelibdi. Meni ko'rishi bilan ko'zlari chaqnab yonimga keladi. Meni hurmat qiladi, men ham uni qadrlayman. Shu kunlarda bemorlar shunchalik ko'pki, xonalarimiz yaqin bo'lsa ham vaqt topib, bir-birimizning xonamizga kirolmaymiz. Darrov mendan o'sha kungi voqea haqida so'raydi, ya'ni klinikada janjal chiqargan qizni. Demak, bo'lgan voqealarni eshitmagan odam qolmabdi. O'sha oqshom bo'lgan voqealarni qisqacha aytib beraman. «Nima qilmoqchisiz, o'sha qizni

davolashda davom etasizmi?» deb so'raydi mendan. Har kuni kelayotgan gullardan ham xabari bor. Ba'zan bemorlarimiz haqida gapirib, fikr almashib oladigan odatimiz bor. Maslahatning bir turi desa ham bo'ladi... Meni diqqat bilan tinglaydi. Keyin «Kelgan gullarga qaraganda uning voz kechish niyati yo'q, ammo bu bemor sizni juda charchatadi. O'zingizni qiynamang», deydi. Ayniqsa, Aydinni yo'qotganimdan keyin u ham meni Yag'mur va Hasan kabi himoya qilishga urinadi. Bemorlarimni juda qattiq yaxshi ko'rganim sababli, ularning dardlari bilan ovora bo'lib, o'zimni unutib qo'yishimdan qo'rqishadi.

Ovqatlanib bo'lishim bilan shosha-pisha pastga tushaman. Ko'rishim kerak bo'lgan ancha bemor bor. Ularning yonida vaqtim qanday o'tib ketganini sezmay ham qolaman. Bir qaragam, atrofga qorong'i tushgan va yana bir kun o'z nihoyasiga yetib boryapdi. Stolimni yig'ishtirayotgan paytimda yonimga Tuna keladi. Yana ko'zlari milt-milt etib porlab turadi. Kim biladi deysiz, yana qanday hayajon bilan menga nimalarni hikoya qilarkin? Hayot uning uchun doim hayajonli.

– Xo'sh, Tuna, qani, gapiraqol, yana nima bo'ldi? Aslanbeyni kuzatayotganda ko'rdim, yana gullar bilan to'lib-toshganding.

– Siz gullar haqida gapiryapsiz, men bo'lsam, aslida, uning o'zini nima qilish haqida o'ylayapman.

– O'zinimi?

– Ha, mana shu oxirgi gul bilan birgalikda uning o'zi ham keldi. Zalda kutyapti. Joyida esli-hushli bo'lib o'tiribdi. Iltimos, Gulseren xonim, bechora qizchani besh daqiqaga bo'lsa ham qabul qiling. Chunki aks holda menga bugun bu yerda yana qiyomat qo'padiganga o'xshayapti.

– Ko'rib turibmanki, seni ancha qo'rqitibdi.

– Yo'g'e, qo'rqish deganingiz nimasi? Bugun joyidan jilmay aybdorlardek o'tiribdi. Gullar faqat menga kelyapti deb o'ylayapsizmi? Yo'q, mening stolimda ham gul qo'yishga bo'sh joy qolmadi. Kelib qo'limni ikki marta o'pdi. Biram g'alati bo'-

lib ketdim. Bechorahol ko'rinadi. Ham insonlarga bepisand bo'lish bizga yarashmaydi.

– Mayli, mayli. Tezroq kirgizib yubor, bu oqshom uyga vaqtida boray.

Aslida, juda ham hissiyotga beriluvchan insonman. Gina saqlashni bilmayman. Hatto ko'nglimni eng ko'p og'ritgan insonning ham tirnog'i toshga tegishidan behalovat bo'laman. Ammo gap bu qiz haqida ketganda o'zgarib qolaman. Ko'rinishing bunchalik yomon bo'lsa, xaraktering chiroyli bo'lishi kerak yoki biroz hurmatli shaxs bo'lasan, lekin bu qizda hech biri yo'q. Tahdidnamo nutqlari haqida-ku gapirmaasa ham bo'ladi? Faqat men emas, Tuna ham uni yoqtirmadi. Biroq bir tomondan qo'ng'iroqlari, ikkinchi tomondan tinimsiz yuborgan gullari bilan chorasiz qoldirdi. Chunki hissiyotlar borasida uning ko'ngli menikidan ham bo'shroq. Juda yumshoq bir ko'ngli bor uning. Hech kimni xafa qila olmaydi, ranjitolmaydi. Kelishi bilan uni haqorat qilgan bu qizni endi o'zi himoya qilib turibdi. Boshqa iloj ham yo'q, bu qizning qaysarligi ikkimizni ham yengdi. Memoning so'zlari esimga tushadi. «Bu qiz sizni charchatadi». Charchatishini-ku bilaman, lekin negadir rad qila olmayapman...

– Qizning ismi nima edi-ya? Kecha aytgandi, lekin...

– Alya. Ismi ham boshqacha... O'sha kuni qilgan ishlaridan pushaymon bo'lgani aniq. Odamning rahmi kelib ketadi. Ko'rsatkich barmog'iga nimadir bog'lab olgan, juda g'alati narsa. Ayol degani bunday qora narsani bog'lashga uyaladi. Bir tomondan shuncha qimmatbaho gullarning ketini uzmasdan yuboryapti, ikkinchi tomondan usti-boshi to'kilib ketaman deydi.

– Mayli, yaxshi. Tezroq ichkariga olib kir.

Bu Freyd deganlari bunchalik dono bo'lmasa. Til tutilishidan tortib inson xulq-atvoridagi eng kichik tavsilotlarni ham ko'zdan qochirmagan. Xuddi biz bu qizga qilganimiz kabi... Aqlim bu qizni shunchalik inkor qilyaptiki, hatto ismini ham eslab qololmayapman. Doktorda shunday holat bo'lsa uning

bemorga hech qanday foydasi tegmasligi aniq. Buni juda yaxshi bilib tursam-da, shunga qaramay uni qabulimga ol-yapman. Ishqilib, yaxshilikka bo'lsin...

Tuna chiqib ulgurmasdan, eshik oldida Alya ko'rinadi. Boshini quyi solgancha ichkariga ikki bukilib kiradi. Eshik-ni ham yopmasdan ohista qadamlari bilan to'g'ri mening yonimga yaqinlashib keladi. Yana egniga ajabtovur narsalar kiyib olgan. Bunchalik qimmat gullarni bizga yuborgan odam u emasdek, go'yo. Buning ustiga egnidagilarning bari to'q rangli, kir va o'ziga katta, ustidan tushib ketay deb turibdi. Bu qiz qirq kilo chiqarmikin? Aslida, ikki bukilib turmasa, bo'yi balandgina. Sochlari tartibsiz, yuzlari, ko'zlariga tushib turibdi. Shunga qaramay, burni o'zining butun ulug'vorligi bi-lan undan oldinda ketadi. Ehtimol, nihoyatda ozg'in bo'lgani uchun qo'llari yerga tegib ketadiganga o'xshaydi. Gilamning ustida yurganda oyoq kiyimlarining shitirlashi eshiti-ladi. De-mak, bugun shippaklarni e'tiroz bildirmay kiygan ko'rinadi.

Qarshimga yetib kelishi bilan eshik hali ham ochiq eka-nini sezaman. Jahlim chiqa boshlaydi. Inson bir xonaga kir-gandan keyin eshikni yopadi-da. Hozir men o'rnimdan turib yopaman yoki Tuna boshidagi barcha telefon quloqchinlarini chiqarib keladi va eshikni yopadi. «Eshikni yopib kel», deb g'udranaman. Biroz cho'chib ketganini sezgandek bo'laman. Tez orqasiga qayrilib, oyoqlarini sudrab borib, eshikni yopadi va yana ortiga qaytib keladi. Sekingina «o'tir» deb aytaman, u ham stolning bir uchiga o'rnashadi. Boshi yana egilgan, ayb qilgan-u jazo olishni kutayotgan bolalardek, go'yo. Shunday ekan, menda ham ranjigan ona rolini o'ynash vazifasi turibdi. Bu qanday munosabat bo'ldi!

Yuragim siqiladi. Stolning ustida turgan hidli shamlarga ko'zim tushadi. Qo'limga chaqmoqni olib, ularni birma-bir yoqib chiqaman. Shamlar asta-sekin yona boshlarkan, chet-laridan issiq tomchilar oqadi. Birozdan keyin isiriq bilan ara-lashgan vanilla ifori xonani tutib ketadi. Bunga ehtiyojim bor, chunki xonadan go'zallik izlay boshlayman. Uning aytadigan

gapi yo'q, suhbatni men boshlashim kerak. Bir-ikki marta yengil yo'talib, tomog'imni tozalab olaman. Bu dahshatli, buyruqnamo ovozdan qutulishga harakat qilaman. Yordam so'ragan odamni bugungi kungacha kim bo'lishidan qat'i nazar hech qachon rad qilmadim. Lekin mana bu qiz bilan ishini uddalay olamanmi, bunga ishonchim komil emas.

– Xush kelibsan.

– Xushvaqt bo'ling.

– Bugun ancha yaxshimisan?

– Ha... yaxshiman... Meni qabul qilganingiz uchun rahmat.

– G'alaba qozonding, mana, qara, yana bugun shu yerdasan. Bizga yuborgan gullaring uchun rahmat. Hammasi juda chiroyli edi, lekin nega buncha guldasta yubording?

– Siz uchun nima qilsam ham kam.

Men unga qanday yaxshilik qilgan ekanmanki? O'zi bir marta ko'rishgan bo'lsak. O'sha kuni ham bir-birimizni ranjish va xafa qilish uchun qo'limizdan kelganini qildik. U ham juda xafa edi, men ham. Bugun u xotirjam, ammo men-chi? Uni ko'rgan paytim menga yana nimadir bo'ldi. Stolimda orqaga egilgan holda o'tiraman. Qizdan imkon qadar uzoq turishga harakat qilayotganimni sezaman. Nega? Xuddi unga tegin-sam, qo'llarim yonib ketadigandek tuyuladi. Hozir qilayotgan ishimni jarrohlar ham qiladi. Juda xavfli, og'ir operatsiyalarga negadir kirishni xohlashmaydi, o'sha bemorni o'zidan nari qilish yo'lini qidiradilar. Men ham shunday qilyapmanmi deyman? Ya'ni qochyapman.

Bu fikr yuragimni siqadi. Qizning juda og'ir muammolari borligi aniq va men shulardan o'zimni tortyapman. Uyat emasmi, Gulseren? Aslo biror narsani bahona qilish haqida o'ylama. O'tirib ol, shu qiz bilan jiddiy shug'ullan.

O'zim bilan bo'lgan suhbatda ham o'sha buyruqnamo ovoz eshitiladi quloqlarimga. Men bu ovozni faqat Alyaga nisbatan emas, o'zimga nisbatan ham qo'llayapman, demak... Ehtimol, insonlarni psixiatr bo'lishga undagan narsa boshqalar bilan birgalikda o'z ruhiyatlarini ham yaxshilashga urinishlaridir.

Bu vazifaning qanchalik uddasidan chiqqanimizni kim bizga ayta oladi?..

Xonani sukunat qamrab olgan. Ikki kishi bir-biriga qarab o'tiribdi, aloqa uzilgan, ichki dunyomizga sho'ng'ib ketganimiz. Bu yerga kelishni qattiq xohlagan edi, ammo ichida nimadir o'jarlik qilayotganga o'xshaydi. Uni istamagan va rad etgan insonga nisbatan o'jarlik. Taxmin qilishni bas qilib, o'zidan so'raganim ma'qul.

Shu paytda shamlar to'lg'ona-to'lg'ona yonadi. Xonaga yoqimli ifor tarala boshlaydi. Buralib, to'lg'onib yonayotgan kichik olovga qarayman. Ular qanchalik begunoh ko'rinadi. Romantik, xarizmatik va ma'sum... Holbuki, u kichik olovlar ko'ringani kabi begunoh emasligini juda yaxshi bilaman.

– Mana shu kompyuterdagi hujjatni to'ldirishimiz kerak. Menga to'liq ismingni ayta olasanmi?

- Alya Sayri.
- Necha yoshdasan?
- Yigirma ikki.
- Turmushga chiqqanmisan?
- Yo'q.
- Nima ish qilasan?
- Stajyorman.
- Qaysi sohada?
- Huquqshunoslik sohasida...

Huquqshunoslikmi? Lekin u huquq fakultetini tugatganlar uchun emasmi? Nima demoqchi o'zi?

- Sen huquqshunosmisan?
- Yo'q, hali bir yilim bor.
- Huquq fakultetini tugatasanmi?
- O'xshamaymanmi?

Mana, yana boshlayapmiz... Aslida, rostdan ham o'xshata olmادim. Bunday qizning huquq fakultetini bitirishi, insonlarning huquqlarini himoya qilishdek bir kasbni egallashi menga g'alati tuyuldi. Hali o'z huquqlarini himoya qila olmaydigan qiz boshqalarning haqlarini qanday mohofaza qilsin?

Ko'zlarimga tik qarab turadi. Nima deyishimga qiziqyapti. U mening samimiy bo'lishimni, nimani o'ylasam o'shani gapirishimni istaydi. O'ylaymanki, men hozir beradigan javob shuning uchun ham juda muhim. Uning aqli meni sinovdan o'tkazyapti.

– O'xshatmaslikdan ko'ra ko'proq ishonmadim desam to'g'ri bo'ladi. Seni ko'rgan odam huquqshunos bo'la olishingga ishonolmaydi. Stajyorlikni qayerda o'tayapsan?

Mashhur bir huquqshunoslik byurosining nomini aytdi. U yerning egasini taniyman. Juda sinchkov va talabchan odam. Bu qizni u yerga qanday qilib oldi ekan-a?

– Ko'rinishim juda yomonmi?

– Ha, shunday.

– Rahmat.

– Nega rahmat aytyapsan?

– Ochig'ini aytganingiz uchun... Doim shunday davom etaylik.

– Amringiz vojib, qo'mondon.

– Yo'g'e... Aybga buyurmang... Agar shunday gaplashsam...

Maqsadim sizga hurmatsizlik qilish emas... Insonlar bilan... Qanday gaplashishni... bilmayman men...

– Shunday ham bo'lsin, yigirma ikki yoshdasan va huquqshunoslik bo'yicha ish o'rganyapsan. Demak, juda omadlisan!

– Hayotda unday emas... Shunchaki yaxshi talaba edim, xolos... Barcha ta'lim bosqichlarini a'lo baholar bilan tamomlaganman.

– Hali shunaqami?

Men bilan hazillashyaptimi? Axir, to'g'ri muloqot qilishni ham bilmaydi-ku. Shu holi bilan tag'in huquq fakultetini a'lo baholar bilan bitirgan emish. Bugun spirtli ichimlik hidi kelmayapti. Harakatidan, xulq-atvoridan, qarashlaridan ichmaganini bildim. Lekin bugun ham boshqa rejasi borga o'xshaydi.

– Qayerda yashaysan?

– Chayyoluda

– Uyingizda kimlar bor?

– Men borman...

- Oilang qayerda?
- Oilam yo'q...
- Bu nima degani?
- Vafot etishgan degani...
- Ularni qachon yo'qotding?
- Bir necha yil bo'ldi. Meni so'roqqa tutyapsiz.

Bu qiz bilan aloqa o'rnatish bunchalar qiyin bo'lmasa... Bular qabulimga kirgan har bir bemorga beradigan savollarim. Ko'pchiligi bu kabi ma'lumotlarni so'ramasimdan o'zlari aytishadi. Tavba, oxirgi bergan savolim uni bezovta qildimi deyman? Oilasi bilan bog'liq savollar berayotgandim. Mayli, o'z holiga qo'yishga harakat qilaman.

- Yaxshi, savollar tugadi o'zi. Endi navbat senga. Jim turib seni eshitaman.

- Men... sizga nima deyman?
- Nima xohlasang...
- Hech narsa xohlaganim yo'q.
- Savol bermasam, sen ham gapirmasang. Unda nima qilamiz?

Jim bo'lib qoladi, qo'llarini bir-biriga ishqalaydi. Qarshimda biroz oldinga va orqaga egilgan ko'yi o'tiradi. Juda asabiy. Portlashga tayyor turgan bomba kabi. Demak, spirtli ichimlik ichmagan paytlarida ham shunday jahldor va asabiy yuradi. O'ng qo'lining ko'rsatkich barmoqlarida yana o'sha iflos matolar bor. Sukunat uzaygan sari undagi rohatsezlik ham ortib boradi. Bunga bir chora topishim kerak.

- Bugun ichkilik ichmabsan.
- Doim ham ichmayman.
- Qay payt ichib turasan?
- Majbur bo'lganimda ichaman...
- Majbur bo'lish nima degani?
- Men bilan birga bo'lgan erkaklar... majburan ichirishadi

menga.

Bu bilan tanishgan erkaklar bor ekan-da! Bunday bir qizni sevish, unga oshiq bo'lish menimcha mumkin emas. Avval ichib olib, keyin ko'zlarini yumib olsalar kerak.

– Demak, sening sevgiling bor.
– Yo'q... Unday emas... Ular shunchaki men bilan birga bo'ladi, xolos... O'sha payt o'zlari ham ichishadi... Menga ham ichirishadi... Ba'zan moddalar ham qabul qilamiz... Hushyor odamning mendek qizga toqat qilishi osonmi?

O'zini shunchalik masxara qilyaptiki, buni faqat aqli-hushi joyida bo'lgan, ogoh va sergak odamlar qila oladi. Bu qiz shunday insonmikin yoki? Kulaman, kulayotganimda yuzimga diqqat bilan qaraydi, lekin o'zi kulmaydi.

– O'zini masxara qiladigan odamlarni yoqtiraman. Hamma ham bunday qila olmaydi.

– Rahmat... Chin ko'ngildan aytganingizga ishonaman...

– Buni bilaturib nega ular bilan birga bo'lasan?

– Kimdir men bilan suhbatlashishini... menga teginishini istayman.

– Demak, sen juda yolg'izsan.

– Yolg'izman.

Bu so'zlarni aytarkan, yana ko'zlarimga qaraydi. Bu nigohlar insonning yuragini ezib yuboradi. Ichida shunday bir iztirob borki, xona bo'ylab parcha-parcha bo'lib sochilib ketadi. Boshimni egib, o'zimni kompyuterda nimadir qilayotgandek ko'rsataman.

– Umuman do'sting yo'qmi?

– Yo'q... Siz bo'lsangiz... Mendek odam bilan do'st bo'lar-midingiz?

– Bo'lmasdim.

– Ular ham shunday.

– Buning uchun aybdor senmi yoki ularmi?

– Menman.

– Lekin buni o'jarlik qilib o'zgartirmayapsan.

– Xato fikr... Bu yerda nima qilyapti deb o'ylayapsiz?

Shu o'rinda bu yerga kelishining asl sababiga urg'u bermoqchi. Ammo buni shunchalik dadil va ranjituvchi shaklda ifodaladi: «Xato fikr». Qiz haq, xato fikr. Biroz asabiylashgani ham his qilaman.

– Demak, xato fikr. Mayli. Boshqa nima ishlar qilasan?

– Ko‘p kitob o‘qiyman... Bu qo‘limdan keladigan juda oz miqdordagi yaxshi ishlarimdan biri. Uyim kitob sotuvchisi-ning uyiga o‘xshaydi. Kitoblarimni sevaman... Faqat ularga g‘amxo‘rlik qilaman. Tez-tez kutubxonamni tozalayman... Ba‘zilarini qayta-qayta o‘qiyman... Baribir muloqot qilishni o‘rgana olmadim... Kitoblaringizda juda hissiyotga boysiz... ya‘ni hayotini shu ishga bag‘ishlagan ayolsiz... Nega menga shunday munosabatda bo‘lmayapsiz.

Qiziq savol! «Nega menga iliq va yaqin munosabatda bo‘lmayapsiz?» demoqchi. Qanchalik o‘z o‘rnida berilgan to‘g‘ri savol. Unga birinchi kundan beri juda boshqacha munosabatda bo‘lyapman. Garchi bunga aybdor birgina o‘zim bo‘lmasam ham hammasi o‘zgacha bo‘lishi mumkin edi. Bu qizda mening g‘azabimni qo‘zg‘atadigan nimadir bor. Ehtimol, uning insonlar bilan munosabatga kirishish tarzi shundaydir. Agar shunday bo‘lsa buni sezishim, e‘tibor bermasligim va bu haqida o‘ylashim kerak. Buning uchun o‘z tuyg‘ularimga ham ehtiyojim bo‘ladi. O‘zimdan hadeb «Nega bu qizdan jahling chiqyapti», deb so‘rayvermasligim kerak.

– Odamlarning ming xil yuzi bor. O‘sha ming xil yuz qarshingdagi insonga qilgan munosabatingga qarab yuzaga chiqadi. Aslida, juda yaxshi va g‘amxo‘r ekanim rost, ammo buni qilish uchun hissiyotga boy bo‘lish kerak. Men ham shunaqaman, lekin hissiyot deganda faqat sevgi va iliqlik haqida gapirayotganim yo‘q. Ichida salbiylari ham bor. Sen aynan ularga to‘g‘ri kelgan ko‘rinasan. Biroq xohlasang kun kelib, mening boshqa tomonlarimni ham ko‘rishing mumkin. Buni o‘zim ham istayman, chunki bunday asabiy va jahldor bo‘lish menga umuman yoqmaydi.

– Menga ko‘nglingizdan nima kechayotgan bo‘lsa, shunday munosabatda bo‘laving.

– Mayli.

– Menga yoqdingiz.

– Demak, meni yoqtirding, shunaqami? Aynan nimamni yoqtirganingni bilsam bo‘ladimi?

- Siz... barchaga nisbatan sezgirsiz.
- Bu gapni qayerdan olding?
- O'sha kuni ko'rdim... O'sha odamdan umuman qo'rqma-dingizmi?
- Qaysi odamdan?
- Chiqayotganimda eshikda kutib turgandi-ku... Sizga jahl qilgandi... «Men qila olmaganimni u qiladi», degandim ichimda.
- Juda ochiq gapiryapsan. Sen qila olmagan ish nima ekan, qani, aniqroq qilib ayt-chi?
- Hammasini tushunib turibsiz...
- Meni urarmiding?
- Istasam ham sizni urolmasdim... Bunga kuchim yetmay-di... O'sha kuni sal qolsa siz meni urar edingiz. Ortimdan qan-day ushlaganingiz esingizdami? Hammasi tugadi deb o'yla-dim. «Bu ayol endi meni nimtalab tashlaydi», dedim o'zimga o'zim... So'ng o'sha odamni ko'rib qoldim. «Doktorning jazo-sini shu bersa kerak», dedim... Hatto xursand ham bo'ldim.
- Demak, xursand ham bo'lgansan.
- U odamga ham jahl qildingiz... Xuddi menga qilganingiz kabi... Biroz oldin xonangizdan chiqib ketdi... Yig'lab yuboray deb turgandi... Siz hammaga jahl qilar ekansiz.
- O'sha odamni xafa qilmasam, meni yoqtirmasmiding?
- Yo'q, men allaqachon sizni yoqtirib bo'ldim.
- Senga jahl qilganim uchunmi?
- Ha... Juda yoqtirib qoldim... Bemorlaringizga inson sifati-da qarar ekansiz... Ularga «telba»larga qilgandek munosabat qilmaysiz... Ularni boshqarmaysiz... Nima lozim bo'lsa shuni qilasiz... Ularning munosabatlarini jiddiy qabul qilasiz.
- Jiddiy qabul qilasiz, de.
- «Buni qara-ya», deyman ichimda. «Bu qizni qaranglar, men u bilan bog'liq hech narsa bilmas ekanman, u esa meni allaqachon tekshiruvdan o'tkazgan va hatto tashxis ham qo'yib ulgurgan».
- «Bemorlaringizni jiddiy qabul qilasiz», deyapti. Juda qiziq ta'rif, ochig'i. Aslida, qiz haq. Biz psixiatrlar ayrim munosa-

batlarni jiddiy qabul qilmay, bemorlarni boshqarishga harakat qilamiz. Ba'zida men ham shunday qilaman.

O'sha kun qilgan hamma ishlari sahnalashtirilgan ekanini aytgandi. Zalni asabiy holatda aylanib chiqarkan, ichida kulgancha, meni sinayotgan ekan. Mendan oldinda ekani aniq. Bundaylarni aqlli telba deyishadi.

– Xo'sh, endi buyog'i nima bo'ladi? Bu so'zlaringdan so'ng jahlni ham bir chetga suraylik, men bilan til topisha olarmikansan?!

– Jahl qilmasligim aniq... Lekin til topishishga, albatta, qo'limdan kelgancha harakat qilaman. Baribir sizga ishonishni istayapman... Qabrdagi jonsiz tanaga o'xshayman... Ular kabi yolg'izman... O'sha odamlar bilan shu sababdan birga bo'laman... Ishlari bitgach... Mendan qutulish yo'lini izlab qoladilar... Hech bo'lmasa birozgina aloqa o'rnatish maqsadida... ularning jahlini chiqaraman... Ammo bu ham... menga juda qimmatga tushadi.

Uning ovoqidagi ohang xafa bo'lib g'udranayotgan bolanikiga o'xshaydi. Bugun qichqiradiganga o'xshab gapirmayapti. To'xtab-to'xtab, qisqa-qisqa jumlar bilan xuddi bu tilni endi o'rganayotgan odam kabi o'zi haqida gapiryapti, lekin gaplari o'z o'rnida ham juda ma'nodor... Nigohlarida esa xavotir va chuqur iztirob bor. Bu ovoz bilan uyatchanlik bir-birini to'ldirib turibdi. Ammo qarashlaridagi iztirob va g'amnoklik umumiy kartinaga unchalik ham mos tushmaydi. Bir qulning unga tinimsiz zug'um o'tkazgan sohibiga qarashidek, go'yo. Kreslo bilan ortga qayrilib olib, bir muddat shiftga qarab qoladi.

– Meni juda ko'p kaltaklashadi.

– Kaltaklashadimi?

Yana qalbidagi marhamat hissi bosh ko'tara boshlaydi. Lekin bu qiz unga rahm qilishimni, marhamat ko'rsatishimni xohlamaydi, biroq uni kaltaklashar ekan! Qanchalar nozik, kichik, xuddi igna kabi. Tasavvurimda xuddi parilar yashovchi ko'shkdan qochgan bir jinga o'xshaydi. U pari emas, jin, shunga qaramay yomonlik qilishni hali unchalik puxta o'rganmagan, yaxshi o'zlashtirmagan va ko'nikmasiz bir jin...

- Kaltaklashadi...
 - Nega o'zingni kaltaklashlariga qo'yib berasan?
 - Kim shunday qiladi?
 - Sen... Menga xuddi o'zingni majburan kaltaklatadigan-dek tuyulding negadir.
 - Muhim emas... Uraversinlar... Jonim og'rimaydi... Hatto bundan rohatlangan paytlarim ham bo'ladi.
 - Achinmaysanmi o'zingga?
 - Yo'q...
- Miyig'ida kulib qo'yadi. Yo'q, buni kulish deb ham bo'lmaydi, shunchaki iljayadi.
- Ular bilan shu tarzda munosabat o'rnatasanmi?
 - Shunday.
 - Bir necha yil avval uzoqlardan bir yosh ayol kelgandi. Sharq tarafdagi bir qishloqda yashar ekan. Turmush o'rtog'i bilan bog'liq muammolari bor edi. Eri uni endi yoqtirmaydi deb o'ylardi. Menga shunday degandi: «Doktor xonim, erim endi meni urmay ham qo'ygan».
- U qoshlarini chimirib, menga hayrat va izohlab bo'lmaydigan qandaydir sevinch bilan qaraydi.
- Bunchalik chiroyli gapirmasangiz... Qaniydi, doim shunday gapirsangiz edi, siz gapiraversangiz, men esa tinglayversam!
 - Sen haqingda gaplashish o'rniga boshqalar haqida gaplashamizmi?
 - O'zim haqimda gapirish oson emas... Hozircha unday qila olmayman... Gapirmaganimdan keyin yana menga jahl qilasiz... Endi jahlingizni chiqarishni istamayman... Odam sizning yoningizda o'zini yaxshi his qiladi... Samimiy bir jahl... Men uchun muhim narsa bu... Sizni tinglash biram maroqli... Bolaligimda, hattoki ertak ham eshitmaganman...
 - Senga ertak aytishimni istaysanmi?
 - Nega xohlamay, albatta, xohlayman?.. A'lo baholarga o'qiyman... Ammo aqlimning bir tarafi bor-u, bir tomoni yo'qdek, go'yo... Odamlar men bilan do'st tutinmaydi... Meni yaxshi ko'rishmaydi... Odam deb hisoblashmaydi... Kamiga kaltaklashadi ham.

Endi ko'zlarimga qarolmaydi, boshlari egilgan, qo'llarini qovushtirib olib qarshimda o'tiradi. Kaltaklasharmish... Avvaliga qiz bilan birga bo'ladi, keyin esa do'pposlaydi! Eh, bu qizga qanchalar qiyin! Mayli, biroq bu yerga ilk marta kelgan kuni o'zim ham uni urib solishimga bir baxya qolgandi. Keyin Tunaning so'zlari xayolimga keladi. U ham qizni ko'rishi bilan negadir uni kaltaklagisi kelibdi, buni eshitishim bilan undan qattiq jahlim chiqqandi. Demak, bu qiz nima qilsa, qiladiki, qarshisidagi insonni qo'zg'atishning uddasidan chiqadi. U, hatto o'ttiz yillik tajribaga ega psixiatr va shuncha amaliyoti bor kotiba bo'lsa ham.

- Seni himoya qiladigan, sen bilan qiziqadigan yaqining yo'qmi?

«Yo'q» degandek boshini silkitadi. Rostan ham hech kimi yo'qmikin? Unday bo'lsa pulni qayerdan topadi? Bizga yuborgan guldastalarining o'ziga kim biladi deysiz, qancha pul sarflagan ekan! Bu qiz men bilan o'yin o'ynayaptimi yoki?

- Boshingni ko'tar. Menga yaxshilab tushuntirib ber.

- Opa-ukalarim ham yo'q... Otam bilan onamni... bir necha yil avval yo'qotdim.

- Hozir yolg'iz yashaysanmi?

Boshini «ha» degandek silkitib qo'yadi. Lekin mavzu oilasiga taqalganda yuzini qora bulutlar qoplaydi va gapni boshqa yoqqa burgisi keladi.

- Boshqa biror yaqining, qarindoshing ham yo'qmi?

- Yo'q, mening borligim ham odamlarni bezovta qiladi.

- Sen ularga o'xshamaysan. Huquqshunosligingni eshitgach, men ham hayron qoldim. Byuroga ham shunday bora-sanmi?

- Ha... Bu yerga byurodan chiqib keldim.

- Hech oynaga qaraganmisan?

- Oynagami? Go'zal bo'lmagan qizlar bilan do'st tutinishmaydimi?

- Go'zallik haqida gapirmayapman.

- Unday bo'lsa... nega oynaga qarashim kerak?

- Seningcha byurodagi qizlarning hammasi chiroylimi?
- Yo'q... lekin hammasining do'sti bor.
- Demak, gap faqat go'zallikda emas. Ko'rinishing bir ahvolda.
- Yomonmi?
- Ha, hattoki sochingni ham taramabsan. Kiyimlaringga ham e'tibor bermagansan. Hamma joying chang va kir. Buning ustiga qachon, qanday qilib bularni tartibga keltirishing ham aniq emas.
- Yaxshi kiyinganman deb o'ylabman... To'g'ri, unchalik yangi emas... Ammo juda qimmat narsalar bular...
- Boshqa qizlar kiyadigan kiyimlarga o'xshamaydi lekin. Qolaversa, ust-boshing o'zingga ancha katta. Ozib ketdingmi deyman?
- Ha... Ozganman.
- Nega? Ovqat yemayapsanmi?
- Ovqatmi?
- Ovqat.
- Hozir yemayapman.
- Savol berishdan charchadim. Seni tanishga urinyapman, ammo menga umuman yordam bermayapsan.
- Nimani aytib beray?
- Bolalik paytingdan boshlab o'zing haqingda hammasini aytib ber.
- Nega bunchalik bolaligim bilan qiziqyapsiz?.. Boshqa doktorlar ham har doim shuni so'rashardi... Men katta odaman... Bola emasman... Hozirgi ahvolimni tuzating... Bu yerga shuning uchun kelganman. Bolaligim haqida savol bermang... Siz doktorlar boshqa narsani bilmaysizlarmi? O'tmishim sizni nega bunchalik qiziqtirib qoldi? Hamma qatori oddiy bolaligim bo'lganda edi... bunday ahvolga tushmagan bo'lar-midim? Meni ilk marta ko'rganingizdayoq buni tushunib yetgandingiz... Faqat siz emas, avvalgi doktorlar ham tushundi... Aytib bersam, gaplarimni eshitib oh-voh deb o'tirasizmi? Sizga aytib berganim bilan nimadir o'zgarib qolarmidi? O'tmish endi... O'tmish va u tugagan... Bugunga qarang... Shu holimga

boqing... Kuchingiz yetsa, bugunni o'zgartiring... O'tmishni o'zgartira olmaysiz. Ammo bir kun buning qasosini olaman! Sizdan ham, boshqa shifokorlardan ham! Butun insoniyatdan buning intiqomini olaman hali! Menga bunday deyish nima oqibatlarga olib kelishini hammangiz ko'rasiz hali. Va bu kuchni menga aynan siz berasiz...

Hayrat va sokinlik bilan uni eshitaman. Kichik jin qayerga ketdi ekan? Hozir qarshimda naq vahshiy hayvonning o'zginasi o'tiribdi. Agar zalda kimdir bo'lsa, ishonchim komilki, uning bu gaplarini eshitgan. Gapirmayapti, xuddi baqirib turibdi. Qo'l-lari, og'zi, burni, oshqozoni, jigari, vujudida nimaiki a'zo bo'lsa, hammasi birdan baqirayotgandek, go'yo. Sirena tovushiga o'xshash g'alati ovoz chiqdi bu qizdan. Jahli burnining uchida, deyishadi-ku. O'sha g'azab bu qizning butun a'zolarida payt poylab turgandek, go'yo. Aytgan gaplarining hech biri yengil qabul qilinadigan gaplar emas. Demak, boshqa hamkasblarim bir ilojini topib, bu qizdan qutulishgan. Lekin men uchun buning iloji yo'q. U men bilan qiziqib qolganmidi, bugundan e'tiboran men ham unga qiziqqa boshladim. Aslida, har taraflama xavfli qiz, qachon, qayerda, nima qilishi aniq emas. «Tormoz»-lari yaxshi ishlamaydi. Ming marta uzr so'ragan, ortidan kunlar davomida gullar yuborgan joyiga kelib shunday qilib tursa, tashqarida nimalar qilishi mumkin ekan-a?

Biroz avval juda yolg'izman degandi. Insonlar haq, u bilan do'st bo'lishni hech kim istamaydi. Odamga o'zini har doim yomon his qildiradi. Aslida, psixiatr har bir bemorga alohida va kishining o'ziga xos yechimlar o'ylab topishi kerak. Bu qizga ham bir chora topishim kerak, ammo qanday? Unga savol berishimni yoqtirmaydi, gapir, desam gapirmaydi. Gaplashmasdan jim o'tirsam ham buni o'ziga nisbatan salbiy munosabat sifatida qabul qiladi.

Ko'z qiri bilan qaraydi menga. Biroz oldin qilgan ishi uchun jahlim chiqqan yoki chiqmaganini bilishga urinadi. Bu safar jahl qilmayman, chunki vaziyat jahl qiladigan emas, chunki u juda yolg'iz.

– Yolg'izlik juda qiyin. Jan Jak Russo «Eng buyuk qo'rquvim yolg'izlikdir» degan, hatto u ham yolg'izlikdan qo'rqqan.

– Baxtsiz bo'lish... yolg'iz bo'lish demakdir. Russo shunday degan.

Yo tavba... Bu qiz nimalarni biladi.

– Yolg'izlik haqida o'tmishga aloqador shunday afsona bor. Boshida dunyodagi barcha insonlar bir oila yoki qabila bo'lib, juda chiroyli hayot kechirishardi. O'sha paytlarda o'zlarini alohida shaxs sifatida ko'rish insonlarning xayoliga ham kelmasdi. Yaqin vaqtlardan boshlab mana shu barobarlik va birlikka darz ketdi. Bugun bu yolg'izlik epidemiyasi butun dunyoni o'z domiga tortyapti va afsuski, pul bu muammoni hal qila olmayapti.

– Ha, yolg'izman... Ammo... yolg'izlikdan qo'rqish deganda ... bu borada yolg'iz emasman....

– Juda aqlli javob, ochig'i.

– Bog'chaga chiqqan paytimda... tarbiyachilar meni aqldan ozgan deb o'ylashgan... Ularning bosimi ostida meni shifokorga olib borishdi... Keyin esa favqulodda aqlli ekanim ma'lum bo'ldi... Lekin bu menga ko'p ham qo'l kelavermaydi.

Demak, maktabga chiqqan paytlarida ham shunday o'zgacha qiz bo'lgan. Juda aqlli, darslarda faol, ko'p o'qiydi, biroq ovqat yeyishni, kiyinishni va sochini tarashni bilmaydi. Cho'ntagida puli bor, ammo o'ziga nimadir sotib olishning uddasidan chiqa olmaydi. Aql bovar qilmaydigan holat! Boshqa bir yo'l topishim kerak.

– Qanchalik aqlli qiz ekaning aniq, ammo tuyg'ularing bilan bog'liq muammo bor.

– Qanday muammo?

– Hissiyotlaringni boshqara olmaysan.

– Unday bo'lsa meni tuzating.

– O'zimni ustadek tasavvur qilishga majbur qilyapsan. Xuddiki bir-ikki marta burasam hammasi tuzalib ketadigandek gapiryapsan.

– Men ham xato, ham kamchiliklari bor, hech kim xohlamaydigan... sevmaydigan... sovuq va xunuk qizman... Aqlim

bor... Pulim bor... Ilmim ham bor, lekin bularni tartibga sola olmayman. Menga savol berishdan voz keching... Dardimni aytdim... Nimani tuzatish kerakligini ham tushundingiz... Il-timos, endi yaxshi doktor bo'ling... va bu masalani hal qiling.

Bu qiz men bilan hazillashyaptimi? Ham shunchalik aqlli bo'l, o'qimagan narsang qolmasin, ham psixiatrning oldiga kelib, menga savol bermang, meni davolang, de. Uni qanday davolar ekanman? Qo'limda sehrli tayoqcham yo'qki uni tuzatib qo'ysam. Bu ketishda hech narsa chiqmaydi. U bilan munosabat qurishning bir yo'li bo'lishi kerak. Diqqatini tortadigan biror mavzu topishim shart. Buni xuddi tasodifiy bir mavzu qilib kiritishim kerak. Biroz oldin o'zi menga ertak aytib bering demaganmidi? Aslida, bemorlarga ertak yoki hi-koya aytib berish orqali muammolarini hal qilish qiyin bo'lsa ham ma'lum turdagi aloqa vositasi o'laroq foydalansa bo'ladi. Biroz josuslik qilishimga to'g'ri keladi, mayli, bu qizga yordam berishga qaror qildimmi, hamma yo'lni sinab ko'rishim kerak. Shu paytda og'zidan chiqqan har bir so'zni xotiramda saqlab qolishim va qo'lga kiritgan ma'lumotlarimga qarab xuddi bir detektiv kabi bu topishmoqning javobini topishga harakat qilishim lozim. Ayollar, ayollar chekkan iztiroblar, go'zallikka bo'lgan ishtiyoqlari haqida ma'noli gap aytsam yomon bo'lmas.

– Demak, o'zingni xunuk deb hisoblaysan? Eh bu ayollar! Yillar davomida ular go'zal bo'lish uchun qancha azoblar chekkanini bilasanmi?

– Qanday azoblar ekan?

– O'rta asrlarning oxirlarida ayollar orasida ko'zgudan foydalanish ommalashishi oqibatida kosmetika sanoati ham hayotga ilk qadamlarini tashladi. Birinchi kosmetik mahsulotlar hech qanday foydasi yo'q g'ayrioddiy narsalar bo'lgan. Masalan, Fransiya qirolichasi bavariyalik Izabo eshak suti bilan dush qabul qilar va yuzini cho'chqa miyasi, timsoh bezlari va bo'ri qonidan tayyorlangan losyon bilan artardi. O'sha paytlar hali bir yoshga to'lmagan chaqaloqning axlati inson

terisi uchun foydali ekaniga ishonishgan. Shu sababdan zodagonlar mulkiga olib kelingan chaqaloqlarning boshida bir xizmatkor kutar va bola hojat chiqarishi bilan uni bekasiga eltib berardi.

– Uf, kim bilsin, qanchalik yomon hid chiqqanini?

– Yomon hid chiqmasligi uchun avvalo bolaning axlatini sut bilan aralashtirishardi. So'ng uning ichiga gullar solib qo'lda tayyorlangan losyonni taqdim qilishardi.

– Bolaligimda men ham ko'p hojat chiqarib qo'yardim, juda yomon hid chiqardi.

Bir daqiqa ko'zlarimiz to'qnash keladi. Ko'zlaridan g'azab va nafrat chaqnab turibdi. Endi savol bermayman. Hozir nimadir deyishga tayyor emas. Men hikoyani aytishda davom etaman. Chunki mavzu ham diqqatini tortdi, ham kutganimdan tezroq ma'lumotlar berishni boshladi.

– O'n oltinchi asrda Venetsiya kosmetika bo'yicha dunyoga hukmron edi. Venetsiya sirusi dunyodagi eng yaxshisi deb e'tirof etilgandi. O'n to'qqizinchi asrgacha shunday davom etdi.

– Sirus nima degani?

– Venetsiya sirusi oq qo'rg'oshindan tayyorlangan, ichiga simob aralashtirilgan krem. Bu simob teridagi teshiklar tomonidan shimib olinganda zaharga aylanishi mumkin. Doktorlarning ogohlantirishlariga qaramay ayollar bu oq kremni yuz, bo'yin va ko'ksiga qalin oq qo'rg'oshin ko'rinishida surtishgan. Bu krem ayollarning tishlarini to'kar, qornilaridagi bolani zaharlar, bir muddat o'tgach, terilarini xarob ahvolga keltirardi. Ammo dunyo ayollari asrlar davomida bu kremdan foydalanishdan voz kechmagan.

Qirolicha Elizabet yoshi o'tgan sari pardozni haddan ortiq kuchaytirib borardi. Bir yozuvchi uning yuzlari haqida shunday yozgan edi: «Shunchalik ko'p pardozi qilardiki, oxiri yuzi to'fonlar va janglarni boshdan kechirgan kema ga aylandi-qoldi». Yuz terisi surgan siruslari ta'sirida uqalanib tusharkan. Elizabetning yonoqlariga rang berish uchun foydalanadigan

upasi simob sulfatidan tayyorlangan edi. O'sha paytlarda ba'zi saroy ayollari yuzlarini oqartiradi deb o'ylab kul, ko'mir tuzi va sham yog'ini ichar ekanlar. Ammo bu qorishmani ichib ham tirik qolgan odamlarning yuzlari yashil tus olarkan.

– Mening onam juda go'zal edi. Lekin hech ham pardozi qilmasdi.

Mana ilk xushxabar ham kelyapti. Demak, shu tarzda hikoya aytishda davom etsam, undan o'zi haqida ma'lumot olishim shunchalik oson bo'ladi. Ko'zlaridagi g'azab ozayib bor-yapti, yuzidagi mushaklar biroz bo'shashdi.

Kresloga ham bemalol joylashdi.

– O'sha yillarda boshqa g'aroyib tajribalar ham bo'lgan. Masalan, qarg'ani qirq kun qaynatilgan tuxum bilan boqqandan keyin uni so'yib, yangi go'shtni yaxshilab chopib yuzlariga surishar ekan. O'n yettinchi va o'n sakkizinchi asrlarda suvchechak kasalligi butun dunyoni xavotirga soldi. Xastalikdan omon qolganlarning yuzlarida xunuk chandiqlar qolgan. Ayollar bu chandiqlardan qutulish uchun hayotlari evaziga sirus qo'llashni boshlashgan. Sirus o'sha paytda ko'p ayollarining o'limiga sabab bo'lgan ekan.

– O'qigan narsalaringizni juda chiroyli hikoya qilib berar ekansiz. Men ham buni istardim, to'g'risi, keyingi kelishimda yana aytib bera olasizmi?

– Albatta, aytib beraman. Ketyapsanmi?

– Vaqt tugadi. Sizni charchatib qo'yishni istamayman. Kech ham bo'lib qoldi. Meni qabul qilganingiz uchun rahmat.

– Senga ham gullar uchun rahmat aytmoqchiman. Ko'rib turganingdek hamma joy sen yuborgan gullar bilan to'la. Oramizda boshqa hech qanday muammo qolmagan ekan, endi boshqa guldasta yuborma. Kelishdikmi?

– Yaxshi... Xayrli oqshom.

– Ko'rishguncha...

Shunday deb o'rnidan turadi va yugurib xonadan chiqib ketadi. Eshik yana ochiq. Tuna bilan suhbatini eshitaman. Ey voh, kim bilsin, Tuna hozir unga qachonga qabul yozib be-

rarkan? Tez qo'ng'iroq tugmachasini bosaman. Tuna javob beradi, ammo eshik ochiq. Alya hammasini eshitishi mumkin. Juda past ovoz bilan «Qabulni kechiktirma», deb qo'yaman. Tuna «Tushunarli, xonim», deb go'shakni qo'yadi.

Qanchalar g'ayrioddiy qiz! Bugun spirtli ichimlik ichmagan, ammo vaqti-vaqti bilan ichib turishini o'zi ham tan oldi. Demak, spirtli ichimlikka qaramlik mavzusida diqqatli bo'lishim lozim. Lekin juda aqli va mulohazali. Qolaversa, bilim va madaniyat taraflama ham kutilganidan ziyoda. Og'zaki nutqida hech bir tashxis guruhiga kirmaydigan buzilish bor. To'xtab-to'xtab, uzuq-yuluq gapiradi. Ovozi insonni bezovta qiladigan darajada ingichka, bolalarga xos ovoz. Ichki dunyosini harakatga keltirish uchun aytilgan hikoyalarda oz bo'lsa ham reaksiya bildirmoqda. Aslida ham bu hikoyalar biroz bo'lsa-da, munosabatga kirishishimiz uchun qo'llangandi. Shifokordan eng ko'p xohlagan narsasi KUCH! Kuchga nisbatan his qiladigan ixlosi, o'tmishi bilan bog'liqmikan, deb o'ylayapman. Bu qiz meni ancha o'ziga qiziqtirib qo'ydi...

O'rindiqdan ohista turaman. Og'zimda achchiq ta'm bor. O'tiraverib hamma tomonim uyushibdi. Sekin-asta eshikka qarab yuraman. Alya hali ham Tuna bilan gaplashib turibdi. Eshigimni yopayotgan paytimda menga bolalarga xos beg'ubor harakatlar bilan qo'llarini silkitib qo'yadi. Unga kulib javob qaytaraman. Birinchi ishim har doimgidek derazaning oldiga kelib Anqara oqshomini tomosha qilish. Derazani ochishim bilan ichkariga salqin va toza havo to'ladi. Ne ajabki, bugun havoda hid yo'q. Osmonga qarayman, yulduzlar bir yonib, bir o'chib menga salom berayotgandek, go'yo. Chuqur-chuqur nafas olib, bu toza havoni imkon qadar ichimga ko'proq yutishga harakat qilaman. Keyin chiroqlarni birin-ketin o'chiraman. Navbat shamlarga keladi. O'chishi uchun puflashim bilan shamlarning olovlari bir oldinga, bir orqaga to'lg'anib, asta qorong'ilikka qorishib ketadi.



Esimni taniganimdan buyon doimo shundayman, hech o'zgarmadim. Hamisha qilishim kerak bo'lgan biror ish yoki borishim zarur bo'lgan biror joy bor. Shuncha yugur-yugur ichida goho charchaganimni his etmayman deyolmayman, ammo nima qilay, birgina hayotimga doimo ko'p narsani sig'dirishni xohlayman. Biror ishni uddalay olganimni, hayotga ozmi, ko'pmi o'z hissamni qo'shayotganimni ko'rishni va his qilib turishni xohlayman. Faqat o'zim uchun, o'zimning rohatim uchun yashashni qabul qila olmayman. Ta'tilga chiqishdan oldin ham bunga haqqim borligiga ishonchim komil bo'lishi lozim, aks holda, ta'til menga tatimaydi.

Garchi bugunga qadar biror marta ham o'zim loyiq bo'lmagan holda ta'tilga chiqmadim, chunki doim harakatda bo'ldim. O'n yetti yoshimda TED (Turk maorif jamiyati kolleji)ni bitirib, tibbiyot fakultetida o'qishni boshlaganimdan buyon tinimsiz ishlayman. Ishlashdan hech qachon charchamadim, lekin doim o'rnimga atrofimdagilar bundan shikoyat qilishadi. Oyim, aka-ukalarim, turmush o'rtog'im, farzandlarim hamda do'stlarim. Bu holdan faqatgina bemorlarim mamnun, ularga qolsa, hatto uyga ham bormasdan ishlasam. Bilaman, yaqinlarim charchashimni xohlashmaydi, bundan ham muhimi meni doim yonlarida ko'rishni istashadi, biroq ishlash endi hayotimning ajralmas bir qismiga aylanib ulgurgan.

Barcha ishlaydigan onalar kabi bolalarim kichikligida ularni tashlab ishga ketish ich-etimni tirnardi. O'zimni aybdor his qilardim. Aslida, u paytlari ishlashdan o'zga choram ham yo'q edi, lekin baribir aybdorlik sezardim. Shuning uchun kecha-

lari uyga kelganimda ular bilan kechadigan vaqtning naqadar muhimligini bilib, o'zimni go'yo kechgacha xursand yurgandek, butun quvvati-yu tetikligini saqlagan odamdek ko'rsatar, ular yotib uxlagunga qadar hech yonidan ayrilmasdim. Farzandlarim bilan birga o'ynar, kitob o'qir, hammomga kirar, qizim bilan kir yuvar, o'g'lim bilan vannada o'rdak suzdirardik. Uxlash vaqti kelganda ikkisi birdan yotoqlariga yotar, tun chirog'i nurida ularga ertaklar aytib berardim. Ba'zan Anqara-ning sovuq kechalarida xonalar isimas, u paytlar kichik elektr isitkichlarini yoqar, xonaning havosi qurib ketmasin deb batareyalar ustiga nam sochiqlar tashlab qo'yardim. Bolalar chuqur uyquga ketmagunlaricha yonlaridan aslo ketmasdim.

Keyin mehmonxonaga chiqib, Aydin bilan biroz o'tirardim. Ana o'sha vaqtda qanchalik charchaganimni his qilardim. Shanba oqshomlari tashqariga chiqmasak-da, hech bo'lmasa ularni kechalari yolg'iz qoldirmaslik uchun harakat qilardim. Aydin ham kechalari ko'cha kezishni sevadigan inson bo'lmagani va bolalariga o'zgacha mehri tufayli bu holatga e'tiroz bildirmasdi. Xuddi sportchilardek vaqt o'tishi bilan tanam va ruhim bu charchoqlarga sekin-asta ko'nikdi. Chunki hamma kabi tug'ilgan kunimdan boshlab mening ham peshonamga yozilgan taqdir, menga berilgan va men qabul qilgan bir rol bor edi. Ilk rol! Ilk rol ilk gunoh kabi insonning taqdirini belgilaydi.

Endilikda shuni yaxshi anglaymanki, bu ilk rol hozirgi hayotimning tamalini qo'ygan, taqdirimni chizgan. Onam juda mehribon, ammo shunga yarasha qattiqqo'l ayol edi. Meni juda yaxshi ham ko'rardi, biroq muammolar borasida hech bag'rikenglik qilmasdi. Hayotimda qilolmayman degan biror ishim bo'lmadi, chunki bunga onam izn bermasdi. Qilolmayman nima degani, bir yo'lini topasan va albatta, bajaran. Oilaning katta farzandi bo'lganim uchun kichik yoshimdan jiddiy mas'uliyatlar yuklardi menga. Ikki nafar ukam bor edi. Yoshlarimiz uncha farq qilmasa-da, ularga hasad qilish, raqobatlashish, ularni bir burchakka olib borib, sochlarini tor-

tish yoki boshqa biror zarar berish xayolimga ham kelmasdi. Chunki mening vazifam ularni asrash, qo'llash, barcha ehtiyojlarida ularga yordam berish edi. Go'yo men bu vazifaga moslashgan, dunyoga shuning uchun kelgandek edim. Ularning darslari, vazifalari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklari vazifam va mas'uliyatimning qamroviga kirardi. Mendan hamisha sadoqat talab qilinardi. Kamina ham buni juda tabiiy deb qabul qilib, bu rolga butun vujudim bilan kirishgan, vazifalarimni uddalayotganimdan baxtiyor edim. Ularning dardi mening dardim edi. Chunki bularni qancha yaxshi bajarsam, oilam meni shuncha ko'p sevar, mehr berar, e'tibor ko'rsatardi. Bu xuddi savdoga o'xshardi. Bersam olardim, mukofotlanardim, mukofotlansam bajaradigan ishimga yanada mehr ko'rsatardim. Vaqt o'tishi bilan bu kichik muhit kattalashdi, kengaydi, asta-sekin gavjumlashdi va yillar o'tib qarangimda menga berilgan bu ilk rol hayotimning asosi bo'lib qolaveribdi. Xulq-atvorimning asosiy qismiga aylanibdi. Kasb tanlashlashga ham yo'naltiribdi va bu rol bilan birlashgan bir kasbga yillarimni fido qilibman.

Bolaligimdan beri o'qishga, yangi narsalar o'rganishga, bu olamda bilish lozim bo'lgan hamma narsani bilishga intildim. Nega? Chunki menda bunga qobiliyat bor edi, hamda ota-onam meni bu jihatdan rag'batlantirar, bilimim, zakovatim, muvaffaqiyatim bilan faxrlanishar buni menga aniq his qildirishardi. Hattoki, muvaffaqiyatsiz bo'lish, nimalardandir voz kechishimga shunchaki qo'yib qo'yishmasdi. Hozir hayotim davomida doim shunday qilganimga, agar nimanidir istasam, nima bo'lishidan qat'i nazar undan aslo voz kechmasligimga ba'zan g'ururlanib, ba'zan huzurlanib qarayman.

Agar onam shunday qilmaganda men hozirgidek bo'lmasdim deb o'ylayman. Boshqa bir kishi o'zgacha hayotda yashayotgan bo'lardi. U qanday hayot bo'lardi buni esa bilmayman. Ammo bunchalar jasur bo'lmasdim, bir vaqtda ikki-uch ishni bajarishga harakat qilmasdim, bir necha umrni birdan yashamasdim. Madalyon shifoxonasi qurilmas, kitoblar yozilmasdi.

Bir bolaning qanday jamiyatda, kimlarning qo'lida, qanaqa shartlarda ulg'ayishi uning taqdirini belgilaydi.

Aydin, ya'ni turmush o'rtog'im shahzodalardek ulg'aygan. O'zidan o'n uch yosh katta aka va o'n bir yosh katta opadan keyin supraqoqdi bo'lib dunyoga kelgan. Darslarini ham opasi bajartirgan. Avval dadasi, keyin onasidan ayrilib, uzoq vaqt yolg'iz yashagan va o'shanda mas'uliyatni his qilishni boshlagan. Juda ko'rkam, shu bilan birga o'qishga bo'lgan ishtiyoqi tufayli juda madaniyatli va erkin yosh bo'lib, hayot uni u qadar qiynamagan. Qizlarning ortida ham yugurmagan, aksincha, qizlarning o'zi uni topgan. Ya'ni hayot unga menikidan farqli tanlov taqdim qilgan.

Biz Aydin bilan sinfdosh bo'lganimiz uchun bir-birimizning o'tmishimizni ham yaxshi bilamiz. Zero, bolaligimiz bir joyda kechgan. Aydin kelishgan, kibor, saxovatpesha, shu bilan birga mag'rur, kamtarin inson edi. Do'st birodarlari juda ko'p bo'lib, atrofidaqilar uni doimo e'zozlar va hurmat qilardi. Fakultetning qizlari Aydin desa o'zlarini tomdan tashlashardi. Bunisi ham yetmaganday, fakultetdan tashqarida ham uning bir-biridan go'zal oshiqlari bor edi. Shu sababli o'qishi oqsadi, birin-ketin yillarni yo'qotdi, men kursdan kursga o'tarkanman u qoldi va nihoyat, kursdosh bo'ldik. Buning ustiga raqamlarimiz ham ketma-ket edi. Shu sababli barcha imtihonlarga birga kirdik, barcha amaliyotlarni birga o'tadik. Shuncha vaqt mobaynida bir-birimizga boshqacha nazar bilan qaramadik ham. Yaqin edi-gu, lekin doim oramizda masofa bor edi, faqat bir-birini hurmat qiladigan do'stlar edik. Hamma o'z hayotida yashardi. U paytlar televideniyeining ko'zga ko'ringan muxbiri bo'lib, maktabning eng mashhur o'quvchilaridan biri edim. Gazeta va jurnal sahifalarida tez-tez men haqimda xabarlar chiqar, rasmlarim chop etilar, sharhlovchilar men haqimda gapirishni yaxshi ko'rishardi. Bunday qizning tibbiyot sohasida muvaffaqiyat qozonishi, yaxshi baho olishi hech kutilmagan. U qizning bunday rangli, dabdabali muhitdan voz kechib, kasalxonalarining xira va qorong'i koridorlarini tanlashi

hech kimning xayoliga ham kelmasdi. Holbuki, men yasama soat kabi edim. U soat qo'ng'irog'i qachon chalinishi boshidan aniq edi. Hojatepa universitetining psixiatriya bo'limiga assistentlikka ishga kirish uchun ariza topshirganimda sevimli ustozim Orxan Ozturk so'ragandi: «Qizim, jurnalistlikdan voz kechganingga aminmisan, shifokorlik qiyin kasb. U yerdagi yorqinlikni bu yerda topolmaysan, bu kasb anchagina fido-yilik talab qiladi». Psixiatriyaga ariza topshirganimda oyoqlarim meni qanchalik u yerga yetaklasa-da, aqlim haligacha buning haqiqiy sababini bilmaydi.

O'qish tugashi arafasida Aydin bilan do'stligimiz o'zgara boshladi. Go'yo yillar davomida birga bo'lmagan kabi bir-birimizni yangidan kashf qildik va turmush qurdik. Turmushimiz davomida bir-birimizni tushunmagan vaqtlarimiz bo'lsa ham u bilan oila qurganimdan hech afsuslanmadim, uni doim sevdim va ishondim. Aydin uchun ham shunday edi. Farzandlari qanday bo'lsa, u uchun men ham shunday edim. Buning nomi ishq bo'lmasa-da, samimiy sevgi, do'stlik va sadoqat edi. Uning tirnog'i toshga tegsa, tosh mening yuragimga botardi. O'ttiz to'qqiz yoshida ilk yurak xurujini kechirgandan so'ng xayolim faqat unda bo'lib qoldi. Rangi o'zgardimi deb qarardim. Hamma narsada juda kuchli bo'lgan men uni yo'qotishdan juda qo'rqardim. Ahvoli yomonlashganini sezsam, oyoq-qo'lim titrardi, vahima bosardi. Bir kuni to'satdan yomon xabar eshitish eng dahshatli xayolim edi. Sadoqat tuyg'usi bu munosabatning qayerlarigadir singib ketgandi, go'yo.

Aslida, u ham menga aynan shunday munosabat ko'rsatar, meni har doim sog'lom, kuchli va quvvatga to'la ko'rishni xohlardi. Men tabiatan shunday edim, lekin mening ozgina shikoyatim bo'lsa, u qo'rqib ketardi. Yarim kecha nimadir xohlasam, hech og'rinmas, kiyinib, butun Anqarani aylanib bo'lsa ham o'sha narsani topib kelardi. Mendan birgina shikoyati bor edi: doim yonida bo'lolmasdim.

Yillar davomida yuragi bilan bog'liq muammolar bo'ldi, biroq qanchalik qiyin bo'lmasin men bunga ko'nikdim.

Qo'rquvlarim hech tugamasa ham ular bilan yashashni o'rgandim, ammo bir halokatli kasallikning bu ro'yxatga qo'shishini ikkimiz ham kutmagandik. Zero, uning juda jiddiy kasalligi bor edi va buning ustiga yana boshqasi qo'shilmas deb o'ylardim. Biroq bunday bo'lmadi. Hayot biz bilan yana g'alati bir o'yin o'ynadi va kutilmaganda shifokorlar unga surunkali va halokatli kasallik tashxisini qo'yishdi. O'sha kunlardagi isyonimni yaxshi eslayman... Hamma holatda sabr qila olgan, sovuqqonlik bilan yondasha oladigan men go'yo boshqa bir odamga aylangandim. Haqiqatni hech qabul qila olmasdim. Qayg'udan butun olamimni g'azab qoplab olgandi. Go'yo o'limni Aydin chaqirib olganday undan jahlim chiqar, meni tashlab ketishini o'ylashim bilan vahima bosardi. Aydin esa bu holatga hech javob qaytarmas, boshiga kelganlarni o'ta vazminlik va tavakkul bilan qabul qilgan edi. Aslida, u o'limning sovuq yuzi bilan ancha yillar oldin qarshilashgan, o'zining shu kungacha yetishini o'ylamagandi ham. U nohaq emasdi. Chunki barcha shifokorlar avvalgi paytlarda Aydin bilan bir fikrda edilar. Buni qabul qila olmagan, balki shuning uchun ham qo'rquvlaridan hech qutulolmagan yolg'iz odam men edim.

Ba'zida unga hayrat bilan qarardim. Aydin dindor odam emasdi. Shunga qaramay, qanday qilib o'limni bu qadar tavakkul bilan qabul qila oldi? Demak, e'tiqod va dindorlik bir xil tushuncha ekan. Lekin bu so'nggi va halokatli tashxis uning nigohlarini teran va ovozini mayinroq qilib qo'ygan edi. Unga har qaraganimda ichimda asta-sekin kuchayayotgan og'riqni to'xtata olmasdim.

Muolaja boshlangan va men hayotimni har onini uning yonida bo'lish uchun rejalashtirgan edim. Kimyoviy terapiya va radioterapiyalarni vaqtida olar, bu kasallikni davolaydi deb tabiblardan olgan turli damlamalarni ham birga ichardik. Ichimdagi g'azab o'rnini achinish egallagandi. Uni bunday so'lg'in, horg'in ko'rib, yuragim yonardi, hayotning vasvasa soladigan cheksiz umidlariga sho'ng'ib ketardim.

O'sha paytlarda klinikaga ham to'liq borolmadim. Haftada bir-ikki marta uchrab kelar va og'ir holatdagi bemorlarimga qaray olardim xolos. U meni yonida ko'rishni xohlar va men ham bu istagini oxirigacha amalga oshirishga harakat qildim. Aydin shifokor bo'lishiga qaramay shifoxonalarni yoqtirmas, bir kun ham u yerda qolishni istamasdi. Buni bilganim uchun imkon qadar bemorlarni undan uzoq tutar, juda bo'lmasa, albatta, men yonida bo'lardim.

Uyni yaxshi ko'rardi, ayniqsa, uyda men bilan birga o'tirishni... Kasallik va o'limni gapirish o'rniga o'tmishning tumanli yo'llarida kezishni afzal bilardik. O'quvchilik vaqt-larimiz, farzandlarimizning dunyoga kelishi, birga qilgan sa-yohatlarimiz, eski do'stlarimiz, eski ustozlarimiz, birga dars qilgan kunlarimiz, yana birga imtihonga kirgan paytlarimiz haqida gaplashardik. Birga televizor ko'rar, ba'zan video o'yin o'ynardik. O'yin bo'lsa ham yengilishni xohlamasdi. Bir to-mondan uning g'olib bo'lishi uchun qo'ldan kelganni qilish, bir tomondan buni sezdirmaslik qiyin bo'lardi. Lekin bu rol menga notanish emasdi.

Sayohat qilishni yaxshi ko'rardi. Yonida men bo'lsam qa-yerga borish u uchun muhim emasdi. Kasallik tashxisi aniq qo'yilgandan so'ng ham u bilan ko'p joylarga bordik. Istanbulga, Qibrisga va oxiri, Didimdagi yozgi uyimizga borishni xohladi. Bordik. Bir kun bo'lsa ham shikoyat qilmadi, isyon qilmadi, kasallikdan, o'limdan og'iz ochmadi. Tez-tez eski al-bomlarni olib, uzoq-uzoq termilardi. Ba'zan meni ham yoniga chaqirar, rasmlarni birga tomosha qilar, u kunlarni kulib, ha-zillashib, gaplashib eslardik.

Go'yo barcha yomon kunlar kelishib olib, birga kelayot-gandek edi. Aydinni juda yaxshi ko'radigan, uning kasalligini eshitib bir necha kunlab ko'z yosh to'kkan, har kuni bizdan xabar oladigan, kayfiyatimizni ko'tarishga urinadigan do'stla-rimiz bor edi. Bu yaqinlik, bu do'stlik va aloqalar ikkimizga ham tasalli berardi. Shu bilan birga ko'ngilsiz xabarlar ham birin-ketin kelar, kunda bironing o'lim xabarini eshitardik.

Dardlar, yo'qotishlar ustma-ust kelaversa inson qayg'uga botib qolarkan. Go'yo tuyg'ularimiz muzlagan, biz ularning sinish kunini qo'rquv bilan kutardik. Hali birinchisini qabul qilib ulgurmay, ikkinchi yomon xabar kelar, hayot bizni hech ayamay ikkinchi yuzini ko'rsatardi.

Faqat men emas, bolalarim ham g'amga botgandi. Bizga yordam berish uchun nima qilarini bilmas, qo'rquvdan katta-katta ochilgan ko'zlari bilan atrofimizda girdikapalak bo'lishardi. Kasallik aniqlanganidan bir yil o'tdi. Har o'tgan kun hammamizning qo'rquvimizni orttirardi. Qizim Yag'mur turmushga chiqqani uchun kechgacha dadasining boshidan ayrilmas, kech tushgach uyiga qaytarkan, xayoli dadasida qo'lardi. Ota-qiz avvaldan bir-biri bilan juda inoq edilar. Hasan esa qo'rquv to'la ko'zlari bilan atrofimizda aylanib yurardi. Do'stlari uni hech yolg'iz qoldirishmasdi, uyga biri kelib, biri ketardi. Doimgiday eng ko'p Emre kelar, u nozik, ko'rkam, kelishgan yigit edi.

2007-yilning fevral oyi oxirlari edi. Yag'mur homiladorligi haqida xushxabar aytdi. Eh, nihoyat, yaxshi xabar ham eshitdik deb rosa xursand bo'ldik. Hafta oxiri Hasan va do'stlari Kartalkayaga ketishayotgan edi. Hasanning hech bo'lmaganda bir necha kun bu qayg'uli muhitdan uzoqlashishini eshitish hammamizni quvontirdi. Erta tongda qayiqlarni mashinaga yuklab uydin chiqishdi. Anqarada qor bor edi. Bir necha soatdan keyin qo'ng'iroq bo'ldi. Hasan qo'ng'iroq qilayotgandi. Go'shakni Aydin ko'tardi. Trassada tez ketayotgan bir mashina sirpanib ketib, to'rtta do'st ketayotgan mashinani orqadan kelib uribdi. Uchtasining burni ham qonamabdi, lekin Emre mashinadan tashqariga otilib ketib, o'sha yerda halok bo'libdi.

Aydin menga buni aytarkan, endi qo'rquvga g'arq bo'lgandik. Buning ustiga shum xabarni Emrening oilasiga aytish gardanimga tushdi. Qo'ng'iroq qilib, o'g'lingiz o'ldi, deyishim kerak edi. Qilolmayman, deyish yo'q, doimgiday xayolingni yig'ib, nima kerak bo'lsa, shuni qilishing kerak. Ichimda bir ovoz to'xtamay shunday derdi: «Agar biror kun Oloviddin-

ning sehrli chirog'ini topib olsam, ichidagi devdan uch narsa so'rardim. Birinchisi, o'sha tongda Emrening dadasi bilan bo'lgan suhbatimizni miyamdan o'chirib tashla derdim. Emreni ortga qaytara olmasang, hech bo'lmaganda u xotirani o'chir va men buni boshdan o'tkazmagan bo'lay».

Mana yana Madalyon klinikasida ish joyimdaman. Endi Aydin yo'q, hayot esa davom etyapti. Klinika issiq va ozoda. Qahvani uyda ichganim uchun Nevin achchiq choy keltiradi. Kompyuterimni ochib, uchrashuvlar ro'yxatini ko'raman. Bugun tushlikni, albatta, o'z vaqtida qilaman deyman ichimda. Tunani ogohlantirdim, tushlik vaqti bo'lishi bilan menga xabar beradi. Telefon qo'ng'irog'ini bosib, Tunaga tayyor ekanligimni aytib, bemorni kutib olish uchun o'rnimdan turib, eshik tomonga boraman. Ichkariga qirq yoshlar chamasi, bir er-xotin kiradi. Ikkisi ham bashang kiyingan, madaniyatli, kibor kishilar. «Birga kelishganiga qaraganda oilaviy muammo bor», deb o'ylayman, lekin ikkisi ham bir-biriga juda mos va itoatkor ko'ringanlaridan qaysi biri muammo chiqarganini aniqlay olmayman.

Ikkisi bilan ham qo'l berib, tabassum bilan ko'rishib, qarshimdagi o'rindiqqa o'tirishlarini kutaman. Psixiatrga birinchi marta kelganlari va bu ishda yangi ekanliklari ko'rinib turibdi. Avval so'zni qayerdan va nimadan boshlashni bilishmaydi. Bu holatda biroz bo'lsa-da, vaziyatni yumshatish uchun kulib, ularga nimalardir aytishni boshlayman. Bahor haqida, gullar, tirbandlik haqida gapiraman va ikki tomonlama munosabat boshlanadi. Biroz xotirjam bo'lganlaridan keyin, «Marhamat, afandim, endi sizni eshitaman», deyman. Birinchi bo'lib erkak kishi gap boshlaydi. Kulrang ko'ylak kiygan. Galstugi va cho'n-tagidagi dastro'mol binoyiday. Ko'zida tilla hoshiyali ko'zoy-nak. Sochini chetlari yengil taralgan. Past ovozda gapiradi, gapirayotib tez-tez rafiqasiga qarab qo'yadi.

– Doktor xonim, bizning turmush qurganimizga o'n yil bo'ldi. Shukur, turmushimizda umuman muammo yo'q. Farzandimiz ham bor. Rafiqam universitetni tamomlagan, ammo

ishlamadi. Shukr, moddiy ahvolimiz ham yaxshi. Mening xususiy shirkatim bor. Oilam, bolalarim haqida qayg'uradigan odamman. Orada mayda-chuyda muammolar chiqsa ham, ularni o'zim hal qilaman. Rafiqam sokin, kamgap, menga juda bog'langan ayol. Sayohat qilishni unchalik yoqtirmaydi. Men olib borsam boradi, bo'lmasa e'tiroz qilmaydi. Orada bir qancha kurslarga bordi, keyin o'zgarib qoldi. Bezovta. Kechalari uxlamaydi. Avvaldan kamgap edi, hozir umuman gapirmay qo'ydi. «Nima bo'ldi, biror darding bormi?» deb so'rayman. Unga ham javob bermaydi. Aslida shifokorga, borishni xohlamadi, qarasam, ahvoli yaxshilanmagach, majburan sizga olib keldim. Qolganini o'zi tushuntirsin.

Vaziyat men o'ylaganimdan ancha farqli. Demak, asl muammo ayolda, biroq eri gapiryapti. Bu holat menga unchalik yoqmadi, chunki inson kechinmalari haqida o'zi aytmasa va bu yerga boshqa kishi tomonidan zo'rlab keltirilsa, orqasidan boshqa muammolar chiqadi.

Ayol o'tirgan tomonga sekin burilib, kulib qarayman. Mo'viy, g'oyat go'zal ko'zlari bor. Pardozi qilmagan. Egnida yoqasiga olmos to'g'nog'ich qadalgan lojuvard kostyum. Demak, to'g'nog'ich juda qadrli. U ham menga kulib qaraydi. Ammo bu safar men unga sezdirmay diqqat bilan razm solaman. Oldin yuzidan qidirishni boshlayman. Yuzidan biror xiralik, nomutanosiblik izlayman, biroq topolmayman. Aksincha, u ham menga tabassum bilan qaraydi. Kayfiyati yo'q, asabiy emas. Tartibli kiyingan. Qo'llarida bo'yoq yo'q, lekin tirnoqlari tartibli va parvarish qilingan. Sartaroshga bormagani ko'rinib turibdi, lekin sochlari toza va batartib. Terisi yorqin. Tishlari to'g'ri, ammo oppoq emas.

– Siz Azmiga e'tibor qilmang, u hamma narsani bo'rttirib yuboradi. Aslida, biror jiddiy muammoyim yo'q, faqat kechalari uxlo olmayapman.

– Qiziq, nega? Oldin ham uyqusizlikdan bezovta bo'lganmisiz?

– Hech unday bo'lmasdi. Azmi ham yaxshi biladi, uxlash jon-u dilim. Qo'yib bersa, kunduzi ham uxlayman.

– Sizni o‘ylantirayotgan yoki bezovta qilayotgan biror muammo bormi?

– Yo‘q, aksincha, hozir juda yaxshi bo‘lishim kerak. Lekin biroz qo‘rqyapman, shekilli.

Hamma narsa risoladagidek go‘yo, lekin hali ham men butunlay anglab yetmagan nimalardir bor. Past ovozda kulib gapiryapti. Eri bilan munosabatida xotinning foydasi ko‘zlanayotgandek ko‘rinadi. Go‘yo ayol o‘ndagi nol kabi. Eriga, uning munosabatiga, sevgisiga juda ishonadi. Unda biror muammoni ham sezmayman. Bu yerga majburlab olib kelganiga qaramay, eridan ham jahli chiqmagan. Hatto buni turmush o‘rtog‘ining mehribonligi sifatida qabul qilmoqda.

Ammo oxirgi gapida biroz nomutanosiblik bor. Yaxshi bo‘lishi kerak, lekin qo‘rqyapti. Sekin eriga qarayman. Oxirgi gapida ayoli nima deyishni xohlaganini u ham tushunmadi va unga savol nazari bilan qaradi.

Biz psixiotorlar hamma narsaga qiziqamiz. Yaxshi yoki yomon jihatlariga ham. Chunki inson hamma narsadan ta’sirlanishi mumkin.

– Aslida, birdan sodir bo‘lmadi. Anchadan beri sezardim-u, bunchalik aniq emasdi. Uni ko‘rish hayajonlantiradi. Ham juda sevindim, ham g‘alati bo‘ldim. Qo‘rqib ketdim ochig‘i. To‘satdan nima bo‘lganini bilmay qoldim. Hozir hammasini boshidan o‘ylab ko‘rishim kerak. O‘zgartirishim kerak bo‘lgan ko‘p narsa bor.

Azmibey ham xuddi mendek diqqat bilan tinglar, biroq bu gaplarni birinchi marta eshitayotgani uchun mendan ko‘ra ko‘proq qiziqish va hayajon bilan so‘roqqa tutardi.

– Ijlal nimalar deyapsan? Nimani ko‘rding?

– Xavotir olmang, u qadar jiddiy gap yo‘q. Aslida, holatni siz ham bilasiz. Boshqa bir olamda men muhim odamman. Har doim buni sezaman, lekin vaziyat uncha aniq emasdi. Men boradigan yig‘ilishlarni bilasiz-ku.

– Qaysi yig‘ilishlar?

– Bilmaganga olmang! Qancha yig‘ilishlarga bordim.

– Qoriyalik kurslarini aytyapsanmi?

– Ular qoriyalik darslari emas, diniy bilimlarni orttirish va rivojlantirish yig'ilishlari. U yerda ham Qur'on o'qiymiz, ham ustoz har darsda boshqa olamda bizga nur tutuvchi bilimlar beradi. Ilk borgan kunimdan e'tiboran mening ulardan farqli ekanligimni angladi. Menga alohida e'tibor qaratdi. Albatta, shunday qiladi. Demak, xabar mendan oldin unga borgan.

– Nimaning xabari?

Shu yerga kelganda Ijlal xonim boshini menga burib, noliydi.

– Doktor xonim, menimcha hamma erkaklar shunday. Bolaga o'xshashadi. Azmi meni juda sevadi. Nima qilsa ham yoqadi. Hech narsaga e'tiroz bildirmaydi. Bugun bu yerda biroz hayajonlandi, shekilli. Holbuki, kecha kechqurun bularning barini unga aytgandim. Endi esa xuddi eslay olmayotgandek ko'rsatyapti o'zini.

– Nimani aytding Ijlal? Yana bir marta aytsang o'lasanmi?

– Azizim, yarim tunda sizni uyg'otib aytmadimmi? Yo Xudoyim, yo tavba!

– O'sha tushingni gapiryapsanmi?

– Hartugul esladingiz. Go'yo meni davolatishga olib kelingiz-u, lekin istasangiz doktor xonim sizni ko'rib qo'ysin.

– Tushingda nima bo'lgandi? Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamni ko'rganingni aytganding. Xo'sh, nima qilibdi?

– Tavba deng, azizim, tavba deng. Yana nima bo'lsin? Ochiq-oydin ko'rsatishdi, axir menga.

Ishlar chalkashdi. Bu vasvasaga o'xshayapti. Ya'ni haqiqat mexanizmi buzilgan. Bu yo'lning oxiri qayoqqa olib boradi? Yomon tomoni eri, ya'ni Azmi buni tushunmagan. U ham men kabi ba'zi narsalarni shu onda angelayapti. Kasallik juda ayyor ko'rinadi, ammo Ijlal xonimni bu yergacha olib kelganiga qaraganda unga teskari ishlar ham bo'lgan. Endi imkon qadar ko'proq ma'lumot olishim kerak. Bu orada Azmibeyning rangi-quti o'chdi. Holatdan juda ta'sirlandi. Ayolining kasalligini tan olish og'ir bo'ldi unga.

Endi kasallikni aniqlashim hamda ularga muolaja buyurishim kerak. Agar buni qilolmasam Ijlalning kasalligi kuchayib

ham o'ziga, ham eriga, ham bolalariga zarar yetkazishi mumkin. Bu holatdagi bemorlarning nima qilishi mumkinligi haqida gazetalarda tez-tez o'qiydiz. Turmush o'rtog'iga yoki bolalariga Tangridan buyruq kelgani uchun zarar berganini da'vo qilgan odamlar aynan shunday bemorlar toifasiga kiradi. Holbuki, tashqaridan qaraganda Ijlal qanchalar sog'lom ko'rinadi. Hozir uzoq yillardan beri menga kotibalik qilib kelayotgan har kuni o'nlab bemorlar bilan birga o'tiradigan, ular bilan suhbat qiladigan Tunadan: «Bugun oldimga kelgan bemorlar ichidan eng jiddiy kasalligi borlari qaysilari», deb so'rasam, aminmanki, Ijlalni eng oxirgi o'ringa qo'yadi va uning qanday axloqli va kibor xonim ekanini aytib maqtaydi menga.

Azmibey ham vaziyatni to'g'ri tushunishi kerak. Aks holda, vaziyatga jiddiy qaramaydi. Shuning uchun uni xonadan chiqarmasdan Ijlal bilan gaplashishda davom etaman.

– Ijlal xonim, haqsiz. Bu erkaklar doim shunday. Yosh bolaga o'xshashadi. Ko'rinib turibdi, turmush o'rtog'ingiz siz haqingizda juda qayg'uryapti. Siz bilan bog'liq hamma narsa uni hayajonga soladi. To'g'risi, shu tushga qiziqib qoldim. Menga ham aytib bera olasizmi?

– Aslida, bunday tushlar hammaga ham aytilmaydi. Ammo siz doktorsiz. Men anchadan beri g'alati tushlar ko'rardim. Qandaydir chalkash, muammoli tushlar, voqeliklarni anglolmaysiz. Xuddi uzoqdan kimdir qarab turganday, lekin doim orqaga o'girilgan. Yuzini hech ko'rolmayman. Baland bo'yli, uzun, oppoq kiyim kiygan bir chol. Men bilan gaplashmaydi. O'tgan kuni yana yig'ilishimiz bor edi. Ustozimiz gapirib turib menga qarar va ora-orada kulib qo'yardi. Bunda bir gap bor dedim. Qur'on o'qish navbati menga kelganda ustoz ayt-sa ham o'qimadim. Qulog'im shang'illar, go'yo kimdir menga nimalardir deyishga urinayotgandi. U kuni nima deganini tushunmadim. So'ng ustoz yonimga keldi. Barmog'i bilan kitobdan nimalarnidir ko'rsatdi. Men ham qaradim «Alloh», dedi. Men ham «Alloh» dedim. Ustoz shu paytda «Mana endi hammasi yaxshi» dedi. Shunda xonadagi hamma o'girilib menga

qaradi. Azmi ham yaxshi biladi, men juda tortinchoqman. O'sha kuni yuzim qizardi, yuragim tez-tez urishni boshladi. Holbuki, bularning hammasi ishora ekan. Mendan boshqa hamma buni bilarkan. Inson ba'zan ko'zi bilan ko'rsa ham ishonolmaydi. Uyga kelganimda mast odamga o'xshardim, darrov yotdim. Kechki payt Azmi kelishi bilan: «Senga nima bo'ldi, biror joying og'riyaptimi?» deb so'radi. «Unchalikmas, biroq hamma bilar ekan, siz ham bilarmidingiz?» dedim. «Yuzingdan ko'rinib turibdiki», dedi. Hayron qoldim. Demak, Azmi ham haqiqatni anchadan beri bilgan, lekin aytmagan. Hozir u sizga haqiqatlarni aytmayapti, ammo balki u bularni hammadan oldin bilgandir. Chunki turmush qurganimizdan beri u meni boshida ko'taradi, aytganimni hech rad qilmagan. Bular faqat menga bo'lgan sevgisi tufayli emas. Bunda ozroq qo'rquv ham bor. O'sha kecha shularni o'ylab yotib uyquga ketibman so'ng shu tushni ko'rdim. Hech muborak yuzlarini menga qaratmagan janob Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aniq ko'rindilar menga. Uzoqdan yonimga sekin-as-ta keldilar. So'ng salom berdilar va u zot ham «Alloh» dedilar. So'ng tezlik bilan ko'kka qaytib ketdilar. Oh o'zimni yomon his qilyapman. Bu tushni aytish og'ir. Qarang, qanday hayajonlandim. Oyoq-qo'lim titrayapti.

Bularni aytarkan, titrayotgan qo'llarini ko'rsatdi. Qo'lida umuman uzuk yo'q. Nikoh uzugini ham taqmagan. Shu orada Azmibeyning qo'llariga qarayman. Chap qo'lining to'rtinchi barmog'ida qalin tilla nikoh uzugi bor. Azmibey ayolining aytganilarini eshitib hayratdan qotib qolgan. Labining ustidagi sarg'ish mo'ylovini o'ynayapti.

- Ha, Ijlal xonim, ko'rinib turibdiki, bu tush sizni juda qattiq ta'sirlantirgan. O'zingiz qanday izohlaysiz?

- Xonim, izohga hojat bormi? Siz Xudoga ishonmaysizmi?

- Ishonmaslik mumkinmi? Mening dinga nisbatan yuksak e'tiqodim bor.

- Ha, ha. Xonaga kirishim bilan buni sezganingizni darrov angladim. Hurmatimizni joyiga qo'yib kutib oldingiz.

Tuna xonim ham shunday qildi. Xonim bizni o'tqazishga joy topolmadi. Xonim, butun dunyo bilarkan-u, bir mening xabarim yo'q ekan. Aslida, xabarim yo'q edi deganim bilan, ko'p narsani sezardim, faqat bunchalik ahamiyatli ekanini ochiq gapirishmagandi. Ishni qayerdan boshlashni ham o'ylab ko'r-madim hali. Hamma narsa shu qadar tez sodir bo'ldiki. Kim biladi endi bunga loyiq bo'lish uchun nimalar qilishim kerak!

– Nimalar bo'lishi mumkin?

– Men avvaldan ko'p duo qilardim, lekin, to'g'risini ayt-sam, namozni muntazam o'qimasdim. Bola-chaqa deb bepar-vo bo'ldim. Bu yig'ilishlarga qatnashishim bilam aqlim joyiga keldi.

– Yaxshi, ammo bolaga kim qaraydi?

– Uni uch oy avval onamnikiga yubordik. Hammasini bara-var qilib bo'lmaydi. Hozir mening muhim ishlarim bor.

– Qanday ishlar?

– Uni vaqt ko'rsatadi. Hammasini birdan aytishmaydi. Yaqinda meni ham yuqoriga chiqarishadi.

– Yuqoriga?

– Albatta, doktor xonim, bilmaganday gapirmang, iltimos. Ishim tugagach chiqarishadi. Qolganini u yerda davom etti-raman.

Jiddiy vasvasa holati, tushunchalar ongga o'rnashib ulgur-gan. Bu kabi kasalliklarda (paranoid holat) avval kasallarning fikrlari chalkashadi. Yashayotgan dunyolarida va atrofida sodir bo'layotgan g'alati narsalar tasavvurida bo'ladi, lekin aniq nima ekanini anglay olishmaydi. Shundan so'ng ular asabiylashishadi va bezovta bo'lishadi. Ta'sirchan va shub-halanuvchi bo'lib qolishadi. Hamma narsadan ma'no chiqa-rishga urinishadi, biroq voqeliklarni aniq izohlay olishmaydi. Ko'chadan kelgan signal tovushlari, svetaforlar, birgalikda kulib gaplashgan insonlar, ularga aytilgan har bir so'z, gaze-talardagi xabarlar, televizordagi dasturlar, bolalar yig'isi ham o'zgacha ma'no ifodalaydi. Bularning barchasi faqat ularga nimalarnidir anglatishini xohlashadi. Bu narsalarning mush-

tarakligi ular o'zlarining har doim qanchalik muhim inson ekanini ta'kidlashidadir. Yo butun dunyoning axborot tashkilotlari ularning ortidan quvadi, yo butun dunyo ularga oshiq, yo erlari yoki xotinlari xiyonat qiladi yoki Xudodan ular bilan bog'liq juda muhim xabar keladi. Orasida eng xavfli «Xudodan xabar kelganlari»dir, chunki bu xabarlarda buyurilgan vazifalarni ado etish uchun turli vahshiyliklarni qilishlari mumkin. Bolalarini Xudoga qurbon qilishlari yoki ba'zi kishilarning shayton bilan aloqasi borligi uchun jazolashlari lozim bo'lishi ehtimoli bor. Bu holat miya faoliyatining buzilishi sabab bo'lgani uchun javobgarlikka tortilishmaydi va jazolanishmaydi.

Yurtimizda bu kabi kasallar ayb ish qilganida, ya'ni odatda, kimnidir vahshiylarcha o'ldirganlarida oldin ruhiy holatini aniqlash uchun tibbiy ekspertiza tekshiruviga yuboriladi. Kasallik jiddiy bo'lsa, jazolanmaydi, ruhiy shifoxonalarga yuboriladi va u yerda bir yilcha davolanadi, keyin chiqarib yuboriladi. Ammo, afsuski bu kasallik qaytalanuvchi xastadir va butun umr davolanish talab qilinadi. Bir muddat olib borilgan muolajadan keyin kasallarning ko'pi davolanishdan bosh tortadi va biroz vaqt o'tib, kasallik yana qaytalanadi. Bir marta jinoyat qilsa, ayniqsa, kimnidir o'ldirsa, bu ishni yana qilish ehtimoli yuqori.

Ko'pincha gazetalarda ko'zimiz tushgan, ya'ni xiyonat qiladi deb o'ylagani uchun ayoli yoki sevgilisining joniga qasd qilgan erkaklar shunday kasallikka chalingan shaxslar hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, Ijlal xonimning eri Azmibey ayoliga juda katta ishonch bildirgan. Shu sababli kasallik o'zini ko'rsatish uchun boshqa joy qidirgan. Izlaganini topishda juda qiynalgan va diniy yig'ilishlar kasallikning yuzaga chiqishida yordam bergan.

Men shularni o'ylarkanman, Azmibey hayrat ichida bir menga bir ayoliga qarashda, kostyumini tez-tez orqaga tortib o'rindiqla qimirlashda davom etadi. Bu holatdan eng ko'p hayratlangan u bo'ldi. Ijlalning aytganlarini eshitib, rangi

o'zgarib ketdi sho'rlikning. Lekin uni bu yerga olib kelgani-ga qaraganda hali unda g'alati narsalar sezmagani. Endi men sovuqqon bo'lishim, qanday qilib bo'lsa ham Ijlalni davola-nishga ko'ndirishim kerak. Hozir: «Siz kasalsiz, ayniqsa, bu juda jiddiy xastalik, ham o'zingizga, ham yaqinlaringizga zi-yon keltirishingiz mumkin», desam, avval gaplarimga kuladi, keyin o'rnidan turib chiqib ketadi. Butun dunyo bir bo'lib, sen kasalsan, desa ham bu holatida unga ta'sir qilmaydi. Boshqa yo'lini topishim kerak.

Naqadar yoqimli va xushbichim ayol! Aslida, u bilan bog'liq ilk detalni menga Azmibey berdi. «Rafiqam sokin, kamgap, menga juda bog'langan ayol. Sayohat qilishni unchalik ham yoqtirmaydi. Men olib borsamgina boradi, bo'lmasa e'tiroz qilmaydi», dedi. Demak, introvert – odamovi xarakterga ega. Bu kabi kasallarning ko'pchiligi introvert – odamovi kishilar-dir. Ijtimoiy munosabatlari zaif, dunyoga qiziqishi oz.

Ko'pincha tuyg'ularini oshkor qilishmaydi. Ko'pchiligi asa-biy va vahimachi. Tez xafa bo'ladi va voqealarni xotirasida saqlaydi. O'ziga ishonchi past va xotirjam emas. Ularni sev-magan, mensimagan bu dunyoga ich-ichlaridan g'azab tuyi-shadi.

Bolani uch oy oldin onasinikiga yuborishgan. Bu ham g'a-lati holat. Ijlal uy bekasi, ya'ni ishlaymaydi, biroq yolg'iz far-zandiga qarolmaydi va onasinikiga yuboradi. Qisqa fursatga ham emas. Shu joydan ushlasammikin?

- Bolangiz onangiz bilan, shundaymi?
- Ha, yaxshiyam yuboribmiz. Shu kunlarda juda band bo'laman.
- Necha yoshda?
- Besh yarimda. Keyingi yil maktabga boradi.
- Uch oydan beri uni ko'rmadingizmi?
- Orada bir tushimda ko'rdim.
- Bola bu yoshda ota-onasidan uzoq bo'lmasligi kerak, le-kin sizning ko'rinishingiz yaxshi emas, Ijlal xonim. Charcha-ganga o'xshaysiz.

– Charchaganman. Necha oylardan beri uxlolmayman. Qachon ko'zimni yumsam tushlar boshlanadi.

– Demak, uyqusizlikdan shunday bo'ldingiz.

– Ora-sira boshim ham aylanyapti. Namoz o'qiyotganimda egilib qaddimni rostlar ekanman, yiqilib tushadiganga o'xshayman.

Shu yerda Azmibey gapga qo'shiladi.

– Ijlal, hammaning namozi besh daqiqada tugaydi, lekin seniki soatlab davom etadi. Ertalabdan kechgacha namoz o'qilmaydi-ku...

– Siz aralashmang, Azmi. Bu ishlarga sizning aqlingiz yetmaydi.

Demak, soatlab namoz o'qiydi. Kasallik ancha oldin boshlangan.

– To'g'ri, Ijlal xonim haq. Biz hamma narsaga aralashmasligimiz kerak. Nima qilishni u yaxshi biladi, biroq men doktor sifatida sog'ligingiz mavzusiga aralashishni istayman. Siz hozir sog'lom bo'lishingiz kerak. Tezroq sog'aying va bolangiz ham boshqa joylarda qolmasin. Kim bilsin, onasini qanchalik sog'indi ekan. Shu kunlarda ishtahangiz qanday?

– Yaxshi, yaxshi. Men endi ovqat yemasam ham bo'ladi.

Azmibey yana gapga qo'shiladi.

– Yo'q, doktor xonim. Na ovqat tayyorlaydi, na ovqat yeydi. Yana «Men yemasam ham bo'ladi», nima degani? Sen odam emasmisan?

– Azmibey, iltimos... Albatta, inson rafiqasi haqida qayg'u-rarkan, shunday hamma narsaga aralashadi. Hozir men sizga bittagina dori beraman Ijlal xonim. Buni kechqurun yotishdan oldin iching. Oldin uyqungizni joyiga keltiraylik, bosh aylanishingiz qolsin. Undan keyin holsizligingiz bilan shug'ullanamiz. Shu kunlarda holsizlik yana biroz davom etadi, ammo qo'rqinchli emas. Keyinroq uning ham chorasini ko'raman. Boshqa dori olmang. Hozir ko'p dori ichishning keragi yo'q.

– Ko'p dori ichishni yoqtirmayman, lekin yozavering. Shu holsizligim tezroq o'tib ketsa qiladigan juda ko'p ish bor.

- Xo'p, tashvishlanmang, u ham o'tib ketadi. Qarang, ro'yxatni yozdim. Bu telefon raqamim. Biror muammo bo'lsa, qo'ng'iroq qilishingiz mumkin.

Ro'yxat va tashrif qog'ozini Azmibey olib, navbat bilan xayrlashib tashqariga chiqishadi. Azmibey xavotir bilan menga qaraydi. Mendan so'raydigan ko'p savollari borligiga aminman, biroq hozir emas. Ijlalni shubhalantirmaslik kerak. Men ham Azmibeyga qarab, «Telefon raqamlari yozilgan tashrif qog'ozini oldingiz-a», deb so'rayman. Azmibey nima demoqchiligimni tushunadi va biroz xotirjam bo'ladi. Ishonamanki, birinchi qiladigan ishi menga qo'ng'iroq qilish bo'ladi.

Ijlal xonimning muhim bir muammosi bor. Zero, kasal bo'lishdan oldingi xarakteri bu kasallikka qanchalik moyilligini ko'rsatyapti. Mehribon, muammo chiqarmaydigan, uni juda sevuvchi va g'amxo'rlik qiluvchi urning bo'lishi hayotini osonlashtirgan va, balki kasallikning yuzaga chiqish vaqtini kechiktirgan. Shunga qaramay, kasallik uning genida bor. O'sha genlar bu taqdirni, balki Ijlal tug'ilishidan avval uning peshonasiga yozishgandir. Aslida, hozir bu haqida keskin fikr aytish xato bo'ladi. Balki, bugun biz genga bog'lagan sabablar bolaligining uzoq, tumanli, qorong'i burchaklarida yotgandir.

Haqiqiy nomi «paranoid» bo'lgan bu holat insonga ayyorlik bilan yaqinlashadi. Avvaliga inson ta'sirchan va har narsadan shubhalanadigan bo'lib qoladi. Vaqt o'tishi bilan nimalarningdir ta'sirida kishining fikrlari chalkashadi va yechilishi qiyin topishmoq kabi egasini qiynashni boshlaydi. Inson miyasidagi savollarning yechimini topolmaydi. Xayolot olamida uni chaqiradigan, nimalarnidir ko'rsatishga urinadigan, o'sha kungacha boshdan kechirgan hamma narsaning rangini, ma'nosini o'zgartiradigan muhim narsalar bor-u, shuncha harakatiga qaramay uni aniq ko'rolmaydi. Yuragi siqiladi va izlagan sokinligini topolmaydi. Aqli to'fonda qolgan ummonga o'xshaydi. O'zi esa kichik kemasi bilan o'sha to'fonli dengizda u yoqdan bu yoqqa uriladi, kema bilan birga ummonning tubiga g'arq bo'lishdan qattiq qo'rqadi. So'ng bir kunda, balki

bir on ichida hamma narsa o'zgarib ketadi. To'lqinlar to'xtaydi, quyosh chiqadi va kishi bu ochiqlik ichida haqiqatni, uzoq vaqtdan beri qidirayotgan o'z haqiqatini topishni boshlaydi. U yerda topgani qabul qilinadigan narsa emas. «Demak, bu doim shunday bo'lgan, ammo men endi angelayapman», deydi va haqiqat deb bilgan, bu xabarni mahkam quchoqlaydi. Endi u yo minglab odamlar ortidan ergashgan rahnamo, yo dunyodagi barcha axborot tashkilotlari ergashgan, bilgan, bajaragan ishlari bilan dunyo taqdirini o'zgartiradigan maxfiy odam yoki juda go'zal, jozibador, qarshi jins vakilini aqlidan ozdiradigan, uning uchun minglab odamlarni o'ldirish mumkin bo'lgan bir ayol yoki erkakka aylanadi. Xoh u tarafdin bo'lsin xoh bu tarafdin, xullas u juda muhim inson bo'lib qolaveradi. Odamlardan farqli, ulug'vor, oliy va muqaddas bir hayot kechiryapti, go'yo.

Uzoqdan kelgan ikki bemor bor, so'ng ularni ko'raman. Bemorlarni kutib olish yoki uchrashish uchun eshikni har ochganimda qarshimda Alyani ko'raman. Tuna stolining yonidagi o'rindiqlardan birida o'tiradi. Bu safar ham uchrashuvga juda barvaqt kelgan. Har safar u bilan ko'zimiz ko'zimizga tushadi. Unga kulib qo'yaman. Yana ovqatlanish vaqti o'tib ketdi. Men yugurib oshxonaga chiqarkanman, Alya biroz hayrat va qo'rquv bilan orqamdan qarab qoladi. Tuna menga nimadir demoqchi. Quloqchinini olib ortimdan zinaga chiqadi. Mehmet Akifbey men bilan ko'rishmoqchi ekan. «Agar vaqti bo'lsa yuqoriga olib chiq», deyman. «Bir tomondan ovqatlanamiz, bir tomondan gaplashamiz». Sho'rvamdan bir qoshiq ho'plab ulgurmasimdan eshikda Memo ko'rinadi. Egnida doim kiyib yuradigan oq yaltiroq ko'ylagi bilan kulib kelib, yonimga o'tiradi. Oshxona issiq, yorug' va nam. Xonadan bolaligimdagi uyim kabi bug' va yangi ovqat hidi keladi. O'rtada Nevin yugurib yuradi. Oshxonada bizdan boshqa hech kim qolmabdi. Memoga ham bir finjon choy keltirib yonimizdan ketadi. Memo bir bemori haqida gaplashmoqchi. Anchadan beri kuzatib kelayotgan va paranoid belgilari tezlik bilan ko'zga tashlanib borayotgan bir bemorini menga ko'rsatishni xohlayapti.

Tibbiy muolaja kerak, deydi. «Bemorning bunga rozi bo'lishida biror muammo bormi?» deb so'rayman. Bor edi, oxiri rozi bo'ldi, deydi. Shu payt u ham mendan Alyani so'raydi. Hikoyalari aytib berish orqali psixoterapiyaning bir turini qo'llashga harakat qilayotganimni aytaman. Juda e'tiborini tortadi. Unday bo'lsa klinikada bu mavzuda seminar tashkillashtiraylik, deydi. Bo'ladi, deyman. Balki boshqa psixologlarimiz ham bunga qiziqish bildirishar.

Ovqat tugashi bilan ikkimiz ham zinadan tez-tez tushib ketamiz. Mehmonxonada bizni kutib turgan bemorlarimiz bor. Alya meni ko'rishi bilan o'rnidan turadi va Tunaga qarab, nihoyat, navbati kelganidan boladek quvonadi, darrov ortimdan xonaga kiradi.

Bu safar eshikni ochiq qoldirmaydi, e'tibor bilan yopib qo'yadi. U bilan salomlashaman. Bugun barmog'idagi bog'lam yo'q, ammo barmog'ining yaralangani aniq. Chunki ustida sarg'ayib ketgan ko'karishlar bor. Tabassum bilan qarshimdagi o'rindiqqa o'tiradi. Egnida to'q jigarrang nimadirlar: eski ko'ylak, keng shim. Kostyumining yelkalari pastga osilgan. Kostyumini bir silkitsam xonamga pat, chang va kir sochiladi. Hatto yelkasida anchagina kepak ham bor. Yengi shunchalar uzunki, tez-tez tepaga ko'tarib turmasa, qo'li ko'rinmay qoladi. Yengini shimargan vaqtida qo'lidagi ikkita katta bilaguzuk diqqatimni tortadi. Bu bilaguzuklardan menda ham bor. Qaynonamdan yodgorlik. Ularni nega taqdi ekan-a? Hozir yoshlar bunaqa narsalar taqishmaydi-ku. Hatto men ham u bilaguzuklarni hurmat uchun bir-ikki marta taqqanimdan keyin yodgorlik sifatida olib qo'yanman.

O'rindiqqa suyanib oyoqlarini silkitadi. Shu payt baxilla kiyganiga qaramay oyoq kiyimlariga ko'zim tushadi. Eski urfdagi terisi archilgan bu oyoq kiyimlar oyoqlarini silikitishi bilan yechilib ketadi. Demak, oyog'iga bir yoki ikki o'lcham katta. Nega bularni kiygan?

Menga e'tibor qaratmay o'zini go'yo xonada hech kim yo'qday tutadi. Men ham gap boshlamasam u oxirigacha shunday o'tirishda davom etadi. Bu qizni haligacha hech tushunmadim.

- Xush kelibsan!
- Xushvaqt bo'ling!
- Bugun qandaysan?
- Yaxshiman, o'tgan kuni aytgan hikoyalaringiz juda maroqli edi. Yana aytib berasizmi?

Qiziq! Xayoli buzilishi bilan darrov hikoya eshitgisi keladi. Hozir savol berishimni istamasligi tayin, lekin savol bermasam seansni qanday davom ettiramiz? Eh shu qizdan bunchalik bezovtalanmasam unga nimalarnidir tushuntirishim ancha oson bo'lardi.

- Biroq faqat men aytaversam bo'lmaydi, sen ham juda ko'p narsa o'qigansan. Men ham sening hikoyalaringni eshitgim kelyapti.

- Mayli, biror kun men ham aytib berarman.
- Vazning qancha? Juda ozg'in ko'rinasan?
- Qirq bir kiloman.
- Bo'ying qancha?
- Bir-u yetmish bir.
- Bu bo'yga bu vazn juda oz emasmi?
- Belim qancha santimetr ekanini ham so'raysizmi?
- Savollarim yoqmayotganga o'xshaydi.
- Yo'q, yo'q. Shunchaki belim ham qirq besh santimetr.

Savol berishimni xohlamayapti, o'zi ham hech narsa aytmayapti, lekin bu yerga muntazam keladi. Yuziga qarayman, husnbuzarlarga qaramay terisi mayin. Yonog'idan yuqoriga ko'tarilgan ingichka tomirlarni ko'raman. Bu tomirlar bo'y-niga tushib qalinlashib, rangi to'qlashib ketgan. Juda qalin, beso'naqay, o'ziga katta kiyimlar kiygani uchun tanasi qanchalik ozg'in ekanini ko'rolmayman. Aslida, achinarli ahvolda, ammo achingim kelmaydi. Qalbimga quloq solaman, unga nisbatan hech narsa his qilmayotganimni sezaman. Bu holat meni bezovta qiladi.

U esa hech narsa aytmasdan boshini quyi solgancha qarshimda o'tiribdi. Xuddi bekatda avtobus kutib turgandek. Biror narsa qilmasam bu sassizlik borgan sari chuqurlashib ketadi. Tezroq biror narsa aytsam yaxshi bo'lardi.

– Demak, beling qirq besh santimetr!

– Hm, hm.

– O'n to'qqizinchi asrda ayollar qomatlarini chiroyli ko'rsatish uchun juda tor korsetlar kiyishgan ekan. Ular kiygan korsetlar o'n to'qqizinchi asr boshlarida bir yarim santimetr qalinlikdagi teridan qilingan ekan. U korsetlarni kiyganda ayollar ko'kraklaridan oyog'igacha ingichka nay o'tkazilgan chumoliga o'xshab qolisharkan. Kitoblarda shunday yozilgan. Muntazam korset taqqan ayollarning bel va qorin muskullari shunday ozarkanki, korsetsiz tik turolmaydigan, hattoki yotganda ham korset taqishga majbur bo'lib qolishar ekan. U vaqtlarda ayollar ingichka bel ayollik jozibasini orttiradi, deb o'ylashgan ekan. Chunki korsetlar yordamida kichik ko'kraklarda tomog'igacha nozik, jozibali ko'rinisharkan.

Bolalarday qiqirlaydi. Ayollik xususiyati degan birgina so'z uni kuldirish uchun yetarli. Biroz oldingi yomon havo ketdi. Oyoqlarini osiltirib meni qiziqish bilan tinglaydi.

– Aslida, korset ayollarga ham jismoniy, ham ruhiy zarar yetkazgan. Viktoriya davrida o'tkazilgan tadqiqotlar korset ayollarning jigariga jiddiy zarar berganini, hatto ba'zilarining korset tufayli jigari ikkiga bo'linib ketganini ko'rsatgan. Korset inson sog'lig'iga qanchalik zararli ekani isbotlansa ham ayollar uni taqishni yana ko'p yillar davom ettirishgan. Homiladorlik vaqtida ham korset taqish natijasida bir qancha o'limlarni keltirib chiqargan.

– Ayollar uchun go'zallik juda muhim.

– Ha, asrlardan beri doim shunday bo'lgan.

– Xunuklar nima qilsin?

– Xunuk ayol bo'lmaydi, ahmoq ayol bo'ladi.

– Sizningcha men ahmoqmanmi?

– Bilmasam, darslarda a'lochi bo'lgan bir kishini ahmoq deyish qiyin. Bu haqda sen nima deysan?

– Ahmoq emasman.... Biroq o'rganishim kerak bo'lgan ko'p narsa bor. Bularni menga siz o'rgatasiz.

Men o'rgatar ekanman. Go'yo buyruq beryapti. Bu qiz shunchalik tarbiyasizmi yoki gaplashishni bilmaydimi, tushunmayman. Gapirmasa ham ko'z qarashi bezovta qiladi. Bunda nima bor hech anglolmadim. So'qirlardek paypaslab ketyapmiz. Kim biladi oldinda nimalar chiqadi? Uni sal yoq-tira olsam hammasi osonlashadi. Bu holatga men ham o'rganmaganman. Yonimda o'tiradigan hammaga qalbim ochiq, lekin qanchalik majburlasam ham bu qizga nisbatan bunday qila olmayapman. Uni boshqa biror hamkasbimga o'tkazib yuborish imkonim ham yo'q. Yo uni qismati bilan yolg'iz tashlayman, yo qanchalik qiyin bo'lmasin bu jarayonni oxirigacha olib borish uchun qo'limdan kelgan hamma ishni qilaman.

– Nima o'rganishni xohlayotganingni bilsam, balki ishim osonlashadi.

– Hamma narsani. Boshqa hikoya yo'qmi?

– Yanami?

– Bu ham bir ehtiyoj bo'lolmaydimi?

– Albatta bo'la oladi, lekin yigirma yoshdagi bir qizga hikoya aytib berish unchalik oson emas.

– Aytganlaringiz juda yaxshi edi.

– Xo'p, yana ayollar haqidagi hikoyaga nima deysan?

– Yoqadi...Yana go'zallik haqidami?

– Bo'lishi mumkin.

– Mayli... Go'zallik haqida bo'laqolsin... Qani ayting.

O'rindig'ida menga qarab, qo'lini jag'iga tirab, qo'rquv, hayrat va qiziqish bilan menga qaraydi. Xuddi ertak eshitishga tayyorlanayotgan bir bolaga o'xshaydi. Bu qiz hech ulg'aymaydi. Ba'zan odobli, ba'zan yovvoyi mushukka, ba'zan esa ayyor tulkiga o'xshataman uni.

Avvaldan ayollar hozirgiday go'zal bo'lish uchun ko'p aziyat chekishgan. Masalan, ba'zi Afrika qabilalarida ayollar bo'ynini uzaytirish uchun kichik yoshdan bo'yniga metall halqa taqib, ularni o'lguncha yechishmas ekan. Bu halqalar sababli bo'yin muskullari rivojlanmay, uzun bo'yinga ega bo'lishar ekan.

– Uzun bo'yinli bo'lish yaxshimi?

– O'sha paytlar Afrikada shu narsa urf ekan, biroq bugun ham uzun bo'yinli ayollar ancha ustunlar.

Qo'lini jag'idan olib, boshini oldinga, orqaga egib o'zining bo'ynini o'lchashga urinadi. Shu payt men ham unga qarayman. Alyaning bo'yni nozik va uzungina! Go'yo boshini zo'rg'a ko'tarib yurgandek.

– Sizningcha, mening bo'ynim uzunmi?

– Ha, uzun.

– Yaxshi, Xitoyda ham oyoqlarni kichraytirish uchun bir narsalar qilishar ekan. U haqida ham bilasizmi?

– Bilaman, biroq sen ham bilsang aytishimga hojat yo'q.

– Yo'q, yo'q... Iltimos so'zlab bering.

Hozir ham menga nimani hikoya qilishimni aytyapti. Nega bu qizdan bunchalik jahlim chiqyapti? Yuziga boplab bir musht tushirish istagimni orttirayotgan narsa ovoz ohangidagi jirkanchlikmi, gapirish tarzidagi uzuq-yuluqlikmi, o'lik kabi boqqan zaif ko'zlarimi, tushunolmayman. Aydin xayolimga keladi. U anesteziolog edi. Ba'zi operatsiyalarda bemorlardan badbo'y hid kelarkan. Soatlab bu badbo'ylikka chidash, unga yaqinlashish, teginishga majbur bo'lish unga yoqmasdi. Ko'p gapirishni yoqtirmaydigan suyuqlik turmush o'rtog'im ba'zan menga bu holat unga yoqmasligi haqida gapirardi. Xuddi u kabi menga ham bu qiz yoqmayapti. Bu holat faqat menga tegishli deb o'ylamayman. Operatsiya xonasidagilar o'sha ter hididan nasibasini qanday olsa, bu qizga qaragan, bir joyda bo'lganlar ham men kabi uni xushlamasligi aniq. Qiziq tomoni uning o'zi ham buni sezishi. Ter hidi kelishini bilgan odam-ku hammomga kiradi, yuvinadi, bundan xalos bo'ladi. Bu bechora qiz qanday qutuladi? Uni yoqtirmasam ham, uni xushlamasam ham unga yordam berishim kerak.

– Xitoylik ayollarning oyoq bog'lash an'anasi Mao hokimiyat tepasiga kelib, man qilingunga qadar ming yildan ortiq davom etgan. Xitoyliklarning kichkina oyoqqa bo'lgan ishtiyoqi Konfutsiy zamonida boshlangan. U vaqtlarda katta oyoq

har ikki jins uchun quyi tabaqadan bo'lishning belgisi sifatida ko'rilgan. Sharqiy Tan imperatori Li Yu, Totli Bokira ismli nozik belli, oyoqlari kichkina bo'lgan bir joriyaga ko'ngil qo'yibdi. Uning raqs tushishini tomosha qilishni yaxshi ko'rar ekan. Qizning sharafiga sof oltindan nilufargul maydoni barpo qildiribdi va shu oltin maydonida raqs tushishini xohlabdi. Biroq raqsga tushishni boshlashdan oldin hilolga o'xshashi uchun oyoqlarini ipak mato bilan o'rashini so'rabdi. So'ng qizning oltin maydonda raqs tushishini maroq bilan tomosha qilibdi. Imperator uni shunday maroq bilan tomosha qilayotganida Totli Bokira maydon ustida yuqoriga ko'tarilgan bulut kabi og'ir-og'ir aylanarkan oyoqlaridagi ipak bog'lam sababli azob chekar, ko'zlaridan yoshlar oqarkan. Imperator bu ko'rinishdan shunchalik ta'sirlanibdiki, oxiri Totli Bokiraga o'xshasin, qadamlari kichik va nozik bo'lsin deb butun oliy tabaqali ayollarning oyoqlarini bog'lashini buyuribdi. Hamma ayollar bu farmonga bo'ysunishga majbur bo'lishibdi, ammo oyoqlari siqilgani sababli bir muddat o'tib yurolmay qolishibdi.

– Nogiron bo'lib qolishibdimi?

– Afsuski, shunday, faqat taxtiravonlarda yura olisharkan. Yurolmaydigan bu ayollar vaqt o'tib erlarining boyligi ramziga aylanishibdi. Bir tomondan bu yosh ayollarning hassasiz yurolmasligini, oqsoqlanishini ko'rish erkaklardagi ustunlik tuyg'ularini kuchaytirib, ayollarini ko'proq himoya qilishga majbur bo'lishibdi.

Hech qanday hissiyot bildirmay ko'zini mendan uzmasdan eshitadi. Nima his qilganini anglashga urinaman, biroq hech belgi bermaydi.

O'n to'rtinchi asrda bir katolik rohib Xitoyga boradi va kitobida u vaqtlar onalarning kichik qizlarining oyoqlarini qanday zavq bilan bog'laganini yozadi. Chunki u paytlarda onalar qizlarining kelajagini kichkina oyoqlarda ko'rishar ekan. Har bir oyoq eni besh santimetr, bo'yi uch yuz santimetr uzunlikdagi mato bilan o'ralarkan. Oyoqning bosh barmog'i tashqaridan qoldiriladi, qolgan to'rt barmoq tovonga qaratilib bog'la-

nadi. Shunday qilib, oyoq qiz ulg'ayib balog'atga yetganda ham 9 santimetrдан oshmas ekan. Shunday bog'lanib hajm berilgan oyoqqa «oltin nilufar» deyilarkan.

- Og'rimas ekanmi?

Buni so'rayotib baqirib yuborgudek bo'ladi. Ayollarning azoblanishidan juda ta'sirlandi. Ko'z qirim bilan unga qarayman. U ham juda azob chekkan deb o'ylayman. Og'riqni yaxshi bilyapti.

- Juda og'riydi, lekin qizlarning oyoqlari bog'lanayotganda yig'lamasdan, ovoz chiqarmay turishi shart ekan. Agar qarshilik ko'rsatishsa, tayog bilan jazolanarkan.

- Bosh barmoqni nega o'rashmaydi?

- Chunki bir necha oydan keyin bosh barmoq hilol kabi yuqoriga ko'tarilar, boshqa barmoqlar esa chirib tushar yoki tovoniga yopishib yo'qolib ketarkan. U zamonlarda xitoylik ayollar «oltin nilufar» degan kichik oyoqlari bilan maqtanishar, to'ylarida ustida «sochlarimiz oqarguncha boylik va e'tibor» degan yozuvli oyoq kiyimlar kiyishar ekan. Kelin oyog'ining kattaligi va shakliga alohida e'tibor berilarkan. Kelin erining uyiga kelib, taxtiravondan tushganda butun qarindosh, qo'ni-qo'shnilar eshik oldiga yig'ilar va kelinning oyog'ini kuzatishar ekan. Kichik va chiroyli oyoqli kelin atrofida maqtov eshitar, oila bundan mamnun bo'lar, ayolini birinchi marta ko'rayotga kuyov ham bu holdan juda g'ururlanar ekan.

- Agar kelinning oyog'i kichkina bo'lmasa-chi?

Xuddi o'zini oyog'i kichkina bo'lmagan kelindek tasavvur qildi. Bundan xavotirga tushdi!

- Unda hamma uning ustidan kular, kuyovning oilasi va kuyov o'zlarini oyoqosti bo'lgandek his qilar va umrining oxirigacha nomus qilib yashashar ekan. Bundan tashqari, to'ydanda oldin kuyov kelinning oyog'ini chizg'ich bilan o'lchash va natija yomon bo'lsa kelinni haqorat qilish va uylanishdan voz kechish huquqiga ham ega ekan. Ya'ni o'sha zamonlarda ayollar orasida tez-tez go'zallik tanlovlari bo'lib o'tar ekan.

Taxmin qilganingdek, bu tanlovlarda nilufar oyoqli ayollar bahslashadi, jajji oyoqlariga kiygan oyoq kiyimiga qo'ng'iroq yoki qanotlari qimirlaydigan ipak kapalaklar taqishar ekan. Oyoqlari o'ralmas ekan, quyi tabaqadagi ayollar esa uyalib tanlovlarni eng oxirgi qatorlarda tomosha qilisharkan. Bu ayollarga nilufar qayig'i yoki «o'rdak oyoq» deyilar va ular masxara qilinar ekan. Oyoq bog'lash an'anasi Mao hokimiyatiga kelgandan keyin katta bir guruh tuzilib, butun o'lkada man etilgan va shunday qilib, millionlab ayollar yillab chekkan bu azobdan qutulgan ekanlar.

– Ammo hamma ham qutula olmagan... Ayollarga berilgan azoblarni ayollar yoqlashi qanday g'alati.... Go'yo og'riqdan zavq olayotgandek... Erkaklar tomonidan amr qilingan qoidalariga itoat qilishadi... hatto bularni ulardan ham ko'proq qo'llab-quvvatlashadi. Ya'ni shohdan oldin shohlik qilishadi. Bu ayollarni tushunish qiyin!

Balki birinchi marta birdan gap tuzib, bu mavzudagi fikrlarini aytyapti menga. Voqelikni olimlardek izohlayapti. Bu qizdan buni hech kutmagandim. Yana hayron qoldirdi meni.

– Hikoyani olimlardek izohlading. Faqat kichkina oyoqlarga, buning uchun ayollarning chekkan azoblariga e'tibor qilmading. Ziyrak qizsan.

– Rahmat. Erkaklarga dastak bo'lganlar yana ayollar... Ayol istamasa, erkak hech narsa qila olmaydi. Ammo ayol shuni xohlaydi. Jazo xohlaydi. Azob istaydi... Hatto oxiri o'limni ham...

Bu qiz nimalar deyapti? Qarshimda xuddi sotsiologiya professori bordek. Ko'zimni berkitib buni gapirayotgan odamni ko'rmasam juda muhim suhbat bo'ladi, lekin ko'zim ochiq va uni ko'ryapman. Juda teran, joy-joyida, ilmiy izohlar beryapti. Yaxshi, biroq modomiki, hamma narsani bilyapti, bu nimasi? Ich-ichimdan bu qizni yelkalaridan ushlab silkitgim kelyapti. Ham bunchalik aqli bo'l, ham tentaklik qil, doktorga kelishdan oldin ichkilik ich, qarshisida sakra, sakra...

– Ayollar yaralgan kundan boshlab, ko'p azob chekishgan, Alya.

– Ismim bilan chaqirdingiz, va nihoyat, meni qabul qildingiz...

Demak, uni birinchi marta ismi bilan chaqirdim va bu uning e'tiboridan qochmadi. Men esa buni sezma bman ham. Holbuki, men insonlarni doim ismi bilan chaqirardim. Bu tentak qiz mendan oldinda. Endi men ham juda diqqatli bo'lishim kerak.

– Bunda o'zingning ham hissangni unutm.

– Ha, ha... Men ham juda ehtiyot bo'lyapman.

– Nima uchun?

– Sizning jahlingizni chiqarmaslik uchun... Qo'limdan kelganini qilyapman... Ba'zan xayol qilaman.

– Nimani?

– Gulseren xonim bilan seanslarimiz uzoq vaqt davom etsa... U gapiraversa, men tinglayversam, deyman.

– Ha, juda xayolparastsan.

– Men hech xayol surmasdim... Ahmoqona bo'lsa ham endi xayol sura olaman.

– Yaxshi, xursandman. Balki kelajakda yanayam realroq xayol surarsan.

– Balki... Rahmat.

Boshini silkitib, xayrlashib xonadan chiqadi. Qo'llari o'likning qo'li kabi sovuq va yopishqoq. Demak, yolg'iz istagi mening xonamda ko'proq qolish va men aytadigan hikoyalarni tinglash. Uni ismi bilan ham chaqirmaydigan doktordan istayapti bularni. Bu qizning bilim darajasi qancha ekan, qiziq? Asl xayollari, umidlari nima, bilolmayman. Meni xayol qilishi menga unchalik yoqmadi, chunki hozircha u bilan tuyg'lari-miz farqli. Bemor va tabib o'rtasidagi munosabatga vaqt o'tib tuyg'ular ham aralashadi. Biz buni «transferans» deymiz. Ya'ni tuyg'ular almashinishi. Bu ikki tomonlama almashinishdir va muolajada bizga juda qo'l keladi. Bu qizda transferans birinchi kundanoq va juda shiddatli tarzda boshlandi. U vaqtda oramizda tamoman ahamiyatsiz tuyg'ular bor edi. Hozir esa uning tuyg'ulari ancha o'zgardi. Mening yonimda vaqt o'tkazishni xayol qilishgacha bordi. Men esa hali ham o'zimni unga yaqin his qilolmayapman.

Muolajaning boshlarida bemorning doktorga bog'lanishini, uni qadrlashini tabiiy qabul qilamiz va bundan foydalanamiz. Ammo oxiri doktor bu tuyg'ularga ega chiqishga, hamma narsadan voz kechib, faqat unga bog'langan bemorini yangidan hayotga qaytarishga majbur. Bu qizga ham hech narsani ko'zdan qochirmay qarashim va juda e'tiborli bo'lishim kerak. Hamma bemorda ham bu mavzuda o'zimni bunchalik qiynashimga to'g'ri kelmaydi. Juda tabiiy kelib-ketar seanslar, chunki ularga nisbatan ichimda yomon tuyg'ular paydo bo'lmaydi. Yillar davomida tajriba va sezgilar bilan hamma narsa o'z o'rnida bo'lib kelyapti. Bu qizda esa hech narsa tabiiy emas. Qiynalyapman. Shu aytgan hikoyalarim bo'lmasa, u bilan aloqa qilish mumkin bo'lmaydi.



Emreni yo'qotish hammamiz uchun og'ir bo'ldi. Janoza-ning yettinchi kuni uylarida o'qilgan mavlidda men ham qatnashdim. Uyda odam juda ko'p edi. Mulla baland ovoz bilan Qur'on qiroat qilarkan, men esa bir burchakda o'tirib olib, tinmay yig'lardim. Sumkamdagi bir to'plam qog'oz sochiqlar kamlik qilgandi. Emrening onasi menga tez-tez zaxira ro'molcha olib kelib, turishga majbur bo'lgandi. Bu muhitda, aslida, yig'lashi kerak bo'lgan odam men emasdim. Buni yaxshi bilar va bundan biroz uyalib, shunga qaramay, o'zimni bosa olmasdim. O'sha paytlarda Aydinning ham ahvoli unchalik yaxshi emasdi. Uydan o'zi yolg'iz chiqa olmas, yotib qolmagan bo'lsa ham televizorning qarshisidagi divandan tura olmasdi. Doktor buyurgan tahlillar uchun birga borardik. Biroq natijalarni ko'rsatishga doktorga qayta kelishni ham xohlamasdi. Bularni o'zim qilardim. Dorilarni men olardim, u qanday ichish bilan ham qiziqmasdi, men nima bersam o'shani ichaverardi. Hasan oqshomlari xonasidan hech chiqmasdi, chiqsa ham faqat Emrelarnikiga borardi va tuni bilan o'sha yerda qolardi. Emre bizning uyimizda qanday katta bo'lgan bo'lsa, Hasan ham Emrening oilasiga shunchalik yaqin edi. Ayniqsa, Emrening dadasi Hasanni o'g'lining yonida ko'rishdan xotirjam bo'lardi.

O'sha payt Yag'mur ham kasal bo'lib qoldi. Endi ikki oylik homilador bo'lishiga qaramay qorni kattalashib ketdi. Doktorlar zudlik bilan shifoxonaga yotishi kerakligini, vaziyat jiddiy ekanini aytishdi. Agar bolani tezroq olib tashlasa, muammo o'z-o'zidan hal bo'lishi aniq edi. Ammo Yag'-

mur bunga keskin qarshilik qilar, u bolani dunyoga keltirish uchun o'limga ham tayyor edi. Men endi nima deyishni, nima qilishni, nima haqida o'ylashni ham bilmasdim. U yerdan bu yerga yugurib yurardim. Yuragimga joylashib olgan tosh borgan sari kattalashar, men bu og'irlik ostida ezilgandan ezilib boraverardim.

Yag'murni darrov shifoxonaga yotqizdik. Men kechgacha uning yonida shifoxonada qolar, oqshom payti uyga kelib, biroz Aydinning holidan xabar olgach, kechki payt yana Yag'murning yoniga qaytar va tuni bilan uning oldida qolardim. Ayniqsa, mana shu ikki, uch, to'rt kun juda muhim edi. Har kuni qizimning joniga azob beradigan igna muolajalari qilin-ar, kunda ikki-uch marta qon olinib, gormon ko'rsatkichlari nazorat qilib turilardi. Hanuz hech qanday o'zgarish bo'lma-gandi va o'sha kecha Emrening qirq mavlidi edi. Hasan Em-relarnikida, Yag'mur shifoxonada, men uning yonida edim. Aydin esa uyda yolg'iz buning ustiga juda tushkun edi. Bola-lariga, ayniqsa, qiziga juda g'amxo'r bo'lgan Aydin o'sha payt meni fe'li bilan hayron qoldirar, «Doim qizingning yonidasan, meni unutib qo'yding», deb menga aziyat berardi.

Oloviddinning sehrli chirog'ini topsam, u mendan tilagim-ni so'rasa, ikkinchi tilagim o'sha kechani hayotimdan o'chirib tashlashi bo'lardi.

O'sha kunlar negadir hech esimdan chiqmaydi. Ertalab tongda choy ichayotib, bir tomondan bu voqealarni o'ylab o'tirar ekanman, telefonim jiringladi. Klinikadan qo'ng'iroq qilishyapti. Juda og'ir bemor kelganmish, uni tinchlantira olishmayotgan ekan. Avvalroq uni men ko'rgan ekanman. «Bugun ertaroq kela olasizmi?» deb so'rashdi. Tez tayyor-lanib, uydan chiqaman. Klinikaga keliboq zudlik bilan ich-kariga kiraman. To'rtinchi qavatga chiqqanimda uni zalda uchrataman. Yonidagi uch erkak uni ushlab qolishga qiy-nalib turadi. Bu bizning Umar. Juda yoqimtoy yigit, menga juda ham yoqadi. Oyisi ham kasal. Eski shifoxonamga onasi bilan birgalikda kelardi. Meni ko'rishi bilan bir daqiqa to'x-

taydi. To'g'ri uning yoniga boraman, qo'lidan ushlayman va xonamga birga kiramiz.

Baland bo'yi, katta jussasi va qip-qizil bo'lib ketgan yuzi bilan menga dahshat ichida qaraydi. Anchadan beri ko'rma-gandim, yana ham kelishgan yigit bo'libdi. Hozir o'ttiz yosh-larda bo'lsa kerak.

– Xush kelibsan, Umar. Mana bu yerga, marhamat. Qo'yib yuboringlar, o'zi istagan joyiga o'tirsin.

– Lekin doktor xonim!

– Qo'yib yuboringlar dedim. Umar ko'rishmaganimizga ancha bo'ldi, qanchalik o'zgarib ketibsan. Kel, shu yerga o'tir. Kasal bo'lib qoldingmi? Qani, azizim, kelaqol.

Umar mo'ltirab turgan ko'zlari bilan qaraydi. Qo'lidan tut-moqchi bo'lib, ohista qo'llarimni uzataman. Biroq bu safar itning irillashi singari ovoz chiqaradi. Shunchaki g'azabnok va asabiyki, o'zini nazorat qilishga qiynalayotganini sezib tu-raman. Aslida, Umar juda yoqimtoy yigit! Meni ham yaxshi ko'rardi, ammo bugun vaziyat sal boshqacharoq. Har daqiqa-da meni ham, bu xonani ham ostin-ustin qilib yuborishi mumkin. Biroz ortga chekinaman. Shu payt qarshimda tur-gan kreslolardan biriga cho'kkandek bo'ladi. Ikki yoshi katta inson ikki tomoniga kelib o'tiradi. Ular ham Umarning yomon ish qilib qo'yishidan qo'rqadi.

Keyin ulardan biri Umarning dadasi, ikkinchisi esa tog'a-si ekanini bildim. So'nggi kunlar dorilarini ichmabdi, buning ustiga do'konda ham yuragini siqadigan ishlar bo'libdi. Uch kecha uxlolmabdi, shundan keyin bu ahvolga tushibdi. Ham-ma yoqni boshiga ko'taribdi. Bu yerga olib kelish juda qiyin bo'libdi. Eh, Umar, eh, dorilarni nega ichmay qo'yding? Ham-masi yaxshi ketayotgan edi-ku.

Umar xotirjam emasdi. O'tirishni istamas, betinim oh, uf degan ovozlar chiqarib bo'm-bo'sh nigohlar bilan atrofga qarardi. Men oilasiga nima qilish kerakligini tez tushunti-rishga harakat qilaman, biroq uning ahvoli tang. Tezlik bilan javonni ochib, Tunadan bir stakan suv berishini so'rayman.

Birdan ikkita dorini Umarning qo'llariga tashlayman. «Qani, tez ichib ol shularni», deyman. Biroz tayyorgarlik ko'rgandan keyin ko'zlarimga tikilib turib, bir harakatda suv bilan dori-larni ichib yuboradi. Keyin esa ko'p chiday olmay o'rnidan turadi. Men ham shoshib yoniga boraman. Mushtlari tugilib, gavdasi qotib qolgandi. Yuzi xuddi nafas ololmayotgandek qizil ko'kka aylanarkan, dadasi bilan tog'asi yana uni tutib qolishga urinishadi. «Qo'yib yuboringlar», deyman. «Tegmang-lar, Umar bu yerda yomon ish qilmaydi». Ular uzoqlashgach, qip-qizarib ketgan ko'zlariga tikilib, juda sekin va mehr to'la ovoz bilan gapira boshlayman.

– Qo'rqma, Umar, hammasi o'tib ketadi. Yana avvalgi Umar bo'lasan. Oliyjanob, odobli, hurmatli Umar. Bu kelishingiz hisob emas. Biroz o'zingga kelgach, boshqa safar kel. Mening mehmonim sifatida seni kutaman. Bilaman, juda jahling chiqqan va o'zing istasang ham bu jahlni to'xtata olmayapsan. Qo'rqma, hammasi joyiga tushib ketadi.

Umar mahkam siqib olgan kaftlarini avval bir-biriga, keyin esa ko'ksiga uradi. Mening bemorlarim mana shunday. O'zlarini butunlay yo'qotib qo'ygan kunlarida ham menga zarar berish o'rniga o'zlariga ozor yetkazishni tanlaydilar. Yana qo'llarimni uning qo'llarini tutish uchun ohista uzataman. Lekin yana befoyda. «Tegmang, teginmang, hech kim yaqinlashmasin menga! Umuman! Zinhor! Tushunarlimi? Oxiri yaxshi bo'lmaydi». Yana bir qadam ortga chekinaman. Umar biroz vaqt baqirib-chaqirgandan keyin sekin-sekin o'z atrofi-da aylanishni boshlaydi. Tezlikni oshirgancha yana shunday qilishda davom etadi. So'ngra yiqiladigan holatga kelgan joyida turib qoladi. Yana mushtlari tugiladi va havoda muallaq qoladi. Tog'asi va dadasiga kerakli tavsiyalarni berganimdan keyin ular yana sekingina Umarning ikki qo'lidan tutadilar va o'rnidan turg'azib oladilar. Umar orada menga bir qarab qo'y-gancha xonadan chiqadi. Ichimdan nimadir uzilgandek bo'ladi. «Tolesiz Umar», deb qo'yaman ichimda. Genlarimiz ba'zan qo'limizdan hamma narsani olib qo'yadi. Qo'l-oyog'imizni

bog'lab, bizni chorasiz ahvolda qoldiradi. Bu bechora Umar o'z taqdirini qabul qilishdan boshqa nima ham qila olardi? Bu qanday chorasizlik bo'ldi, Egam?

Mamlakatda ehtimol, uni «Telba Umar» deb chaqirishar va hamma undan bir odim bo'lsin uzoq turishni xohlar. Kichik bir do'kon, xasta volida, hammasiga birdan ulgura olmagan uchun g'alati holatga tushgan singil va har narsadan o'zini mavhumlashtirishga uringan ota. Umrini mana shu tor ko'lmakda, imkon qadar hech narsa his etmasdan, miyasining ichida tinmay aylanib yurgan soyalar bilan o'tkazgan bu yigit.

Shizofreniya nomi juda mashhur bo'lgan, ammo jamiyat yaxshi tanimaydigan bir kasallikdir. Ko'pincha inson o'zining yonida genlari bilan dunyoga keladi. O'smirlik davridan keyin u o'zini ko'rsatishni boshlaydi. Introvert-odamovi, kamgap, odamlar bilan munosabatga kirishishi qiyin, o'z holicha qolgan insonlardir ular. Asosan aksariyati o'ta aqlli bo'ladi va darsdagi o'zlashtirishlari ham juda yuqori. Maktabning oldi o'quvchilari shulardan chiqadi. Xastalik kichik bir tasodif tufayli yoki o'z-o'zidan yuzaga chiqadi. Bemor avvaliga og'ir muammolarni his qila boshlaydi. Shunday bir muammoki to'g'onlarni buzib yuboruvchi shiddatli suv kabi keladi, inson his etishi mumkin bo'lgan har qanday og'riqdan ham ko'proq iztirob beradi odamga. Suvlar ko'tarilib borgani sayin to'g'onlarni yer bilan yakson qilmasligi uchun to'g'on qopqoqlari ochiladi. Xuddi shu kabi o'sha paytda bir doktor aralasha olsa, dorilar to'g'on qopqoqlarini ochadi va xasta biroz vaqt o'tib o'ziga keladi. Biroq, asosan odamlar kasallikni o'tkazib yuborgan doktorga murojaat qilishadi. Ya'ni suvlar to'g'on o'rniga ruhiy ustunlarni vayron qilib, hamma narsani yer bilan yakson qilgan vaqtda. O'sha payt muammo tugaydi, kishi o'ziga keladi, lekin bu safar yaqin kunlarda yana bezovtalik boshlanadi, chunki ruhiy ustun qulagani sabab insonning zehni ham tartibsizlashib ketgan bo'ladi; bo'lar-bo'lmas narsalarni gapiradi va aqlga sig'maydigan ishlar qiladi. Endi

o'sha shiddatli suvlar yer bilan bir qilgan narsalar chiqindiga aylanib ulgurgan bo'ladi. Doktor bu vaziyatda ham nimadir qiladi, tartibsizliklarni to'playdi, tashqaridan qaraganda xuddi risoladagidek inson bo'lib ko'rinadi, lekin bir marta singan chinni necha marta qayta yopishtirilsa ham aslo avvalgi holiga qaytmaydi.

Tuyg'ularga eng ko'p shikast yetadi. Xuddi hislarning ovoz toni kimdir tomonidan bo'g'ib qo'yilgandek. Qanchalik qiynalsangiz ham manzil faqat bir joygacha. Zero, borgan sari bu ovoz kamayadi va kishi oxiri hech narsani his qilmay qo'yadigan bo'ladi. Tuyg'ulari qo'llaridan olib qo'yilgan odam bizlardan butunlay farqli. O'ylaydi, biladi, kuladi, biroq his qilmaydi. Shu sababli shizofreniyaga chalinganlarning yuz xususiyatlari borgan sari o'zgaraveradi. Tuyg'ular bilan birga mimikalar ham yo'qoladi, ajinlar yo hech bo'lmaydi, yoki yo'qolib boraveradi va yuz muzlab qoladi. Hozirgi paytda ayollar tomonidan ko'p qo'llanayotgan botoksga o'xshab yuz harakatsiz bo'lib qoladi.

Shularning barchasiga qaramasdan shizofreniya yaxshi muolaja qilinishi mumkin bo'lgan kasalliklardan biridir. Vaqtda boshlangan muolajalar asosan juda yaxshi natijalar beradi, bemor jiddiy yo'qotishlarga uchramasdan xastalikni to'xtatish mumkin. Kasallik ko'pincha navbati bilan keladi, ammo har kelganda kasaldan nimanidir olib ketadi. Muammo o'sha navbatlar takrorlanishining oldini olishdir. Bu ham muntazam muolajalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Eh, Umar-a, senga necha marta takrorladim, «Dorilarni ichishni to'xtatma», deb. Mana, necha yildan beri kasallik xuruj qilmay juda yaxshi yashab kelayotgan eding. Hatto bundan oldingi kelishingda menga tabassum qilishni ham boshlaganding. Ko'ramiz, bu safar qancha muddatgacha kasallik qo'lidan seni qutqarib qola olar ekanmiz?

Bir muddat shifoxonada yotib davolanishi kerak. Uchta erkak yana uning qo'llaridan ushlab olib ketishadi. Shifoxonadagi muolajasi tugab ulgurmay yana mening oldimga keli-

shadi. Shu payt telefon jiringlaydi, javob beraman. Qo'ng'iroq qilayotgan Tuna.

– Eshitaman, Tuna?

– Azmibey qo'ng'iroq qilyapti, xonim. Kuni kecha kelgan Ijlal xonimning turmush o'rtog'i.

– Yaxshi, Tuna, ulayver.

– Alo!

– Eshitaman, Azmibey, men ham sizdan qo'ng'iroq kutayotgan edim.

– Doktor xonim, asti so'ramang, juda xavotirdaman. Birdan rafiqamga nima bo'ldi ekan? Yana biroz gapirsa o'zini payg'ambar deb e'lon qilib yuboradi. Bunday narsalar birdan sodir bo'ladimi? Bechoraga ko'z tegdimi deyman?..

– Yo'q, Azmibey, aslo birdan bo'lmagan. Uning yonida so'ray olmadim. Oxirgi kunlarda sizning e'tiboringizni ba'zi narsalar tortmasa uni bu yerga olib kelmasdingiz.

– Borlikka bor edikuya, ammo bu darajada bo'lishini kutmagan edim, to'g'risi. Ham biz o'n yildan beri birga yashaymiz. Shu paytgacha uning kasal bo'lishi mumkinligiga doir e'tiborimni tortadigan hech narsa bo'lmadi. Tez jahl qilmas, asabiylashmas, badnafs ham emasdi. Kamgap, og'ir-bosiq ayol u. Biroz sekin harakat qiladi. Aylanishni, insonlar bilan birga vaqt o'tkazishni unchalik yoqtirmaydi. Ba'zan oylab ham tashqariga chiqmaydi. Boshqa ayollar kabi uni ol, buni ol deb qaysarlik ham qilmaydi. Dam olishga ham majburlashim ostida borib keladi. Uyquni juda yaxshi ko'radi, ba'zan kechgacha uxlaydi. Ammo shu kunlarda uyquasi buzilgan edi. Uch oydan beri bedor desam adashmagan bo'laman. Xuddi biror muammosi bordek, ichiga sig'dirolmayotgandek edi. Uyda bir pastga, bir tepaga chiqib tushardi. Avvalgidek kunduzlari ham uxlamasdi. Bolaga qaray olmagani uchun onasiga berib yubordik. Bir piyola sho'rva ham pishira olmadi. Agar u xohlaganda har kuni ko'chadan ovqat olib ham kela olardim, lekin uning o'zi istamadi.

– Diniy majlislarga borishni qachondan boshladi?

– Uch oylar bo'ldi, shekilli. Aslida, u yerga borishni ham o'zi xohlamadi. Men majbur qildim. Umuman uydan chiqmayotgani uchun o'ziga biror mashg'ulot topishini xohladim. Demak, xato qilibman... Bu namoz o'qish masalasi ham o'shandan keyin chiqdi. Avvallari bunday dindor emasdi. Ro'za ham tutmas, namoz ham o'qimasdi. Borgan majlislarining ta'siri deb o'ylayapman, lekin keyin hammasi o'zgarib ketdi. Sahardan shomgacha namoz o'qiganini, hatto tunlari ham o'rnidan turib joynamozning ustida o'tirganini sezib qolaman. Tasavvur qila olasizmi, rafiqam tahorat olishni ham bilmas, mendan so'rardi. Keyingi paytlarda namoz o'qiyapti, lekin tahorat olganini bilmayman. Shunchaki harakatlarini bajaradi, xolos. Yo Alloh, hamma ayb menda! Uni sizning oldingizga ancha avval olib kelishim kerak edi. Qur'on kurslariga yubormaganimda ehtimol, bu ishlar boshimizga tushmasmidi.

– Unday deb o'ylamayman. Xastalikning yuzaga chiqishida bu bahona bo'lgan, xolos. O'zingizni ayblamang.

– Sizningcha, tuzalib ketarmikin?

– Tuzaladi, tuzaladi, qo'rqmang.

– Ammo unga faqat uyqu dori berdingiz. Birgina uyqu dori bilan hammasi tuzalib qolmaydi. Ko'rsangiz edi, o'zini avliyo deb o'ylayapti. Balki, undan ham yomonroqdir. Tavba, tavba...

– Unga uyqu dori berganim yo'q. Bergan dorim bitta doza holatiga keltirilgan juda ta'sirli va muhim dori. Bir martada yaxshi ta'sir qiladi. Biroz vaqt o'tib o'zini qo'lga oladi, lekin dorining dozasi juda yuqori bo'lgani uchun uyqu va holsizlik keltirib chiqarishi mumkin. Siz bunga juda e'tiborli bo'lishingiz kerak, dorini vaqtida va muntazam qabul qilishi lozim. Qolaversa, shu kunlarda uni umuman yolg'iz qoldirmang, chunki o'zingiz ham ko'rdingiz, nima qilib qo'yishi aniq emas.

– Nima qilishi mumkin, doktor xonim?

– Hozir bularni birma-bir sanab chiqa olmayman, ammo o'ziga hamda sizga zararli bo'lishi mumkin. Iltimos, hushyor bo'ling. Aytganlarimni yaxshilab tushunib oldingiz-a?

– Ha, tushundim, doktor xonim.

– Yana bir narsa, Ijlal xonim butunlay tuzalib ketmaguncha bolangizni olib kelmay turing.

– Qachon olib kelaylik?

– Buni sizga keyinroq aytaman. Biror savol tug'ilsa men ga qo'ng'iroq qilsangiz bo'ladi. Mayli, xayrli kun, shifo tilab qolaman.

Bechora kishi bo'lgan ishlardan hayron. Gapirayotgan payti ovozi yig'lamsiragandek chiqdi. Boshidan o'tayotganlar oson emas. Buning ustiga rafiqasini qattiq sevadi. Mana shu narsa Ijlalning eng buyuk baxti...

Tuna eshikdan boshini suqib menga gapiradi:

– Har doimgidek och qolmagan ko'rinasiz. Xonangizga olib kelaymi yoki o'zingiz oshxonaga tushasizmi? Havo juda ajoyib, agar istasangiz, birgalikda terassada ovqatlanamiz.

Tuna rost aytibdi, havo juda ajoyib. Osmonda bitta ham bulut yo'q. Madalyon klinikasida o'zimizni xuddi boshqa bir o'lkada yashayotgandek his qilamiz, chunki elchixonalarining bog'lari bilan o'ralgan. Daraxtlar yam-yashil, gavjum o'rmon kabi boshlarini ko'kka cho'zib turishibdi. Bog'lar yaxshi parvarishlangan. Bu yerda qarag'aylarning hamma turi bor. Daraxtlar orasidan Italiya elchixonasining moviy suzish hovuzi ko'rinadi. Bu tarafga qaraganda ko'shkka tomon cho'zilgan yana bir yashil maydon bor. Qarama-qarshimizdagi Zamondosh Sahnasida Fosforli Javriya o'ynaydi. Tuna bilan qarama-qarshi o'tirib olib, ham ovqatlarimizni yeymiz, ham asta-sekin suhbatlashamiz. Atrofimizga klinikada ishlaydigan boshqa doktor va psixologlar keladi. Shu payt qo'llarida kitob tutib olgan cha Jengiz ko'rinadi. Bizni ko'rgach kulib yonimizga keladi. Yosh do'stlarimiz darrov yo'lni ochib, ustozlariga mening yonimdan joy berishadi. Bitta qavatda ishlasak ham Jengizni bir-ikki haftadan beri ko'rmayman. Hammamiz xonalarimizga yugurib kiramiz, men tushlikka o'z vaqtida chiqa olmaganim uchun bir joyga to'planishimiz mushkul. Jengiz, ya'ni professor doktor Jengiz Gulech men bilan quchoqlashib ko'rishib yonimga o'tira-

di va hayajon bilan qo'lidagi kitobni ko'rsatadi: Mansur Hal-
loj. Kitobni qiziqish bilan varaqlar ekanman, u: «Mistisizm va
psixoterapiya mavzusida seminar uyushtirmoqchi edik-ku,
men tayyorgarlik ishlarini bitirdim, qachon xohlasang, o'sha
payt boshlaymiz», deydi. Bu xabar meni juda xursand qila-
di. Bu anchadan beri men ham qiziqib kelayotgan mavzu edi.
Ayniqsa, Aydin kasal bo'lgan vaqtlari bu mavzuda juda ko'p-
lab kitoblar o'qigandim. Menga yoqdi. «Kelasi hafta chor-
shanba kuni boshlaylik», deyman. Biroz dasturning qancha
muddat davom etishi haqida maslahatlashgandan keyin Tu-
naning ogohlantirishi bilan joyimdan turaman. Aslida, ular
bilan yana biroz o'tirishni istayman, ammo o'tira olmayman.
Bemorlarim meni kutishyapti. Jengiz oppoq soqollarini qo'l-
lari bilan siypalagancha orqamdan qarab qoladi. Yuzida ajo-
yib bir tabassum zohir. «Hah senimi» degandek barmog'ini
silkitadi. Unga qachon beparvolik qilsam menga mana shun-
day yengil tanbeh berishm kanda qilmaydi.

Pastga tushganimizda zinalar ro'parasida bizni Alya ku-
tib oladi. Ikkimizni ham joyimizdan topa olmagach, xavotir
olibdi. «Hoziroq ichkariga kiritaymi», deb so'raydi Tuna. Alya
bilan birga xonamga kiramiz. Ikkimiz ham joylashib olgach,
uning menga diqqat bilan qaraganini sezaman. Men shifokor
o'z bemoriga shunday qaraydi deb o'ylardim. Bu yerda xuddi
rollarimiz o'zgargandek, u meni sinchiklab kuzatadi. Unga jil-
mayib qo'yaman. Yana usti-boshi bir ahvolda.

Bu qiz bunday g'alati kiyimlarni qayerdan toparkin-a?!

- Yaxshimisan, Alya?

- Yaxshiman, xonim... Ovqatlanadigan joy yuqoridami dey-
man?

- Ha, yuqorida.

- Manzarasi ham juda chiroyli bo'lsa kerak?

- Chiroyli. Yozda yana ham orombaxsh joyga aylanadi.

- Do'stlaringiz bilan... birgamidingiz?

- Ha, ularni nega so'rayapsan?

- Meni deb... ularni tashlab keldingiz.

Nima demoqchi bo'lyapti? O'zining do'stlarimdan ham qadrliroq ekaniga ishora qilishga urinyaptimi? Kamiga mening yarim xayolim yuqorida qolganini qayerdan bildi ekan!? Bu shunchaki sezgimi yoki haqiqatga asoslangan taxmin? Yana seans boshlanmay turib, boshimni qotirishni uddaladi.

– Mening hech qachon do'stim bo'lmagan. Shuning uchun... do'sti borlarga hasad qilaman... Sizning do'stlaringiz ko'pmi?

– Ko'p.

– Qanday yaxshi. Lekin sizga hasad qilmayapman...

– Nega?

– Koshki men ham sizning do'stingiz bo'lsaydim! Ularga ham menga aytib bergan hikoyalarni so'zlab berasizmi?

– Ba'zan ilmiy majlislarimiz bo'ladi. O'sha yerda lozim to'pilsa aytib beramiz ularni.

– U yerda odam ko'p bo'ladimi?

Unga savol berishimni xohlamaydi, lekin menga savol berishdan tap tortmaydi. Aslida, bu savollarga javob berishning yo'lini topaman, faqat gaplashishni to'xtatmoqchiman. Ham hozir almoyi-jalmoyi keraksiz savollar beryapti. Maqsadi nima ekani qiziq.

– Ha, butun klinikadagilar qatnashadi.

– Bu yerda ishlamaydiganlar ishtirok etolmaydimi?

– Ba'zan boshqa universitetdan hamkasblarimiz ham keladi. Bularni nega so'rab qolding?

– Men ham qatnashsam bo'ladimi?

Mana maqsadini ham bilib oldim. Ilmiy yig'ilishlarga u ham qatnashishni xohlar ekan, lekin nega?

– Nega aynan buni xohlayapsan?

– Psixiatrlar... o'zaro... nimalar haqida gaplashishlariga har doim qiziqqanman.

– Bu mavzularda kitob o'qiysan, shundaymi?

– O'qiyman...

– Yaxshi. Bu yig'ilishlarga faqat shu kasb egalari qatnasha oladi. Agar nimadir so'rashni xohlasang, men yoningdaman. Istagan narsangni so'rashing mumkin.

– Rahmat... Shusiz ham qo'lingizdan kelganini qilayotganingizni bilaman. Menga juda chiroyli ertaklar aytib berasiz. Bularni faqat men uchun aytib berasiz. Menga bolaligimda hech kim ertak aytib bermasdi. Bolaligim deguncha... xayolimga u yerdan bu yerga yugurgan xunuk, qiz keladi. O'sha paytda ham uyda meni hech kim yoqtirmasdi. Menga tegishli biror yotoq ham yo'q edi, hatto... Qayerni topsam o'sha yer boshpanam edi... yotardim... Qish sovuq bo'lardi. O'sha payt zaldagi karavotda yotardim. Zal katta edi va ichi to'la buyum. Kechalari o'sha buyumlarning har biri... xayolotga ko'chardi... qo'rqardim... Eng ko'p bo'jilardan qo'rqardim...

Tavba, birinchi marta hech narsa so'ramasimdan o'zi haqida bolaligi bilan bog'liq ma'lumotlarni menga aytib beryapti. Bu yaxshilikka ishora bo'lsa kerak! Aytib bergan hikoyalarimning foydasi bo'layotgan ekan, demak. Savollariga javob qaytarishim ham unga yaxshi ta'sir qildi, shekilli.

– Hozir ham qo'rqasanmi?

– Bo'jilardan bo'lmasa ham qo'rqadigan boshqa narsalar bor.

– Masalan?

– O'sha paytlar kichik yangam yaqinda dunyoga keltirgan o'g'lini quchoq'iga olar, sochlarini silagancha unga ertaklar aytib berardi... Men ularni uzoqdan tinglardim. Bola yig'lashi bilan seni bo'jilarga beraman derdi. Kichik bolakay... ko'zlarini yumar va... boshini onasining ko'ksiga... yashirardi... Men ham bola edim, ammo men boshimni qo'yadigan biror quchoq yo'q edi.

Shu yerga kelganda boshini egib diqqat bilan menga qaraydi. Nimalarni his qilayotganimni bilishga urinadi deb o'ylayman. Bir daqiqada u aytib bergan sahna ko'zlarim oldida gavdalanadi. Eshik ortida, boshqa bir ona aytgan ertaklarni tinglayotgan qiz jonlanadi ko'z o'ngimda. Iztirobli film tomosha qilayotgan kabi his etaman o'zimni. Lablarim mendan ruxsat olib o'tirmay ikki yonga egiladi. Bu vaziyat Alyaning kuzatuvidan chetda qolmaydi va iztehzoli bir tabassum yuziga yoyilib ketadi.

Keyin esa boshini biroz oldga va orqaga qimirlatib mulohazali ifoda bilan gapirishda davom etadi:

– Avvallari bo'jilar qo'rqitardi meni, endi esa odamlardan qo'rqaman. Bo'jilar haqida hikoya yo'qmi?

Mavzuni yana hikoyalarga olib keldi. Aslida, bu vaziyat mening ham ishimga yaraydi. Xuddi aytib berganlaridan ta'sirlanganimni u ko'rishini istamayotgandekman. Xuddi ichim achiyotgan paytda meni qo'lga tushirgandek g'alati narsalarini his qilaman. Bir tomondan uni kuzatishga urinsam, ikkinchi tomondan o'z tuyg'ularimni jilovlashga harakat qilaman. Aslida, aynan psixoterapiya seansi ham mana shu! Bu turdagi psixoterapiya seanslarida shifokor aynan shunday qilishi, bemori kabi o'z tuyg'ularini ko'zdan qochirmasligi kerak, ammo bu munosabatda nimalardir meni tinimsiz bezovta qilishda davom etaveradi.

Qo'llarini tizzasining ustiga qo'yib, ko'zlarini menga tikib o'tiribdi. Qiziqish va hayajon bilan yangi bir hikoya eshitishga allaqachon tayyor bo'lib ulguribdi.

– Bo'ji bo'lmasa ham jodugarlar haqida hikoya aytib bera-man. Bizning madaniyatimizda jodugar degan bir qatlam yo'q, ammo jodugarlik yuz yillardan beri Yevropa madaniyatida muhim ahamiyatga ega va bolalarga aytilgan ertaklarda ham asosan bosh rol ularga berilgan. Hatto ba'zi paytlar insonlar bundan shunchalik ta'sirlanishibdiki, osmonda uzun sopli supurgisiga minib uchgan jodugarlarni ko'rib qolaman, degan qo'rquv bilan kechalari safarga chiqmaydigan bo'lishibdi. O'n beshinchi asrda jodugarlik insonlarga la'nat yog'dirgan, sehr qilgan, bolalarni o'ldirgan, qush va boshqa hayvonlarga aylana olgan, teskari xristian marosimining bir turi bo'lgan «Iblislar majlisi»ga borish uchun echki yoki supurgi minib ucha oladigan qari, xunuk, qo'rqinchli ayollar sifatida tasavvur qilingan. Yevropaliklarning xayolot dunyosi mahsuli bo'lgan jodugarlar vaqti kelib adabiyotdan o'zlariga muhim joy topishdi va o'sha yerdan butun dunyoga tarqalishdi. Jodugarlarning barcha hayvonlar bilan do'st ekani aytiladi va bu hayvonlar

jodugarlarning hamma buyruqlarini bajarishlariga ishoniladi. Keyinchalik ma'lum bo'lgan jodugar ovchilari ko'plab qari ayollarni jodugarlikda ayblaydi. Ayblanuvchi ayol avval og'riq sezib yoki sezmagani bilish uchun yalang'ochlanadi va vujudiga uchli ignalar sanchiladi. Agar ayol qichqirmasa, uning jodugar ekani oydinlashadi.

– Mabodo o'sha davrda yashaganimda meni ham jodugar deb o'ylashardi.

Bu bilan nima demoqchi?

– Nega?

– Chunki hech qachon osonlikcha baqirib yubormasdim. Ya'ni tayoq yeganimda... Keyin nima bo'libdi?

– Shahzodalar va hukmdorlar o'z yerlarida uchragan barcha jodugarlarni tez qo'lga olish haqida farmon beribdi. Ayblangan kishilar o'sha zahotiyiq qishloq maydonlarida ustunlarga bog'lanib, tiriklayin yoqib yuborilgan. Bu ayollarni boshqa jodugarlarning ismlarini aytishlari uchun juda qattiq qiynoqqa solishar ekan. Bosh barmoqlari qisqichlar bilan siqilar, bilaklariga bog'langan iplar bilan yuqoriga ko'tarilib birdan pastga uloqtirilar va ularni minglab odam tomosha qilarkan. Charchoq va og'riq tufayli holdan toygan ayollar oxiri o'zlariga yuklangan barcha ayblarni qabul qilib, o'zlari tanigan boshqa begunoh ayolning ismini aytar va shu tarzda tezroq qutulish yo'lini qidirar ekanlar.

– Jodugarlarni doim yomon odamlar deb o'ylardim.

Xayolim kaltaklangan paytda ham baqirmaganida qoldi. Erkaklardan yegan kaltaklari haqida gap ketyaptimi? O'tmishida kim biladi nimalar yashirin ekan?

– O'sha paytda jamiyat jazava ichida qolgan, ya'ni xalq butunlay kasallangan va bu xastalik ko'pincha begunoh ayolning umriga zomin bo'lardi. Qiynoqlar natijasida qabul qilingan ayblovlar bu jazavani yaxshigina oziqlantirib turgan. Bechora nuroniy ayollarning og'zidan chiqqan ismlar ro'yxati xalqning dahshatli tushiga aylangandi. Odamlar bu ro'yxatga o'zlari ham tushib qolishdan qo'rqqan, ham yana

minglab jodugarlar oralarida yurgani haqida vahimalar avjiga chiqardi. Oradan biroz vaqt o'tib, hamma jamiyat ko'zida shubhali holga keldi. Ayblanuvchi ba'zi aqldan ozgan, kekxa va ruhiy kasal ayollar, so'roqqa tutganlarning istagan savollariga birma-bir javob berar, bo'lar-bo'lmas gaplarni tan olishardi. Hatto bu ayollarning qozonda bolalarni qaynatishgani, kalxat yog'i bilan bola qoni aralashganda naqadar lazzatli bo'lishi kabi bir qator yolg'on ma'lumotlar berilgani uchun jamiyatda hukm surgan jazava yana bir karra ortgan edi. Oxiri, g'isht qolipdan ko'chdi va hamma o'ziga foydasi tegmagan, hasad qilgan yoki alami bo'lgan insonlarning nomini sotishni boshladi. O'sha payt u islohotga qarshi harakat bilan birlashib o'z kuchini oshirdi. Masalan, bir arxiyepiskop Germaniyaning ikkita qishlog'ida barcha ayollarni yoqib yubordi va har bir qishloqda faqat bir ayolni qoldirdi. Xuddi o'sha odam, jodugarlarni sud qilgan sudyalardan biri ular bilan biroz yumshoqroq munosabatda bo'lganini bilib, uni jodugarlikda ayblagan. Avval uni qiynoqqa solgan, keyin esa yoqib yuborgan. Bu masalada Germaniya yetakchilikni qo'lga kiritgan bo'lsa-da, Shvetsariya va Italiyada xuddi shu jazava shamollari esadi.

– Bu nemislar... naqadar johil!.. Bizda yo'q edi, to'g'rimi?

– O'sha paytlarda, ya'ni bir ming besh yuzinchi yillarning oxirlarida jaholat shabadasi esgan Yevropa o'lkalarining qarshisida buyuk Usmonli imperiyasi bor edi. Barcha yevropalik ayollarning qo'rquv to'la tushlariga aylangan jodugarlik muhiti bizning eshiklarimizdan ostona hatlab ichkariga kira olmabdi. Germaniyada jodugarlik shubhasi ostida bo'lgan ayolning aybini tasdiqlash uchun bir o'yin o'ylab topilibdi. Zimiston bir hujrada ayol kunlar davomida hibsda saqlangach va uyqusiz qoldirilgach, bir kuni kechasi shayton qiyofasiga kirgan bir odam uning oldiga kelarmish. Agar o'z aybini tan olsa, uni ustunda yoqib yuborishlaridan qutqarishini aytar emish. Chorasiz ayol bu vahimali vaziyatdan qutulish uchun uning va'dalariga ishonar va bu vaziyat rostdan jodugar eka-

niga isbot o'laroq o'sha zahoti jazosi berilarkan. Nemislar bu beadab va shafqatsiz o'yinni juda qiziq deb bilishgan va yillar davomida she'r va qo'shiqlarida bu mavzuni kuylashgan.

– Demak, jamiyatlar ham kasal bo'lishi mumkin.

Jamiyatlarning xastalanishi juda e'tiborini tortdi. Ehtimol, birgina shaxs o'rniga butun jamiyat kasallanishi uni xotirjam qilgandir.

– Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, jamiyatlarning kasallanishi juda kam uchraydigan holat emas, aslida. Ba'zan ancha og'ir, ba'zan yengil kasalliklar doim bo'lgan. O'ylab ko'r, o'n sakkizinchi asrda Angliya ham jodugarlarni ayblashni va jazolashni davom ettirgan.

– Biz ularni doim yaxshi ko'rib... bizdan ancha madaniyatli bo'lgani haqida o'ylaymiz. Ko'p o'qish kerak ekan. Juda ko'p.

– O'sha paytlarda «suv bilan sinash» nomli bir yo'nalish bo'lgan ekan. Jodugarlikda ayblangan ayol hovuz yoki ko'lga otilar, suvga cho'kib bo'g'ilsa aybsiz va qutulsa aybdor bo'lisharmish.

– Ya'ni qutulish... o'limda... Bu shafqatsiz dunyoda yashash uchun nega bunchalik tirishamiz? Sababini bilolmadim.

Qanchalar mahzun izoh bo'ldi!

– Dunyo har doim ham bunchalar shafqatsiz emas. Yaxshi kunlar ham bor.

– Odamga qarab o'zgaradi bu. Omad kerak. U esa menda yo'q...

Buni qo'llarini yengil silkib, mulohazali ifoda bilan aytadi. Qo'llarini silkitganida o'ng qo'lining ishora barmog'ida siyohrang matolarni yana bir bor ko'raman. Nega u barmoq doim shu holatda turarkin?

– Ular o'libdi. Men esa hayotman, Sizga aytib bersam, menga eh-he deya, achinasizmi?

Qanchalar g'alati savol! Unga kimdir achinishidan, marhamat ko'rsatishidan qo'rqadi. Ehtimol, buni pastga urish deb qabul qilar. Yanada e'tiborli bo'lishim kerak. Ayniqsa, nigohlaridagi borgan sari ortib borayotgan kin va g'azab uchqunlari insonni hurkitadi.

– To‘g‘ri, hissiyotga boy insonman, jahl qilaman, xafa bo‘laman, lekin bunday oh-vohlarni kutma mendan. Hayotda har doim realist bo‘lish kerak. Qolaversa, oh-voh deya yo‘qotilgan vaqt uvol emasmi?

– O‘sha vaqtni qanday ishlatish kerak?

Bu ham qiziq savol. Qarshimdagi qiz juda zakovatli ekani ni hech qachon unutmasligim lozim.

O‘zimni juda kuchli raqib bilan ringga chiqqan bokschidek his qilyapman. Umuman kutilmagan paytda qarshi zarbalar beradi bu qiz.

– Vaqt insonning eng qimmatbaho xazinasini, menimcha. Isrof qilmaslik shart. Modomiki, barchamiz bir kun kelib o‘lib ketishimizni bilar ekanmiz, shunday ekan, tezroq maqsadga erishishimiz va hayotdan nima xohlashimizni bilib yashashimiz kerak.

– Siz... nima istashingizni bilasizmi?

– Bilaman.

– Menga ham ayting, desam aytmaysizmi? Shifokorlar bemorlariga o‘zlari haqida gapirmaydilar. Mavzu o‘zlariga kelgach, hech ikkilanmay mavzuni o‘zgartirishadi.

– Ehtimol, kun kelib aytarman. Xo‘sh, o‘zing nima xohlashingni bilasanmi?

– Bilaman... Eng boshidan beri bilaman. Bilishimning menga hech qanday foydasi bo‘lmadi.

– Hali yoshsan, yaxshi kasbing bor, biroq bular kamlik qiladi.

– Bir daqiqa... menga tasalli berasiz deb o‘yladim.

– Psixiatrdan tasalli kutish juda xato bo‘ladi.

– Nega psixiatr deyapsiz? Psixiatr emas.

– Ikkisi ham turkcha so‘z emas, aslida. Biri fransuzcha, ikkinchisi inglizcha, lekin turkchaga shunisi ko‘proq yarashadi.

– Psixiatristlar... odamlarga tasalli berishmaydimi?

– Tasalli yaxshi niyatli, ammo juda ta‘sirli bo‘lmagan aloqa shaklidir. Mana shu eshikdan chiqish bilan ta‘siri kamayishni boshlaydi. Men realist bo‘lishni yoqtiraman. Biroz xafa bo‘lamiz, lekin hech bo‘lmasa qilinadigan biror ish bo‘lsa, uni tushunib, shunga ko‘ra harakat qilamiz.

- Menga yoqdi.
- Shunday de?
- Jahlingiz chiqdimi?
- Bu yerga yordam olish uchun kelgan odamga qaraganda ko'proq shifokorni nazorat qilish uchun kelgan taftishchiga o'xshaysan.
- Chunki hali ham qanday suhbatlashish kerakligini bilmayman. Siz ochiq gapirishda davom etavering.
- Lekin bu bir tomonlama munosabat! Sen bunday qilmayapsan.
- Avval sizga ishonishim kerak.
- Bu uchun meni yana qancha testdan o'tkazmoqchisan?
- Inson o'zini bir begona qo'lga topshirishi sizningcha, oson narsami?
- Buni topshirish deb qabul qilma. Sen bu yerga yordam olish uchun kelyapsan.
- Aslida, majbur bo'lmasam aslo bunday qilmasdim. Bugungi kungacha menga hech kim yordam bermadi. Eng yaqin insonlarim ham bunday qilmagan bir paytda bir begona menga yordam berarmidi?
- Bu professional ko'mak, Alya. Faqat senga emas, bunga ehtiyoji bo'lgan va meni tanlagan hammaga yordam berishga harakat qilaman. Qaniydi, menga biroz bo'lsa ham ishonsang!
- Qiyin!
- Demak, qiyin! Umidsiz ko'zlari menga naqadar iztirob bilan boqmoqda. Meni betinim testlardan o'tkazib tanishga urinyapti. Xuddi oramizda g'alati bir o'yin o'ynalayotgandek. Biroq bu o'yinda yo ikkimiz birdan g'alaba qilamiz, yoki mag'lub bo'lamiz.
- O'sha qiyinchilikni yengish uchun shu yerdamiz. Demak, shu sababdan menga hikoya aytirib o'tiribsan. Asl maqsadig shuncha payt davomida meni tanish.
- Menga juda qiziq narsalar aytib berdingiz. Xuddi o'tmishimni bilgan va meni tanigandek. ayollarning iztiroblari haqida gapirdingiz. Demak, nimadir his qilgansiz. Qolaversa, siz ham menga o'xshab kitoblarga qiziqasiz... Vaqt bo'ldimi?

- Deyarli.
- Kelasi safar, balki boshqa hikoyalar aytib berarsiz menga.
- Ya'ni mavzu yana sen bo'lmaysan.
- Men ham millionlab insonlardan biriman. Gaplashgani-

miz yoki gaplashadiganlarimiz meni ham qiziqtiradi. Bundan tashqari, menga nimadir aytib berayotgan odamni tinglash juda yoqimli. O'zimni muhim insondek his qilaman. Sizni, dunyoni, o'tmishni, o'tmishga bo'lgan voqealarni o'rganaman. Yangi narsa o'rganish men uchun juda muhim. Non, suv kabi bir ehtiyoj!.. Och qoldim, ammo kitobsiz qolmadim. Mening yagona do'stim ular. Hozir esa siz ham borsiz. Kelasi hafta ko'rishamiz. Yaxshi qoling.

Horg'in vujudini sudragancha xonadan chiqadi. Bir tomondan menga hech ishonmas ekan, boshqa tomondan meni hayotida juda muhim bir o'ringa qo'yadi. Uning oldida o'zimni boshqa bemorlarim bilan birga bo'lganda his qilgandek xotirjam, huzurli, nima qilishni biladigan shifokordek his qilmayman. Tushunchalarim kabi tuyg'ularim ham qorishib ketdi.

Bu qizda hech narsa qoldirishmabdi. Na ishonch hissi, na adolat tuyg'usi, hech narsa qolmabdi. Bunchalik og'ir, bunchalik halokatli nimalar boshidan o'tdi ekan?



Quyosh asta-sekin o'z jamolini ko'rsata boshladi. Bu yilgi qish fasli shunchalar uzoq bo'ldiki, Anqaraning quyoshni, oftobni, tabiatni va yashillikni sog'ingani sezildi. Tashqariga qarab, quyosh charaqlab turganini ko'rdim-u, egnimga yengil kurtka kiygancha ko'chaga chiqdim. Tunali Hilmi ko'chasigacha taksida yetib keldim. So'ngra ko'chaning boshida taksidan tushdim-da, bu yerga kelganim ayni muddao bo'lganini payqadim. Tush vaqtida ko'cha odamlar bilan gavjum. Xuddi men singari bahorni, iliq va farahbaxsh kunlarni sog'ingan odam borki, sayrga chiqqan. Ayniqsa, yoshlar shod-u xurram kezishyapti. Odamlarning yuzlarida esa men dala hovlilar joylashgan yerlarda ko'rishga odatlangan huzur-halovat va sevinch zohir.

Ha, dam olish maskanlarida odamlarning yuzlari quvonchdan chaqnaydi! Ta'til o'z nomi bilan ta'tilda... Ta'tilga kelganlar, odatda, qayg'u va tashvishlarini ortlarida qoldirib keli-shadi. Ta'til baribir qisqa davom etadi, odatiy hayotingizga qaytganingizda sizni yana chala qolgan ishlaringiz kutadi va yana ularni tamomlashga kirishasiz. Shu bois harchand nash'ali va masrur bo'lolmasangiz ham, ta'tilga kelgach, o'zingizni atrofdagilarga baxtiyor qilib ko'rsatasiz. Shu taxlit, hatto o'zingizni aldashga urinasiz. Men shuning uchun ham dam olish maskanlaridagi odamlarning yuzlarini kuzatgancha hordiq chiqarishni xush ko'raman.

Ammo siz yashayotgan shahar, agar Anqara bo'lsa, u holda vaziyat butunlay boshqacha bo'lishi, tabiiy. Anqara ish shahridir, muammolar bilan birma-bir yuzlashadigan, usti-

ga-ustak ularni unuttiradigan makonlar ham ko'p topilmaydigan muhofazakor bir shahardir. Ammo Anqarani Istanbulga o'xshash sirli, jozibali va maftunkor ayolga aslo qiyoslab bo'lmaydi. Anqara o'ta sipo kostyumda tongda yo'lga chiqib, kechki soat oltida uyiga yetib keladigan, sochlari sal oqarinqiragan, nima ish qilayotganini juda yaxshi biladigan tajribali davlat xizmatchisidek, go'yo. O'sha safdagi xizmatchi sizning otangiz, akangiz, amaki yoki tog'angizdir, ehtimol. Siz uni yaxshi ko'rasiz. Agar u xushbichim bo'lmasa yoki sizga jilmayib boqmasa-da, unga vafoli bo'lmog'ingiz kerak, chunki undan vafo qarzingiz bor.

Bu shahar o'zingizni erkin his qilishingizga sira yo'l qo'ymaydi. Siz Anqarada o'z oilangiz bag'rida jamuljam yashaydigan uyingizda bo'lganidek erkin bo'lishingiz mumkin, chunki u uy sizniki. Ta'tilga chiqsangiz ham u yerda ko'rgan jami go'zalliklar, tanovul qilgan mazali taomlaringiz, dengizni va unda esadigan iliq va mayin shabbodalarga qaramasdan, sog'inasiz. Xuddiki o'sha oilangiz bilan birga gavjum uyingizda huzur bilan ichadigan bir qoshiq issiq sho'rvaning ta'mi kabi Anqaraning ham yoqimli bo'yi birozdan keyin dimog'ingizga uradi. Uni shunchaki tark etolmaysiz.

Tunali Hilmi va Kennedi ko'chasi birlashadigan yerda biroz to'xtab qoldim. Bu yer moviy osmondan taralayotgan quyoshning zarrin nurlari ila nurafshon. Bu yerlar, aslida, menga begona emas. Kennedi ko'chasidan pastga tik tushib borarkanman, Buklum ko'chasining burchagidan chap tomonga, ya'ni bir vaqtlar o'zim yashagan uyga boqaman. Buklum ko'chasi har doim ko'zni quvnatadi. Ko'chaning ikki tarafiga esa ko'kka bo'y cho'zgan daraxtlar ekilgan. Yozda bu daraxtlar yam-yashil to'nini kiyganida, hatto samoning yuzini ko'ra olmaysiz.

O'shanda bolalar hali yosh edi. Hasan boshlang'ich maktabda, Yag'mur esa o'rta maktabda o'qirdi. Ularning ikkalasi ham TED kollejida tahsil olishardi. Keyin biz quyi tarafdagi ko'chaga, ya'ni Bestekâr ko'chasiga ko'chib o'tdik. U yerda o'n

yil yashadik. To'rt qavatli oq rangga bo'yalgan ko'p qavatli binoda joylashgan uyimizga uzoqdan qarab o'yga tolaman. O'sha paytlar mening amaliyot o'tkazadigan xonam Mesh-rutiyat ko'chasida joylashgandi. Bahor kelishi bilan har kuni ertalab ishga borish uchun taksidan voz kechib, Otaturk bulvari bo'ylab piyoda yo'lga chiqardim. Dunyo bilan yagona aloqam ehtimol, o'sha yurishlarim bo'lgandir. O'zimdan ortib ko'chaga ko'p chiqolmasdim. O'shanda ham men har doimgidan qattiq ishlardim. Mening amaliyot xonam va uyim menga yetardi. Men har ikkala maskandagi holimdan g'oyat mamnun edim.

Otaturk bulvariga kelgach, yo'lning u betiga o'taman. Hozir ham Amerika elchixonasi yonidan Madalyon klinikasi tomon ketyapman. Soatga qarasam, 10:00 dan o'tibdi. Bu, haqiqatan ham, yaxshi sayr bo'ldi, men uchun kamyob sayr, rosti. Klinika-ga yetganimda menga haydovchim Aydin peshvoz chiqadi va salomlashadi:

– Tinchlikmi, Gulseren xonim, mashinasiz kelibsiz? Biror muammo yuz berdimi? Yoki biror baxtsiz hodisa...

– Hammasi joyida, Aydin! Bugun biroz sayr qilgim keldi, xolos.

– Xayriyat-ey, sizni mashinasiz ko'rib xayolimga har narsa keldi, xavotirlandim.

Bu Aydin deganlari bunchalar ajoyib bo'lmasa! Men ha-qimda tinimsiz qayg'uradi, omon bo'lgur. Kulimsiragancha menga eshikni ochadi va ichkariga kirarkanman, xushnud kayfiyatda uzoqlashadi. Aydin norg'ul, navqiron va kelishgan yigit. U klinikani o'z uyidek ko'radi. Uning bir qizi bor edi, bu yil o'g'ilchali ham bo'ldi, ammo yarim kechagacha ishlagani bois o'g'lini tayinli ko'ra olmaydi. Shundayam ahvolidan biror marta bo'lsin, shikoyat qilmaydi, ishlashni, ayniqsa, klinika-mizda ishlashni yaxshi ko'radi.

Qabulga kelgan bemorlarimiz bilan boshimni irg'ib salomlashgach, lift orqali to'rtinchi qavatga chiqaman. Yengil kiyinganimga qaramasdan biroz terlabman. Xonamga kir-

ganimda birinchi qiladigan ishim derazalarni ochish bo'ladidi. Alya meni zalda kutmoqda. Demak, birinchi uchrashuv u bilan kechadi.

Men stolimga o'tirib, kompyuterimni yoqsam, darhol yonimga Tuna keladi. Unga sayr qilganimni gapirib beraman. «Juda yaxshi qilibsiz», deydi menga. «Hoziroq Alyani qabul qilamiz» deyman, u esa mendan nonushta qilganmisiz, deb so'raydi. Men hech narsa yemaganimni, biror narsa tanovul qilish xayolimga ham kelmaganini aytaman. «Yo'q, bunaqasi ketmaydi», deydi u. Ayten xonamga darhol patnisda yeguliklar keltiradi. Men imkon qadar yengil tamaddi qilaman, lekin meni taniganlar juda och bo'lsam ham shoshilib yegulik yemasligimni bilishadi. Agar shu paytgacha oshqozonim og'rimagan bo'lsa, bu uni ayaganim sharofatidan bo'lsa kerak. Oshqozonimni juda och qoldirgan vaqtlarim ko'p bo'ldi, lekin hech bo'lmaganda tez ovqatlanib uni charchatmayman.

Yegulikning yarmini patnisda qoldirib, og'zimni qog'oz sochiq bilan artgancha stoldan turaman. Men joyimga kelib o'tirmasimdan xonaga Alya kirib keladi. Yana rangi murdani kidek so'lg'in! Men uning nursiz va loqayd nigohlarini zimdan his qilaman. Meni ko'rib harchand jilmayishga urinsa-da, ko'zlaridagi sovuq ifoda hech qachon o'zgarmaydi. Joyimga o'tirib olgach, undan ohista so'rayman: «Xo'sh, ahvoling qanday, nima yangiliklar?»

U bo'lsa menga bir og'iz so'z bilan javob qaytaradi. Aslida, bu yerga hovliqib keladi, kelgach esa miq etmaydi, zimdan nigoh tashlab qo'yadi. Hech narsaga qaramay, o'zini sirli va yopiq tutishga qaror qilgandek. Yaxshisi, ishni cho'zmasdan u bilan darhol suhbatni boshlaganim va ba'zi narsalarni aytib berganim ma'qul. Shu kunlarda avvalgidan ham ko'proq o'qiyman, chunki kechalari uyqu yo'q. Aytadigan hikoyalarni shunchalar ko'pki.

- Alya, sen ko'p ovqat yemaysan, shekilli, a?
- Uyda menga ovqat pishiradigan odam yo'q.
- Och o'tirmasang kerak?

– Yo'q, yeyish uchun nimalardir topaman.
– Kartoshkani xush ko'rasanmi?
– Ayniqsa, qovurilgan kartoshkani yaxshi ko'rib yeyman.
– Unday bo'lsa, bugun senga kartoshka haqida bir hikoya aytib beraman.

– Mayli... qani, hikoya qilib bering unda.

Qanchalik mulozamat va hurmat bilan gapirishga harakat qilmasin, bu xushmuomalalik ostida bir bezovtalik bordek, go'yo. Haqiqiy yuzini ko'rsatmaslikka harchand urinmasin, baribir kun kelib, uning asl surati va siyratini ko'raman.

– Kartoshkani kashf qilgan va ushbu sabzavotni ingliz xalqiga tanishtirgan shaxs ingliz dengizchisi ser Frensis Dreyk degan kishi emish. Dreyk kartoshkani Peru qirg'oqlaridan va Virjiniya orqali Angliyaga, to'g'ridan-to'g'ri Yelizaveta I ning saroyiga olib kelgan ekan. O'sha paytda fransuzlar buni o'z oshxonalariga qilingan hujum deb bilishgan va inglizlardan qattiq g'azablanishgan. Ular shunchalik g'azablanganki, biroz muddat o'tgach, Fransiyada kartoshka iste'mol qilish taqiqlangan. Keyin kartoshka moxov qo'zg'atadi, degan mish-mishlar ham tarqalgan va ular moxovni keltirib chiqaruvchi deb bilgan va qo'rqqan bu mahsulotni bir asr davomida og'ziga olishmagan.

– Bu yevropaliklarning hammasi aqldan ozgan ekan-da!

– O'sha yillarda Shvetsariya va Germaniyada og'ir ocharchilik hukm surgan, ammo xalq ochlikdan o'lish xavfiga yo'liqsa-da, baribir kartoshka yemagan. Biroq bu boradagi rekord ko'proq fransuzlarga tegishli. Bir asr davomida ochlik va o'lim evaziga bu mazali va to'yimli sabzavotni iste'mol qilishga qarshilik ko'rsatgan ko'plab fransuz dehqonlari ochlikdan vafot etganlar.

– Johil yevropaliklar!.. Menimcha, bu qandaydir ijtimoiy telbalikka o'xshaydi. Lekin dunyoda hamma narsa yashin tezligida o'zgaradi. Asossiz taxmin-u mish-mishlar, bular ba'zan odamlarning hayotiga zomin bo'lishi mumkin. Ijtimoiy psixologiya shunday bir ma'noni anglatadiki...

Alya juda ko'p gapiradi, ko'pincha o'z o'rnida to'g'ri fikrlar va sharhlar ham bildiradi. Vaholanki, men haligacha bu qizdan bunday narsalarni kutmayapman. Chunki uning tashqi ko'rinishi va ovozi suhbatdoshini aldab qo'yadi.

– 1845-yilda, ko'plab Yevropa mamlakatlari kartoshkani rad etgandan so'ng bu sabzavot Irlandiyaning deyarli barcha hududlari bo'ylab ekilgan. O'sha paytda Irlandiya iqtisodiyoti butunlay qishloq xo'jaligiga asoslangan edi va yer egalariining aksariyati Irlandiyada yashovchi inglizlar bo'lgan. Dehqonlar bu yerlarda juda kam maosh evaziga ishlab, faqat kartoshka tanovul qilishgan. Vaqt o'tishi bilan bu mahsulot Irlandiya qishloq xo'jaligining haqiqiy ramziga aylandi va millionlab yevropaliklarning tushunchasiga ko'ra ko'plab kasalliklarga sabab bo'ladigan kartoshkadan hamma qochayotgan bir paytda, irlandlar ularning ustidan istehzo qilganча, xushxo'r sabzavotni zavq bilan iste'mol qilishgan.

– Ular faqat kartoshka yeyishadimi?

– Bechora qishloq aholisi uch mahol kartoshka yeyishardi. B1 va B2 vitaminlari hamda zarur minerallarga boy kartoshka organizmda S vitaminining saqlanishini ham ta'minlab, qishloq aholisi orasida keng tarqalgan iskorbit kasalligi ushbu mahsulot tufayli bartaraf etildi. Sutdan tayyorlangan kartoshka pyuresi organizmni unga zarur bo'lgan A va D vitaminlari bilan ham ta'minlaydi. Shu tariqa ushbu poliz mahsuloti qishloq ahli uchun rohatijon taomga aylanibdi.

Ustiga-ustak, bu yegulik tufayli tug'ilish darajasining asta-sekin ko'payib borishi Irlandiya aholisining sonini tez sur'atda o'sishiga sabab bo'ldi. 1780-yilda ikki million bo'lgan Irlandiya aholisi falokat boshlangan yili to'qqiz millionga yetdi. 1845-yilda kelgan kasallik kartoshkani xuddi o'n to'rtinchi asrda Yevropani vayron qilgan vabo kasalligi kabi ko'rsatib, aholiga kuchli ta'sir qildi. O'sha yili hosilning yarmi, keyingi yili hammasi aynan shu kasallik tufayli chirib, nobud bo'lgan. Yagona oziq-ovqat mahsuloti bo'lgan kartoshka yo'q bo'lib ketgach, qishloq aholisi takror ochlikni boshdan ke-

chira boshladi. Ko'pgina bolalar D vitamini yetishmasligidan kelib chiqqan ko'zlarning qurishi tufayli ko'r bo'lib qoldilar.

– Nega faqat kartoshka ekishganmi? Ularning tuproqlari-da boshqa hech narsa unmaydimi?

Bu savolni u qimtinib, ko'zlarini pirpiratgancha so'raydi.

– Irlandlar o'z yerlarida suli, sholg'om va bug'doy kabi turli ekinlarni yetishtirishgan. Biroq Britaniyaning ketma-ket hujumlari paytida, ularning mahsulotlari ingliz qo'shinlari-ning oyog'i ostida toptalganida, ular Yangi Dunyodan kelib, yer ostida o'sadigan kartoshkani najot, mo'jiza sifatida ko'r-dilar va tez orada bu taom ularning asosiy mahsulotiga aylan-di. Ammo bitta mahsulotga tayanish ularga qimmatga tushdi. Ochlikdan keyin odamlarning bir qismi Amerikaga ko'chib ketishdi va Irlandiya aholisi yigirma yil ichida teng yarmiga qisqardi.

– Hech kim yordam bermabdimi ularga?

– Afsuski, yordam ko'rsatishmagan. Irlandiya dengizi-ning narigi tomonida joylashgan Angliya o'sha paytda katta oziq-ovqat zaxiralariga ega dunyodagi eng boy mamlakat edi. Inglizlar bu holatni qo'shnilar ochlikdan qiynalayotgan payt-da, o'zlarining omadsizliklari deb baholadilar va bu muam-molarni o'zlari hal qilishni eng to'g'ri yo'l, deb o'ylashdi. O'sha yillarda Angliya, hatto o'zining faqir xalqiga ham yordam ber-madi. Irlandiya aholisini kamaytirish uchun ocharchilikni Xu-doning ishi deb bilgan ingliz iqtisodchilari, orolning iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun, hatto bir million o'lim hodi-sasining ham yetarli emasligini ta'kidlashdi.

Ochlikdan o'layotgan odamlar soni tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan bir paytda, o'zaro muzokaralardan so'ng irlandlar inglizlardan makkajo'xori olib kelishdi, lekin xalq makkajo'xori ekini haqida mutlaqo tasavvurga ega emas, uni qanday pishirishni va iste'mol qilishni ham bilmasdi. Mak-kajo'xori unini «sariq kukun» yoki «oltingugurt» deb ataydi-gan odamlar undan foydalanishmagan.

– Ular haq...

– Nega haq ekan? Axir, bu jaholat emasmi?
– Yo‘q, johillik emas. Ochlik chog‘ida ularga yordam bermagan davlat keyinroq yuborgan yordamni... Men ham yemagan bo‘lardim...

G‘azabi qadar g‘ururi ham baland!

– Amerikaga ko‘chib kelganlar-chi, qutqarildimi?
– Ochlikdan qochgan millionlab odamlar «tobut» kemalarida uzun va zulmat qoplagan bir sayohatga chiqishdi. Ba‘zilar tif yoki dizenteriyadan yo‘lda vafot etishgan. Omon qolganlar ham qayerga bormasinlar, odamlar ularni mamnuniyat bilan kutib olishmadi. Ular bir oroldagi «bezgak kulbalari»ga surgun qilingan. Bu yerda yuzlab irlandiyalik ayollar va bolalar halok bo‘lishgan. Atlantika okeanini kesib o‘tish uchun puli yetmaganlar Angliyaga borib, eng qashshoq hududlarga joylashganlar va u yerda yashab qolish uchun kurashishgan. Bularning barchasi irlandlarning inglizlarga nisbatan allaqachon mavjud bo‘lgan nafratini va g‘azabini toshirdi.

– Nafrat va g‘azab... Ko‘rib turganingizdek, odamlarda shakllanishi oson emas... Keyin nima bo‘lgan? Irlandlar bu gina-kudurat va g‘azabga qanday munosabatda bo‘lishdi?

– Ular britaniyaliklarni yillar davomida qon qustirishdi.

– Tasanno ularga, yaxshi ish qilishibdi.

– Bunday intiqom olishda, odatda, g‘oliblar ko‘p bo‘lmaydi. Jazoni yillar davomida irlandlarga bosim o‘tkazganlar emas, afsuski, ularning farzandlari va nabiralari tortdi. Bu xuddi qon da‘vosiga o‘xshaydi.

– Mayli-da, odamlar qanday tarzda bo‘lmasin, qasos olishlari kerak-ku...

Yomonlik boshqa yo‘l bilan unutilmaydi. Shuning uchun men to‘g‘ri mavzuni tanladim. Bu qizning ichi ham qasos olovi bilan yonmoqda. Balki shuning uchunmi, men uni yaxshi ko‘rolmayapman. Ko‘zlaridagi nafrat meni cho‘chitadi. Ish stolimda o‘tirganimda ham uning sovuq nafasidan o‘zimni himoya qilishga urinib, iloji boricha orqaroqqa chekinaman. U esa borgan sari orqasini egib, menga nayzadek nigohlari

bilan qaraydi. G'azabi kuchaygan sari uning ko'zlaridagi sovuq, jonsiz, o'lik nigoh jonlanib, tobora xunuklashib boradi. U shunchalik aqlliki, meni hayajonga solayotgan va hatto meni bezovta qilayotgan tuyg'ularni ham teran idrok etadi, deb o'ylayman. Agar men bu qizni yaxshi ko'ra olsam, hammasi risoladagidek ketadi. Ammo bunga osonlik bilan erishib bo'lmaydi, hech kimni majburan yaxshi ko'rib bo'lmaydi.

– Qasos yovuzlikni unuttirmas ekan.

– Qilgan ishlaridan qutulib qolishadimi? Axir, har bitta jinoyatning jazosi bo'lishi kerak.

– Huquqshunos bo'lganing uchun buni mendan ko'ra yaxshiroq bilasan. Har bir jinoyatning jazosi bor, albatta. Odamlar yuz yillar mobaynida dunyoda mutlaq adolatni ta'minlaydigan huquqiy tizim yaratishga harakat qilmoqdalar, ammo bu borada hali to'la muvaffaqiyatga erishilgani haqida gapirishga erta. Adovat va g'azab juda o'tkir va keskin his-tuyg'ulardir. Bu ham insonning yuragini og'ritadi, ham kuchini qirqadi. Bunga sarflangan energiya butunlay isrof bo'ladi. Qaniydi, odamlar bu energiyadan boshqacha yo'llarda foydalanishsa edi!

– Bu bilan nima demoqchisiz?

– Nafrat va g'azab to'la hayotni tasavvur qil-a! Boshqalarga ozor berish va xafa qilish bu g'azabni kamaytirish o'rniga battar kuchaytiradi. Bu tuyg'ular kishining o'ziga qanchalar zarar yetkazayotganini ko'rmayapsanmi?

– Odamlar buni o'z zavqlari uchungina qilishmaydi!.. Hech kim bunday yashashni xohlamaydi. Aql g'azabni to'xtata oladimi?

Ajoyib savol! U endi ichidagi g'azabini yashirmaydi, hatto uni to'xtatish yo'lini ham qidiradi.

– To'xtata olmaydi, lekin avvalo, o'ziga zarar keltiradigan bu salbiy energiyani boshqa tomonga yo'naltirishi mumkin.

– Qayerga, masalan?

– Anqarada suv quvurlari tez-tez yorilib, tonnalab suv yo'l-larga oqadi. Bu isrof qilingan suv tufayli transport oqimi falaj

bo'ladi, mashinalar sirpanadi, odamlar shalabbo bo'ladi va hamma narsa loy-balchiqqa burkanadi. Odamlar uchun g'azab va nafrat ham shunday. U ham o'zining ichki manbalarini quritadi, ham qaysidir ma'noda atrof-muhitga zarar yetkazadi. Men ishim tufayli tez-tez shunday salbiy his-tuyg'ular bilan to'qnash kelayotganim sababli, har safar bu manzarani ko'rganimda odamlardan oqib chiqadigan bu salbiy his-tuyg'ularni eslayman. Bu isrof qilingan suvni boshqa joylarga yo'naltirish mumkin bo'lsa, barchamizga, ayniqsa, insonning o'ziga koni foyda.

Alyaga shu gaplarni aytar ekanman, o'z holatim haqida ham o'ylayman. Aydin vafot qilganidan so'ng ichimda tez sur'atda o'sib borayotgan salbiy his-tuyg'ularni ishimga yo'naltirdim. Eng yomon kunimda ham kasbimni sira tashladim. O'z ishini sevish qanday mo'jiza!

– Tarixda ham bunga doir misollar ko'p. Masalan, ko'pchilik mashhurlar buning uddasidan chiqqan va bugungi kungacha yetib kelgan buyuk san'at asarlarini yaratishgan. Balki, bir kun sen ham shunday qila olarsan.

- Lekin yovuzlik, shafqatsizlik va vahshiylik insonga xosdir.
- Ammo yaxshilik, rahm-shafqat va sevgi ham bor.
- Yomon yaxshi bo'lishi mumkinmi?

Bu juda muhim savol. U bir marta o'zini yomon ko'rsatdi. Negadir Aslanbey xayolimga keldi. «Yomon bo'lish qiyin», degandi u. Alya bu fikrlarga parvo ham qilmaydi. Atrofini loqaydlikdan barpo bo'lgan bir zulmat qoplagan, xolos. Ammo shu bilan birga, u yorug'likka intilayotganga ham o'xshaydi.

- Sen buni sinab ko'rishga arzimaydi deb o'ylaysanmi?
- Inson o'z taqdirini o'zgartira oladimi?
- Inson taqdirining bir qismini o'zi yozadi.
- Men o'zim yozmadim... Menga qolsa, aslo bunday yozmagan bo'lardim.

Ko'zlarimga qarab, bu so'zlarni g'azab aralash aytdi. O'sha xunuk, ammo og'ir dardga to'la bolalarga xos yuziga ma'yus

boqaman. Bu yoshda uning qorong'ilik qa'rida umidsiz qolishi meni qattiq ranjitadi.

– Sen bu ulkan hayotdagi uzoq yo'lning endigina boshidasan. Tabiiyki, bolalar o'z taqdirlarini o'zlari yoza olmaydilar. Aksincha, qalam ota-onaning qo'lida bo'ladi. Sen endigina taqdiringni yozadigan qalamni qo'lingga olayapsan, lekin men u yerda yaxshi narsalarni ko'rmayapman. Nima yozi-shing menga hozirdanoq ma'lum.

– Nimani yozarkanman?

– Sen bu hayotni baxtsizlik, yolg'izlik, g'azab va qasosga to'la harislik bilan o'tkazasan. Ichindagi qasos o'ti avval boshda seni yoqadi. Men seni hali yaxshi bilmayman, lekin bu yong'inni baravar o'chira olmasak, buning oxiri yaxshilikka olib bormasligi tayin.

Mening gaplarimdan ranjigani ko'rinib turardi. Qo'llarini musht qilganча, bir-biriga uradi. Men uning qo'llaridagi kesilgan izlarni eslayman. Bu izlar shubhasiz, eng og'riqli, umidsiz, lekin asosan g'azablangan onlaridan qolgan. Uni nima bunday ayanchli ahvolga solganini aniq bilmayman, lekin hozir uning ruhi o'tmishda qattiq yaralanganiga aminman. Qayerdadir bu zanjirni uzib ololmasam, u taqdirini la'natlab umrining oxirigacha shu taxlit yashab o'tadi. O'zi uchun chizib qo'ygan bu taqdirni bir qarichga bo'lsa ham joyidan qimirlata olsam bu mening katta yutug'im bo'ladi.

– Siz juda xavfli ayolsiz.

Uning g'azabi menga qaratilgan edi. O'ylaymanki, men haqiqatni aytib, uni qattiq xafa qildim. Aslida, mendan allaqachon ranjigan bu qizning ko'nglini og'ritish niyatim yo'q edi, ammo unga bu gaplarni aytmасam, taqdirini o'zgartirganida joni yanayam ko'proq yonadi.

– Xo'sh, nima sababdan xavfli ekanman?

– Ayamasdan gapirdingiz. Boshqa shifokorlar sira bunday qilmasdi.

– Ammo sen ularning qadrini bilmagansan.

– To‘g‘ri aytdingiz, menga yaxshilik yoqmaydi, yomonlikka odatlanib qolganman.

Shu tobda uning uchun men ham yomonman. Men haqimda qanday salbiy fikrlari bo‘lsa, ularni birma-bir ifodalay boshladi.

– Bu yerda yomon odam menman, shekilli?

– Ha, siz aynan shu maqsadda oldingizga kelyapman. Bu so‘zlaringiz bilan mening jonim yonishini bilasiz, lekin taslim bo‘lmaysiz, zinhor taslim bo‘lmang. Qanchalik og‘riqli bo‘lmasin, bir kun kelib siz kabi kuchli bo‘lishni o‘rgatasiz menga. O‘shanda hech kim meni xafa qila olmaydi.

«Oh, – deyman ichimda o‘zimga o‘zim, kuchli bo‘lgan insonning joni og‘rimaydimi?» Hech kim men chekkan azoblarni bilmasdi. Balki, ichki kuch ham shundaydir. Zotan, men hech qachon, hech kimga buni his qildirmadim. Unday bo‘lsa, nega jonim bunchalar yonmoqda? Avvallari Aydinni yo‘qotishdan juda qo‘rqardim. Mana uni yo‘qotdim ham. Ichimdagi qo‘rquvim ham aridi. Ammo bu safar ich-ichimda og‘riqli bir yara bordek tuyuladi.

O‘limning sovuq manzarasiga duch kelish – bu, boshqacha tajriba. O‘lim, o‘limning sovuq yuzi! Men bu qizda o‘limning soyasini ko‘raman, shuning uchun undan uzoqlashishga intilaman. Ha, nihoyat, men izlagan javobimni topdim, chog‘i! Bu qizni ilk ko‘rgan kunimdan beri qancha harakat qilmayin, unga nisbatan menda iliqlik uyg‘onmadi.

Ko‘zlarida ahyon-ahyonda o‘tdek chaqnab turgan nafrat va g‘azab uchqunlari ko‘rinsa-da, odatda, odam uning suratida yangi murdani ko‘rgandek bo‘ladi. Uning joni bor-u, lekin ruhi yo‘qdek. Faqat ruh o‘rniga kitoblardan o‘rganilgan ba‘zi ma‘lumotlargina mavjud. Ha, u o‘likdek sovuq va jonsiz. Qo‘lim nogahon qo‘liga tegsa, men shuni his qilaman. U bilan birga sovuq, muzdek bir narsa tegib ketgandek tuyuladi. U xuddi o‘lganga o‘xshaydi, lekin o‘zi ham buni sezmaydi. Men kinoda shunday manzarani ko‘rgandim, lekin u qiz farishtaga

o'xshardi. Alyada esa farishtaga xos narsaning o'zi yo'q edi. Uni faqat va faqat Azroilga qiyoslash mumkin.

Nihoyat! O'ylaymanki, endi o'zimni biroz teranroq anglay boshladim. Xo'sh, nega men bu qizning qiyofasida o'limni ko'raman? Faqat sovuq va xunuk bo'lgani uchunmi? Buning menga hech qanday aloqasi yo'qmi? O'limning sovuq soyalari miyamda tinmay aylana boshlaganida, uni o'limga o'xshatishim tasodifmi? Yag'murni, ya'ni qizimni har ko'rganimda menga hayotni eslatadi, Alya-chi, u nega faqat o'limni eslatadi? Qiziq, bu qiz o'lim bilan shunchalar yaqin to'qnash kelganmi? Ko'zlaridagi bu sovuqlik qayerdan paydo bo'ldi? Demakki, oramizda uyg'un bo'lgan ba'zi narsalar bor. Balki, u ham menga o'xshab, o'limning sovuq yuzi bilan to'qnashgandir...

– Kuchli bo'lish insonning jonini og'ritmaydimi, Alya?

– Siz meni yana Alya deb chaqirdingiz. Qabul qildingizmi, yo'qmi? Men hanuz tushunolmayapman.

– Bu biroz qiyin kechdi rosti, lekin men qabul qildim.

Nihoyat, uning yuzi biroz yorishdi. Demak, undan voz kechishimdan, qabul qilmasligimdan hali ham qo'rqadi. Balki, shuning uchun ham sal avval jahli chiqqandir.

– Sizning ham ranjigan onlaringiz bo'lganmi?

– Bo'lgan... Aytmasang ham bilaman, juda ko'p qayg'u chekkaningni bilaman. Chunki ko'p o'limni ko'rgansan.

Bir lahza u ko'zlarini ko'zlarimga qadagancha qotib qoladi. So'ngra shoshib ko'zlarini olib qochadi. Xayolidan o'tgan o'ylarni quvmoqchi bo'lgandek bosh chayqagancha ming'iray boshlaydi:

– O'lim meni hech qachon tark etmadi. Men doim o'limning bag'rida yashadim.

O'limning bag'rida yashash nimani anglatadi? Hozircha bilmayman, lekin his-tuyg'ularim meni aldama bdi. Go'yo bu qizga o'lim hidi singib ketgan va mening miyam bu vaqtda uni idrok etishga tayyor turardi. U bo'lsa to'xtovsiz gapirishda davom etadi:

– Lekin sizni ko'rgan insonlar joningiz yonganini va qiy-nalغانingizni bir qarashda sezmaydi. Agar bir kun kelib, men ham juda kuchli odam bo'la olsam, demak, yana jonim yona-di. Lekin buni hech kim sezmaydi, kuchli bo'lishni uddalay olsam, unda taqdirim o'zgaradimi?

– O'zgaradi... Taqdir deganda insonning aqliga faqat tug'i-lish va o'lish kelmasligi kerak. O'rtada bir hayot bor. Bu hayot-ning rangi, mazasi bor. Bizning o'zgartirishimiz kerak bo'lgan narsalar mana shulardir.

– Men bu taqdirni o'zgartiraman. Siz boyagina menga «Agar inson astoydil xohlasa, bu sodir bo'ladi», dedingiz. Men buni judayam xohlayman. O'ylaymanki, sizning ayt-ganlaringiz rost edi. Qanday hayot kechirishim allaqachon ma'lum. Men, aslida, zavol topgan bir odamman, lekin nega-ligini bilmayman-u, siz menga achinmaysiz! Rosti, bu men-ga juda yoqadi. Chunki odamlar menga rahm qilishlarini yomon ko'raman.

Unga achinishimni xohlamaydi. Men uni boshidan o'lim bilan tenglashtirganim va shuning uchun uni umuman yoq-tirmaganim bu qiz bilan munosabatlarimning g'alati bir ko'-rinishi sifatida qo'l keldi. Bu qizga rahm qilishim kerakmi o'zi? Menga o'xshagan odam buni qanday bajaradi?

– Onam meni hech qachon sevmagan. Boshimizdan ke-chirgan o'sha dahshatli voqealardan keyin dadam onam bi-lan meni Anqaraga olib kelib, hozir yashayotgan uyimizga joylashtirdi. O'sha voqeadan so'ng onamning ruhiy holati ya-nada yomonlasha boshladi. Bir kuni u bilan Anqarada uyda yolg'iz qoldik. U ovqatlanib bo'lgach, atrofimda otga o'xshab gir-gir aylana boshladi. Zerikkanida doim shunday qilardi. U hech qachon o'tirmas, uy bo'ylab aylanib yurardi, meni kaltaklash uchun bahona qidirardi. Buni bilganim sabab bir burchakda o'tirar, hech qachon joyimdan qimirlamasdim. Hatto onamning yuziga qaramasdim. Va hatto hojatxonaga ham bormasdim... Negadir o'sha kuni juda och edim. To'g'ri-

si, muntazam va rejali ovqatlanish odatim bo'lmagani uchun ochlikni ham ba'zan his qilmasdim.

Oshxonada kolbasa qovurib o'zi yedi, menga bermadi. Kolbasa hididan qornim ochganini his qildim. U bir muddat hammomga kirib, eshikni yopdi. Men uni hojatxonaga kirdi, deb o'yladim va tezda o'rnimdan turib, mehmonxonadagi shkafdan yegulik izlay boshladim. Shkafda juda ko'p keraksiz narsalar bor edi, orqaroqda esa ochilgan yarim to'rva qovurilgan no'xat turardi. Undan bir hovuchgina no'xat oldim. Endi joyimga qo'yimoqchi edim, qo'rquvdan qaltiragan noshud qo'limdan o'ram sirg'alib chiqdi. Bir zumda qovurilgan no'xatlar butun mehmonxona bo'ylab sochilib ketdi. Men nima qilishni bilmay dovdirab qoldim. Qo'rquvdan nafaqat qo'llarim, balki butun vujudim titrardi. Turgan joyimda qotib turganimda, onam hammomdan yonimga yugurib keldi. Qo'lga tushgandim. Boz ustiga yegulik o'g'irlayotgan paytim... To'satdan yuzida qo'rqinchli istehzo va kulimsirash paydo bo'ldi.

«Bu safar u meni o'ldiradi», dedim o'zimga o'zim. U shu tobda mening jonimni olish uchun kelgan o'lim farishtasiga o'xshardi.

O'lim farishtasi! Men Azroil deyman, u bo'lsa «o'lim farishtasi» dedi. Hatto bizning miyamiz ham bir xil chastotada ishlaydi. Alyaga o'z onasi ana shunday zulm qilganmi? Bu qizni och qoldirganmi? Shuning uchun oriqlab ketganmi? Ular qanday dahshatli voqealarni boshdan kechirgan bo'lishi mumkin? Bu oilaning boshiga nimalar keldi ekan-a?

U ko'zlari yumuq holda, ovozi tobora ko'tarib, deyarli qichqirib gapirarkan, mexanik tarzda davom etadi:

– U sekin qo'lini cho'zdi va sochimdan mahkam ushlab oldi. Keyin shunday tebratdiki, xonaning narigi burchagiga qanday uchib borganimni bilmayman, xona burchagida turgan stoldagi kattakon vaza bilan qo'shilib polga quladim. Vaza singan, shisha bo'laklari, qovurilgan no'xatlar, uy singan stolning bo'laklariga to'la edi... xona bir zumda xuddi urush maydoniga aylandi. Biror kishi juda qo'rqqanida, u

hech narsani sezmaydi. Og'riqni ham his qilmaydi, yig'lamaydi, qichqirmaydi.

«To'g'ri, – deyman o'zimga o'zim. – Odam qanchalik g'am-boda bo'lsa, bularning hech birini qila olmaydi. Men ham qilolmadim».

– Keyin u mening tepamga keldi. So'ng devor tagidagi pashsha tutadigan plastik to'rni qo'liga oldi... U avval pashshato'rning keng tomoni bilan meni ura boshladi. Boshimga, ko'zimga, qayerimga duch kelsa, ayamadan uraverdi. Shunda u menga bu bilan yetarlicha ozor bermayotganini anglagan bo'lsa kerak, pashshato'rning orqasini o'girdi-da, dastasini qamchidek tutib oyoqlarimga ura boshladi. Siz hech havoda uchgan qamchi ovozi eshitganmisiz?

Bu gaplarni aytarkan, nigohini menga loqaydgina qadagancha ko'zini qimirlatmaydi. Bunday savolga qanday javob berishim kerak? Men indamadim. Jim turganim sayin ichimda qattiq og'riq kezinaradi.

– Ayrim savollar qarshisida, hatto psixiatrlar ham sukut saqlab qolishadi. Pashshato'r havoda aylanar ekan, shovqin-surondan so'ng og'riqdan chinqira boshladim. Go'yo mehmonxonada ulkan simfonik orkestr ovozi yangrardi. Avval qamchi ovozi, keyin onamning qichqirig'i va nihoyat, mening ayanchli chinqirig'im atrofni tutib ketdi. Bu bir-biriga omixtalashib ketgan ovozlarda onam charchaguncha, qo'lini ko'tarolmay qolguncha tez sur'atlar bilan davom etdi. «Orkestr» asarni tugatib, jim bo'lib qolganda, onam bir tomonda, qamchi bir tomonda, men eng burchakda hushsiz yotardik...

U yerda qancha uxlaganimizni eslolmayman. O'zimga kelganimda, xona qorong'i edi, onam jang maydoniga aylangan xonani tartibga solib qo'ygandi. U shundoqqina yonimdagi kresloda o'tirardi, ham tamaki tutatardi, ham men tarafga yonboshlagan ko'yi zavqlanib kuzatardi. Men boshqa tomonga o'girilmoqchiydim, lekin azbaroyi og'riqdan joyimdan qimirlashga majolim yetmadi. Hech narsaga suyanolmasdim, u mening o'rnimdan turolmasligimni tushundi. Yana sochla-

rimdan ushlab, xonamga sudrab olib bordi-da, bo'sh qopdek karavotimga tashladi. Yuzim qonga belangan edi, og'zimda teshik bor edi. Keyinchalik tushundimki, bu urushda ikkala tishim ham singan. Sochlarimning yarmi yo'qolib ketdi, oyoqlarimda qalin, binafsha rangli chiziqlar paydo bo'ldi, chunki havoga uchib ketganimdan keyin o'ng tomonimga yiqilib tushdim... qo'ltig'imdan pastki qismini qamchidan qolgan qop-qora dog'lar bosgan edi.

Alya o'tkir nigohlarini menga qadadi. Bilaman, hozir biror nojo'ya savol beradi yoki unga achinayapmanmi-yo'qmi, holatimni anglashga harakat qiladi. Menga o'xshagan odamning bu hikoyalarni ta'sirlanmasdan tinglashi mumkin emas. Endi uning sochlari nega bunchalik siyrakligi, chigalligi va elektr toki urgandek ko'pincha tikrayib turishining sabablarini tushunib yetgandekman. Tishlari ham xuddi shunday.

Bir lahza nigohlarimiz tutashdi. Uning boqishlari hamon zerikarli va hissiyotsiz! Agar boshqa birov bo'lganida, gapirayotganida ko'z yoshlari sel bo'lib oqardi. Kim biladi, balki bir kun birga yig'larmiz. So'ngsiz og'riqlar-u dardlar bechora qizning diydasi qotirib, yuragini muzlatib qo'ygan ko'rinadi. Biz boshdan kechirgan og'riqlar chidab bo'lmaydigan darajada oshib ketganda, odam toshga aylanadi. Miyamiz juda ajoyib ishlaydi. O'sha paytda odam og'riqni his qiladimi yoki yo'qmi, u qaror qiladi. Miya tomonidan ruxsat berilmagan og'riq sezilmaydi, chunki og'riqning chegarasi mavjud. Miya bu chegaradan oshib ketadigan og'riqni, ya'ni odamning bardoshi yetmaydigan og'riqni to'sib qo'yadi.

Bir onani xotirlayman. Yosh o'g'lini jo'yali bir sababsiz yo'qotgan ona.

U dafn marosimiga pushti liboslarda keldi. Hamma o'ksib-o'ksib yig'lar ekan, faqatgina u yig'lamadi. Ayol atrofiga ma'nosiz va loqayd boqardi. Ba'zida, hatto yig'lay olish ham bir ne'mat ekan.

Men qarshimdagi qizning gapirishini va savol berishini kutaman, lekin u miq etmasdan ko'zlarimga termiladi. Keyin bo-

shini pastga quyi eggancha, soʻzida davom etadi. Bugun bu qiz koʻproq erkin va ravon gapirayotganga oʻxshaydi, nazarimda.

– Dunyoda adolat degan narsa yoʻq... Men buni bilaman. Hamma narsa singari dard-u alam ham bu dunyoda adolatsiz taqsimlanadi. Xudo duolarimni eshitsa-da, ahamiyat bermadi. Endi men ham bunga eʼtibor bermayman. U endi xohlasi ham meni azoblay olmaydi, chunki men dunyoning barcha azoblariga qarshi chiqaman. Marhamat, ular birma-bir emas, bir butun boʻlib kelsinlar... Bilasizmi, nega men bu azoblarining barchasiga qaramay haliyam hayotdaman? Men odam degan farishta yuzli yirtqich hayvondan qasos olaman!

Shuning uchun men huquqshunoslikka oʻqidim. Men shifokor yoki advokat boʻlish haqida koʻp oʻyladim. Siz odamlarni xohlaganingizcha azoblashingiz mumkin. Advokatlari ham shunday. Bu dunyoda adolat degan narsa yoʻqligini har kuni yana bir bor koʻrib turibman. Qoʻlimdan kelgancha oʻsha adolatsizlikka hissa qoʻshmoqchiman. Men, aslida, hozir oʻlgan boʻlishim kerak edi, agar men oʻlmagan boʻlsam, demakki, qilishim kerak boʻlgan ishlarim talaygina.

Ey Xudoyim, bu qandayin gʻazab va soʻngsiz nafrat! Uni tinglayotib, insonning vujudi titrab ketadi. Menimcha, u haqli ravishda gʻazablanyapti, chunki bugungacha achchiq azoblar chekkan, ammo bu gʻazab bilan kurasha olmasak, boshqa yomonliklar ham sodir boʻlishi tayin.

– Nima ekan, oʻsha qilishing kerak boʻlgan ishlar?

– Azoblar unday emas, mana bunday chektiriladi... Musht-dekkina bola paytim emas mana endi kelishsin koʻraylik-chi... Toʻgʻrisi, men hali kurashishga tayyor emasman. Oʻrganishim kerak boʻlgan narsa koʻp. Bir narsa borki... Insonlar baʼzi narsalarni ona qornida oʻrganmagan. Xuddi jin kabi hamma narsani bilganlaridek... Bir kun kelib kamchiliklarimning oʻrnini toʻldirib, ulardan oʻzib ketaman. Bunga aqlim yetadi. Bilganlarimni siz menga oʻrgatasiz.

Uning koʻzlaridagi sovuqqon ifoda tarqaldi va oʻsha yovvoyi, oʻtkir qarashlar nigohida zohir boʻldi. Bu qizning qarashla-

ri kuchayib borar ekan, menimcha, yanada xavfliroq bo'ladi. Eng ajablanarlisi, birinchi fursatdayoq imkon paydo bo'lishi bilan menga ko'rsatma berishni xush ko'radi. Men unga bil-magan narsalarini o'rgatarmishman? Kuch juda kuchli mag-nit va kuchga sig'inuvchilarni o'ziga tortadi. Bu qiz menda kuchni ko'ryapti. Bu aslida insoniy refleksi! Odamlar kuchli hokimiyat atrofida to'planishganda o'zlarini xavfsizroq his qilishadi. Demak, kuch Xudoning muqobil bir turidir. Garchi u hozircha Xudodan xafa bo'lsa-da, kuchli hokimiyatdan voz kechmaydi. Biz u bilan bu masalalar haqida uzoq gaplasha olishimiz kerak, lekin men ham, u ham bunga to'laqonli tay-yor emasmiz.

- Tushundim, menga yana ko'rsatma bera boshlading.

- Yo'q... bir onda og'zimdanda chiqib ketdi, e'tibor bermang. Men odamlar bilan qanday qilib, to'g'ri gaplashishni bilmay-man. Agar menga yordam bersangiz, vaqti-soati kelib, muo-malani ham o'rganaman. Sizga bir narsani va'da qila olaman. Men juda yaxshi talabaman. Menga vazifamni bir marta ko'r-satsangiz yoki tushuntirsangiz kifoya. Ya'ni o'shanda sizni umuman charchatmayman.

Meni charchatmasmish... Bu gap menga tegishli, u bilan uchrashgan kundan boshlab, har ko'rganimda xayolimga yo-zilgan bir jumla. U, hatto buni ham his qildimi, ajabo?

- Bilaman, kimlardandir alamingni olmoqchisan Alya, haqsan. O'ylaymanki, sening boshdan kechirganlaring oson-lik bilan qabul qilinadigan narsa emas, lekin Xudodan g'a-zablanma. Boshingga bu kunlarni u solmagan. Ba'zida yaxshi odamlar bilan ham yomon narsalar sodir bo'lishi mumkin. Ba'zan kuchli bo'lish uchun avvalo, ojiz bo'lish va azob che-kish kerak. Ehtimol, sen ushbu sinovlar tufayli hayotda juda kuchli va muvaffaqiyatli qiz bo'larsan.

- Nimalarni boshdan kechirganimni hali bilmaysiz. Bu chekkan alamlarimdan juda kichik bir parcha edi, xolos, le-kin men o'qigan kitoblarda qayg'ular va og'riqlar odamni chiniqtirishi haqida yozilgan. Shuning uchun men aytgan-

laringizni tasalli sifatida qabul qilmayman. Sizning ham bu dardlarga begona emasligingiz aniq. Bundan tashqari, sizda kechinmalaringizni har doim ham sezdiravermaydigan bir qobiliyat bor, biz xohlaymizmi yoki xohlamaymizmi, bu dunyoda og'riq hamisha bo'lgan va u mavjud bo'lib qolaveradi. Siz ham, men ham buni to'xtata olmaymiz. Mana men shu yerdaman. va o'zimni sizga taslim qildim. Qolaversa, hech qachon tushuntirib berolmayman deb o'ylagan narsalarimni ham aytdim. Balki, bir kun qolganini ham aytib berarman. Lekin siz ham meni tashlab ketmang. Men mana shundan qo'rqaman.

Bu so'nggi so'zni shivirlab aytadi. Bir tomondan, u menga batamom ishonishda qiynalsa, ikkinchi tomondan uni tark etishimdan qo'rqadi. Ey, Xudo, bu qiz qanchalar yolg'iz!

– Sizni bu yerdan topolmasam agar... «U ham meni tashlab ketgan», deyman o'zinga o'zim. Balki, sizning ham o'zingizga yarasha ishlaringiz bordir, lekin inson baribir qo'rqarkan... Shu kunlarda Tuna xonimni ko'p bezovta qildim. Mendan yana jahli chiqdi, shekilli, lekin baribir birinchi uchrashuvni men uchun belgiladi. U juda yaxshi ayol. Ko'ngilchan va juda mehribon. Shunday ayolning farzandi bo'lmabdi... Bu qanday dunyo bo'ldiki!.. Tuturiqsiz ba'zi xotinlarga farzand bergan Xudo nega Tuna xonimga o'xshaganlarga farzand bermayapti... Kim biladi, ichingizda men haqimda nimalarni o'ylayapsiz?

– Nimalar deyapman, seningcha?

– Senga nima hoy qiz, o'zingni tashvishingni qilsang-chi, Tunaning bolasi bor-yo'qligini muhokama qilish senga qolibdimi, deyayotgandirsiz, hoynahoy. Ha, mayli, sizning ham jahlingizni chiqarmasdan, keta qolay endi. Fursat tug'ilishi bilan yana kelaman, Gulseren xonim.

Endi u meni ismim bilan chaqiradi. U menga ishonishga harakat qilmoqda.

Qo'l berib, xayrlashib, tezda xonadan chiqib ketadi. Agar biz o'sha qizning qiyofasini, ovozini o'zgartira olsak, o'rni-

ga boshqa birovni gapirtiolsak, ya'ni faqat qalbining ovozi-
ni eshitolsak, hammasi boshqacha bo'lardi. Haqiqatan ham,
agar men uni hech qachon tasvirlamaganimda, ovozi haqida
gapirmay, bu kitobni yozish paytida uni tinglaganimda qal-
bimni qanday hislar chulg'aganini yozmasam, unga bo'lgan
his-tuyg'ularim o'zgarishi mumkin edi. Bir qismim unga nis-
batan isina boshladi. Ayniqsa, bir zum ko'zlarimni yumib,
qulog'imni bu tovushdan burib, uni butun qalbim va ruhim
bilan tinglay olsam, o'zimni juda yaqin his qilaman. Bu qizda
istak va xohishlarni o'zida mujassam etgan ichki men hech
qachon oziqlantirilmagan. «Super ego», ya'ni taqiqlar va qoi-
dalarni o'z ichiga olgan super egosi ibtidoiy va yovvoyi shakl-
da namoyon. Bu ikkisining o'rtasida joylashgan «ego»si, ya'ni
«men»i hech narsaga qaramasdan, g'oyib bo'lmagan. Mana
shu jihati a'lo!

Men unga yordam berishim kerak, uni bu qorong'i quduq-
dan olib chiqish uchun masalaga chuqurroq kirib borishdan
chekinmasligim lozim. Men Alya haqida shularni o'ylar ekan-
man, eshik oldida o'zining savlati va nafisligi bilan Tuna ko'-
rinadi.

– Siz qo'ng'iroq qilguncha, o'zim bora qolay dedim. Be-
morlar kutishmoqda. Siz o'yg'a cho'mibsiz. Nimani o'ylayot-
ganingizni bilaman.

Bir zum hayratda qoldim. U meni Aydinni o'ylayapti, deb
taxmin qildi, ammo men shu tobda Alya haqida xayol surayot-
gandim.

Men tezda fikrimni jamlayman va keyingi bemor kimligi-
ni bilish uchun kompyuterga qarayman, uning ismi Ayshe,
o'ttiz olti yoshda. Tuna chiqishi bilan eshik asta taqillaydi va
liboslarni o'ziga yarashtirib kiygan go'zal, jigarrang sochli,
mittigina xonim ichkariga kiradi. Eshikni ehtiyotkorlik bi-
lan yopgach, qo'rqib ketgandek og'ir qadamlar bilan men-
ga yaqinlashadi. Men o'rnimdan turib, qo'limni uzatib, sa-
lom beraman. U eshik yonidagi o'rindiqlardan biriga kelib
o'tiradi, men qo'limni xushmuomalalik bilan silkitib, unga

ishora qilaman. U sumkasini stolga tashlaganidan so'ng ma'yus ko'zlarini menga tikadi. Uning yuzida yengil va nafis pardoz bor.

Sochlarini sartarosh emas, o'zi taragan. Tirnoqlariga surtgan och pushti rangdagi bo'yoq bir chetidan ko'cha boshlabdi. Uning chap qo'lida rangi xira tortgan tilla nikoh uzugi va uning yonida bir dona toshli uzuk bor. Uzuk toshining ham rangi o'chgan. Qo'llari ham so'lg'in rang olgan. Chap qo'lga taqqan soati allaqachon urfdan qolgan. Uning yuzidagi alo-matlarga qarasangiz, nega tabassum qilmasligini darhol tushunishingiz mumkin. Oq ko'ylagining yoqasi oxirgi tugmasi mustasno, ehtiyotkorlik bilan qadalgan. Jiketining yoqasiga eski broshka taqib olgan. Eski bo'lsa-da, chiroyli ekan. Taxminimcha, u o'zidan ko'ra boshqalar uchun yashaydigan ayol. Uning yelkasida qancha mas'uliyat borligini bir qarashda kim ham bilardi! Ikkimiz ham sukut saqlagancha bir-birimizga termilamiz. Nega u juda g'amgin ko'rinadi? Lekin u menga nima desa desin, bu men uchun yangilik emas. Insonning ko'zidagi bu ko'rinish birdaniga o'zgarmaydi. Biror narsa eskirganga o'xshaydi, ammo aslo unutilmagan...

– Xush kelibsiz, Ayshe xonim!

– Xush ko'rdik, Gulseren xonim! Men sizni taniyman.

– Rostdanmi? Qayerda uchrashganimizni eslay olmayapman.

– Biz uchrashmaganmiz. Odamlar sizning kitoblaringizni o'qiyotgandayoq, tanib olishadi. Siz hozirgina xonangizdan chiqqaningizda men zalda o'tirgandim. Sizning ko'rinishingizga qiziqardim, lekin bunday tasavvur qilmagandim. Sizni yoshi yanada kattaroq, bo'ydor deya taxmin qilgandim.

– Negaligini bilmayman-u, bu e'tirofni ko'plab odamlardan eshitganman. Odamlar meni doim shunday tasavvur qilishadi.

– Siz ancha yosh ekansiz.

– Rahmat. Bemorlarim keksayishimga yo'l qo'yishmaydi-da. Men doim yosh bo'lishga harakat qilaman. Zero, ruhan o'zimni qirq besh yoshda deb bilaman. Ko'p yillardan beri

shu yoshdaman. Yigirmaga kirganimdayoq qirq beshga kirgandek bo'ldim va hanuzgacha shu yoshda qoldim.

Seans Ayshe xonimning menga aytgan iltifotlari bilan davom etmoqda. Boshqa birovdan bunday yoqimli so'zlarni eshitish ko'ngilga moyday yoqadi. Yuzimga ajoyib tabassum yuguradi.

– Siz bilan tanishganimdan xursandman! Yillar davomida kingadir dilimni yorishni, o'zimni anglatishni orzu qilardim, lekin buni uddalay olmadim. Men har doim psixiatrğa borgan bemorning biror shikoyati bo'lishi kerak, deb o'ylardim. Tongda o'rningdan turib, shifokorga borasan, u bo'lsa «Nima shikoyatingiz bor?» desa, men nima deyman degan tushuncha miyamni egallab olgandi. Chunki hozir na shikoyatim, na biror xastaligim bor. Hayotim ham bir maromda davom etmoqda. Ammo baribir, ichimda shunchalik ko'p narsalar yashiringanki, ularni kim bilandir baham ko'rishim kerak. Hammaning ham ichida hech kimga aytolmaydigan sirlari bor, shunday emasmi? Vaqti kelsa, ularni, hatto eng yaqin do'stlaringiz bilan ham bo'lisholmaysiz.

– Haqsiz. Shunday narsalar borki, hatto eng yaqin kishingizga ham ishonolmaysiz.

– Lekin men bu sirni qabrga ollb borishni xohlamayman. Balki aytsam, ulardan qutularman. Garchi sodir bo'lgan voqeani unutilmasam-da, yuragimni bo'shatishni istayman.

U meni majburlamay, necha yillardan beri boshidan soqit qilolmagan sirlarini aytib beradi. Huzurimga men bilan baham ko'rish uchun kelgan, axir. Shu tobda Alya yodimga tushadi. Qaniydi, u ham Ayshe xonim kabi erkin tushuntirsa, meni qiynamasa!

– Bo'lib o'tgan voqeani unutilmasligingiz tabiiy hol, Ayshe xonim, lekin ichingizni tirnayotgan dardingizni sizni umuman tanimaydigan, professional bilan bo'lishish o'sha dardning qalbingizda yaratgan o'rnini, ta'sirini kamaytiradi, og'riqni yo'qotadi, gohida biz bu voqealarga beradigan ma'noni ham o'zgartiradi. Ichkariga kirgan zahotingiz ko'zlaringiz-

dagi mahzunlik e'tiborimni tortdi. Nega hayotga bunchalar g'amgin qaraysiz?

– Demak, sezdingiz! Biroq, hatto eng yaqin qarindoshlarim ham menga bunday gapni aytishmagan. To'g'risi, men bu voqeaga mahzunlik bilan qaraganimni ham bilmayman. Eng yaxshisi, sizga ichimdagi sirlarim haqida gapirib beraman va u tugaydi, chunki men bu uchrashuv tayin qilingan kundan beri uxlay olmadim. «Men buni qanday tushuntiraman, shifokor nima deydi?» deb o'ylashda davom etyapman.

– Qulog'im sizda, eshitishga tayyorman.

U boshini quyi eggancha biroz o'ylanib turadi-da, stolda turgan sumkasini titkilab nimanidir qidira boshladi. Men u nima qidirayotganini darhol tushunaman, Ayshe xonim namlangan ko'zlarini artish uchun ro'molcha qidirmoqda. U menga ichini to'karkan, yig'lashini biladi. Stol ustida turgan qog'oz sochiqlardan birini olib, unga tutqazaman. U men bergan qog'oz sochiqni ochadi, yopadi, keyin kaftida g'ijimlaydi, dabdurustdan gapira olmaydi. Keyin men titragan ovozni eshitaman.

– Men besh-olti yoshda edim. O'shanda do'stlarim bilan bog'imizda o'ynardik. Biz to'rt kishi edik. Ikki qiz, ikki o'g'il. Ular ham tengdoshlarim edilar. Bir muddat uyimizdan nari-da joylashgan ko'mir omboriga tushdik. Ichki kiyimlarimizni yechib, bir-birimizga ko'rsatamiz, dedi bolalardan biri yugurib ketayotib. Omborda bizdan boshqa hech kim yo'q edi. Hammamiz kiyimlarimizni yechib, bir-birimizga ko'rsatdik. Men qaradim, ular ham... Keyin hammamiz xijolat tortdik. Tezda ichki kiyimlarimizni kiyib, ko'mir omboridan chiqdik. Men uyga keldim. O'zimni aybdor his qildim. Kechqurun onam meni uxlatgani kelganida, ko'mir omborida bo'lgan voqeani unga aytib berdim. U ko'zlarini katta-katta qilgancha, meni qiziqib tingladi. Keyin menga savollar berdi. «Kimdir unga tegdimi?» dedi. «Yo'q» dedim, lekin o'shanda onam mendan ko'proq qo'rqqanini angladim. Uning jahli chiqdi.

– Sizlar bundan keyin boshqa ko'mir omboriga tushmay-siz! – dedi u qat'iy.

– Nega jahlingiz chiqdi? – deb so'radim, yomon ish qilganimni anglab. – Gunoh ish qilibsiz sen, gunohkor bo'lding. Bu gunohni hech kimga ayta ko'rma va boshqa gunoh qilma, – dedi.

So'nggi jumlaning aytdi ekan, ko'zlaridan duv-duv yosh oqardi. U o'ttiz olti yoshda ekan. Xullas, kamida o'ttiz yil davomida shu bir necha so'z uning xotirasiga siyohi bitmas qalam bilan yozilib qolgan va ulardan qutulolmagan. U shu tobda bolalar-cha sodda va beg'ubor gapirardi. Ehtimol, bular ko'p bolalar u yoki bu tarzda boshdan kechiradigan narsalardir! Yo Xudo, bu ayol qanchalar ma'sum! Lekin u o'zi bundan, hattoki bexabar... Men unga yana bir nechta qog'oz sochiq uzataman. U biroz egilib, qo'limdan oladi. Yig'lashdan ham uyaladi. Go'yo katta jinoyat qilib qo'ygandek, haqiqatan o'zini gunohkor bandadek his qilib, menga javdirab qaraydi.

Eh, bu onalar, men bu kitoblarni eng ko'p ular o'qishlari uchun yozmayapmanmi?! Ishonchim komilki, u og'zidan chiqqan bir necha kalima bilan qizining hayotini ag'dar-to'ntar qilganini o'zi ham bilmasa kerak! Agar u aybini bilsa, hali ham shunday qilarmidi? Kim biladi, bu jumlar bu go'zal ayolning hayotiga, uning qarorlariga, turmushga chiqishiga, tanlagan kasbiga, o'rnatgan munosabatlariga, bolalari, turmush o'rtog'i va Yaratgan bilan munosabatlariga qanday ta'sir qildi ekan? Menga aytgan voqea emas, onasidan eshitgan bu so'zlari sodir bo'lmaganda edi, taqdiri hozirgidek bo'larmidi?

Hayot bunchalar g'alati bo'lmasa? Oyog'imizga tiqilib qolgan mayda tosh qanday qilib, hamma narsani ostin-ustin qilib yuboradi? Xarsang toshlardan bir amallab o'tarkan-miz, qanday qilib, o'sha mayda toshlar, ayniqsa, eng yaqinlarimizdan kelgan toshlar, taqdirimizni bunchalik o'zgartirib yubormasa? Ro'paramda o'tirib, ohista yig'layotgan bu ayol qayg'u, yolg'izlik, gunoh tuyg'usini ko'zlariga qanday sing-

dirdi? Men pastdagi qahvaxonaga qo'ng'iroq qilyapman. Endi Ayshe xonim bilan birga bir piyola choy ichishimiz kerak. Issiq, shakarli bir piyola choy ikkalamizni ham ichimizni isitadi. Nevin oldimizga choy qo'yarkan, Ayshe xonim ko'z qiri bilan menga jilmayib qo'yadi. Men ham unga. Nevin chiqqach, asta so'z boshlayman:

– Bu gaplaringiz naqadar samimiy, Ayshe xonim! Bolalik kabi beg'ubor!

Mening bu so'zlarim Aysheni qattiq hayajonga soladi va u yosh to'la ko'zlarini menga ko'rsatmaslik uchun boshini oldinga egadi.

– Men bola aqlim bilan bu ishning hech qanday gunoh emasligini tushunmaganman. Aslida, men hozir ham tushunmayapman! Men o'sha voqeadan keyin hammadan o'zimni olib qochadigan yovvoyiga aylandim. O'zimni hammadan chekkaga tortdim, hech kim bilan ochiq gaplashmaydigan, burchak-burchakda yolg'iz o'zim izg'ib yuradigan odat chiqardim. Oldingi biyron qizdan asar ham qolmadi. Ko'zim doim onamda edi. Qanchalik yomon ish qilganimni faqat onam bilar, mendan jahli chiqib, kechirolmasdi. Endi men uning har bir so'zidan, harakatidan va qarashlaridan ma'no topib, o'zimni kirlangan, aybdor va gunohkor his qilardim.

– Onangiz bilan bu haqda keyinchalik sira gaplashganmisiz?

– Gaplashishni juda xohlardim, u yolg'iz qolganda ham tez-tez bahona topib, yoniga borardim. Men indamay turardim, lekin nega borganimni tushunmasdi. Men hamma narsani bahona qilar, onamga doim xarxasha qilib yig'lar, muammolar tug'dirardim.

Shunday qilgan chog'larimda onamning jahli chiqdi va meni bir necha marta urdi. Men loyga tiqilib qolgandek edim. U meni kaltaklagani sari asabiylasha boshladim, asabiylashganim sari uyda qo'pollasha boshladim. Ayniqsa, o'smirligimda ishlar murakkablashdi. Endi butun xonadon menga dushman edi, men esa ularga. Men maktab-internatga bordim. Litseyni ham internatda yotib o'qidim. Univer-

sitet yoki boshqa narsani o'ylash vaqti kelganida, oilamdan butunlay uzilib qoldim.

Bitta kichik xatoning ham badali ba'zan og'ir bo'lishi mumkin. Endi buni Ayshening onasiga aytsak, tushunarmikan?

– Hozir ulg'aydim, lekin ichimdagi gunoh tuyg'usidan qutulolmadim. Men o'zimni boshqa do'stlarimdan ajratar, ular bilmagan juda muhim jinoyat qilgan odamdek o'z qobig'imga o'ralashib qoldim. Dugonalarimning deyarli hammasining sevgan yigiti bor edi, lekin men birovni sevishta o'zimda kuch topmadim. Ular o'zlarining his-tuyg'ularini va sevgilarini hech ikkilanmasdan ayta olardilar. Ularga qarab o'zimni bunga haqqi yo'q odamdek ko'rardim.

Darslar va imtihonlardan yaxshi baholar oldim, lekin hech qayerda o'zimni ko'rsata olmadim, yozma sinovlardan o'tsam-da, og'zakilarida o'zimni namoyon etolmadim va suhbatlardan chetlatildim. Men noshud va qat'iyatsiz qiz bo'lib yetishdim. Keyin turmush o'rtog'im bilan uchrashdik. U menga juda yaqin edi. Har doim u yonimda bo'lgan vaqt boshimdan kechirganlarimni unga aytish yoki aytmasligim borasida bir qarorga kelolmay sarosimada qolardim. Oxiri ayta olmasligimga ko'zim yetdi va hozirgacha miq etmadim. Nihoyat, turmush qurdik, ikki farzandli ham bo'ldik.

– Hali ham aytmadingizmi?

– Men buni nafaqat unga, balki hech kimga aytmadim. Agar bilib qolishsa, mendan uzoqlashib, kamsitishadi, degan qo'rquvim bor.

– Onangiz bilan bu masalada gaplasha olmadingizmi?

– Ming afsuski bu haqda keyin umuman og'iz ochmadim. Chunki onam ikki yil avval vafot etgan. Menga shunday degani uchun avvallari qattiq jahlim chiqardi. «Hayotimni bar-bod qildi», deb gina qilib yurardim, lekin vafot etgach, unga nisbatan nafratim so'ndi. Hozir ikki farzandimning ko'ziga qarayman. Men bilan birga o'qishni bitirgan do'stlarim muhim lavozimlarga tayinlangan, men esa diplomimni uyda saqlayapman. O'zimni bir nechta ishlarda sinab ko'rdim,

muvaffaqiyatga erisha olmadim, ketdim. Agar siz tashqaridan qarasangiz, go'yo hayotim ravon va to'kis ko'rinadi. Turmush o'rtog'imning maoshi bizga yetadi, lekin mendan so'rasangiz, o'zimni juda baxtsiz, yolg'iz va omadsiz his qilaman. Men negadir shodon kunlarimda ham bo'g'ilib, o'zimni ayblayveraman.

Onasiga bo'lgan g'azabi vaqt o'tishi bilan o'ziga qaratildi. Hattoki vafot etgan onasiga nisbatan g'azabi uchun ham o'zini ayblayapti.

- Men baxtsiz ayolman. Men o'zimdan voz kechdim, lekin turmush o'rtog'im va bolalarimga isnod keltirishni xohlamayman! Baxtsiz xotin, baxtsiz ona, bu ularga qanchalik yomon ta'sir qilishi aniq! Bir muddat toat-ibodatga ham berildim. Har kuni tavbalar qildim, lekin baribir o'zimni ovutolmadim. Hatto Xudo ham meni huzuriga qabul qilmayotgandek edi...

- Demak, siz shunchalik gunohkorsiz!

U menga qo'rquv bilan qaraydi. Bilaman, bu shunday tuyuladi. Keyin stulimni unga yaqinlashtirib, mayin, mehribon ovozda uzoq gaplashaman. Bu muomala unga yillar davomida eng kerak bo'lgan narsa edi! Kimdir uni tushunishini, hech qanday aybi, gunohi yo'qligini aytishini xohlaydi. Uning o'zi buni qila olmadi. Vaqt o'tishi bilan unda shubha otliq kichik bir tomchi o'sib chiqdi va u daryoga, so'ngra dengizga aylandi. Men gapirganim sari u ho'ng-ho'ng yig'laydi. Uni tinglar ekanman, xayolimdan o'tganlarni birma-bir aytaman, bularning naqadar begunoh, naqadar bolalarcha samimiy ekanini anglatishga urinaman...

Shu payt xayoliga Xudo keladi, qiziq U nima der ekan, bu ishga? Xudo ham undan g'azablangan, uni ayblaganmikan? Men barchamizning Xudoning bir zarrasi ekanimizni, aqlimizni esa O'ziga olib boruvchi yo'l sifatida berganini aytaman. Xudoga yaqin odamlar juda bag'rikeng va marhamatli bo'lishlarini ta'kidlayman. Uning so'nggi savoli shu bo'ldi:

- Demak, siz meni gunohkor deb o'ylamaysizmi?

Men unga samimiy, iliq, rahm-shafqatli, hissiy, uning nima demoqchiligini ichdan anglaydigan bir tabassum qilaman. Mashg'ulot oxirida ikkalamiz baravar o'rnimizdan turamiz. Uning menga qaragan ko'zlari endi boyagiday mahzun emas. U mening ko'zlarimga mamnuniyat va muhabbat bilan qaray boshlaydi. Men esa unga... U ikki qo'lini birdan menga tomon uzatadi. Men ham... Yana qaytib keladi bular haqida takror suhbatlashamiz.

Bizning klinikada kechki o'quv dasturlarimiz bor. Avval birga ovqatlanamiz, keyin esa «Freyd va psixotahlil» dasturini birgalikda muhokama qilamiz. Shoshilishim kerak.



Havo bir ochilib, bir tundlashadi. Anqara ustidan aprelning iliq va yoqimli yomg'irlari yog'ayotir. Atrof borgan sari yashilliklarga burkanmoqda. Bahor chechaklari allaqachon gullashni boshlagan. Biz yashaydigan uyning keng bog'i ham rango-rang tus olgan. Anvoyi gullarni tomosha qilishning o'zi kifoya qilmaydi, ora-sira ularning yoniga borib, zavq bilan birma-bir ushlab ham ko'raman. Ba'zan bog'bon bir chetga qo'ygan rezina shlangni olib, gullarni o'z qo'lim bilan sug'oraman. Bu bahor xuddi oppoq qor kabi menga hayotni eslatadi.

Hayot va o'lim... hayot bor joyda o'lim ham bor. Qanday qilib, biz mana shu g'oyat jo'n va hatto hammamizga ma'lum bo'lgan achchiq haqiqatni qabul qilolmaymiz? Qanday qilib, biz isyon ko'taramiz? Hayotga bo'ysunamiz, lekin o'limni inkor qilamiz! Biz go'yo abadiy yashaymiz-u, hech qachon o'lmaymiz! Yo'q, aslida, biz istagan narsa bu emas. O'lim bizni qo'rqitadi, qayg'uga soladi, mahzun qiladi. Hayotni, o'tmishimizni, yaqinlarimizni tark etishimiz naqadar og'ir. Go'yo birga ta'tilga chiqqandekmiz, lekin birdan bizni ta'tilning eng maroqli joyida ish uchun chaqirib qolishadi. Hamma ta'tilga ketayotgandek... Hatto o'limda ham doim adolatsizlik, nohaqlik yashiringandek! Hamma yashayapti-yu, go'yo bu hodisa faqat biz va yoki qarindoshlarimiz o'rtasida sodir bo'ladigan-ga o'xshaydi.

12 may kuni Madalyon tashkil etilganiga bag'ishlangan tadbirlar Sheraton mehmonxonasida bo'lib o'tishi kerak edi. Butun klinikadagilar ham o'sha yerda hozir bo'lishlari, mam-

lakatdan va xoriждан mehmonlar kelishi kutilgandi. Amerikadan kelgan bir professor muhim ma'ruza o'qishi va undan keyin ovqatlanish soati boshlanishi ko'zda tutilgan. Hamma bir necha kun davomida tadbirga tayyorgarlik ko'rar, Madalyon klinikasi rahbari sifatida men o'sha kechada bosh bo'lib turishim kerak edi. Aydin buni bilar, mening o'rnimga ko'proq u hayajonlanar, ammo bir tomondan, o'sha kechada, bir necha soatga bo'lsin, uni tark etishimdan o'zini behalovat his qilardi. Baribir uni uyda yolg'iz qoldirish niyatimiz yo'q edi. Onam bilan singlim Yukselen bir kun oldin biznikiga kelishdi va kutilmaganda tunab qolishga qaror qilishdi. Ular avvallari uyimizda sira yotib qolishmagandi.

O'sha kuni peshindan keyin ularning borligi va Aydin bilan birga qolishlari dalda bo'lib, klinikaga bordim va bir necha soat bemorlarimga qaradim, lekin har yarim soatda uyga qo'ng'iroq qilib, Aydinning ahvoli haqida so'rab turdim. Ichimda qandaydir xavotir zohir edi. Zotan, Aydinning yonida bo'lmagan paytlarimda hamisha bezovta bo'lardim. Emrening ham vafot qilganiga ikki oy bo'ldi, Yag'mur shifoxonadan chiqib, sog'lig'ini ancha tikladi. Ayni paytda uning qornidagi go'dagi ham sog'lom o'syapti. Shu kunlarda kulishni deyarli unutgandik, lekin har gal uyga qo'ng'iroq qilganimda tinmay kulgi sadolarini eshitardim. Aydin onamni ham, Yukselenni ham birdek yaxshi ko'rar, ayniqsa, singlim bilan avvaldan murosasi soz, gapi qovushardi.

Aydinning katta opasi Yildiz va Yag'mur ham odatdagidek ular bilan birga edilar. Kechqurun Hasan bilan uyga kelganimizda ham ana shu qaynoq muhit davom etdi. Aydin ko'pincha hazil-mutoyiba bilan gapiradi, negadir bir lahzaga bo'lsin, yonidan ketishimizni xohlamasdi. Ertasi kuni ham xuddi shu tarkibda bo'lishini bilib, xotirjam tortdi. Ularni vaqti chog' va xursand holda ko'rish menga ham, Hasanga ham taskin berardi.

Avval Aydinning oldiga borib yuzidan o'pdim, so'ng shosha-pisha kiyimimni almashtirib, o'zimga qulay shim va oq

ko'ylagimni kiydim. Mehmonxonaga qaytganimda Aydin meni go'yo birinchi marta ko'rayotgandek uzoq tikilib qoldi va «Men senga doim moviy rangli libos kiy deyman, qara, moviy ko'ylak senga qanchalar yarashibdi», dedi. O'zim ham shosha-pisha egnimdagi ko'ylakka qaradim, yo'q yanglish-mabman, u moviy emas, oq rangda edi. Ichimni g'alati hislar chulg'agan bo'lsa-da, buni oddiy xayol deb qabul qildim va Aydinning yonidagi o'rindiqqa o'tirib, ularning maroqli suhbatlariga qo'shildim. O'sha kecha Aydin har doimgidan boshqacha, quvnoq va kirishimli edi. Hammamiz dasturxon atrofiga o'tirganimizda, u bir gapirib o'n kular, hammamizning kayfiyatimizni ko'tarardi. Bu suhbat yarim tungacha davom etdi. Endi uxlash vaqti keldi. Hammamiz xonamizga yo'l oldik.

Aydinning o'sha kecha o'rnidan turishga qiynalayotганиni birinchi marta payqadik. Mendan oldin Yukselen yordamga oshiqdi, Aydinning qo'lidan mahkam tutib qoldi. Aydin e'tiroz bildirmoqchi bo'lganida, «Meni tug'ruqqa ham siz olib borgansiz, Aydin ustoz, bir marta qo'lingizdan tutsam nima bo'пти?» dedi va uni xonasigacha kuzatib qo'ydi. Men ham orqalaridan ergashdim. U yotog'iga yotganida ham bizdan ayrilishni istamasdi. Suhbatimiz qizigan sayin «Kursi olib yonimga o'tiring», deya iltimos qildi. Biz uning aytganini qildik, uchchalamiz stul olib, karavoti chetiga tizilishib o'tirdik. Hasan tez-tez yonimizga kelib, suhbatimizga quloq tutadi, orada luqma ham tashlab qo'yadi, u o'sha kechada otasining kayfi chog'ligini ko'rib, xursand bo'lgancha xonasiga qaytdi.

Yag'mur va Yildiz opa, men ishdan qaytganimda Aydin bilan quyuq xayrlashib, o'z uylariga ketishgandi. Ajoyib bir kecha edi, lekin hammamiz charchagandik. Uyquga yotganimizda vaqt tun yarmidan oshgandi. Mening ko'zimga uyqu inmadi, o'rnimdan turib bot-bot Aydindan xabar oldim. U uxlab qoldi, ahvoli yaxshi edi. Bir muddat xayol og'ushiga cho'mibman. Aydinning Gulseren, deya qichqirgan ovozi

eshitib, to'shagimdan irg'ib turdim. Shu payt orqa xonada yotgan Hasan ham otasining ovozi eshitib, yugurib yonimizga keldi. Darhol Aydinning karavoti chetiga o'tirdim va qo'lidan tutdim. Bir onda nima bo'lganini anglolmay qoldim.

«Soat nechi bo'ldi?» so'radi u. «To'rt yarim», dedim. Keyin ko'zlarini ochib menga qaradi va jilmayibgina bizni tark etdi. O'sha kuni 12 may edi. Madalyonning yubileyi nishonlanishi kerak edi va men o'sha oqshom bir necha soatgagina Aydinni tark etmoqchi edim. Hayot ketma-ket o'z o'yinlarini o'ynardi. Ketgan men emas, Aydin bo'ldi, u bizni bir necha soatga emas, butunlay tark etdi. Kun kelib, agar Oloviddinning sehrli chirog'ini topsam, ichidagi dev chiqib, «Nima tilaging bor?» desa, uchinchi bo'lib undan kechaning qoq yarmida, soat to'rt yarimda boshimdan kechirganlarni o'chirib tashlashini so'ragan bo'lardim. «Agar Aydinni qaytara olmasang, hech bo'lmaganda o'sha lahzada boshimdan kechirganlarimni xayolimdan o'chirib tashla», derdim.

O'sha og'ir kunlar o'tishi bilan ishimga qaytdim va uzoq vaqt e'tibor qila olmagan bemorlarim bilan qayta shug'ullana boshladim. Ham ishimni yaxshi ko'raman, ham shunday qayg'uli paytda u bilan ovunaman, klinikada o'zimni ancha yaxshi his qildim. Bemorlarim oldida bo'lganimda ichimdagi og'riq susaydi, men tezda o'z dunyomni tark etib, ularning dunyosiga kirib borardim. Balki, shuning uchun ham o'sha og'ir kunlarni kutganimdan ko'ra oson o'tkazgandirman.

Shularni o'ylab, Madalyon klinikasi eshigidan ichkari hatladim. Kiraverishdagi katta zal to'la! Odamlar ozoda kiyinishgan, kreslolarda sokin va xotirjam kutmoqda. Qabulimga kiradigan bemorlar oldinda o'tirishibdi! O'ng tarafdagi butun devorni qoplagan ko'zgudan o'zimga qarayman. Har doimgidek sipo va xushbichim ko'rinaman. Ko'zgu oldidagi zarhal vaza va shamdonlarni sekin tuzatgan bo'laman. Mehmonxona o'rtasida joylashgan katta o'rdak boshli, yashil baxmalli Jozeфина divani yana qiyshiq turgandek ko'rinadi. Men uni ham

tuzatmoqchi bo'laman-u, biroq haddimdan oshishga atrofda-gilardan tortinaman.

Qabulimda o'tirgan do'stlarim meni tik turgancha salom-lashib kutib olishadi. Men ularga tabassum bilan lift tomon yuraman. Haydovchim Aydin odatdagidek meni liftga kuza-tish uchun kutib turadi. U bilan qisqa suhbatdan so'ng to'r-tinchi qavatga ko'tarilaman. Bu safar ancha hushyorman. Ko'zlarim atrofga sergak boqadi. Har doimgidek Tuna menga jilmayib peshvoz chiqadi. Ko'zgular, suratlar, tablolar, haykal-chalar joy-joyiga qo'yilganmi, deya birma-bir ko'zdan kechi-raman. Oyog'im bilan afg'on gilamlarining chetlarini yengil-gina paypaslab, tekislab, joyimga o'tiraman.

Qahva buyurtma qilmasimdan huzurimga Hasan kirib keladi. Bir-birimizni sog'inib, quchoq ochib ko'rishamiz. U har doimgidek menga diqqat bilan qaraydi. «Ahvolingiz yax-shimi?» deb so'raydi. «Men yaxshiman», deyman. Otasining o'limidan bir yil o'tib, Hasan mening daldam bilan alohida uyga ko'chib o'tdi, kechgacha klinikada birgamiz. Garchi ik-kalamizning qiladigan ishlarimiz shunchalik ko'pki, ertalabki uchrashuvlardan avval birrov yoki kechqurun ish tugayot-ganda ko'rishib qolamiz. U lojuvard rangli jinsi shim va moviy ko'ylak kiygan. Havo qanchalik sovuq bo'lmasin, doim ko'ylak kiyadi. Navqironlik shunday bo'lsa kerak-da! «Sen ham qahva ichasanmi?» so'rayman undan. Xonamning derazasini ochar ekan, «ha» deb bosh irg'aydi. Ichkariga bahorning musaffo havosi kirib keladi. Men telefonda qahvaxonaga qo'ng'iroq qi-lib, qahvalarimizni buyurtma qilaman.

«Qancha vaqtimiz bor?» so'raydi u. Men soatga qaray-man, birinchi bemorim qirq besh daqiqadan keyin keladi. Uning men bilan gaplashmoqchi bo'lgan muhim masalalari borligi aniq. Professor Doktor Fotih Unal keyingi haftadan klinikamizda ish boshlaydi. Avval u menga xonasidagi tay-yorgarliklari haqida xabar beradi. U bolalar psixiatri bo'lgani uchun biz kattalarnikidan boshqacha xonani tayyorlashimiz kerak. Kichkina test stollari va turli o'yinchoqlar joylash-

gan xona bo'lishi muhim. Hasan sinchkov, tasodifiy ishlarni yoqtirmaydi. Men unga professor Ayshe Yalinning xonasidan andoza olishni taklif qilaman. Ayni paytda biz bolalar uchun o'yin xonasini ham tashkil qilishimiz kerak. Xonaning gilamlari to'shalgan, ammo buyurtma qilingan o'yinchoqlar hali kelmagan.

So'ngra klinikaga yangi qabul qilinadigan psixologlarning arizalarini stolim ustiga qo'yadi. Kechqurun ish tugagach, ularning har biri bilan alohida uchrashib, oralaridan to'rt nafarini tanlashimiz kerak bo'ladi. Yigirma bitta murojaat mavjud. Zimdan nazar tashlayman: murojaat qilganlarning aksariyati ayollar. Erkak psixologlar kam uchraydi. Klinikamizda faoliyat yuritayotgan psixologlar o'rnini ham asosan ayollar egallashgan.

Endi boshqa faylni ko'rib chiqish vaqti keldi. Bemorlardan kelib tushgan shikoyatlar! Ulardan ba'zilari huzurimga kirib minnatdorchilik bildirishsa, boshqalari bizdan noliydi. Ko'pgina bemorlarimiz ularga ajratadigan vaqtimizning cheklanganligidan norozi. Holbuki, psixiatriyada shifokorning bemorga ajratadigan vaqti juda muhimdir. Biz uchun eng muhimi, oldimizda turgan odamni astoydil berilib tinglash va eng kichik tafsilotlarni ham o'tkazib yubormasdan vaziyatni odilona tarzda tushunishga harakat qilishdir. Bu borada bemorlar haqdirlar...

- Qabul vaqtini yana biroz cho'zsak bo'lmaydimi? - so'rayman Hasandan.

- Biz uni cho'za olmaymiz, hatto hozir ham tekshiruvdan tashqarida bo'lgan bemorni shifokori xohlagan vaqtda qabul qilolmaymiz. Ular bir oy muddat o'tgach, qayta ko'rinishlari mumkin. Vazirlik bizga murojaat qilgan bemorlarni ko'pi bilan o'n kun ichida qabul qilishimizni talab qiladi va shifokor olishimizga ruxsat bermaydi.

Men shikoyatlarni o'qishda davom etaman. Kimdir shifokoridan norozi, kimdir qabuliga kech qolgani uchun kiritmagan kotibadan ranjiydi. Hatto bir bemor: «U yerga borish

uchun uchta avtobus almashtiraman. Tirbandlik mening qo'limda emas, to'lagan yo'l pulimga ham achinmaysizmi?» deb yozibdi. Yana biri bo'lsa: «Men uydan zo'rg'a ruxsat olaman, ozroq kech qolganim tufayli doktorimni ko'rolmadim. Dorilarim tugab qoldi. Doktorim bilan qaytadan ko'rishishni so'radim, ular menga bir oydan keyinga muhlat berishdi. Biz uchun ham ozgina qayg'uring», deydi. Shikoyat mak-tublarini ovoz chiqarib o'qiyotganimda, Hasan har doimgi-dek menga miyig'ida kulib: «Siz qanday bosh direktorsiz! Qarang, odamlar sizdan ham, o'rnatgan tartibingizdan ham mamnun emaslar», – deb qo'yadi. Shu payt Nevin qo'lida patnis bilan kirib keladi. Qizil fartuk taqib olgan. Uzatgan qahvasining o'tkir hidini yutoqib ichimga tortaman. «Endi nima bo'ladi, bu muammolarni qanday bartaraf qilamiz?» degandek bir-birimizning ko'zlarimizga uzoq tikilamiz. Hasan bosiq va past ovozi bilan anchagacha nimalarnidir tu-shuntiradi.

– Shifokorning bir bemorni yigirma daqiqa kech qabul qilishi undan keyingi barcha bemorlarning har biri yigirma daqiqadan kutishini bildiradi, – deydi u.

– Ularning har biriga bir kun oldin qo'ng'iroq qilib, uchra-shuvga kelish-kelmasliklarini aniqlashtiramiz, hatto o'z vaqti-da kelishlarini so'raymiz, lekin bu borada hali muvaffaqiyatga erisholmadik. Ko'pchilik bemorlar qabulga yoza olmaganim-iz uchun necha kunlab kutayotgan bo'lsa, ayrim bemorlari-mizning o'n besh-yigirma foizi telefon orqali tasdiqlansa-da, qabulimizga kelmayapti yoki kechikmoqda. Biroq ular bizga oldindan kelmasliklarini bildirishsa, o'rniga navbatda turgan bemorlarimizni qabul qilgan bo'lardik. Va nihoyat, bemor-larning mobil telefonlariga xabar yuborish orqali uchrashuv vaqtini eslatishni ham yo'lga qo'ydik, biroq bu ham jo'yalı na-tija bermadi.

Hasan to'g'ri gapirdi, qo'lidan kelgan hamma narsani qildi, ammo baribir mavjud muammoga yechim topilmayapti.

Bu qisman xalqimizning o'tmishdagi odatlari bilan ham bog'liq. Balki biz hammamiz shundaydirmiz. Bu haqda biror kishiga bir narsa deya olmayman, chunki men bemorlarni eng ko'p kutishga majbur qiladigan shifokorlardanman. Men har doim ishimga o'z vaqtida kelaman, lekin bemor bilan suhbatimni tugatmasimdan tashqariga chiqarolmayman. Shunday bo'lgach, uchrashuvlar doim to'xtab qoladi. Darhaqiqat, buni yaxshi biladigan bemorlarim yo kunning birinchi uchrashuvini olishga harakat qiladilar yoki kelishidan oldin Tunaqa telefon orqali qo'ng'iroq qilib, avvalgi uchrashuvlarning tugaganidan xabardor bo'lib kelishadi.

Hasanga dori-darmonlarni tamomlagan bemorlar kechikib kelsa ham dorilarni yangidan yozib berish kerakligini qattiq tayinlayman. «Biz buni navbatchi shifokor tizimi orqali hal qilishga harakat qilmoqdamiz. Shifokorlarimiz qabuliga yozilmagan bo'lishsa-da, dori-darmonlarni yozdirish uchun kelgan bemorlarni kuttirmay qabul qilishimiz ham uchrashuvlarni biroz kechiktiradi, shu bois bemorlarni o'z vaqtida qabul qilolmayapmiz».

Klinikaning muammolari tugamadi, ammo bizning vaqtimiz tugayapti. Shu payt Tuna hayajon bilan boshini xona eshigidan suqqancha bizni shoshiradi:

– Qani, Hasanbey, bemorimiz yetib keldi. Keling, darhol ichkariga olaylik.

Hasan ishimga omad tilab xonani tark etadi. Men shoshilinch ravishda kompyuterdagi uchrashuvlar dasturini ochaman. Mening birinchi bemorim Alya. Tuna stolimdagi bo'shagan qahva finjonini olib eshikdan chiqarkan, Alya chayqalib ichkari kiradi. Bugun uning yuzida qayg'uli ifoda zohir, odatda, uning chehrasi mudom g'amlar ko'lankasida qolgan. Kiyimlari ham o'sha-o'sha, menga biroz tund boqsa-da, Alyaning mahzunligi zahirida ham ijobiy o'zgarish borligini sezdim. Yoki u emas, men o'zgarganman. Ehtimol, endi unga murdaga qaragandek qarashdan voz kechgandirman.

- Qalaysan, Alya?
- Men yaxshiman, Gulseren xonim... Siz ham yaxshimisiz?
Ha, men to'g'ri o'ylabman. Oramizdagi muzlar asta-sekin erimoqda.
- Men ham yaxshiman. Senda bugun nima yangiliklar bor?
- Hozir avvalgidan ko'ra ko'proq ovqatlanyapman, biroz semirdim.
- Semirish senga yarashibdi, to'laqonli ovqatlanishda davom et.
- Bugun yangi hikoya aytib berasizmi?
- Albatta, aytaman. Bugungi hikoyalar senga judayam yoqsa kerak.
- Qanday yaxshi... Bir haftadan beri tunlari bedorman... Yomon tushlar ko'ryapman... Sizga o'tgan safar hikoya qilib bergan o'sha manzaralar... Negadir ko'z oldimdan sira ketmayapti.
- Bu qiz men o'ylagandan ham ko'proq iztirob chekmoqda. Aslida, bu darddan tezroq xalos bo'lishini istardim, lekin hozircha u xohlagandek asta-sekinlik bilan marraga borishim kerak.
- Hayvonlarni yoqtirasanmi? - so'rayman ohista undan.
- Ha... Ayniqsa, mushuklarni yaxshi ko'raman... Kichkina ligimda bog'imizda mushuklarimiz bo'lardi... Hatto birining ko'zi yoridi... uchta mushukchasi bor edi.
- Yaxshi, unda bugun senga mushuklar haqida hikoya aytib beraman.
- Kelishdik.
- Odamlar yillar davomida hasharotlar va ulardan odamlarga yuqadigan kasalliklar bilan kurashdilar. Nihoyat, DDT nomli mashhur dori hasharotlar dunyosiga atom bombasi kabi kirib keldi. Lekin bilganingdek, atom energiyasi ikki qirrali qilichga o'xshaydi. Bu yerda ham shunday bo'ldi. DDT hasharotlar bilan birga odamlarga ham zarar yetkaza boshladi. 1960-yillarda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bezgak epidemiyasining oldini olish uchun yetmish olti mamlakatda DDTdan foydalangan, ammo uchinchi dunyo mamlakatlari

botqoqlarida tasodifiy tarqalgan DDT ushbu mintaqada ekotizimida nomutanosiblikni keltirib chiqargan. Malayziyaning Saravak viloyatida DDT nafaqat chivinlarni, balki suvaraklarni ham nobud qildi. Bu safar zaharli suvaraklarni yegan mushuklar ham nobud bo'lgach, sichqonlar soni aql bovar qilmaydigan darajada ko'paydi va dala sichqonlari o'sha hududdagi barcha qishloqlarni bosib ketdi. Ular qishloq aholisiga vabo, tif kabi ancha og'ir kasalliklarni yuqtira boshladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti yo'l qo'yilgan xatoni anglab, Saravak mintaqasida buzilgan ekotizimni qayta tiklash uchun Qirollik havo kuchlaridan yordam so'radi va parashyutchilar samolyot va vertolyotlarga yuklangan yuzlab mushuklarni havodan qishloqlarga tashlab, yuzaga kelgan ulkan falokatning oldini olishdi.

– Demak, mushuklar ham ba'zida falokatni aritishga yaraydilar.

– Biz bugunimizni faqatgina mushuklarga bag'ishlamoqchi emasmiz. Yaxshisi, menga ko'rgan tushlaring haqida gapirib ber.

– Tushlarim men boshimdan kechirganlardan qo'rqinchli emasdi...

– Kechasi yaxshiroq uxlashingga yordam bera olaman.

– Dori bermoqchimisiz?

– Agar xohlasang...

– Balki keyinroqdir!

– Mayli, kel, unda egningga kiygan va senga biroz katta turadigan liboslaring haqida gaplashamiz.

Gapim uning uchun tomdan tarasha tushgandek bo'ldi, ko'zlari katta-katta ochilib, dahshat ichra baqrayib yuzimga boqdi. Ishonch va shubha kecha-kunduz kabi bir-biridan ajralmasdir. Bir tomondan, u menga ishonishni xohlaydi, ikkinchi tomondan, ichidagi shubhalaridan xalos bo'lolmaydi. Shu payt ko'zim uning o'ng chakkasi atrofidagi o'rama ilon kabi qabarib ketadigan siyohrang tomirlariga tushdi. U menga qo'qqisdan hujum qilishga shay turganga o'xshardi. Men bi-

lan suhbatni boshlash uchun bir necha marta tomog'ini qirib qo'ydi, nimalardir demoqchi bo'ldi, ammo ovozi chiqmadi.

Xonani quyuq sukunat qopladi. Og'riq chang solgan yuzi yanada xunuk tus oladi. Men unga qanday yordam berishni bilolmay sukutdaman, shu payt zulmat qoplagan chuqur va shafqatsiz jimlikni derazaga urilgan yomg'ir tomchilarining shitir-shitiri buzadi.

Har bir inson o'qilishi kerak bo'lgan kitobga o'xshaydi, lekin bu qizning kitobi har doim yopiq. Qavat-qavat, qatlam-qatlamga o'ralgan, iplar bilan shunchalar mahkam bog'langanki, xohlasam ham ochib o'qiy olmayman. Biz og'riq va azobdan qochib, buni yengib o'tolmaymiz. Bu sukunat uni qanchalik parishon qilganini bilaman. Men bu salbiy holatni yangi hikoya aytib berish orqali tarqatishim mumkin, ammo nimani so'zlab bersam ekan-a? Biror bir hodisami yoki uning bor e'tiborini o'ziga tortadigan voqelikmi, yoki hikoya ichidan o'ziga oid nimanidir topa oladigan narsami? Ikkinchi variant, ehtimol, to'g'riroqdir. Endi yana provokator – josus sifatida harakat qilishim kerak. O'ziga qolsa, aytadigan gapi yo'q. Modomiki, u la'nat ostida ezilgan ekan, men unga dunyo diqqat bilan kuzatib turgan yana bir la'natlangan voqeani aytib beraman. Qani, ko'raylik-chi, o'sha la'nat unga o'zi ichida bo'lgan la'natni anglata olarmikan?

– Yana hayajonli hikoya haqida nima deysan? Yosh Misr hukmdori Tutanxamonning la'nati haqida aytib beraymi?

– Ha...

Boshini chayqagancha «ha» deganida ovozing nechog'li mahzun va jonsiz ekanini tushunib yetdim. Bu holati menga uning borligi va qashshoqligini his ettirdi. Yuragim ezilib ketdi. Demak, men to'g'ri o'ylabman. Yangi hikoyani eshitganidan xursand bo'lib, mushukdek o'rindig'ida egilib, bo'ynini salgina bukkancha baxt panoh topmagan ko'zlarini menga tikadi. Men ham hikoyamni boshlayman...

– Arxeolog Govard Karter o'z jamoasi bilan yetti yil davomida hech narsa topa olmagan Misrdagi Shoxlar vodiysi-

da 1922-yilda antiqa buyumlar sotuvchisi bo'lgan boy ingliz xo'jayini ko'magida qazish ishlarini boshlagandi. Bu uning so'nggi imkoniyati ekan. Chunki agar u bu safar ham biror olamshumul kashfiyot qila olmasa, xo'jayini uni qo'llab-quvvatlashdan voz kecharmish. Arxeologlar jamoasi hayajon bilan ishga kirishganida, to'satdan yer ostida uzun zinapoyalarni ko'rib qolishdi va zinalarning oxirida bir eshik paydo bo'ldi. Eshik ganch bilan qoplangan, unga kattakon dumaloq muhr tushirilgan emish. To'qqiz nafar asir bilan tiz cho'kib o'tirgan shoqol tasvirlangan ushbu muhr qabr egasining o'ta hurmatli shaxs, ehtimol, bir podshoh bo'lganidan dalolat beradi.

Alya meni diqqat bilan tinglay boshladi. Uning yuzidagi boyagi dahshat to'la ifoda o'rnini asta-sekin xotirjamlik egaladi, hatto mavzuni keskin o'zgartirganim va uni bir burchakka itqitib yubormaganim uchun mendan g'oyat minnatdor bo'layotgandir, deb o'yladim. Ayni paytda butun e'tibori men aytayotgan voqeaga qaratilgani sababli ichidagi tug'yon ehtimol, hozircha bosilgandi. Men mayin bir ovoz bilan hikoya qilishda davom etaman:

- Karter yillar davomida orzu qilgan manzarani ko'rgach, quvonchdan hushini yo'qotayozdi va o'ta jiddiy kashfiyot qilganini anglab yetdi. Ko'p o'tmay, u Angliyadagi xo'jayiniga telegramma jo'natdi, keyinchalik uni butun dunyoga mashhur qiladigan xabarni ham ilova qildi: «Nihoyat, biz vodiya aql bovar qilmaydigan narsani topdik. Qo'l tegmagan muhr bosilgan muhtasham qabr. Siz kelguningizga qadar qabrni qaytadan yopdik. Tabriklayman».

- Keyin nima bo'ldi?

- Yosh hukmdor Tutanxamonning g'oyib bo'lgan qabri 1920-yillarda Misrning qadimgi hukmdorlari va malikalari orasida topilmagan va butun dunyo arxeologlari tomonidan izlangan jumboq edi. Karter ko'p yillar davomida bu qabrni topishni orzu qilgan va u haqidagi barcha tavsilotlarni o'ta sinchkovlik bilan ipidan-ignasigacha mulohaza qilib ko'rgan.

Karterning xo'jayini Lord Karnarvon telegrammani olgan zahotiyoq, qizi Evelin bilan Misrga uchdi. Ular birgalikda qazilma o'tkazilayotgan joyga yetib kelishdi. Eshikdagi ganch obdan tozalangach, hamma ko'rishni orzu qilgan ism paydo bo'ldi: Tutanxamon... Barcha barobar katta hayajon og'ushida darhol eshikni sindirdi va vayronalar bilan qoplangan pastki o'tish yo'liga duch keldilar. O'tish joyidan o'n metrcha yurgach, zichlab yopilgan va muhrlangan boshqa eshikka ro'para bo'ldilar. Ikkinchi eshikda ham xuddi shunday muhr va yozuv bor edi. Karter eshikda kichik teshik ochdi va uning ichiga temir tayoq kiritib ko'rdi. Ichkarida ular qabrni o'g'rilardan himoya qilish uchun ishlatiladigan zaharli gaz bo'lishidan xavotirda edilar. Keyin u teshikni biroz kengaytirdi va xonada nima borligini ko'rishga urinib, ichiga sham qo'ydi. Ichkaridagi issiq havo tufayli miltillagan sham alangasida dastlab biror narsa ko'rinmasdi. Uning ko'zlari yorug'likka o'rganib qolgan ekanmi, to'satdan har yer, har yerdan oltin yog'dulari yog'ilayotganini payqab qoldi. Ayni paytda uning atrofidagi odamlarning qiziqqonligi avjiga chiqib, Karterdan ichkarida nimani ko'rayotganini so'rashar edi. Karter faqatgina «Ajoyib narsalar» deya oldi.

– Hayajonli hikoya ekan.

Ko'rinib turibdiki, u qattiq hayajonlandi. Hikoya uni butunlay o'ziga jalb qilgandi. Bir dam o'zini unutdi. U bunday hikoyalarga doim bolalardek soddalik bilan munosabatda bo'ladi. Bu hikoyalar unga o'z dardini oz fursat bo'lsa-da, unuttirdek tuyuladi.

– Nihoyat, ular eshikni buzib, birga ichkariga kirishdi. Ularning oldida g'ayrioddiy manzara paydo bo'ldi. Bu kichkina xona boshdan-oyoq oltin haykallar, zarhal yostiqlar, ko'rpa-to'shaklar, ikki g'ildirakli jang aravalari, ganch laganlar va naqshinkor zargarlik qutilari bilan liq to'la edi. Xonada yana bir muhrlangan eshikni qo'riqlayotgan soqchilarning ikkita haqiqiy o'lchamdagi oltin haykali bor edi. Karter va uning

do'stlari nihoyat, bu ikki qo'riqchi tomonidan himoyalangan eshikni buzib kirishdi va yosh hukmdor dafn etilgan xonaga kirishga muyassar bo'ldilar. To'rt muhrlangan eshikni sindirish orqali ichkari xonaga kirishga muvaffaq bo'lgan jamoa oldida yana birining ichiga joylashtirilgan to'rtta tobut paydo bo'ldi. Nihoyat, to'rtinchi, eng ichki tobutda Tutanxamonning mo'miyolangan jasadini topdilar. Shundan so'ng o'sha xonalardan o'tib, haqiqiy qimmatbaho narsalar saqlanadigan oxirgi xonaga kirganlarida, barchasi hayajondan titrar, chunki ularning oldida butun dunyo asrlar davomida izlab kelgan xazina turardi, shuningdek, uch yoki to'rt ming yil ichida hech kimsa qadam bosmagan sirli xonaga birinchi bo'lib kirishning dahshatli sirini ham boshdan kechirdilar.

Men Alyaning shu tobda go'yo o'sha xonada o'zi ham bordek hayajonlanayotganini his qilaman.

– Karter o'sha kuni boshidan kechirganlarini birma-bir yozib qoldirdi. Darhaqiqat, o'sha kundalikda juda qimmatli narsalardan tashqari Karterni e'tiborini tortgan boshqa tafsilotlar ham bor edi. Masalan, eshiklarni ganchlash uchun ishlatilgan va ganch bilan to'ldirilgan idish... o'chirilgan moychiroq xuddi ostonada qolgan xayrlashuv gullari kabi turardi... Yosh hukmdor qanday ayanchli marosim bilan dafn etilgan, kim bilsin? Shunday mayda-chuydalar orasida vaqt go'yo o'z joyida qotib qolgandek edi. O'sha odamlar yosh hukmdorni dafn qilganlaridan keyin bu dunyodan kimlar kelib, kimlar ketmadi ekan?

– Haqiqatan ham, ular o'z hukmdorlari qabrini qanchalik ehtiyotkorlik bilan yashirishgan, haligacha uch-to'rt ming yil davomida hech kim topolmadi.

– Ha, ular bu qabrni ehtiyotkorlik bilan ko'zdan pana qilishgan, chunki u Tutanxamon oxiratga sayohatida kerak bo'ladi, deb o'ylagan besh-olti ming xil narsalar bilan to'ldirilgan edi. Qabrdan bir yuz o'ttiz dona tayoq va xodalardan iborat jamlama ham topilgan bo'lib, qamish tayoqda «Janob

hazratlarining qo'llari bilan kesilgan qamish» degan diqqatga sazovor yozuv bor edi. Qabrdan topilgan har bir parcha birma-bir raqamlangan va uning turgan yeri diqqat bilan qayd etilgan; bundan tashqari, har bir joyning alohida suratlari olindi. Ba'zi narsalar buzilishidan qo'rqib, darhol olib tashlashmadi.

Butun dunyo matbuoti bu g'ayrioddiy kashfiyot haqida yoritar va gazetalar har kuni birinchi sahifalaridanoq yosh hukmdorning yangi topilgan qabri tafsilotlari yuzasidan xabarlar berib turardi, ammo xo'jayin Karnarvon bu qiziqishni pulga aylantirishga muvaffaq bo'ldi va «Tayms» gazetasiga davom etayotgan qazilma ishlari haqidagi hikoya huquqlarini sotdi... Bu holat butun dunyo matbuotining hafsalasini pir qilgan bo'lsa, bu narsalarning hammasini o'ziga tegishli deb da'vo qilgan Misr xalqi qattiq g'azablandi.

– La'natlangan hukmdorni ... baham ko'ra olishmagan...

U bu gaplarni aytar ekan, xuddi Tutanxamon emas, balki o'zi la'natlangandek, aybini tan olgan jinoyatchidek boshini quyi egadi. Bu qizga nima bo'ldi?

– Tutanxamon 1920-yillarda butun dunyoda o'zining la'natlari bilan mashhur bo'lgan mayda hukmdorga aylandi. O'sha yillarda ko'plab yozuvchilar, jumladan, Sherlok Xolmsdek qahramonni yaratgan yirik ijodkor, ser Artur Konan Doyl ham «La'natlangan Tutanxamon» mavzusida hikoya va romanlar yozgan. Darhaqiqat, qabrni qaroqchilar va talonchilardan uzoqlashtirish uchun o'liklar atrofida qandaydir qo'rquv uyg'otish, qarg'ish mish-mishlarini tarqatish qadimgi Misr g'oyasi edi. Biroq boshqa barcha fir'avnlarning qabrlari izi qandaydir yo'llar bilan topilgan bo'sa-da, yosh hukmdorning qabri topilmadi, bu Tutanxamon tevaragidagi sirni battar oshirdi va bu holat qabrni himoya qiluvchi g'ayritabiiy kuchlar va afsunlar bilan bog'liq edi.

– Nima deb o'ylaysiz, hammaning qabri topilganida nega uning qabri topilmadi?.. Va u qanday qilib, ming yillar davomida daxlsiz qoldi?

– Garchi hamma bu sirni o'sha paytda mo'miyoning la'nati bilan bog'lagan bo'lsa-da, barchani o'ylantirgan savolga haqiqiy javob meteorologlardan keldi. Qabrga kirish eshigi baland adirlardan toshqinlar olib kelgan vayronalar bilan qoplangan. Shohlar vodiysi qoyalari va qattiq toshli tor vodiylari bilan haqiqiy amfiteatrga o'xshaydi. Bu mintaqada dabdurustdan keladigan suv toshqini juda keng tarqalgan. Bir bulut yarim million tonna suvni ko'tara oladi va yigirma daqiqalik yomg'irdan keyin u barcha suvni to'kib tashlaydi. Tik qoyalardan tushayotgan vayronalarga to'la toshqinlar mana shu qabr tomon yo'nalgan. Shunday qilib, qabr ustida hosil bo'lgan bir metr qalinlikdagi vayronalar va toshlar to'fonidan so'ng cho'l quyoshi ostida kuyib, yillar davomida betonga aylangan. Qabr ustida hosil bo'lgan bu bir metr qalinlikdagi toshga aylangan vayronalar o'tgan yo'lovchiga xuddi vodiyning zaminiday tuyulardi. Ya'ni omad Tutanxamonga kulib boqqan va qabri ming yillar davomida daxlsiz qoldi.

– Omadmi, tasodifmi yoki boshqa bir narsa, ma'lum emas.

– Seningcha, nima sabab bo'lishi mumkin?

Buni omad sifatida qabul qilmaydi. Balki, ostidan boshqa bir narsalarni qidirayotgandir.

– Alloh shunday istagan bo'lsa, demak, yomg'irni ham aynan o'sha yerga yog'dirdi.

– Haqiqatan ham, shunday deb o'ylaysanmi?

– Nega o'ylamasligim kerak? Axir, qabrni topib olganlarning ustiga ham la'nat yog'dirilgan.

U Tutanxamonning tarafini oladi, hatto uni Xudo himoya qilgan bo'lishi mumkin, deb o'ylaydi.

– Xuddi senga o'xshab o'sha paytda odamlar qazilmadan topilgan ashyolarning qandaydir la'natga uchraganiga ishonishgan. Matbuot ham buni rag'batlantirgan emish. Birmuncha vaqt o'tgach, odamlar qo'rqqan va kutilgan la'nat qazish ishlarini amalga oshirganlarni birin-ketin ta'qib qila boshladi. Avval ingliz xo'jayini Karnarvon kasal bo'lib, darhol vafot

etdi. Shundan keyin qazilmalarda qatnashganlar orasida vahima urchidi. O'lganning ustiga tepgandek, xo'jayinning iti baland joydan yiqilib o'ldi. Keyin uning kanareykasini kobra iloni tiriklayin yutib yubordi, degan mish-mishlar tarqala boshladi. Gazetalar bundan boshqa xabar yozishga qodir bo'lmay qoldi.

Lord Karnarvon Misrdagi shifoxonada vafot etganida, butun Misrda bir muddat elektr energiyasi uzilib qolgani ham ana shunday xabarlar qatorida edi. Bundan tashqari, elektr uzilishini talab qiladigan hech qanday texnik nosozlik ham bo'lmaganmish, go'yo. Marhum xo'jayinning noibi, otasi va xo'jayinning ikki ukasi maxfiy ravishda vafot etganida, bu voqealar doimgidek yana tavqi la'nat bilan bog'liqligi haqidagi gaplar tarqaldi. Qolaversa, lordning dafn marosimida dafn aravasi bolani urib yubordi va bola vafot etdi. Fir'avning rentgenogrammasini olishga kelgan ofitser yo'lda baxtsiz hodisaga uchradi. Misr shahzodasi fir'avn qabrini ziyorat qilgandan so'ng darhol otib o'ldirilgan. Ehtimol, bu voqealarning eng qiziqarlisi Tutanxamonning mo'miyosidan bosh boylamlari olib tashlanganida sodir bo'lgan, degan taxminlar tarqaldi. Chunki yosh fir'avnning chap yonog'ida zaharli pashsha chaqishi tufayli qisman tuzalgan chandiq topilgan. Ma'lum bo'lishicha, uning marhum xo'jayinini ham o'limidan bir qancha vaqt oldin yuzining chap tomonini zaharli pashsha chaqqan va chandiq izi ikkalasida ham aynan bir joyda bo'lgan.

– Bularning hammasi... sizningcha, tasodifmi?

– Agar men o'sha davrda yashaganimda, ehtimol, bu savolga boshqacha javob bergan bo'lardim, chunki gazetalarda har kuni ko'plab yangiliklar chop etilardi, bu xabarlar tabiiyki, asl voqelikka asoslanmagan. Oldin aytgan hikoyalarimda bo'lganiday, o'sha paytda ham odamlar yoppasiga aqldan ozishgan.

– Aqldan ozishganmi?

Bularning barchasi xuddi o'sha davrda yashagan odamlar kabi tasodif bo'lishi mumkinligiga ishonmaydi. U hali ham

avvalgidek, eshitgan voqealarining ostidan boshqa narsalarni qidiradi.

– Odamlar o'z-o'zidan aqldan ozishmaydi, albatta. Buning mutlaq bir sababi bo'ladi.

– Xo'sh ... ularni nima aqldan ozdirdi?

– O'shanda Tutanxamonning qarg'ishi Yevropaning ko'plab mamlakatlarida, xususan, Angliyada, Misrda odamlarning ongini band qilib olgan, ularni o'z muammolarini unutishga majbur qilgan eng muhim masalaga aylandi, chunki biz aytayotgan davr 1920-yillar edi... Qani ayt-chi, modomiki ko'p mutolaa qilar ekansan, o'sha yillarning o'ziga xos xususiyati nimada deb o'ylaysan?

U xayolini jamlashga urinadi. Chunki dabdurustdan bunday savol berishimni kutmagandi. Shiftga tikilib, bir zum javob berishga harakat qiladi. So'ngra hadiksiragan ovozda:

– 1918-yilda Birinchi jahon urushi tugadi, – deydi.

– Ha, aynan shunday bo'ldi. Bilasanmi, bu dahshatli qonli urush edi. Odamlar o'sha urushda o'z yaqinlaridan, turmush o'rtoqlari, otalari, o'g'illari, aka-ukalari va yorlaridan ayrildi. Xalqni ochlik va qashshoqlik iskanjaga olgandi. Ustiga-ustak xuddi shu yillarda ispan tumovi deb nomlangan kasallik butun Yevropani xonavayron qildi. Ayniqsa, yoshlarni sevadigan bu kasallik tufayli bir necha kun ichida millionlab odamlar vafot etdilar. Ustma-ust kelgan bu yo'qotishlar odamlarda zarracha xush kayfiyat qoldirmadi. Urush tufayli yuz bergan yana bir muhim voqea bor, ayt-chi, u nima?

U ko'zlarini yana shiftga qadagancha o'yga toladi.

– Menga sal yordam berib yuboring...

– Rossiyani esla... bir o'ylab ko'r-chi...

– Inqilob... 1917-yilda.

– To'g'ri, butun dunyo bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, odamlarning dunyoqarashini keskin o'zgartirib yuborgan inqilob sodir bo'ldi. Bundan tashqari, Irlandiyada qo'zg'olonlar boshlanib, orol ikkiga bo'lingan. Oxiri, Angliyada birinchi marta leyboristlar partiyasi hokimiyat tepasiga kelib, ayollar-

ga ovoz berish huquqini berdi. Ayollarning bir qismi ishlay boshladi. Xotin-qizlarning mehnat faoliyatini boshlashi va iqtisodiy erkinlikka erishishi ham nihoyatda muhim voqeadir. Oilaviy munosabatlarga putur yetkazuvchi, barcha rollarni o'zgartiruvchi, urf-odatlarni buzuvchi bunday vaziyatda ayollar qattiq hayajon og'ushida edilar. Yillar davomida ko'z yoshlari tinmagan ko'plab jafokash ayollar erkinlikka erishgach, qo'llarida sigaretalar, qahqahalar bilan xush-xandon London ko'chalarida sayr qila boshlashdi. Tasavvur qilgin-a, bir tarafda dunyo qanchalar notinch! Bir tomonda, o'lim, kasallik, motam bilan olishayotgan odamlar; bir tomonda, inqiloblar, yangi huquqlar qo'lga kiritilgani. Mo'miyolarning la'nati haqidagi hikoyalar esa bunday ijtimoiy tartibsizliklarda odamlarga sotiladi, xolos.

– Meni ham la'natlanganimni anglab yettingiz, to'g'rimi? Shuning uchun bu voqealarni aytyapsizmi?

Shu gaplarni aytarkan, uning ko'zlarida chuqur andisha va ezg'in bir kinni ko'raman. Bir tomondan u bu yerga katta umidlilar bilan kelib, kimningdir uni tushunib, ma'qullashini butun qalbi bilan istasa, ikkinchi tomondan bundan o'lgudek qo'rqadi ham. U umid qilishni xohlasa-da, allaqachon umidsizlikni boshdan kechirayotgan odamga o'xshaydi.

– Yo'q bilmayman. Men seni endigina taniy boshladim, faqat seni emas, hech kimning la'natlaganiga ishonmayman. Lekin sen ochiq gapirganing uchun men ham shunday qilaman. Menimcha, o'zing haqingda shunday salbiy fikrlaring bor.

– Hatto hikoya aytayotganingizda ham fikringiz boshqa joyda...

Bilaman, xohlasa ham hozircha menga ishonmaydi yoki ishonolmaydi. Har doimgidek sabr-toqatli bo'lishim, har bir savoliga menga nisbatan ishonchi uyg'ongunicha javob berishim, unga qalban yaqin va samimiy munosabatda bo'lishim kerak.

– Boshqa joyda emas, senda.

– Demak, samimiy emassiz.

– Aksincha, men juda samimiyman, qara, buni senga ochiq aytyapman.

Men senga yordam berish uchun qo'limdan kelgancha harakat qilyapman. Sen ham buni xohlaysan. Lekin sen aql-lisan-u, jasur emassan. Og'zingdan o'zing bilan bog'liq biror so'z chiqishidan qattiq qo'rqasan. Sen qanchalik yordamga muhtojligingni bilasan va agar men ozgina savol bersam, qochish uchun o'zingga joy izlayapsan. Shumi sening jaso-rating?

U menga aqldan ozgandek qaraydi. Bunga o'rganmagan, ya'ni ko'chadan o'tayotgan oddiy odam turgan gapki, uning bu qarashlaridan qo'rqqan bo'lardi. Menga kelsak, suhbatdoshimga o'xshagan odamlarning qarashlariga ko'nikkanimga ancha bo'ldi. Bundan tashqari, bu taxlit ko'rinishlar yuragim-ni doim og'ritadi, negaki, men bu ko'rinishlarning ma'nosini juda teran his qilaman. Bu, o'z vaqtida qattiq jarohatlangan, ezilgan va qo'rquv yengib qo'ygan odamlarning ko'rinishi. In-son bo'g'ziga qadar hissiyotga to'la qopga o'xshaydi. Qancha-lik ko'p sevsang, shunchalik sevasan, tuyg'ular uning qopiga sig'mas, rang-barang jilolanar, tog' gullarining ifori atrofga taraladi go'yo, tuyg'ular mavjlanib oqadi.

Menimcha, hayot shu paytgacha bu qizga hech qachon ana shunday ajoyib jihatlarini ko'rsatmagan. U hayotdan va hayotda sodir bo'layotgan hamma narsadan g'azablanadi. Burnimga badbo'y hidlar keladi. Bu qopni bo'shatish oson bo'lmaydi, albatta. Men hattoki juda ehtiyotkorman, chunki u akkordi sozlanmagan musiqa asbobiga o'xshaydi. Uning qayerda, qachon va qanday munosabat bildirishi aniq emas. Darhaqiqat, u mening ko'z o'ngimda imkon qadar nazorat os-tida bo'lishga harakat qiladi, chunki u birinchi kuni mening akkordim unchalik mustahkam emasligini ham bilib oldi. Ho-zircha shu usulda ishlayman. Avval qo'llarini ishqalab, so'ng lablarini so'yloq tishlari bilan tishlagach, boshini chayqab gapirmoqchi bo'ladi, lekin eplolmaydi. O'rta og'ir sukunat

cho'kadi. Bu qiz gapirmaydi, aniqrog'i, gapira olmaydi. Hozircha o'zi xohlasa-da muloqotga tayyor emas. Orqaga qadam tashlashdan boshqa chora yo'q. Uning qayg'usini battar kuchaytirishni xohlamayman.

– Ba'zi narsalarni tushuntirish oson emas, tog'rimi, Alya?

U jim, lekin gaplarim unga yoqadi. Uni tushunganimni, unga huquq berganimni his qiladi. Uning yuzida ma'yus ifoda paydo bo'ladi. Men bu ifodani yaxshi ko'raman. Faqat shunday paytlarda men uni odamdek his qilaman. Men uni bu g'amnok eshikdan olib chiqishim kerak. Bunday mahzun, bunday ma'yus bo'lmasligi kerak. Bo'lmasa, u to'xtagan joyidan hayotni davom ettira olmaydi.

– Alya, senga aytmoqchi bo'lgan yangi hikoyalarim bor. Ayniqsa, senga yoqadigan ho'kiz hikoyasi...

– Ho'kizmi?

– Ha, ho'kiz. Bu, aslida, kulgili hikoya emas, lekin bu safar odamlarning ahmoqligidan, balki birga kularmiz.

– Biz kulamizmi?

– Ha, kulamiz.

– Tez-tez kulib turasizmi?

Qanday g'alati savol! O'ylayapman, tez-tez kulamanmi? Aslida, avvallari hamma narsani bahona qilib kular, kula-verardim. Nuqul kulishni xohlardim. Hatto do'stlarim ham bilishadi, kulgim ba'zan uydan tashqariga toshib chiqardi. Keyin negaligini bilmayman, asta-sekin kulgim so'na boshladi. Bora-bora og'ir, vazmin, obro'li va ibratli ayolga aйландим. Hayotimda boshimdan kechirgan katta-kichik zilzila-yu silsilalar, men yashagandek orzular olami o'rnini egallagan achchiq va haqiqiy voqeliklar haqida gapirganda, avvalgidek tez-tez kulolmasdim va kasbim tufayli har kuni kechgacha tinglagan qayg'uli hayotiy hikoyalar sabab kulgilarim bora-bora yo'qoldi. Hayot odamlarning his-tuyg'ularini u yoki bu tog'lar, qirlar kabi yemirarkan. Kuzda so'lib qoladigan gullar kabi his-tuyg'ularimiz ham asta-sekin suvga to'lib, sarg'ayib, quriydi.

Ba'zi odamlarda bu juda aniq namoyon bo'ladi. Odamlar mustahkam bo'ladi, ularning elastikligi va yumshoqligi yo'qoladi. Bu borada o'zimni juda omadli deb bilaman, chunki men ko'p so'nmaganim, lekin Aydinni yo'qotganimdan keyin ayriliqni yengish unchalik oson emasligini angladim. «Bal-ki qurib, sarg'ayib, so'lib ketgan bo'lsam, og'riqni bunchalik chuqur his qilmagan bo'larmidim?» dedim o'z-o'zimga. Bu men tez-tez tinglaydigan qo'shiq.

Ko'z oldimga xalq qo'shig'i kelyapti: «Qarag'ay yonida tamaki chekish, Azob chekmaganning yuragi butun...» Men buni Jengiz O'zkandan eshitgandim.

Alya qarshimda ko'zini katta ochgancha, mendan savoliga javob kutadi. Bu qizga xayolimdan o'tganlarni qanday aytish-gayam hayronman.

– Doim kulamanmi, bilmayman, lekin baribir kulishni yaxshi ko'raman. Xo'sh, o'zingchi, sira tabassum qilmaysanmi?

– Men kulmayman.

– Nega Alya, nega hech qachon tabassum qilmaysan?

– Kulishni o'rganmaganman... Uyimizda hech kim kulmasdi... O'z-o'zidan sababsiz kulganlarni nima deyishlarini o'zingiz yaxshi bilsangiz kerak?..

– Mayli unda. Kel, birga kulishga harakat qilamiz. Bunga mening shu daqiqalarda juda ehtiyojim bor.

– Nega?

– Nega deb so'rayapsanmi? Kulgi har doim salomatlik uchun foydali.

– Ho'kiz haqidagi hikoyani qachon aytib berasiz?

– Keyingi safar kelganingda...

– Malika haqida hikoyalar yo'qmi?

– Malikami?

– Bilasizmi, ertaklarda hamisha malikalar bo'ladi-ku!

– Mayli, malika haqidagi hikoyani qidirib ko'ramiz.

– Xo'sh, unda... Men ketyapman, menga ko'rsatayotgan e'tiboringizni bilaman, bilmaydi deb o'ylamang. Buning men

uchun qanchalar muhimligini bilolmaysiz... Tashakkur... Hammasi uchun sizga rahmat aytaman. Yaxshi qoling.

U yana qo'lini qo'limga tekkizgandek ko'rinib xonadan tezda chiqib ketadi. G'aroyib qiz! Bu harakatlari unga bo'lgan qiziqishimni his qilayotganini anglatadi! Garchi mening ham unga bo'lgan his-tuyg'ularim jadal o'zgarib boryapti. Barcha sa'y-harakatlarimga qaramasdan, hamon erkin mulqot qilishda oqsayapti. U bilan sabrli va bag'rikeng bo'lishda davom etishim kerak. Men unga hikoyalarni, ayniqsa, ijtimoiy mavzulardan tanlayman, shunda ular o'z zimmamga tushmaydi, lekin baribir bu hikoyalar biror narsaga bog'lanishi mumkin. Bu malika masalasi nimaykin, ajabo? Bu qiz xonadan chiqqandan keyin ham xayolimni butunlay band qilib qo'yadi-ya.

Alyadan keyin bemorlar birin-ketin xonamga kirib chiqishda davom etadilar. Qanday qilib kech kirganini payqamay ham qolaman. Ba'zan menga vaqtning juda tez o'tishi yoqadi, chunki men bu vaqtni eng yaxshi tarzda o'tkazganimni o'ylayman. Bemorlarim bilan birga g'amgin bo'lsak ham, eng o'tkir dardni baham ko'rsak ham, xonamdan chiqqanimda ularning yuzlarida ko'rgan kichik bir umid chirog'i charchoqlarimni unuttirib yuboradi. Ishim tugagach, toza havo olish maqsadida yuqori qavatdagi ochiq ayvonga chiqaman. Quyosh botayotgan payt! Hamma yoq qizil rangga bo'yalgan. Hozirgina yomg'ir yog'dirib, shaharni ho'llagan bulutlar xuddi kimdir ularni quvayotgandek osmon uzra sochilib ketdi.

Bir necha shifokor va psixolog do'stlarim, professor Ayshe Yalinni davralariga olib, choy ustida suhbat qurishib, bir yoqdan atrofni tomosha qilishadi.

Anqaradek joyda bunday manzarani tomosha qilishning o'zi katta imkoniyat! Meni ko'rib, o'rinlaridan turib, joy berishadi. Ayshe yoniga o'tirib, beixtiyor suhbatga qo'shilaman. Nevin menga ham bir finjon choy olib keladi. Ayshe bilan anchadan beri ko'rishmagandik. U mening eski qadrdo-

nim. Biz Xo'jatepada ko'p yillar davomida birga ishladik. Ayshe har doim kiyinishga alohida e'tibor beradigan zamonaviy va zarif ayol. O'sha yillardan bir xotira yodimga keladi.

Bir kuni tushlikdan so'ng birga shifoxona bog'ida aylanib yurardik. Birdan yomg'ir tomchilay boshladi. Yomg'ir Ayshe ikkimizdan boshqa hech kimni bezovta qilmadi, lekin biz ikkovlon ichkariga qarab yugura ketdik. Hamma bizga g'alati qarab turardi. Nega bir-ikki tomchi yomg'irdan bunchalik qochayotganimizni ular tushunishmasdi. Buning sababini faqatgina ikkimiz bilardik. O'sha paytda zamshli ko'ylagi modada edi. Ayshe kulrang, men endigina sarg'ish zamsh kiyimlarimizni sotib olgandik va yomg'ir tomchilari buyumlarimizning bo'yog'ini ketkazishini juda yaxshi bilardik. Men unga o'sha voqeani hikoya qilib berdim, birgalikda o'tmishni sog'inch va tabassum bilan xotirladik.

Ayshe bolalar psixologlari uchun «Bolalarda o'yin terapiyasi» mavzusida maxsus dastur tayyorlayotgan edi. Nihoyat, tayyorgarlik ishlari bitib, u tez orada dasturni boshlamoqchi. Tashqaridan dasturga qo'shilishni istagan psixologlar bor. Ular, biz nima qilishimiz kerak, deya so'rashadi. Bizning hisobimizga ko'ra hozircha klinikadan tashqaridan kelgan arizalarni qabul qila olmaymiz. Chunki dastur juda uzoq vaqt talab etadi va bundan tashqari, u amaliyotga tatbiq etiladi. «Balki, biz uni keyingi yil o'quv dasturimizga qo'shib, ko'proq psixologlarni jalb qilishimiz mumkindir», deyman. Ayshe ham bu taklifni qabul qiladi.

Haqiqatan, ayvon anchayin salqin, bu yerda uzoq o'tirishga hali erta, lekin qish chorig'ini shunchalar uzoq sudradiki, hammamiz ich-ichimizdan bahorni sog'indik. Toza havodan o'pkamni to'ldirib, chuqur-chuqur nafas olaman. Quyosh ufqda so'nib borarkan, yengil shabadada biroz etim uvishganini sezaman. Men soatimga qarayman, tezroq pastga tushishim kerak, chunki birozdan keyin biz yangi qabul qilingan psixologlarni suhbatdan o'tkazamiz. Ayshe ham hakamlar hay'atida bo'lgani bois men bilan birga. Mehmet Akif

va Jengiz mening oldimda o'tirishgan edi. Hasan va psixolog Seliha Dolashir ham kelishsa, shu bilan barcha xodimlar jamuljam bo'ladi. Psixologlar birin-ketin kirib, xonadan chiqib ketishadi. Ba'zilar bilan suhbatimiz uzoqroq davom etsa, ayrim darhol chiqib ketadi. Darhaqiqat, barchamiz oliy ma'lumotli, bilimdon psixologlarga ustunlik va imkon berishni xohlaymiz, ammo bu kasbda shaxsiy xususiyatlar juda muhimdir. Ularning barchasini suhbatdan o'tkazgach, bu safar qaysi birini tanlash haqida bir soatcha tortishib, o'zaro muhokama qilamiz.

Nihoyat, biz ikkita yosh xonimni olishga qaror qilamiz. Hasan bu holatdan mamnun emas, chunki u kamida to'rt kishini qabul qilishimizni kutgandi. U yana e'lon beradi. Hammamiz ham horg'in, ham ochmiz. Baravar klinikani tark etamiz. Vaqt allamahol bo'lsa-da, mazali kechki ovqatga loyiq ish qildik. Qayerga borishni bilmay turganimizda, Hasan yordamga yetib keladi. U bizni Chankayadagi eng ajoyib restoranlardan biriga olib boradi. Kecha Jengiz kuylagan kuydir-majon qo'shiqlar bilan yakuniga yetadi.



Bugun klinikada ishlayotgan boshqa mas'ul hamkasblar bilan birgalikda yuqoridagi qahvaxonada tushlik qildim. Bu ham men uchun ulkan baxt. Zinalardan mamnuniyat bilan o'z qavatimizga odimlayotib, yana Alyaga ko'zim tushadi. Tunaning ro'parasidagi o'rindiqlardan biriga o'tirib, u bilan berilib suhbat qurardi. Meni ko'rgach, gapirishdan to'xtaydi va kichik shogird bosh ustozini ko'rgandek shosha-pisha o'rnidan turib salomlashadi. Unga bosh silkib alik olaman va qo'llarimni bir-biriga ishqalab, xonamga kiraman.

Alya bilan munosabatlarimiz jadal o'zgarib bormoqda. Xonamga jilmayib kirib keladi va qo'limni siqqancha ko'zlarimga tikiladi. Avvalgidek gapirishdan tortinmaydi. Uning nafaqat men bilan, balki Tuna bilan ham munosabatlari avvalgidan quyuqlashgan. U egnidagi urfdan qolgan va shalvira-gan eski kiyimlaridan voz kechmagan, lekin hech bo'lmagan-da avvalgidek kir-chir emas. Ayni paytda vujudi vazn olishda davom etmoqda. Uning borlig'idagi jami ijobiy o'zgarishlar ham vazni ortayotgani bilan bog'liq. Hatto terisi ham porlay boshladi. Men undagi o'zgarish haqida Tuna bilan o'rtoqlashishim kerak. Ajabo, men Alyada payqagan o'zgarishlarni u ham ko'rdimikan? Nevin qo'lida patnis bilan kirib kelganida, men unga: «Tunani chaqirib yubor», deyman. Tuna hayajon ichra pildirab kirib keladi.

– Xo'sh, nima gaplar, Tuna? – so'rayman undan.

– Yaxshiman, xonim, hammasi joyida. Meni chaqirganingizni eshitib hayajonlandim. Biror muhim masalami?

– Yo‘q, yo‘q, shunchaki chaqirdim. Shu bizning telba qizimiz haqida so‘ramoqchi edim.

– Telba qizga nima bo‘ldi?

– Menimcha, bu qiz avvalgidan ancha o‘zgargan. Sizningcha, unga nima bo‘ldi deb o‘ylaysiz?

– Ha, ha, men ham buni his qildim. Aytganingizdek, juda o‘zgargan. Bir gap aytsam, balki kularsiz, lekin qonim qaynaydi shu qizni ko‘rsam. Men uni ilgari sira yoqtirmasdim, bilaman, sizga ham yoqmasdi, lekin, aslida, juda shirinsuxan qiz chiqib qoldi. Qanchalar e‘tiborli! Bu yerga ilk kelgan holidan asar qolmagan, xuddi ilgari u emas, boshqa birov qabulga kelgandek. Ko‘rsangiz, sira quruq qo‘l bilan kelmaydi. Maydachuyda bir nimalar ko‘tarib keladi doim. Ajoyib...

– Masalan, nimalar ko‘tarib keladi?

– Ba‘zida kichik qutichada shokolad, ba‘zan pishiriqlar yoki bir dasta gul. U hali ham vaziyatni tuzatishga harakat qilmoqda. «Hoy, qiz, bularning keragi yo‘q, o‘sha kunni unutib qo‘ydik», deb necha marta aytsam ham, baribir olib kelaveradi. Yana uchrashuvga har doim belgilangan vaqtdan oldinroq keladi. Hatto shoshayotgan bemorlarga o‘z navbatini ham beradi. Stolim qarshisidagi kresloga kelib o‘tiradi, lekin bu bilan meni umuman bezovta qilmaydi. O‘tgan kuni zal juda gavjum edi. Bir tarafdin telefon, bir tarafdin bemorlarning savollari-ga javob berishga harakat qilayotib bir qarasam, Alya mening o‘rnimga kelganlarga g‘amxo‘rlik qilyapti. Bu yerga alohida ko‘ngil qo‘ydi, hoynahoy.

Aslini olganda, uyam juda ko‘p ishlaydi, chunki bu yerdaligida telefoni tinmaydi. Ba‘zan unga ofisidan, ammo aksariyati mijozlari tinimsiz qo‘ng‘iroq qilib yo‘qlashadi. Siz bulardan xabaringiz yo‘q, chunki u huzuringizga kirganida telefonini o‘chirib qo‘yadi. U ham qo‘ng‘iroq qilganlarga o‘ta mulozamat bilan gapiradi. Ha, bu yerga kelgan ilk kunlarida butunlay boshqacha edi. Ochig‘i, odamlar bilan to‘g‘ri muloqot qilishni ham eplamasdi. Qo‘l-oyog‘i bog‘liq kezinar, ikki og‘iz so‘zni

birlashtira olmasdi. Uning nutqi hozir avvalgidan yaxshiroq. Ammo sizdan juda qo'rqadi.

– Mendanmi?

– Ha, sizni qanchalik yaxshi ko'rsa, shunchalik qo'rqadiyam.

– Men unga nima qildim?

– Yo'q, xonim, biror nima qilganingizdan emas, negadir sizdan hayiqadi. O'tgan kuni boshlig'i menga qo'ng'iroq qildi. Xodimlaridan biri uchun uchrashuv belgiladi. Sizga ham salom yo'lladi. «Gulseren xonim bizning telba qizimizga g'amxo'rlik qildi», dedi. Tez orada siz bilan bir piyola choy ustida suhbatlashishga kelarmish.

– Telba qiz? Uyam telba qiz deyaptimi?

Tuna qotib kuladi:

– Bu laqabni biz qo'ydik desam, yanglishibman, boshlig'i ham uni telba qiz deydi chog'i, lekin laqab tanlashda adashibmiz, u aqldan ozmagan ekan. Ey Xudo, siz bilan suhbatlashish maroqli, lekin telefonlar tinimsiz jiringlayapti. Ruxsatingiz bilan ishimga borsam.

– Ma'qul, ma'qul, men Alyani qabul qilishga hozirman.

– Yo'q, u emas, hozir sobiq kasallaringizdan biri kiradi, bu safar boshqa bir masala bilan kelibdi.

– Lekin navbat Alyaniki!

– Qizgina shoshayotgan ekan. Alya men kutaman, dedi.

Tuna gapini chala qilib shoshgancha xonani tark etdi. Agar qo'yib bersam, Tuna kechgacha gapiradi, ammo uni tinglash insonning me'dasiga tegmaydi. Gapirganida ham suhbatdoshini bir amallab kuldiradi, shuning uchunam u bilan gaplashib zerikmaysiz. Ayolning ichi qaynaydi. Bunday bo'lish nechog'li yoqimli! Shunday qilib, Alya o'z navbatini yana boshqasiga berdi! Haqiqatan ham, qiziq.

Ochiq eshikdan yosh ayol kiradi. Men uni ko'rgan zahotiyoq tanidim.

– Xush kelibsiz Gultan! Qalaysiz?

– Yaxshiman, doktor xonim, shukr, juda yaxshiman.

– Keling, o'tiring. Biz uchrashganimizga necha yil bo'ldi?

– Kamida to‘rt-besh yil bo‘ldi.

– Nikohingiz qanday? Umid qilamanki, hozir hammasi joyida bo‘lsa kerak.

– Yaxshi, yaxshi... O‘g‘lim ham ulg‘aydi. Maslahatlaringizni hech qachon unutmayman. Erim bilan urishishni deyarli unutdim desam, yolg‘on gapirmagan bo‘laman. O‘shanda ajrashsak ikkalamiz uchun ham yomon bo‘lardi. O‘sha kunlarni eslar ekanmiz, biz sizni eslaymiz va tez-tez quloqlaringizni qizdiramiz.

– Qanday soz, sizlar uchun juda xursandman.

– Bugun men sizning oldingizga boshqa sabab bilan keldim. Yodingizda bo‘lsa, o‘sha paytlarda men ham erimning oilasi bilan biroz muammolarga duch kelganman. Keyin hammasi o‘tdi, unutildi. Lekin hozir qaynonamning ahvoli yaxshi emas. Umid bilan nima qilishga hayronmiz. Shifokorga olib boraylik deymiz, u ko‘nmaydi. Uning yolg‘iz farzandi erim bo‘lgani uchun bizdan boshqa unga qaraydigani yo‘q. Siz xayolingma keldingiz. «Men borib vaziyatni tushuntiraman», dedim. Balki, menga maslahat berarsiz.

– Qaynonangizga nima bo‘ldi?

Gultanning qaynonasi uchun qabulimga kelgani g‘alati edi, chunki u o‘sha ayoldan juda ko‘p zulm ko‘rgandi. Endi bo‘lsa unga yordam berishga harakat qilyaptimi?

– Ilgari u juda sinchkov edi, hamma narsani nazorat qilishni xohlardi. Bundan uch yil oldin qaynotamdan ayrilib, yolg‘iz qolgan. Qaynotam bilan til topisholmasdi aslida, bechora erining hamma ishiga aralashaverib, burnidan buloq qilardi. Lekin Xudo haqqi, kasal bo‘lib qolganida unga ko‘p g‘amxo‘rlik qildi. Keyin qaynotam olamdan o‘tganida qattiq qayg‘uga berildi. Yolg‘izlanib qoldi. Biz, albatta, haftada bir marta uning ziyoratiga borsak ham, lekin har doim ham yonida bo‘la olmaymiz. Shu kunlarda uyiga o‘g‘ri tushib halovati battar buzilgan, muvozanatini yo‘qotib qo‘ygan. O‘g‘ri uning yashirgan nimasi bo‘lsa, o‘marib ketgan. Politsiya keldi, ammo o‘g‘rining izini topa olmadi.

– Uning moliyaviy ahvoli qanday?

– Eridan qolgan nafaqani oladi, o'ziga yarasha shinamgina uyda yashaydi, bankda ham puli bor. Xullas, u hech kimga muhtoj emas, hamma narsasi bisyor, kamchiligi yo'q. Hozir sakson yoshda. Undan hech kim, hech narsa istamaydi. Bizning moliyaviy ahvolimiz ham yomon emas. Erim bu yil yangi mashina sotib oldi. Ishlari avvalgidan yaxshi. Agar onasining biror ehtiyoji bo'lsa, biz bormiz, har doim yonida bo'lamiz, lekin unga buni tushuntirish qiyin.

– Nima bo'ldi, qaynonangizga?

– Aytishga uyalaman, lekin bir kasallik. Bu durust odamlarning qiladigan ishi emas.

– Psixiatriyada uyalish yaramaydi, Gultan. Qani, ayting.

– Gulseren xonim, qaynonam avvallari tejamkor ayol edilar, endi vaziyat o'zgardi. U nima topsa, yig'adi. Endi haftada kamida ikki kun uyiga boraman. Hech narsani tashlab yubormaydi. U uyda nimalar borligini ko'rsangiz edi! U limon qog'ig'i, polietilen paketlar, suv idishlari, har xil bankalar, plastik yogurt idishlaru, sutning bo'shagan qutilari, qog'oz sochiqlar, hatto ishlatilgan hojatxona qog'ozlarini ham yig'adi. U hidni his qilmaydi, hammomiga qo'lansa hiddan kirib bo'lmaydi. Oshxonadagi idishda iflos suv idishi bor. U barcha idishlarni mana shu suvda yuvadi. Kir yuvish mashinasining chiqindi suvini chelaklarga to'ldiradi va shu iflos suv bilan uyni artadi. Baribir uyda toza suv ishlatish deyarli taqiqlangan... U ishlatilgan suvdan qayta-qayta foydalanadi.

– Kelganingizda suvni ishlatishga ruxsat beradimi?

– Aslida, u bularni ichdan xohlab qilmaydi, lekin menga ham ortiqcha biror narsa aytolmaydi. Nima bo'lganda ham o'zim hojatxonaga xuddi yuvinadigandek kiraman, go'yo. Qo'limni yuvayotgandek suvni ochib rakovinani cho'tkalab yuraman. Uning ko'z o'ngida hech narsani tashlab yuborishimizga ruxsat bermaydi. Onasini yig'lamasin deb Umid ham tashlamaydi. Endi boshqa yo'lini topdik, «Bular bizga kerak» deb ortiqcha narsalarni olib ketyapmiz. Agar «tashlaymiz»

desak, u hech qachon ruxsat bermaydi. Plastik idish, shisha va bankalarni qopga solib, «uyda ishlatamiz», deb olib ketamiz, lekin ahvol kundan kunga og'irlashib bormoqda.

Uyda har xil qog'oz sochiqlar mavjud. Qayerga bormasin, olib kelarkan. To'plam-to'plam hojatxona qog'ozlarini topamiz uydan. Kimnikiga borsa, olib, yashirincha sumkasiga solib qo'yadi. Nima desangiz bor: tish kavlagich, tuzdonlar, nam sochiqlar, kuldonlar... xohlagan narsasini olib kelaverib uyini to'ldirgan. Ish shu bilan tugasa koshki, biror joyda tanga yoki biror keraksiz narsalarni ko'rsa ham olib keladi. U sakson yoshda, lekin sayohat qilishni yaxshi ko'radi. Do'sti-yori ko'p. Shunday qilib, u qayerga bormasin, uyiga quruq qaytmaydi. Hozircha olib kelganlari shu, lekin Umid ham, men ham bu holatning oxiridan qo'rquyapmiz. Bir kun kelib u ancha qimmatroq narsani sotib oladi, degan xavotirdamiz.

Qaynonasi haqida qayg'uradi, uni himoya qilishga, yordam berishga harakat qiladi. Zulm chekkan insoniga achi-nishini ko'rib, Gultanning oltin qalbiga tan beraman. Odam-larning ana shunday ajoyib fazilatlarini ko'rish meni doim quvontiradi.

– O'ziga qanday qaraydi?

– U tomoni ham ayanchli. Avvallari juda shirin taomlar pishirardi. Endi bo'lsa, tasarruf qilmoqchi bo'lib, pishirgan ovqatlarini yemaydi, oqibatda taomlar tez buziladi, ayniydi, shundayam ularni to'kmaydi, axlatga tashlamaydi. So'ng-ra buzilgan ovqatni iste'mol qiladi. Zotan, tozalikka rioya qilish degan narsaning o'zi qolmagan. Suvdan foydalana olmagan uchun meva va sabzavotlarni doim bir xil suvda yuvadi. Uyda hamma narsa ostin-ustin... Umid uning ko'zi-ni shamg'alat qilib turganida, men oshxonaga kirib, onasiga sezdirmay sumkamga ba'zi narsalarni solib qo'yaman, lekin shundayam hamma narsaga tegib bo'lmaydi. U ko'rib qolsa, jahli chiqadi. Hatto muddati o'tgan dori-darmonlarni ham ehtiyotkorlik bilan yashirib qo'yadi. «Balki iste'molga ya-

roqsizdir, ammo bizga foydasi tegib qolar», deydi. Bularning barchasi kasallik emasmi?

– Afsuski, shunday...

– Endi nima qilamiz? Biz esa uni yetaklab sizga olib kelolmaymiz.

– Uning aql-hushi joyidami? Aytmoqchimanki, unda unutuvtuvchanlik yoki parishonxotirlik bormi?

– Biroz unutuvtuvchanlik bor. Kechqurun chiroq yoqmaydi, lekin barcha seriallarni tomosha qiladi. U nima bo'layotgani haqida hamma narsani biladi, lekin doim bezovta. Kechasi ham yaxshi uxlamasdi. U doim och qolishdan, qo'rqadi. Hatto eng uzoq joylarga ham piyoda boradi. Uyga sotib olgan nonni so'nggi ushog'igacha yeydi. Eshikbonga hech narsa xarid qildirmaydi, o'zi borib hamma narsalarning eng arzonidan sotib oladi.

– Dori yozsam icharmikan?

– Men allaqachon uning dori-darmonlarini tayyorlayapman. U nima sotib olganini o'zi bilmaydi. Siz yozing, men unga olib boraman.

– Mayli unda. Biz bu muammoni dori-darmon bilan to'liq bartaraf eta olmaymiz, lekin hech bo'lmaganda kasallikni biroz orqaga qaytarishimiz, uni hayotga moslashtirishimiz va eng muhimi, depressiya belgilarini yo'q qilishimiz mumkin. Bu, ehtimol, ochlik kabi tashvish va qo'rquv tufayli yuz bergandir. Shunday qilib, uning ruhiy holati yaxshilanganda, aloqatlar yo'qolishi mumkin. Bundan tashqari, yoshga bog'liq demansning bir shakli mavjud. Men yozgan dori-darmonlarni hoziroq berasiz, muntazam qabul qilib tursin, bir oydan keyin keling, natijaga qarab mulohaza qilamiz, vaziyatni qayta ko'rib chiqamiz.

– Katta rahmat, bir oydan keyin, albatta, uchrashaman. Xayr. Salomat bo'ling.

– Umidga salom ayting.

– Men sizga xabar beraman.

- Aytgancha, sizni tabrikلامoqchiman. Qaynonangizga onangizdek qarayapsiz. Ofarin sizga!

- Umid men bilan bo'lsa, hammasi osonroq kechadi. Qiyin vaziyat! Qaynonam, ehtimol, erini yo'qotib, juda yolg'iz qoldimikan.

Yillar davomida birga yashab, butun umrini baham ko'rgan turmush o'rtog'ini yo'qotish har doim qiyin, lekin bu yo'qotish ancha keksa yoshda sodir bo'lsa, bu qiyinchilik ikki baravar ko'payadi, chunki odamlarning yoshi ulg'aygani sayin yangi vaziyatlarga moslashish qiyinroq kechadi.

Tashqaridagi odamlar buning aksini o'ylashadi. Biz buni tanamizdagi yara yoki suyaklarimiz sinishi bilan taqqoslashimiz mumkin. Yoshlarda yaralar tezroq bitadi, suyaklar tezroq tuzaladi, lekin keksa odamlarda teskarisi. Xuddi yara, katta suyaklaridan birining sinishi, o'sha yoshda turmush o'rtog'idan ayrilishi va undan keyingi chidab bo'lmas yolg'izlik bu ayolga qattiq ta'sir qilgan.

Ha, uning bugungi kungacha kechgan hayot tartibi va uyg'unligi buzildi, muvozanatlar o'zgardi va bu keksa ayol shu ayanchli ahvolga tushib qoldi. Biroq men Gultan kabi oqko'ngil kelinning bo'lishini ajoyib imkoniyat deb bilaman. Gultanga tasanno!

Endigi navbat Alyaniki... Ba'zi odamlar bilan birga bo'lish insonni yetarlicha horitadi va huzurini qochiradi. Chunki qayg'u domiga asir bo'lgan g'amboda qalblarning dardiga sherik bo'lish odamni ko'pincha hurkitadi. Alya haqida ham shunday deyish mumkin. Men bu jumboqni tezroq yechish uchun tezroq huzurimga kelishini xohlayman va ba'zida asabiylashaman, chunki bizning suhbatlarimiz hech qachon tabiiy jarayonga ergashmaydi. Men har doim juda ehtiyotkor va hushyor bo'lishim kerak. Endi uni dori ichishga majburlamasam bo'lmaydi. U ilgari tavsiya etilgan dori-darmonlarning birortasini qabul qilmagan. Ko'raylikchi, uni bunga ko'ndira olamanmi-yo'qmi?

Eshik ohista taqilladi va Alya sekingina xonamga kirib keldi. Uning sochiga taqqan qizil rangli soch bezagi mening ko'zim tushgan birinchi narsa bo'ldi. Qiz bolalar taqadigan xonqizi tasviri tushirilgan bezakni to'g'rilab, yuziga tushgan kokilini tuzatgan bo'ldi. Ikkalamiz ham uning har tolasi bir tomonga tartibsiz yoyilib yotadigan sochlaridan qutuldik, rosti, uning betartibliги meniyam bezovta qilardi. U go'yo so'rashgandek qo'limga teginib qo'yadi va ro'paramga o'tirib, menga diqqat bilan qaraydi. Bu qarashda u menga ko'p narsalarni, uni tushunishimni xohlaydigan ma'noni ham anglatib turadi. Bu safar u odatdagidek belini bukib, yer chizib o'tirmadi. U mendan nimani xohlaydi? Soch bezagi haqida gapirishimnimi, ajabo?

– Sochingga bezak taqibsan, juda yaxshi qilibsan, soching endi yuzingga tushmayapti.

– Bu soch bezagini kichkinaligimda menga otam hadya qilgan. U tortmada turardi. Topib taqib oldim.

– Tushundim. Taqib yaxshi qilibsan.

– Bu gunoh emas, shundaymi?

Bu qanday savol bo'ldi, axir!

–Nega gunoh bo'lsin?

– Inson gunoh qilsa nima bo'ladi?

– Hayot bor joyda gunoh qilmoqlik ham bordir, Alya. Nega gunohdan bunchalar qo'rqasan?

– Siz ham gunoh qilasizmi?

– Bu dunyoda gunoh qilmaydigan odam bormi? Muhimi, gunoh qilmaslikka astoydil intilish. Haqiqatning asl mohiyati taraqqiyotdir, o'sishdir. Sen kuchingni gunohdan qo'rqishdan ko'ra, o'zingni ijobiy tarafga o'zgartirishga sarflashing kerak.

U boshini quyi solgancha sukutga toladi. Gaplarimni tushunishga urinib, miyasining qayerigadir joylashga urinayotganga o'xshaydi, go'yo. Aytgancha, men ham xuddi shunday qilyapman. Hatto kiyinish ham uni qo'rqitadi. Men ham ularni xotiramni bir chekkasiga yozib qo'yishim kerak. Sochiga be-

zak taqish ham uni qo'rqitadi. Xotiramning u haqdagi bo'limiga ushbu qirralarini ham muhrlab qo'yaman. U ishini bitirdi chog'i, boshini ilkis ko'tarib menga tikildi.

– Bugungi hikoyalarigizni... intiqlik bilan kutyapman...

– Mayli, agar xohlasang, suhbatimizni avval mana shu qizil soch bezagi haqida gapirib berishdan boshlasang.

– Agar yig'lasam-chi?

– Yig'layver!

– Bu xonaga kirgan hamma yig'laydimi?

– Ko'pchilik yig'laydi.

– Keyin o'zingizni qanday his qilasiz?

U yana meni so'roq qilmoqda. Men, odatda, bunday savollarga javob bermaslikning yo'lini topaman, lekin hozir miq etmasdan turolmayman.

– Yig'laganlar o'zgarmoqda. Ba'zida men ham juda ta'sirlanib qolaman va yig'lamaslikning ilojini topolmayman. Lekin shunday paytlar ham bo'ladiki, men ham o'zimni tutolmay qolaman.

– Siz ham yig'laysizmi?

– Ha, bu senga g'alati tuyuldimi?

– Shifokorlar yig'lamaydi... deb o'ylardim, lekin siz boshqalardan farqlisiz... Sizdan buni kutsa bo'ladi.

– Qara-ya, bu borada sen haqsan.

– Stolingizdagi qog'oz sochiqlar qutisi, bular ham yig'laydiganlar uchunmi?

– Ha, ularning nomi «yig'loqi ro'molchalar». Bilasanmi, xonamizgacha choy olib keladigan Nevin bor-ku, o'sha bu qutini shunday nomlaydi.

– Ha-ya, qanday go'zal nom o'ylab topibdi. Hozirdan bir dona olsam bo'ladimi?

– Bemalol. Nega bezovta bo'lasan? Xullas, sen ham boshqalar kabi yig'lay olasan, bundan aslo qo'rqma.

– Balki, siz ham yig'larsiz?

– Men ham yig'layman. Ammo ko'rib turganingdek, bundan senchalik qo'rqmayman.

Qo'limni cho'zib, birdaniga bir nechta qog'oz sochiq olib, oxirgi aytgan so'zlarimni tushunishga urinaman.

Aytganlarim haqiqatdan yiroq. Men, haqiqatan ham, yig'lashdan qo'rqmaymanmi? Agar yig'lashdan qo'rqmaganimda, kim biladi, hozir qanchalar ko'p yig'lagan bo'lardim. Nega odamlar yig'lashdan qo'rqishadi? Atrofdagilarga zaif ko'rinish ularni shunchalik qo'rqitadimi? Menimcha, bunday nochorlikka duch kelishni ularning o'zlari ham menga o'xshab yoqtirishmaydi. Men bu xatoni to'g'rilashim va u bilan o'z his-tuyg'ularimni odilona baham ko'rishim kerak. Alya achchiq bo'lsa-da, haqiqatni sevadi.

– O'ylab qarasam, mening so'nggi so'zlarim haqiqatni aks ettirmasa kerak, – izohlayman unga aybimni tan olib. – Ochig'i men ham yig'lashdan qo'rqaman.

– Qo'rqasizmi? Bilasizmi, sizning halolligingiz... Rostgo'yligingiz... Buning uchun ham ich-ichdan yig'lagim keladi. Inson o'zining zaifligini, ojizligini boshqa bировga ko'rsatishi oson emas.

– To'g'ri aytding, lekin boshqa jihati ham bor, biz buni o'zimizga ham, boshqalarga ham ko'rsatamiz. Demak, menimcha, bu bizning ojizligimiz bilan bog'liq vaziyat. Lekin odam bo'lish sharti shunday! Nima bo'lganda ham, kel, boshingdagi qizil soch bezagi mavzusiga o'taylik. «Otam hadya qilgan» deding, to'g'rimi?

Qo'llari bilan yuzini berkitib, nimadandir xijolat tortgandek bir muddat jimib qoladi. So'ngra qo'llarini pastga tushiradi, boshini quyi egib, ko'zimga tik boqmasdan ming'irlagan ko'yi past ovozda gapira boshlaydi:

– Bu bezak otam bilan ilk uchrashgan kunimizdan esdalik... Otamni birinchi marta ko'rganimda atigi yetti yoshda edim. Men tug'ilganimda u qamoqxonada ekan. Qo'rg'onimiz katta va gavjum edi. O'sha kuni hamma qattiq hayajonda, chunki otam qamoqdan qaytayotgandi. Men otam borligini bilardim va doimo u haqida xayol surardim. Onam menga uning suratlarini ko'rsatdi, lekin biz hech qachon uni ko'rishga bor-

magan edik. Keyin kechqurun otam keldi. U men o'ylagandan ham ko'rkamroq, ko'zga yaqin odam edi. Norg'ul, qoraqosh, qora ko'zli, bug'doyrang, sochlari tim qora, mo'ylovi qalin, so'zlayotganida yonoqlarida kulgichlari chuqurcha hosil qilgan, xuddi artistlarga o'xshardi.

O'sha kuni onam menga qizil ko'ylak kiydirdi. Tirnoqlarim olingan, ozoda, sochlarimga esa qizil tasma taqishgan. Men qattiq hayajonda edim. Nihoyat, meni ham o'sha uyda juda yaxshi ko'radigan va ega chiqadigan kishim bo'lishidan ich-ichdan quvonardim. Nihoyat, boshqa amakivachchalarimga o'xshab kechqurunlari «dadam»ning oldiga yugurib, oyoqlarini quchoqlab olaman, axir... Eshik taqillaganida borib ochmoqchi bo'ldim, ammo meni qo'yib yuborishmadi. Buvim bilan xonadon a'zolari orasida siqilib qoldim.

Amakilarim otam bilan birga kelishgan. Nihoyat, dadam uyning bir burchagidagi kursiga kelib o'tirganida, men xona bo'ylab aylanib yurardim. O'shanda uning ko'zi menga tushdi... «Bu qiz Alyami?» deb so'radi. Ismimni otam qo'ygani. Aniqrog'i, qamoqxonada bir qo'shiqchi bo'lib, u otamning yaqin do'sti ekan. U mening ismimni qo'yibdi... Ismimni qo'ygani bilan otam meni yetti yil davomida ko'rishni xohlamadi. Aynan u istamagani uchunam hech kim uning oldiga olib bormadi...

O'sha paytda u ko'rgan-kechirganlarini aytar ekan, ko'zlarini artishga ilk qog'oz ro'molcha ishga tushadi. Ko'z yoshlarini artib hikoyasini davom ettiradi. Qanday go'zal hikoya qilyapti!

– Otamning ko'zlariga ko'zim tushganida, butun vujudim qaltiray boshladi... xuddiki elektr toki urgandek... Ko'zlari qonga to'la... U shu tobda menga muhabbat bilan emas, qiziqish bilan qarab turardi. Ko'zlarimda odatdagidek qo'rquv zohir edi. «U ham meni sevmasa-ya?» deya qo'rqdim. U qo'lini cho'ntagiga solib, cho'ntagidan mana bu soch bezagini chiqardi. Kimdir meni darrov uning oldiga olib bordi. U kat-takon qo'llari bilan boshimni silab qo'ydi va o'rilgan sochla-

rimni yechdi. Keyin sochlarimga mana bu to'g'nog'ichni taqib qo'ydi. Ochig'i, sochimga taqilgan to'g'nog'ichdan boshimga og'riq kirdi, u soch tolalarimni to'kilishiga sabab bo'ldi. Men bu og'riqlarga qaramasdan otamning qo'llari sochlarimni silagani uchun baxtiyor edim.

Yana bitta qog'oz ro'molcha. Yig'lashga tushdi. Jimgina yig'lardi. Sassiz-sadosiz yig'lardi. Mening ham ko'zlarim beixtiyor yoshga to'ladi. Ha, joni og'rigan bo'lsa-da, otasining qo'li tekkaniga unga xush yoqibdi. Chuqur xo'rsinib, to'xtagan joyidan davom etadi:

– O'sha paytda qo'rg'on mehmonxonasi juda gavjum edi. Uyning barcha a'zolari jamuljam edilar. Mening sahnadagi rolim shu yergacha ekan. Keyin boshqa amakivachchalarim kirib kelishdi va men unutilib ketdim. Otam olib kelgan sovg'alarini navbatma-navbat yig'ilganlarga berib turardi. «Qo'rqishga haqli ekanman», deb o'yladim ichimda. «Demak, otam ham meni yaxshi ko'rmaydi...» U bir erkak... Erkak odamning o'g'li bo'ladi, menga o'xshagan qiz farzandi emas. Onam mendan oldin uch o'g'il ko'rgan, ammo uchovi ham qirq kunlik bo'lmasdan olamdan o'tishgan ekan. Ular polvongina o'g'il bolalar emish. Dadam qamoqqa tushganda onam menga bir-ikki oylik homilador edi. Aniqrog'i, homiladorligini o'zi ham bilmasdi. Keyin men tug'ildim. Sichqondek qop-qora, xunuk bir qiz! Hech kim menga g'amxo'rlik qilmadi. «Bu ham uzoq yashamaydi» deyishibdi, ammo do'mboqqina o'g'illari qazo qilgan joyda, men yashab qolibman. To'rt oylik bo'lganida ismimni qo'yishdi. Demak, mendan qutulolmasliklarini tushunib yetishgan...

– Sen o'zingga ega chiqmasang ishimiz og'ir degani.

Bugungi Turkiyada bu voqealarning sodir bo'lishi qanday og'ir, holbuki, biz o'g'il-qiz o'rtasidagi farq allaqachon yo'qolgan, deb hisoblaymiz va bu muammoni allaqachon tugagan deb o'ylaymiz. Qanchalar yanglishmoqdamiz? Bularning barchasi qaysi shaharda sodir bo'lmoqda, ajabo? Sharqda bo'lish ehtimoli katta. Farzand qiz bo'lib tug'ilgani

uchun rad etilishi yoki qabul qilinmasligi mumkinmi, axir? Biz hammamiz buni orqavarotdan ko'p eshitganmiz, lekin ko'pchiligimiz buni boshdan kechirmaganmiz. Shunday qilib, qiz bo'lding, demak boshdan yutqazding degani. Sen kimlar uchun to'liq yoki maqbul inson emassan. Mukammal emassan. Yaxshi, lekin nimang boshqalardan kam? Aqlingmi, qo'l-oyog'ingmi? Biz hammamiz kimga nima nima yetishmayotganini qisman bilamiz, lekin menimcha, odamlar bu narsa emas, balki boshqa narsaning ortidan ketayotgandek tuyuladi. Bu erkaklarning jamiyatdagi roli bilan bog'liq. Erkaklar jamiyatdagi kuchni ifodalaydi. Ayol – uning zaifligi, tutqunligi, qaramligi. Eh ayollar-a, ayollar-a!!!

– Onam ham meni hech qachon xohlamagan, yaxshi ko'rmagan ham. O'g'li bo'lmagani uchun ham bu uyda yetarli cha ezilar ekan. Balki o'g'illari omon qolishsa, uning uydagi mavqeyi ortsa, hayoti o'zgarishi mumkin edi. Ammo o'g'illari vafot etishdi, bu xunuk qiz esa yashab qoldi... Ustiga-ustak eri qamoqda o'tirganida dunyoga keltirgan shu badbashara qizi tufayli, qancha g'iybat-u mish-mishlar ichida qovrilgandir. «Onasi xushro'y, otasi kelishgan, ammo bu qiz kimga tortdi? der ekan hamma. Aslida, ular aytmoqchi bo'lgan narsa faqat mening xunukligimda emas. Ota-onamga o'xshamasligim muhimmas, onamning otam qamoqdaligida tuqqani, aniqrog'i, meni kimdan tuqqani ularning g'iybatlariga mavzu bo'lgan. Bu mish-mishlar, aminmanki, qamoqdagi otamning ham qulog'iga borib yetgandir... Agar shunday bo'lmasa, shuncha yillar aqalli bir marta bo'lsin, meni va onamni ko'rishni istagan bo'lardi.

– Otang qanday odam edi?

– Ko'rkam, kibor, qimorboz, ichkilikboz, janjalkash bir yigit bo'lgan ekan. Aslida, shu odatlari uchun ham qamalgan.

– U nima ish bilan shug'ullanardi?

– Oilaning katta avtobus kompaniyasi bor edi. To'g'rirog'i, shu kompaniya ota tomondan buvimning oilasiga mansub edi. Buvimning ukalari yo'q edi. Bobom o'sha payt-

larda boshqa mayda ishlar bilan band bo'lgan. Buvinga uylangach, qaynotasiga yordam berish maqsadida ana shu avtovokzalda ishlay boshlagan. Keyin buvim uch o'g'il ko'radi va oila buni katta hayajon hamda ishtiyoq bilan kutib oladi. Nihoyat, sulolaga moliyaviy masalalarni o'z qo'liga oladigan o'g'illarning qo'shilishi barchani xursand qiladi. Otam, o'g'illarning to'ng'ichi, yoshligida maktabni tashlab, otasiga yordam berish uchun avtovokzalga bora boshlagan. Vaqt o'tishi bilan uning ichkilikka, qimor o'ynashga ishtiyoqi paydo bo'ladi. Bobom erta vafot etganida barcha ish dadamning zimmasiga tushadi. O'shanda dadamning oshig'i olchi bo'lib, osgani osgan, kesgani kesgan ekan. U katta kompaniyaning barcha vakolatlariga ega edi. Ular bilan yuzlab odamlar ishlar, otam tez-tez boshqa shaharlarga borishga majbur bo'larkan. Kompaniyaning bosh ofisi allaqachon Istanbulda edi. U onamni ham o'sha yerda uchratgan. O'shanda ikkalasi ham juda yosh ekan. Dadam onamni sevib qoladi va darhol Istanbulga ketishadi. Shuningdek, u oiladan yashirin to'y qiladi. Keyin onamni mana shu ona shaharga olib keladi. Buvimning bundan qattiq jahli chiqadi. Eh, buvimni bilsangiz edi, meni yaxshi tushungan bo'lardingiz. U boshqacha ayol edi. Hamma uni Esma Sulton deb chaqirardi.

– Nega endi Esma Sulton?

– Bilmadim, uni hamma kelinlar, shaharliklar Esma Sulton deyishardi, lekin uni sulton deganlaricha bor edi, chunki uyning qolgan barcha a'zolari uning quli edi. Kelinlar undan so'ramay uyda ish ham qila olmasdi, ovqat pishirilmadilar, uning ko'ziga boqmasdan kelgan mehmonga choy ham uzata olishmasdi. U, hatto bozorga ham o'zi borardi. Hatto to'yga yoki ma'rakalarga borganda har doim ham kelinlarini olib bormasdi.

Endi u hikoya qilarkan, yig'lamasdi. U to'g'ridan-to'g'ri ro'parasida turgan konsol ustidagi yaltiroq hoshiyali oynaga tikilib, go'yo u yerda nima haqida gapirayotganini o'zi ham ko'rayotgandek goh-goh ko'zini qisib, g'o'ldirab qo'yardi.

Qaniydi, har doim shunday ochiq gapirsa. U shunday gapirganda, ovozining ohangi har doimgidek quloqlaringizni tirnamaydi. Bundan tashqari, u gapirayotganda men tomonga hech qachon o'girilmas, o'z navbatida mening ham har doim unga qarashim va uni ko'rishim shart emasdi. Menga shu tarzda gapirishi ancha qulay edi:

– Hatto bir marta yaqin qarindoshining to'yi bo'lgan edi. Menimcha, u juda yaqin qarindoshi bo'lgani uchun... Esma Sulton kelinlarni ham to'yga olib borishga majbur bo'lib qoldi. Kelinlar qaynonasiga sezdirmasdan bir necha kun oldin to'y hozirligini boshlab yuborishdi. Oshxonada doim shu haqda gaplashishardi. Har biri o'z tillalarini, bilaguzuklarini taqib, shkafdagi eng chiroyli ko'ylaklarini kiyib to'yga hayajon bilan o'tlanishadi.

...Men ham umrimda birinchi marta to'yga ketayotgan edim. O'shanda otam qamoqdan endigina chiqqandi. Bizda to'ylar erkak va ayollar uchun alohida o'tkaziladi. Esma Sulton ham o'zini erkak deb biladi. Bizni tashlab, erkaklarnikiga ketdi. Ayollar uchun o'tkaziladigan to'y mehmonlar bilan gavjum edi. Cholg'u asboblari chalinardi, o'rtada ayollar o'ynashardi, bolalar yugurishardi. Men esa qimirlamay onamning yonida o'tirardim...

Turli ohanjamalarga boy va maroqli kechani qiziqish bilan kuzatardim. Amakivachchalarimning hammasi ham juda zamonaviy, po'rim kiyinishgan edi. Menga ham nimadir kiydirishdi, lekin. Nima qilishmasin, men ular kabi olifta bo'lolmasdim. Har doimgidek, Malikaning viqorli yurishlaridan o'tib tusholmasdim.

– Malika kim?

– Mening amakivachcham. O'rtancha kelinning qizi. U mendan uch yosh katta. Judayam chiroyli qiz edi...

Demak, uning uyida juda chiroyli amakivachchasi bor. Balki, u doim o'zini unga qiyoslagan va bu raqobatda mag'lub bo'lishi muqarrarligini his qilib yashagan.

– Uning qizil sochlari beliga tushib turardi. Negadir Esma Sulton unga juda yaxshi munosabatda bo'lar, shu bois u xohlaganini qilardi, hatto ertalab maktabga ketayotganda uning sochlarini ham buvim tarab qo'yardi. O'sha oqshom to'ydagi eng chiroyli libos ham uning egnida edi. Bir payt o'yin boshqaruvchisi biz tomonga yaqinlashdi.

– O'yin boshqaruvchisi kim, nimani anglatadi?

– Bizda to'ylarda xonimlarning o'zlari o'rnidan turib o'ynamaydi. Qo'lida uzun tayoq ko'targan kampir kelin-qizlarni o'ynashga majbur qiladi. Aslida, bu unchalik to'g'ri emas, chunki hamma chiqib o'zini ko'rsatgisi keladi, lekin o'z erki bilan o'rnidan turib o'ynash uyat sanaladi. O'sha ayol onam va boshqa kelinlarni o'yinga majburlagan. Onam o'sha oqshom to'q ko'k ipak baxmal ko'ylak kiygan edi. U sochlarini orqaga tarab, yengil pardozi qilgandi. Mening onam kamdan-kam hollarda yasanardi, unga hamma narsa yarashardi. Boshqa kelinlar ham o'zlariga oz oro bermagandi, qo'llaridan kelganini qilishdi. Taqinchoqlar taqib, rosa bezaklarga ko'milishdi, ammo ular aro yo'lda qoldilar, onamning go'zalligi yonida qolganlar so'lgan guldek edilar.

Biz ularni Malika bilan kuzatib turardik. O'sha oqshom onamning go'zalligidan g'ururlandim. Qolaversa, o'sha sust ayol, burni yerga uzilib tushsa ham egilib olmaydigan mening onam qanchalar qoyilmaqom o'ynay olishi ma'lum bo'ldi. U qo'llarini ko'tarib, gir aylana boshladi, uning nozik harakatlardan hammaning og'zi ochilib qoldi. So'ngra kelinlarning barchasi davraga chiqib, xirom qila boshlaganlarida ittifoqo erkaklar tarafga ketgan Esma Sulton kelib qolib, derazadan ichkariga qaradi. Qarasa, kelinlari o'rtani bermay raqsga tushishmoqda. Bir tasavvur qiling-a, nima bo'lganini. Jazavasi qo'zib ketgan Esma Sulton yulqingancha o'g'illari tomonga qarab chopdi.

– Biroz to'xta, men bir narsani tushunolmadim. Nega Esma Sulton erkaklar tomonida o'tiradi?

– Men sizga u o'zini erkaklar maqomida ko'rishini aytdim-ku. Uni ayollar safiga qo'shishlarini yoqtirmasdi. «Mening ayolligim o'tmishda qoldi, men endi erkakman!» derdi.

Bu Esma Sulton juda g'alati ayol! Men bilganimdek, darhaqiqat, Onado'lida bo'lib o'tadigan to'ylarda katta-kichik, er-xotin deb ajratiladi. Uning erkaklar tomonida o'tirishi esa sira odatiy hol emasdi.

– Nega kelinlar o'ynasa jahli chiqadi?

– Rostini aytsam, faqat onam emas, to'yga kelganlarning hammasi o'ynardi. Lekin Esma Sulton kelinlarning bunchalik ko'ngilxushlik qilayotganiga toqat qilmasdi, asabi o'ynardi. U ularni baxtiga chang solish, g'azablantirish, xafa qilish uchun qo'lidan kelganini qilardi. O'g'illarining oldiga borib: «Xotinlaringga qaranglar, o'rtada likillab raqsga tushishmoqda. Nima qilsangiz qiling», deganida erkaklar tashqariga otilib chiqishdi. To'y egasi yonimizga kelib: «Sizni erkaklar kutmoqda» deganida, biznikilar dovdirab qolishdi. Apil-tapil tashqariga otildik. Erkaklar oldinda, biz orqada ortlaridan yugurgilab uyga keldik. Ularning nimadan jahli chiqqanini hech kim tushunmadi, lekin uyga kelgach, har biri xotiniga qattiq shapaloq tortdi, kaltaklashdi, so'ngra onalari bilan to'yxonaga qaytib ketishdi.

– Sizlarni uyga tashlab, o'zlari to'yga ketishdimi?

– Ha... Esma Sulton bizni tashlab, erkaklar bilan muloqotga kirishdi. Biz, bolalar yig'lab xonamizga chekindik. Ular kayf-u safo qilib uyga kech qaytishdi. Hamma erkaklar sarxush edi. Esma Sultonniku gapirmasa ham bo'ladi, odatdagidek kelinlarni uyiga qamab qo'ygani uchun o'g'illari bilan rosa huzur qilgandi. Esma Sulton ana shunday ayol edi.

– Qiziq ayol ekan. Garchi Onado'lida qaynonalarning so'zi o'tadi deb eshitardim-u, ammo bunchalik bo'lishini kutmagandim. Otang ham Esma Sultondan qo'rqarmidi?

– Otam onasidan hayiqardi, lekin baribir o'zi xohlaganini qilardi. Axir, bundan avval butun kuch-qudrat uning qo'li-da bo'lgan. Lekin onamni uyiga yetaklab kelganida, qiyomat

bo'lgan ekan. Buvim onamni uydan badarg'a qilish uchun qo'lidan kelganini qiladi, ammo uning bu sa'y-harakatlari chippakka chiqadi, natijada Istanbuldan kelgan notanish onamni qabul qilishga majbur bo'ladi. To'y qilishmabdi shundayam. Ammo butun shahar shunday mashhur va badavlat oilaning shonli to'yini kutayotgan bir paytda uyda mavlud o'qib qo'ya qolishadi. Onamga to'y libosi o'rniga Esma Sultonga tegishli libosni kiydiradilar. Lekin onam judayam go'zal edi, hamma onamga maftun bo'lib qoladi. Hatto onamni ko'rish uchun odamlar biznikiga oqib kelisharkan. Buvim mavlud paytida bilaklaridan chiqarib onamga oltita o'rama bilaguzuk taqib qo'yadi.

O'rama bilakuzuklar. Ha, men ularni Alya yonimga kelgan birinchi kuniyoq ikkitasini qo'lida ko'rgandim. Balki u hali ham qo'lidadir, lekin men ularni uzun yengli kiyimlarida ko'rmayapman. Nega ularni taqadi, tavba?

– Buving xohlamasa ham odatan kerak bo'lgan amalini bajaribdi.

– Unday emas. Keyinroq, boshqa o'g'illari uylanganida butun yurti oyoqqa turg'azdi. Shunchaki dovrug'i doston to'ylar, yig'inlarda biznikilar bor taqinchoqlarini taqib yurishadi... Onamning esa sanoqligina o'rama bilaguzuklari boshqalarning yonida qashshoq, ko'rimsiz edi. Hattoki, Parijdan to'y liboslari ham keltirilardi. Aslida, buvim hech kimga ortiqcha himmat ko'rsatmagan bo'lardi, lekin otamdan qo'rqqa-nidan ba'zi ishlarni qilishiga to'g'ri keldi. Onamning qo'lida dadam bilan Istanbuldan sotib olgan yagona toshli olmos uzuk bor edi. Uzukning toshi ko'zga yarq etib tashlanadigan darajada kattaligidan hammaning ko'zi shu uzukda edi.

Oxir-oqibat, ular nima qilishdi bilmayman, o'sha uzuk uyda yo'qoldi.

– Qanday qilib yo'qoladi?

– Bir kuni onam uzukni topa olmadi. Hamma «Qayerga qo'yganingni unutgandirsan», dedi va shu bilan ish yopildi. Lekin onamning buni buvim qilganiga ishonchi komil edi.

- Otang unga boshqa uzuk sotib olmadimi?
 - Yo'q... olmadi. Uning xunuk bir oltin uzugi bor edi. Bori shu.
 - Nega?
 - Sabablari shunchalar ko'pki. Xo'sh, qaysi birini aytay?
- Qolaversa, soatlab gapirsam-da, bu voqea tugamaydi... Meni oxirigacha tinglashingizga ishonchingiz komilmi?
- Ishonchim komil. Sen davom et. Sening hikoyang rosti, unchalik yomon emas.

Alyaning qo'lidagi qog'oz ro'molchalar allaqachon tugagan. U qo'lini cho'zadi va yana bir dasta qog'oz sochiq oladi. Aytgancha, o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'idagi ko'karishlar mening e'tiborimni tortadi. U endi avvalgidek barmog'ini o'ramaydi. Qiziq, bu barmoqqa nima bo'ldi va nega uning dog'i hech qachon ketmaydi? Agar biror narsaga tegdi desam, bu oylar davomida tuzalishi kerak edi. Birinchi kundan boshlab xayolim o'sha barmoqda, lekin haligacha undan bu haqda hech narsa so'ray olmadim. Kiyimlari haqida so'ragan kunim hushidan ketib qolishiga sal qoldi.

Darhaqiqat, u aytadigan gaplarning hammasi ham uni yig'latadigan voqeliklar emas, lekin negadir u so'zini boshlagan paytdan ko'ziga yosh oladi. Bu qizning yig'lashi ham g'alatiroq. Yig'layotganini ko'zlaridan oqayotgan yoshdangina bilish mumkin. Boz ustiga, na ovoz, na xo'rsiniq eshitasiz. Hiqillagan yoki yig'laganda silkinadigan yelka ham yo'q.

- Bugun onam haqida umuman gapirmasam yaxshi bo'lar-di. Boshqa biror kuni sizga batafsil hikoya qilib beraman.

- Bo'ladi, albatta.

- O'tmish meni o'ziga shunchalik tortadiki, ba'zida o'zimni kelajagi yo'q kimsadek his qilaman. Shuning uchun bularni birovlariga hech qachon aytgim kelmasdi... Qanchalik ko'p gapirsam, shunchalik o'tmishga botib ketaman... Lekin hozir ba'zi narsalarni sizga aytmoqchiman... Agar bilsangiz, madad qo'lingizni cho'zib, meni tortib oladigandek his qilyapman...

Ajoyib! Shunday qilib, endi u menga ishonadi va sog'ayishiga ozgina umid bog'lay boshladi. Men buni ijobiy baholab,

tezroq, lekin iloji boricha ehtiyotkorlik bilan qo'limni cho'zim va uni qamalib qolgan qudug'idan tortib olishim kerak.

– Ishon, men ham buni uddalay olishni juda xohlardim.

U o'tmishda katta baxtsizliklarni boshdan kechirganga o'xshaydi, lekin men uni yashashga eng munosiblardan biri deb hisoblayman.

– Rahmat... Onam emas, lekin sizga otam haqida gapirib beraman.

– Ma'qul. Nima uchun otang qamoqda edi?

– O'sha kuni otam yana mast bo'ladi. Avtovokzalda katta janjal chiqadi. Nega janjal chiqqani noma'lum, ammo buvimning taxminiga ko'ra, bunda onamning qo'li bormish.

– Onangning?

– Albatta, to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita. Nufuzli xonim janjal onam tufayli bo'lgan deb o'yarladi.

– Nufuzli xonim kim?

– Kim bo'lardi, buvim, albatta. Onam haqida hamma o'z xayolida turlicha hikoya yozgan edi, chunki uning kelib chiqishining tayini yo'q. Onamning boqadigan oilasi ham, qon-qarindoshlari ham yo'q edi.

Ular Turkiyaga bir necha yil oldin suvning narigi qirg'og'idan ko'chib kelishgan. Onam asli alban edi. Avtovokzalda onam haqida turli mish-mishlar tarqaladi. Otamning bundan jahli chiqib, to'pponchasini chiqarib atrofga tasodifan o'q uzadi. O'sha mushtlashuvda bir kishi halok bo'ladi, yana uch kishi yaralanadi. Aslida, bizning oilamiz juda katta va mustahkam bo'lgan. Agar xohlasalar, otamni bir kun ham qamatib qo'ydirishmasdi, ammo bunday qilishmagan. Chunki o'shangacha oilaning butun boshqaruv kuchi otamning qo'lida bo'lgan. Bu holat, xususan, buvimning ishiga yaramagan, albatta.

Ayniqsa, dadam onamga o'xshagan tagi-tugi notayin ayolni xotinim deya buvimdan ruxsat olmasdan uyga olib keladi. Nufuzli xonim bu vaziyatdan chiqish yo'lini shu taxlit qidirgan bo'lsa ajab emas. Otam o'sha janjalda qotil sifatida hibsga

olinganida, oila bu holatdan foydalanishni eng maqbul yo'l deb bildi. Otam yetti yildan ortiq qamoqda o'tirdi. Bu orada butun kuch buvimning qo'liga o'tdi. Boshqa o'g'illar, amakimlar tabiatan ahmoq va noshud odamlar edi. Esma Sulton ularni o'yinchoqdek o'ynatardi.

– Otang bu holat haqida nima dedi?

– To'g'risi, otam bundan qattiq g'azablangan edi. Qamoqda o'tirganida na buvim, na onam ko'rgani bormagan. Tabiiyki, meni hech kim otamga olib bormadi. Garchi u turmada bo'lsa-da, qamoqxonaga pulni suvdek oqizishdi. Uning xavfsizligi ta'minlandi, u yerda og'a bo'lishini ham hal qilishgan, lekin tashqariga chiqarishmadi. Otam bu vaziyatni anglamaydigan darajada nodon odam emas, lekin jami e'tirozlari ish bermadi. Har safar turli bahonalar topdilar. Nihoyat, otam haqiqatni tan olishga majbur bo'ldi. Qamoqdan chiqdi. U qaytganidan keyin uyimizda katta janjal bo'ldi. Otam hamma chegaralarni buzdi, lekin buvim taslim bo'lmadi. Oxir-oqibat, u ham ba'zi narsalarni qabul qilishga majbur bo'ldi, shuning uchun taslim bo'ldi va buvim bilan yarashdi. Garchi buvim unga boshqalardan farqli munosabatda bo'lsa ham, to'rda yoniga faqat otamni o'tirg'izsa ham, butun kuch baribir buvimning qo'lida qoldi. Lekin bu safar kuch otamdan ketdi. Qolaversa, otam intizom va tartiblarga umuman bo'ysunmaydigan odam edi.

Uning spirtli ichimliklar, ayollar va qimor o'yinlariga su-yagi yo'qligi hammaga ma'lum edi. U hech qachon boshqalar kabi uyga muntazam kelmasdi. Ertalab u yerda, kechqurun bu yerda, degan tamoyil bilan yashaydigan odam edi, jahli chiqqanda ko'zi dunyoni ko'rmasdi. U mas'uliyatni o'z zimmasiga olmasdi, muammoga duch kelishni aslo yoqtirmasdi. Otam qamoqda o'tirganida uning o'rniga kichik amakim tez-tez Istanbulga, kompaniyaning bosh qarorgohiga borardi. Ammo bir necha kundan keyin ishini tugatib, qaytib kelardi. Otamga o'xshab birato'la yo'qolib ketmasdi.

Bu oilada mukammal insonning o'zi yo'q, shekilli! Ota ham mas'uliyatsiz, sarosimali, kalondimog' bir odam. U na ishini, na Istanbuldan olib kelgan xotini va bolasini himoya qilishni eplagan.

- Otangizni yana Istanbulga yuborishmadimi?

- Yuborishgan bo'lsa-da, endi vakolati yo'q edi. U faqat sayrga ketishi mumkin edi.

- O'shanda otangning sen bilan munosabati qanday bo'lgan?

- Qanday bo'lmadi, desangiz to'g'riroq bo'lardi. Aytganimdek, otam darbadar odam edi. U bugungacha nimaga ega chiqibdiki, menga ega chiqsin? Biz uchrashgan birinchi kundan keyin u menga boshqa hech qachon alohida qiziqish va e'tibor ko'rsatmadi. Uyga qachon kelishi aniq ham emasdi. Xohlasam ham uni hech qachon «ota» deb aytolmadim. O'sha gavjum qo'rg'onda menga joy yo'q edi. Iloji boricha ko'zga tashlanmaslik, aylanib yurmaslik mening vazifam edi. Shunchaki mendan so'ragan narsalarini bajarish, ko'p gapirmaslik, oyoq ostida o'ralashmaslik va biror burchakda ko'zga tashlanmasdan yurishga mahkum edim. Yillar shu taxlit o'tib borkan, o'sha voqea sodir bo'ldi.

U yana qaysi voqea haqida gapiryapti, bilolmadim, lekin nima bo'lganini ochiq-oydin tushuntirmaydi. O'ylaymanki, agar bu nima ekanini bilsam, topishmoq yechilgan bo'lardi. Hoynahoy hozir aytib bersa kerak!

- Qanday voqea?

- Boshqa kuni aytib beraman. Endi navbat sizda.

- Nega nuqul yig'lading, Alya?

- Ochig'i, nihoyat, yig'lay oldim, desam to'g'riroq bo'lardi. Hatto yig'lay olish ham men uchun muhim bir qadam. Diydam tosh kabi qotgan, deb o'ylardim, zotan, sizga aytib berganlarimni ilgari hech kimga aytmaganman. Men uchun bular juda sirli va muhim narsalar. Men nega ularni hech kimga aytmadim? Yoki meni tinglaydigan inson yo'qmidi? Buni ham bilmayman. Men uchun o'tmish achchiq qalampirdek. Ko'zimni, qalbimni kuydiradi... Aytmasam ham, o'ylamasam

ham soatlab yig'lay olaman. Ko'zimni kuydiruvchi hid atrofiga tarqalib ketgandek. O'tmishimda yaxshilik yo'q. Nima bo'lganda ham, hozir sizni tinglamoqchiman. Menga ho'kiz haqidagi hikoyani aytib bermoqchi edingiz.

– Mayli, kel, darhol boshlaymiz.

Qaddimni rostlab, ro'paramda turgan ko'zadagi stakanga suv to'ldirib, bir necha qultum ichaman-da so'ng o'rindig'im-ga suyanib gapira boshlayman.

– Bir vaqtlar Afrikada Zosa degan qabila bo'lgan ekan. Bu-
vim bizga aytib bergan ertaklarini «bir bor ekan» deb emas,
«u vaqtda» deya boshlardi. O'sha paytda, bu boshlanish biz
uchun juda tabiiy bo'lardi, endi menimcha, vaqti keldi!

– Shunga qaramay, bu munosib boshlanish.

Uning ko'z yoshlarini artgan qog'oz sochiqlari ro'parasi-
dagi qahva ichiladigan stolchada tog'dek uyulib yotibdi. U
to'xtovsiz yig'ladi! Uning qotib qolgan ko'zlarida taqdirga tan
berish aks etdi. Ammo endi uning nigohlari birdan o'zgaradi.
Yangi hikoyani tinglash unga doridek ta'sir qiladi. O'tirgan jo-
yini tartibga keltirdi, nigohi yumshab, yana iyagini qo'llariga
tirab, menga qiziqib qaraydi.

– 1856-yilda Afrikaning janubidagi Zosa qabilasida shun-
day voqealar yuz berdiki, bu xayoliy ertak emas, balki bo'lib
o'tgan tarix ekaniga ishonish qiyin. O'sha yili ocharchilik keng
tarqalgan Afrikada ikki opa-singil yashardi va har kuni erta-
lab ular yetaklashib, ekin ekilgan dalalaridagi qarg'alarni qu-
vish uchun ketishadi. Aprel oyi, kunlarning birida ularni yana
Gxara daryosi yaqinidagi dalalariga qarg'alarni quvish uchun
yuborishdi.

Qaytishda qizlarning kattasi daryo bo'yida suv ichib o'tir-
ganida yonlarida ikkita sharpa paydo bo'lib, ular orqali qabi-
laga xabar yetkazganini aytadi. Xabarga ko'ra, tez orada bu-
yuk «tirilish» sodir bo'larmish. Biroq buning amalga oshishi
uchun xalq qo'lidagi barcha sigir, ho'kiz va qo'ylarni so'yib,
dalalarida yetishtirilgan barcha ekinlarni yoqib yuborishla-

ri kerak edi. Bu mo'jiza sodir bo'lgandan keyin hech kimning ovqatga ehtiyoji qolmasmish.

– Yaxshi, lekin hamma narsani yoqib yuborishsa, qanday qilib kun kechirishadi?

Bu qizning ruhi, xuddi ovozi kabi, hali ham bolalikning ko'chalarida qolib ketgan. Go'yoki u yerda qayergadir tiqilib qolgandek. Hikoyalarimni tinglarkan, uning qarori, nigohi va berayotgan savollari menga doim yetti-sakkiz yoshli qizchani eslatadi.

– Avvaliga hamma qizlarni masxara qilishdi va bu ertakka hech kim ishonmadi, lekin qizlar har safar daryo bo'yiga borganlarida bir xil gaplarni aytishda davom etishdi. Hech kim ishonmaganini ko'rgan qizlar bu gal arvohlar amakilarini o'z-lari bilan olib kelishlarini xohlashayotganini aytishdi. Ertasi kuni ular amakilari bilan ketishdi. Amaki avvaliga hech narsani ko'rmadi, lekin katta qiz o'sha paytda arvohlar ular bilan birga ekanini ta'kidlab, ularni chaqirishda davom etarkan, ko'rmasa ham allaqanday ovozlarni eshita boshladi. Go'yoki, odamlar: «Chorvalaringizni, ho'kizlaringizni o'ldiring, g'al-langizni yoqib yuboring, boshqa hech qachon ekmang», deyishyapti. Vaholanki, Afrikada juda mashhur maqolda shunday deyilgan: «Qoramol nasldir, u o'lsa irq ham o'ladi».

– Amaki bu ertakka ishondimi?.. Boz ustiga, arvohlarni ham ko'rmaydi-ku.

– Amaki bu xabarga to'rt qo'li bilan bog'lanib, darhol qabila boshlig'i Sarilig'a yetkazadi.

– Amaki ham g'alati ekan!

– To'g'ri aytding, amaki o'zi g'alati odam edi. U bu voqea-dan birmuncha vaqt oldin nasroniylikni qabul qilgan va hatto nasroniylarning eng buyuk payg'ambari bo'lishni orzu qilgan. Aytmoqchimanki, uning ruhiy salomatligi unchalik yaxshi emasdi. Payg'ambar bo'la olmasligini anglagach, o'z qabilasiga qaytdi. Bu voqea bilan amaki osmondan izlagan narsasini topdi go'yo, payg'ambar bo'la olmadi, balki o'z qabilasiga ulug' xabar yetkazish baxtiga muyassar bo'ldi. Ishonchliroq

bo'lishi uchun u avvalo, o'z ho'kizlarini so'yib, g'allasini yoqib yubordi va atrofdagilarni ham shunday qilishga da'vat qildi. Qo'ni-qo'shnilar birin-ketin uning izidan borib, xuddi shunday qila boshlashdi. Qabila boshlig'i avvaliga ishongisi kelmasdi, lekin hamma kabi o'zi ham ko'p qiynalib, o'ziga suyanchiq izlab yurdi. Qolaversa, qizlar aytgan hikoya kundan kunga shakllanib borar, har kuni yangi tafsilot qo'shilardi.

– Boshliqning nima dardi bor? Nima uchun o'ziga suyanchiq izlaydi?

– Afrikaning ma'lum qismi o'sha yillarda inglizlar nazoratida edi, inglizlar va zosalilar o'rtasida shiddatli va qonli urushlar bo'lib, mahalliy aholi shafqatsizlarcha o'ldirilgan. Shuning uchun qabila boshlig'i Sarili inglizlarni yomon ko'rar, lekin ularni o'z yerlaridan quvib chiqarishga qurbi yetmasdi. Ushbu afsona paydo bo'lishidan bir yil oldin, mashhur ingliz qo'mondoni Qrim urushida ruslar tomonidan o'ldirilgan. Zosa aholisi bu xabarni eshitib, bayram qildi. Bu qo'mondon o'z davrida ko'plab mahalliy aholini vahshiylarcha o'ldirgani uchun ham allaqachon xalqning g'azabiga uchragandi. O'sha paytda ham mahalliy aholi inglizlarni mag'lub etgan ruslarga katta hayratda qaragan va ular ruslar bir kuni Afrikaga kelib, ularni inglizlardan qutqarib qolishlarini orzu qilganlar. Bu afsona ham aynan ularning ushbu orzulari ustiga-ustak bo'libdi.

O'zlari, hatto yalang'och kezarkan, inglizlarning hech o'zgartirmasdan va yuvmasdan kiyadigan askarlik kiyimidan g'azablanib, kiyib olgan harbiy kiyimlaridan naqadar yomon hid kelayotganini o'ylagan qabila boshlig'i Sarili ham Buyuk kun kelganda inglizlardan qutulishiga ishongan. O'sha paytda mahalliy aholi yalang'och tanasining yuqori qismini qizil loy bilan bo'yashgan. Axir, qizlar ko'rgan sharpalar harbiy kiyimdagi qora tanli ruslar deb talqin qilingan.

– Nega qora tanli? Ruslar qora tanli emas-ku...

Qarang, qanday sergak! Undan hech narsa qochib qutula olmaydi. Ba'zan aql-hushi joyida, ayniqsa, xotirjam bo'lgani-

da, undan ko'plab sog'lom fikrlar olaman. Xususan, men aytayotgan hikoyalar unga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadigan ko'rinadi. Bunday paytlarda, hatto yuz ifodasi ham o'zgarib, yumshab ketadi. Lekin ba'zida undan qutulolmagan g'azabi g'alaba qozonadi va u o'sha g'azabni nafrat bilan ifodalash, boshqa odamni xafa qilish va ranjitish yo'lini qidiradi.

– Sendan hech narsa qochib qutulolmaydi, Alya! Darhaqiqat, qizlar harbiy kiyimda ko'rgan bu erkaklar jangda halok bo'lgan Zosa jangchilarining arvohlari edi. Afsonaga ko'ra, odamlar dengizni ko'rish uchun asta-sekin tepaliklarga chiqishni boshladilar.

– Dengizdan nimani qidirmoqdalar?

– Ular qutqarish uchun keladigan rus kemalarini kutishgan. Bu orada inglizlarning u yerdagi vakili nima bo'lganini tushuna olmadi va buni Buyuk Britaniya hokimiyatiga qarshi qo'zg'olon sifatida qabul qildi. Darhol Sarili boshlig'iga tahdidli xabar yuborishdi. Ular voqealarni o'zlari to'xtatmasalar, buni ingliz askarlari hal qiladi va bundan xalq juda ko'p jabr ko'radi, deb yozishgan. Bu xabar boshliqning jahlini chiqardi va u qizlar arvohlarni birinchi marta ko'rgan joyga borib, qaytib ketayotib, o'sha yerda vafot etgan o'g'lini ko'rganini, unga makkajo'xori, pivo taklif qilishganini tushuntira boshladi.

Hamma mol so'yib, g'alla nobud bo'lmaguncha, bashorat amalga oshmaydi, degan mish-mish tarqaldi. Endi hamma odamlar ho'kiz, qo'y va echkilarini vahima qilib so'yib, qolgan donlarini yoqib yuborishdi. Ijtimoiy telbalik avjiga chiqqanida, qizlarning amakisi ozodlik kunini belgilab, iyul oyining oxirida, to'lin oyda tirilish bo'lishini e'lon qildi. Sana yaqinlashganda, hayajon kuchayib ketdi va barcha qabiladoshlar erta tongda tepaliklarga chiqib, ularni qutqarish uchun keladigan sirli odamlarni kuta boshladilar. Kechgacha umid bilan ufqqa qarashdi, na biron keldi, na ketdi. Bu katta umidsizlik edi, ammo yechim topildi. Tadbir o'ldirilgan qoramollar soni yetarli emasligi haqidagi bayonotlar bilan yakunlanishiga harakat qilindi.

O'sha yilning avgust oyi, peshindan keyin havo tumanli edi. Odamlar buni tirilishning xabarchisi sifatida qabul qildilar va o'z uylariga qamalib, yana nima bo'lishini kuta boshladilar, lekin yana hech narsa sodir bo'lmadi.

– Qanday umidsizlik!.. Ozodlik kuni deganda nimani orzu qilishardi?

Ko'ngilsizlik, u eng yaxshi biladigan his-tuyg'ulardan biridir. Hatto qadimgi hikoyalardagi odamlarning umidsizliklari ham unga chuqur ta'sir qilishi mumkin. O'ylaymanki, kim hayotidan mamnun bo'lsa-yu, lekin inson o'z xohish-istaklaridan birortasini ham amalga oshira olmay, ko'ngli qolib ketsa, qanday qilib hayotga mahkam tutina olsin?

– Najot kunida osmondan ikki quyosh ko'tariladi, to'qnashardi, go'yo.

Shundan so'ng barcha inglizlar dengiz tubiga sudralib, dengiz tubiga tusharmishlar. Mana, shayton ularga qarshi chiqadi va u inglizlardan ham, barcha chaqiriqlarga qaramay chorvasini so'ymagan Zosa xalqidan ham o'ch oladi. Keyin yangi quyosh chiqqunga qadar dunyo zulmat qa'riga botib ketarmish. Quyosh yana ko'tarilgach, o'liklar tiriladi, ho'kiz terisidan yasalgan qalqonlarning ovozi birlashib, momaqal-diroqqa aylanar, keyin va'da qilingan ho'kizlar katta suruvlarda paydo bo'lardi. Hamma dalalar mo'l hosil beradi, kasallar tuzalib ketadi, cho'loqlar yuradi, ko'rlar ko'radi, keksalar yosh bo'ladi, endi hech kim ishlamaydi. Yovuzlik tugaydi, yo ilon chaqishi tufayli, yoki dengizga cho'kib o'ladi. Qanday qilib odamlarning orzulari har bir davrda bir xil bo'ladi, shu to'g'rimi?

– Odamlar shunchalik ahmoqmi?

– Bu ahmoqlik emas. Ishonchim komilki, o'sha paytda Afrikada yashovchi zosanlarda hech qanday aql-zakovat muammosi bo'lmagan, lekin ularda umidsizlik va jaholat kuchli edi. Ularning umidlari so'ndi, chiqish yo'lini izlashdi. Bu muhitda yevropaliklarga xuddi Tutanxamonning la'nati sotilgani kabi yana bir afsona sotilgan.

– Lekin boshqa hech kim ularga bu yomonlikni qilmagan, ular buni o'zlari qilishgan.

– To'g'ri. Quduqqa telba tosh tashladi, uni hech kim tortib olmadi, degan gap bor, aynan shunday bo'lgan. Hikoya to'liq fojia bilan tugaydi. Odamlar ochlikdan teri va ustixonga aylandilar. Farzandlarini boqolmaslik iztirobidan bukilgan onalar yotog'iga mixlandi. Eng avvalo, qishloqning qo'ylari, mushuklari va itlari o'ldi. Qarindoshlari boshlariga yig'ildi. Keyin birin-sirin chaqaloqlar, bolalar, onalar va otalar o'la boshladi. Buni eshitish qanchalar ayanchli.

Hozir unga tegsam, yig'lab yuboradi. Keyin shoshqaloqlik va jahl bilan ovozini biroz ko'tarib so'raydi:

– Bu hikoyalarni o'ylab topgan qizlar va ularning amakilari-chi, ularga nima bo'lgan?

– O'lganlar orasida ular ham bo'lgan, ko'rib turganingdek, voqea bexosdan sodir bo'lgan. Xato bor, lekin bu xatoni tuzatishga hech kim e'tibor qaratmadi. «Mol nasldir, nasl o'lsa irq o'ladi», degan maqol shu tariqa haqiqatga aylandi. Umidsizlik ularga hamma narsani unuttirdi. Keyinchalik tarix bu voqeani «Tarixdagi e'tiqodning eng buyuk namoyishlaridan biri» yoki «Tantanali ommaviy o'z joniga qasd qilish», deb talqin qildi.

– E'tiqod deganda, dinning bir turi... iymonning bir turi haqida gapiryapsiz.

– Bu to'liq ishonch! Shunday qilib, ular oxirigacha ishonishdi.

– E'tiqod yoki iymon keltirish ba'zan qanchalar xavfli. Xafa bo'lishlik kabi ahmoqona e'tiqod ham noto'g'ri. U menga kelgan birinchi kunlaridayoq Xudodan xafa bo'lganini aytgandi. Balki shu masalalar haqida batafsil gapiradigan bo'lsak, kun kelib bu norozilik barham topar. Xudodan xafa bo'lish, aslida o'zidan xafa bo'lishni anglatadi. Bu umidsizlik, baxtsizlik, nochorlikni anglatadi.

– Xudodan xafa bo'lish, o'zidan xafa bo'lish demakdir, Alya. Kel, bir kun shu haqda gaplashaylik.

– Yaxshi. Keyin nima bo'ldi?

– Oziq-ovqat izlab o'z yerlarini tark etgan Zosa aholisi bo'sh yerlarini yevropaliklar bosib olganini bilib, qaytib keldi. Shunday qilib, Zosaning bechora xalqi bu ijtimoiy telbalikdan keyin ham jonini, ham molini yo'qotdi. Haqiqiy qiyomat o'sha kun ekanini tushunishsa ham juda kech edi.

– Boshliq ham o'lganmi?

– Nodon Sarili qolganlari bilan birga inglizlar unga berib yuborgan daryoning narigi tomonidagi bir hovuch taqir yerlar bilan qolishga majbur bo'ldi.

– Bu tragikomik voqea... Kulishni yoki yig'lashni bilolmay-siz. Aqlli odamning bunday bema'ni gaplarga ishonishi qiyin.

– Ha, lekin agar sharoitlar allaqachon yuzaga kelgan bo'lsa, natija muqarrar bo'lishi mumkin. Jamoaviy telbalik har doim individual telbalikdan ko'ra xavfliroqdir, chunki u yuqumli va odamdan odamga qarab rivojlanadi va o'zgaradi. Har bir inson o'zidan nimadir qo'shadi va birmuncha vaqt o'tgach, u jamiyat ehtiyojlariga ko'ra butunlay boshqacha shaklga ega bo'ladi. Bu mutatsiyaga uchragan mikroba o'xshaydi!

– Ayniqsa, bolalarga achinasan kishi. Qanday ota-onadan tug'ilishi ham nechog'li muhim! Qanchalar haqiqat! Insonning qanday ota-onadan tug'ilishi inson hayotining asosiy yo'nalishlarini, ya'ni uning taqdirini belgilaydi.

– Afsuski, shunday. Ular allaqachon o'zlarining kalta aqlariga ega va ota-onalari ularning oziq-ovqat manbayi bo'lgan sigir va ho'kizlarni so'yib, och qoldiradilar. Bu bolalarning haqiqatni ko'rishi, bilishi, nima uchun och qolganini, nega o'limga mahkum etilganini tushunishlarining iloji yo'q edi. Agar u o'sha bolalardan omon qolganida edi, kim biladi, uning ruhiy salomatligi qanday yomonlashadi va odamlar uni aqlidan ozgan deb aytishlari mumkin edi.

– Uni hech kim tushuna olmasdi.

– Balki tushunadigan odam bo'larmidi, lekin bola shunchalik amin bo'lardiki, uni tushunib bo'lmadi, yordamni osonlikcha qabul qilmas, odamlardan qochib ketardi.

– U qocharmidi?

– Bilmadim, bu haqda sen nima deysan?

– Ha, u qochardi hamda qochmaslik uchun qo'lidan kelganini qilardi.

Boshidan beri davolanishi uning shifokori uchun juda qiyin kechayotgan bo'lsa-da, Alya haqiqatni aytdi. Aslida, u ham qochib ketmaslik uchun bor kuchini sarflayapti.

– Demak, u qo'lidan kelganini qiladi. Ha, tushunaman.

– Ishoning, men bu yerdan qochmaslik uchun qo'limdan kelganini qilyapman. Ishonasizmi?

– Men sening kurashchanligingni bilaman, lekin menga ishon, tez orada ikkalamiz ham ko'zlagan maqsadimizdan ortig'iga erishamiz. Kel, bugun dori masalasi haqida ham gaplashib olaylik.

– Qanday dori?

– Oldin borgan tabiblar ham dori-darmon berishgan, ammo qabul qilmading. Men ham dori tavsiya qilishga shoshilmadim, lekin menimcha, endi kechiktirmaganimiz ma'qul.

– Dori ichadigan darajada kasalmanmi?

– Noto'g'ri savol! Psixiatriya faqat o'ta og'ir bemorlarga dori bermaydi. Biz, hatto yengil ruhiy tushkunlikda ham dorilarni iste'mol qilishimiz mumkin. Gripp kasalligida ham ba'zan antibiotiklardan foydalanishga to'g'ri keladi. Bizda ham shunday. Aslida, men dorini, asosan seni himoya qilish uchun ishlatmoqchiman.

– Nimadan himoya qilasiz?

– Yana boshqa jiddiy kasalliklardan. Preparatning dozasi-ni sen belgilay qol. Men buni hozir senga yozib beraman, juda kichik dozalardan boshla. Men seni uyqusizlik va holsizlik yengishini xohlamayman. Vaqt o'tishi bilan o'zingga g'amxo'rlik qilib, dozani oshir. Sen bilan tez-tez uchrashib turamiz. Agar shikoyating bo'lsa, biz kerakli muolajani qilamiz.

U menga mavhum qarashlar qiladi. Bilaman, u dorilarni iste'mol qilishni istamaydi, u bundan qo'rqadi, lekin ichishga majbur.

– Bilasiz-ku, men ishlayman, ishim bor, o'qishim bor. Bu dorilar...

– Men hech qanday e'tiroz bildirishni xohlamayman. Sening sharoitingni juda yaxshi bilaman va shuning uchun o'zing dozalarni orttirib boraverasan. Kelishdikmi?

– Xo'p, roziman, – deydi eshitilar-eshitilmas.

Uning ovozi zo'rg'a eshitaman. Bu dorini o'zi xohlamasa ham ichadi. Men unga allaqachon bitta dori yozib berganman.

– Erkaklar tomonidan kaltaklanmaysan, shundaymi?

– Meni kaltaklashmaydi... Hozir hayotimda hech kim yo'q.

– Nega?

– Chunki bir kun kelib, bu yerga har joyim ko'kargan holda kelsam, sizdan ham kaltak yeydigandek tuyuladi.

Men kulaman. Bu so'zlar bilan uning davolanishga qanchalik ahamiyat berayotgani anglashiladi. Hayotida yuz bera-yotgan ba'zi yomon narsalarni to'xtata oldi. Bundan tashqari, men nihoyat, u bilan birinchi marta to'g'ridan-to'g'ri munosabat o'rnatishga muvaffaq bo'ldim. Shunday qilib, bu qiz bolaligida Afrikada sodir bo'lgan telbalikka o'xshash narsani boshdan kechirdi. «Ba'zida kattalar xato qilishlari mumkin», deydi u. Kattalar deganda, faqat onasi va otasini nazarda tutadi. Ularning xato qilganliklarini anglashi ham aslida, sog'lom fikrlashidan dalolat. Bugun bu soch bezagini taqishi menimcha, u uchun chinakam g'alabadir. Uning o'zi buni tushunmasligiga ishonchim komil. Bu qizni tushunish men o'ylagandan ham qiyinroq bo'ladi, shekilli. Agar u haq bo'lsa-chi, harchand harakat qilmayin, uni tushunolmasam-chi! Biroq men ilgari bu imkoniyatga hech qachon e'tibor bermagan edim. Uning nozik ovozi bilan o'ylarimdan qutulib, e'tiborimni yana ayni damga qaratmoqchiman.

– Yana hikoya bormi?

– Nega bo'lmas ekan? Mening hikoyalaram juda ko'p!

– Boshqalari ham shunaqa ta'sirchanmi?

– Ha, ta'sirchan. Bu hikoyalarda insonlar bugungacha qayerdan qanday o'tganini, qanday azob-uqubatlarni boshidan kechirganini, vaqti-vaqti bilan qilingan ba'zi nohaqliklarning badalini o'zlari bilmagan holda to'laganlarini ko'ramiz. Tarix

kitoblarida bu muhim tafsilotlar yozilmaydi. Tarix bizga na-
faqat odamlar haqida, balki insonlarning kechinmalari na-
tijasi bo'lgan buyuk voqealarni ham birma-bir aytib beradi.
O'zimizni ham, boshqalarni ham tushunishimiz uchun bu
ma'lumotlar hammamizga zarurdir.

– Malika haqida ham hikoya qilib berasizmi?

– Sen malika hikoyasini xohlaysanmi?

– Ha, malika haqidagi hikoyalarni yaxshi ko'raman.

– Mayli, unda ayta qolay. Yaqin tarixdagi hikoyalarga nima
deysan? Masalan, malika Sureyya yoki malika Diana! Qaysi
biri haqidagi hikoyani ko'proq eshitishni xohlarding?

Uning yuzi bir zumda yorishadi. Nimaga buncha xursand
bo'ldiykin?

– Senga qaysinisi ko'proq yoqadi?

– Onamning ismi Sureyya edi. Bu ikki malikaning xotima-
sida mahzunlik bor.

– Ha, ularning ikkalasi haqidagi hikoyada ham qayg'u bor.

– Lekin malikalar hamisha g'alaba qozonadi. Mag'lubiyat-
ga uchraydiganlar ularning joriyalaridir.

– Nega bunday deding?

– Chunki shunday.

– Xohlasang, malika hikoyasini sen aytib ber.

– Yo'q, istamayman. Mag'lub malikalarni tinglash juda yoqim-
li bo'ladi. Keling, siz ayting-da, tinglaylik...

– Bugun emas. Vaqtimiz tugadi. Va bu qanday muomala
bo'ldi? Ayting-da, tinglaylik! Men bilan madaniy tarzda hur-
mat bilan gaplashishing kerak.

– Ha, uzr. Malika deganingizga dovdirab qolibman. Kechi-
rasiz. Qachon aytib berasiz unda?

– Keyingi safar...

– Mayli... Unda men ham keta qolay.

U bu malika mavzusiga yopishib olgan! O'zidan uch yosh
katta amakivachchasini tilga olib, uni «malika» deb atagan-
di. Hoynahoy, bu ta'qib unga bog'liq bo'lsa kerak... Biroz kes-

kin gaplashsang, u birdan o'zgaradi va odatdagidek kechirim so'ray boshlaydi.

Agar men uni to'xtatmasam, u butun g'azabini mening ustimga to'kadi, ehtimol, bu bizning munosabatlarimizga barham berar. U o'rnidan turib, oldinga egilganча qo'limni hurmat bilan silkiydi va xonadan shoshilib chiqib ketadi. Men orqasidan qarab qolaman. Ey Xudoyim, nega bu qiz bunchalik xunuk! Axir, xunukning taqdiri chiroyli bo'lmasmidi? Menimcha, uning «nufuzli xonim»i bilan munosabatlarida jiddiy muammolar bor. Shuning uchun Esma Sulton hokimiyat vakili bo'lgan, endi esa men uning vakiliman. Balki, u uzoq vaqt davomida men bilan muvozanatli va muntazam munosabatlar o'rnatolmaganining sabablaridan biri shudir.

Esma Sulton kibor ko'rinishining o'ziga xosligi bilan bog'liq muammolarga duchor bo'lgan, hukmronlik qiladigan, imkoni bo'lsa dunyoni nazorat qilishni xohlaydigan, o'z vaqtida onasiga ham, Alyaga ham dushmanlik his qilgan yovuz ayol. Ko'pincha Alya o'ziga Esma Sultonning ko'zlari bilan qaraydi. Garchi Esma Sultonga nisbatan bo'lgan nafrat va gina-kudurati vaqti-vaqti bilan menga qaratilsa-da, ongidagi bu o'xshashlik kelgusida davolanishiga juda ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Men uni Esma Sulton o'rniga qadriyatlarim bilan o'zini anglashiga majbur qilishim kerak. Shunday qilib, yillar bosimi tufayli shakllangan kuchli mutelik tuyg'ulari uni asta-sekin tark etishi mumkin. Uning nutqidagi muammolar davom etayotgan bo'lsa-da, so'zlaganida hech qanday uzilish yo'q, aslida, u nihoyatda sokin va tartibli. Garchi u vaqti-vaqti bilan tebranib tursa-da, ego kuchi sinmagan. U foydalanadigan himoya mexanizmlari hozircha patologik o'lchamlarga kirmaydi. Shizofreniya ehtimoli asta-sekin zaiflashsa-da, chegara chizig'i ehtimoli birinchi o'ringa chiqadi.



Hech narsa uzoq davom etmaydi, na qayg'u va na quvonch. Biz yashashda davom etaveramiz.

Aydin vafot etgan yili o'g'il nabira ko'rdik. Hammamiz tug'ruqxona eshigi oldida sabrsizlik bilan kutardik. Nihoyat, ular bizning quchog'imizga sariq sochli, ko'k ko'zli bobosi kabi kelishgan chaqaloqni tutqazishdi. Quvonchdan ichimizga sig'may ketdik. Hasan tug'ilishidan bir necha yil avval otam vafot etgandi. Aydin mendan so'rab ham o'tirmay Hasanga otamning ismini qo'yib tug'ilganlik guvohnomasini onamning qo'lga shaxsan o'zi tutqazdi. Onamning o'sha kuni xursandchilikdan boshi osmonga yetdi va uzoq yig'ladi, Aydinning bu ishini umr bo'yi unutmadi.

Endi esa suyuqli kuyovim Tolga ham xuddi shunday qildi, chaqaloqning ismini Aydin deb qo'ydi. Bu ham baxtning o'zgacha bir ko'rinishi. Bu boshqacha bir tuyg'u. Endi u meni «buvi» deb chaqiradi. Xuddi bobosi kabi erkatoiy va shirin! Men, odatda, dam olish kunlarini ular bilan o'tkazaman. Aniqrog'i, Hasan ham, men ham, Zaynab ham kichkina Aydinni ko'rmasdan turolmaymiz. Zaynab hozir ancha ulg'aygan. Bu orada badiiy gimnastika bo'yicha medallarni qo'lga kiritib, bizni quvontiryapti, lekin qizim bechoraga qiyin, chunki kichkina Aydin uning etagidan qolmaydi. «Neyno, neyno» deb doim u bilan birga bo'lishni, o'ynashni xohlaydi. U singlisini juda yaxshi ko'radi.

Madalyon klinikasida ishlar har doimgidek qizg'in. Bir tomondan, bemorlar, bir tomondan, klinikaning boshqa ishlari bilan yugurib, uyga qaytishim sakkizga boradi. Mana, Madal-

yonda, yana bir kun ham nihoyalay deb qoldi. Birozdan so'ng oxirgi bemorim kiradi. Charchadim. Derazamdan quyosh botib kech kirishini kuzataman.

Nihoyat, yoz ham keldi, kunlar uzayib boryapti. Osmonda mayda-mayda bulutlar suzib yuradi. Bulutlarning qirralari quyosh nurlaridan oltindek porlaydi. Menga bu uchqun juda yoqadi, unga qaraganimda o'zimni yengil his qilaman. Lekin bu zavq uzoqqa cho'zilmaydi, telefon jiringlaydi.

– Alyani ichkariga kirita olamizmi? – deb so'raydi Tuna.

– Yaxshi, kirit, – deyman.

Hali joyimga o'tirib ulgurmasimdan Alya boshini quyi sol-gancha kirib keladi. Odatdagidek qo'l uchi bilan qo'limni siqib ko'rishadi va o'tiradi. Uning qo'limga tegishi endi meni avval-gidek seskantirmaydi. O'tgan safar u o'zi bilan bog'liq talay-gina narsalarni aytib bergandi, lekin bugun yana bir ahvolda, kayfiyati ham yo'q. Nima bo'ldi ekan-a?

– Xush kelibsan Alya!

– Xush ko'rdik.

– Nima bo'ldi, yana qovog'ing osiq?

– Yo'q, unday emas, shunchaki biroz boshim qotgan, shu xolos.

– Dori ichishni boshladingmi?

– Ha, yotishdan avval dorining chorak qismini ichyapman, xolos.

– Doridan shikoyating bormi?

– Hozircha yo'q.

– Unday bo'lsa, bugundan boshlab yarimta ich.

– Mayli.

Tushunarli, yana gapirmaydi. Izquvardek gapirtirish yo'li-ni topishim kerak. Bugun u bilan yaqinroqdan munosabat qilgim kelyapti. Ehtimol, unga ham aynan mana shu kerakdir.

– Alya o'tgan safar yashagan uyingni shunday go'zal tasvir-lab bergandingki, go'yo o'zimni o'sha uyda yashagandek his qildim. Hatto qo'rg'onni tasavvur ham qildim.

– Qo'rg'onni?

– Ha qo'rg'onni. Men uni bir qavatli, har tomoni bog' bilan o'ralgan katta uy deb o'yladim.

– Yo'q unday emas. Bizniki ikki qavatli hashamatli qo'rg'on edi. Bog' ichida ekani rost. Uyning atrofi bog' bilan o'ralgandi. Orqa hovlida katta hovuz bor edi. Favvoralardan doim suvlar otilib turardi. Negadir favvoralardan keladigan suvning sharillagan ovozi menga yoqardi. Odatda, men doim oshxonada o'tirardim. Oshxona eshigi orqa hovliga qaragandi....

Deraza oldida yumshoq divan turardi, u bo'sh bo'lsa, cho'kkalab o'tirardim-da. Boshimni oynaga suyagancha favvoraning ovozini tinglardim. U uyda mening yagona zavq oladigan narsam shu edi! Odatda, oshxonamiz ko'p ham bo'sh bo'lmasdi. U yerga xizmatchilar, kelinlar, bolalar kirib-chiqib yurishardi. Katta bo'lgani uchun u yerga kirib tamaddi ham qilishardi. Kechgacha o'choqda nimalardir biqir-biqir qaynardi. Shuncha odamga ovqat yetkazish osonmi? Shuning uchun derazalar doim bug'lanar, hech kim yo'q payti deraza oynalariga barmog'im bilan rasm chizardim. Malika qog'ozlarga chizardi, men esa derazalarga chizardim rasmlarni.

– Alya u yerga nimalarni chizarding?

– Men go'zal ayollarni chizardim. Qirraburun, oppoq, ko'zlari shahlodek go'zal ayollar. Lekin ularni bemalol chizolmasdim... Har lahza qo'lga tushishdan qo'rqardim.

Shunday qilib, u go'zal ayollarning rasmlarini chizardi. Demak go'zallik bu qizning hayotidagi muhim tushuncha. Onasining go'zalligi tillarda doston-u, qizi nega bu qadar xunuk. Qizlar tug'ilgan kunidanoq onalaridan andoza olishadi. Bola o'sib ulg'aygan sayin bu munosabatlarga asta-sekin raqobat aralashadi. Yosh qiz bu raqobatda o'zib ketishni xohlaydi. Shu tarzda, u hayotga xavfsizroq tarafdin kirib bormoqchi bo'ladi. Bu borada Alyadagi vaziyat juda yomon. U o'rnak olgan ona o'ta g'aroyib, ammo g'aroyibli bilan birga uning noyob go'zalligi ham bor. U qiziga onadan kutiladigan mehr, shafqat va e'tiborni ko'rsatmagan. Bolaligimda bug'langan oynaga rasm chizishni men ham yaxshi ko'rardim, lekin bu rasmlarni

qo'lga tushishdan qo'rqmay, shirin xayollarga berilib, zavq bilan chizardim. Demak, bu qiz, hatto oynaga rasm chizishdan ham qo'rqqan!

– Nega qo'rqarding?

– Bizning uyda mening qilgan har bir ishim ayb sanalardi. Boshqa amakivachchalarim o'sha uyning farzandlari bo'lgani uchun ularga hamma narsa mumkin, xatolari ham kechirilardi. Biroq menga kelganda bu haqda gap ham bo'lishi mumkin emasdi. Hatto qo'rg'ondagi xizmatchilar ham menga bema'lol baqira olar va qo'limdan sudrab uloqtirishardi ham. Bunday hollarda kim haq, kim nohaq surishtirib ham o'tirilmas: «Yana nima qildi bu maraz qiz?» – deb bir-birlaridan so'rashardi. Lekin hozir o'ylab qarasam, aslida, qanday yuvosh qiz bo'lgan ekanman. Yo'q buni yuvosh deb bo'lmaydi. Uyatchan, qo'rqq, yoqimsiz va doim yig'lab yuradigan qiz! Ba'zida o'g'il bolalar sho'xlik qilib, nimanidir sindirib qo'yishar, so'ng menga qarab: «Alya qildi», deyishardi. Men esa har doimgidek yana yig'lardim. O'shanda «yana uyalmasdan yig'laydi-ya» deyishardi. Meni himoya qiladigan, asrab-avaylaydigan onam yo'q edi.

Mana shu ayni haqiqat! Bolaligida ham bu qizga egalik qiladigan biror kishi bo'lmagan. Qiziq, nega bu ona o'z qizini asrab-avaylamadi, himoya qilmadi? Bu dunyoda egasi yo'q bolachalik baxtsiz odam bo'lmasa kerak. Boshqa mavjudotlar bu dunyoga o'ziga xos tarzda yashab qoladigan ma'lum bir reflekslar bilan keladi. Faqatgina odam bolasining vaziyati boshqacha. Agar odam bolasini asrab-avaylanmasa, ega chiqilmasa uning omon qolishi dargumon. Qanday onadan dunyoga kelganimiz bizning asl taqdirimizni belgilaydi.

Sen o'sha bog'da hecham o'ynamaganmisan?

– Qo'yib berishsa jon-jon deb o'ynardim, lekin ular hech qachon o'ynashimga qo'yishmadi. Bog'ga faqat o'g'il bolalar chiqishardi. Malika esa qo'g'irchoqlari bilan o'ynardi. Menga uning o'ynashdan charchagan yoki eskirgan qo'g'irchoqlarini berishardi. Men o'sha qo'g'irchoqlarga qo'limni ham tekkiz-

masdim. «Bu qiz juda g'alati», deyishardi yangalarim: «Qo'g'irchoq bilan ham o'ynamaydigan bola bo'ladimi? Balki men o'yin o'ynashni ham bilmagandirman. Bolalar o'yin o'ynashni qanday o'rganishadi?

– Qanday o'rganishadi? Ilgari hech kim mendan bunday narsani so'ramagandi. Aslida, bu instinkt hisoblanadi. Biz buni hayotga tayyorgarlikning bir ko'rinishi deb ham atashimiz mumkin. Shu bilan birga bolalar uchun o'yin o'ynash biz o'ylaganimizdan ko'ra katta ahamiyatga ega. Sen rostdan ham hech qachon o'yin o'ynamadingmi?

– O'ynamadim. Uyda baribir bunga imkoniyatim yo'q edi. Maktabda ham boshqa bolalardan ajralib turardim. Meni oralariga qo'shishmasdi, ular yugurar, o'ynar va maza qilib kulishardi. Men esa bularning hech birini bilmasdim. Ularni hayrat va havas bilan kuzatardim. Go'yo boshqa sayyoradan kelgandek. Qanday gapirishni yoki tushuntirib berishni ham bilmasdim. Uyda ham men bilan hech kim gaplashmasdi. Gapirishni emas, faqat tinglashni o'rgandim. Shuning uchun hammaga o'xshab gapirolmayman.

Nahotki, bularning barchasi haqiqat bo'lsa, hech ishongim kelmaydi. O'sha hashamatli, gavjum qo'rg'onda bu qiz bilan hech kim gaplashmagan. Shuning uchun u bu tilni endi o'rganayotgandek, to'xtab, o'ylanib gapiradi. Yaxshi, lekin u darslarda qanday qiladi? Hatto o'qituvchilar ham u bilan gaplashmaydimi?!

– Boshqa amakivachchalaring bilan ham gaplashmasmiding?

– Yonimga ham yaqinlashishmasdi. Moxovdan qochgandek qochishardi, hamma mendan uzoq yurardi.

– Darslarda nima qilarding? Savol berishsa javob bermasming?

– Gapirishni yomon ko'rardim, chunki gap boshlashim bilan sinfdoshlarim ustimdan kulishardi. Shu tariqa mum tishlashni o'rgandim. Bilgan narsalarimni ham aytolmasdim va holatimni tushungan o'qituvchilar ham borib-borib menga

savol bermaydigan va gapirtirmaydigan bo'lishdi. Shunga qaramay maktabda men biladiganimni hech kim bilmasdi. Yozma imtihonlarda doim eng yuqori baholarni olardim. Afsuski, hatto o'qituvchilarim ham meni yoqtirishmasdi.

– Ular seni yoqtirmasligini qayerdan bilarding?

– Shunchaki yoqtirishmasdi. Menga yaqinlashishmasdi, gaplashishmasdi, boshqalar kabi ular ham men yo'qdek harakat qilishardi. Ulardan jahlim chiqmaydi. Agar ularning o'rnida bo'lganimda, men ham bunday istarasiz va xunuk qizga yaqinlashmasdim.

Qaniydi, uning bulardan xabari bo'lmasa va his qilmasa! Yana mahzun bo'laman...

– Maktabdagi a'lo baholaringga oila a'zolaring qanday munosabat bildirardi?

– «Telbami, aqllimi bilib bo'lmaydi», – deyishardi. O'sha paytlari o'zim ham bilmasdim buni.

– Endi bilasanmi?

– Bilaman. Hozircha telba emasman. Keyinini Xudo biladi. Siz bu haqda qanday fikrdasiz?

Kutilmaganda musht yegandek bir on gangib qolaman. Darhaqiqat, men bu qiz haqida qanday fikrdaman?

– Men bu savolning javobini hali hanuz bilmayman. Seni yetarlicha tanidim, deb aytolmayman.

– Bilmaysiz. Yaxshi javob. Hech bo'lmaganda to'g'ri-durust bir javob... Biroz vaqt o'tib, yana shu savolni sizdan so'rayman. Meni yetarlicha taniganingizda ham xuddi shunday to'grisini aytasizmi menga?

– Ha, bundan hech ham shubhang bo'lmasin. Sen o'zing yashagan qo'rg'onni tasvirlab berayotgan eding menga.

– Katta, hashamatli qo'rg'on edi. Past qavatda katta mehmonxona, katta oshxona, hammom, hojatxona va ko'p ham ishlatilmaydigan yotoqxona bor edi. Yuqori qavat xonalar bilan to'la edi. Har bir xonaning ichida kichik hammomi bo'lar edi. U xonalardan yotib qolishga kelgan mehmonlar uchun foydalanilardi. Hammamiz ustki qavatda uxlardik. Zinadan

ko'tarilganingizda birinchida joylashgan va eng chiroyli xona Esma Sultonniki edi. Keyingi xonalar esa kelinlarniki edi. Bizning xonamiz eng oxirida joylashgan va orqa hovliga qaragandi. Biroz qorong'i bo'lib, otam qamoqda bo'lgan paytlarida ham onam meni yotoqxonasiga kiritmasdi. Men yonboshdagi kichkina baxmal divanda yotardim. Onam bilan bir xonada uxlashni yoqtirmasdim. Shuning uchun ham tez-tez oshxonadagi divanda yoki ahyon-ahyonda Esma Sultonning qiyshayib turadigan divanida uxlab qolardim. Keyin menga jahl qilishar «Yashshamagur qiz yana yotog'ida uxlamabdi», deyishardi.

Men uni tuyg'ularimni oshkor qilmaslikka urinib, jimgina tinglayman. Go'yoki o'sha kunlarni televizor ekranidan tomosha qilayotgandek qarshisida turgan ko'zguga qarab aytadi.

– Qo'rg'on qishda yaxshi isimas, sovuq bo'lardi. Mehmonxonaning bir tomonida mehmonlar uchun o'rindiqlar, yonida buvim o'tiradigan yumshoq divan, eshik yonida esa uzun ovqatlanish stoli bor edi. Zal ham juda katta edi. Uyimizga juda ko'p mehmonlar kelardi, bu ulkan zal liq to'lib ketardi. Shunday kechalarda Esma Sulton to'rda o'tirardi. Ko'zlari, qoshlari bilan kelinlarga buyruqlar yog'dirar, ular esa atrofda parvonadek aylanib yurishardi. Ko'pincha mehmonlar kechki ovqatga kelishardi. Shunday kunlarda uyga maxsus oshpazlar kelar, oshxonada kechgacha ovqat pishardi. Boshqa kelinlar tez charchab qolar, oh-voh, deb qochish payida bo'lishardi. Onam esa hech charchamas. Qanchalik ko'p ish qilmasin, yana shuncha ishlagisi kelar, go'yo kuch-g'ayratga limmo-lim edi. Boshqa kelinlarni bundan jahli chiqar, pinhona shivirlashib, onamni ustidan kulishardi.

Qanday yaxshi! Bugun og'zingdan so'zlaring sharqiroq soydek toshib chiqmoqda. Sal avvalroq, ichkariga kirib kelganingda, hoynahoy bu qizning og'zidan yana gap ololmasam kerak, deb o'ylagandim. Qaniydi, har doim shunday gapirsa-yu, meni charchamatsa. Qiziq, mening unga biroz yaqin munosabatda bo'layotganimning ta'sirimikan yo?

– Ovqatdan so'ng dasturxonni yig'ishtirilgach, onam to'qigan oq to'rli dasturxonni stol ustiga yozib qo'yardik. Oyda bir marta oyim o'sha dasturxonni qo'lda yuvar, keyin kraxmallar, so'ng soatlab dazmol qilardi. Juda chiroyli dasturxon edi. Uyimizga kelgan mehmonlar har doim bu to'r qoplamali dasturxonni diqqat bilan ko'zdan kechirar va hayratda qolishardi. Ba'zan stolning bir burchagida o'g'il bolalar dars tayyorlashardi. O'sha paytlarda dasturxon kir bo'lmasin, deb uning ustiga narsa yozardik. Narigi kelinlar xonaning pardasini to'qishgandi, ammo ular onamdek chiroyli to'qiy olishmadi... Onam to'qigan narsalari yaqqol ko'zga tashlanib, ularnikidan ajralib turardi. Onamni ko'ra olishmasdi. Hammalari qo'ni-qo'shnilaridan yangi to'r namunalarini olishardi. Koshki qobiliyat namunada bo'lsa. Shunday bo'lsa-da, buvim biror marta onamga yaxshi so'z aytmasdi.

Men uni bu tushidan uyg'otmoqchi emasman. Shunchalik ajoyib hikoya qilyaptiki, stolim oldida biroz oldinga egilgan-cha, uni jimgina tinglayman.

– Onam erta tongda uyg'onib nonushta tayyorlardi. Hali Emina xola bilan Hojar xola kelib ulgurmay u uyg'ongan bo'lardi. Ular kir yuvishar, yog'och stollarni, gilam, derazalarni artishardi. Lekin buvim baribir o'ziga xizmatchilar emas, kelinlar xizmat qilishini xohlardi. Eng asosiysi, onamni xizmati u uchun hammasidan ham muhim edi. Onam juda zukko ayol edi, lekin qilgan barcha ishlari behudaga ketdi. Buvimni boshiga ko'tarsa ham baribir onamni yoqtirmasdi. Go'yo boshqalar o'ziniki-yu, onam esa unga o'gaydek. Albatta, bu o'gaylikdan mening ham nasibam bor edi, chunki men ham o'gay kelinning farzandi, buning ustiga o'g'il emas, qiz bola edim. Onam uch o'g'il ko'rgandi, lekin ular ko'p yashamagan, nobud bo'lishgandi. Lekin men amallab yashab qolgan ekanman. Buvim meni «shumqadam» derdi. Onam menga homilador payti otam qamalgan ekan, men tufayli shunday bo'lgan, otamga ham baxtsizlik olib kelganman. Balki, shuning uchun otam ham meni yaxshi ko'rmagandir. Zero nimamni ham

yaxshi ko'rishsin? Lekin boshqa nabiralari juda qadrli edi. Ayniqsa, Malikani aytmay sizmi, uning uchun jonini ham berardi. Hattoki u ertalab maktabga ketayotganda sochini buvim tarardi. Onam hammom jomida suv olib kelardi. Buvim taroqni qo'liga olib, ora-sira suvga botirib, tarardi. Malikaning qizil sochlarini nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ikki tomondan o'rib, uchiga oq tasma bog'lashardi.

– Sening sochlaringni kim tarardi?

– Hech kim. Shunchaki sochlarimni kalta qilib kesishardi. Qo'lim bilan tuzatsam tarashga hojati qolmasdi. Keyin hammamiz birga uydan chiqardik. Ikki o'g'il, ikki qiz edik. Buvim Malikaning qo'lidan ushlardi. Men esa ularga ergashgan bo'lardim.

– Buving seni maktabga olib borarmidi?

– Ha, albatta, chunki qo'rg'ondagi kelinlar tashqariga chiqa olishmasdi. Oqshom bizni olib ketishga yana buvimning o'zi kelardi. Uydagi bozor-o'charni ham u qilardi. Uyda pishiriladigan taomlarni ham u hal qilar, kelinlar u biror narsa demay turib, joyidan ham jila olishmasdi. Saqalli degan sho'rva bor. Eng yaxshi ko'rgan taomi shu edi, uyda hamisha shu sho'rva qaynardi. U juda qattiqqo'l edi. Qiladigan ishi o'g'illarini o'ziga qaratish, ularni ayollariga emas, bor e'tiborlarini unga qaratishlarini ta'minlash edi. Buning uchun qilmagan nayrang qolmasdi.

– U qanday nayrang qilardi?

– Ba'zida «kasalman» deb ko'rpa-to'shak qilib yotib olardi. Kechki dasturxonda ovqat yemay ingrab qolardi. O'g'illarining hammasi ham undan xavotirlanar, uyga shifokor olib kelishardi. Bosh-oyoq davolanar, o'g'illari esa tepasida parvonadek aylanib: «Onajon, xohlagan narsangizni ayting, bisyor qilamiz», deyishardi. Buvim esa hamma uyquga yotgan payti, pusib kelib, oshxonadagi taomlarni paqqos tushirardi.

Bunchalik emas-da! Bu qanchalar vijdonsizlik-a! Ajablanarlisi shundaki, o'sha gavjum uyda hammaning ko'ziga baqrayib turib, bularni qanday qila olgan. Bularning barchasiga

kelinlar qanday chidashdi ekan-a? Go'yo bugun Alya bilan yuzma-yuz o'tirib, suhbat qilyapmiz. Chiroyli hikoya qilib beryapti, men esa hech zerikmay, hatto zo'r qiziqish bilan tinglayapman uni.

- Sen buni qayerdan bilasan?
- Chunki qiladigan ilk ishi onamni uyg'otish bo'lardi.
- O'shanda otang qamoqdamidi?
- Qamoqdalik paytida ham shu ishlarni qilgan, chiqqanida ham. Oyim o'rnidan turib, unga yegulik tayyorlardi.
- Onang buni boshqalarga aytnasmidi?
- Aytnasdi, lekin boshqa kelinlar buni bilishardi. Hammasi bilsa ham, hech biri buni eriga aytolmasdi. Otam qamoqdan chiqqandan keyin ham bu hiylalarini davom ettirdi.
- Onang qanday ayol edi?
- Onamni ta'riflash qiyin. U boshqacha ayol edi. Hamma uni Turkan Shorayga o'xshatardi.
- Rostdan ham o'xsharmidi?
- O'xshardi... Baland bo'yli, juda ko'zga yaqin ayol edi. U hech qachon o'ziga qaramasdi, biror narsa so'rashmasa o'zicha gapirmasdi ham. Kechgacha uyda xizmatkordek ish qilardi. U ko'proq Esmatultonning xizmatini qilar, go'yo uning yagona maqsadi o'zini unga sevdirish, qabul qildirish edi. U nima qilmasin buning imkonsiz ekanini hamma tushunib yetgandi, lekin uning o'zi oyoq tirab turib olgan, go'yo shunga ahd qilgandi. Qolgan kelinlar esa bunday emasdi.

Qiziq, o'sha paytlar Surayyo, ya'ni Alyaning onasi depressiyaga tushganmidi? O'taketgan go'zal ayolsan, buning ustiga boy xonadonning kelinisan va shunga qaramay senga shuncha zulm qilgan ayolga o'zingni qabul qildirish uchun unga cho'ridek xizmat qilasan, bu senga nima uchun kerak!? Bularni tushunish shunchaki oson emas. Balki, men hali bilmagan boshqa narsalar ham bordir.

- Ularning orasi qanday edi?
- Esmatulton Malikaning onasi sariq kelinga bunday qilolmasdi, chunki sariq kelinning oilasi juda badavlat edi.

O'g'liga bu kelinni o'zi tanlab olib bergandi. Otam onamni qo'rg'onga olib kelganda, u darrov sariq kelinga sovchilikka borgan ekan. Kipriklari to'kilgan, sepkilli, ahmoqroq ayol edi. Xunuk, lekin boy-badavlat!.. Uning oilasi biznikiga tez-tez kelib turar, kelayotib Esmasulton boshchiligida deyarli hammaga ko'plab sovg'a-salomlar olib kelishardi. Malika o'sha oilaning yolg'iz nabirasi ekani uchun juda qadrli edi. So'ng kenja o'gilni uylantirishibdi.

O'rtancha kelindan og'zi kuygan Esmasulton bu gal borib shahardagi eng kambag'al oilaning go'zal qizini kelin qilib olibdi. Ularning ichida eng yoqimtoyi kichkina yangam edi. Kichkinagina, oppoq, yuzi doim kulib turadigan ayol edi. Oilasi juda kambag'al bo'lgani uchun bor orzu-havasini erining uyida ko'rди. Turmushga chiqqanida ozg'in, nozik qiz bo'lgan ekan, lekin uyimizga kelib, og'zi oshga tegib, semirib ketibdi. Bo'yi past bo'lgani uchun yumaloq bo'libdi qolibdi. Oshxonadan hech chiqmasdi. Kelsa ham yerdi, ketsa ham. Esmasulton yangamni og'zini to'ldirib yurganini ko'rsa g'azabdan ko'zi qonga to'lar, og'ziga kelgan so'z bilan uni haqorat qilardi. Lekin yangam bularga parvo ham qilmasdi. Malikaning onasi bilan tinimsiz pichirlashar, Esmasultonning g'iybatini qilishardi. Onamni ham o'zlariga qo'shilishini, ular bilan g'iybat qilishini xohlashardi, biroq onam ularga also qo'shilmasdi. Hammasidan uzoq yurardi. Yonlariga yaqinlashmagach ularning qattiq jahli chiqib, bu safar onamning ortidan g'iybat qilishardi. Ularning orasida aylanib yurganim uchun ko'pincha onamni «O'ziga bino qo'ygan, burnidan qurt yog'adi», deyishayotgani qulog'imga chalinardi.

– Onang o'zini yaxshi ko'rarmidi?

– Yo'q, umuman yaxshi ko'rmasdi. Hamma uni o'ziga bino qo'ygan deb o'ylardi, lekin u o'zidan nafratlanardi. Aniqrog'i, onam na o'zini yaxshi ko'rardi va na o'zgani.

Onasining holati depressiyaga u qadar ham o'xshamayapti, balki yanada jiddiyroq ruhiy muammolari bo'lgandir.

– Seni-chi?

– Meni ham yaxshi ko'rmasdi. Hatto otamni ham yaxshi ko'rmasdi. Uning uchun eng muhim odam Esma Sulton edi. Uni yaxshi ko'rarmidi, undan nafratlanarmidi, bilmayman.

– Onang sen bilan qiziqmasmidi?

– Qiziqmasdi... U meni hech qachon quchoqlamas, o'pmas va yaxshi ko'rmasdi. Amakivachchalarimning onalari hech qachon farzandlariga bunday muomala qilmasdi, aksincha, ularni toza erkalatishardi. Esma Sultonning esa: «Erkala-tavermanglar», deb ulardan jahli chiqardi. Faqat kichkina yangam ba'zan men bilan qiziqar, oshxonada ish qilayotgan payti men bilan gaplashardi. Malikaning onasi meni umuman yoqtirmasdi u meni «jo'jabosh» deb chaqirardi. Ba'zan kichik yangamga jahl qilib: «Bu jo'jaboshning sizga nimasi yoqadi?» deb ta'na qilardi.

– Amakivachchalaring bilan munosabating qanday edi?

– O'g'il bolalar o'z olamlarida yashardi. Biri mendan bir yosh katta, ikkinchisi bir yosh kichik edi. Ular yolg'iz qolganimda meni burchakka siqib, ishtonimni tortib qochishar, so'ng «Voy, uyat senga, uyat», deb mazax qilishardi.

Malika esa hammaga past nazar bilan qarardi. Meni hech qachon odam o'rnida ko'rmas, doim mendan nimadir so'rab izza qilar, xafa bo'lganimni ko'rib, shunchaki iljayardi. O'ta dangasa qiz edi. Uyga o'qituvchilar kelar, hatto uy vazifasini ham ular bilan bajarardi. Shunga qaramay, yaxshi baho ololmasdi. Ikkichi edi. Men undan uch sinf keyin o'qisam ham ba'zan uy vazifasini menga qildirardi. Uyda qo'lini sovuq suvga ham urmas, tez-tez kasalman deb yotib olar, ovqatini ham yotog'iga olib kelishardi. Hattoki, «Egilsam boshim aylanib ketyapti», degan bahona bilan ko'pincha oyoq kiyimining bog'ichini ham menga bog'latardi. Televizor qarshisidan turmasdi, san'atkorlar hayotini darslaridan ko'ra yaxshi bilar, kiyinish, yasanish va o'ziga oro berish desa o'zini tomdan tashlardi. Hamma narsaning eng yaxshisi unga olinardi. Rasm ham chizardi. Bo'yoqlarini, qog'ozlarini hamma yoqqa yoyib, sochib xonani to'zg'itib tashlardi. Maktabning barcha bolala-

ri uning ortidan yurardi. Uni yaxshi ko'rishlaridan zavqlanar, atrofida qilarga ko'z suzar, o'zidan chiroyliroq birortasini ko'rsa buni hazm qila olmasdi. Yigitlar uni deb bir-birlari bilan urishishsa, bundan maza qilar, rohatlanardi.

– Esmasulton bu holatga nima derdi?

– Uning bulardan xabari yo'q edi. Lekin u Malika bilan faxrlanar, hammaning uni yoqtirishidan boshi ko'kka yetardi. U «Bu qiz sal katta bo'lsin, Surayyoning dumi tugiladi», derdi.

Ha, ular bu go'zal Malikaning og'zidan chiqqanini muhayyo qilisharkan, Alya bechoraga parvo ham qilishmagan. Kishik yoshlaridan boshlab, mag'lub bo'lishni va rad qilinishni o'rgangan.

– Demak, onang husni bilan dong taratgan edi, shundaymi?!

– Ha aytdim-ku, onam qishloqqa kelganida uni ko'rgani butun qishloq qo'rg'onga oqib kelgan ekan. Lekin u bu go'zallikni qadrlamasdi. Hatto otam ham uning go'zalligiga qaramay, doim uni aldagan.

Onasi o'z go'zalligi bilan ajralib turadigan bunday katta qo'rg'onda Alyadek qizning borligi, uning qabul qilinishi zero, mumkin bo'lmagan holat. Buning ustiga, hatto ona ham o'z qizini himoya qilmagan, yaxshi ko'rmagan va asrab-avaylamagan. Taassufki, bu juda ayanchli holat.

– Onang otang uni aldayotganini bilarmidi?

– Albatta, bilardi. Nafaqat onam, balki butun qishloq otamning xotinboz ekanini yaxshi bilardi. Esmasulton esa bu gap-so'zlarni onamga eshittirish uchun qo'lidan kelganini qilardi. «Yaxshi ayol bo'lganingda eringni mahkam tutgan bo'larding», derdi onamga.

– Onang bunga nima derdi?

– Hech nima har doimgidek munosabat bildirmasdi, boshini baland tutardi. Esmasultonning ko'zlariga tik qaragan-cha uni tinglardi. Uning nimani o'ylayotgani va nimani his qilayotganini hech kim bilmasdi. U na kulardi, na gapirar va na yig'lardi. Lekin bularning hammasiga qaramay, boshini aslo egmas, gapirgan gapirganicha qolib ketardi. Kiyinmasa

ham, o'ziga oro bermasa ham, sochlarini oppoq ro'mol ostiga yashirib olsa ham ko'zni olardi. Qop kiysa ham yarashadi, deyishadi-ku. Onam xuddi shunday ayol edi. Uning qayerlardan kelib qolganini, bu qo'rg'onga qanday kelin bo'lganini hech kim bilmasdi. Lekin u o'sha muhitga oid inson emasdi. Kech-gacha uy atrofida tinib-tinchimas, qo'llari suvdan chiqmasdi. Shunga qaramay qo'llari san'atkorlarning qo'llaridek oppoq, chiroyli ko'rinardi. Narigi yangalarimning undan jahli chiqishi tabiiy edi. Ularning gapi-yu nayranglari bitmas, xohish-istaklarining oxiri yo'q edi. Onamning esa biron narsa xohlamasligi ularning jahlini chiqarardi. Ular baribir zargardek qo'rg'onni aylanib yurishardi. Esma Sulton onamning puxta va saranjom kiyinishini xohlardi. Ayniqsa, uyga mehmonlar kelganda. Onam faqat bilaguzuklar va olmos uzuk taqib yurardi. Shunday o'ziga xos kunlarda ro'molini yechardi. So'ng qop-qora sochlari to'lqin-to'lqin bo'lib beliga tushardi. Odamlar onamdan ko'zlarini uzolmasdi. O'sha paytlari amakilarim ham onamni yashirincha kuzatishardi. Ayniqsa, o'rtancha amakim...

Mana bu holat juda ajablanarli! O'rtancha amaki, menimcha, Sariq kelinning eri. O'sha xunuk, lekin badavlat oilaning qizi bo'lgan kelin.

- Keyin esa uzuk ham yo'qolgach, faqat bilaguzuklari qoldi... Ular ham necha yillar qo'lida turaverib qoraygan, eski va xunuk edi. Onam ularni hecham yoqtirmasdi.

- Onang qiziq ayol ekan.

- Ha qiziq edi, o'z sirlari bilan birga ketdi... Uni hech kim tushunolmadi.

- Menimcha, sen ham qiziqsang kerak!

- Onamni eslasam, ko'z oldimga qora bulut keladi. Ichi yomg'ir yuki bilan to'la bulutlar bor-ku... Na o'tib ketadi, na ichidagini bo'shatadi. Onam ana shunday ayol edi. U faqat o'ziga zulm qilardi va menga. Balki, men uning bir parchasi bo'lganim uchun mendan g'azablanarmidi. Bilmayman.

Gapini shu yerda to'xtatdi. Bugun u qanday qiziqarli narsalarni aytib berdi! «U faqat o'ziga zulm qilardi... va menga...»

dedi. Go'yo bir yozuvchi gapirardi qarshimda. Yuzi qaro tun kabi tundlashdi. Ko'zlarim uning tomirlari bo'rtgan qo'llariga va rangsiz terisiga tushadi. O'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'idagi o'rama uzoq vaqtdan beri yo'q, lekin bu barmog'idagi ko'karishlar e'tiborimni tortadi.

– Bu barmog'ingga nima bo'lgan?

Qarashlaridan, ortiq gapirishni xohlamayotganini sezaman. Mavzu onasiga kelganda doim shunday bo'ladi. U haqida gapirishdan qattiq qo'rqadi. Aslida, bu mavzuda men bilan baham ko'rmoqchi bo'lgan juda ko'p narsasi bor, men buni his qilaman. Voqealar aylanib-o'rgilib onaga kelganda to'xtab qoladi. Mavzuni u o'zgartirishidan avval buni men qilsam yaxshiroq bo'ladi.

– Agar xohlasang ozroq men gapiray! Sen charchading.

– Mayli. Rahmat. Menimcha, siz qanchalik yomon bo'lsangiz, shunchalik yaxshisiz ham.

Bu gapdan kulib yuboraman, ammo u menga qo'shilib kulmaydi, menga ehtiyotkorlik bilan qarashda davom etdi.

Demak, uning xayolida men hanuz ham yaxshiman, ham yomonman. Men yana tuyg'ularimni taftish qilib ko'raman, yo'q, men endi yomon emasman. Uning hayotga qaytishini istayman, mag'lublar ro'yxatidan chiqib, g'oliblar ro'yxatiga qo'shilishini endi men ham xohlayman. Endi esa unga malika haqida hikoya aytib berishim kerak. Hamda ismi onasining ismi kabi Surayyo bo'lgan... Ko'ramiz, bunga qanday munosabat ko'rsatarkin? Umid qilamanki, malikalarga nisbatan his qilayotgan g'azab va hasadini ushbu hikoyada yanada yaqqol ko'ra olaman.

– Senga va'da qilganimdek bugun malika hikoyasini aytib beraman. Malika Surayyoning hikoyasiga nima deysan?

– Malika Surayyo? Juda soz.

– Hikoyani boshlashdan oldin bir fikrga oydinlik kiritmoqchiman. Men endi yomon emasman.

– Men sizga nohaqlik qildimmi?

– Biroz.

Biror nojo'ya ish qilgan yosh boladek boshini egib olar ekan, yuzining uyatdan qizarganini ko'raman. U biror narsa deyishidan oldin, men darhol hikoyani boshlayman.

– Fors imperiyasining so'nggi shohi Rizo Pahlaviy 1941-yilda taxtga o'tiradi. Uning otasi shahanshoh Rizo Turkiya va Otaturkning haqiqiy muxlisi edi. Shahanshoh zamonaviy Eron haqidagi orzularini ro'yobga chiqarish uchun o'g'lini Shveytsariyaga o'qishga yuborib, og'lining til o'rganishini va chinakam G'arb ruhida ulg'ayishini ta'minlaydi. 1938-yilda Misr malikasi Favziyaga otasining xohishiga ko'ra uylangan shoh Muhammad Rizo o'n yil o'tib, ya'ni 1948-yilda bu nikohni tugatishga qaror qiladi. Chunki bir qizni dunyoga keltirgan malika Favziyaning ikkinchi farzand ko'rish imkoni yo'qligini shifokorlar ma'lum qilishadi. Shunday qilib, shoh merosxo'r farzand tug'ib bera olmaydigan Favziyani tark etadi.

Bir tomondan unga tarixni ertak qilib aytib berar ekanman, bir tomondan og'zimdan chiqqan har bir so'z unga qanday ta'sir qilishini diqqat bilan kuzataman. Odatda, hikoyaning bu qismida uning biroz g'amgin bo'lishini kutgandim, lekin hech unday bo'lmadi, aksincha, uning yuzi yanada yorishib ketdi. Chunki bu qizning, malikalarni yoqtirmasligi aniq!

– Ya'ni, Favziya bechoraga juda og'ir bo'ldi.

– Nega og'ir bo'lsin? O'g'il tug'a olmagani uchun eri tashlab ketgan yagona ayol emas-ku, axir? Malika deb nega uni boshqalardan ustun ko'ryapsiz?

– Men hech narsa qilmadim, axir! Bunday vaziyatga tushib qolgan barcha ayollarga qattiq achinaman, xolos.

– Malikalarga achinmang. Xavotir olmang, ularga balo ham urmaydi.

– Ularga balo ham urmasligini qayerdan bilasan?

– Chunki u malika. Ularning eng kichik muammosi ham butun dunyoga dard bo'ladi. Go'zallik desangiz bor, puli, obro'si bor, ya'ni hamma narsasi bisyor ularning. Xudo hamma narsani ularga beravermaydi-ku! Hammasini beribdi faqat o'gil bermabdi. Ajab bo'pti bermagan bo'lsa, bu o'g'il farzandning

havasi nimada o'zi?! Men haligacha tushunolmayman. Qiz bo'lish aybmi? Yigitlarda aql bor-u qizlarda yo'qmi? Kap-katta qirol bo'libdi-yu lekin hali ham buning ma'nisiga yetmagan. Katta Fors imperiyasiga shoh bo'l, Shveytsariyada o'qi, lekin shuni ham o'rganolmay kel. Ho'kiz hikoyasidagi afrikaliklardan nima farqi bor bularning? Buning ustiga bular yigirmanchi asrda sodir bo'lmoqda. Aslida, johil xalq shuni xohlagan. Shoh esa o'zidan so'ralganini qilgan-qo'ygan. Taxtni qo'ldan boy berishni xohlamaydi-ku...

Ishlar yaxshigina chigallashdi. Bu safar uning g'azabi faqat malikaga emas, o'g'il tug'a olmagan uchun xotini bilan ajrashgan shohga, uni qo'llab-quvvatlagan odamlarga qaratildi. U g'azabini ichiga yutguncha, chaqmoqdek o'tkir nigohlariga, stolimni mahkam tutgan barmoqlariga, tez-tez olayotgan nafasiga e'tibor bermasligim kerak. Aks holda, bu g'azab menga yo'naladi.

– Shoh o'z taxtni himoya qilish uchun shunday qarorga kelgan bo'lsa kerak. Shoh malika Favziyani tark etishi bilan noq yangi malika izlash boshlanibdi. Surayyoning otasi Eronning mashhur oilalaridan birining o'g'li bo'lib, u nemis qiziga oshiq bo'lib uylangan ekan. 1932-yilda ularning yagona farzandi Surayyo dunyoga kelibdi. Surayyo so'zining ma'nosini bilasanmi?

– Yetti yulduzdan iborat yulduzlar turkumini bildiradi.

Yo tavba... Uning aqli kompyuterga o'xshaydi. Men bu savolni shunchaki bergandim, lekin darhol javob qaytardi. Qiziq, bu qiz yana nimalarni bilarkin-a?

– Sening ham bilmaydigan narsang yo'q! Bu yetti raqami Surayyoning hayotida muhim ahamiyatga ega edi, chunki onasi turmush qurganidan keyin yetti yil o'tib, uni dunyoga keltirgan va shuning uchun ham unga Surayyo deb ism qo'yishgandi. Uning shoh bilan nikohi ham yetti yil davom etadi.

– Agar malika bo'lmaganida edi, bu yetti raqami-yu, boshqa narsasi kimga qiziq bo'lardi?

Agar shunday davom etaversa, hikoyani davom ettirilmayman. Har safar ichidagi g'azab sel kabi oqyapti. Tog'risi, bu hikoyalar juda yaxshi foyda beryapti.

– O'sha paytda Erondagi sharoit nihoyatda og'ir edi. Mamlakat aholisi qashshoqlikda bazo'r kun kechirardi. Mamlakatda ocharchilik va epidemiyalar avj olgandi. Bunday sharoitda qizi Surayyoning Eronda qolishini istamagan ona erini ham ko'ndiradi va ular birga Berlinga ketishadi, lekin 1937-yilda otalarining ishi tufayli o'z yurtlariga qaytishga majbur bo'lishadi. Surayyo avval Isfahondagi nemis maktabini, keyin esa ingliz maktabini tamomlaydi. U 1947-yilda Shveytsariyaga, ikki yildan keyin esa Londonga o'qish uchun ketadi. Nima bo'lishi kerak bo'lsa, mana shu yerda sodir bo'ldi. Surayyoning u yerda yashaydigan qarindoshi va podshohning onasi do'st bo'lishadi. Bu ikki ayol til biriktirib, Surayyoning suratlarini podshohga jo'natadi. Shoh Surayyoning suratini ko'rib uni yoqtirib qoladi va unga turmushga chiqish taklifini yetkazish uchun opasini Londonga yuboradi.

– O'zini ko'rmasdanmi?

– Ha biron marta ko'rmay turib. U haqidagi barcha ma'lumotlar malikaga yetib keladi, lekin baribir ular hech qachon bir-birlarini ko'rishmagan. Shohning opasi bilan Eronga kelgan Surayyoni darhol saroyga taklif qilishadi. Saroydagi kechki ovqatdan keyin podshohning o'zi ham unga turmush qurishni taklif qiladi. Ertasi kuniyoq Surayyo bu taklifni qabul qiladi.

– Birining yagona dardi malika bo'lish, ikkinchisiniki esa taxtini himoya qilish. Hamma malikalarning joni jahannamda yonsin.

Ko'z qirim bilan unga qarayman, g'azabdan ko'zlari qonga to'lgan. Buni sezib qolishimdan qo'rqib darhol boshini egib oladi. Unga hech narsa sezdirmay, to'xtagan joyimdan davom etaman.

– O'sha payt Surayyo endigina o'n yetti yoshni qarshi olgandi. Keyinchalik u xotiralarini yozar ekan, u o'sha kecha podshohni ko'rib qanday ta'sirlanganini, bir ko'rishda unga

qanday oshiq bo'lganini va bu qaroridan aslo afsus chekma-
ganini aytadi.

– Ular o'lsa ham, baribir pushaymon bo'lishmaydi. Malika
bo'lishsin, shuning o'zi kifoya ularga.

– Uning o'rnida bo'lganingda nima qilgan bo'larding? Bun-
day taklifni qabul qilarmiding?

– Men baribir uning o'rnida bo'lolmayman, shuning uchun
buni mendan bekorga so'ramang.

– Yaxshi. To'y hozirliklari darhol boshlab yuboriladi. Biroq
mamlakatdagi qashshoqlik tufayli dabdabali to'ydan qochgan
shohning iltimosi bilan to'y Pahlaviylar sulolasida hech ko'r-
il-
magan soddalikda o'tadi. Tolesizlik o'sha paytning o'zidan
boshlanadi va to'ydan oldin Surayyo tif isitmasiga chalinadi.
Shunday qilib, ancha oldin rejalashtirilgan nikoh 1950-yil
12-fevralda, qishning qahratonida bo'lib o'tadi. Surayyo, asli-
da, to'liq tuzalmagan bo'lsa-da, mamlakatdagi siyosiy vaziyat
tufayli shoh sabrsizlanadi. Kristian Dior tomonidan tikilgan
kumush to'nli 20 kilogrammli to'y libosini kiygan va xastalik-
dan to'liq tuzalmagan Surayyo to'y kechasini tishini tishiga
qo'yganча o'tkazadi. Hatto hushidan ketayozganda, kelinlik
ko'ylagining o'n metrlik etak qismini joriyalardan biri hech
kimga sezdirmay kesib tashlaydi.

– Kim bilsin, o'sha kelinlik libosini kesish qanchalik qiyin
bo'lgan ekan.

– Qiyin bo'lganmi-yo'qmi bilmadimu, lekin joriya shunday
mahorat bilan kelin ko'ylagining etagini kesgan va buni hech
kim payqamagan ham.

– U ham inson, lekin u bilan hech qim qiziqmaydi. Malika-
lar bor ekan, u bilan nega qiziqsin.

Uni malikalar emas, joriyalar qiziqtiradi. Shuning uchun
uning malikalardan jahli chiqadi. Go'yo bir paytlar o'zi ham
joriya bo'lgandek gapiradi. Uydagi amakivachchasi malika
laqabli qiz ham unga joriyasidek munosabatda bo'lgan. Bu
qizni tinglar ekanman, o'zimni izquvardek his qilaman, ammo
boshqa choram ham yo'q.

– To'y bo'lib o'tgan Guliston saroyining oynali zali o'sha kuni batamom gullar bilan bezatilgan edi. Zalga ikki yuzta orxideya, ikki yuzta olcha gul shoxlari, mingta qizil chinnigullar, ikki yuzta nilufar gullari qo'yilgandi. Saroyini to'ldirgan ikki ming kishilik olomondan tashkil topgan yo'lakdan hamma bilan birin-ketin salomlashib o'tishga majbur bo'lgan Surayyo o'sha kecha qattiq toliqdi.

– Voy bechoraginaning sho'ri qursin. Nima emish, to'y libosi og'irlik qilganmish! Yana hamma bilan birma-bir salomlashishdan charchaganmishlar. Nozini qarang nozini. Bu malikalar doim shunday. Joriyalar besh karra ko'p ish qilishsa ham charchamaydi, lekin malika chiday olmaydi. Negaki, u nozik, kasal bo'lib qolishi mumkin. U yoqqa yugur, bu yoqqa yugur. Sening vazifang malikani xursand qilish!

– Bir paytlar sen ham Surayyoning joriyasi bo'lganmisan?

– Men bir paytlar uyimizdagi malika Surayyoning joriyasi edim. Men ham malika bo'lishim mumkin edi. Ammo u tufayli joriya bo'ldim. Surayyo xohlasa, o'sha uyning qirolichasi bo'lardi, lekin xohlamadi. Meni ham o'zining tolesiz qadari ortidan sudradi. O'zining Esma Sultonga qul bo'lgani yetmagandek, meni ham o'sha qizil sochli shaytonga joriya bo'lishimga ko'z yumdi.

Men buni qanday qilib tushunib yetmadim-a! Albatta, malika deganda u faqat amakivachchasini nazarda tutmayapti. Onasi ham bor! U malika kabi go'zal, lekin hech qachon o'zini malikalardek tutmagan. U amakivachchasidan g'azablanyapti, uning asosiy g'azabi ehtimol, onasigadir.

– Balki bir kun kelib, sizga o'z hikoyamni oxirigacha aytib bera olsam, hech bo'lmasa siz tushunarsiz meni. Zero, menda nima ham qoldi! O'lim bilan telbalikni hisoblamasak, faqat siz goldingiz, Iltimos, endi Surayyo haqida davom etsangiz.

Uni hayrat bilan tinglayman. O'lim, telbalik va men. U vaziyatni bir necha qisqa so'z bilan ifodaladi. Biroq hozirgina u mening yaxshi yoki yomon ekanimni bilmasligini aytgandi. Ovozi juda qat'iyatli, lekin nigohidan qanchalik charcha-

gani ko'rinib turadi. Shuncha o'tgan yillarning charchoqlari bu. Ko'zlarimiz bir lahza to'qnashadi, his-tuyg'ularimni izhor qilmoqchidek unga qarayman. Biror narsa aytishning vaqti emas hali. Ko'zlarim bilan «Men borman, shu yerdaman», deyman. So'ng mayin ovozda davom etaman.

– Surayyo, balki Eronning eng og'ir davrida qirolicha bo'lgandir. O'sha davrda, ba'zilarining fikricha, shoh o'z zimmasiga olgan ishni qilmay, xalqni qashshoqlikka yetaklagan, Amerika boshchiligidagi tashqi kuchlarning mamlakat ichki ishlariga aralashishiga imkon bergan. Mamlakatda odamlar ochlikdan o'larkan, u esa hashamat va kundan kunga ortib borayotgan boylik ichida yashabdi. Uni tanqid qilgan ziyolilar har xil qiynoqlarga duchor qilinar ekan. Butun mamlakat qo'rqatqan qolgan, senzura kundan kunga kuchayibdi. Ayrimlarning fikricha, shoh hashamatdan yiroq, juda sodda hayot kechirgan va har doim o'z xalqi uchun eng yaxshisini qilishga harakat qilgan. Bu ikki xil qarashlar haqida ko'plab kitoblar yozilgan, ammo bahslar haligacha tugamagan.

– Yo'q, menimcha, shoh dunyodagi eng shafqatsiz rahbarlardan biri edi. U o'z yurti uchun biror yaxshi ish qilgani yo'q. Shunchaki ko'ngilxushlik qilib, vatanini sotdi. O'z xalqini qiy-noqqa soldi. Odamlarni qo'rqitdi.

Bu yerda, bir tomondan, malika haqida og'ziga kelganini aytarkan, menimcha, uning asosiy nishoni otasi. «O'z xalqiga ega chiqmadi», deganida, balki o'z ichki dunyosi eshiklarini ochgandir menga «Shunchaki ko'ngilxushlik qilib, vatanini sotdi...» deyapti. Bu yerda, balki uning otaga nisbatan salbiy his-tuyg'ulari yuzaga chiqqandir.

– Demak, sen shunday deb o'ylaysan!

– Yo'q, bu haqiqat!

– Bo'lishi mumkin. Eron taxtiga mansub javohirlar dunyoga mashhur. Surayyo malika bo'lgach, o'z xotiralarida maxsus sayflarda saqlanadigan bu javohirlar haqida yozadi. Darhaqiqat, bu marvaridlarning hech biri malikaga tegishli emas. Hammasi davlat mulkidir. Bu javohirlar Eronning qog'oz pul-

lari evaziga kelgan. Ular orasida eng mashhurlari marvarid va olmos bilan bezatilgan shohlik asosi, yoqut va zumrad bilan bezatilgan yanicharlar qilichlari, dunyoga mashhur Daryo-yi Nur deb nomlangan 186 karatli olmosdir. Ushbu olmos 475 ta kichik olmosning o'rtasida joylashgan. Uni bir paytlar No-dirshoh Hindistondan olib kelgan.

– Ular o'zlarini mamlakat mulkining egasiman deb o'ylashadi. Taxtga o'tirishgach, qo'llari ham egrilasha boshlaydi. Kim bilsin, bu javohirlarni qanday qilib o'zlashtirishdi ekan!

– Bular haqida bilmayman, lekin Eron, asosan neft tufayli dunyoning diqqat e'tiborida bo'lgan mamlakat.

– Britaniyaliklar va amerikaliklar hamisha shu neftning ortidan quvishadi. Shoh ularga mamlakat boyliklarini hadya qilib yuborgan. Taxtida qolish uchun qilgan shuncha ablahlikni... Badtar bo'lsin, baribir ag'darildi taxtdan. Dunyo hech kimga vafo qilmaydi. Sulton Sulaymonga vafo qilmagan, ularga vafo qilarmidi?

– Yana jahling chiqdi.

– Albatta, jahlim chiqadida. Podshoh ekan, malika ekan. Ularni bizdan, ya'ni oddiy xalqdan qanday farqlari mavjud? Ularning qanday afzalliklari bor?

Mana, yana o'tmishga ketdi! «Qirol va malikaning mendan hech qanday farqi bo'lmasligi kerak», deyapti. Unga ega chiqmagan, uni yaxshi ko'rmagan, g'amxo'rlik ko'rsatmagan, parvo ham qilmagan va uning haqlariga hurmatda bo'lmagan ota-onasiga qarshi isyon qilyapti. U haq!

– Malika hikoyasini o'zing xohlaganding, lekin endi g'azab-lanyapsan.

Boz ustiga, malika bu hikoyada baxtli bo'lolmaydi. Agar men senga baxtli malika haqida hikoya aytsam, kim biladi nima derding?

– Hech bir malika baxtli bo'lishga loyiq emas, lekin nima bo'lganda ham mayli, agar xohlasangiz davom eting.

– 1951-yilda, ya'ni Surayyo turmushga chiqqanidan bir yil o'tib, Mussoddiq bosh vazir bo'lgach, uning birinchi ishi neft-

ni milliyashtirish bo'ldi. Biroq bu holat Angliyani ham, Amerikani ham bezovta qila boshladi.

– Ular vatanparvar odamlarni yoqtirishmaydi.

U o'zini Mussoddiqqa yaqinroq his qilyapti. Mazlumlarni, haqqi yeyilgan insonlarni qo'llab-quvvatlovchi shaxs sifatida ko'ryapti. Hozirgacha aytganlariga qaraganda, umrida hech kim uni qo'llab-quvvatlamagan, yelka tutmagan. Ajabo, bu men bo'lishim mumkinmi?!

– Bu orada Mussoddiq shohni to'ntarish yo'llarini izlay boshlaydi va xalqdan ham katta yordam oladi, ammo shohga zid bo'lgan bu vaziyat amerikaliklarning aralashuvi bilan birdaniga o'zgaradi. Surayyoni olib, Rimga ketishga majbur bo'lgan shoh, bir hafta ichida Mussoddiq taxtdan ag'darilgani haqidagi xushxabar bilan ortiga qaytadi. Bu Surayyoning hayotidagi burilish nuqtalaridan biri bo'ladi, chunki, agar o'sha paytda podshoh taxtdan ag'darilganida, ehtimol Surayyo umrini oxirigacha eri bilan o'tkazgan bo'larmidi. Lekin bunday bo'lmadi.

Nimagadir, indamadi, e'tiroz bildirmadi. Menimcha, meni xafa qilishdan qo'rquyapti. Ijtimoiy adolat tushunchasi uning uchun eng muhimi. Hayotining boshidayoq haqqiga xiyonat qilingan, adolatsizlikni erta boshdan kechirgan odamlarda bu tushuncha juda kuchli bo'ladi. Biroq bu yerda odamga qo'llaniladigan zo'ravonlik miqdori, shuningdek, bunday odamlarning ovozi hayotining qaysi davrida o'chirilgani juda muhim. Inson tug'ilgan kunidan boshlab juda ko'p adolatsizlikka duchor bo'lsa, unga qarshi isyon qilishni ham bilmaydi, qullik ruhi asta-sekinlik bilan uni qamrab oladi. Bunday odamlar o'zlarini hurmat qilishni va o'zlarini yaxshi ko'rishni hech qachon o'rgana olmaganlar orasidan chiqadi va ular doimo hokimiyatga bo'ysunadilar. Shuning uchun ham ezilgan xalqlar Gitlarga o'xshaganlarni qo'llab-quvvatlab, demokratiya degan, lekin hech qachon demokratiya amalda bo'lmagan mamlakatlarda ularga qat'iy turib ovoz berishgan. Shuning uchun menga bu qizning yakkahokimiyatga nisbatan isyoni

va g'azabi yoqdi. Ich-ichida o'lmagan, tirik qolgan bir narsalar hali ham bor unda.

– Shoh o'z yurtiga qaytgach, Surayyoni ham yoniga olib, ko'plab mamlakatlarga rasmiy tashriflar qila boshlaydi. Bu ziyoratlardan biri Menderes davrida Turkiyaga qilingan tashrifdir. Adnan Menderes va Jalol Bayar Istanbulda Shoh va Shohbonuni mehmon qiladilar. Shoh Rizo Pahlaviy bu safarda xuddi otasi kabi Otaturk va uning inqiloblariga nisbatan hayratini yana bir bor ifodalaydi. Surayyo ajrashishdan avval Erondagi islohot harakatlariga rahbarlik qilishga urinib, xalq mehrini qozonadi. Biroq vaqt o'tib boryapti, lekin valiahddan darak yo'q. Biroz vaqt o'tgach, Surayyoning farzand ko'ra olmasligi aniq bo'ladi. Shoh Surayyoni ishlar o'z o'rniga tushguncha chet elga ketib turishga ko'ndiradi. Surayyo yurtini tark etayotgan payti, boshqa qaytolmasligini sezadi-yu, lekin qo'lidan hech narsa kelmaydi. Shoh keyinchalik unga agar boshqasi bilan turmush qurishga izn bersa, mamlakatga qaytib, qirolicha sifatida hayotini davom ettirishi mumkinligini aytadi, ammo Surayyo bu taklifni aslo qabul qilmaydi.

– Shohning aytgan so'zlariga qaranga, «Sen kel, lekin men boshqasiga uylanaman»mish... Shoh bo'libdi-yu, ammo afsuski, odam bo'lolmabdi.

Shohning qirolicha Surayyoga bildirgan bu taklifiga ham e'tirozi bor. Anglashimcha, bir tomondan, otasining onasiga nisbatan adolatsizliklari haqida ham o'ylaydi.

– U bu taklifni qabul qilmaydi va shuning uchun malika ko'zlari g'amgin holda yolg'iz qoladi. Uning endi na taxti, na toji va na boyligi bor. Qolaversa, butun dunyo jurnalistlarining nigohi u tomonda edi. Qayerga bormasin jurnalistlarning ta'qibiga uchrar, u haqda asossiz mish-mishlar tarqatardilar. Hatto shohning Surayyoga nihoyasiz boyliklar hadya qilgani va saroydagi javohirlarning hammasini Surayyoga bergani haqida ko'plab asossiz da'volar aytiladi. Holbuki, shoh malikaning kam-ko'stsiz hayot kechirishi uchun mablag' bilan ta'minlagan edi, bori shu. Nega jimsan, hech narsa demaysanmi?

– «Bechora malika» deyishimni kutmayotgandirsiz?
– Albatta, kutmayapman. Endi men malikalardan g'azablanishingni bilaman.

– Nihoyat, o'ziga yana bir boy xushtor topgandir.

Bu yerda g'azab o'qlari yana onaga qaytadi. «Nihoyat, o'ziga yana bir boy xushtor topgandir», der ekan qiziq onasining otasi bilan turmush qurishida ham shunga o'xshash sababni ko'rayotgan bo'lishi mumkinmi?!

– Yoshligidan kino yulduzi bo'lishni orzu qilgan qirolicha 1963-yilda suratga olingan «Ayolning uch yuzi» filmida bosh rolni ijro etadi. Biroq filmning barcha nusxalarini shoh sotib olgani haqidagi mish-mishlar butun dunyoga tarqaladi va uning namoyishlari bekor qilinadi.

Bu orada film rejissyori Franko Indovino va Surayyo o'rta-sida ishqiy munosabatlar boshlanadi. Juftlikning munosabatlari uzoqqa bormaydi. Surayyoning tolesizligi uni bu yerda ham ta'qib qiladi va Franko 1972-yilda samolyotda halokatga uchraydi. Bu og'ir yo'qotishdan keyin malika Rimni tark etadi va Parijga joylashadi. U 2001-yil 25-oktyabrda Parijdagi ko'p qavatli binoda joylashgan uyidan o'lik holda topiladi. Qayg'uli malika hikoyasi ham shu yerda tugaydi.

– Ayol, haqiqatan ham, tolesiz ekan.

U birinchi marta malikaga hamdarddek munosabat bildir-di va nihoyat, o'zini uning o'rniga qo'ya oldi. Bu men uchun tasodifdek tuyulmayapti. Demak, vaqti-vaqti bilan bu qiz onasiga ham qattiq achinadi!

– Demak, nihoyat uni biroz bo'lsa-da tushunding!

– Qanchalik tolesiz bo'lmasin, baribir umrini malika bo'lib o'tkazdi. Koshki men ham tolesiz bo'lsam-da, malika bo'lga-nimda edi. Yoki barvaqt o'lsam ham.

– Sen jiddiy gapiryapsanmi? To'g'risini aytganda men tolesiz malika bo'lishni xohlamagan bo'lardim. Nega sen malika bo'lishni shunchalik xohlaysan?

– Menga bir kun ham yetardi. Shu tuyg'uni bir kun bo'lsa-da, his qilishni xohlayman. Darhol o'lishga ham rozi edim.

- Bu haqda ham aytib ber, menga Alya! Men bu tuyg'uni anglashni xohlayman. Menimcha, sen inson bo'lishni malika bo'lishga tenglashtiryapsan.

- Bo'lishi mumkin. Agar men o'zimni inson sifatida ko'rmasam, bu mening aybim emas, hech kim menga odamdek munosabatda bo'lmagan.

Bu so'zlaridan ko'glim og'riydi. Mahzunligim yuragimga sig'may ketadi, go'yo. U bu yerga kelgan ilk kunni eslayman. Men ham rad qilgandim uni. Bunday qilganim uchun hozir qattiq afsusdaman, lekin u, hatto bizning baqaloq Tunaga ham o'zini rad qildirishning bir yo'lini topgandi. Uning tarixida rad etilish, istalmaslik, sevilmaslik bor. Bir tomondan, u bu taqdirning takrorlanishidan o'lgudek qo'rqsa, ikkinchi tomondan, u o'zini bu muqarrar yakunga tayyorlamoqda. Men juda e'tiborli bo'lishim kerak. Hattoki, bir kun kelib, u kutilmaganda nozik joyimga tegib qo'yadi, o'zi qo'rqadigan yakunni, hatto bu munosabatlarda ham o'z qo'llari bilan amalga oshirmasa deb xavotirdaman. Aslida, qalbining tub-tubidan u hech qachon bunday bo'lishini xohlamaydi, men buni bilaman, ammo qadari uni o'sha yerga olib borishi mumkin. Men unga qarshi qo'llayotgan qalqonimni kuchaytirishim, o'ziga qarata otgan o'q qaytib kelib, menga tegishining oldini olishim kerak. Psixiatr bo'lish shunday! Ba'zan insonni insoniylikdan chiqaradigan, lekin shu bilan birga pishitib, kamolga yetkazadigan uqubatli bir kasb!

- Bu yerga kelgan birinchi kuningdan buyon oramizda o'tgan voqealarni o'ylab qarasam, senga ham yaxshi munosabatda bo'lishlarini istamayotgandek tuyulding menga.

- Unday emas... Men odatlarimni takrorlayman, xolos. Oxirida payqashgandan ko'ra, boshidanoq mening qanday ekanimni bilishsin deyman.

- Adashmayapsanmi? Balki, bu xatti-harakatlar sen eng qo'rqadigan narsalarni qaytadan chaqirayotgandir.

Mening so'zlarimga darhol javob bermaydi, o'ylab qoladi. Qo'rquv bilan kutayotgan taqdirning vazifasini ado etishi

uchun chorlayotgandek, go'yo. U «Bir kunmas bir kun, baribir kelasan, undan ko'ra hech bo'lmaganda bir kun bo'lsa ham avvalroq kel», deyotgandek unga. So'ng kutilmagan harakat bilan boshini men tomonga burib, ko'zlarimga tikilgancha so'raydi:

– Taqdirga ishonasizmi?

Qiziq vaqtda qiziq bir savol! Xayolimdan aynan uning taqdiri bilan bog'liq fikrlar aylanayotgan vaqtda so'rayapti mendan.

– Ishonaman. Hayotimizda shunday narsalar borki, biz ularni o'zgartira olmaymiz. Misol uchun, biz kimning farzandi bo'lib dunyoga kelganimiz bizning irodamizdan batamom tashqarida va bu bizning hayotimiz yo'nalishini belgilab beradi. Men shunga qaramay, taslim bo'lish tarafdori emasman. Menda har doim isyonkor, har doim kurashadigan, har doim narsalarni o'zgartirishga harakat qiladigan shaxsiyat bor. Bemorlarimga, asosan shu taraflama jasorat berishga harakat qilaman. Tarixni o'qisang, taqdirini o'zgartirgan ko'plab insonlarni ko'rasan u yerda. Men sen haqingda ham shunday fikrdaman. Agar munosib kurashsang, g'alaba qozona olasan.

– Shuning uchun ham shu yerdaman. Inson quROLSIZ ham jang qilishi mumkinmi?

– Inson jang qilish uchun kerakli qurolni o'zi ishlab chiqishi kerak. Senda ko'rolmaganim ham mana shu narsa.

– G'alaba qozonishni qanchalik xohlayotganimni ko'rmayapsizmi...

– Men buni xohlayotganingni ko'ryapman, lekin buning uchun kurashayotganingni ko'rmayapman. Sen ichingdagi g'azabga taslim bo'lgansan. Holbuki, sen juda aqilli qizsan. Agar o'zing bilan yarashsang edi! Sen o'zingni kamsitish, xunuk ko'rsatish, boshqalar tomonidan qabul qilinmaslik, rad etilish va sevilmaslik uchun qo'lingdan kelganini qilyapsan.

– Bu ham isyonning bir turi bo'la olmaydimi?

Rostini aytsam, bu qandaydir isyon bo'lishi mumkinligi haqida o'ylamagan ekanman, lekin nega bo'lmasin?

– Bu haqda o'ylab ko'rmagan ekanman, lekin sen haq bo'lishing mumkin.

Balki, bu ham isyonning bir turidir! Ammo isyonning ikki turi bor. Isyon ko'tarish uchun isyon qilish yoki g'alaba qozonish uchun isyon qilish. Sen qaysi birini qilyapsan?

- Siz biron marta mashinangiz bilan mushukni urib yuborganmisiz?

- Yo'q, umid qilamanki, bunday bo'lmaydi ham men bunga chidolmayman.

- Men ana o'sha mushukka o'xshayman. Mashina urib ketganidan so'ng yo'lda jon olishib yotgan bechora mushukka.

Qanday shafqatsiz o'xshatish bo'lmasa! Bu qiz o'zini shunchalik ojiz his qiladimi?

- Unday qilma, Alya. O'zingga nisbatan nohaqlik qilma. Mana, endi sening o'rningga men isyon qilyapman. Sen huquqshunossan, odamlarga adolatni ta'minlaysan. O'zingni o'sha mushuk bilan qanday solishtirasana?

- Odamlar gazetalarda o'qib Malika Surayyoning tolesiz taqdiriga achindi. Lekin yo'lda jon talvasasida yotgan mushukka birov qaramaydi ham. Avval malika bo'lasan. Achinishlariga loyiq bo'lishing kerakki, toki odamlar ham sen haqingda qayg'ursin.

Aytayotganlari oson hazm qilinadigan narsalar emas. O'zini yarador mushukka o'xshatishi meni qattiq qayg'uga soladi.

- Muhim bir inson bo'lish uchun malika bo'lish shart emas. Sen buni boshqa yo'l bilan amalga oshirishing ham mumkin. Buning ustiga yosh, aqlli va mehnatkash qizsan. Ularni hayotga tatbiq qilishni o'yla!

- Ha shunday qilyapman. Ko'rmayapsizmi, fursat bo'ldi deguncha yoningizga yuguryapman. Hozircha qo'limdan kelgani shu. Qolganini birga bajaramiz.

- Umid qilaman...

- Yana ko'p vaqtingizni oldim.

- Hechqisi yo'q, ko'ramiz, keyingi safar nimalarni hikoya qilib berasan menga!

Ko'zlari qo'rquvdan katta-katta bo'lib ketadi.

– Qo'rqma, azizam, men militsioner emasman, sening ko'rsatmangni olish niyatim ham yo'q. Aytasang, eshitaman, aytmasang, baribir o'zim gapiraman.

– Siz aytib berasiz shundaymi? Shunday chiroyli hikoya qilasizki, hayotimning eng baxtli kunlarini shu yerda kechirayotgandekman. O'sha xunuk mushuk bolasi meni shu yerda tark etadi, o'zimni sizning yoningizda tirik jonzotdek, insondek his qilaman...

– Bugun navbatingni boshqasiga beribsan. U chiqquncha kutib ham o'tirding. Bu juda ajoyib, insoniy harakat edi. Buning uchun senga rahmat aytmoqchiman.

– Arzimaydi?

Shu gapni aytib, qo'limga tegingandek bo'lib, xonadan chiqadi. G'alati bir mahzunlik chulg'ab oladi meni. Go'yoki qayg'u bug'i havoga tarqalib, bo'g'adigan, nam hammomda kabi his qilaman o'zimni. Holbuki, Alya bu xonadan juda yaxshi holatda chiqdi. U bu yerda o'zini baxtli his qilganini ayt-di. Ehtimol, «baxt» so'zini birinchi marta qo'llagandir, lekin bu qiz insonni qayg'uga soladi. O'rnimdan turib, qo'limdagi tasbehim bilan xonam ichida bir pastga, bir yuqoriga yuraman. Umid qilamanki, hech kim eshikni ochmaydi, chunki bu holatim odamlarni tashvishga soladi, keyin menga savollar berishni boshlashadi. Buni esa xohlamayman. So'ng ohista derazam oldiga kelib, dunyoni kuzataman. Kechki quyosh bulutlar orasidan bir ko'rinib bir g'oyib bo'ladi. Bu quyosh barcha tirik mavjudotlarga hayot baxsh etadi. Oynani ochiboq toza havo bilan birga Anqaraning uzoqdan kelayotgan shovqini xonamni to'ldirganini his qilaman. «Hayot davom etmoqda», deyman o'z-o'zimga, demak bir onga bo'lsa-da, bu hayot men uchun to'xtab qolgan ekan.

Eshik yengil taqillaydi va Nevin qo'lida patnis ko'targancha ichkariga kiradi. U menga issiq choy va pechenye olib kelibdi. Qizil fartugini taqib olgan yana. Nevin bu xonaga har gal kirganida, go'daklarni eslatuvchi qizil yonoqlari, yonib turuvchi ko'zlari, hayajondan titrovchi qo'llari bilan, ayniqsa,

farqli-farqli tuyg'u uyg'otadi menda. U xonaga olib keladigan tuyg'u-quvonch, jo'shqinlik va yoshlikdir! Vaqti-vaqti bilan, Nevin asta eshikni ochib suhbat o'rtasida bir bahona bilan xonaga kiradi. Bemor ham kalovlanib qoladi, men ham. Bunday narsalar yoqimli emas, lekin kirgan odamni ko'rishimiz bilan, ikki tomon ham hovurdan tushamiz va ishini tugatib ketguncha uni maroq bilan kuzatamiz. Tuna buni juda yaxshi bilgani uchun, uni har doim ham ichkariga qo'yavermaydi. Ko'pincha eshikdan qo'lida patnis bilan qaytadi, lekin ba'zida Tunaning ko'zini shamg'alat qilib, kirishning uddasidan chiqadi va tong quyoshidek xonaga kirib keladi. Tong quyoshiga qanchalik g'azablanish mumkin bo'lsa, biz Nevindan shunchalik g'azablanamiz. U onasi bilan birga oshxonada ishlaydi. Uning onasi Ayten bir necha yillar avval men bilan ishlay boshladi. Uning bir-biridan go'zal uch qizi bor. Men u bilan tanishganimda farzandlarining eng kattasi maktabga chiqqandi. Nevin esa hali maktabga ham bormasdi. Ayten yillar davomida tinim bilmay mehnat qilib, hech qachon «charchadim» demasdan, qizlarini o'qitdi. Hozirda katta qizlari universitetni tamomlab o'zlariga yaxshi ish va turmush o'rtoq topdilar. Ayten bilan birga faqat kenjatoy Nevin qoldi. Peshona teri bilan sotib olgan uylarida ona-qiz birga yashashadi va erta tongdan yana birga ishga kelishadi. Ikkalasi ham bu yerda ishlashdan baxtiyor. Biz ularni yaxshi ko'ramiz, ular ham bizni...

Tomog'im qaqragandi. Bu choyni ayni vaqtida olib keldi Nevin. Hali choyimni ichib tugatmasimdan Tuna kirib keladi. Kompyuterimdan uchrashuvlarni ko'rib chiqaman. Ko'rishim kerak bo'lgan yana bir qancha bemorlarim bor. Qo'llarini qovushtirgancha so'z boshlaydi u:

– Husaynbey bilan oilasi keldi. Ular qabulga yozilmagan, lekin sizni kutishmoqda. Saharlab kelishibdi Anqaraga. Qo'ng'iroq qilib, «shoshilinch vaziyat» deyishgach, «Kelave-ringlar, orada vaqt bo'lganda doktor xonim sizlar bilan ham gaplashadilar», degan edim lekin yugur-yugurda sizga aytish-

ni unutibman. Bir soatdan beri kutishmoqda. U menga qo'rib qaraydi. Mendan so'ramay hech qachon bunday ish qilmasdi, bu birinchi marta sodir bo'ldi.

– Qaysi Husaynbey haqida gapiryapsan?

– Haligi o'qituvchi bor-ku! Esladingizmi? Tez-tez turmush o'rtog'i bilan birga kelishadi-ku?

– Ha, umi? Mayli, mayli. Kirsinlar Ammo bizda uchrashuvlarini kutayotgan bemorlar bor.

– Sho'rlikning ahvolini ko'rgach, hech biri e'tiroz bildirmadi. Agar siz ham mayli desangiz, avval uni kiritamiz.

Husaynbeyni eslay olmasligim mumkinmi? U kichik bir shaharchada o'qituvchilik qiladi. Rafiqasi esa bankda ishlaydi. Ularning ikki farzandi bor. Er-xotin ishlab, farzandlarini o'qitgan. Hozir ikkala farzandi ham universitet talabasi. Ular haqiqiy Onado'li oilasi. Hammalari bir-birlariga qarab ish tutadi. Hech biri boshqasining kasal bo'lishi, xafa bo'lishiga dosh berolmaydi, lekin ba'zida jahllari chiqqan payt bir-birlarini qattiq xafa qilishlari ham mumkin.

Bundan sakkiz, o'n yillar avval Husaynbey ilk depressiyaga tushgan payti kelishgandi yonimga. Ular o'z shahridagi shifokorlarga ham borishgan, ammo foydasi bo'lmagan. Naq o'z joniga qasd qilish holatiga yetib kelgandi bechora odam. Maktabga ham bormay qo'yibdi. Bir joyda turolmas, kecha-kunduz uyda siqilib, uyoqdan buyoqqa yuraverarkan. O'sha payt maktabda arziyas muammolari bo'lgan. Ayo-li «Ularga achinib shu holga tushdi», deb aytgandi. Yemay-ichmay qo'ygan, ertalabdan kechgacha o'ylayverar, doimo och qolishlaridan, boshqalarning qo'lga muhtoj bo'lishdan qo'rqar ekan. O'sha payt qilgan muolajalarimiz bilan tuzalgan edi, ammo biroz vaqt o'tib, boshqa shikoyat bilan kelishdi. Husaynbeyning kayfi chog', tinmay bir nimalarni aytar, hech narsa bo'lmaganini, ayoli majburlab olib kelganidan nolirdi. Uni ko'rganimdanoq manik depressiyaga chalinganini bilgandim. Ya'ni bu safar depressiya boshqacha holda namoyon bo'lib, Husaynbeyda kasallik avjlanib borayotgandi.

Birinchi kundan beri ko'zimga issiq ko'ringanlari uchun xuddi uzoqdan kelgan qarindoshlarimdek doim eshik oldida kutib olaman. Husaynbey shu sababdan dori olishni istamay sal oyoq tiradi, lekin oxir-oqibat, u davolanishga ko'ndi va dorilarini olib ketishdi. So'ng kasallik qaytalanmasligi uchun profilaktik dorilar berdim. U turmush o'rtog'i bilan yiliga kamida bir marta keladi va uzoq vaqtdan beri Husaynbeyning salomatligi joyida edi. Ko'raylik-chi, nima bo'ldi ekan?

O'rnimdan turib, kutish joyiga chiqaman. Husaynbey bilan ayoli meni ko'rishi bilanoq, o'rnilaridan turib, darhol yonimga kelishadi. Ey voh, ahvoli juda og'ir-ku, mening aziz bemorimni. Nima bo'ldi ekan-a? Eshik oldida ular bilan qo'l berib ko'rishgach, xonamga kirib ro'paramdagi o'rindiqqa o'tirishlarini so'rayman. Ayolining ko'zlari jiqqa yosh. Husaynbey esa nursiz, qayg'uli ko'zlari bilan qaraydi menga. Depressiya yana boshlanibdi. Qiziq, nega? Ayoli gapira boshlaydi.

Uzoq vaqtdan buyon hammasi joyida ekan. Universitet ochilishidan oldin qizlarini yotoqxonaga joylashtirish uchun tez-tez qatnashga majbur bo'lishgan va bu sayohatlar sirasida dorilarni qabul qilishga beparvolik qilishgan. «Shuncha yildan beri ichyapmiz-ku, bir hafta ichida hech narsa bo'lmas», deb o'ylashgan, lekin ular taxmin qilgandek bo'lmagan. Ular kasallikni unutgan bo'lsalar-da, kasallik ularni unutmagan va payt poylagandek darhol yoqasidan olgan.

Odam bechora ancha parishon!

Ayoli bu gaplarni aytarkan, u o'rnidan turib, xonada u yoqdan bu yoqqa keza boshlaydi. Har bir a'zosini tushkunlik va qayg'u egallab olgan. «Iltimos, meni bu balodan qutqaring», deydi tinimsiz. Uni ko'rib juda xafa bo'laman. Qanday yaxshi inson u. Kim bilsin o'quvchilari uni qanchalik yaxshi ko'rarkin. Ayoli ham undan kam emas. Erini qanchalik sevadi-ya. Men ularni tinchlantirishga va umid berishga harakat qilaman. «Xavotir olmang, avvalgidek yana o'tib ketadi, lekin bizga biroz vaqt kerak». Dorilarni yozar ekanman, har biriga alohida to'xtalib tushuntiraman. Ikkisining ham ko'zlariga

qarab, ularga ishonch berishga harakat qilaman. Aslida, men bu depressiyaning qanchalik shafqatsiz xastalik ekanini juda yaxshi bilaman. Men bu odamning boshidan naqadar og'ir kunlar kechayotganini tushunaman, lekin hozircha qo'limdan kelgani shu. Tezda o'tib ketmaydi, buni ham bilaman. Shuning uchun men imkon qadar ro'yxatga tezroq kasallikni bartaraf qiladigan dorilarni ilova qilaman. «Endi kechalari bedor yurmaysiz, tinch uxlaysiz, ishtahangiz ham tez orada ochiladi, qo'rqmang, hammasi tez orada o'tib ketadi», deyman.

Er va xotin yana bir-biriga suyangancha, menga rahmatlar aytib, xonadan chiqadi. Ayoli uni qanchalik mehr va sevgi bilan qo'llab-quvvatlaydi! Og'zimda achchiq ta'm zohir, so-dir bo'lgan voqeaning qayg'uli qoldiqlari qirmizi xonamning devorlariga joylashadi. Endi biroz tezroq harakat qilishim kerak. Qarashim kerak bo'lgan bemorlarim bor va boz ustiga bugun kechqurun klinika bilan bog'liq bitmas-tuganmas majlislardan birini o'tkazishimiz kerak. Shifokorlar, psixologlar yoki boshqa xodimlar bilan majlis qilamizmi, hozircha aniq bilmayman...



Uydan chiqqach, mashinaga o'tirishdan avval tashqari-da biroz yurib qaytaman. Aydin kasal bo'lib, uydan chiqolmay qolgan kunlaridan boshlab, menga bu odat bo'lib qolgan. Kli-nikaga borishdan oldin kayfiyatimni biroz ko'tarish, yuzim-dagi horg'inlikni aritish uchun shu bog'da aylanib yurardim. Bog'imiz katta, keng, ko'rkam, bu yerda sayr qilgan sayin in-son ruhan dam oladi. Televizordagi teleko'rsatuvlarda xafa, horg'in bo'lgan psixiatrlarni ko'rsam g'alati bo'laman. Chun-ki odamlar psixiatrnga borishga qaror qilganlarida, ular shifo-korni ozmi-ko'pmi onglarida tasavvur qilishadi. Menimcha, hammaning orzusidagi shifokor birinchi navbatda samimiy, sertabassum bo'lsa kerak. Ham yuzing, ham tashqi ko'rini-shing hamda uni jon qulog'ing-la tinglay olishing bilan be-morning ko'nglidan joy olishing mumkin. Shifokor bemorni tinglar ekan, u boshqa hech narsa haqida o'ylamasligi kerak, hech narsa sizni bir lahzaga ham chalg'itmasligi lozim. Be-morlar shuni xohlashadi. Agar men bemor bo'lsam, men ham shuni xohlagan bo'lardim. Shuning uchun klinikaga borish-dan avval kiyimimga, sochimga, tashqi ko'rinishimga, ham-masiga alohida-alohida e'tibor qarataman. Hatto atirim ham bundan mustasno bo'lmaydi. Klinikada ishlayotgan boshqa hamkasblarim ham shularga e'tibor berishlarini istardim. Ularga «Bu shunchaki biror bir oddiy joy emas, bu psixiatri-ya klinikasi», deyman. «Siz har doim chiroyli va sertabassum bo'lishingiz kerak».

Tonggi sayrim tugagach, mashinaga o'tirib, radiodan yax-shi energiya beruvchi musiqani izlayman. Klinikaga kelga-

nimda atrofimga diqqat bilan razm solaman. Eshik oldidagi xizmatchilardan tortib, bemorni qabul qilish uchun mas'ul xodimlargacha ularni birma-bir ko'zdan kechiraman. Keyin o'zimizning bo'limimizga chiqaman. Tuna har doim toza va o'ziga qaragan bo'ladi. U mening bu narsalarga qanchalik talabchanligimni yaxshi biladi. Xonamga kirganimda, birinchi navbatda u yerdagi narsalarni birma-bir ko'rib chiqaman. Bu joyni tozalayotgan payt xodimlar, mening stolimni bir-biriga taxlab qo'yishadi. Birinchi navbatda men ularni o'z o'rniga qo'yib chiqaman, bir vaqtning o'zida kompyuterimni ham yoqaman. Bugun ham ko'rishim kerak bo'lgan ko'plab bemorlarim bor. Soatimga qarayman, darhol birinchi bemorni qabul qilishim kerak. O'zimda qandaydir g'alatilik sezaman, birdan esimga tushadi, bugun ertalabki qahvamni ichmabman. Demak, shundan o'zimni g'alati his qilayotgan ekanman. Qahvaga mukkasidan ketgan emasman, kuniga bir martagina ichaman, xolos. Aslida, o'zimga qolsa, men har soatiga ichgan bo'lardim, yurak urishim juda tez bo'lgani sabab bundan o'zimni tiyaman. Shu zahotiyiq oshxonaga qo'ng'iroq qilib, ko'nglim qahva tusayotganini aytaman

Ana endi men bemorlarimni qabul qilaman. Eshik taqilaydi va o'rta yoshli bir ayol kirib keladi. Qop-qora kiyinib olgan. Qo'lida sumkasi, boshi egik, eshikni asta yopgach, qo'limni siqadi va ko'rsatgan joyimga o'tiradi. Qanchalar g'amgin ayol! Uning dardlari ko'zlarining ich-ichiga o'rnashgandek, go'yo! Unga qarab, ichim biroz titraganini sezaman. Biror yaqinini yo'qotganmikin? Odatdagidek unga «Xush kelibsiz», demoqchi bo'laman-u, lekin tilim bormaydi. U menga ko'z qiri bilan shunday mahzun, shunday chuqur termiladiki, nima deyarimni ham bilolmay lol qolaman. Ismini so'rashga ham jur'at qilolmayman, hatto. Eng yaxshisi jim o'tirib, uni tinglash...

U biroz gapirmay faqat to'griga tikilib turadi. Keyin bir necha marta gapirmoqchi bo'lib og'iz juftlaydi-yu, shuncha-ki taslim bo'lgandek jim qoladi. Qo'ynidagi sumkasini stolga

qo'yadi-yu, ikki qo'lida xuddi muhim narsa bordek diqqat bilan ko'zdan kechiradi. Men uning qo'llariga uzoqdan qarashga harakat qilaman, lekin hech narsa ko'rolmayman. Uning qo'llari qabargan, ko'p mehnat qilgani ko'rinib turibdi.

Men uning sochlaridan, yuz ifodasidan nimadir anglashga urinaman. U anqaralik emas, bu aniq. Libosi, sochi, oyoq kiyimi, qo'lidagi sumkasi, barmog'idagi qizil toshli uzugi, bularning hech biri bu yerliklarga xos emas. Sharq tarafdan kelgan ko'rinadi. Yuzidagi alamli ifoda ham buni tasdiqlaydi. Ammo u uy bekasiga ham o'xshamaydi. Bu ayol ishlaydi. Balki o'qituvchidir? Biroz suhbatlashsak, balki bu ham ayon bo'lar. Aksariyat o'qituvchilar bu kasbga xos ohang va nutq uslubiga ega bo'lishadi, lekin u gapirmaydi. Sukunat uzoq davom etgani sari u bilan o'zimni noqulay his qila boshlayman. Endi bir narsalar haqida gapirsa yaxshi bo'lardi. Shu payt u barmog'idagi qizil toshli uzukni olib, menga uzatadi. Men nima qilishni bilmay hayron qolaman. Nimasi bor ekan, bu uzukni? Biroz ikkilanib turgach, u uzatgan uzukni olib, tekshira boshlayman. Qizil rangni juda yoqtiraman. Bu tosh yoqut emas, oddiy tosh, lekin to'rtburchak kesimi bilan juda chiroyli yaltiraydi. U ingichka, ehtimol, sakkiz karatli oltin uzukka o'rnatilgandir. Uzukda jiddiy mahorat yo'q, lekin u shunchalik ko'p taqilganki, agar u biron-bir qiymatga ega bo'lsa, menimcha, bu uning ko'pchilikka xizmat qilganidan bo'lsa kerak. Bu uzuk bu ayol bilan birga yillar yuki-ni ko'targandek, go'yo. Uzukni qo'limda aylantirib tursam, eshik yana taqillaydi va Nevin qo'lida patnis bilan ichkariga kiradi. Undan so'rayman:

– Sizga bir finjon qahva taklif qilsam, qarshimasiz?

Sarosima bilan menga qaraydi va boshini ikki tomonga chayqab «yo'q» deydi. Nevin ketgach, qahvamdanda qultum ichaman: Qanday mazali bo'lmasa, hidini qarang, naqadar ajoyib! Keyin yana qo'limga uzukni olib, ro'paramda o'tirgan ayolning ko'zlariga savol nigohlari bilan qarayman.

– Menimcha, bu siz uchun juda qadrlil bo'lsa kerak-a!

- Yo'q, uning na moddiy, na ma'naviy qiymati bor, lekin bundan boshqa, sizga bera oladigan narsam ham yo'q.

- Menga? Nega menga bu uzukni beryapsiz?

- Bu yerga men olisdan keldim. U yerda ham psixiatrlar bor, lekin men ularga bormadim. Siz yozgan kitoblarni o'qib chiqdim. O'g'lim menga o'sha kitoblarni olib bergandi. Bizning boshimizga bu ish tushganida «Meni faqat u tushunadi», dedim va keldim. Tashrif haqini to'lashga pulim yo'q. Buni boshidan bilishingizni istayman. Agar siz bu qadrsiz uzukni qabul qilsangiz, umrimning oxirigacha sizning haqqingizga duo qilaman. Lekin qabul qilmasangiz, sizga ta'na qilmasdan chiqib ketaman. Hech qaysi mehnat evazsiz qolmasligi kerak.

Men o'zimni g'alati his qilaman. Bu uzuk qachon va qanday sotib olinganini kim biladi deysiz. Chap qo'lida eskirgan qora tasmali soat ham bor. Bu uzuk, ehtimol, bu ayolning yagona ziynatidir. Uni ham menga beradi. Olsam ham bir dard, olmasam ham! Agar men bu uzukni olsam, o'zimni yaxshi his qilmayman, agar olmasam, u uni pisand qilmaganimdan, deb o'ylaydi. Aslida, bu klinikani ular uchun ochmadimmi? Puli yo'q odam kelib, mutaxassis shifokor, psixologlar ishlaydigan muassasadan xizmat ko'rishi uchun yillar davomida kecha-yu kunduz o'qimadimmi? Qiziq, sug'urtasi ham yo'qmikan?

Lekin u boshqalarni emas, meni xohlayapti. Shuning uchun ovora bo'lib uzoqlardan kelibdi. Bu ayolning o'ziga xos, juda muhim muammosi bor. Shu uzukni bir chetga surib, avval unga nima bo'lganini bilay-chi. Qolgani bir gap bo'lar. Uzukni stolim ustiga qo'yaman-da, so'rayman.

- Xonim, ismingizni bilsam bo'ladimi?

- Sunduz!

- Sunduz xonim, muammo nimada?

- Rozi bo'ldingizmi?

- Hmm, ha... Endi muammoyingizni eshitmoqchiman.

- Gulseren xonim, men davlat ishida ishlayman. Turmush o'rtog'im ham shunday. Ko'p yillar farzand ko'rmadik, keyin Xudo bizga o'g'il berdi. Er-xotin birgalashib farzandimizni

yerga qo'ymay katta qildik. U hech qachon sho'x bola bo'lmagan. Qiz boladek yuvosh, etagimdan ayrilmay katta bo'ldi. Aslida, biz uni hech nimadan cheklamasdik. Uning o'zi boshqa bolalar kabi bo'lishni xohlamasdi. Vaqt o'tishi bilan biz uning bu holiga ko'nikdik. «Bizning bolamiz juda royish, urishni, sindirishni bilmaydi», dedik. Hozir u universitetni tamomlash arafasida. O'qishlarini har doim a'lo baholarga bitirgan, lekin o'tgan hafta uyda uchovimiz o'tirganimizda otasi bilan meni oldiga olib, bizga nimalardir dedi. Avvaliga uning gaplarini to'liq tushunmadik, lekin u yig'lab holatini bizga aytdi. Bizning o'g'limiz o'g'il bola emas ekan. Bunaqalarni bir narsa deyishadi-ku, o'shanday ekan.

– Xunasami?

– Ha, shunday ekan, «Endi sizlardan yashirib yurolmayman, men erkak emasman», dedi. Keyin oshxonadan pichoqni olib kelib, «Xohlasangiz, hozir o'zimni so'yib tashlayman, sizlar ham, men ham qutulamiz», dedi. Ikkimiz ham baqirchaqir bilan uning qo'lidan pichoqni amallab oldik. Farzandimiz bundan kamida biz kabi qayg'uga botgan. Kimdir buni sezib qolishidan qattiq xavotirda. Aytishicha, yillar davomida uydan ko'pam chiqavermagani, jamiyatga ham qo'shilmaganiga sabab shu ekan. Hamma narsadan hafsalasi pir bo'lgan. «O'qiyapman, lekin bundan nima naf, bu holatda qayerda ham ishlayman?» deydi. Erim ham, men ham lol qoldik. Bolam o'z xonasiga chiqqach, eshikni yopib, ham yig'ladik ham boshimizni devorlarga urdik. Turmush o'rtog'im o'zini o'zi devorga uraverganidan tizzalari momataloq bo'lib ketdi. «Men odamlarning yuziga qanday qarayman», derdi u. Ko'rib turganingizdek, farzandimiz bir tarafda, biz esa bir tarafda ich-etimizni yeyapmiz. Agar ko'zimizning oq-u qorasi bo'lgan o'g'limiz transport hodisasi tufayli halok bo'lganida ham shunchalik kuyunmasdik. Uni ham ko'zimiz qiymaydi, bola bechoraning hech qanday aybi yo'q, boz ustiga qattiq iztirobda. Bo'lgan holatdan sarosimadamiz, aqlimiz hayron. Uydan qanday chiqqan bo'lsam, shu yerda sizning xonangizda nafas

oldim. O'zinga o'zim «U bizga to'g'ri yo'l ko'rsatadi», dedim. Endi sizdan iltimos qilib so'rayman, ayting, biz nima qilaylik? Buning biror yechimi bormi? Agar chorasi bo'lsa, bor-budimni sotib bo'lsa ham o'glimni davolataman.

«Eh sho'rlikkina», deyman o'zinga o'zim, «Sho'rlik ona...» Endi qanday qilib tushuntiraman Sunduz xonimga buning kasallik emasligini? Ehtimol, bu qabul qilinishi kerak bo'lgan haqiqatdir? Bu yigitni yolg'iz qo'ymasliklarini, unga g'ayritabiiy, axloqsiz, insofsiz odam sifatida qaramasliklarini qanday tushuntiraman? Ular chekayotgan iztirobdan ming marta battarini o'g'illari chekkanini, bu hayotda yillar bo'yi o'zini qanchalik yolg'iz his qilganini qanday izohlay olaman?

Xonaga kirgan payti uning ko'zlarida ko'rgan iztiroblar sababini mana endi tushundim. O'limdan ham kuchliroq iztiroblar bor, demak hayotda. «Qani endi ko'rsat doktorligingni», deyman o'z-o'zimga. Qani endi buning biror dorisi bo'lsa-yu, bersang-da ichib shifo topsa xastang. Avvalo, chuqur nafas olaman. Qahvam ham sovub qolgan. Sunduz xonimning aytgan gaplaridan, hatto qahvamni ham unutib qo'yibman.

– Sunduz xonim, uzoqdan kelibsiz. Sizga choy aytay, qahvaga e'tiroz bildirdingiz, lekin choyni qaytarmaysiz deb umid qilaman.

Shunday deb oshxonaga qo'ng'iroq qilaman va ikkita choy buyuraman. Uning nigohlarida minnatdorlik tuyg'ulari aks etadi.

– Muammoyingiz juda jiddiy. Bundan tashqari, muammo faqat sizniki emas. O'g'lingiz ham, turmush o'rtog'ingiz ham, siz ham bu voqeadan qattiq ta'sirlangansiz. Siz haqsiz. Ayniqsa, bizning mamlakatda bunday ishlar masalasi juda mushkul! Siz menga ishonib, uzoqlardan kelibsiz. Bu ishonchingiz uchun alohida rahmat aytaman va bunga munosib bo'lishga harakat qilaman. Bu muammoni sizniki deb emas, balki o'zimga deb qarayman hamda o'zinga nimani to'g'ri deb bilsam, sizga ham shuni aytaman.

– Xudo sizdan rozi bo'lsin, Gulseren xonim. Murodingizga yeting doim.

Men duolarni juda yaxshi ko'raman, ular menga ezgu ish qilayotganimni his qildirib turadi. Qo'limdagi marvarid tasbehni aylantirar ekanman, gapni nimadan boshlashni o'ylayman.

Choylar kelgach, xonani bir muddat qoshiqlarning shiqirlagan ovozi tutadi. U ham choyini men kabi shakar bilan ichadi. So'ng sekin-asta gapira boshlayman. Mavzuni qoq-o'rtasidan boshlamayman. Avvalo, men millionlab yillar davomida mavjud bo'lgan bu dunyoning o'tmishi va kelib chiqishidan so'z ochaman. Urf-odatlar va an'analar qanday shakllanganini va vaqt o'tishi bilan qay tariqa o'zgarinini aytaman. «Odamlar nima deydi», demasak, ba'zi narsalarning qanchalik osonlik bilan hal bo'lishini, aslida, bizni qo'rqitadigan narsalar jamiyat bilan bog'liq ekanini, holbuki, biz haqimizda o'zimizdan boshqa hech kim o'ylamasligini yotig'i bilan tushuntiraman. Farzandini yoki turmush o'rtog'ini yo'qotgan odamlarning iztiroblari haqida aytaman, «Qaniydi, u o'lmaganda edi, bu dunyoda bir joylarda yashayotganini bilib tursam bo'ldi edi, menga qo'ng'iroq qilmasa ham, hol-ahvol so'ramasa ham rozi edim», degan armon bilan o'tayotganlar haqida hikoya qilaman.

So'ng undan, «Xudoga ishonasizmi?» deb so'rayman.

– «Ha juda... judayam», – deydi u. Shu payt ich-ichidan Xudoga ham isyon qilayotganini anglatadi uyalgancha. Shunda Xudo hammamizning Robbimiz ekanini aytaman unga:

– «Mening ham, sizning ham, o'g'lingizning ham... O'ylaymanki, bu holat sizlardan ham ko'ra ko'proq farzandingizga ta'sir qilgan. Hech kimga aytolmaganini, bo'lisholmaganini faqat Alloh bilan bo'lishgan, dardini Unga aytgan. Balki sizlarga aytish uchun kuchni ham Undan olgandir. Xudoga sig'indi, ya'ni Undan panoh topdi. Uni bu dunyoda boshqalar kabi siz ham yolg'iz qoldirmang. Sizga yoqadimi yoki yo'qmi, u sizning farzandingiz. Siz uni dunyoga keltirgansiz. Birgalikda, bir-biringizga dastak bo'lib, o'g'lingizga yelka tutsangiz, bu tashvishlarni osonroq yengasiz», deyman.

Bularni tinglar ekan, ko'ngli bo'shashib ketadi. Men u bolani shu klinikaga olib kelishlarini iltimos qilib so'rayman.

Bunday holatlar ba'zan butunlay biologik sabablarga ko'ra yuzaga kelishi bilan birga, bunda yosh yigitning o'z jinsini vaqtida va to'g'ri anglab yetmasligi ham sabab bo'lishi mumkinligini, buning uchun psixologlarimiz uni uzoq eshitishi, anglashi, aniqlashi kerakligini aytaman.

– Xoh biologik, xoh ijtimoiy sabablarga ko'ra bo'lsin, yuzaga kelgan bu vaziyatda sizning o'g'lingizning hech qanday aybi yoki javobgarligi yo'q. Avvalo, buni anglab yetishingiz va uni ayblashni bas qilishingiz kerak. Siz unga taslim bo'lishingiz kerak. Bu tanlov emas, also unutmang, – deyman.

Meni oxirigacha diqqat bilan tinglaydi. Stolda turgan sumkasini olib, ochadi. Ichidan kulrang chiziqli katta oq ro'molchani oladi. Anchadan beri oqaverib yuzini ho'llagan ko'z yoshlarini u bilan artadi. So'ng ro'molni avaylab buklab, sumkasiga solgandan keyin ketmoqchi bo'lib o'rnidan turadi. Kelgan paytiga qaraganda holati ancha yaxshi. Garchi, juda og'ir bo'lsa-da, uni qattiq qayg'uga solsa-da, haqiqatni qabul qildi. Shu payt stolim ustidagi qizil toshli uzukka ko'zimga tushadi. Qo'linga olaman, biroz ko'zdan kechirgach sekin Sunduz xonimga uzataman. «Buni oling va barmog'ingizga taqing. Unga qaraganingizda, meni eslang, bugun, bu yerda gaplashganlarimizni eslang», deyman. Biroz ikkilangach qo'lini uzatadi. Uzukni barmog'iga sekingina taqib qo'yaman. Uzuk yillar davomida o'rganib qolgan o'rniga joylashadi. Keyin bo'ynimdan quchoqlab yana yig'laydi. «O'g'limni imkon qadar tezroq olib kelaman», deydi menga. Birga xonamning eshigigacha boramiz. Uni eshikdan kuzatib qo'yaman. Boshi egik, qaddi buki, ketib boradi.

Eshikni yopib, derazam oldiga kelaman. Juda mahzunman. Bundan ham ortig'ini qilishni xohlardim, ammo qilolmadim. Unga aytgan hech bir narsam uning og'rig'ini yengillashtirmaydi, buni yaxshi bilaman. So'nggi umid deya kelgan menga... So'nggi umid...

Tuna hayajon bilan kirib keladi. «Charchadingizmi?» deb so'raydi mendan. Hali kutayotgan ko'p bemorlar bor ekan.

Sochlarimni biroz tuzatib, stolimga o'tiraman. Tuna yuzimga qiziqib qaraydi. Kim biladi, hozir qancha savol berarkan. U so'rashidan avval men, «Hammasi joyida, Tuna, qani, navbat kimniki bo'lsa, o'shani chaqiraqol», deyman. So'ng qabulga yozilgan bemorlarimning biri kirib, biri chiqadi. Oxirgi navbat Alyaniki, so'ng men ham uyga qaytaman.

Alya yana boshini oldinga eggancha xonamga kiradi. Yoz keldi, lekin u hali ham to'q jundan to'qilgan xirqasini kiyishni to'xtatgani yo'q. Sochlari yana to'zg'igan, ammo, qizil, to'g'nog'ichini taqib olgan. U menga qaraganda, avvalgidek xunuk ko'rinmayotganini sezaman. Yana uning ko'rinishi mahzun shu bilan birga yuzida rang va hayotga bo'lgan zavq uyg'ongandek, go'yo. Katta eski charm sumkasini stol ustiga qo'yib, chang bosgan qora xirqasini yechmoqchi bo'ladi. Nazarimda, u egnidagi kiyimlarini yillar davomida yuvmay va tozalamay kiyib yurgan. Xirqasini yechib, chap qo'lidagi kesilgan izlarini ko'rsatadi. Ilgari u bu izlarni ko'rishimni istamas, mendan yashirardi. Bugun ularni ko'rishimni bilsa-da xirqasini yechishdan tortinmadi. U cho'pdek oriqlab ketgandi. Qaddini avvalgidan ko'ra ancha tikladi, endi bukchayib yurmaydi. Biroz to'lishgani uchun butun tanasini to'rdek qoplagan, ko'm-ko'k bo'lib ko'zga tashlanib turadigan tomirlari ham g'oyib bo'ldi.

- Qo'lingdagi izlar nima?
- O'zim kesdim.
- Nimaga?
- Jonimni og'ritish uchun.
- O'zingga achinmaysanmi? Nega kesding?
- Afsuslanmayman... Menga achindingizmi?
- Rostini aytishga kelishgan edik, to'g'rimi?
- Boshidan shunga kelishgandik.
- Ha, achindim... Odamlar senga achinishlarini xohlamaysan, buni bilaman. Ammo baribir, buni ko'rib, g'alati bo'ldim. Insonning ruhi qattiq azoblansagina shunday qiladi. Chunki qo'lini kesganidagi og'riq uning ruhidagi og'riqlar yoni-

da arziyas bo'lib qoladi va shunday narsalar bilan o'zini chalg'itishga harakat qiladi.

Birdaniga ko'zlarida hayrat bilan qarab qoladi.

– Hmm... yana nima uchun kesadi?

– Shunchalik g'azabnokki, agar g'azabi yo'nalgan odamga hech narsa qila olmasa, o'sha g'azab o'ziga qaytib, o'ziga zarar yetkazish orqali g'azabini bosishga harakat qiladi.

– Bu ham yomon emas. Yana nima uchun?

– Meni so'roq qilayotganga o'xshaysan, lekin baribir gapirishda davom etaman. Balki, u buni diqqatni jalb qilish, yoki e'tiborni tortish uchun qilar. Qaysi biri senga tegishli?

– Hammasi.

– Seni bunchalik jahlingni chiqargan kim?

– Xayolingizga kelgan hammadan jahlim chiqardi, lekin eng asosiysi...

– Eng asosiysi?

– Endi men haqimda ko'pgina narsa bilasiz. Men yashagan muhitda jahlimni chiqarmagan odam bo'lmagan. Hatto men- ga eng yaqin bo'lgan kichik yangamdan ham jahlim chiqardi. Chunki unga ham ishonib bo'lmasdi. Bugun yuzingga kulib turadi, ertaga sendan yomoni yo'q. Ojiz odamga ishonolmaysan, bugun bo'lmasa ham ertaga seni sotadi. Boshqalar hech bo'l- maganda asl yuzini ko'rsatardi. Siz odamlarga ishonasizmi?

– Menmi? Ha, ishonaman

Hayotdan to'ygan bir ifoda bilan qo'lini silkitadi.

– Ishonasiz, albatta, siz uchun ishonish shunchalik osonki. Sizning o'rningizda bo'lganimda, men ham hammaga ishon- gan bo'lardim.

– Nega?

– Chunki siz kuchlisiz... Qo'yavering, boshqalar qo'rqsin. Shuning uchun ham sizni yaxshi ko'raman. Endi esa ham sizni yaxshi ko'raman hamda ishonaman. Egilmaysiz, bukilmaysiz. Nimanidir yashirish yoki boshqacha ko'rsatishga harakat qil- maysiz. Zero, bunga ehtiyojningiz ham yo'q. Sizning bemorin- giz bo'lish yoqimli, lekin hayot ichida siz bilan uchrashishni

xohlamasdim. Chunki sizdan qo'rqqan bo'lardim. Men ham bir kun shunday bo'lishni xohlayman. Inson kuchli bo'lsagina ozod bo'ladi. Ozodlik kuchsizlarga xos emas. Men bunga eng yaxshi misolman. Yoshman, yaxshi kasbim bor, pulim ko'p va tashqaridan qaraganda juda erkin odamdek ko'rinaman. Menga maslahat beradigan odamim yo'q. Menda bor narsani qadrlay olmayman. Nima uchun? Chunki ojizman. Bu ojizlik men tug'ilgan kunimoq ichimga kirgan. Nima qilsam ham uni chiqara olmadim. Aql, zakovat, iste'dod, ish, maktabda birinchi bo'lish insonni kuchli bo'lishi uchun yetarli emas. Siz kuchli bo'lmasangiz odamlar yoningizda qolishni xohlashmaydi. Ularning ortidan tikilib qolaverasan. Kun kelib men ham kuchli bo'la olarmikanman? Mendan umidingiz bormi?

O'ylaymanki, bundan keyin ishlar yanada oson bo'ladi. Garchi qiyin bo'lsa-da, nihoyat, menga ishondi. U so'nggi savolni berarkan, hali ham hayotdan umidini uzmaganini angladim.

– His-tuyg'ularingni qanchalik chiroyli tasvirlading? Umid masalasiga kelsak, buni qanchalik xohlayotganingni bilib turibman. Sen xohlagan narsangga, albatta, erishasan. Bunga ishonchim komil, lekin seni kuchli qilish jarayonida ichingdagi g'azabni yenga olmasak buning oxiri yaxshilik bilan tugamaydi.

– Bundan boshqalar zarar ko'rishidan xavotirdasiz... to'g'rimi?

– Ha, qara, qanchalik yaxshi tushunyapsan.

– Mayli, qo'yavering, o'zgalar ham biroz zarar ko'rsin.

– Shuni xohlaysanmi?

– Hali boshqalarni o'ylaydigan holga kelmadim... Hozircha faqat o'zimni o'ylayapman.

– Kuchli odam o'zi kabi boshqalarni ham o'ylay oladigan insondir. Bu ikkisi birga ketsa qanday yaxshi. Sizning Esmasultoningiz bu borada yaxshi namuna bo'la olmagan. Sen menga faqat o'zini o'ylaydigan, xudbin, taxtini yo'qotishdan o'lgudek qo'rqadigan va buning uchun har qanday razillikka tayyor odam haqida gapirding.

– U kuchli emas, yomon edi. Kuchni esa yomonligidan olardi. Qullar haqida ko'p o'qiganman. Bilasizmi, qulning ham

egasi bo'ladi. Egasi kuchli bo'lgani uchun emas, u egalik qilgani uchun qullarini qo'rqitadi. U ham shunday edi.

Kuch boshqa, yomonlik boshqa! Bu ikkalasini bir-biridan qanday chiroyli ajratdi?

– Malika-chi?

– Malika, aslida, juda zaif edi. Uni na aqli, na iqtidori, na bilimi, na kuchi bor edi. U faqat go'zalligiga ishonardi. Atrofdagi hamma uni sevishini, chiroyiga qoyil qolishini xohlardi. Bular uning ruhiga yagona ozuqa edi, go'yo. Qo'rg'onda ikkitagina qiz nabira bor edi. Birinchisi men, ikkinchisi esa u. Tasavvur qilyapsizmi, shunchalik ahmoq bo'lsa ham u mendan ancha ustun turardi. U, go'yo uyning qizi-yu, men esa xizmatchi edim. Bunda, albatta, onamning ham hissasi katta. Balki, buning asosiy sababchisi ham onamdir. Uning onasi qo'rg'onning kelini-yu, mening onam esa xizmatchidek edi. Malika go'zal edi, men esa xunuk. Lekin onam bilan Sariq kelinni ham solishtirib bo'lmashedi. Biri dunyoning go'zali, biri esa sariq pichik.

– Nima deding?

– Sariq pichik dedim. Esmasulton Sariq kelindan jahli chiqqanda unga bildirmasdan «sariq pichik»² derdi.

– Sariq pichik nima degani?

– Bilmayman, yomon so'z, lekin nimaligini bilmayman. Esmasulton hammaga laqab to'qirdi. Meni «jo'jabosh» yoki «maraz qiz» derdi.

– Yana kimga laqab qo'ygandi?

Onamni «Ayg'ir qiz», kichik yangamni «puchuq» derdi... Onam bo'yi baland bo'lgani uchun uni otga o'xshatardi. Kichkina yangamning burni o'ziga o'xshab kichik edi. Bunday kichik burunli odamlarni biz tarafda «puchuq» deyishadi. Hozir esa odamlar bunday burunga ega bo'lish uchun o'zlarini plastik operatsiya qildirishyapti. Lekin, haqiqatan ham, yangamning burni kichkinagina edi.

– Sizlar ham unga laqab qo'ymasmidingiz?

² Turk tilining shevalariga xos so'z bo'lib, sigir bolasi, buzoqqa nisbatan qo'llanadi.

– Unga laqab to‘qishga hech kimning haddi sig‘masdi!.. U allaqachon o‘ziga o‘zi laqab qo‘ygandi. Butun shahar uni Esma Sulton derdi.

– Onang haqida nima deya olasan?

– Mening onam yo‘q edi. Bunaqa odam bo‘lmagan. U o‘zini o‘zi yo‘q qildi. U faqat mening yonimda bor edi. Uni bor qilgan faqat men edim. Qilgan har bir ishimdan jahli chiqar, ko‘zlari bilan yeb qo‘yay derdi. Bu ko‘zlar menga biror marta ham mehr bilan boqmadi. Modomiki, shu qadar g‘azablanishni bilar ekansan, jilla qursa, bir marta mehr berish, yaxshi ko‘rishni ham bilsayding. Lekin u hech yaxshi ko‘rmadi, yaxshi ko‘rolmadi.

Hech mehr berilmay, sevilmay ulg‘ayish qanday narsa ekan-a? Bunday odam boshqalarni yoki o‘zini sevishni qanday o‘rganadi? Ko‘r odamga rangni tasvirlashdek gap bu. Hech qachon sevilmagani odamni sevish juda mushkul. Yuzida sevgidan asar ham yo‘q. Shunga qaramay, avvalgidek undan behuzur bo‘lmayapman, hatto unga bo‘lgan hayratim ortib boryapti. Bularning barchasiga qaramay, taslim bo‘lmayapti, kurashyapti. U bir kun g‘alaba qozonadi, buni bilaman, lekin u g‘alaba qozonsa, kim yoki kimlar yutqazadi, buni ham o‘ylamasdan ilojim yo‘q. Ham shunchalik aqlli va dono bo‘l, ham shuncha mehnat qil, ham xohlagan narsangga erishish uchun shuncha harakat qil va kurash. Oxiri, seni joni bilan qo‘llab-quvvatlashga tayyor bo‘lgan shifokor yoniga kel. Agar uning o‘rnida boshqa birov bo‘lganida, bu kurashdan allaqachon voz kechgan bo‘lardi, ammo u taslim bo‘lmaydi. Buning uchun, hatto meni ham oyoqqa turg‘azdi. Men uchun u aslo qarashni xohlamaydigan bemorim edi. Endi esa unga soatlarimni ajratyapman, bu ham yetmagandek kechalari bilan unga aytib berish uchun kitoblar o‘qiyapman, og‘zidan chiqqan har bir so‘zni o‘tkazib yubormaslikka harakat qil-yapman. Chunki uning g‘alaba qozonishini xohlayman. Agar inson nimanidir juda xohlasa va u uchun juda ko‘p kurashsa, uning g‘alaba qozonishi muhaqqaq.

– Onang faqat seni emas, hech kimni yaxshi ko'rmagan, shekilli.

– To'g'ri aytasiz, u hech kimni yaxshi ko'rmadi. Ruhi qul ayol edi. Aslida, uning aql-zakovati bilan bog'liq hech qanday muammosi yo'q edi. U pishiradigan taomlarni, qiladigan ishlarni hech kim uchalik qila olmasdi. Lekin his-tuyg'ularida muammo bor edi. U ham o'zini men kabi sevmasdi. Zulm qarshisida bo'ysunishga odatlangandi. Esma Sulton uning uchun hayotdagi yagona hokimiyat edi va uning birgina maqsadi uning roziligini olish va unga yoqish edi. Hatto erining ham sevib-sevmasligi unga qiziq emasdi. Uning ruhi qul edi! Meni ham shunday qildi. Men ham ruhi qul odamman. Bir qancha odamlar o'tdi ustimdan. Ularning mushtarakligi, o'zlarini katta olishlarida edi. Qanchalik o'zini yaxshi ko'radigan, o'zini ko'rsatadigan, tajovuzkor, burni osmonda erkaklar bo'lsa... ular bilan birga bo'ldim. Go'yo ular meni yoqtirib qolishsa, men ham o'zimni yaxshi ko'rarman deb o'ylardim. Zero, ularning hech biri meni yoqtirmadi, sevmadi.

Qayg'uli bir nigoh ila qaraydi menga. Bu ko'zlarda umid va umidsizlik orasida nimalarnidir ko'raman.

– Lekin ular yoqtirmasa ham, siz yoqtirdingiz. Avvaliga meni hech xohlamadingiz. Keyin esa bu yerda kutilmagan voqealar sodir bo'ldi. Men uchun qayg'urdingiz, odam o'rniga qo'ydingiz, mendan voz kechmadingiz. Menga hikoyalar aytib berdingiz. Bir onga ham diqqatingizni mendan olmadingiz. Sabr bilan meni tanishga harakat qildingiz. Aytgan biror narsamni unutmadingiz. Vaqti-vaqti bilan, hatto juda g'azablangan bo'lsangiz ham ko'pincha menga marhamat tuyg'usi bilan boqdingiz. Ba'zan ich-ichimdan bular men uchun qanchalik muhimligini bilarmikan, deb o'zimdan so'rayman. Bundan xabaringiz bormi, yo'qmi bilmadim-u, lekin siz men uchun ideal insonsiz. Balki, shu sababdandir menga ko'rsatayotgan qiziqishingiz, bu men uchun dunyolarga teng. Bu yerga kelish uchun harakat qilgan ilk kunlarim aslida, sizga unchalik ishonmasdim. Ichimda «Faqatgina o'z kasbining ustasida»,

derdim. «Kerak bo'lganini qilyapti. Aytishi kerak bo'lganini aytyapti...» Lekin sizni taniganimdan so'ng bunday emasligini tushundim. Mendan jahlingiz chiqsa ham juda samimiy edingiz. Ayniqsa, men gapirmagan, miq etmagan kunlarim xonangizdan tezroq chiqarib qutulish o'rniga o'zingiz gapirishni boshlagan paytlaringiz avvaliga bunga ishonolmadim. Menga hech kim bunday qilmagan. Bular yillar bo'yi men xayol qilgan narsalar edi.

Bularning barchasi u uchun qanchalik muhimligini bilar-dim. Lekin u buni juda aniq aytayotganiga hayron bo'ldim. Xuddi oldimda boshqa terapevt borgan o'xshaydi. U meni xuddi terapevtdek talqin qildi. Bu qizdan qo'rqish kerak.

– Ammo, baribir bu yerga kelganimda ichimni qayg'u va hayajon egallab olardi. Nimalarnidir aytmoqchi bo'lardim-u. buni aytishdan o'lgudek qo'rqardim. Chunki sizga aytganlarimdan keyin menga hurmatingiz va qiziqishingiz yo'qolishidan xavotirda edim. Qolaversa, odam so'zlay boshlagach, hammasini aytgisi keladi, miyasidagi kir va axlatlardan qutulishni istaydi. Men ham o'sha yerga tomon ketayotgan edim. Menda hali ham shu xavotirlar bor. Men sizga bo'lgan voqealarning oxiri va asosiysini hali aytmadim, lekin aytaman. Men hali hammasini aytib beraman. Bir kun kelib, bularning barchasini kim bilandir baham ko'ra olishim xayolimga ham kelmasdi. Bu katta shaharda meni kim ham tanirdi?! Buning ustiga sen menga tegma, men senga tegmayman, deydi-gan zamonda yashayotgan bo'lsak, koshki bironi mening dardim qiziqтира. Men ham bularni hech qachon sodir bo'lmagandek ko'rsatmoqchi edim. Bu sirni hammadan yashirmoqchi edim. Berkitdim ham, lekin inson o'z sirini o'zi bilgandan so'ng boshqalarning keragi yo'q. Ehtimol, eng yomoni ham buni insonning o'zi bilishidir. Yolg'iz qolasiz va o'zingizni eng shafqatsiz shaklda hukmga tortasiz. Men huquqshunosman. Odatda, odamlar bizga boshidan kechirgan hamma narsani aytib berishadi. Ustiga-ustak, jinoyat huquqi ustida faoliyat yuritaman. Shuning uchun ko'plab jinoyatchilar bilan ishla-

shim kerak bo'ladi. Ularga nisbatan o'zimga qilgan ishimni qilmayman. Jinoyat qilish juda yomon ish! Hech kim o'z-o'zidan jinoyat sodir etmaydi. Ba'zida hayot shunchalik shafqatsiz bo'lishi mumkinki, ayb sizning bo'yningizga tushadi. Shunaqa ahmoqona gaplar bilan o'zlarini himoya qiladilarki, insonni ich-ichidan kulgisi keladi. Shunda mahkum, haqiqatan ham, aldamoqchi bo'lgan odam biz emas, o'zi ekanini tushunasan kishi. Bir ustozimiz: «Jinoyatchini qazisak ostidan odam chiqadi», der edi. Bir tomondan, bu jinoyati uchun jazolanmaslik uchun bor kuchingni sarflar ekansan, ikkinchi tomondan, ularning ko'zlarida turli narsalarni ko'rasan. Men ich-ichimdan sudyaning ularga eng og'ir jazoni berishlarini xohlayman. Bilaman jazo har doim aybdor uchun eng yaxshi chora. Dunyodagi eng katta jinoyatchilardan biri hisoblangan. Hatto Gitler ham, balki jazo olishni juda xohlardi. Menimcha, Gitler Freyd bilan bir vaqtda yashagan. Shunday emasmi?

– Ha, ular bir davrda va hatto bir muddat bir shaharda yashashgan.

– Freyd Gitler haqida nimalar deb o'ylagan ekan...

– Gitler Freydning hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan kishi. Ammo Gitler ham Freydning asarlaridan foydalangani taxmin qilinadi.

– Har ikkisiga ham doim qiziqaman. Biri aqli, zakovati bilan mashhur, biri esa yovuzligi bilan tanilgan. Yomonni ham tushunish kerak!

U yana faylasufdek gapiradi. Yomonga juda qiziqadi. U ham haq! Uning umri yomonlar orasida kechgan va menimcha, u o'zini yomon odamlar qatorida ko'radi. Ehtimol, Gitler va Freyd mavzusi unga bu mavzudagi fikrlarini izohlash imkonini berar.

– Ular haqida biroz gaplashishni xohlaysanmi?

– Ha, albatta

– 1909-yilning kuzida har biri dunyoni o'zgartiradigan kuchga ega bu ikki kishi Venada yashardi. Ulardan biri XX asrning eng taniqli va eng ko'p muhokama qilingan mutafakki-

ri, psixotahlilning asoschisi Zigmund Freyd edi. O'shanda u ellik uch yoshda bo'lgan. Adolf Gitler Vena shahriga me'mor va rassom bo'lish va mo'maygina pul orttirish ilinjida kelgandi. Hali juda yosh edi. U bir do'sti bilan ko'p qavatli binodan ijaraga kichik uy olib, o'sha yerda yashagan va vaqtini o'qish, yozish va kuy bastalash bilan o'tkazgan Vafot etgan onasidan biroz pul qolgandi. U bu pulni tejab sarflar, oz yer va eng arzon ijara uyda yashardi. Uning eng katta zavq oladigan narsasi opera edi, ayniqsa, Vagner operalari. Davlat san'at maktabi uning arizasini rad qilgandi. Zero, Gitler har doim hokimiyatga qarshi isyonkor shaxsiyatga ega hamda hech qachon o'qituvchilar bilan yaxshi munosabatda bo'lmagandi. O'qituvchilar uning ishlarini masxara qilishar va uni qobiliyatsiz deb hisoblashardi. Ammo u buyuk rassom yoki mashhur me'mor bo'lishni maqsad qilgandi.

– Muvaffaqiyatli bo'lganida, balki tarix o'zgargan bo'lardi.

– Ha, agar Gitler yaxshi rassom yoki me'mor bo'lganida, tarix boshqacha bo'lardi, balki bizning taqdirimizga ham ta'sir qilardi. Ko'rib turganingdek, dunyoda yashayotgan har bir insonning taqdiri bir-biriga bog'liq! Sen uchun ham shunday. Hozircha bu muolajadan qanday Alya bo'lib chiqasan buni bilmaymiz, lekin sening hayoting boshqalarning hayotiga, albatta, ta'sir qilmay qolmaydi.

Hikoya tinglaganda har doim qiladigandek qo'llarini iyagiga tirab olib, meni zo'r qiziqish bilan tinglaydi.

– Men... xuddi muhim insondek gapirdingiz.

– Ha, sen ham hamma inson kabi muhimsan.

– Men muhim inson emasman, lekin yomon ish qilsam, bu boshqalarga ham ta'sir qiladi. Balki, o'shanda men ham alohida shaxs bo'la olarman.

– Muhim bo'lish uchun yomon bo'lishga majbur emassan.

– Menimcha, hayot uni yomon bo'lishga majbur qilgan bo'lishi mumkin.

Biroz avval «Jinoyatchini qazisak ostidan odam chiqadi», deganding. Venaga borishdan oldin o'zining tug'ilgan shahri

Linza kechki sayr davomida u Stefaniya ismli ayolni ko'rib unga oshiq bo'ladi. Garchi u bilan bir og'iz ham gaplashmagan bo'lsa-da, uni unuta olmaydi va bu shahardagi muvaffaqiyatlari bilan uni hayratda qoldirishni umid qiladi. Shuning uchun sevgisiga sodiq qoladi va fohishalardan uzoqroq yuradi. Ko'pchilik ayollarning e'tiborida bo'lishiga qaramay, ularning hech biriga qiyo boqmaydi. Ba'zan u borgan operada ayollar unga uzoq tikilib qolar, hatto unga maktublar yuborishardi va uni uchrashuvga taklif qilishardi. Ammo yigit uning ta'biri bilan aytganda, «hayot alangasini» iflos qilmaslikka ahd qilgandi.

– Ayollarning, shunday xijolatli erkakni o'zlariga qaratishga urunushlari g'alati tuyuldi. Buning ustiga u o'sha paytlar mashhur ham emasdi!

Yillar davomida Freyd ayollar nimani xohlashini o'ylab, tadqiq qildi, ammo bundan biror xulosa chiqara olmadi. Gitlerga keladigan bo'lsak, u bolaligidan juda sezgir edi. U asabiy va yig'lashga moyil bo'lgan shaxs edi. Hayvonlarni yaxshi ko'rar, ularga aziyat yetkazishlariga chiday olmasdi. U spirtli ichimliklarni og'ziga ham olmas va tamaki tutunini sog'liq uchun xavfli deb bilardi.

– Yoshligida naqadar ma'sum bo'lgan ekan! Menga o'xshab u ham hayvonlarni yaxshi ko'rarkan. Demak, ba'zan hayot odamlarni yomon bo'lishga majbur qiladi.

Go'yo yomon bo'lishini allaqachon bilgan va bu yomonlikka o'zi uchun g'ilof tayyorlayotgan odamning gapi. Shuningdek, u Gitler bilan umumiy o'xshashlik topdi. Lablari tabassum bilmaydigan, xayollari nursiz odam u. Nahotki, u yovuzlikni yagona tanlov deb bilsa?

– Vena uchun eng katta loyihalaridan biri bu shahar che-tida yashovchi ishchilar uchun mo'ljallangan katta, yorug' turar joylar edi, chunki uning o'zi o'sha yerda og'ir sharoitda yashardi.

– Ammo shunday odam keyinchalik gaz kameralarida minglab odamlarni kiprik ham qoqmay o'ldira oldi. Hayot odamlarni qanchalik o'zgartirib yuborishi mumkin.

– Yolg'iz edi va puli ham oxirlab qolgandi. Bir muddat ko'chalarda yashab yurdi. Ostonalarida, istirohat bog'laridagi o'rindiqlarda yotdi. Balki, orada tilanchilik ham qilgandir.

– Tilanchilik qildimi?

– Kitoblarda shunday yozilgan. Nihoyat, monastirdek qattiq tartib-qoidalar bilan boshqariladigan erkaklar boshpanasiga joylashdi. Ko'chadagi savdo rastalarida sotiladigan o'zi chizgan gul qog'ozlar bilan kun kechirishga urinardi. Juda ko'p o'qir, monastir boshpanasida birga yashovchi kishilarga nutq so'zlardi. Ijtimoiy faoliyat xonasiga yig'ilganlarida, u yahudiylar va kommunistlar haqida o'z fikrlarini aytar va Germaniya taqdirining boshqa xalqlardan ustun bo'lishi kerakligini ta'kidlardir. Ba'zan o'sha yerdagilardan biri o'rindiqqa Gitlarning kurtkasini yashirincha bog'lab qo'ygandan so'ng ataylab uni g'azablantiradigan siyosiy savol berardi. G'azabdan baqirib-chaqirib o'rnidan sakrab turgan payti, o'rindig'i ham u bilan birga ko'tarilar va odamlar bu holatdan qotib-qotib kulishardi.

– Xuddi menga o'xshab ko'p o'qiydi, odamlar uni ham masxara qilishadi.

O'zini Gitlarga juda yaqin his qiladi. Unday odamga o'xshatishi meni bezovta qiladi. Bu borada o'zimni javobgar his qilaman, lekin haqiqat agar shunday bo'lsa, men buni ko'rishim va u bilan kurashish yo'llarini izlashim kerak. Bu mavzuga kirganimiz yaxshi bo'ldi. Ko'ramiz qani, yana nimalar der ekan.

Darhaqiqat, ko'pchilik uni aqldan ozgan deb o'ylardi va hech kim uni dunyo taqdirini o'zgartira oladigan darajada muhim bo'lishini xayoliga ham keltirmagan. Adolf Hitler Venada yashagan o'sha kunlarda Zigmund Freyd, ehtimol, hayotining eng yorqin davrini boshdan kechirayotgan edi. U dumaloq yuzli, sochlari va soqoli qalin, o'rta yoshlardagi, quvnoq erkak edi. Uning yuzida ham to'qlik, ham hirs ifodalari zohir edi. Ko'zlari chaqnab turardi. U juda o'ziga ishongan va o'zgalarga ta'sir o'tkazuvchi odam edi.

– Bunchalik maqtaganingizdan... Freydni yaxshi ko'rasiz, shekilli.

Buni aytarkan, xuddi Freydga hasad qilgandek taassurot qoldiradi. Hozir men unga ham yaxshi, ham muvaffaqiyatli hamda mashhur va yomon inson haqida gapirib beraman. Ko'ramiz, vaqt o'tishi bilan u yomondan yaxshiga aylana olarmikan?!

- Ha, men hamisha unga qoyil qolganman va yillar davomida u ochgan yo'lda hammamiz inson hayotiga hissa qo'shishga harakat qilib kelyapmiz. 1909-yilning kuzida, Gitler ko'chada yashayotgan paytda Freyd o'zi yozgan kitoblari bilan dunyo e'tiborini torta boshlaydi. Uning orzusi mashhur mutafakkir bo'lish edi. Axir, u ongsizlik dinamikasini fanga kiritdi va dunyo miqyosida muhim bo'lgan ko'plab nazariyalarga asos soldi. O'sha yillarda u zolimlar odamlarga qanday ta'sir o'tkazishini, ularga bo'ysunibgina qolmay, balki ularni hurmat qilish va yaxshi ko'rish nimalarga olib kelishini tahlil qilishga urinardi.

- Gitler kabi odamlarga qiziqar, ularni tushunishga harakat qilarmish.

- Balki, ular o'sha yillarda Vena ko'chalarida uchrashgandir. O'shanda, ehtimol, Freyd Gitlerni darbadar sichqonga qiyoslagandir. Gitler esa Freydni u doim nafratlanadigan va mensimaydigan oliy tabaqali venalik sifatida ko'rgan va uning yahudiy ekanligini darhol anglagan.

Gaplarimni eshitishi bilan g'azab otiga minadi.

- Freyd yoqtirmagan, odam o'rnida ham ko'rmagan, darbadar sichqonga o'xshatgan odam kun kelib yahudiylarning kulini ko'kka sovurgan...

Qiziq, undagi qasos alangasi shunday ishlarni qilishga undarmikan-a? U Gitlerning tarafini olyaptimi?

- Darhaqiqat, Gitlerning yo'li Birinchi jahon urushida ochildi. U nemis armiyasida xabarchi bo'lgan. Bu davrda u jiddiy jasorat ko'rsatdi va ko'plab medallarni qo'lga kiritdi. Urushdan keyin u Myunxendagi kichik siyosiy partiyaga qo'shildi. Vaqt o'tishi bilan u bu partiyaning kuchli ittifoqqa aylantirdi. 1923-yilda davlat to'ntarishini amalga oshirmoqchi bo'ldi, ammo ud-

dalay olmadi. Shundan so'ng qamaldi. Qamoqxonada yozgan «Mening kurashim» nomli kitobida o'zining o'tmishini hiko-ya qilib berdi va Germaniya kelajagiga oid batafsil dasturini izohladi. So'nggi o'n yil davomida tinimsiz kurash olib bordi. Orzularidan aslo voz kechmadi. Va nihoyat, 1933-yilda u kansler bo'lishga muvaffaq bo'ldi. Biroq, uning eng katta orzusi o'zi yashagan Avstriyaga hukmronlik qilish edi.

– Darbadar sichqondan kanslergacha... Demak, hayot shunday!.. Hammasi orzulardan voz kechmaslikda!

– To'g'ri. Tarixdan bunga oid ko'plab misollar keltirish mumkin. Umid qilish, ishlash va taslim bo'lmaslik! Muvaffaqiyatning siri shu bo'lsa kerak!

– Men ham taslim bo'lmayman. Ko'rasiz, bir kun kelib, men ham g'alaba qozonaman.

Bu gaplarni aytarkan, bolalarga o'xshash ovozi bilan hayqiradi. Men ham bunga ishonaman. U, albatta, g'alaba qozonadi.

– Men ham buni juda xohlayman, lekin umid qilamanki, sening muvaffaqiyating Gitlernikidek bo'lmaydi.

– Inson muvaffaqiyatga erishgandan so'ng shunchalik jahldor va shafqatsiz bo'lishi mumkin, demak...

Mana bu yaxshi. Agar uddasidan chiqsa, ichidagi g'azabdan qutulishi mumkinligini o'ylayabdi.

– Aslida, qamoqxonada yozgan «Mening kurashim» nomli kitobining ilk sahifalarida Avstriyani nemis millatining bir qismiga aylantirish kerakligini yozgan va hokimiyatga kelganidan keyin buni amalga oshirishga ahd qilgan. Chunki u Venada yashagan yillarini hech qachon unutmadi. U shaharga onasining bag'riga kelgan go'dakdek kelganini, Vena uni yaxshi tarbiya qilganini aytadi. Ba'zan hazil bilan o'sha shaharni yer bilan yakson qilish qanchalik maroqli bo'lishi haqida gapirardi.

– To'g'ri, u o'sha shaharda ko'p urulib-surungan. Bunday kunlarni osonlik bilan unutib bo'lmaydi.

– Gitler ham unutmadi. 1938-yil qishda Vena shahrida Gitlerni kutayotganlar orasida keksa va og'ir kasal bo'lgan Zigmund Freyddan tashqari yana bir yuz yetmish ming ya-

hudiy bor edi. Natsistlar Freyddan nafratlanishardi. Hattoki, Freydning kitoblari 1933–yilda Germaniyadagi ko'cha namoyishlari paytida yoqib yuborilgan. Kitoblari yoqib yuborilganini eshitgan Freyd: «Anchagina rivojlanishga erishibmiz, agar o'rta asrlarda bo'lganimizda, ular meni ham yoqib yuborishgan bo'lardi, hozircha kitoblarimni yoqish bilan kifoyalanishdi», degan edi. Biroq besh yil o'tib, 1938-yilda Venaga kelgan natsistlar faqat kitoblarni yoqish bilan kifoyalanishmaydi.

– O'sha davrda yozilgan bir nechta kitoblarni o'qidim... Venada juda dahshatli voqealar bo'lgan. Odamlarda insof, marhamat qolmagan. Qo'shni qo'shniga dushman bo'lgan. Demak, yomon odam faqat Gitler emas ekan. Balki, Gitler odamlarning ichidagi yong'inni alangalatgan va bari birga aqldan ozgandir..

Bu gaplarni aytar ekan, men uning yuziga diqqat bilan qarayman. Yuzida sovuq ifoda mujassam. Go'yo nima qilishga allaqachon qaror qilgan odamga o'xshaydi. Lekin baribir aytayotganlari haqiqat. Gitler, haqiqatan ham, shunday qilgan. Ya'ni odamlarning ichidagi yomonlikni alangalatgan.

– 1938-yilda Freyd sakson bir yosh, keksaygan, buning ustiga saraton kasalligidan qaddi bukilib, zaiflashib qolgan. Sochlari va soqoli oqarib ketgan, qora hoshiyali ko'zoynagini taqqanda xuddi boyqushga o'xshab qolardi. Saraton kasalligi bois yuzidagi ko'plab operatsiyalarda tishlari olib tashlangan va suyaklar o'rniga jag'iga qo'yilgan protez tufayli u avvalgidek ta'sirchan va aniq gapira olmasdi, lekin ko'zlari hamon chaqnar, nigohlari ta'sirchan edi. Ayni paytda Gitler o'z maqsadini amalga oshirish payida edi. Shu maqsadda u Avstriya kanslerini zudlik bilan chaqiradi. Bir paytlarning darbadar sichqoni endi xalqlar yetakchilarini oyoqqa turg'azardi. Kansler romsiz ko'zoynak taqib olgan, tinimsiz sigaret tutatadigan, odamovi kishi edi, muzokara qiladigan qobiliyatga ega emasdi. Gitler unga bir qancha shart qo'ydi. Avstriyani buyuk nemis xalqi bilan birlashtirish bo'yicha referendum

o'tkazishga chaqirdi. Kansler bulardan siqilgandi. U, hatto: «Koshki, u bilan muzokara qilish uchun o'zim bilan psixiatr olib kelganimda», deb o'yladi. «Balki, bir kuni ertalab Vena shahrida uyg'onganingizda bizni o'sha yerda ko'rarsiz. Bahor bo'roni kabi qon oqadi», dedi Gitler.

– Diplomatik uchrashuvda bu odamning gapirganlariga qarang! U aqldan ozgan... Ikkinchisi ham sog' emas! Men psixiatr degan gapiga hayron qoldim. Bunday yig'ilishlarga psixiatrni olib kelish amaliyotda bormi yoki bu o'sha ahmoqning fikrimi?

– Psixiatrlardan yillar davomida jahon siyosatida foydalalanib kelingan. Ayniqsa, amerikaliklar ulardan ko'p foydalangan.

– Sizningcha, buning biror foydasi bo'ladimi?

– Albatta, bo'ladi. Siyosatchilarning maqsadi odamlardir. Ular gaplarini har bir insonga yetkazishni xohlashadi. Bu ishning ustasi esa psixiatrlar hisoblanadi.

– Balki, huquqshunoslikda ham inson psixologiyasini bilish foydalidir. Katta ishlar olsam, menga yordam bera olasizmi?

– Buni o'shanda o'ylab ko'ramiz.

Demak, uning shunday orzulari bor! Bular menga umid baxsh etadi.

– Gitler qudrati bilan dunyoga xavf solayotgan bir vaqtda, Freyd saraton kasalligi bilan kurash olib borardi. U haqiqatni aytishdan yoki yozishdan chekinmaydigan, juda jasur odam edi. Agar biror narsaning haqiqatligi va to'g'riligiga ishonsa, albatta, uni yozib, nashr etardi.

– Jasur odam ekan...

– Avstriya kansleri Gitlarning o'z yurtiga bostirib kelishini anglagach, dunyoning barcha davlatlarini, xususan, Angliya va Fransiya yordamga chaqirdi, lekin unga hech kim parvo qilmadi va uni taqdiri bilan yolg'iz qoldirishdi.

Ko'zlari birdan ma'yus tortib, bo'yni egik boladek g'amgin tortadi.

– Qanday vafosizlik! Aslida, o'sha payt bunday qilmaganlarida, balki dunyo taqdiri o'zgargan bo'larmidi.

– Men ham shu fikrdaman! Menimcha, ham shunday, Gitler qachonlardir ularning ham boshiga shu kunlarni solishini ular xayollariga ham keltirmagan bo'lsa kerak. O'sha paytda katta xavf ostida qolgan Freydga birinchi bo'lib, yordam taklifi AQSHdan keladi. Ammo Freyd buni qabul qilmaydi, chunki u hech qachon amerikaliklarni yaxshi ko'rmagan. Biroq shu bilan birga, Venada vaziyat og'irlashadi. Shahar «Yahudiylarga o'lim» degan shiorlar bilan mitinglar qila boshlaydi.

– Hayoti xavf ostida bo'lsa ham amerikaliklarning taklifini rad etgani juda qiziq! Freyd jasur va o'ziga sodiq odam ekan!

Oxir-oqibat, u Freydga yaqinlik his qila boshladi, unga qo'yil qoldi. Endi u taraf o'zgartirmoqchimikan-a?

Venada odamlar allaqachon yahudiylarning do'konlarini toshbo'ron qilishni boshlagan edi. Bularning barchasini qo'llab-quvvatlagan dunyodagi yagona davlat Mussolini boshchiligidagi Italiya edi. 1938-yil 12-martda nemis askarlari hech qanday qarshilikka uchramay, Avstriyaga kirdilar. Endi haqiqiy hukmronlik, ularning iborasi bilan aytganda, Anschluss boshlangandi. Freyd o'sha shanba kuni o'z kundaligiga ikki so'z bilan shunday yozdi: «Finish Austriya», ya'ni Avstriyaning kuni bitdi...

– Kim bilsin... O'sha kuni Freyd qanchalik vahimaga tushgan ekan!

Xuddi Freydning o'rniga u qo'rqayotgandek...

– Haqiqatan ham, vahimaga tushgan, chunki u Gitler hokimiyatni qo'lga kiritishidan bir yil oldin shunday deb yozgan edi: «Kelajakning nima bo'lishi noaniq. Oxirim kelishini borgan sayin kamayib borayotgan qayg'u bilan kutyapman. Bo'ladigan narsalardan qo'rqaman, umid qilamanki, ularni ko'rishgacha bormayman».

– U o'lishni xohlagan!

– Ha, chunki u allaqachon juda og'ir kasal edi. O'sha kuni Avstriyaga bostirib kirgan fashist askarlarini katta shov-shuv bilan kutib olishdi. Ularni tomosha qilish uchun ko'chaga chiqqan olomon ularning yo'liga shunchalik ko'p gul sochgan-

diki, uloqtirilgan gullardan ko'zlari shikastlanmasligi uchun, hatto askarlarga himoya ko'zoynagi taqishga buyurilgan.

– Yo tavba! Odamlar aqldan ozganmi, chunki bu odamlar ochiqchasiga Avstryani bosib olyapti-ku.

– Avval ham gaplashganimizdek ba'zan jamiyatlar ham xastalanishi mumkin. O'sha davrda odamlar yakkahokimlik, oddiylik xohlashardi. Ular shafqatsiz kuch hukmronligi bilan birga oddiy rohat beruvchi dunyoda yashashni istashardi. Yagona partiya, yagona irq va o'zlari kabi zaif bo'lmagan kuchli rahbarning qattiq tartibga keltirishini istashardi.

– Chorasizlikni qarang! Muammoning zahirida zaiflik yo'tibdi. Men doim xavfni kuchlida ko'rardim, ammo ba'zida zaiflikning o'zi ham juda xavfli bo'lishi mumkin, demak.

O'z ongida kuchlini zaif bilan solishtiryapti. Bular uni eng ko'p qiziqtiradigan mavzular. Ammo Alyaning miyasi soat mexanizmidan ishlaydi va u yana bir-biridan mazmunli sharhlar beradi.

– Menga sharhlaring juda yoqadi. O'sha payt Gitler usti ochiq «Mersedes»da Avstriya tomon yo'l oladi. U o'zining tug'ilgan joyi Braunau am Innga tushdan keyin soat to'rtlarda yetib keladi va olomon uni hayqiriqlar bilan kutib oladi. To'rt soatdan keyin u Linz shahriga yetib boradi. Cherkov qo'ng'irog'i sadosi ostida shahar hokimiyati binosi yoniga to'plangan olomon «Yagona xalq! Yagona mamlakat! Yagona yetakchi!» deya hayqira boshlaydi. Fyurer ota-onasining qabrlarini ziyorat qilib, u yerga gullar qo'yadi. Aslida, bunday kutib olinish, bunday hurmatni uning o'zi ham kutmagandi. Avstriyaning nemislarga bo'yinsunishini kutgandi, lekin xalq uning kutganidan ham ortig'ini qilib, Fyureri yagona xaloskorlaridek, quvonch bilan kutib olgandi. Gitler ularni qashshoqlikdan, o'jizlikdan va barcha muammolariga yagona sababchi sifatida ko'ruvchi yahudiylardan xalos qiladi deb o'ylashardi.

– Ularning sobiq rahbari o'ylashimcha, bir lo'ttivoz bo'lgan, unday nomarddan keyin Gitler ularga yagona choradek ko'ringan.

– Gitler yo'llarda har tarafga qarab borarkan, o'zida yo'q baxtiyor edi, chunki deyarli barcha uylarda xochli bayroqlar hilpirab turardi. 14-mart, yakshanba kuni Venaga borgan Gitlarning eng muhim nishonlaridan biri Zigmund Freyd edi. Natsistlar psixotahlil, haqiqatan ham, Freyd tomonidan asos solingan fan ekanini qabul qilishardi, ammo ular uchun psixotahlil yahudiylarning fani edi. U yahudiy tomonidan asos solinib, faqat yahudiylar uchun yaratilgan fan edi, go'yo. Zo'ravonlikka moyillik va shahvoniylikka to'la ong deb faqat yahudiylarni tariflar edi.

– «Biz psixotahlilni qabul qildik», deb, aslida, odamlar yahudiylarni masxara qilishgan. O'z qurollari bilan o'zlarini otishgan.

Bu gaplarni aytarkan, qo'liga konfet berilgan boladek quvonardi. Uning tuyg'ularidagi bu tebranishlarni faqat hikoya tinglaganidagina ko'ra olaman.

– O'sha kuni Gitler yana usti ochiq «Mercedes»da turib, chap qo'li bilan mashinaning old oynasini ushlab, o'ng qo'li bilan uni kutib olishga to'plangan olomonga salom berardi.

– Men bu sahnalarni televizorda ko'p ko'rganman.

– Ammo o'ychan edi, salomlari ham zo'rma-zo'raki va ko'z ko'rdiga. U olomon o'rtasida butunlay himoyasiz edi. Uyqusirayotgan odamga o'xshasa-da, o'ziga ishongan holda ko'rinishga harakat qilardi. Gitlarning mashinasi bir vaqtlar u xaroba boshpanasida yashayotganda orzu qilgan «Imperial» mehmonxonasi oldida to'xtadi. Mehmonxona oldida xoch tasvirlangan ulkan qizil bayroq osilgandi. Gitler qirollik xonasiga chiqqach, tashqaridagi olomon nemislar ichkilik ichgan paytida kuylaydigan qo'shiqning so'zlarini o'zgartirib aytishar va bir ovozdan Gitlarga: «Biz uyga ketmaymiz», deb baqirishardi. Fyurer balkonga chiqib, ular uchun nutq so'zlamaguncha olomon qo'shiq aytishda davom etdi va Gitler ular bilan qayta-qayta salomlashishga majbur bo'ldi.

U yana jilmayib qo'yadi. Gitlarning muvaffaqiyati juda chuqur joy olgan jarohatlariga malhamdek kelyapti.

– Bir telbani hammalari bir bo'lib chig'iriqdan chiqarishyapti.

– To'g'ri, Alya, lekin bir tomondan, o'sha odamlar o'z qo'l-lari bilan butun dunyoni o'z domiga tortadigan yomon va qorong'i qismat yozib qo'yganlaridan bexabar edilar. Kechga yaqin Gitler o'ttiz yil avval Vena shahrida yashagan paytida, «Imperial» mehmonxonasi bilan bog'liq his-tuyg'ularini birin-ketin eslay boshladi va nutq qildi. U o'zini «Yo'qchilikdan kelgan yolg'iz odam», derdi. Bu uzun monologlarda Gitler baqirib-chaqirib, to'xtamay gapirar va atrofidagilarga shunday der edi: «Men kiraverishdagi yorqin chiroqlar va qandillarni ko'rar, lekin ichkariga kira olmasligimni bilardim. Bir kuni kechasi qattiq qor yog'di va eshik oldi deyarli bir metr balandlikda qorga burkandi. Buni ko'rib «qorni kurab qornimni to'yg'izishga yetadigan pul topishim mumkinligini angladim. Men bilan yana besh-olti kishi mehmonxona oldidagi qorni tozaladik. Qirollik oilasi, Gabsburg a'zolari o'sha kecha mehmonxonada edilar. Ularning qirollik aravasidan tushib, qizil gilam bo'ylab takabburlik bilan bu mehmonxonaga kirib borishlarini kuzatdim. Biz bechoralar ko'chalarda qorni kurab, o'tayotgan har bir aristokratga shlyapalarimizni ko'tarayotgan edik. Ular bizga qiyo ham boqmasdi, lekin o'sha payt burnimga urilgan atir hidi hamon yodimda. Ular va Vena uchun bizning tun bo'yi yog'gan qorchalik qadrimiz bor edi, xolos. Mehmonxona xodimlari o'sha kecha qahratonda muzlab qolganimizni bila turib bizga bir finjon issiq qahvani ham ravo ko'rishmadi. Mehmonxonadan juda yoqimli musiqa ovozi yangrar bu ovoz meni hayajonga solar, yig'lagim kelardi. O'sha payt, hatto yig'lashga ham imkonim yo'q edi va bu adolatsizlik meni aqldan ozdirardi. Ana o'sha kecha men bir kun kelib «Imperial» mehmonxonasiga qizil gilam bo'ylab Gabsburglar raqsga tushgan zalga kirishga qaror qildim. Qanday qilib va qachon bo'lishini bilmasdim, lekin kutardim. Mana ko'rib turganingizdek shu yerdaman.

– Mast odamga o'xshaydi, lekin uni ham tushunaman, o'y-lashimcha, u orzu qilganlaridan ham ortig'ini qo'lgan kiritgan.

Aytganlarim uni qattiq hayajonga soldi. Filmni tomosha qilar ekan, o'zini kinodagi bosh rol ijrochisi o'rniga qo'ygan odamdek ishtiyoqqa to'ldi. O'z muammolarini unutdi. Uni shunday xursand va hayajonli ko'rish meni quvontiradi va unga maroq bilan hikoyalar aytishda davom etaman.

– Bir naql bor: «Ko'kning xohlagani bir ko'z, Xudo unga beribdi ikki ko'z». Hatto Gitler ham sodir bo'lgan voqealardan hayratda edi. Ertasi kuni, seshanba, ya'ni 15-mart, Freyd uchun qanchalik qayg'uli bo'lsa, Gitler uchun shunchalik muhim va shuhratli kun edi. Gitler ikki yuz ellik ming kishining ko'z o'ngida «Mening vatanim» deb atagan Vena shahrini Germaniya reyxiga qo'shilganini nishonlayotgan edi. Bu orada yahudiylarga qarshi hujumlar boshlandi va ko'chalar o'ziga xos qora karnavalga, irqiy nafrat avj olgan do'zax shaharga aylandi. Qanchadan qancha yahudiylar o'z joniga qasd qildi. Yuzlab yahudiy erkak va ayollar natsistlarning hojatxonalari ni tozalash uchun majbur qilingan, kekxa, oq soqolli yahudiylar to'planib sinagoglarga olib borilar va tiz cho'ktirilib: «Heil Gitler!» deb baqirib salom berishga majbur qilinardi. Ayrim yahudiy tadbirkorlarga tish cho'tkalari berilib, ko'chalarni tozalashga buyurilardi.

– Endi, yillar o'tib, bular odamga juda g'alati tuyuladi. Lekin bu odamning boshdan kechirganlarini hisobga olsak, ehtimol, men bo'lganimda men ham shunday qilgan bo'larmidim.

– Haqiqatan ham, shunday qilgan bo'larmiding, Alya?

– Qilgan bo'lardim, menga nimalar qilishmadi, nega men qilmas ekanman?

Yana g'azab otiga minadi. Menga ham jahldan qonga to'lgan ko'zlari bilan qaraydi.

– Yahudiylar shaharni tark etmoqchi bo'ldilar, ammo fashistlar bunga yo'l qo'ymadi. Ularni vokzallarda to'xtatib hibsga olishar, qamoqqa tashlanar, ish joylarini musodara qilishar, binolarini egallab o'rniga o'zlari joylashardilar. Ular yahudiy ota-onalarni bolalari oldida haqorat qilishar, yuzlariga tupurishardi.

– Agar men bo'lganimda bolalarning ko'z o'ngida buni qilmasdim.

– Natsistlar kirlik va yuqumli kasalliklardan o'lgudek qo'rqishardi. Ular yahudiylardan kasal yuqtirishdan qo'rqib, ularga tinimsiz ko'cha va hojatxonalarni tozalatishardi. Kelajakda yahudiylardan tozalash ishlari uchun foydalanilmas, ular butunlay yo'q qilinib, umumiy tozalash amalga oshirilishi kerak edi.

– Yahudiylarga nisbatan dushmanlik qachondan boshlangan?

– Nemislardagi dushmanlik Gitler hokimiyat tepasiga kelganidan keyin boshlandi va asta-sekin besh yil ichida o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Ammo yahudiylar uchun Berlin Venadan xavfsizroq edi, chunki avstriyaliklarning bu borada qilayotgan ishlari, bir inson qanday qilib bunchalik zolim bo'lishi mumkinligi, butun dunyoni hayratda qoldirayotgan edi. Yevropadagi eng bag'rikeng xalq hisoblangan avstriyaliklar bir necha kun ichida quturgandek yahudiylarga hujum qilishdi. Bo'layotgan ishlar Freyd kabi, uning yaqin do'sti bo'lgan yana bir mashhur yahudiy yozuvchi Stefan Sveygni ham hayratda qoldirdi.

– U juda yaxshi yozuvchi. Ayniqsa, biografiyalari juda zo'r... Ma'lum, uni ham ko'p o'qigan. Bilmagan narsasi yo'q.

– Men ham uning kitoblarini sevib o'qiyman. Zero, bu voqealardan so'ng o'z mamlakatini tark etib, Amerikadan panohtopgan va birmuncha vaqt o'tgach, u yerda o'z joniga qasd qilgan.

– O'z joniga qasd qilgan, ha... Qancha mashhur san'atkorlar, olimlar bo'lsa, o'sha paytda ularning barchasi Vena shahrida yashagan ekan.

– Ha, chunki o'sha paytda shuncha vahshiylikka qaramay, Vena deyarli jahon san'at va madaniyati poytaxti bo'lgan.

– Bu g'alati holat emasmi? Afrikaning qayeridan bilmayman, ammo inson oviga Venadan chiqiladi.

– Har doim insoniyatning sadist³ tomoni bilan qiziqqan Freyd, hatto eng madaniyatli xalqlar ham zo'ravonlik, zo'rlash

³ Boshqalarga og'riq keltirish orqali jinsiy qoniqish hosil qiluvchi.

va talon-toraj qilishni orzu qiladi, deb hisoblardi. Freydning fikricha, har birimizning ichimizda bir jinoyatchi yashaydi. Freyd Gitler va natsistlarni hayotning haqiqati sifatida qabul qiladi va sodir bo'lgan voqeadan u qadar hayratga tushmaydi, chunki u bir yozuvchi, mutafakkir va terapevt sifatida Gitlerning yakkahokimligi nimalarga olib kelishi mumkinligini juda yaxshi bilardi.

– Agar muhit imkon bersa, bularning hammasini oddiy odam ham qila olishi aytilmoqda. Hayoti menikidek bo'lganlar ... nima qilishar ekan?

Qiziq savol. Nima deyishni bilmay qolaman, chunki u hali nimalarni boshdan kechirganini to'liq bilmayman. «Ammo bu hali boshlanishi», deb o'ylayapman. Bir kuni u boshidan kechirganlarini aytib beradi. Menimcha, u avvalo, o'zini tushunishni, keyin esa boshqalar tomonidan tushunilishni va qabul qilinishni xohlaydi.

– Agar ich-ichimizdagi Freyd aytgan, bizda allaqachon mavjud bo'lgan zo'ravonlik tuyg'ularini o'chirmoqchi bo'lmasak, uni biz uchun hech kim o'chira olmaydi. U bilan na qonun, na sharmandalik va na gunoh kurasha oladi. Hammamizning ichimizda jinoyatchi yotganiga chin dildan ishonaman, lekin insoniyat bu jinoyatchini tezroq topib, uni tinchlantirishni xohlaydi. Buni esa o'z xohishi va ixtiyori bilan qiladi. Ya'ni inson aybdor bo'lgani kabi ma'sum hamdir.

– Uni qanday to'xtata olamiz?

Bir tomondan, ichidagi g'azabdan xabardor, ikkinchi tomondan, uni to'xtatish yo'llarini izlayapti.

– Freyd yillarini tushlar va xalq ertaklarini, til va qalam nuqsonlarini, latifalarni, bolalarni, fantaziyalarni va san'atni o'rganishga sarflagan. U inson hayotining oddiy, ammo unutilgan burchaklaridan haqiqatni izlardi. U, agar insonlar o'z istaklarini yaxshiroq tanisa, o'zlarini kamroq rad etishlarini, shu bilan ular yanada erkin va halovatda bo'lishlari mumkinligiga ishonardi. «Biz har qanday istakni qondirishimiz shart emas», deydi u. «Biz ularni o'zgalarga gapirish, ichimizdagi-

larni chiqarish orqali o'zimizni osonroq qabul qila olamiz va ba'zan baxtli bo'la olamiz», deydi.

– Shuning uchun siz meni doim gapirtirishni o'tmishda boshdan kechirganlarimni aytishimni xohladingizmi?

– Psixoterapiya mana shu, zero!

– Aytganim sayin yengillashaman va ichimdagi shayton-dan qutulamanmi, ya'ni?

Ichimdagi shayton! Yaxshilik va yomonlikni juda yaxshi ajrata oladi bu qiz.

– Shunday deb umid qilaman.

– Ammo so'zlaganim sari yomonroq bo'lyapti. O'sha kecha, hatto uxlay olmayapman.

– Bu yaxshi-ku, sendan talab qilingani ham shu. O'sha shayton chiqayotganda hamma yoqni biroz izdan chiqaradi. U biroz vayron qilib, ichimizga xanjar suqib chiqadi. Ammo bizni tark etayotib keltirgan zarari unchalik muhim emas, tezda bitib ketadi. U yashiringan joyidan chiqib ketsin, shu-ning o'zi kifoya.

– Sizningcha ichimdagi shayton chiqdimi?

– U hali seni butunlay tark etgani yo'q. Ammo agar sen ham uning chiqib ketishini xohlasang, u yerda ko'p yashay ol-maydi. Men bunga ishonaman.

Ko'zlarimga umid bilan qaraydi. U shunday umidvor nigoh ila boqqanda shiringina kichik qizga aylanadi.

– Freyd odamlarning hokimiyatga, ayniqsa, buzg'unchi hokimiyatga qaram ekanliklariga ishonardi. «Odatda, bizning eng kuchli istagimiz – o'zimizga bo'lgan istaklarimizni na-zorat qiladigan, ularni to'xtatadigan figurani topishdir. Shu-ning uchun bizga hukm qilinishini, hokimiyatga bo'ysunish-ni xohlaymiz», derdi. Freyd olomonni xavfli deb bilgan. Ham ta'qiqlovchi hamda izn beruvchi bir odamning rahbar bo'lishi olomonni junbisha keltirib, halokatli xavf tug'dirishi mum-kinligini aytadi. Aynan o'sha paytda Freyd g'oyalariga juda mos keladigan, dunyoga murosasiz qaraydigan, aniq dastu-riga ega siyosatchi yetishib chiqdi. U Gitler nimadan nafratla-

nishini juda yaxshi bilardi. Yahudiylardan, Versal shartnomasi va marksistlardan. U nimani xohlayotganini bilardi: nemis xalqining birlashishi, kuchli armiya, davlatga mutlaq sadoqat va kuchli imperiya. Uning so'zlariga ko'ra, Germaniya kuchayib borishi uchun xalq buyuk yo'lboshchini izlashi va undan o'z irodasining oliy ifodasini ko'rishi kerak. Bu rahbarning o'zi edi va uni u yerga olib kelgan ilohiy kuch edi. Gitlarning jamoatchilik bilan munosabatini deyarli mistik munosabatlar deb hisoblashimiz mumkin, chunki xalq unda o'z irodasining timsolini ko'rgan va uni eng katta orzularining vakili deb hisoblagan. Omma uchun Gitler har doim haqiqat nima ekanini bilardi va u buni o'ziga mutlaqo ishonch bilan aytardi.

- Lider degani shunday bo'lishi kerak. Eh, naqadar yaxshi, sening o'rningga nima qilishingni aytoladigan, seni to'xtatib turishga qodir bo'lgan odam bor, ayniqsa, menga o'xshaganlar shunday muhitda o'zlarini juda qulay his qilishardi.

- Nega, ayniqsa, senga o'xshaganlar?

- O'ylab ko'ring-a, hatto yolg'izlikning dahshatli haqiqatini yo'q qilishi mumkin. Axir Fyurer bor. Bizga bosh bo'lgan, o'z o'rnida yaxshi ko'radigan, joyi kelsa kaltaklaydigan, ammo bizni har qanday xavfdan asrashga tayyor bir odam bor. O'z ichingda ham tinch va xotirjamsan. Xohlasang ham xato qilolmaysan, chunki Fyurer bunga yo'l qo'ymaydi.

- Juda yaxshi talqin qilding, Alya. Senda bunday aql bor ekan, xohlasang ham xato qilolmaysan endi. Darhaqiqat, oriy idealini g'ayrat bilan himoya qilgan odamning o'zi past bo'yli, qoramag'iz, xunuk, shop mo'ylovli edi. Uning sevimli mashg'uloti o'z xizmatkorlari bilan dasturxon atrofida o'tirish, chuchvara yeb, itlarning sadoqati haqida suhbatlashish bo'lgan. Vaqti-vaqti bilan operetta filmlarini tomosha qilib, do'stlariga urushda boshidan kechirganlarini aytib berardi. Shaxsiy hayotida u o'taketgan hissiyot bo'lib, tez-tez yig'lar-di. Ammo kerak bo'lganda, u Freyd ta'riflaganidek, har doim haqiqatni biladigan va qarorlarida zarracha shubha qilmaydigan odam rolini juda yaxshi o'ynardi. Ba'zi manbalarda

Gitler Freydni o'qigan va o'z xatti-harakatlarini shunga mos ravishda o'zgartirgan deb yoziladi. Ayniqsa, yoshlar va ayollar undan qattiq ta'sirlanar, uni tinglaganda dunyoga, go'yo yangi payg'ambar kelgandek his qilishardi. Ayollar uni yaqindan ko'rish yoki unga teginish uchun bir-biri bilan raqobatlashardi. Hattoki, bir ayol o'limni bo'yniga olib, o'zini Fyurerning quchog'iga otgan va uning yuzidan o'pishga muvaffaq bo'lgan, lekin Gitlerga bu holat yoqmagan va mehmonxonaga borgunga qadar yonog'ini qo'li bilan artib borgan.

– Haqiqatan g'alati odam! Lekin go'yo Fyurer bo'lish uchun bu dunyoga kelgandek. Oddiy odamga bu ishlarni qilish juda mushkul. Bechora Freyd, hatto eng ashaddiy dushmanini ham tushunishga, uni tahlil qilishga uringan.

U Gitler va Freyd o'rtasida borib keladi. Qaysi biriga yon bosishni hal qilolmaydi. Bu undagi yaxshilik va yomonlikning to'qnashuvi!

– Freyd ham qiziq odam edi. U, hatto yeb-ichishni ham yoqtirmas ekan. Uning ayoli Marta undan olti farzand ko'rgan. Eri bermalol ishlashi uchun yashar ekan, lekin erining nima qilayotgani haqida hech narsa bilmagan. Shunga qaramay, u Venani tark etishni istamagan, Venani tark etishni kapitan o'z kemasini tark etishiga qiyoslagan.

– Bu inson o'z ongida butun bir dunyoni barpo qilgan, o'sha dunyoning qoidalarini birma-bir belgilab bergan va hamma odamlarni shu ko'rinmas qoidalar doirasida harakat qilishini aytgan. Bular kam narsa emas.

U Freydning ta'limotini qanchalik yaxshi anglabdi!

– Naqadar ajoyib gapiryapsan, Alya! Bugungi kungacha, ehtimol, hech kim Freyd haqida sen kabi aniq, sodda va chiroyli tushuntira olmagan.

– Rahmat... aytayotganlaringiz men uchun juda katta iltifot.

– Ehtimol, Freyd va Gitler o'rtasidagi eng muhim o'xshashlik ularning itlarga bo'lgan chuqur qiziqishi va sevgisi bo'lgandir. Har ikkisi ham doim it boqar, ularni juda yaxshi ko'rar, do'stlariga itlari haqida tez-tez aytib berishar ekan.

Gitler Xudo uni Germaniyaning qayta tug'ilishiga rahbarlik qilish uchun tanlagani bilan maqtanardi. Freyd esa sodir bo'ladigan dahshatli voqealarni avvaldan taxmin qilishdan zavq olardi. «Fashizm, – derdi u, – o'ziga va qilayotgan ishlariga to'liq ishonadigan imperator va xarizmatik liderning jozibasi bilan boshlanadi». Gitler shaxsiy hayotida qanchalik g'ayrioddiy, beqaror va g'alati ko'rinsa ham, u olomon oldida o'z rolini mukammal ijro etgan. Nihoyat, butun kuch-quvvati bilan bir yo'nalishda harakatlanayotgan haqiqiy inson, haqiqiy kuch paydo bo'ldi. Ammo Freyd uchun asosiy masala nima uchun aynan mutlaq lider odamlar uchun shunchalik muhim va zarur ekani haqidagi savol edi. Nega Gitlarga o'xshagan shaxs bu qadar hurmatga sazovor bo'ldi? Gitler endi deyarli o'zini Iso bilan solishtirardi. Darhaqiqat, Gitler Vena shahrida boshlari yalang va ko'zlarida yosh bilan jim va hayratda tinglayotgan olomonga murojaat qilardi: «Ishonamanki, bir bolani bu yerdan Reyxga yuborib o'sha xalqni reyxga qo'shsin deb uni rahbar qilish aslida Xudoning irodasi edi. Aks holda, odam Xudoning borligiga shubha qilishi kerak». Buni aytarkan, yig'lab yuborgan Gitler olomonga baqirib, so'zini shunday tugatdi: «Germaniya eng xo'rlangan paytda ham men unga ishonganman».

Uning yuzi yana yorishib, hayajon va jo'shqinlik butun vujudini egallab oldi go'yo.

– Qiziq, u buni chinakam ishonch bilan aytayotganmidi, yoki shohsupada professional aktyorlardek shunchaki rol o'ynayotganmidi?

– Menimcha, u o'zi aytgan hamma narsaga ishongan. O'sha kunlardan qolgan filmlar ham bu fikrimni qo'llab-quvvatlaydi. Agar u o'ziga ishonmasa, buncha olomonni ortidan ergash-tira olmasdi. Balki o'shanda o'zini chinakam payg'ambar deb hisobgandir. Freyd uni tahlil qilish uchun ko'p harakat qildi. «Odamlar yaxlit mavjudot emas», deydi Freyd. «U parchalanib ketgan va bu bo'laklar ko'pincha bir-biriga zid keladi». U ongostini uch qismga bo'lib o'rganadi. Pastki qismini «id»

deb ataydi. Id – bu istaklar yig'iladigan joydir. Id bu erkatoyni hali juda kichkina, doim bir narsalarni xohlab turadigan bolaga o'xshaydi. Orzulari hech tugamaydi. Yuqorisidan joy olgan vijdon yoki «super ego» esa ko'pincha bu istaklarga qarshi chiqadi va uni jazolaydi. Chunki bu bo'lim ulg'aygan sari biz yashayotgan jamiyat bor ekan, undagi urf-odat va qadriyatlar tirik ekan, din amalda ekan nima to'g'ri, nima noto'g'ri ekanini doimo aytib turadi. Super ego, qo'lida tayoq tutgan otanaga o'xshaydi. Uning hamma narsadan jahli chiqadi, ya'ni sen buni juda yaxshi tushunasan.

– Bularni ayniqsa, super egoni juda yaxshi tushunganimni taxmin qilyapsiz tog'rimi?

U, hatto psixiatriyani ham professional darajada biladi. Men og'iz ochmasimdan yoqamga yopishtirdi-qo'ydi.

– Ha, bilaman, bularning hammasini sen yaxshi tushunasan, deb aytyapman. Men yoki ego ularning ikkisi orasida halak. Bir tomondan poyoni yo'q cheksiz orzu-istaklari bir tomonda esa unga tinimsiz «to'xta» deydi, nafaqat qilgan ishi, balki o'ylagani uchun ham jazolaydigan vijdoni o'rtasida nima qilarini bilmay gangib qoladi. Uning asosiy vazifasi bu ikkisini kelishtiradigan o'rta yo'lni topish, lekin buni qilish biz uchun unchalik oson emas.

– Jazo deganda nimani nazarda tutdingiz?

– Men aybdorlik haqida gapiryapman. Inson avvalo o'zi tomonidan ma'qullanishni istaydi. Shundagina ichki xotirjamlikka erishishi mumkin.

– Ichki xotirjamlik-a? Qiyin.

Buni aytib, qo'lini silkitar ekan, yana o'sha alamli yuz ifodasi zohir.

– Nafaqat senga, Alya, barchamizning ichki xotirjamlikka erishishimiz mushkul, chunki men deb ataydigan nafsimiz uchala xo'jayinga ham qarzi bor miskinining o'zginasidir. Tashqi dunyo bizdan doimo nimanidir talab qiladi. Hozirgina id deb atagan bo'limning istak va xohishlari tugamaydi. Oxirgi xo'jayin bu bizning vijdonimizdir.

– Hammada ham shundaymi?

– Aslida, bu hammada shunday, lekin ba'zi narsalar bu mexanizmga katta ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, bolaligini juda yaxshi muhitda kechirgan, sevilgan, hurmat qilingan va g'amxo'rlik ko'rgan odamning ishi sendan ko'ra osonroq.

– Eh hech bo'lmaganda shunisini qabul qildingiz!

Chuqur nafas olgancha xo'rsinib aytdi so'nggi jumlani. Ancha yengil tortdi.

– Men buni birinchi kundanoq bilaman va bu og'ir kurashda senga yordam berishga harakat qilyapman. Lekin: «Hamma maza qilib yashab yuribdi-yu, faqat mening peshonam sho'r ekan», – deb o'ylashingni xohlamayman.

– Lekin hozirgina shunday ekanini o'zingiz aytdingiz–ku...

– Inson bo'lib dunyoga kelish go'zal bo'lganidek, qiyin ham. Asosan, barchamiz u yoki bu sabablarga ko'ra bir xil to'qnashuvlarni boshdan kechiramiz. Biz shuning uchun ham hech qachon «to'la-to'kis» bo'la olmaymiz. Yarimmiz... Bir yonimiz yoz ekan, bir yonimiz qish. Ikki tarafimizning ham bahor bo'lishi oson emas. Spirtli ichimlik va giyohvand kabi mast qiluvchi moddalar ko'pincha vijdonimizni sayozlashtiradi, uning hukmiga toqat qila olmaydigan holga keltiradi. Shuning uchun, ayniqsa, ichki dunyosida bu muvozanatni o'rnatishda qiynaladigan odamlar ushbu moddalarga qaram bo'ladi.

– Demak, bu dunyoda yarim, nima qilsa ham butun bo'la olmaydigan yagona odam men emasman.

– Albatta, faqat sen emassan! Aslida, biz hammamiz yarimmiz. Vaqti-vaqti bilan bu tuyg'u ko'payib kamayadi, bori shu. Baxtli odam har doim ham baxtli emas. Baxt – bu bizni vaqti-vaqti bilan ta'qib qiladigan tuyg'u, lekin ba'zi odamlar buni deyarli boshdan kechirmaydilar.

– Menga o'xshab...

Bu gaplarni aytayotib, u yana g'amgin ifoda bilan qo'lini silkitadi, ko'rsatkich barmog'idagi ko'karishlar yana bir bor e'tiborimni tortadi. Nega bu barmoq tuzalmaydi? Men birinchi kundan beri bu haqda o'ylayman va bilmogchiman,

lekin hali so'rolmayman. Insonning barmog'i doimo ko'karmaydi-ku. Men uning boshqa barmoqlariga qarayman, ular-da bunday holat yo'q. Agar biror narsaga urib olgan desam, hozirgacha tuzalgan bo'lardi. Bunda bir gap bor, lekin nima? Uning egnidagi g'alati kiyimlarning ham bir ma'nosi bor. Men uni taniganimga bir necha oy bo'ldi va haligacha bularning hech birini bilmayman!

– Siz hali menga Freydning Gitler haqidagi mulohazalarini... to'liq aytib bermadingiz.

– U qayta-qayta shu haqda so'raydi! U psixiatr va psixiatriya asoschisi bo'lgan odamning o'ziga o'xshatayotgan Gitler haqida qanday fikrda ekanini bilishni istaydi.

– Freyd olomonning Gitler kabi lider bilan aloqalarini erotik munosabat sifatida idrok qiladi. Zero, Gitler ham o'z nutqida nemis ommasi bilan sevishtanini aytadi. Freyd ta'bi-ri bilan aytganda, yetakchi ommani gipnoz qiladi va odamlar bunday yetakchidan nima to'g'ri, nima noto'g'ri ekanini oson o'rganadilar. Aqlini ishlatishi, ichki ovozi tinglashi, o'ylashi shart emas. Shunday qilib, inson o'zining ichki dunyosida o'zini juda tinch va osoyishta his qiladi, chunki u ishonadigan lider unga to'g'ri yo'lni ko'rsatishiga ishonchi komil. Shu bilan javobgarlikni ham o'zidan soqit qiladi.

– Xudo kabimi?

– Alya, sen meni, haqiqatan, hayratda qoldiryapsan.

– Nimaga?

– Chunki bular juda o'rinli izohlar. Meni juda yaxshi tushunadigan hamkasbim bilan suhbat qurayotgandek his qilyapman o'zimni. Ha, Xudo kabi.

Bu so'zlar o'ylab o'tirmay o'z-o'zidan og'zimdan chiqyapti. Bu mening haqiqiy his-tuyg'ularim, lekin biz bemorlarimiz bilan har tuyg'uni ham baham ko'ravermaymiz, garchi bu juda ijobiy bo'lsa ham. Uning his-tuyg'ularini bilmoqchi bo'lib asta tikilaman yuziga. Odatdagidek xijolat tortdi. Yuza biroz qizar-di, hatto. Ko'p cho'zmasdan, kelgan joyimdan davom etaman:

– Shu tarzda, o'sha olomondan o'rin olgan har bir kishi o'zini muhim qarorga imzo qo'ygandek his qiladi. Bu esa kuch degani va bu boradagi istaklari ham shu bilan qondirilgan bo'ladi.

– Freyd haq... Siz bu yerda haqiqiy erotik munosabatlar-ni tasvirlayapsiz. Demak, Gitler biz o'ylagan darajada yo'qsil odam emas, aniqki, Freyd uni o'qigan va yaxshi tushungan.

– Balki... Bu munosabatlarning yana bir xususiyati, odamlar o'rtasidagi farqni ko'rsatmayotganidir. Shunday qilib, olomon orasida lider to'liq tenglikni ta'minlagan. Agar Gitler boshchiligidagi o'sha davrdagi Avstriyaga qaytadigan bo'lsak, odamlarning hammasi birgalikda yahudiylarni ayblaganlar va yana hammasi birgalikda katta imperiyani orzu qilganlar. Tasavvur qilgin-a, odamlarning orzularini Gitler birlashtiryapti!

– Psixiatriya fanining ba'zan sehrgarlikdan farqi yo'q. Agar Gitler bu ishlarni ongli ravishda qilgan bo'lsa, u juda aqlli va iste'dodli odam bo'lgan!

– Unday deb o'ylamayman, chunki bularning barchasi sog'lom va aqli raso odamlarning ham qo'lidan kelavermaydi. Biroq juda bilimdon va tajribali psixiatrlar guruhi buni amalga oshira olishlari mumkin. Bunday rahbarning yana bir xususiyati shundaki, o'rni kelganda uning izn ham bera olishidir. Insonning o'z vijdoni o'g'irlik, zo'ravonlik, buzg'unchilik kabi narsalarga izn bermayotgan bir paytda, birdan paydo bo'lgan yangi vijdon, ya'ni lider ma'lum sharoitlarda bunga izn bera-di. Shu tarzda, odam o'zining zo'ravonlikka bo'lgan mayllarini eng yaxshi tarzda qondirish bilan birga, bundan hech bezovta ham bo'lmaydi, o'zini aybdor ham his qilmaydi.

– Ham ur, qir, yo'q qil, ham bundan vijdon azobi chekma!.. Bunday liderga ... mening ham juda ehtiyojim bor.

So'nggi gapini biroz tabassum bilan aytadi. Bu juda sog'lom, hatto donolarga xos munosabatlar. Bu qizning egosi hali ham sog'lom. Bundan juda xursand bo'lyapman.

– To'g'ri aytasan, bu holat nafaqat seni, balki hammani ham xotirjam qiladigan holat. Barcha samoviy dinlar har qan-

day tirik mavjudotni o'ldirishni taqiqlaydi va agar odam shu ishni qilsa, qonunlar uni jazolashidan avval uning o'zini bundan halovati buziladi va aybdorlik his qiladi. Bu yerda rahbar o'z o'rnida Xudoning o'rnini egallab, «Yahudiylarni o'ldirish jinoyat emas, hatto ularni o'ldirish bilan ham jamiyatni yovuzlik va ifloslikdan qutqarasan», deydi. Shunday qilib, Gitler Venaga kelgunga qadar nihoyatda madaniyatli va bag'rikeng bo'lgan venaliklar birdan yahudiy qo'shnilariga hujum qila oladigan va bundan o'zini aybdor his qilmaydigan odamlarga aylanyapti. Venaliklar yahudiy qo'shnilariga hujum qilgan paytda bir vaqtning o'zida ikkita narsani bajarishardi. Ham bemalol eng tajovuzkor mayllarini qondirar hamda yanada ustun kuchga ega buyuk bir jamiyatni yaratishga hissa qo'shishardi. Ularning barchasi to'g'ri ish qilayotganlariga ishonardi. Ular man etilgan ishni qilmoqchi bo'lib, bunday qilmaslik kerak degan ichki ovozdan qutulishgandi. Natijada qilayotgan ishlari vahshiylik bo'lsa ham buni ommaviy tarzda hech ikkilanmay amalga oshirishdi.

– Insonning ichki dunyosi uchun qanday munosib formula!

– «Omma, – deb yozgan edi Gitler, – bo'yinsunuvchidan ko'ra liderlarni yaxshi ko'radi».

– Bu nima degani?

– Ya'ni keng omma demokratik tizimlardan ko'ra totalitar tizimlarni, o'zlarini boshqara oladigan qirol yoki imperatorni afzal ko'radi. Gitler singari Freyd ham bu haqiqatni tasdiqlaydigan maqolalar yozgan.

– Demak, ikkisi ham deyarli bir xil narsani aytyapti.

Uning miyasidagi urush va qat'iyatsizlik go'yo bu so'zlar bilan hamohang.

– Shunday! Freydning ta'kidlashicha, odamlar birinchi navbatda ichki xotirjamlikka intiladi. «Bizning azob-uqubatlarimizni anglaydigan, dushmanlarimizni ko'rsatadigan, kuchimizni qayerga yo'naltirishimiz kerakligini aytadigan, ta'qiqlangan istaklarimizni sof bir vijdon bilan qondirishga imkon beradigan sodda ta'limot va kuch-qudratga ega bo'l-

gan inson barcha uchun huzurga yetaklovchi yo'ldir», – deydi u. Bunday odam munosib vaqtda paydo bo'lsa va bizni munosib so'zlar bilan alday olsa, ana o'shanda hayot yanada ma'noli bo'ladi. Bizga ichkilik va sevgidan ko'ra ko'proq yaxlitlik tuyg'usini beradi. Yarimligimizdan, kamchiligimizdan, ichimizdagi bitmas-tuganmas tortishuvlardan va huzursizlikdan bizni qutqaradi. Ammo bularni qiladigan odam o'z ishining ustasi bo'lishi kerak. Kuchli bo'lmasa ham kuchli ko'rinishni bilishi kerak. Jamiyat qarshisida hech kimga muhtoj bo'lmagan, vijdoni toza, o'ziga ishongan, har doim nima qilayotganini juda yaxshi bilib turadigan, jasur va boobro' shaxs sifatida namoyon bo'lishi kerak. Bu odam o'z hokimiyatining manbayi va kafolati sifatida ba'zan Tangrini ko'rsatishi mumkin.

– Xoh Gitler, xoh Gulseren Budayjiog'li desak bo'ladimi?

– Xudo asrasin, unday dema! Meni Gitlerga o'xshatyapsanmi?

– Gitler jamiyatlarda tinchlik o'rnatishga va'da bergan, siz menga ham shunday narsani va'da qilyapsiz... U ularning xalokori edi, siz esa mening. U ham ishini o'ziga ishonib bajaragan... siz ham.

Endi u meni Gitlarning o'rniga qo'yyapti. Haqiqatan ham, qiziq! Bunga e'tiroz bildirmayman.

– Menimcha, orada kichik farq bor. Jamiyat Gitlerga qattiq ishongan, lekin adashmasam sen hali ham menga ishonmayapsan.

– Yo'q, yo'q! Men, aslida, sizga ishonaman, lekin shu bilan birga bunga ishonishni ham xohlamayman. Men hech qachon biror narsaga ishonishdan zavqlanmadim. Zavqlanmasam ham doim buni xayol qilganman. Olovuddinning sehrli chirog'idan chiqqan dev mendan: «Nima xohlaysan?» deb so'rasa. Unga «Ishonishni xohlayman», derdim. «Birovga to'liq ishonish!» Hayotimda hech qachon ishonadigan odamim bo'lmagan. Endi esa siz «Menga ishon» deyapsiz, meni yarim yo'lda qoldirib ketmasligingizni qayerdan bilaman.

O'z ichidagi qo'rquvlar ishonchsizliklar haqida gapiryapti. Bugun unga yaxshiyamki, Gitler va Freyd haqida gapirganim.

- Bu qadar ochiq gapira olish qanday yoqimli tog'rimi, Alya? Qara, miyanga aylanayotgan savolni nihoyat, mendan ochiqchasiga so'ray olding.

- Buni ham bilaridingiz?

- Azizam, meni o'zimga josusdek his qildirma. Mening ishim bu. Zero, yonimga shuning uchun kelmayapsanmi? Seni tark etish masalasiga kelsak...

- Ha, asl gap shunda!

- Men sening shifokoringman va senga yordam kerak bo'lgan har qanday paytda yoningda bo'laman. Seni qanchalik xursand, qanchalik baxtiyor va qanchalik omadli ko'rsam, shunchalik mamnun bo'laman.

- Bori shumi?

- Sen nimani xohlarding?

Suhbat juda qiziq joyiga keldi. Aslida, meni u ancha sho-shirib qo'ydi. Unga ba'zi masalalarda kafolat berishimni xohlaydi. Men bunday qila olmayman, qilmayman, bunday qilishim to'g'ri bo'lmaydi.

Oxirgi savolimga negadir javob bera olmadi. Qattiq o'yg'a toldi. Aslida, nima xohlayotganini ikkimiz ham bilamiz. Uni yaxshi ko'rishimni, unga ko'proq e'tibor berishimni, balki onadek unga mehr ko'rsatib yonida bo'lishimni va uni qo'llab-quvvatlashimni xohlaydi. Nafaqat Alya, balki bir muddat psixiatrnga borgan bemorlarning ko'pchiligi buni istaydi, lekin muammolari hal bo'lgach, o'ziga ishonchi ortishi bilan qanotlari asta-sekin chiqib, uchib ketadilar. Ular davolanishning o'rtasida buni his qila olmaydilar va shifokorning yordamidan mahrum bo'lib qolishdan qo'rqishadi. Alyada bu qo'rquv boshqalarga qaraganda kuchliroq.

- Qani, biroz avvalgidek jasur bo'lchi!

- Gitler o'ziga bo'yinsunganlarni yaxshi ko'rardi. Meni yaxshi ko'rishingizni xohlayman, tushunyapsizmi, meni yaxshi ko'rishingizni. Shunda balkim butun bo'la olmasam-da, hozirgidek yarim bo'lib qolmasdim. Men siz uchun faqat ishingizning bir qismiman. Agar tuzalib ketsam sizga qanday yaxshi, ishingizni a'lo darajada bajargan bo'lasiz. Bori shu.

Umidsiz faryod bu! Meni uni yaxshi ko'rishimni, hatto juda qattiq yaxshi ko'rishimni xohlaydi. Hech sevilman bir odamning bunday xayol qilishi, albatta, tabiiy. Ko'nglimga qo'l solib ko'ryapman, uning o'ziga aytmasam-da, endi Alyani yaxshi ko'raman va uni qo'llab-quvvatlayman.

– Umid qilamanki, bir kun kelib, sen ham sevasan va sevilasan, Alya. Zero, qalbimizdagi yaralarimizning malhami sevgidir. Sening bunga qanchalik ehtiyojning borligini bilaman. Psixiatriyada bemor va shifokor o'rtasida tobora g'alati munosabatlar yuzaga keladi. Chunki bemor ham, shifokor ham insondir. Boshqacha aytganda, nafaqat mantiq, balki his-tuyg'ularga ega bo'lgan insonlar uzoq vaqt davomida terapiya mashg'ulotlarida birlashadilar. Shunday qilib, bu munosabatlar davomida his-tuyg'ular doimo biridan ikkinchisiga o'tib turadi. Axir, munosabatlar ikki kishi o'rtasida yuz beradigan his-tuyg'ular tizimidir. Bu bizga terapiyada qo'l keladi. Xohlasang, hozir senga Freydning bu haqda nima deganini aytib beraman.

– Kelishdik!

– Freyd terapiya mashg'ulotlarida ba'zi bemorlari uni sevim qolishganini ko'rdi, lekin bunga sababi uning kelishgan insonligi emasligini ham bilardi. U bemorlarining bir paytlar onasi, otasi va hokimiyat arboblari nisbatan tuygan sezgilari shifokorigan nisbatan his qilganini ko'rdi. Shifokor mana shu tuyg'ularning uzatilishi tufayli bemorning ichki dunyosi dinamikasini o'rgana olishini anglab yetdi. «Davolanishning boshlanishi uchun bemorning bu uzatilishga taslim bo'lishi, shifokorning jozibasiga mahliyo bo'lishi kerak», deydi Freyd.

– Unda biz juda yaxshi ketyapmiz, chunki sizni ko'rgan ilk kunimdan beri sizga nisbatan g'alati bir hayrat tuyg'usi bor...

Bu qizning o'z his-tuyg'ularini juda aniq va oson ifoda eta olishi qanday yaxshi! Bu seans juda samarali va davolanish uchun juda ta'sirli bo'ldi.

– Men ham aynan shuni aytyapman. Bu terapiyaning talabi.

– Agar sizga qoyil qolmaganimda terapiya ish bermasmidi?

- Yaxshi psixoterapiyada transfer muhim shart, lekin bu transferda biz faqat ijobiy sezgilar haqida gapira olmaymiz. Ba'zan buni teskarisi bo'lishi mumkin ya'ni bemor terapevtidan qattiq g'azablanishi va hatto undan nafratlanishi ham mumkin. Menimcha, bu borada ham holat yomon emas.

- Ehh... rosti orada sizdan qattiq g'azablanadigan paytlarim ham bo'ladi.

- Ajoyib, men sening ochiq gapirishingni yaxshi ko'raman. Terapevt sifatida Freyd o'z bemorlarining, ham erkak, ham ayollarning eng kuchli ehtirolari nishoniga aylangan. Ba'zida buning aksi bo'lib Freyddan nafratlanishar, uni juda yomon ko'rishardi. Unga ko'z suzganlar, hazillashganlar, haqorat qilganlar, hayratga tushganlar bo'lardi. Ammo aslida, terapiyaning maqsadi mutlaq hokimiyat sirini yo'qqa chiqarishdir. Vaqt o'tishi bilan bemor o'zining o'tmishi va kelajagidagi barcha istak va hokimiyat obyektlari bilan yangi munosabatlariga kiradi va uning terapevtiga bo'lgan munosabati o'zgaradi. Terapiya so'nggida transfer vodiysidan o'tgan bemor terapevtning ham o'zi kabi qayg'u va alam chekadigan, kurashib yashaydigan o'tkinchi oddiy odam ekanligini ko'radi. U terapevtning aql-zakovati va shaxsiyatiga qoyil qolishi mumkin, lekin endi uni o'zgacha noodatiy bir shaxs sifatida ko'rmaydi. Psixotahlil psixoterapiyalarning asosiy maqsadi barcha mutlaq hokimiyat vakillarining jumbog'idir. Terapevt birinchi navbatda odamlarga o'zini undan buyukroq ko'rishlariga imkon berishi kerak. Chunki inson hokimiyat bilan munosabatlarini faqat shifokor bilan munosabatlari orqali hal qilishi mumkin. Endi, yana senga qaytadigan bo'lsak, sen uchun hokimiyatni ifoda qilgan kishilarga, ya'ni onangga, otangga va buvingga nisbatan his-tuyg'ularing ma'lum. Ularni doim yaxshi ko'rishni xohlagansan, lekin natijada ulardan nafratlanishga majbur bo'lgansan. E'tibor berayotgan bo'lsang, bu yerda ham menga nisbatan xuddi shunday beqarorlikni ko'rsatyapsan. Avvalo, seni yaxshi ko'rishimni, menga ishonishni xohlaysan, lekin avvalgi tajribalaring bunga yo'l qo'ymaydi.

Yaxshi ko'rishni va ishonishni uddalay olmay, eng yaxshi bi-ladiganingni takrorlayapsan. Mendan jahling chiqyapti, isho-nolmayapsan. Seni tinglar ekanman, ishonchingni qozonish-ga harakat qilyapman. Bir kun kelib, hokimiyatga ishonishni va u bilan munosabatlarni yaxshilashni o'rgangan payting, sen ham xotirjam bo'lasan. Ana o'shanda shifokor boshqa narsa qilishi kerak bo'ladi. Navbat hokimiyat ramzini o'zgar-tirishga keladi. Balki, ana o'shanda meni kamtar, yanada yax-shi bir inson sifatida ko'rarsan. O'sha dev kichrayadi, sendek o'lchamga keladi. Shunday qilib, sening o'tmishingdagi hoki-miyat arboblari, ya'ni onang, otang va buving ham men bilan birga kichrayadi. Bilmayman, tushuntirib bera oldimmi?

- Albatta, juda yaxshi tushuntirdingiz! Aslida, men bularni, balki yuz marta o'qigandirman, lekin hech tushuna olmagandim.

- Bu ham juda tabiiy, chunki kitoblar o'qish uchun yoziladi, lekin psixiatriyaning birinchi sharti munosabatlardir. Aslida, bugun senga uzoq vaqt aytganlarim psixiatrlar tomonidan be-morlariga aytilmaydi, balki amalda qo'llaniladi. Shifokor shun-dayligini biladi, bemorning reaksiyalariga doim jiddiy qaraydi va avval bilganiga qarab harakat qiladi, lekin sen boshqa be-morlarga o'xshamaysan. Juda sinchkovsan. Sendan hech narsa qochib qutula olmaydi. Sen ko'p o'qiysan va haqiqatan ham, ko'p narsalarni bilasan. Men bu bilimlarni sening miyangdagi to'g'ri o'rinlarga joylashtirishga harakat qilyapman. Har doim-gidek, men senga faqat fonus tutyapman, xolos.

Og'zini ochganicha kulib qo'yadi.

- Sabrigiz uchun rahmat. Aslida, sizga faqat minnatdorchi-ligimni bildirishim kerak, lekin bazida shunday izdan chiqib ketamanki, o'zimni to'xtata olmay qolaman.

- Bunday bo'lishi mutlaqo tabiiy, xafa bo'lma.

- Endi shu Freydning hikoyasini tugataylik-da, men ham ketay. Yana juda ko'p vaqtingizni oldim.

- Freyd jag' saratoniga sabab bo'lgan sigaretni tashlay olmasa-da, u sigaret eng keng tarqalgan va eng qadimgi gi-yohvandlik, ya'ni onanizmning o'rnini bosishini tan olishdan chekinmadi. Freydga Nobel mukofoti uning 82 yoshga to'li-

shi munosabati bilan berilishi haqida gap-so'zlar chiqdi. Bu Freydga yoqmadi, chunki u isyonkor ruhga ega odam edi va isyonchilarga katta mukofotlar berilmasdi. Uning Avstriyani tark etish haqidagi qarori qat'iylasha boshlagandi, chunki ko'p marta yozganidek, «ozod o'lishni» xohlardi. Zero, qo'li-dan barcha narsasi olingan, jonidan boshqa hech vaqosi qolmagandi. Uni dunyoning diqqatini tortmaslik uchun o'ldirmay turishgandi. 4-iyun kuni Freyd rafiqasi Marta, qizi Anna, shifokori va sevimli itini o'zi bilan olib, ko'plab do'stlari, xususan, amerikaliklar yordamida «Oriyent Express»ga mindi. U 6-iyun, dushanba kuni Londondagi Viktoriya stansiyasiga tushdi. Hatto uni kutib turgan olomondan qochish uchun poyezd stansiyaga kirmasdan to'xtadi, chunki Freyd oyoqda turishga qiynaladigan darajada xasta edi. Freyd muxolifatni yaxshi ko'rardi. Unga yordam beradigan kuchli do'st va jang qilishi uchun dushman kerak edi. Bundan tashqari, psixotahlil asoschisi tarixga vahshiylikdan zulm ko'rgan irqqa mansub bo'lib, kirishi, ehtimol, tanlov emasdi. U muvaffaqiyat, shon-shuhrat va burjua hayotining barcha xavfsiz tuzoqlarini yaxshi ko'rar-di. Umrining so'nggi yillarida u bir mavzuda ikkilanib qoldi. O'z pozitsiyasidan zavqlanib, oqilona harakat qilishi kerakmi yoki oxirigacha olim shu bilan birga boshga balo Freyd bo'lib qolishi kerakmi? O'sha paytda u *Muso* nomli *kitob*ning ustida ishlayotgan edi, bu u yozgan eng provokatsion asardir. Bu kitob, uni ehtimol, Angliyada ham qabul qilinishi va sevilishiga chek qo'yishi mumkin edi. U 1909-yilda Amerikaga kelganida hayotida ilk marotaba qabul qilinish tuyg'usini boshdan kechirdi. Muso, aslida, yahudiylikka qarshi kitob bo'lib, Muso-ni-yahudiylikni shubha ostiga qo'ygan va u yahudiy emas, aslida, misrlik ekanligini ta'kidlagan.

– Qanday g'alati odam ekan. O'ylayotgan narsalari uchun o'z xalqiga ham xiyonat qilishdan ham tap tortmaydi.

U bu so'zlarni ham hayrat ham qayg'u aralash ohang bilan aytadi. Freydni tushunishga harakat qilyapti-yu, lekin ba'zi narsalarni aqliga sig'dirolmayapti.

– U buni xiyonat sifatida ko'rmagan. Freyd, nima bo'lishidan qat'i nazar, har doim haqiqat ortida edi. Uning uchun irq, millat va hatto Xudo ham yo'q edi, chunki u ateist bo'lib tug'ilgan va ateist bo'lib o'lgan.

– Nihoyat, kitobini nashr qildiribdimi?

– Ha. Qaror qabul qilishda qiynalgan bo'lsa-da, oxir-oqibat, kitobni nashr qildiradi. O'zi kutganidek, u juda salbiy munosabatlariga ro'para bo'ladi, lekin asar dunyo bo'yicha eng xaridor-gir kitoblardan biriga aylanadi. Tushunganingdek, o'limidan avval nima qilib bo'lsa ham yana baloga sabab bo'lgan, odamlarni junbisha keltiradigan va ikkilantiradigan ma'lumotlarni yozgan, vaziyatni tang holga keltirishga muvaffaq bo'lgan.

– Isyonkor ruhli odam!

Gitler haqida tinglar ekan, yuziga yoyilgan jo'shqinlik va hayajonni ko'raman. Unga Freydning isyonkor tomoni yoqdi.

– Uning fikricha, insonning barcha xatti-harakatlari bolalikdagi ildizlarga borib taqaladi. Boshqacha aytganda, bola yetti yoshgacha nimani o'rgangan, nimani his qilgan yoki nimani boshdan kechirgan bo'lsa kelajakda ham shularni takrorlaydi. Freydning fikriga ko'ra, hozirgi payti, aslida, avval sodir bo'lgan voqealarning takrorlanishidir.

– Unda mening holimga voy ekan-da!

– Shunday bo'lmasligi uchun harakat qilyapman, ko'ma-yapsanmi? Psixotahlilda Freyd miyada kodlangan his-tuyg'ularni o'zgartirishga harakat qiladi. «Insoniyat o'zi taslim bo'lgan, lekin o'zini himoya qilishga ishonadigan tangrilarni yaratadi». Va u har bir ayol fashistga sig'inishini ta'kidlaydi.

– Fashistlarga faqat ayollar sig'inganmi? Erkaklarga taalluqli emasmi bu?

– Qarab turibman bu mavzu qattiq e'tiboringni tortdi! Af-suski, bu holat erkaklarga ham taalluqli. Ya'ni Freydning fikricha, ayollar ham, erkaklar ham fashist ruhga ega insonlarni yaxshi ko'radilar.

Shiftga tikilganча, gaplarimni tushunishga, his qilishga urinadi.

– Mantiqqa xos emas, lekin menimcha, haqiqat. Zero, bu odam hech qachon me'yoriy gaplarni gapirmagan.

– Ha, xuddi shunday! Har doim odamlar qabul qilishi qiyin bo'lgan haqiqatlarni gapirgan. Shuning uchun uni yaxshi ko'radiganlar bilan birga kabi yoqtirmaydiganlar ham ko'p bo'lgan. Agar butun dunyo shunday isyonkor ruhli odamni yaxshi ko'rganda, Freydga bu ham yoqmagan bo'lardi. Uning beshta singlisi bor edi. Eng katta singlisi Anna Freydning qaynisi bilan turmush qurgan va 1955-yilda Nyu Yorkda to'qson yetti yoshida vafot etgan. Dolfi hech qachon turmushga chiqmagan va hayotini xasta onasiga qarash bilan o'tkazgan va 1942-yil sentyabr oyida yahudiy gettosida ochlikdan vafot etgan. Qolgan uchta singlisi esa konslagerga jo'natilgan va 1942-yilda natsistlar tomonidan o'ldirilgan. 1-sentabr kuni Freyd o'z xonasida jag'idagi og'riq bilan kurashar ekan, fashist askarlari Polshaga kirib keladi. Polsha so'nggi tomchi qoni qolguncha kurashsa-da, tez orada mamlakat nemislar qo'liga o'tdi. Gitler askarlarga yaqin bo'lish uchun old saflardan joy oldi. Tez orada Gitlarning xayoliga yer yuzidagi barcha polyaklarni o'ldirish fikri kelardi. Biroq ikki kundan so'ng ham Fransiya, ham Angliya Germaniyaga urush e'lon qildi.

– Bu odamni qarang, bir telbaning dastidan jahon urushi boshlanyapti. Men tarixni o'qidim, lekin hammasi o'sha odam tufayli bo'lganini to'liq tushunolmagandim.

– Bundan xijolat bo'lma! Bizga tarix yaxshi o'rgatilmaydi. O'lim to'shagida yotgan Freyd bu xabarni eshitgach, «Urushlar davom etaveradi, lekin bu men uchun oxirgisi», degan. Chunki Freydning fikricha, urushlar har doim bo'lardi. Freyd nuqtayi nazariga ko'ra, insoniyat tarixidagi madaniyatning halokatli maylni bostirgan urushsiz davrlarda, mayllarning jinoyat, tajovuz va bosqinchilik shaklida yuzaga chiqishini ko'rish mumkin.

Xuddi matematikadan masala yechayotgandek miyasida hisob-kitob qiladi.

– Unday bo'lsa odamlar nima qiladi? Buning uchun biror yechim tavsiya qilmaganmi?

– Freydning bunga beradigan tavsiyasi, energiyani ilm– fan, tijorat va badiiy ijodga yo'naltirish shaklidir. Balzak kabi, Freydning qarashiga ko'ra ham hech narsa bermagan odam hech narsa ololmaydi. Freyd o'zining chekayotgan azob-uqubatlariga rozi edi, chunki uning eng katta qo'rquvi aqliy qobiliyatlarini yo'qotish bo'lgan. Aslida, u ishlab turgan holida o'lishni xohlardi. Oxiri odamlarning har doim ham erkinlik yoki tenglikni xohlamasliklarini anglab yetish, hatto o'sha isyonkor odamga ham salbiy ta'sir qilgandi. U ko'p odamlarga demokratiya yoqmasligini anglab yetdi. Freyd bu haqda shunday deydi: «Chunki «Demokratiya» «men»ning ichidagi va tashqarisidagi tartibsizlikni keltirib chiqaradi. Odamlar ba'zan juda yomon bo'lsa ham tartibni xohlashadi. Chunki fashizmida ichki ziddiyat yo'qoladi va odamlar o'zlarini kuchli his qiladilar. Va ular bu tuyg'udan osonlikcha voz kechishni xohlamaydilar».

– Agar ham isyonkor, ham jasur bo'lmaganida, bu gaplarni aytolmasdi.

– Bunga to'liq qo'shilaman, chunki tushunishimcha, bu aytganlaridan eng ko'p xafa bo'lgan uning o'zi. Uning joniga qasd qilgan, butun oilasini yo'q qilgan tuzum haqida aytyapti bularni. Freyd endi ishlay ham olmasdi, uning jag'ida saraton sabab katta teshik ochilgan va og'riq kuchaygandan-kuchayib borardi. Zero, Freyd bir necha yil avval shifokori Schur bilan o'zining o'limi haqida kelishib olgandi. Vaqt-soati yetganda, unga shifokori izn berishini, hatto bu borada unga yordam berishini xohlardi. O'sha kuni shifokori Schurga: «Endi hayot azobga aylandi va unda ma'no ham qolmadi», dedi u. Doktor uning nima demoqchi bo'lganini darhol tushundi. U birinchi navbatda qizi Anna bilan gaplashdi va undan ruxsat oldi. Keyin u ko'p yillar davomida dardini baham ko'rgan va doimo hurmat qiladigan bemoriga qayta-qayta katta miqdorda morfin berdi. Va 1939-yil 23-sentyabrda barcha gazetalar Freyd saraton kasalligidan vafot etganini yozdilar.

Filmning bosh qahramoni vafot etganida tomoshabinlar qanday his-tuyg'ularni boshdan kechirishsa, Alya ham juda mahzun bo'lib qoldi.

– Oxiridan xafa bo'ldim-u, lekin bugun ko'p narsani o'rgandim...

Alya bu safar sekin-asta o'rnidan turadi. Qo'limni siqarkan, uni o'zimga yaqinroq his qilaman. Ko'zlarimga tikilib, «Rahmat» deb shivirlaydi. Men unga kulib qo'yaman. Tinglaganlaridan ko'ngli to'ldi, ba'zi masalalarda fikri aniqlashgancha xayrlashib, xonadan chiqadi. Aslida, bu qiz ko'p narsani biladi! Ham o'zini yaxshi taniydi, ham yuksak madaniyatga oid tushunchasi bor. Bu yaxshimi yoki yomonmi, bilmayman. Chunki ba'zida ko'p bilim odamni shoshirib qo'yishi mumkin. Bunday hollarda inson o'z his-tuyg'ulariga beparvo bo'lib, voqealarni aqli va mantig'i bilan hal qilishga harakat qiladi.

O'tmishda boshdan kechirgan qiyinchiliklari, mehr va sevgi ko'rmagani, g'azab va qasos tuyg'ulari bilan o'zini Gitlerga qiyoslaydi. Ikkinchi tomondan, Freydning Gitler haqidagi mulohazalari va fikrlarini anglashga harakat qiladi. U menga ham shunday qiladi va vaqti-vaqti bilan meni Gitlerga o'xshatadi. U haqidagi his-tuyg'u va fikrlarim bilan qiziqadi. Hatto bu masalada meni malomat qilishdan ham tap tortmaydi.

U kuch va erkinlikni bir zanjirning halqalari sifatida ko'radi. Shu ma'noda, bir tomondan, uning shifokoriga, ya'ni menga bo'lgan hayrati ortib borarkan, bir tomondan meni kuchli inson sifatida ko'rgani uchun o'zidan g'azablanadi. Insonlarning o'z taqdirlarini o'zlari yozishlari haqida juda mazmunli mulohazalar bildiradi. Bu gaplarni rostdan eshitib, his qilib aytyaptimi, hozircha tushunolmadim.

Kech kirganiga ham ancha bo'ldi. Bugun shahar o'zgacha nur sochmoqda. Yuragimda bugun bu xonada boshdan kechirganlarimning og'irligi bor. Derazani ochib toza havoni ichimga simirganimdan so'ng narsalarimni yig'ib, ketishga shoshilaman. Ochiq havoga chiqmasam bo'lmaydi.



Doimiy ravishda yangi va qiziqarli hikoyalarni topib aytish oson bo'lmayapti. Yostig'imning tagi tarix kitoblari bilan to'la. Buning ustiga o'qigan hamma narsamni ham ayta olmayman. Hikoyalar ham Alyaning kelgan kunidagi ruhiyatiga mos, ham psixoterapiya uchun foydali bo'lishi kerak. Shu sababli har bir seans boshida xayolimda kamida 3-4 ta hikoya tayyor turadi. Anchadan beri uy vazifasi bajarmay qo'ygandim, bular meni ancha oldingi yillarga qaytaryapti. Ba'zan o'qishga shunchalik kirishib ketamanki, vaqt allamahol bo'lgani ham esimdan chiqib ketadi. Xuddi boyqushga o'xshayman, qo'yib bersa ertalabgacha bedor yuraman, kitoblarni bahona qilib o'tiraveraman.

Yana bu kitoblarni saralab topish ham bor. Xudoga shukr, buni mening o'rnimga do'stlarim bajarishadi va Anqaradagi kitob do'konlarini aylanib, bir-biridan qiziq kitoblarni topib berishadi. Mening zimmamga ularni faqat o'qish, muhim joylarini belgilash va yodlash tushadi.

Kechqurun uyga kelib ozroq dam olaman. Televizorni yoqib, odamlar eng ko'p tomosha va muhokama qiladigan seriallardan birini ko'raman. Bu seriallar shunchalik ko'p odam tomonidan ko'riladiki, undan xabarsiz qolib bo'lmaydi. Ham do'stlarim, ham bemorlarim bu seriallar haqida gaplashganda men bexabar turolmayman, bunchalik uzoqlashib ketishni istamayman. Faqat shu seriallarga insonlarni uxlata oladi.

Men 68-yillarning vakili sifatida buni mahzunlik bilan tomosha qilaman. Bizning vaqtimizda jamiyatda o'zgacha bir hayajon bo'lardi. Odamlar uzoq davom etgan uyqudan

uyg'onganga o'xshashardi. Hozir o'ylasam, u vaqtlarda biz dunyoga yangi kelgan va har ko'rgan yangilikning ortidan quvadigan, qiziquvchan va hayajonli bolalar kabi edik. Ba'zan bu hayajonni tizginlamasdik, bo'lar-bo'lmas ishlar xayolimizga kelardi, ammo uyg'oq bo'lish, tinglab, his qilib, fikrlab yashash baribir yaxshi edi. Radiolarda oldinlari hech eshitmagan, odatlanmagan, lekin ichimizni jimirlatib yuboradigan musiqalar chalinardi. Ota-onalarimizdan boshqacha kiyinar, ulardan farqli o'ylar va boshqacha xayollar ortidan quvardik. Jamiyatda noodatiy bir erkinlik shamoli esar va qalblarimiz qadar aqlimiz ham bu shamol ta'sirida chayqalardi. Hozirda insonlarni yana bir uyqu, mudroqlik qopladi. Uyg'oqlar uxlandi, uxlaganlar uyg'ondi.

Kechgacha ishdan bo'shay olmasam ham ba'zan bo'sh vaqtim bo'lishi bilan kompyuter qarshisiga o'tirib yozaman. Klinikada bo'lganlarni, Alyaga aytgan hikoyalarimni, o'ylaganlarimni, his qilganlarimni birma-bir yozaman. Yozish boshqacha narsa. Go'yo ba'zi narsalarni qaytadan boshdan kechirasiz. Ba'zan musiqa qo'yaman, kayfiyatimga to'g'ri keladigani yo'q. Biroq inson yozarkan, vaqtни unutadi.

Bu ish, odatda, kechqurunlari qilingani uchun ertalablari o'zimga kelishim qiyin bo'ladi va qahva ichmasdan o'zimga kelolmayman. Klinikaga kirishim bilan Hasan qo'lida hujjatlar bilan yonimga keladi. Uchrashuv vaqtigacha u bilan klinikada qilinishi kerak bo'lgan ishlarni gaplashib, rejalar tuza-miz. So'ng navbat bemorlarga keladi.

Bugun birinchi bo'lib, Anqara tashqarisidan kelgan xonim kiradi. Sarg'ish, to'ladan kelgan, yoshi o'ttizlardan oshgan, chiroyli kiyingan, ammo ko'zlari yoshga to'la bir xonim. Uni eshik yonida kutib olib, o'tirishga taklif qilaman, so'ng ismini so'rayman. Serpil deb javob beradi va men hali og'iz ochmasimdan gapirishni boshlaydi.

Juda yosh turmush qurgan, yanayam aniqrog'i oilasi tomonidan shaharning mashhur oilalaridan birining o'g'liga uzatilgan ekan. U vaqtlarda o'n olti yoshda bo'lgan. Eri juda

rashkchi odam ekan. Birinchi kundan boshlab urishlar boshlanibdi. Ketma-ket uch o'g'il ko'ribdi, lekin oilalari iziga tushmabdi. Tez-tez g'alvalar, ayrilishlar bo'libdi, biroq erining o'ldirish bilan tahdid qilishi tufayli har safar uyga qaytishga majbur bo'libdi. Oradan yillar o'tibdi, o'g'illari ulg'ayibdi. Hozir katta o'g'li o'n olti yoshda ekan va u ham har doim otasi kabi onasiga qarshi chiqib, uni kaltaklarkan. Hatto menga kelishidan bir hafta oldin ham o'g'li onasini o'lgudek uribdi, Serpilning hamma joyi ko'karib ketibdi. Ba'zan o'g'li uni o'ldirib qo'yishidan qo'rqa ekan.

Yigirma yildan beri davom etib kelayotgan bu muam-molarni Serpil bugun, hozir, shu onda men yechishimni, bir chora topishimni istayapti. So'zini bo'lmay eshitarkanman, bir tomondan holatni miyamda izohlashga urinaman. O'g'li otasidan ko'rganini qilayotgani aniq, biroq bu ayol nega doim kaltak yeydi? Uning qanday xarakteri bor?

Yolvoruvchi nigoz bilan qaraydi menga. Bir tomondan u bilan gaplasharkanman, bir tomondan bunchalik jiddiy va murakkab holatni bizning psixologlardan kim eng yaxshi tushunishi haqida o'ylayman. Chunki faqat Serpil emas, oilaning barcha a'zolari bilan alohida shug'ullanishimiz kerak. Muhimi, bolalar izdan chiqyapti. Atrofida ularga yaxshi o'r-nak bo'ladigan odam yo'q. Uyiga doim ham kelmaydigan, bolalarga qimmatbaho hadyalar olib, bu kamchilikni to'ldirishga urinadigan, ichkilikka mukkasidan ketgan, ayolga zo'ravonlik qiladigan bir ota namunasi bor, xolos.

Serpilni yelkasidan tutib kuzatib, tezroq ustoz psixologimiz Mehmet Akif Sayilgan bilan uchrashishlarini tayinlayman. Bu orada bir bemori bilan uchrashuv tayinlash uchun Tunaning stoliga yaqinlashgan Memoni ko'rib, ko'zim quvnab ketadi. Biz Memo bilan 2005-yil Madalyon psixiatriya markazi qurilayotganda tanishganmiz. Avval ikkimiz ham bir-birimizning ismimiznigina bilar, lekin gaplashmasdik. Men Xo'jatepa universitetini tamomlaganimdan so'ng u yerda ish boshlagan va yillab ta'lim olgandim. Jengizning tashabbusi

bilan o'sha yili Anqaraning mashhur restoranlaridan birida birga ovqatlandik. Eski xo'jatepaliklardan professor Ayshe Yalin ham mening mehmonim sifatida qatnashdi va bir kechada Madalyon tashkil topdi. O'sha kundan e'tiboran ajoyib jamoa paydo bo'ldi. Inson sifatida uni hurmat qilmaslik mumkin emas. U biror ishni yo juda yaxshi bajaradi, yo umuman qilmaydi. Insonlar bilan yo juda yaqin bo'ladi, yo umuman aloqa qilmaydi. Har qanday ishda unga qo'rqmay ishonsangiz bo'ladi, chunki ko'zi yetmasa, boshidan aytadi. Insonlarning e'tiborini tortadigan darajada kelishgan va ko'rkam inson ekanini biladi ham, bu xususiyati ko'zga ko'rinishidan o'zini tortadi ham. Xonasiga kirsangiz, har bir burchagida Mehmet Akifni ko'rasiz. Xonasi ham o'zi kabi zamonaviy, toza, tartibli, yorug' va chiroyli.

Meni ko'rib u ham tabassum qiladi. Uni Serpil bilan tanishtirib, bir daqiqaga xonamga taklif qilaman. Kirayotib tushuntiraman. Juda jiddiy vaziyat, deyman. Bolalar bor, iltimos, alohida shug'ullan va qo'lingdan kelganini qil. O'g'illarini bu yoqqa olib kelishlarini va har biri uchun bolalar psixiatriyasi bo'limida alohida-alohida seans tashkil qilishlarini ta'minla. Ota bilan munosabat o'rnatishlarining bir yo'lini topishing kerak. Oilaviy ko'rishuvlarini sen tashkil qil. Xo'p, xo'p, xavotir olmang, bemoringizga yaxshi qarayman, deydi. Mo'ylovi ostidan jilmayadi. Yana oshirib yubordim, shekilli.

Keyingi navbat Mehmetga. Uning ismini ushrashuv ro'yxatida ko'rish ham xursand qiladi. Eng yaxshi ko'rgan bemorlarimdan biri u. Ancha yillar oldin kelishni boshlagan. Go'yo u bilan birga umr o'tkazdik. U vaqtda universitetga endi kirgan edi. Tortinchoq, ko'p gapirishni yoqtirmaydigan, hissiyotli, ta'sirchan, o'z dunyosida yashaydigan, muammolarini oilasi bilan ham bo'lishmaydigan yosh yigit edi. U vaqtlarda baland bo'yli, ko'rkam, kelishgan, po'ringina yigit edi. Qiz o'rtoqlari yo'qligi yetmaganday, hatto yigitlar bilan ham do'stlashishga qiynalardi. U uchun tashqi dunyo begona, tushunib bo'lmas edi. Asta-sekin o'z dunyosiga kirib borarkan, nimalargadir

qattiq berilib ketardi. Berilib ketgan narsalari haqiqat emasdi aslida, ammo u haqiqat deb hisoblardi. Endi ikki dunyo bir bo'lsa ham hech kim uni bular haqiqat emasligiga ishontira olmasdi. Buning ustiga hamma buni haqiqat ekanini biladi deb o'ylar, uning ustidan kulishlaridan qo'rqardi. Qanday bo'ldi bilmayman, lekin vaqt o'tib menga ishondi. Aslida, doktorlik, psixiatrik degan narsa ham shu. Bemorga shu ishonchni bera olish. Unga bu ishonchni qanday berdimmi? Butun dunyoni o'ziga dushman deb bilgan bu yigit nega menga ishondi? Buning biror siri yo'q. Faqat uni yaxshi ko'rdim, tushundim, his qildim va u buni angladi. Hammasi shu!

Oxiri juda qalin do'st bo'ldik. Bergan dorilarimni ichdi va bu orada menga kelishni hech kanda qilmadi. Dorilarni icha boshlagach xayolga berilib ketishi tamoman yo'qolib ketmagan bo'lsa-da, ancha kamaydi. O'qishni tamomladi, o'ziga ish ham topdi. Ish joylarida birov bilan yaqin do'st bo'la olmadi, o'zini tanitmadi, qabul qildiradi olmadi, lekin muntazam ishga bordi. Boshqalar kabi oson ko'tarila olmagan, ularday ko'p pul topmagan bo'lishi mumkin, lekin chekmadi. Hech kimga muhtoj bo'lmadi. Bu orada bir qiz bilan do'stlashdi. Bu tortinchoq, biroq pokiza qalbli, kelishgan yigitni u qiz ham sevdi va turmush qurishdi. Bolalari dunyoga kelmasidan avval mukammal oila bo'lishdi.

Xullas, o'sha Mehmet kiradi. Eshikkacha borib, taqillatmasdan qarshisida turaman. Meni ko'rib ko'zi quvnab ketadi. Samimiy qo'l berib salomlashamiz. Ikkimiz ham bir-birimizni sog'inibmiz. Mehmetni ko'rmaganimga bir yilcha bo'lib qoldi. Bu vaqt oralig'ida uning hayotida nimalar bo'lganiga qiziqdim. Bir tomonlama holat bu. Doktorlikning, shu ish bilan shug'ullanishning natijasi bu. Hamisha men ularning hayotiga qiziqaman. Ular mening hayotimda nimalar sodir bo'layotganini bilishmaydi. Meni hamisha tetik, sog'lom, quvvatga to'la ko'rishni istashadi. Kelganlarida meni joyimdan topishlariga ishonch hosil qilishni xohlaydilar. Ularni har doim yaxshi ko'rishimni, e'tibor berishimni, men uchun ahamiyatli ekanliklarini bilish va his qilish istagida ular.

Ba'zilar buning faqat professionallik ekanligiga shubha qiladi. U vaqtda men ham o'zimdan shu savolni so'rayman. Bu faqat kasb bilan bog'liq holatmi deyman. So'ng har doim o'zimga qayta-qayta bu soxtalik emas, haqiqat ekanini tushuntiraman. Chunki gap tuyg'ular haqida ketarkan, professionallikning bunga tishi o'tmaydi? Mehmet ro'paramga o'tirishga ham ulgurdi. U men uchun juda qadrli. Insonni qadrli qilgan narsa u uchun qilingan harakatdir. Men Mehmet uchun ko'p harakat qildim.

Ko'p o'ylayman bolalarimiz dunyoga kelgandan so'ng ularni boshqalar ulg'aytirib, tarbiya qilib, odam qilib berishsa, ular biz uchun shunchalar qadrli bo'larmidi?! Sharobga o'xshab eskirgani sayin, mehnat bilan quyuqlashgani sari qadri oshib boraverar, balki. Doimgidek bir-birimizga tabassum va eng nozik tuyg'ular bilan boqamiz. U menga qaraydi, men unga. Ko'rishga arzigulik o'zgarish bormi, deb uni diqqat bilan ko'zdan kechiraman. Bor, yanayam yaxshi ko'rinyapti Mehmet. Doimgiday egnida jinsi shim bilan katak ko'ylak. Sochlari o'sibdi, soqol ham qo'yibdi. Bu holatda yanada ko'rkamlashibdi.

Qo'lim bilan bu nima ahvol degan ishora qilaman. Bir oydan beri ishlamayapman, deydi. Sababiga qiziqaman. Ishsiz qoldimikin? Yo'q, deydi. Oxirgi kirgan ishimdan ham haydashdi meni, biroq xavotir olmang, yana boshqa ish topaman, ozingina dam olay, dedim. Bu vaqt ichida otasidan ayrilibdi. Otasidan qolgan uyni sotib aka-ukalar bo'lishib olishibdi. Bu pul sen uchun juda ahamiyatli e'tibor bilan ishlat uni, deyman. Tabassum qiladi. U haqida qayg'urghanim ta'sir qiladi. Tashvishlanmang, oxirgi vaqtlarda ziqna ham bo'lib ketdim, deydi. Qanday xotirjamlik bilan gaplashyapti men bilan. Yana hamma narsani sekin, ohista ovoz bilan tushuntiryapti. Xonada kimdir bo'lganda eshitmasdi Mehmetning ovozini, ammo men o'rganib qolganman. Hatto og'zidan chiqmasdan nima deyishini anglayman. Keyin ayoli, beshga kirgan farzandi haqida gapiradi. Avvallari ayolinining undan jahli chiqardi. Doim uning kirishuvchan, faol bo'lishini xohlardi, lekin endi o'rgandi, dey-

di. Uyda oldingiday g'avg'o bo'lmayotgan emish. Juda yaxshi juftlik bo'lishibdi. Uzoqdagi onasi bilan ba'zan telefonda gaplashisharkan. Televizor ko'rmasa ham gazeta o'qir, ba'zan ertablari sayrga chiqarkan. Biroz ozibsan, desam sayrga chiqapman axir, deydi. Avvallari peshingacha uxlar, kechqurunlari ertalabgacha uxlamay o'tirib chiqardi. Hozir hammaga o'xshab kechqurunlari uxlab, ertablari sayrga chiqishga ham ulgurayotgan ekan. Bular u uchun naqadar muhim!

Birinchi kelganida hujjatining tashxis bo'limiga «shizofreniya» deb yozgandim. Ammo hozir ham kompyuterda shunday yozdim, biroq majbur bo'lmasam, aslo bunday yozmasdim. Koshki psixiatriyada bemorlarga tashxis qo'yishga majbur bo'lmasak. Qani endi Mehmet uchun o'zim xohlagan narsani yoza olsam edi. Holbuki, u mening aqlimda hech qachon u guruhga kirmagan. Qadimgilar «Nev-i shaxsina munhasir» ya'ni o'ziga xos deyishadi. Doktor umidni uzsa, u bemor tuzalmaydi, ammo men Mehmetni aqlimda ancha yuqoriga qo'yganimdek yuqori joyga qo'ysa, u bemor o'sha onda bo'lmasa ham asta-sekin o'sha darajaga ko'tariladi.

Va nihoyat, dorilarni gaplashamiz. Bugungacha hech kanda qilmadi. So'ng o'rnidan turadi. Qo'l siqishamiz. Mehmet tabassum qilib chiqadi. Qachon kelay deb so'ramaydi. Men ham hech narsa demayman, lekin bilaman balki bir oy, balki bir yildan keyin yana keladi.

Keyingi bemorim Alya. Kun kelib Mehmetga nisbatan his qilganlarimni unga nisbatan ham his qilarmikinman? Ochiq turgan eshikdan menga qarab ichkariga kiradi. Yuzida biroz tabassumni sezaman. Bu uning uchun juda muhim. Bundan tashqari, bugun egni ham ancha orasta. Egniga to'q rangdagi ust-bosh va yana bir narsalar kiygan. Terisi ham yaxshilana boshlagan. Menimcha, semirgani uchun burni ham kichraygan. End cho'pday qiz emas u. Nigohlarida ham oldingi sovuqlik, hissizlikni ko'rmayman. Ancha jonlangan. Menga yaqinlashishi bilan birinchi marta undan atir hidi kelayotganini sezaman. Demak, endi atir ham sepyapti.

– Xush kelibsan, Alya! Bugun juda yaxshi ko‘rinyapsan.

– Ha, xonim. Bu yerga kelishdan oldin yuvindim, keyin sochlarimni ham taradim. Endi hammomga kirish oldingiday qo‘rqitmayapti.

Demak, avval qo‘rqqani uchun kirmagan.

– Hm...hm... Bolaligim o‘tgan uyni, u yerda boshdan kechirganlarimni oldin hech eslashni xohlamasdim. Hozir ularni xayolimga kelishi bilan quvib yubormayapman.

– Nimalar kelyapti xayolingga?

Hayratlanarli, men so‘ramasimdan oldin gapiryapti. Davolanishga ortiq qarshilik qolmadi, sekin-sekin davom etyapti. Sabr har doim qo‘l keladi.

– Uydagi boshqa bolalar qo‘ldan tushmasdi. Ba‘zan onalari, ba‘zan Esma Sulton kichik jiyanlarimni oyog‘ida o‘ynatar, «Alla bolam, alla-yo» deb allalar aytishardi ularga. Juda havas qilar, balki hasad qilardim ularga...

Ovqat yesin deb orqalaridan yugurar, o‘yinchoqlar olib berishardi. Orqa tomondagi hovuzda qog‘oz qayiqalar suzdirishardi, sal katta bo‘lgandan keyin dadalari olib bergan velosipedlarni minishardi.

Bularga ishongisi kelmaydi odamni. Bir uyda, bir xil sharoitda qanday qilib, bu qizga shunchalar boshqacha munosabat qilishgan?

– Shunday paytlarda sen nima qilarding, Alya?

– Faqat yig‘lardim. Ba‘zan ovozimni chiqarmay, ba‘zan ovozim boricha baqirib yig‘lardim. Yig‘layotib ham tutadigan bir etak, berkinadigan bir bag‘ir qidirardim, biroq topolmasdim. Yana yig‘lashni boshladi deyishardi, o‘qrayib qarashar, jerkishardi meni. Uyga tez-tez mehmon kelardi. Ularning yonida yig‘lashimdan juda jahli chiqar, o‘sha paytda, ayniqsa, kichkina yangam «Amaking kechqurun senga chaqaloq olib keladi, o‘ynaysan», deb yupatardi. Darrov ishonib, tinchirdim. Ammo ko‘p vaqtlar men yig‘lashni boshlashim bilan Esma Sulton onamga yomon qarar, ovozini o‘chir shuni, derdi. Keyin onam meni qo‘limdan ushlab, oshxonaga olib kirar,

yo chimchilar, yo sochimdan tortar, yo seni xonaga qamab qo'yaman deb ovozimni o'chirardi. Hech kim... Bu bola nega doim yig'laydi, deb so'ramasdi.

Buni, odatda, psixiatrlar so'raydi. Koshki ota-onalar ham bu savolni vaqtida bera olsalar edi.

- U vaqtlarda nega yig'layotganingni bilmarding?

- U vaqtlar mehrsizlikdan yig'layotganimni bilmasdim, lekin hozir bilaman. Oradan yillar o'tdi, endi ortiq yig'lamayman, biroq hali ham yig'lashga sabablar bor.

Naqadar g'amgin e'tirof! Qalbimga mayin og'riq yoyiladi. Inson bolasichalik ojiz biror jonzot bo'lmasa kerak dunyoda. U eng ko'p muhtoj bo'lgan mehr va e'tiborni topolmasa, Alyaning ahvoliga tushadi. Qalbini quritishgan bu bolaning.

- Ko'p yig'ladim, doimiy yerga urilgan, siltangan kunlarimda kech bo'lsin, dadam kelsin deb kutardim. U ham menga e'tibor bermasligini bilar, shunday bo'lsa ham umid uzmasdim. Amakilarim, odatda, uyga vaqtida kelishardi. Ularning bolalari dadasini yugurib kutib olardi. Uzoqdan ularga qarardim. Demak, ular ham men kabi dadasini to'rtko'z bilan kutishadi, derdim ichimda. Mening dadam har doim ham kelolmasdi. U vaqtda yana bir bahona topib, yig'lardim. Hamma zerikkandi mendan. Ularning jahli chiqishi bilan men yanayam ko'p yig'lar, men yig'lashim bilan ular meni juda yomon ko'rib ketishardi. Uydagilarga qarshi qo'llaydigan yagona qurolim yig'lash edi. Yig'lashdan boshqa qurolim yo'q edi.

Tuyg'ularini qanday chiroyli ifodalayapti. Boshi oldiga egilgan, qo'llari quchog'ida aybini tan olayotgan bir mahkum kabi birma-bir, qatra-qatra to'kilyapti so'zlar.

- Juda kech kelardi otam. Mast bo'lardi. Men u paytlar balki dadamni ko'ra olish uchun mehmonxonadagi divanda yarim uxlab, yarim uyg'oq yotardim. Dadamni kutardim. Eshikni kalit bilan ochganini eshitib men ham u kabi gandiraklab yotoqdan turardim. Dadam meni qarshisida ko'rishi bilan: «Yarim tunda bu yerda balo bormi», deb ko'nglimni og'ritardi. Qizarib ketgan ko'zlari meni ko'rishi bilan bezovta bo'lar,

ustimga yiqilib tushmaslik uchun qo'li bilan meni burchakka itarar, gandiraklab, zina tomon ketardi. Doim shunday bo'lar-di. Shunday bo'lishini bilar, bilsam ham turaverardim. Bola-likda umid osonlikcha uzilmaydi.

Boshdan o'tkazganlarini faylasuf kabi ifodalayapti. Birinchi tanishgan kunlarimda hecham hurmat qilmasdim uni. Shunday qizda bunday teranlikni ko'rish xayolimga ham kelmasdi. Hozir biroz hayrat, aniqrog'i hayron qolib tinglayapman uni.

– So'ng esa umid qilmaslikni o'rgandim. Haqiqatni topishga, anglashga urindim. Har yig'lagan bolaga ko'krak tutilmasligini angladim. Dadam uchun mening zarracha qadrim yo'q edi. U qamoqdaligida tug'ilganim uchun shaharda bo'lmag'ur gap-so'zlar urchigandi. Onam Istanbuldan kelgan, kimligi noma'lum, ya'ni oldingilarning aytishicha, tayinsiz bir ayol. Balki, shuning uchun dadamning qalbida doim shubha bo'lgan. Haqiqatan, uning qizimanmi yo'qmi, bu xayollar uning miyasini kemirardi deb o'ylayman. Aminmanki, Esmam Suton buni alangalatardi. Dadamning bizga yaqin bo'lishini hech xohlamasdi.

Ajabo, bu aytganlari rostmi? Shu yergacha gapini bo'lmay eshitdim, lekin bu haqdagi haqiqatni bilishim kerak.

– O'zing bu haqda nima deb o'ylaysan?

– Bilmayman. Bu haqda necha yillardan beri o'ylayman. Hali ham aqlimning bir chetida turibdi, biroq javobini topolmadim. Men tanigan onam bunday qiladigan ayol emasdi, ammo men onamni hech taniyolmadim. Uni nafaqat men, hech kim taniy olmadi.

– Dadang hammi?

– Dadam ham. Go'zalligiga berkingan. Boshqa narsasi ham yo'q. Lekin oxiri shunday bo'ldiki, hech kim bundan chiqib keta olmadi. Bo'lgani bizning oilamizga bo'ldi.

– Bizning oila deb kimni nazarda tutyapsan?

– Ya'ni dadam, onam va men. Garchi hech qachon butun oila bo'lolmadik. Biroq hammasi birlashib bizni chiqishtirish-

madi, natijada Anqaraga kelishga majbur bo'ldik. Boshqa hech qachon biz bilan ko'rishishmadi. Hozir necha yillardan beri ulardan umuman xabarim yo'q. Tirikmi, o'lishganmi buni ham bilmayman.

– Ya'ni siz Anqaraga kelishga majbur bo'lganingiz uchun keldingiz.

– Ha aynan shunday bo'ldi, onam qamoqdaligida dadam bu uyni olgan va tayyorlab qo'ygan ekan. Onam ozodlikka chiqishi bilan uyga bormay uchalamiz shu yerga keldik.

Onam qamoqdaligida deyapti. Demak, onasi qamaladigan jinoyat qilgan. Nima qilgan bo'lishi mumkin?

– U vaqtda sen necha yoshda eding?

Boshlang'ichni endi tugatgandim. O'n yoki o'n bir yosh. O'sha kayfiyatda bu uydan ham, Anqaradan ham hammamiz nafratlandik. Onamning sog'lig'i ham shu yerga kelib ancha yomonlashdi.

– Onangga nima qilgan edi?

– Ruhiyati. Xayollari buzildi. Bu kabi kasalliklar genetik bo'ladimi? Men ham u kabi kasallanamanmi?

– Onangning qanday kasallikka chalinganini bilmaymanku...

– Bular bo'lmasa edi, yaxshiroq odamlar orasida yasha edi, onam kasal bo'lmasdi. Hozir o'ylayman ayolning kasal bo'lishi uchun kerak bo'lgan barcha sabablar bir joyga yig'ildi. Aslida, bu narsa menga ham to'g'ri keladi. Go'yo men sog'lom odamdek gapiryapman. Shu kunlarda yomon emasman, ammo sizga birinchi kelgan kunlarimni eslasam, u paytlarda men ham aqldan ozgandim. Bu mavzuda men emas, siz gapirishingiz kerak. Men sizning o'rningizga gapiryapman.

– Hozircha men e'tiroz bildiradigan biror gap aytmadim. Menimcha, hozir ancha yaxshi ko'rinyapsan. Dorilaringni vaqtida ichyapsanmi?

– Ichyapman, o'ylaganimdek uxlatib qo'ymayapti.

– Xursandman.

– Bugun hikoya yo'qmi?

– Bor, lekin qaniydi yana ozgina davom etsang.

– Davom etolmayman.

Qarori qat'iy, boshqa gapirmaydi. Boshqa so'rashning foydasi yo'qligini bildim. Qanday hikoya aytsam ekan-a? Unga biroz umid berishim kerak. Kir yuvuvchilikdan Rossiyaga borib, qirolicha bo'lgan ayol haqidagisi to'g'ri kelar.

– Bo'lmasligi mumkinmi, bor, albatta. Bugun rus qiroli Pyotr I ning ayoli qirolicha Katerina hikoyasini aytib bera-man.

– Shu Boltachi Mehmet Poshsho bilan nomi chiqqan ayolmi?

– Og'zimdan chiqmasdan yoqamga yopishtiryapsan. Ofa-rin. Bu yog'iga men seni eshitaman.

– Jiddiy aytyapsizmi?

– Albatta, jiddiy. Sendagi yoqmagan narsalarni qanday ochiq aytsam, yoqqanlarini ham shunday qilaman.

Quloqlarigacha qizarib ketadi. Yoqtirilish, tanlanishdan uyaladi yoki bu tuyg'u g'alati tuyulyapti. Bunday vaqtlar og'zi-ning chap tomoni kulimsiragandek yengil yuqoriga ko'ta-riladi, biroq darrov yana joyiga qaytadi. Shunda ustma-ust chiqqan tishlari ko'rinadi. Jimlikning uzayishini xohlamagan-dek shoshilib so'raydi.

– Oldin u ayol kir yuvuvchi bo'lgan menimcha.

– Ha, qara-ya, buni ham bilasan. Katerina nikohsiz farzand bo'lib tug'iladi. Dadasining boshqa oilasi bor va uni boshi-dan qabul qilmaydi. Buning ustiga onasi Katerinani dunyoga keltirar ekan, olamdan ko'z yumadi. U vaqtlarda ismi Marta edi. Martaning bobosi uni otasining eshigiga tashlab ketadi. Uning tirik qolishi ham bir mo'jiza, chunki ona mehriga to'y-magan, istalmagan bechora bola yana uni hech xohlamagan o'gay onaning qo'lida turtilib-surilib katta bo'ladi.

– Hayoti menikiga o'xsharkan.

Axir bu hikoyani shuning uchun ham aytmayapmanmi?

– O'n besh yoshga kirganda tengdosh o'rtog'i bilan daryo qirg'og'iga kir yuvishga boradi. Uzoq yillardan beri uydagilar-ning kirlarini Marta kichkina qo'lchalari bilan yuvaradi.

– Uning holati menikidan ham yomon ekan. Menga uyda

hech ish qildirishmas edi. Hozirgacha ish qilishni bilmayman.

– O'sha kuni havo juda yaxshi edi va ikki qiz kirlarni yuvib bo'lgandan keyin bir-birlarini suvga otib o'ynashadi.

– Shunda ham uning yashash ishtiyoqi so'nmagani. Qanday ajoyib, mening hech aqlimga sig'maydi.

– Shu payt yo'ldan o'tayotgan odamlar qizlarni ko'rib qoladi va shu kunning o'zida kulbaning eshigi chalinadi. Qizlarni ko'rib qolgan odamlardan biri o'gay onaning qo'liga biroz pul berib, Martani otga mindirib uyiga olib ketadi.

– Uyda hech qadrim yo'q edi. Biroq kimgadir berib yuborishmasdi meni. Yaxshi ko'rganlaridan emas.... Gap-so'zga qolishni xohlashmaganidan.

Shu tariqa davom etsak, hikoya tugaguncha butun hayotini aytib beradi.

– Aslida, o'gay ona Zolushka ertagidagidek o'sha odamga o'z qizini berishni taklif qiladi, lekin u cho'milayotganda ko'rib qolgan qiz Martani xohlaydi.

– Ayolga qarang. O'zining qizini berarmish. Go'yo yaxshi ish qilayotgandek.

– Borgan uyida ilk bor Martaning shaxsiy xonasi, chiroyli liboslari bo'ladi. Uydagi ish boshqaruvchi ayol va boshqa xizmatchilar bilan yaxshi kelishib kechqurunlari ham eshigini qulflab o'zini qo'riqlashga urinsa-da, bir kuni xo'jayini birdan kirib keladi.

– Essiz, yaxshi kunlar qisqa bo'ladi.

– Marta bir kuni eshikning singan ovozi bilan uyg'onib ketadi. Juda qo'rqadi va qarshilik qiladi, lekin u erkak mast edi va bu qarshiliklarga nisbatan tarsaki tushirib javob qaytaradi. O'shanda Marta uchun eng dahshatli kecha bo'ladi. Og'zidan ichkilik hidi kelgan qari, xunuk va badjahl bir kishining shahvatli yaqinlashishini xohlamas, biroq qo'ldan hech narsa kelmasdi. Birozdan so'ng nafas olishi qiyinlasha boshlaganda erkakning xurrak ovozi ko'tarila boshlaydi. Bir necha oydan keyin sovuqlar ketib, shahar quyosh nurlariga to'ladi. Bu nurlar daryo muzlarini eritar, daryodan topilgan, o'lgan ayolning

jasadi esa hech kimni qiziqtirmasdi, chunki bu daryoda har yili bunday jasadlardan ko'pi chiqardi. Bir kuni boshqaruvchi ayol uyga yangi kelgan bu yovvoyi qizning qulog'idan tortib: «Bu o'lik jasadlardan biri bo'lishni istamasang, xo'jayinning ko'ngli-ni olishga harakat qil», deb pichirlaydi.

– Yangamga o'xshab... Kichkina yangam ham shunday qilardi. Aqlli, odobli bo'l, bo'lmasa o'zingga yomon bo'ladi derdi.

– Marta qo'rqadi. Endi o'n besh yoshda va har kecha majbur bo'ladigan ishlari umuman yoqmaydi. Bir tarafdin u odamga qarshi chiqqanlarning o'limga mahkum etilganini ko'rish qo'rquvini battar orttiradi. Endi na bashang kiyimlarning, na oldiga qo'yiladigan ovqatlarning ahamiyati qolmaydi. Albatta, bir chorasini topishi kerak va u erkakning har kecha qayta-qayta zo'rlashlaridan qutulishi shart.

– O'sha vaqtda o'n besh yoshda ekanmi?

– Ha, hali juda kichkina ekan. Bir kuni kechasi unga nisbatan qilingan zo'rliklarga chidolmaydi va yotog'i ostiga yashirib qo'ygan temirni olib erkakning boshiga zarb bilan uradi.

Gaplarimni ko'zlarini katta-katta ochib, yosh boladay hayajon bilan tinglaydi. Biroz oldingi xotirjamlikdan asar ham qolmagan.

– Erkakning yaralangan boshidan oqqan qonga ham qaramay, biroz muddat sovugan jasad bilan yotoqda yotadi.

– Lekin jasur qiz ekan!

– Birozdan so'ng o'zini qo'lga oladi, nima qilib qo'yganini tushunadi. Qo'rquv bilan yotoqdan otiladi, to'g'ri boshqaruvchi ayolning xonasiga kiradi. Bo'lgan voqeani shivirlab aytib beradi. Ayol avval dahshatga tushadi, u ham qo'rqadi, ammo undan qutulganiga xursand bo'ladi va bu bechora qizning urib o'ldirilishini istamaydi. Tong yorish arafasida. Bir chora o'ylaydi. Avval qizni boshdan oyoq kiyintiradi, keyin qo'lga ozroq pul berib, birozdan keyin yuradigan pochta poyezd manzilini beradi, shoshilinch uydin chiqaradi. Ortidin darrov xo'jayinning o'lgan xonasiga kirib, hamma yoqni to'zg'itadi va o'g'ri tushganday ko'rsatadi.

– Yaxshi ayol ekan!

– Marta pochta uloviga chiqadi va Shvetsiya chegarasidagi ayol aytgan shaharchaga tushadi. Lekin haydovchi qizning ko'zlaridagi chorasizlikni sezadi. Qizdan bu yerga nega kelganini so'raydi. Bechora Marta kir yuvuvchi ekanini, bu yerda hech kimni tanimasligini, biroq ish topishi lozimligi aytadi. Haydovchi unga yordam berishini va'da qilib, uni fohishaxonaga olib borib pullaydi.

– Buni qarang! Yaxshi odamlar kam, yomonlar ko'p bu dunyoda.

Hikoyaning shu joyida kayfiyati buzildi. Yomonlarni doim ko'radi va hamisha ulardan nafratlanadi.

– Marta u paytda juda yosh, juda chiroyli, ammo egasiz kimsasiz qiz edi. Boradigan, yordam so'raydigan odami yo'q, lekin kurashishdan qaytmaydi va fohishaxonadan ham bir necha oydan keyin amallab qochadi va bir cherkovga boradi. Ruhoniy marhamatli kishi edi va uni uyiga olib borib, xotiniga topshiradi. Endi ruhoniyni uyida xizmat qiladi. U yerda ham baxtsizlik ta'qib qiladi, chunki ruhoniyni bo'yi yetgan bir o'g'li bor edi. Bu go'zal qizga yaqinlashishni istaydi va ruhoniyni ayoli bu holatni sezib qolishi bilan Martani tezda bir askarga turmushga beradi. Eri bilan kazarmada yashay boshlashadi, biroq jangkarnay chalinib, rus askarlari shahar darvozasiga kelishadi. Mag'lubiyat muqarrar edi. Shahar rus askarlari tarafidan ishg'ol etiladi va Martaning eri asir tushadi. Shunday qilib Marta yana yolg'iz qoladi.

– Qora tole qizning ortidan qolmas ekan-da.

– Bu safar esa harbiy guruhning qo'liga tushadi. Qarshilik ko'rsataverib holdan toygan ayol qo'ldan qo'lga o'tkazilardi. Shu vaqtda bir rus general yordamga keladi. Har ne qilsa ham vijdonining ovozig quloq solgan general uni askarlarning qo'lidan qutqaradi va chodiriga olib borib, davolatadi. Marta sog'ayishi bilan general uning naqadar go'zal ekanini payqaydi. Lekin generalni ko'rishga kelgan shohning eng yaqin odamlaridan biri bo'lgan boshqa bir general bunday nodir go'zallikni shohga olib borishni istaydi. Shunday qilib Martaning qirolicha Katerina bo'lishiga yo'l ochiladi.

– Omadi keldi, shekilli. Bir kuni mening ham omadim kelarmikin?

– Onado'lida «Yomon kun qolib ketmaydi-ku», deyishardi. Bundan keyin sening ham omading keladi deb, umid qilaman.

Bolalarday quvonadi. Umidlanadi. Davolashda bu umidga ehtiyojimiz katta.

– Shundan keyin yaxshi kunlar boshlanadi. Podshoh Pyotr I unga e'tibor ko'rsatadi va oxiri, uning sevgilisiga aylanadi. Uning ortidan pravoslav diniga o'tadi va biroz vaqtdan keyin shohga turmushga chiqib, qirolicha unvonini oladi. Pyotr I rus tarixida buyuk ishlar qiladi. O'tgan yili bordim Sankt-Peterburgga. Haqiqatan, juda go'zal shahar. Meni hayratlantirdi.

– Qanday baxtlisiz, qaniydi men ham bora olsam.

Yana xayolga beriladi, doktorining qilgan ishlarini u ham qilishni xohlaydi. Umidlari uyg'onadi.

– Xudo xohlasa, Alya, sen ham borishingni xohlayman. Ko'ramiz, u yer senga ham yoqarmikin? U vaqtlarda taxtda qolish oson emasdi. Yolg'iz o'g'il ham taxt uchun katta xavf tug'dirardi. Shuning uchun Pyotr I tirik qolgan yolg'iz o'g'lini ham o'ldirtiradi. Shunday qilib, taxtga biror valiahd tayinlamay o'ladi va Katerina qirolicha bo'lib uzoq yillar yurtni boshqaradi. Hikoya yoqdimi?

– Yoqdi.

– Uni yomon demading va jahling chiqmadi?

Holbuki, Katerina o'z zamonining eng buyuk qirolichasi va Alya bunday insondan jahli chiqmaydi. Bu holat Katerinaning oddiy kir yuvuvchiligidan boshlanganidan ta'sirlandimi yoki endi asabiylashishi kamaydimi?

– Yo'q, jahlim chiqmadi. Kir yuvuvchilikdan, oddiylilikdan kelgan ekan. Jahlim chiqishi mumkinmi? Boltachi Mehmet poshsho bilan munosabati haqida nima deysiz?

– Katerinaning Prussiya urushi davomida g'alaba qozonish uchun shaxsan o'zi Usmonlilar bosh vaziri Boltachi Mehmet Poshsho bilan ko'rishgani, undan tashqari, oralarida munosabat bo'lgani bu esa yotoqqacha borgani haqida afsonalar

yaratilgan. Boltachi Mehmet poshsho 1662-yil Chorumning Usmonjik shaharchasida tug'ilgan va keyin saroyda boltachi lavozimida ish boshlab, bosh vazirlikka qadar yuksalgan, ko'p urushlarda g'alaba qozongan qobiliyatli kishi poshoning Usmonlilarga qarab, o'ziga xos yuksalishi shunday o'ziga xos qulash bilan yakunlanadi. Uning intihosini hozirlagan ruslar bilan qilgan urush ahdlashmasiga imzo qo'yishi go'yo uning bashoratiga o'xshaydi. Ruslarni mag'lub qiladi, ammo oxirigacha shunday davom ettira olmaydi. Qamaldagi rus harbiylarini taslim etishni uddalay olmaydi. Holbuki, faqat qamal tufayli och qolgan rus harbiylarini yengsa bo'lar edi. Buning ustiga navbat sulh tuzishga kelganda ishga beparvolik qiladi. Shoh o'rδαςining qurollarini ham olmaydi va bu holat tariximizga dog' tushiradi.

– Keyin Boltachiga nima bo'ldi?

– 1711-yilda Prussiya urushidan keyin tezlik bilan bosh vazirlikdan ozod etilib, Limni oroliga surgun qilinadi. 1712-yilda endi 50 yoshga kirganda o'sha yerda halok bo'ladi.

– Sizningcha ellik yosh o'lish uchun ertami?

Qiziq savol. Ota-onasi o'lganlarida necha yoshda edilar? Aslida, shuning uchun so'ragan bo'lsa kerak.

– Hamma o'lim turlichadir, Alya. Jamol Surayyo shunday deydi. Avvallari podshohlar ham kichik infeksiya tufayli ham o'ttiz yoshlardayoq vafot etishgan. U vaqtlarda qirq yoshli odamlarga qari odamdek qaralgan. Ayniqsa, doktorlik kasbing bo'lsa qirq yoshda hayot endi boshlanadi. Inson umri asta-sekin uzayyapti. Biroq bu umr hali ham hech kimga yetmayapti. Nozim Hikmat aytganidek, yashash yaxshi narsa.

– Men yashashning yaxshi va aziz ekanini haligacha o'rganolmadim. Bizning uyda hech kim yashashni sevmadi. Hamma ko'zi to'rt bo'lib o'limni kutdi. Hatto ba'zilar qarasa, o'limning kelajagi yo'q va o'zi o'lim tomon bordi. Men yana sizni chalg'itdim, shekilli. Bilasizmi, bugun tug'ilgan kunim. Men tug'ilgan kunlarni yoqtirmayman, chunki bugungacha bu kunni hech kim nishonlamadi. Biroz g'amgin bo'laman u kun-

larda. U yomon kunlarni shu tufayli ham boshdan kechirdim, bugun aytishni xohlamadim. Xudo xohlasa, boshqa safar sizga hammasini qanday bo'lsa shundayligicha aytib beraman.

– Xo'p, Alya, hechqisi yo'q. Uzoq va baxtli hayot tilayman senga.

Shunday deyman-u, xonadan chiqib, Tunaga tezda shirinlik do'konidan shokoladli tort buyurushini, ustiga, «Baxtli bo'lgin, Alya!» deb yozdirishini aytaman. Tuna bir on yuzimga hayrat bilan qarab, darrov go'shakni oladi. Men esa yana ichkariga kiraman. Bu qiz qanday g'alati qiz. Aytayotganlariga odamning ishongisi kelmaydi. Ichimda mehr tuyg'ulari paydo bo'la boshladi. Qo'yib bersa yig'layman. Nega hayot ba'zi kishilarga bunchalik zulm qilmasa.

Ichkariga kirib joyimga o'tirar ekanman, Alya hayron bo'lib qaraydi. Tort yetib kelgunicha u bilan uyoqdan buyoqdan gaplashib seansni uzaytirib turishga urinaman. Orada vaqtimiz tugamadimi deb so'rab qo'yadi. Boshqasi bo'lganda mening o'zimni tutishimdan, xonadan chiqib Tunaga bir narsalar aytganimdan u uchun nimadir tayyorlaganimni sezardi. Ammo Alya sezmadi ham. U uchun hech kim bunday narsalar qilmagan-ku, qanday ham bilsin?

Eshik sekin taqillaydi va Tuna qo'lida tort bilan ichkariga kiradi. Orqasida esa Ayten va Nevin ham bor. Aytenning qo'lida bir patnisda choy, Nevinda esa likopchalar. Alya hayrat bilan bir menga, bir tort va choylarga qaraydi. Men ham unga qarab yuzidan ta'sir, quvonch ifodasini qidiraman, lekin yo'q.

So'ngra, «Qani, Alya» deb qo'lidan tutib o'rnidan turgizaman. Hayrat nigohi bilan boqadi. Tuna gugurt bilan tort ustidagi kichkina shamni yoqadi va tabassum bilan Alyaga qarab, «Qaragin, bu sening torting, shamni o'chir!» deydi. Oldin diqqat bilan tort ustidagi yozuvni o'qiydi. Bir daqiqalik hayratdan keyin sekin shamni puflaydi hammamiz birga uni olqishlab, navbat bilan yuzidan o'pib tabriklaymiz. Tortni kesib ulgurmasimizdan Alya yig'lashni boshlaydi. Tuna ro'molcha olib, darrov uning yoniga o'tadi. Qarasam, Tunaning

quchog'iga otadi o'zini. Avvallari unga teginishlarini hech yoqtirmasdi. Hammamiz birgalikda tortni yeymiz. «Baxtli bo'lg'in, Alya!» degan yozuvli shirinlik bo'lagini qog'ozga o'rab sumkasiga soladi. Keyin kulishni bilmaydigan dudoqlari duduqlanib, ta'sirchan ovoz bilan hammamizga rahmat aytadi. Yuzida ko'rganim g'ammi, quvonchmi yoki dardmi, nima ekanini bilolmagan ifodam ichimni qizdiradi. Egilgan tanasini sudrab xonadan chiqadi. Necha yillardan beri chidab bo'lmas katta dardni shu kichik tanasi bilan olib yurishga urinyapti.

Balki, Alyaning eng katta gunohi ancha oldin tug'ilgan va ozgina yashab o'lib ketgan qarindoshlari kabi bu dunyoni tark etmay yashayotganidir. Yaqinlari unga doimiy shuni singdirishgan. Bular juda chuqur yashiringan, o'limga yetaklovchi tuyg'ulardir. Ona qamalgan. Hozircha buning sababini aytmadi, biroq ona shundan keyin yaxshigina kasallangan. Bularning hammasi uning nega huquqshunos bo'lgani va bundan tashqari, nega jazo huquqini tanlagani sababini ko'rsatadi.

Nihoyat, ishim tugadi, ammo bu kecha professor doktor Jengiz Gulechning «Psixiatriya va tasavvuf» mavzusidagi seminar dasturi boshlanadi. Hozir oshxonaga chiqib, ham Jengizni tinglab, ham ovqatlanamiz. O'tgan hafta men ham bu mavzuda ba'zi narsalarni ko'rib chiqdim. Masalan, bundan ming yillar avval 922-yilda Bag'dodda xudosizlikda ayblangan Mansur Xalloy ismli kishi mullalarning chiqargan fatvosi sababli dorga osilgan. Aybi Xudo bilan bo'lgan o'zgacha munosabatini xalqqa aytishga jur'at qilgani. Oradan ming yillar o'tsa hamki, haligacha odamlar fikrlab jinoyat qilgani uchun o'limga hukm qilinishi mumkin. Ming yil oldingi hayotni tasavvur ham qila olmayman, ya'ni ko'p narsa o'zgarmoqda, biroq o'zgartira olmayotganlarimiz ham bor ekan...



Bugun Alya bilan Arjantin ko'chasidagi restoranlardan birida ovqatlanamiz. Bemorlarim bilan klinika tashqarisida ko'p ham ko'rishmayman, ammo bu boshqacha vaziyat. U bilan imkon qadar yaqin bo'lishga harakat qilyapman, chunki bunday yaqin munosabatlarga uning ehtiyoji bor, kech bo'lmazdan u bilan ayrim masalalar haqida gaplashishim va u hayotini tartibga keltirishi kerak. Tushki o'n ikki bo'lganda haydovchim Aydin meni uydan olib ketadi va borishim kerak bo'lgan restoranga eltib qo'yadi. Chunki u yerlarda mashina qo'yishga joy topish juda qiyin. Mashina restoranning eshigiga yaqinlasharkan, Alyani ko'raman. Bir daraxtga suyangancha meni kutadi. Tabassum bilan salom-alik qilgandan so'ng birgalashib ichkariga kiramiz. Uning ko'rinishi va o'zini tutishidan bunday joylarga kelib o'rganmaganini bilish mumkin. Uyalib, tortinibgina qarshimga o'tiradi.

Har doimgidek yuzida pardoz yo'q, lekin menga avvalgidek xunuk va jirkanch ko'rinmaydi. Ancha to'lishgani va ozodalikka rioya qila boshlaganining bunda hissasi bor deb o'ylayman. Bugun ancha tartibli va o'ziga xos kiyingan. Endi qaddini ancha tik tuta boshlagan. Sochlari va yelkalaridan hech nari ketmaydigan chang va qazg'oqlar mana hozir yo'q. Ikki yonda yuz-ko'zlariga to'kilib turadigan sochlari ham yig'ilgan.

Xuddi qamoqxonada ancha yillar yotib, endi chiqqan odamning ahvolini eslatadi bu qiz. Gaplashishni, o'tirishni, turishni, mavridini topib kulishni umuman bilmaydi. Stolda qarama-qarshi o'tiramiz. Buyurtma qilgan taomlarimizni ish-

taha bilan yeyapti-yu, lekin suhbatimiz qizimayotganidan u ham bezovta. Nimadir qilishni, nimadir gapirishni u ham xohlaydi. Ammo befoyda! Gaplashmadik deguncha biroz asabiy-lashganini his qilaman.

– Bu dunyoda suhbatlashishni uddalay olmaydigan yagona odam sen emassan, Alya. Insonlar yuz yillar davomida buning jabrini tortishgan. Sukunatni do'stlik tabiatiga zid deb qabul qiladigan Amerika jamiyatida ham, hatto insonlarning qirq foizi tortinchoqlik va o'zlari istagandek gaplasha olmaslikdan shikoyat qiladi.

Bu so'zlarim unga biroz bo'lsa ham taskin bo'ldi deb o'ylayman. Ko'z qiri bilan biroz uyalib yuzimga boqadi. Bir necha soniya kutib turaman, ehtimol, tilga kirar deya, biroq unda hech qanday harakat ko'rmagach yana gapirishda davom etaman:

– Suhbat eng kamida ikki kishi orasida kechadigan ma'lumot va his savdosidir.

– Siz dialog haqida gapiryapsiz. Bu ishning ustasi Suqrot.

– Qanday qilib hamma narsani bilasan-a?! Ha, tarixda dialogning ahamiyati va mohiyatini ilk ochib bergan donishmand bu Suqrotidir. Insonning yolg'iz o'zi dono bo'la olmasligini, buning uchun unga tashviq etuvchining ta'siri kerakligini aytgan ilk inson udir. Suqrot Afinaning bozorlarini aylanar, turli xil kasb egalariga savollar berar ekan. Aslida, juda badbasha-ra odam bo'lgan ekan u.

– Shunchalik badbasharami?

Suqrotning xunuk inson bo'lganiga atay urg'u berdim. Al-yaning e'tiborini tortishini bilgandim. Ko'ramiz, bu mavzuda nimalar der ekan?

– Ha, juda xunuk ekan, ammo ikki inson faqat birgalikda suhbat orqali bir-birlarining ko'zlarida go'zallasha olishini ko'rsatishga harakat qiladi. Onasi doya bo'lgan ekan, Suqrot ham o'zini doya der ekan, chunki tushunchalarning dunyoga kelishi uchun har doim bir doyaga ehtiyoj borligini yoqlab chiqqan ekan. Ehtimol, bu dunyodagi eng buyuk kashfiyotlardan biridir. Deylik, tarixda eng ulug' odamlar duch kelgan qi-

yinchiliklar uning ham boshiga tushgan va insonlar uni ham buzg'unchiga chiqarishgan. Chunki hamma tarafdin qabul qilingan fikrni tahlil qilib ham o'tirmay undan voz kechar ekan. Bir vaqtning o'zida ikki xil ma'no chiqarsa bo'ladigan istehzoli gaplari bilan barchani lol qoldirarkan. Demokratiyani ham mazax qilibdi, hatto xalq hokimiyati vakillari ham har doim odil bo'la olmasligini isbotlash uchun oxiri, o'limni ham bo'yniga olibdi. Sudda unga hukm chiqarganlarga «Savol bermay yashalgan hayot yashashga arzimaydi», deb qo'lga berilgan zaharni bir ho'plashda ichib yuboribdi.

– Insonning o'ziga bo'lgan ishonchining bu qadar yuksak bo'lishi naqadar ajoyib, shunday emasmi?

– Ikki insonning shu onda biz kabi yuzma-yuz o'tirib suhbatlashishi, ayni tuyg'ularni his etishi ham yoqimli emasmi, seningcha?

Darrov boshini egib oladi va yuzi xuddi biror ayb qilgandek qizarib ketganini ko'raman. Suhbatdan, dardlarini bo'lishishdan, balki unga yaxshi ish qilganini aytishlaridan ham uyaladi bu qiz. Men bularni tushunmagandek yana gapirishda davom etaman.

– O'n sakkizinchi asrda Ispaniyada ayol kishining turmush o'rtog'idan boshqa begona erkak bilan yolg'iz gaplashishi ma'nosini beruvchi «shivirlash san'ati»ni ijod qilishibdi. Bunday turdagi jazmanlik munosabatlariga o'sha ayollarning erlari umuman e'tiroz bildirishmas ekan. Jazman erkak aslo o'ziniki bo'lmaydigan ayolga nisbatan his qilayotgan tuyg'ularini ko'rsatish uchun qullik komediyasida rol o'ynar, bir xizmatkor kabi ayolning ortidan qolmay yurarmish. Tonglari uning uyg'onishini kutar, unga shokoladlar olib kelar, o'sha kuni kiyadigan kiyimlari bilan bog'liq tavsiyalar ham berar, sayr qilishda ham unga hamrohlik qilar, uyiga tinmasdan gullar va hadyalar yuborarmish.

– Bu aytganlaringiz bari rostmi?

– Bari haqiqat. Inson bularga ishongisi kelmaydi, to'g'rimi? Bugungi kungacha qanday va qayerdan kelganimizni bi-

lish kerak. Inson o'shanda ayrim narsalarni yaxshiroq anglab yetadi. Bu munosabatlarda taraflar uchun eng muhim narsa har kuni o'zaro suhbat qilishga nimadir topa olish ekan. Holbuki, asosan bu munosabatda tomonlar suhbat mavzusida muammoga duch kelishar; ularning suhbatlari xizmatchilar, otalar, egar-jabduqlar kabi bo'lar-bo'lmas mavzulardan nariga o'tmas ekan. Bunday sodda, g'ayrioddiy munosabat tajribalari faqat Ispaniyada emas, boshqa joylarda ham qo'llanilgan. Hatto 1753-yilda genuyalik bir erkak shunday degan ekan: «Biz erkaklar har doim bandmiz, ishimiz, tashvishimiz bor. Rafiqalarimizning hayotida esa ularga hamrohlik qiladigan odam bo'lmasa, tugata olmaydigan darajada juda ko'p vaqtlari bor. Shuning uchun biror oshiqqa, itga yoki maymunga ehtiyoj sezadilar».

– Ayollarni juda yerga urib yuboribdi.

– Haqsan. Cherkovlar allaqachon ayollarning erkaklar bilan suhbatlari fikrini o'qqa tutibdi. Shunday qilib, bunday munosabatlar tarixga qorishibdi-yu, biroq shunga qaramay odamlar hali ham suhbatlashishni o'rganishni xohlar va buning uchun ko'p kurashar hamda bir-biridan farqli yo'llarni sinab ko'ribdi.

– Ya'ni bu global muammo... Shunday emasmi?

– Hozir ko'pchiligimiz insonlarning borligini kunlar davomida bir-birlari bilan gaplashib dardlashganini, iztiroblari, quvonchlari, qo'rquvlarini bo'lishgani haqida o'ylaymiz, ammo tarixga nazar tashlasak, hech qachon bunday bo'lmanini ko'ramiz. Boshqa odamning nima his qilganini, ayrim narsalarni nega qilganini anglash, insonlar uchun har doim katta mashaqqat va o'zlarini anglashning ham ilk bosqichi. Bunga aslo ahamiyatsiz narsa deb qaramaslik kerak. Aslida, butun dunyoda insonlar orasida umumiy til rivojlanishining oldini olish uchun favqulodda harakatlar amalga oshirilgan. Yuqori sinf vakillari har doim o'z jargonlarini rivojlantirgan va nozik talaffuz tafvutlariga e'tibor qaratib ustunliklarini isbotlashga uringanlar. Bizning o'lkamizda ham bu aynan

shunday bo'lgan. Istanbul shevasi bilan Onado'li shevasi hech qachon bir-biriga o'xshamagan, sheva farqlariga har doim ahamiyatsiz deb qaralgan, chiqarib tashlangan. Ammo tariximizda buning boshqa sabablari ham bor. Chegaralar juda keng, bir-biridan farqli guruhlar va yana farqli tillarda gaplashiladigan katta bir mamlakat bo'lganmiz. Til va din kabi muhim tafovutlarga qaramay, asrlar davomida bir yerda yashashning, hatto yevropaliklarga nisbatan bir-birimizni yanada yaxshi tushunishning uddasidan chiqqanmiz.

– Siz bu tuproqlarda dunyoga kelganingizdan mamnunga o'xshaysiz.

Demak, unda bunday emas. Hozir so'rasam aytmaydi, zero, baxtsiz insonlar nimadan ham mamnun bo'lsinki? Rivojlangan mamlakatda yashashni xohlagan, Yevropada yoki Amerikada yashasa hammasi boshqacha bo'lishini o'ylagan, baxtning va ichki huzurning boshqa o'lkalarda topilishiga ishongan ko'p insonlarni taniyman. «O'sha yerga borganingizdan keyin ham deyarli hech narsa o'zgarmaganini his qilasiz», deyolmayman hech biriga.

Eng yaxshisi savol bermaslikda davom etish. Zero, insoniylik tarixidan namunalar tinglash, yillar avval bu dunyoda yashagan insonlarning ruhiyatini, tushuncha tarzlarini, odatlarini va qayerlardan qayerlarga kelishini bilish, tinglash unga yoqadi. Ko'p o'qigan, bilimga qiziquvchan qiz, ammo tugmasi bosilmagan bir radio kabi hozircha sukut saqlayapti.

– Bu tuproqlarda tug'ilganimdan har doim faxrlanganman. O'zimizning odamlarni yaxshi ko'raman, chunki eng ko'p ularni taniyman. Ularga o'xshayman, ular ham menga. Agar bir kun dunyodagi barcha insonlar oz yoki ko'p bir-birlarini tanisa, do'st bo'lsa, nimanidir bo'lisha olsa, aminmanki, o'shanda hammamiz bir-birimizni yaxshi ko'ramiz.

– Yaxshi ko'rish uchun tanish kerak.

– Tanish uchun ham yuzma-yuz gaplashish lozim. Tanimagan insonimizni na yaxshi ko'rish mumkin, na nafratlanish. Ammo bugun butun dunyo tanimagan bir guruh insonlaridan

nafratlanish, qolaversa, ular haqida yomon xayollarga borishga urinadi. Seningcha, bu xato emasmi?

– Xato bo'lsa kerak. Zero, men na biror odamni taniyman, na ular meni.

Shuning uchun ham hozircha unga sevish yoki sevilish juda begona tuyg'ulardir.

Bu qiz qanchalar mazmunli javoblar beradi. Eshitgan odam ham uning bulbul kabi sohir, bemalol o'zi haqida gapiradigan odam ekanini o'ylaydi. Har qanday mavzuga oid ziddiyat bor ichida!

– Yana ko'p gapirdim, shekilli. Shirinlikka nima deysan? Menga juda yoqadi.

– Mayli.

– Nima yeyishni xohlaysan? Bu yer shirinliklarga boy ko'rinadi!

– Bilmasam, siz nima istasangiz o'shani yeymiz.

– Muzqaymoqli shirinlik yesakmikin?

– Mayli.

Ofitsiantni chaqirib, buyurtma beraman. Birozdan keyin katta qadahlarda rango-rang va maxsus tayyorlangan shirinliklarimiz keladi. Huzun to'la sukunat bilan, asta-sekin qo'lidagi qoshiqning uchi bilan muzqaymog'ini yeydi. Bugun tushdan keyin barcha uchrashuvlarim bekor qilindi. U yashagan uyni ko'rishni va uni yanada ko'proq tanishni xohlayman.

– Bu yerdan chiqqandan keyin nima qilasan, Alya?

– Hech narsa...

– Unda siznikiga boraylik. Qani, tur. Yashaydigan uyingni ko'rishni xohlayman.

– Bizning uygami?

– Ha, bugun sen meni mehmon qil.

– Ammo!

– Nima?

– Mayli, qani, ketdik.

Ofitsiantni chaqirib shoshilib hisobni to'lagandan keyin restorandan birgalikda chiqamiz. Alyaning qo'l-oyoqlari tit-

raydi. Aslida, o'zim ham hayajondaman. O'sha uyga borish meni ham hayajonlantiradi. Restorandan chiqqanimizda haydovchim mashinada bizni kutadi. Eshiklarni ochib ikkimiz ham mashinaga o'tirganimizdan so'ng «Qayerga boramiz, xonim?» deya so'raydi. «Yo'lni Alya ko'rsatadi», deb qo'yaman.

Anqaraning ko'zga ko'ringan shaharchalaridan biriga ketamiz. Ko'p villalar oldidan o'tgandan keyin uzoqda bir yolg'iz turgan, boshqa uylardan farqli, shuvoqlari to'kilgan, katta bog'i bor, o'zi ham, bog'i ham vayronaga aylangan uyning yonida to'xtaymiz. Qiz biroz uyalgannamo mashinadan tushadi.

Shoshilganча sumkasidan kalitlarni chiqarib qo'l-oyog'i titragan holda eshikni ochadi. Uyning ichiga kirgach, hayratdan tilim tutiladi. Mog'or, eski buyum, is va chang hidiga to'la bir uy. Avval qorong'i bir zalga kiramiz. Chiroqni yoqadi. Eshik oldida eski bir kiyim ilgich bor. Unga ikki dona eski palto osilgan. Biri erkak, biri ayol paltosi! Bular onasi va otasining paltosiga o'xshaydi, ammo hali ham ular tirikdek shu yerda turishi ichimni titratib yuboradi.

Keyin katta bir mehmonxonaga kiramiz. Mato qoplangan eski divanlar, burchakda naqshinkor xontaxtalar bor. Katta to'rtburchak stolning atrofiga yana naqshinkor o'rindiqlar terilgan. Stolning ustiga qo'lda to'qilgan katta dasturxon yozilgan. Uning bu stol ustida bir necha yildan beri turgani shunchalik aniqki, xuddi u bilan birlashib ketganga o'xshaydi. Unga diqqat bilan qarayman. Hoynahoy, bu dasturxonni Surayyo to'qigan bo'lsa kerak. Bunday narsani qo'lda qanday to'qish mumkin? Yerda qalin qimmatbaho jun gilamlar, derazalarni yopib turgan jigarrang og'ir baxmal pardalar bor. Vaqt hukmida go'yoki mehmonxonadagi barcha buyumlar chirigan, qoraygan, rangini o'zgartirgan. Bu hisni Qohirani ko'rganimda tuygandim. Nil daryosining atrofini hisobga olmaganda shahar oq mato bilan qoplanganga o'xshar edi. Butun ranglar so'lgan, motam rangiga kirgandek edi, go'yo. Bu xonani qoplagan motam rangi juda quyuq... Atrofga boqib seskanasan kishi.

Devorga osilgan katta yog'och taxta ichida kumush ramka turibdi. Kumush ramka ichidan bir go'zal ayol qarab turadi. Unga asta yaqinlashib, yaqin masofadan qarayman. Menimcha, bu Surayyo – Alyaning onasi! Naqadar go'zal ayol! Ko'rinishi u qadar Turkan Surayyoga o'xshamasa-da, uniki kabi qora, uzun sochlari, shahlo ko'zlari, qalin va jozibali lablari kishini o'ziga maftun etadi. Qanday mahzun boqadi odamga! Menimcha, bu surat olinganda u yigirma yoshlarda bo'lgan. Balki, u vaqt hali Alyaning otasiga turmushga chiqmagan ham bo'lsa kerak. Chunki turmush qurgach, bunday suratga tushish imkoniyati bo'lmagan. Rasmdagi ayolning yuzida jiddiy pardoz bordek, biroq Alyaning aytishicha, onasi hech qachon bo'yanmagan. Adashayotgan bo'lishim mumkinmi?

– Alya, bu onangmi?

– Ha onam.

– Bu rasm qachon olingan?

– Turmushga chiqmasdan avval. Keyin u vafot etgach, dadam suratni shu yerga qo'ygan. Chunki boshqa rasmi ham yo'q edi.

– Xonang qayerda?

– Yuqorida.

Mehmonxonadan chiqib zalning oxiridagi zinaga boramiz. Aylanma zinalar bo'ylab, yuqoriga chiqqach, Alya chiroqni yoqadi, xona biroz yorishadi. Bu uyning chiroqlari ham nursiz! O'rtada katta maydoncha va uchta xona bor. Xonalarning o'rtasida ochiq eshikdan hammomni ko'raman. Hammom devorlari menimcha bir vaqtlar oq bo'lgan, endi esa kulrang. Ichi yo'l-yo'l bo'lib sarg'aygan eski vannaga naqshli, kir, yarim ochiq hammom pardasi osilgan. Yondagi chanoqning ostiga bosma parda osilgan. Bunday buyumni ko'rmaganimga yillar bo'lgan. Hojatxonaning yonidagi axlat qutisi sifatida egri-bugri, zanglagan tunuka turibdi. Burchakda eski kir yuvish mashinasi bor.

Keyin xonalarga kira boshlaymiz. Avval o'z xonasini ko'rsatadi menga. Devorning burchagida kichik bir yoyma karavot turibdi. Ustiga eski, kir mato to'shalgan. Qarama-qarshidagi deraza-

ning bosma pardalari eskirgan va so'lgan. Eski metall karnizning burchaklari egilgan va quyiga qarab osilgan. Yonida garderoib, uning yonida katta kitob javoni, qarshisida esa yog'och o'rindiqlar turibdi. Ham kitob javonining ichi, ham stolning usti kitoblar bilan to'la! Kitoblar ustma-ust qilib terilgan. Yonida yana eski, bo'yni bukilgan metall stol lampasi bor. Yerga parcha-parcha bo'lgan gilam to'shalgan. Garderobning eshigi qiya ochiq, qulfi buzilgan ekan, yopilmaydi. Ochiq turgan eshikdan ichi ko'rinadi, bo'm-bo'sh!

- Kiyimlarning qayerda, Alya?
- Tashlab yubordim... Hammasini tashlab yubordim.
- Nega?
- Shunchaki...
- Nima kiyimoqchisan?

Javob berish o'rniga aybdor bolalar kabi yerga qaraydi. Darrov xonadan chiqib ketaman. U ham ortimdan chiqadi. Shunday yondagi katta xona menimcha ota-onasiga tegishli... U yerda to'q rangli eski yotoq buyumlari bor. Devorga suyalgan garderobning eshigi oxirigacha ochiq. Ichida hammasi to'q rang, ko'pi odmi kiyimlar osilgan. Mana ekan, qizning kiyimlari deyman. O'sha payt bu qiz kiygan kiyimlar onasiga tegishli ekanini anglayman. Oldin ham taxmin qilgandim-a. Yana ichimga bir titroq inadi.

Keyin boshqa bir xonaga kiramiz. Bu yerda ham bir kishilik karavot va eski garderoib bor. Ichida erkaklarning eski kiyimlari ilingan. Bu yer dadasining xonasi bo'lsa kerak. Demak, otasi bilan onasining xonalari alohida bo'lgan.

So'ngra yana pastga tushamiz. Oshxonaga kiranman. Juda keng oshxona. Eski muzlatkich burchakda turibdi, eshigini ochishga urinaman, juda qiyin ochiladi, rezinalari yopishib qolgan. Muzlatkich deyarli bo'sh! U yerda turgan spirtli ichimliklar e'tiborimni tortadi. Keyin oshxona shkaflarini ochaman, tovoqlar, stakanlar hammasi bir tekis turibdi. Keyin boshqa shkaflarni ochgach paket-paket shokoladlar, kekslar, qahva va bodroqlarga ko'zim tushadi.

Oshxona ham iflos va chang, lekin hamma narsa joy-joyida, biror yerda tartibsizlik yo'q. Bu uyda odam yashamagan-ga o'xshaydi.

– Bu uy ancha eskiribdi. Buning ustiga sen uchun juda katta. Koshki bu yerni bo'shatib ijaraga bersang-u, o'zing kichik-roq uyga ko'chsang...

– Hmm.

Uyalgandek yerdan ko'zini olmaydi. Uyalgandek emas, uyalib turibdi. Gaplashib olish uchun bir joyga o'tirishimiz kerak, lekin hayhotday uyda o'tirgani joy topolmayapman. O'sha chang va qorong'i mehmonxonaga kirishni unchalik xohlamayapman. Oshxonada eski bir stol va atrofida to'rt stul bor. Yana ham o'tirish uchun eng munosib joy oshxonaga o'xshaydi. Stullardan birini olib o'tiraman. O'ylashimcha, Alya ham uydaligida mana shu stolga o'tirsa kerak.

– Qani, bir finjon qahva tayyorla, ichaylik. Qahva yo'q deya ko'rma, chunki ko'rdim.

– Xo'p... tezda tayyorlayman. Umid qilamanki, sizga yoqadi.

– O'zingga ham tayyorlaysanmi?

– Ha.

Tezkor harakatlar bilan javonlarni ochadi, gazni yoqib, idishni olov ustiga qo'yadi. Shkafdan olgan finjonlarini idish yuvish vositasi bilan yaxshilab ko'pirtirib yuvadi. Aks holda, o'zida yillar isini saqlagan bu finjonlarda qahva ichish imkon-siz. Burchakda rang-barang gullar naqshi chizilgan, urfdan qolgan eski, lekin chiroyli finjonlar...

– Oh, qahvaning hidini qarang. Qahva ichishni yoqtiradiganga o'xshaysan.

– Avval ichmasdim. Sizning qabulingizga borgach ichishni boshladim. Klinikangizda odamlar qahva ko'p ichishadi. Siz ham yaxshi ko'rasiz. Keyin men ham havas qildim. Agar bu uyga avvalroq kelganingizda qahva topa olmas edingiz.

Finjonlarni stol ustiga qo'ygach, o'zi uchun ham stul olib qarshimga o'tiradi. Bu qizning rostan ham yordamga ehtiyoji bor. Xayolim shu kiyimlarida qoldi. Nega bularni kiyarkin o'zi?

Puli bor, hozir uchrashadigan odami ham yo'q. Tinmay shu kiyimlarni kiyishiga hayron qolaman. Uy changdan ko'rinmay ketgan. Derazalar pardalar bilan to'liq to'silgan. Shuncha yildan beri nega o'zi uchun muhit yaratmagan?

Parilarning ko'shkiga o'xshaydi bu yer. Inson bunday uyda yolg'iz o'zi yashashga qo'rqadi. Bog'ning ham holini qara... O'tlar tizza bo'yi bo'libdi. Binoning shuvoqlari to'kilgan. Har kun ichidan yurgan bog' shu ahvolda bo'lsa, tom qay ahvolda ekan? Menga «ovqatlanaman» degandi, lekin oshxonada ovqatlanadigan narsa ko'rmadim. Bu qiz nima yeb, nima ichar ekan-a? Garchi uni taniganimdan beri ancha vazn yig'gan bo'lsa ham uyda ovqat tayyorlamaydiganga o'xshaydi. Javonda ham sutli shokoladdan boshqa narsa yo'q.

Bu qiz bu uyda sevilmasdan, hech kim uni o'pmasdan, silab-siypalmasdan katta bo'libdi. O'zida bo'lmagan mehrni qanday boshqalarga ulashsin? Ilk kunlar o'zim ham yoqtirmagandim. Boshqalardan nima kutay?

Qahvadan bir ho'plam ichib ko'raman; yaxshi chiqibdi. Endi suhbat payti keldi.

– Esmasulton bu uyga hech kelmadimi?

– Yo'q.

– Kelganda uy shu ahvolda bo'larmidi? Qiyomat bo'lardi. Uyning eng go'zal xonasiga joylashib olib, sizni ham xizmat-chidek ishlatardi.

Qahvasini puflab bir ho'plam icharkan, bu so'zlaringa kulib qo'yadi. Finjonni joyiga qo'yayotganda qo'llari titraganini ko'raman. Qiyin eshtiladigan ovoz bilan, shivirlagan kabi gap boshlaydi:

– Esmasulton bu uyga kelolmadi. U tirik bo'lganda edi kim biladi, bugun qayerda va qanday yashayotgan bo'lar edim? Balki, ota-onam ham o'lmagan bo'larmidi?

Bu bilan nima demoqchi bo'lyapti? Xuddi topishmoq aytgandek gapirdi.

Esmasulton nega o'ldi, nega qamoqqa tushdi, bularni aytmadi-ku. Tavba, Esmasultonni Surayyo o'ldirganmikin?

Xuddi detektiv romanlardagi kabi bo'ldi-ku! Biroz bo'lsa ham bilsam, shunga qarab munosabatda bo'lardim; ehtimol, bu qizning qo'rquvlarini, umidsizliklari-yu chorasizliklarini yengillatishga urinaman, ammo voqeani batafsil bilmayman-ku. Hozir nimanidir aytmoqchiga o'xshaydi... Ya'ni hozir bu munosabat, bu muolaja uchun juda muhim. Men beradigan reaksiyalardan u qattiq ta'sirlanyapti. Juda diqqatli va sezgir bo'lishim kerak. U hali hech narsa demasdan ham nimalarnidir tushunishim va imkon qadar uning yonida bo'lishga harakat qilishim kerak. Chunki qismatini o'zgartirgan voqealarni hozir aytib beradi.

Alyaga qarayman. Ko'zlarim u aytib beradigan har qanday narsani oxirigacha eshitishga tayyor insonning ruhiyatini aks ettirib turadi. U esa ko'zlarini uzoqlarda tikkan, qo'llarini quchog'ida birlashtirgan, xayolchan va mahzun holatda qarshimda o'tiradi. Shu daqiqada ko'zlarim qo'llariga qadaladi. O'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'i har doimgidek yara ichida, ammo boshqa barmoqlari kabi yumshoq bukilish o'rniga tik turibdi. Barmoq yengil titrab havoda turarkan, u buni sezmaydi ham. Xuddi shartli refleksga o'xshaydi. Bu nimani bildirarkin, judayam qiziq?

Eng boshidan beri bu barmoqdagi yara-chaqalar, qoralar e'tiborimni tortadi. Bir necha marta so'radim, ammo har safar javob berish o'rniga savollarimni o'tkazib yuboraverdi. Garchi bu vaziyatga boshidan moslashgan bo'lsam ham so'ragan savollarimga ko'pincha javob bermaydi, biroq boshqalariga emas, aniqki, o'sha barmoq bilan bog'liq muammo bor. Lablari titragan ko'yi gapirishda davom etadi:

– Kunlardan bir kun Esma Sulton har doimgidek haftalik dush qabul qilayotgan edi. Uydagi janjal ertalabdan boshlangandi. Maktab yopiq bo'lgani uchun bolalarning hammasi uyda edi. O'g'il bolalar bir-biri bilan olisharkan, men ularning o'rtasida qolib katta o'g'ildan musht yedim. Rosa yig'ladim. Mening yig'laganimni eshitgan Esma Sulton sababini so'ramasdan onamning ko'z oldida menga qo'lining ters tomoni

bilan tarsaki tushirdi. Tishim lablarimni kesib ketgani sabab og'zim ancha jiddiy qonayotgan edi. Onam qo'limdan ushlab meni dushga olib kirdi, bir tomondan gapirib, ikkinchi tomondan urib-qoqib og'zimdagi qonlarni tozalardi. «O'zi jonim bo'g'zimga kelib turibdi, bir sen qolganding», degandek bo'lardi, go'yo... Aytmoqchimanki, men, hatto onam uchun ham shunchaki yumush edim. Esmasulton dush qabul qiladigan kun avval hammomdagi katta pech yoqilardi. Kelinlar hammomga sovun qo'yishardi, onam ham ehtiyotkorlik bilan xina tayyorlardi. Hammom isiyotganda Esmasulton mehmonxonadagi katta kursida o'tirardi. Uning orqasiga sochiqlar qo'yilgan, onam esaultonning boshiga xina surtardi, xina olguncha choy beriladi va hamma divanda qo'l berib kutardi. Xina qo'yilgandan keyin Esmasulton hojatxonaga borardi, kiyimlarini yechardi, havza yonida o'tirar va onam uni yuvintirishini kutardi. Bu orada onam yeng shimarib, buvimni yuvintira boshladi. Men chetda ish kutardim. Mening asosiy ishim isitilgan sochiqni dush qabuli oxirigacha ushlab turish edi. O'sha kuni ham tanish hodisa yuz berdi. Onam ishini tugatgach, peshonasidagi terni artib o'tirdi. Sochiqlar allaqachon qizdirilib, tizzamga berilgan edi. Yopiq eshik oldida tizzamda bir-biriga bog'langan sochiqlar bilan turardim. Hammom issiq va men ham onam kabi juda terlagan edim. Nozik qo'llarim sochiqning og'irligi sabab charchagan edi. Onam Esmasultonning sochlarini oppoq suyakdan yasalgan taroq bilan tarardi. Uning sochlari uzun edi. Orada biroz og'riyotganda onamning qo'liga bir marta urar, onamga tikilib o'zicha nimadir deb ming'irlardi. Onam uni ranjitmaslik uchun ikki bukilib qolgan, terga botgandi. Endi navbat yuvinishga keltgandi. Havzadan olingan suv endi quyilmasdi. Vanna idishi faqat jo'mrakdan oqayotgan suv bilan to'ldirilardi. Kim bilsin, qancha yil davomida har hafta bu sahnalarni tizzamga sochiq qo'ygancha tomosha qildim ekan? Onam Esmasultonga g'usl olishi uchun yordam berayotgan edi. Og'irligimni bir oyog'imdan ikkinchi oyog'imga berib bu sahna tezroq tugashini tilar-

dim. Va nihoyat, hammasi tugadi. Esma Sulton suvni to'kib yuborib o'rnidan turarkan onam doimgidek uning qo'lidan ushlab unga yordam berardi. U juda semiz ayol edi, qornidagi terisi qatlam-qatlam osilib turardi. Xinadan yaxshigina qizargan sochlari yelkalaridan pastga to'kilib turibdi, ingichka va tomirlari bo'rtib chiqqan sonlari uni ko'tarishga qiynalardi. Onam havza tomonga egildi. Sovuq va issiq suv jo'mraklarini birdan ochib suv to'ldirdi. Oxirgi suvga tegib bo'lmasdi. Keyin bir qo'li bilan belidan ushlab o'rnidan turdi va kosadagi suvni bismilloh deb Esma Sultonning boshidan quydi.

Shu yerga kelganda chuqur xo'rsinib menga qaradi va xuddi yordam so'ragandek ko'zlarimga tikildi. Nima deyishni istayotgan ekan, nima qilishimni kutaypti, hech tushunmasdim, o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'ini yuqoriga ko'tarib yaxshilab qaradi. Uni sinfda barmog'ini ko'tarishdan uyalib qo'lini partaning ostiga yashirgan bolaga o'xshatdim.

Mendan qidirganini topa olmagach, ko'zlarini uzoqlarga tikkancha gapirishda davom etadi:

– Suv issiq bo'lgan ekan. Onam qo'lini solib ko'rmagani uchun bilmabdi. Juda issiq ekan. Buvimning jahli chiqdi va bor kuchi bilan «qarg'a» deb onamga baqirdi. «Qo'llaring sin-sin, ilohim, qarg'a...» O'sha payt menga bir necha soat oldin qilganidek qo'lining teskari tomoni bilan onamni urmoqchi bo'ldi, ammo buvim qo'lini onamga to'g'ri olib borgan paytda muvozanatni yo'qotdi. Onam o'sha paytda o'ziga qarab silkingan qo'lni tutib qolishga intildi. Esma Sulton onamni urganini oldin hech ko'rmagandim. O'sha kun bilmadim, nega oyimdan juda jahli chiqqan edi. Sochini tarayotgan paytda ham onamni tez-tez urardi. Bu zarbalar onamning jahlini chiqarardi. Buni his qilib turardim. Ikkisi ham bir-biridan xafa. Bo'lmasa onam bunday qilmas, uning hurmatini doim joyiga qo'yardi. Esma Sulton uning sabr kosasini toshirib yuborgandi. Onam unga qattiq o'qrayib qarardi. «Yetar endi» degandek edi, go'yo. Uning ko'zlarida ilk bora g'azab ko'rdim. Menga juda yoqqandi. Bundan ishonib bo'lmaydigan dara-

jada zavq olgandim. «Nihoyat», derdim ichimda... «Nihoyat, qul uyg'onadi, soqov gapiradi. Yillar bo'yi hammasini ichga yutgan... tosh kabi turgan bu hissiz ayol biror nima qiladi-yu, o'zini himoya qiladi...» Yillar bo'yi mana shu daqiqani kutgandim. O'sha payt meni yaxshi ko'rmasa ham, ko'zlari meni ko'rmasa ham, men uni sevardim. «Mening ham onam bor», derdim... Bo'layotganlarni tomosha qilayotganimda yashirin kamera meni suratga tushirganda edi... ko'zlarimning qanday porlaganini, zafar jo'shqinligi bilan qanchalar mast bo'lganimni ko'rardi. Ammo bu jo'shqinlikning umri qisqa bo'ldi. Chunki onam o'ziga ko'tarilgan qo'lni havoda tutib qololmadi. Sababi oniy bir harakat bilan o'zini orqaga to'g'ri tashlagandi. Havoda ikki ayolning qo'llari to'qnashganini ko'rdim. Bir kishilik yoki bir zarbalik bir olqish ovozi keldi quloqlarimga. Ehtimol, bu eshitganim yuragimdan chiqqan olqish ovozi edi. Keyin osmondagi momaqaldiraq kabi bir boshqa ovoz, butun ovozlarni yo'q qilib yubordi. Ikkisi birdan yerga marmar ustiga yiqildi, zilzila bo'lgandek hayhotdek uyni titratib yubordi. Ovoz bilan birga butun uy hammomga keldi. Zero, Esma Sulton onamga «qarg'a» deb baqirganini hamma eshitgandi.

Shu yergacha bo'lgan voqealarni bo'g'iq ovoz bilan bazo'r aytib berayotgan edi, lekin shu nuqtada ishlar o'zgardi. Xuddi tok urgandek dir-dir titrarkan, so'zlar ovozsiz bir xirildoq tovushga aylandi. Barcha bo'lgan voqealarni, eshikda quchog'ida sochiqlar bilan kutarkan, u hammasini ko'rgan edi. Juda yaxshi aytib berayotgandi. To'g'ri gapira olmasa ham har bir kechinmani qanday his etganini ich-ichidan tarjima qilib berardi. Ikkisi ham birdan yiqilibdi. Agar yiqilmaganlarida o'sha kuni hammomda nimalar bo'lardi? Surayyo rostan ham bu safar qattiq ranjigan! Bundaylarning g'azabi qattiq bo'ladi. Yillar davomida ichga yutilgan, to'lib toshgan bir g'azab bu.

– Esma Sulton bilan onam xuddi bir-birini bo'g'ayotgandek yerda, marmar zinaning ustida yotardi. Har tomon qonga belangandi. Bu qon kimniki ekanini bilmasdik. Chunki har ikkisining ham yuz-ko'zi qonga botgan edi.

Endi gapirishga ancha moslashib qolganga o'xshardi. Biroz oldingi titroqlar keng qo'l harakatlariga aylandi. O'tirgan stolidan turishni istar, ammo kimdir uni bog'lab qo'ygani uchun turolmayotgandek o'zini oldinga orqaga tashlab o'tirardi. Qo'llarini ongsiz siltikardi. Lekin o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'i hali ham havoda va u bilan kimni ko'rsatishini, kimga ishora qilishini bilmagan kabi ko'r-ko'rona bir izlam ichida atrofiga qarardi. Men esa go'yoki u yerda emasdim. Bu dahshat to'la tushda rol olishni, bunday tushni bo'lib qo'yishni istamadim.

– Odam juda ko'p edi. Meni surib tashlashar, u yerga bu yerga otishardi. Biroq hech kim ularga yaqinlasha olmasdi. Xuddi teginsa, ular ham qonga belanadigandek, yoki qo'llari yonadigandek hamma bir-birini turtkilarkan ularga yaqin borib ko'rishni istagandek qarashardi. Sonlarimdan pastga nimadir oqib tushardi. Qo'rqqanimdan tagimni ho'llab qo'ygandim. Sochiqlar qo'limdan tushgan, odamlar orasidan oldinga o'tgandim. O'shanda onam bilan ko'zimiz ko'zimizga tushdi. Ko'zlari g'azabdan yonardi. O'sha payt bu barmog'im qimirladi. Mana shu mo'rt barmog'im.

Barmoq! Mana shu barmoq. Onasiga yo'nalgan barmoq! Voqeaning yagona guvohi sifatida onasini ko'rsatgan va uni ayblagan barmoq! Sekin-asta ba'zi narsalarni tushuna boshlayman. Hammomdan ham shuning uchun qo'rqadiganga o'xshaydi. Mana endi gapirishdan to'xtadi. O'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'ini chap qo'li bilan mahkam tutib, ikki bukklad. Buni yig'lash demaydilar. Bu hayqirish edi!

Bir muddat men ham nima qilarimni bilmay qolaman. Xuddi triller filmi ko'rayotgandek bo'laman, yomon voqelar sodir bo'ldi-yu, birdan film to'xtadi. Chiroqlar yondi, ammo uning ta'siridan chiqib keta olmadim. Keyin asta hushyor tortib o'zimga kela boshlayman. Qarshisida o'tirgan stulimdan turib yoniga boraman. Yonidagi stulni olib, bir uchiga o'tirgandan keyin unga egilib men ham uning ustiga o'zimni otaman. Baqirishda, bo'zlashda davom etarkan, uni mahkam quchib turganim uchun endi ovozi ancha ichkaridan chiqadi. O'sha yerda bu holatda qancha

qolganimizni bilmayman. O'sha daqiqalarda nima his qilganimni ham bilmayman. Xuddi ikkimiz birdan muzlikka kirdig-u, o'sha yerda qotib qoldik, keyin issiq joyda sekin-asta eridik. Muzlarimiz eriyvergach, tin oldik, yumshadik va bir-birimizdan bazo'r ayrildik.

Endi yonma-yon, ammo yuzma-yuz o'tiribmiz. Uning ham mening ham ust-boshimiz ho'l bo'lgan. Ko'z yoshi sel bo'lib oqqach, shunday bo'ladi... Chap qo'li hali ham o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'ini mahkam tutib turadi. Xuddi qo'lidan kelsa-yu, o'sha barmoqni qo'porib otib tashlasa. Demak, shuning uchun doim yara-chaqa ichida bo'lgan bu la'natlangan barmoq! O'sha kuni Alya shu barmog'i bilan onasini ko'rsatgan. Bir daqiqa o'zimni uning o'rniga qo'yib ko'raman va o'sha issiq, gavjum va qon ichida qolgan hammomga boraman.

Hamma tomonda bug' borki, u yerda nima bo'layotganini ko'ra olmayman. So'ng asta-sekin har tomon yorisha boshlaydi. Ba'zi narsalarni his qila boshlayman.

Boshini ko'targach, sarosimaga tushgan, bezovtalangan bir yuzni ko'raman. Namiqqan ko'zlari bilan menga dahshat ichra qaraydi. G'alati bir harakat bilan sochini to'g'rilagandan keyin uyqudan uyg'ongan kabi atrofni kuzatadi. Qovoqlari charchagandek pastga osilib qolgan. Ichida hanuz titrayotgan hayqiriqlarni bostirishni xohlayotgandek, go'yo.

Asta, muloyim, insonni umuman bezovta qilmaydigan ovoz bilan o'z-o'zimga pichirlagandek, Alyaga qaramasdan, uni qiy-namasdan gapirishni boshlayman:

– O'sha kuni o'sha hammomda men bo'lsam, yoshim senikidek kichik bo'lsa, qo'llarimda sochiqlar bilan sening o'ringda kutsam... Keyin barcha hodisalar mening ko'z oldimda sodir bo'lsa, bola ahvolimda vahimaga berilar, nima qilishimni bilmasdim. Eng ko'p onamdan najot istardim. Biroz avval kuchini his qilganim validamga. Qo'rquvdan ostimni ho'llab qo'ygan holimda chorani yana onamdan qidirardim. Ehtimol, barmog'im onamga yo'nalardi. O'sha kichik qiz men bo'lsam, bo'lgan barcha voqealarni ko'rsam, shunday qilardim.

Jim qolaman. Bu hikoyaning oxirini tinglamay turib shunday deyman. U hali o'zini himoya qilmay yoki ayblamay turib. Jim qolganimdan keyin yana boshini oldinga egadi va mahkam tutib olgan o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'iga diqqat bilan qaraydi. Xuddi uvishib qolgandek bir muddat qo'llarini ochib-yopib turadi, keyin ko'zlarini ko'zlarimga qadaydi. Xayolida nimalardir kezadi. O'sha kun haqida o'ylaydi. Ko'zlarini ochib-yopib menga qaramasdan orada boshini ikki tomonga silkib nimanidir hal qilishga uringan ahvolda turadi. Jim turaman, u gapirishini, aytib berishini xohlayman, ammo hozircha bunday niyati ham, jasorati ham yo'q. Yana o'zim so'z boshlayman.

– O'sha jajji qiz men bo'lsam, mash'um kunda o'sha hammomda bo'lsam, o'zimcha shunday o'ylardim... Meni hech kim tushunmasdi. Voqeaning dahshati va hayajoni bilan hamma menga qarar, onamni ko'rsatgan ko'rsatkich barmoqlarimni ko'rar, bundan nimadir ma'no chiqarishga urinardi. Nima bo'lsa ham hodisaning yagona guvohi men edim. Nima deganim, nima qilganim shuning uchun ham muhim edi. Balki menga savol berishardi. Qanchalik qo'rqqanimni, o'sha payt qanchalar ojiz va chorasiz bo'lganimni hech kim bilmas, xuddi men hech qanaqasiga ta'sirlanmagandek savol berishardi. Onam ham meni qutqara olmas, o'sha vaziyatdan kelib olib ketmasa, o'zimni juda yolg'iz his qilardim. Kim biladi, ehtimol, yerda qonga botib yotgan onamdan ham jahlim chiqarmidi? Men bo'lsam, shunday qilardim. Shunday o'ylar, shunday his qilardim. Barmog'im doim onamni ko'rsatardi. Sen nima qilding, Alya?

– Men ham xuddi shunday qildim...

Ishonch to'la, uni tushunuvchi nigohlar bilan tabassum qilaman unga. Nimadir deyish o'rniga faqat jilmayib qarayman. Bu tabassum menga yaxshi ta'sir qiladi. Bir onda yuqorida turgan yelkalari cho'kadi, tin oladi, ustki labini tishlab iztirob bilan ichiga tortgandan keyin so'zida davom etadi.

– Qonagan buvimning boshi ekan. Yiqilganda boshini chanoq burchagiga uribdi. Qon to'xtamadi. Jo'mrakdan marmar-

ga toshgan suvlar bilan Esma Sultonning qoni aralashib ketdi. Barmog'im qat'iyat bilan onamni ko'rsatardi, u ham «Men qilmadim», deb hayqirardi... «Men qilmadim, mening ay-bim yo'q...» O'rnidan turayotganda ham shunday hayqirardi onam. O'ng-u so'li qizargan, yuzining o'ng tarafi chirigan edi. Undan keyin nima bo'lganini yaxshi eslolmayman. Baqirishlar, yugurishlar, uyga chaqirilgan tez yordam mashinasi ovozi. Esma Sulton uch kun shifoxonada yotdi. Keyin vafot etdi. Miyaga qon quyilishini boshdan kechiribdi. Hamma onamni, onam esa meni aybladi. Bu hikoya shunday qilib tugadi.

Jumboq yechildi. Taxminlarim deyarli to'g'ri chiqdi. Surayyo «Men qilmadim» deb baqirmasa edi, tinmay hayqirmasa edi, ehtimol, voqealar boshqacha tavsiflanardi. Ammo u qat'iyan men qilmadim deya baqirgach, buning ustiga Alyaning barmoqlari ham uni ko'rsatgach, ehtimol, hamma bu avvaldan rejalashtirilgan, deb o'ylagan. Men shunday deyapman, lekin Alya bunday demadi. Imkon qadar undan bir qadam oldinda bo'lish, u hali aytmadan ayrim narsalarni taxmin qilish va agar nimadir desam, voqeaga qandaydir izoh bersam, buni menga hammasini aytmay turib qilishni istayman. Bilaman, uni himoya qilishimni, qo'llashimni, unga achinishimni xohlamaydi. Og'zimdan chiqadigan har qanday yaxshi so'zni tasalli sifatida qabul qiladi.

Alyaning onasi, ya'ni Surayyo qizining barmog'i unga qaratilgach, nega «Men qilmadim» deb baqirdi ekan? Sabab nima bo'lmasin, bu narsa bir refleks sifatida namoyon bo'lgan. Balki, nega bunday deb baqirganini o'zi ham bilmas. Buni o'ylamadi, hisob-kitob qilmadi, birdan og'zidan chiqib ketdimikan. Biroq nega? Alyaning aytganlariga tayanadigan bo'lsak, o'sha kun bu ikki ayolning bir-biridan qattiq jahli chiqqan. Buni Esma Sulton har harakati bilan bildirib turgan. Surayyoga kelsak; ilk bora uning ham sabr kosasi to'lib toshgan ko'rinadi va ilk marta nazoratni yo'qotish arafasida bo'lgan. Agar ikkisi ham birdan yerga yiqilmaganda hammomda hammasi boshqacha bo'larmidi? Kim biladi, Surayyo g'azabini Esma

Sultonga qanday sochgan bo'lardi? Bugungi kungacha men- ga aytib berilgan Surayyo Esmal Sultonning qo'lini ushlash- ga, unga qarshi chiqishga urinadigan ayol emas. Menimcha, Esmal Sulton ham shuning uchun Surayyoga qo'l ko'tarishga bemalol jur'at qildi. Sochi taralayotganda bularni puxta reja qilgan. Ammo ishlar bu safar u o'ylagandek ketmagan.

Voqeani bu qadar tragedik ko'rinishga keltirgan nima o'zi? Esmal Sultonning yiqilib qonga belanishimi? Yo'q, bu emas. Alya onasini ayblagandek ko'rinishdan bezovta. Ona esa rost- dan ham Alyani ayblayotganga o'xshaydi. Alyani tushunish, u ham o'zini tushunishiga yordam berish uchun esa Surayyo- dan boshlashim kerak. U ayol o'sha kuni hammomda Esmal Sultonga nisbatan his qilgan g'azabni Alyaga yo'naltirganmi- kin-a? Uni ayblashining asl sababi shumi?

Biroz tezroq o'ylashim kerak. G'azab hissining naqadar vayronkor ekanini bilaman. Bu halokatli tuyg'u mazkur oilada ancha ildiz otgan, ruhiy xastaliklarning ko'pining o'zagida aso- san yaqinlarga nisbatan his etilgan mana shu halokatli tuyg'u yotadi.

– Bu hikoya sen aytgandek bu yerda tugamagan, Alya. Ho- zir birgalikda uni oxiriga yetkazaylik. Seningcha, onang nima uchun men qilmadim deb baqirdi?

– Chunki u qilmadi...

– Biroq baribir onang nega bunday deganini tushuna ol- mayapman.

– Balki, barmog'im bilan uni ko'rsatgach, o'zini himoya qi- lish uchun shunday qilgandir.

– Maqsading onangni ayblashmidi?

– Yo'q-yo'q, unday emasdi.

Yo'q, deb hayqirarkan, o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'i- ni bor kuchi bilan stolning burchagiga urishni boshlaydi. Yo Xudoyim! Sal qolsa sindiradi, barmog'ini parcha-parcha qila- di. Demak, bu barmoq shuning uchun qop-qora edi, shuning uchun hech tuzalmasdi. Demakki, o'ziga bo'lgan g'azabni bu bechora barmog'iga yo'naltirgan, alamini undan oladi. Shoshib o'rnimdan turdim va qo'lini mahkam ushlab oldim. Ich-ichidan

hayqiriqlarga bo'g'iladi... Uning bu safargi yig'lashlaridan juda ta'sirlanaman. Xuddiki yig'lamayapti-yu o'zini parchalayotgan-dek. Bu qanday iztirob bo'ldi, Xudoyim, bu kichik qiz bu xotiralar og'rig'iga shuncha yillar qanday dosh berdi?

– Men senga ishonaman, o'zing ham ishon.

Asta unga qarayman. Yuz ko'zlari nam, sochlari yanoqlariga yopishgan, burni oqqan, yosh bolalar kabi chorasiz yuzimga qaraydi. Biroz narida turgan qog'oz sochiqdan bir dasta olib yuzini artaman. Balki, ilk bora kimdir, bir ayol uning ko'z yoshlarini artmoqda.

– Jahli chiqdi. Onamning mendan jahli chiqdi. Uni ayblaganim uchun shunday qildi. O'sha kuni g'azabda edi. Ilk bora Esma Sultonga isyon qilgan, uning haddidan oshishiga ruxsat bermayotgandi. Ko'zlaridagi uchqunlardan buni tushungandim. Lekin taqdir izn bermadi va zafar boshlanmasdan tugadi.

– Avval Esma Sultondan jahli chiqmasmidi?

– Ichida jahl qilardi balki, lekin buni hech qachon sezdirmasdi. O'sha kuni, ehtimol, bundan ham yomon ishlar qilardi.

– Biroq u qilmasa ham yomon ishlar bo'ldi.

– U qilmadi, ammo baribir buvim o'ldi. Uning istagani bo'ldi.

– Onangning o'rnida bo'lganingda nimani his qilarding, Alya? Bu haqida hech o'ylab ko'rdingmi?

– «Oh» derdim... «Mana bo'ldi... Menga qilganlarining jazosini oldi», derdim. Undan qutulganimga sevinardim.

Bir inson boshqasidan bu qadar nafratlansa, ich-ichidan uni o'ldirishni istaydi. O'sha kuni, ehtimol, Surayyo chindan ham shunday qilishni xohladi, hatto qilmoqchi ham bo'ldi. Yoki buni faqat xohladi-yu, ammo amalga oshirish uchun sharoit bo'lmadi. G'azabini sochmoqchi bo'lgan odami birdan o'lgach, o'zini aybladi. Xuddi uni aniq o'zi o'ldirgandek his qildi. Jahlini to'siqlarsiz ko'rsata oladigan yagona inson qizi, ya'ni Alya. Xuddiki Alya uni Esma Sultonni o'ldirayotganiga guvoh bo'ldi. O'sha payt Surayyo taxminan shunday his qildi. Alya uni tutib oldi. Kamiga qizining barmog'i uni ko'rsatar ekan, vahimaga berildi va men qilmadim deb baqirdi.

Ayb ish qilayotganda qo'lga tushish insonlarga yomon ta'sir qiladi. O'sha paytda uni ko'rgan hammani yo'q qilishni xohlaydi. Bu faqat guvohni yo'q qilish istagi emas. Ichida juda ko'p tuyg'ular yashirin bo'ladi. Xuddi eng pinhon, eng chirkin, ko'rish taqiqlangan ichki hududlari ko'zga tashlanib qolgan-dek his qiladi o'zini va ularni ko'rgan ko'zlarni ko'r qilishni, yo'q qilishni istaydi. Qanday jazo olishlaridan ham muhimrog'i haqiqiy dushmanlari bo'lgan o'sha ko'zlardan nafratlanadi. Chunki endi aybdor bo'lgan o'ziga ham o'sha ko'zlar bilan boqadi, qaragan sari o'zini tuban his qiladi.

Gazetalarda o'qigan jinoyat xabarlarini xayolimiga keladi. Jinsiy muammolari bo'lgan kishilar ko'p jinoyat qiladi. Ana shu jinoyatlarga asl sabab insonning bu zaif, chirkin, achinarli va jirkanch tomonini boshqalar ko'rishi, boshqalar bilishi va qo'lga tushirishidir. Aslida, ular qutulishni istagan narsa bu insonning o'ziga qaragan, o'zini ayblagan, tubanlashgan ko'zlaridir. Faqat jinoyat kabi katta ayblar uchun emas, insonni ichki dunyosida ham bezovta qilgan har turli voqealarga bu qoida taalluqlidir. O'zi bilsa ham boshqasining bu sirga o'rtoq bo'lishi aybini orttiradi va o'sha kishilarning yo'q bo'lishi bilan birgalikda ayb ham yo'q bo'lgandek his qiladilar. Xuddi hech kim bilmasa o'sha gunoh ozayadigan, uni boshqa bezovta qilmaydigan, yuragiga tikan kabi qadalmaydigandek.

Yana Surayyo haqida o'ylayman. U ko'rishdan, bilishdan, his qilishdan bezovta bo'la boshlagan ba'zi narsalarni Alya ham ko'rganini xuddiki, gunoh ish qilayotgan paytda qo'lga tushgan kabi qabul qilgan. Juda yomon... Inson ruhi, asosan qora kunda borgan sari qoraygan tor, kichik labirintlarda aylanib yurarkan, o'ziga bir chiqish yo'li qidiradi. Surayyoning bu izlamlari doim ko'ngilsizlik bilan yakun topibdi va borsa kelmas yo'llarda o'zi ham g'oyib bo'libdi.

– Ammo u xursand bo'lmadi. Onam o'lgach, men ham xursand bo'lmagandim. Doim o'zimni ayblardim. U ham o'zini ayblagan demak! Hammasi o'zi xohlagandek bo'lgandan keyin ham o'zini aybladi.

- Sen ham barmog'ing bilan uni ko'rsatgach.
- Men barmog'im bilan unga ishora qilgach, ayb keskinlashdi. Qattiq azoblandi va...
- Va barcha g'azabining nishonida sen qolding. O'zini ayb ish ustida qo'lga tushgan odamdek his qildi. Keyinchalik seni ko'p aybladimi?
- Nimasini aytasiz... Barcha bo'lgan ishlarning sababkori sifatida meni ko'rdi.

Qatlga ketayotgan mahkumchalik umidsiz va chorasiz boqadi ko'zlari. Dunyoga ko'z ochgan kunidan e'tiboran hech sevilmaslik, qabul qilinmaslik, buning ustiga ayblanish qiyin. Nitshening o'sha mashhur so'zlari keladi xayolimga: «Qisimatimizni sevishimiz kerak». Ichimizda dunyo qadar iztirob bo'lsa ham qismatni sevishdan boshqa choramiz yo'q. Barcha azoblarimiz uchun Freyd bizga ota-onalarimizni, Marks esa jamiyatdagi ustki qatlamni ayblashimiz kerakligini aytadi. Hindistonning karma tushunchalariga ko'ra esa hayotimiz o'z ekanlarimizning mevasidir va o'zimizdan boshqa hech kimni ayblamasligimiz kerak.

Aslida, muammo kimni ayblashda ham emas, hayot bilan, muammolar va iztiroblar bilan qanday hammasini uddalay olishimizda. Endi qarshimdagi iztiroblar ichida to'lg'angan bu yosh qizga bularni tushuntirishim, uning hayotiga kichik bo'lsa ham mayoq tuta olishim lozim. Unga nima qilishimni ayta olmayman, ammo o'z yo'lini topishi uchun mayoq bera olaman.

Aydin kasal bo'lgan kunlar xayolimga keladi. «Aydinni yo'qotsam, bunga bardosh berib, yana ishimni sevolamanmi, boshqalarning dardiga darmon bo'la olamanmi, yana o'sha mashhur qahqahalar otish yuragimga sig'adimi?» deya so'rardim o'zimdan. «Yolg'izlik bilan hammasini uddalash, quyosh botarkan har doimgidek hayajonlanadigan, yalpizli tarhana sho'rvasining issiq harorati yuzimga urilgach, to'g'ri yoyilgan o'sha muhtasham ta'mni, jo'shqinlikni tuya olamanmi?» derdim.

«Tongda qayerda bo'lsam ham hidi atrofga yoyilgan qahvaning ortidan tushib, har ho'plashda chuqur bir «oh» torta olamanmi? «Kech qoldim» deb har ishdan chiqishda uyga yugurib keta olamanmi? O'z uyining eshigini bugungi kungacha hech qachon kalit bilan ochmagan ayol sifatida o'sha eshikni menga hayajon bilan ochgan insonni topa olmasam, nima his qilaman? Yag'murning tug'ilgan kunlarida yoshi bilan teng qirmizi atirgulni endi men yuboramanmi?» deb o'ylab yurardim. Inson iztirobga chidamli bo'ladi. Agar menga o'xshab yaxshi ko'rib bajaradigan ishi bo'lsa, azoblar bilan kurashish va yengish, balki mumkin bo'lar, ammo iztirob chekkan inson dardni yanada yaxshi anglaydi.

Shu paytda Alya sekin-asta boshini ko'taradi. Ko'zlari yig'idan qip-qizarib ketibdi. Yuzimga mahzun boqadi. Uzanib qo'llaridan tutaman. Tabassum bilan tikilaman unga.

– Qani, Alya, shu ishni bitiraylik. Hikoyaning oxirini ham eshitishni istayman.

Boshini qimirlatadi. U ham aytib berishni xohlaydi. Qo'lining ters tomoni bilan yuzini artgandan keyin yana gapirishda davom etadi:

– Buvimni tez yordamda shifoxonaga olib ketishgandan keyin hamma birdan baqirar, onamdan bu o'limning sababini so'rardi... Politsiya kelib onamni olib ketdi. Ketishdan oldin onam yuzimga shunday qaradi, sonimni shunday chimchiladiki, og'riqdan ko'zlarimdan yosh keldi, hamma meni bo'lgan voqea uchun yig'lagan deb o'ylardi. Kimga nima deyishimni bilmas, odamlarning yuziga g'alati qarardim. Aksiga olib uygagilar ham, politsiyachilar ham voqeaning yagona guvohi bo'lganim uchun meni savolga tutishardi. Oqshom politsiyachilar meni mahkamaga olib borishdi, u yerdan dadamga topshirishdi. Onam meni deb qamaldi.

– Seni deb emas. Sen uni ko'rsatmaganingda ham uydagilar onangni ayblardi. Dadang nima qildi?

– Dadam boshida nima qilishni bilmadi. Uch kun uyimizning erkaklari shifoxona eshigida kutishdi. «Esma Sulton

bundan ham o'zini qutqaradi», derdi kelinlar, lekin unday bo'lmadi. Uchinchi kecha o'ldi. Butun shahar bizning uyimizga oqib keldi. Hamma voqea haqida so'rar, kelinlar aytib bergandan keyin hammasi onamni ayblardi. Hamma onam Esma Sul-tonni ataylab itarib yuborganiga, ya'ni onam qasddan o'ldirganiga amin edi. Hatto dadamni ham bu ishga aralashtirganlar bo'ldi. «Ehtimol, bu rejani birgalikda amalga oshirishgandir», deyishdi. Chunki dadamning ham undan alamzada ekanini hamma bilardi. Dadamning barcha imkoniyatlarini qo'lidan olibdi. Yetti yil qamoqda yotishiga ko'z yumibdi. Bu yillar ichida bir marta bo'lsa ham uni ko'rgani bormabdi. Bu hammaning tilida edi. Dadam ehtimol, birinchi marta o'zi bilan birga rafiqasiga ham nohaqlik qilinganini sezdi. O'ylashimcha, dadam onamning qo'lidan bunday ish kelishiga hech ishonmadi. Amakilarim chindan xafa bo'lishgandir, ammo yangalarim o'zlarini xafadek qilib ko'rsatishsa-da. Esma Sul-tondan qutulganlari uchun boshlari ko'kka yetdi. Ular qutulishni xohlagan yana boshqalar bor edi. Na dadamni, na meni, na onamni ko'rishni xohlashmasdi. Hammasi ular kutgandek, bir onda hammamizdan qutulish imkoniyati paydo bo'lgandi. Dadam onamni ko'rgani ketsa ham jahl qilishardi. Uning bu uyda yashashini xohlamasliklarini ochiq aytishardi.

– Senga qanday munosabatda bo'lishardi?

– Ehtimol, birinchi marta ikki yangam o'sha paytlar men-ga yaqin va yaxshi munosabatda bo'lishgandir... «Essiz... onasi ham qamoqda» deyishardi. Aslida, ikkisining ham og'zi qulog'i-da, ichiga sig'masdi. Meni rag'batlantirib turishardi. Chunki bo'lgan ishlarda mening ham hissam bordek tuyulardi ularga. Biroz muddat o'tgach, onamni qo'yib yuborishdi va sud davom etdi. Biz o'sha paytda Anqaraga keldik. Mana shu uyga ko'chib o'tdik. Bir yomon tush tugadi. Boshqasi boshlandi.

– Boshingdan o'tganlar oson emas, lekin hayot shunday. Ba'zan insonning boshiga xayoliga ham kelmagan ishlar tushadi. Buning ustiga o'sha paytlar juda kichik bo'lgansan. Bu-larning barini qanday yengding?

– Yengdim desam bo'lmas. O'zimni bilib-bilmay yashashdan, men bo'lishdan nafratlandim. Nafrat bu tuyg'uni ifodalash uchun kamlik qiladi. O'zimdan jirkandim. Chunki onam mendan ochiqchasiga jirkanardi. Dadam bo'lsa g'irt piyonista. Har oqshom ichardi. Lekin bugun bor ekanman, yashayotgan ekanman, demak, o'sha insondan qarzdorman. Chunki onamga qolsa meni allaqachon o'ldirardi.

– O'ldirarmidi?

Bu so'z ichimni titratib yubordi. «O'lasi qilib kaltaklardi» degan edi, lekin uni ochiqchasiga o'ldirmoqchi bo'lganini endi aytyapti. Dunyoga kelgan onimizdan boshlab, bizga eng yaqin inson onamizdir. Bizni u parvarishlaydi, qo'llaydi, ovqatlantiradi, katta qiladi, bag'riga bosadi, sevadi. Alyaning onasi esa uni o'ldirishni xohlagan.

– O'ldirardi. Shunday kaltaklardi va menga shunday qarardiki. Uning nigohlaridan juda qo'rqardim. O'shanda «Ona, meni o'ldirasizmi?» deb so'rardim. Dadamdan qo'rqmasa allaqachon o'lardi. Lekin dadamdan qo'rqardi.

– Alya!

– Eshitaman!

– Oying rostdan ham seni o'ldirmoqchi bo'ldimi?

– Bir necha marotaba. Lekin dadam buni bilib qoldi. Xuddi u meni kaltaklagandek dadam ham kechqurun uyga kelib uni savalardi. Ba'zan yo'ldan o'tayotganlar bu ovozlarni eshitar-di. Va yonimizdagi politsiyaga xabar berishardi. Politsiya ham bir necha marta eshik oldiga keldi.

– Onang baqirdimi?

– Hamma baqirdi. Onam meni savalab, mening o'rnimga o'zi baqirardi.

– Sen baqirmasmiding?

– Qo'rquvdan baqira olmasdim ham. Oqshom onam yegan tayoqlar zarbidan... bu safar ikkisi ham baqirardi.

– Ana shunday paytlarda sen nima qilarding?

– Oyoqostidan yo'q bo'lardim. Lekin kimdir o'lib qoladi deb o'ylab qo'rqqanimdan eshik tirqishidan voqealarni kuza-tib turardim.

– Onang ham dadangga qo'l ko'tararmidi?

– Bo'lmasam-chi. Ammo dadam juda kuchli, quvvatli odam edi. Kuchi yetmasdi unga. Ayniqsa, dadam onam meni ko'p kaltaklashini bilganidan keyin achinish hissini yo'qotdi. Xuddi onam kabi... Qayerda bo'lsa kaltaklardi. Necha marta onamning boshi yorildi. Qo'li sindi.

– Shunchalikmi?

– Bir marta oyimning qo'li oylab gipsda qoldi. O'sha paytlar ham meni oyoqlari bilan tepkilashga urinardi. Lekin men qochardim. Qo'lidagi gipsni olishmasin deb duo qilardim.

Gapining shu yeriga kelganda to'xtaydi va ko'zlarining ostidan, iymanib yuzimga qaraydi.

– Sizningcha, yomon qizmanmi?

– Nega yomon bo'lar ekansan? Barcha bo'lgan ishlardan keyin o'ylab qarasam juda yaxshi qiz ekansan!

Eshitganlariga ishonishni istaydi, ammo ishonmagandek mahzun, g'amnok boqadi yuzimga.

– Demak, birgina aybing onangni barmog'ing bilan ko'rsatish?

– Bu kammi? Shuni deb oylab qamoqda yotdi.

– Politsiya so'roq qilganda nima deding?

– Ko'rganlarimni aytdim.

– Rostini aytding.

– Ha, lekin uydagi boshqalar politsiyaga voqeani boshqacha tasvirladi. Men barchasini ko'rganimni. Esm Sultonning «qarg'a» deb baqirganini, onamning bundan jahli chiqib unga qo'l ko'targanini, itarib yuborganini... Men ham ilk daqiqalarda barmog'im bilan onamni ko'rsatib voqeani tuzatganimni aytishdi. Men politsiyaga hammasini ro'yirost aytdim, ammo xuddi onamdan qo'rqqanim uchun voqealarni buzib aytgan deb hisobladilar. Qismat ekan. Onam hayotda eng ko'p qadrlagan inson Esm Sulton edi, ammo o'limi onamning qo'lidan bo'ldi. Hech bo'lmaganda odamlar shunday o'ylashdi. Dadam chindan ham qotil edi, ammo oxiri onamga ham bu maqom tegdi. Ya'ni mening onam ham, otam ham qotil. Onam buni umuman qabul qila olmadi. Yillar bo'yi qul kabi ortidan yu-

gurib yurgan insonining qotili sifatida atalish qiyin bo'lsa kerak. Bo'lgan barcha ishlarda mening ham hissam, rolim, istamagan bo'lsam-da aybim bormi, hozir buni bilmayman. Xayollarimni to'zg'itib yubordingiz. Onam meni ayblagach, men ham o'zimni aybdor deb bilardim. Aslida, aybim o'lmasdan tirik qolganim edi. Ehtimol, onam eng ko'p mana shu uchun g'azabini sochardi menga. Men ham oddiy bir oilada tug'ilganimda edi, onam, otam qotil bo'lmaganda edi, meni yaxshi ko'rishganda edi, bu dunyo qanday bo'lardi, judayam qiziq? Balki, o'shanda men ham ularni yaxshi ko'rgan bo'larmidim? Bolalar ota-onalarini juda yaxshi ko'rishadi. Buni maktabda bilgandim. O'shanda juda hayron qolgandim bunga. Men onamni bir daqiqagina yaxshi ko'rdim. O'sha kuni hammomda ko'zlaridan uchqunlar chiqqanda shunday bo'ldi. O'sha kuni boshqa ayol edi mening onam. Issiqdan yanoqlari qizargan, yanada go'zallashib ketgandi. Ilk marotaba undan hayratlangandim. «Mana shu ayol mening onam», degandim. Boshi tik, mag'rur, kuchli ayol edi u. Juda qisqa vaqt davom etdi bu, keyin yana avvalgi onamga aylandi-qo'ydi.

Qanchalar insoniy bir tuyg'u! Bolaligimizda hammamiz ortimizda turadigan kuchli ota-onalarga ega bo'lishni istaymiz.

– Seni tinglab o'tirib, psixiatriya otasi Zigmund Freyd xayolimga keldi. Uning dadasi bilan bog'liq shunday bir voqea bor edi. Freyd o'ziga ishongan odam edi. Dadasi bilan bog'liq ham unuta olmagan, ham kechira olmagan bir voqea sodir bo'lgan. Freyd bolaligida otasi bir kuni yo'lakda ketayotgan ekan. Uni ko'rgan bir nemis erkakning boshidagi shlyapani tushirib yuborib, «Yahudiy, yo'lakdan tush!» deb baqiribdi. O'sha paytda yahudiylarga, hatto yo'lakda yurishga ham ruxsat berilmagan, chunki ularga quyi irq vakillari sifatida qaralgan. Bu so'zlarni eshitgan Freydning otasi yo'lakdan tushib, shlyapasini olibdi va hech narsa demasdan u yerdan uzoqlashibdi. Freyd bu voqea haqida otasidan eshitgan va

o'sha paytda juda hafsalasi pir bo'lgan. Uning o'ziga bo'lgan ishonchi qattiq jarohat olgan va u otasining bu harakatini umr bo'yi kechira olmagan. Buyuk Freyd shunday kichik bir voqeadan qattiq ta'sirlangani haqida juda ko'p yozadi. Buning ustiga, u voqeani o'z ko'zlari bilan ko'rmagan, faqat eshitgan.

– Bu haqida bilmagandim. Demak, otasi nemislarga bo'y-sungani uchun Freyd qattiq zarba olgan!

– Shunday bo'libdi. Lekin ko'rib turganingdek, bunday hodisa, hatto Freydga ham ta'sir qilishi mumkin, ammo shu bilan birga u butun dunyo bo'ylab yangi ilm-fan yaratuvchisi bo'lishni ham uddalagan. Bir kun kelib sening yaralaring ham bitadi. Kim biladi, hali bu zakovating bilan qanday ishlar qilarkinsan?!

– Bunga rostdan ham ishonasizmi?

– Men ishonaman, endi faqat seni ishontirish qoldi, xolos.

Ko'zlarini katta-katta qilib ochadi, hayajon bilan ko'zlarimga tikiladi. Bu nigohlarda umid bor, anchadan beri ko'zlarida men qidirgan, ammo topa olmagan umid.

– Qahva uchun rahmat, juda yaxshi tayyorlabsan.

– Yo'q, unday deb meni xijolat qilmang.

– Rostini aytyapman. Menga har qanday qahva ham yoqavermaydi. Sen agar xohlasang, hamma narsani eng yaxshi shaklda bajara olasan. Senga ishonib adashmayapman. Boshingdan juda qiyin kunlar o'tibdi, Alya. Buning ustiga juda yosh bo'lgan paytlaringda... Endi o'zingni ayblama. Taqdirni hech kim bilmaydi. O'tmishda seni ranjitgan taqdir kelajakda kulib boqishi ham mumkin. Sen ham unga yelka tut. Men yoningdaman. Birgalikda yaxshi ishlar qila oladiganga o'xshaymiz.

– Haligacha oq-qorani ajrata olmayman. Ammo sizning bu so'zlaringizdan keyin ichimda uchqunlar paydo bo'ldi.

– Hayot senga qoralarni qanday tanitgan bo'lsa, kun kelib oqlarni ham o'zi o'rgatadi. Eh, endi men ketaqolay. Sen

ham o'zingga kelib ol. Bundan keyin seni yana ham yaxshi ko'rinishda ko'rishni istayman.

– Xudo xohlasa, bu yergacha keldingiz. Chang-g'ubor ichida o'tirdingiz. Hammasini men uchun qilyapsiz. Sizga qanday rahmat aytishni ham bilmayman...

Birgalikda o'rnimizdan turamiz. Meni eshikkacha kuzatib qo'yadi, hatto mashinaning eshiklarini ham o'zi ochadi. Yo'l bo'yi xayolim Alya va uyida qoladi. Juda iztirobli va o'ta ta'sirli film tomosha qilgandan keyin kinoteatrdan chiqqan odamlarga o'xshayman. Ichimda mahzunlik, xayolim esa ko'rgan filmimda qoldi. Shunday uyda, yolg'iz, yosh bir qiz qanday yasharkin?

Hanuz ota-onasi qanday vafot etgani haqida gapirmadi. U yerda ham tragediya bo'lmagan deb umid qilaman. Endi klinikaga borishni istamay qoldim. Hozir to'g'ri uyga boraman. Issiq, toza va huzurli uyimga...



Shu kunlarda ishga biroz tanaffus e'lon qildik, Tuna bilan qo'lni qo'lga bergancha, Alya bilan bandmiz, chunki u taklifimni qabul qilib, boshqa uyga ko'chadigan bo'ldi. Klini-kadagi do'stlarimga aytdim, ko'chmas mulk agentligi xodimlari bilan gaplashishdi. Hamma bir yoqadan bosh chiqarib, Alyaga munosib uy izlayapti. Bundan tashqari, boshqa mavzularda ham Tunadan yordam so'rayotgan ekan. Bugungi kungacha hech go'zallik saloniga bormagani uchun Tunaning u bilan birga borishini xohlabdi. U ham taklifni mamnuniyat bilan qabul qilibdi. Bu xabarni eshitiboq sartaroshim Ismoilga qo'ng'iroq qilib, Alya bilan shug'ullanishini iltimos qildim. Keyin Tuna bilan birga ketishdi. Tuna ertalab bu haqida to'lib-toshib gapirdi, ammo o'zini ko'rmaganim uchun bu mavzuda taxmin qilishni istamayapman.

Men ham biroz hayajondaman. Uyda aytib berganlari meni juda ta'sirlantirdi. O'ylaymanki, qolganini ham bugun aytib beradi. Yana iztirob, yana mahzunlik kezadi xonamda. Eshik ohista ochiladi va Alya uyalgannamo ichkariga kiradi. Unga diqqat bilan qarayman. Sochlarini kalta qilib kestiribdi. Boshidagi egri-bukri qavariqlar butunlay yo'qolibdi. Sochining ba'zi joyi taralgan, ba'zi joyi taralmagani uchun boshi yassi to'pga o'xshab turardi. Sochining rangi ham o'zgarganmi? Ajabo! So'lg'in jigarrang edi, endi qahva rangida bo'libdi. Bir nechta soch tolasi peshonasiga tushib turibdi, qolganlari qu-loqlarining orqasiga o'tgan. Aynan yosh qizning sochi, ammo yana boshqa bir o'zgarish ham bor. Faqatgina soch bilan in-son bunchalik o'zgarib ketmaydi. Nima ekan, deb qayta-qayta

qaradim va qoshlari ham ingichkalashganini sezdim. Ismoilga tasanno. U bilan jiddiy shug'ullangan ko'rinadi. Avvalgi qoshlari o'rmon edi.

– Xush kelibsan, Alya. Juda ochilib ketibsan.

– Iltimos, meni xijolat qilmang.

– Bunda xijolat bo'ladigan narsa yo'q. Soddagina qilishibdi sochlaringni va senga juda yarashibdi. Ismoil bilan yaxshi kelisha oldingizmi? U ham senga o'xshagan biroz o'zgacha odam. Didiga to'g'ri kelmagan narsani qildiray olmasan.

– Ha, kelishib ketdik... Ishining ustasi ekan.

– Bundan keyin haftada kamida bir marta uning yoniga borib turishing kerak, kelishdikmi?

– Kelishdik.

– Kecha hikoya yarim qoldi. Bugun kelgan joyidan davom etsak nima deysan?

– Yana men gapiramanmi?

– Albatta, sen gapirasan.

– Lekin menga hikoya aytib berishga so'z bergandingiz.

– Shunday. So'z bergadim va so'zimda turaman, lekin avval sen boshla.

– Aksincha qilsak-chi? Ya'ni avval siz boshlaysiz, keyin esa men.

– Alya lekin vaqtimiz oz qoldi. Men yozgi uyga ketishim kerak. Tezroq harakat qilishimiz lozim.

– Mayli... Iltimos birinchi siz boshlang. Birdan bo'lmaydi. Xohlasam ham aytib bera olmayman.

– Mayli, bugun nima aytib berishimni istaysan?

– O'zingiz bilasiz.

Hozir uni taniyman, kim ekanini bilaman. Menga avvalgidek begona va notanish emas. Bu vaziyat oramizdagi munosabatga yaxshi ta'sir qiladi. Menga begona bo'lmagan, kamida bolaligida nimalar boshidan o'tganini bilganim bu qiz avvalgidek achinarli ko'rinmaydi menga. O'ylaymanki, xuddi shu narsa uning uchun ham taalluqli, chunki qo'limni siqmagan bo'lsa ham bu farqni his qilaman. Aslida, bir tomondan aytib

berishni juda istayapti, ammo boshqa tomondan hikoya qilarkan, jonlangan xotiralar ostida ezilmoqda. Yuragi bardosh berolmaydi. U o'ziga kelib olishi uchun biroz vaqt kerak. Qisqa, sof, shaxsiy bo'lmagan, ijtimoiy mavzulardan gapira qolay. Ehtimol, shu bilan xonadagi og'ir havo ham tarqalib ketar.

– Uyning bog'iga qaramagan ko'rinasan, lekin menga yuborgan gullaring juda chiroyli edi. O'sha paytlar menga eng ko'p lola yuborarding. Lolalarni yaxshi ko'rasanmi?

– Ha... bo'yinlarini bukishlari menga juda o'xshaydi.

– Demak, o'zingni lolaga o'xshatasan. Unda senga lolalar haqida hikoya aytib beray va lolaning bir paytlar qanchalar muhim bo'lganini ko'r.

Biroz oldin qoraygan ranglari biroz ochilgandek, go'yo. Nigohida kichik uchqunlar porlay boshlaydi. Ko'zlarini menga tikib, hayajon bilan aytib beradigan hikoyamni kutadi.

– Lola bir paytlar Gollandiyaning ijtimoiy va iqtisodiy tizimini qanday qilib yer bilan yakson qilgani haqida hikoya aytib beraman. Lola, ya'ni ularning tilida «tulip» turkcha so'zdir va bir tur «salla» ma'nosini beradi. Lola Yevropaga birinchi marta XVI asrda Istanbuldan olib kelingan. Rangi va shakli yevropaliklarga juda qiziq tuyulgan bu gul, asosan, Germaniya va Gollandiyada katta qiziqish uyg'otdi. Ayniqsa, Gollandiyada badavlat bir odamning lola kolleksiyasi bo'lmasligi yoki uning yaxshi yetishtirilmagani uning yuqori sinf vakili nomiga noloyiq ekanini bildirardi. O'rta sinf vakili, yuqori sinf bo'lgan boylar tabaqasiga kirish uchun lolalardan foydalanardi. 1634-yillarda mayda hunarmandlar ko'p lola sotib olish orqali ijtimoiy mavqega ega bo'lishga urinardi. Shunday qilib, bor boyligining yarmini berib, bir lola kolleksiyasiga ega bo'lish va shu tarzda maxsus guruhlariga a'zo bo'lish o'rta sinf vakillari orasida keng tarqaldi. Avvaliga shunchaki zararsiz bir vasvasadek ko'ringan «lola epidemiyasi» vaqt o'tib jiddiy bir tahdid ko'rinishiga kela boshladi. Oltin va kumush o'rniga lola olish ancha ishonchli boylik mezoni bo'ldi. Vaziyat shunchalikka bordiki, insonlar hamma narsalarini lola uchun sarf

qilishmasa, o'zlarini xavfsiz his etmay qo'ydilar. Oxiri, mam-lakat iqtisodiyoti bu epidemiyaga boshqa bardosh bera ol-may cho'kish nuqtasiga kelib qoldi. Juda faqir insonlar ham boy bo'lish orzusida bor-budlarini mana shu bema'ni kasal-likka tikib yubordi. Kimdir yashayotgan uyini, yana kimdir yeri yoki hayvonlarini sotib, qo'liga tushgan pulga lola olar-di. Hatto 1653-yilda bir inson yuz ming florinlik boyligiga atigi 40 dona lola sotib oldi. Narxlar o'zining cho'qqisiga chiqqanda bu «epidemiya»ning oxirigacha davom etmasli-gini bilgan professional birjachilar qo'llaridagi lolalardan foydalanishga qaror qildilar va shunday qilib, narxlar biroz pastladi. Haddan tashqari ko'p lolaga ega bo'lgan gollandi-yaliklar bankrot bo'ldi va lola bozori qulashi bilan ijtimoiy tartibsizliklar boshlandi. 1634–1636-yillar davomida bo'lib o'tgan bu jamoaviy harakat Gollandiyaga juda qimmatga tushdi. O'lkaning tijorat hajmi kamaydi, qishloq xo'jaligi va sanoat orqaga ketdi va Gollandiya uzoq yillar bu yo'qotish-lar o'rnini to'ldira olmadi.

– Bu odamlar qanchalar ahmoq bo'lmasa! Boy bo'lish yoki boydek ko'rinish ular uchun juda muhim ekan-da, demak.

– Insoniyat tarixida doimo shunday bo'lgan. Mavqe, ya'ni jamiyat ko'z o'ngida qanday inson ekaning odamlar ko'z o'n-gida qandayligingdan muhimroq.

– Aql har doim ham ish beravermas ekan, demak... Odam-lar ahmoqona narsalar uchun birgalikda telbaliklar qilishadi. Qaniydi, men ham ularning o'rnida bo'lsaydim.

– Nega, Alya? Nega unday bo'lishini istayapsan?

– Nima bo'lganda ham birgalikda qilingan ahmoqlik bu. Nima qilsalar ham birga qiladilar. Och qolsalar ham, o'limga tayyor bo'lsalar ham birgalar. Yolg'iz qilingan ahmoqlik me-nimcha, eng yomoni!

Bir kishilik telbalik! Aynan shuni aytyapti.

– Nima demoqchi ekaningni tushundim, lekin jamoaviy tel-balikning juda salbiy bir tomoni ham bor. Hamma ahmoq bo'l-gani uchun ularni ogohlantiradigan, yordam beradigan odam

bo'lmaydi. Bir kishilik telbalikda esa inson sen o'ylaganchalik yolg'iz emas. Unga yordam berishni istaydiganlar topiladi.

– Ammo yordam bergandan keyin uni qabul qilish ham muhim, gaplashishni, tushuntirishni bilmasa nima qilasiz?

– Qabul qiladigan kunigacha sabr bilan kutaman, unga bir-biridan go'zal hikoyalar aytib beraman. Kecha boshingdan o'tganlarni juda chiroyli hikoya qilib berding, mahzun bir ertak kabi.

– Ammo bugun o'tgan haftadagi namoyishimni qaytarib bera olmayman deb o'ylayman. Bu haftani juda og'ir o'tkazdim. Sizga aytib berganlarim ko'z oldimdan ketmayapti.

– Buni bilaman, lekin hayotda nima oson? Mana o'zgar-yapsan. Hozir sen uchun o'zgarish o'sish degani. Sen uchun hamma joydan uy izlayapmiz. Kichik, sevimli, hamma joyga yaqin va xavfsiz uy bo'lishi kerak. Hozir yashayotgan uyingni ham biroz yig'ishtirish lozim. Bu ishlarni qiladigan odamlarni topamiz. Keyin ichini bo'shatib, ijaraga beramiz.

– Ichidagi hamma narsani tashlab yuboramizmi?

– Sen tashlab yuborishni istamagan narsalaringni olasan, u uydan nimalarni olishni istaysan?

– Avval kitoblarimni, keyin esa kiyimlarni!

– Shu kiyib olganlaringnimi?

– Ha, ularni olishim kerak.

– Keyin nima qilasan?

– Kiyaman.

– Nega? Nima uchun qaysarlik qilyapsan, Alya?

– Sizningcha, ularni kiymasam, jahannamda yonmaymanmi?

– Nega yonar ekansan? O'zingni gunohkor odamdek his qilyapsanmi?

– Sizningcha, unday emasmi?

– Unday emas. Hattoki shunchalik ko'p iztirob chekkansan-ki, endi biror gunoh qilsang ham badali oldindan to'langan.

– Meni hali yaxshi bilmaysiz.

– Ha, bilmaganlarim bor. Lekin seni butunlay bilmayman ham deya olmayman. Sen haqingda ancha ko'p narsani bilaman.

– Men haqimda yaxshi gaplar gapirishdan, yaxshi o'ylashdan qachon voz kechasiz?

Qanchalar qiziq, qanchalar ochiq savol bu. Qiz o'zidan shunchalik jirkanib, hattoki nafratlanadiki, u bilan bog'liq yaxshi narsa aytilishi ham uni bezovta qiladi. Chunki yomon ekaniga shunchalar aminki, yaxshi narsalarni yolg'on kabi qabul qiladi.

– Sen haqingda qanday o'ylash haqida o'zim qaror qabul qilaman. Sen haqingda na yaxshi deyman, na yomon. Begunoh ekaningga oxirigacha ishonaman. Ishongan haqiqatlarimni gapirishdan voz kechmayman.

Bir onda ko'zlariga yana qo'rquv soya soladi. Yana ichim titraydi. Bu qizning doktori bo'lish shunchalar qiyin, shunday toliqtirib qo'yadiki! U uchun qanchalar xafa ekanimni anglash bir tomon, uni himoya qilganim uchun ham menga jahl qilyapti. Istagancha jahl qilaversin, uni o'z yomonliklaridan ham himoya qilishda davom etaman.

Yana ko'zlari to'ladi. Nigohlarini menga tikadi, qimirlamasdan, ovoz ham chiqarmasdan ko'z yosh to'kadi. O'tgan kun uyida yig'lashlari ham o'zgargandi, hamma kabi baqirar, ichidan ko'z yosh to'kardi. Demak, qo'rqib ketsa shunday yig'laydi. Bezovtaligim borgan sari ortib boradi. Hozir unga yaxshi munosabatda bo'lsam, buni yoqtirmaydi, kim biladi boshida yana qanday izohlar keltiradi?

«Uf» deyman ichimda, «yana hislarimni namoyon qilmaslik, yana tosh kabi turish mening gardanimda». Ko'zlariga qarab turib, bunday qilish shunchalar qiyinki... Chuqur nafas olib, yengilgina yo'talib, his qilganlarim ovozimda bilinib qolmasligi uchun boshqacha ton bilan savol beraman:

– Senga past nazar bilan qarashlariga o'rganib qolibsan. Shuning uchun o'sha ko'ylaklardan voz kecha olmayapsan. Qancha xohlasang ham men seni yerga urish u yoqda tursin, hayratlana boshladim. Seni tanigan sari buni to'g'ri qilganimni anglayapman. Umid qilamanki, o'zing ham yaqinda buni ko'rasan.

Nima demoqchi ekanimni to'liq tushunmagandek ko'zlarimga qaraydi. Keyin asta-sekin nigohlaridagi hayrat o'rnini iztirobga, mahzunlikka bo'shatib beradi. Bu qizning dilini og'ritishni istamayman, chunki u bilan birga mening ham ko'nglim og'riydi. Ko'zlaridan to'kiladigan dona yoshlar yonoqlariga to'g'ri dumalab tushishda davom etadi. Bu sahnani tomosha qilib o'tirishga ortiq bardoshim yetmaydi.

– Qanday yig'layapsan-a, Alya? Hozir meni ham yig'lata-san. Hayqir, baqir, ichingni bo'shat. Tutib turma... Qo'y, chiqib ketsin.

– Jahlingiz chiqmaydimi?

– Nega?

– Agar shunday qilsam.

– O'tgan kun bemalol yig'lading, jahl qildimmi?

– Lekin onamning jahli chiqardi.

– Ha, shunday bo'lganini bilaman, tushundim. Ammo men sening onang emasman. Bu yerda qanday istasang, shunday yig'lashing mumkin.

– Shunchalar unsiz yig'lardimki. Onam umuman bilmasdi ko'z yosh to'kkanimni.

– Juda ko'p iztirob chekibsan, Alya... Lekin nega bulardan qutulishni istamayapsan?

– Nimadan?

– Suyukli onangning aytganlarini qilishdan voz kechmayapsan.

– U mening suyukli onam emas.

– Shunday bo'lsa, nega uni haliyam mozorida tinch yotishiga qo'ymayapsan?

– Mening o'rnimga jahannamda u yonishini xohlayapman.

Bu so'zlar og'zidan chiqishi bilan xuddi bularni u aytmagandek birdan boshqasidan eshitgandek cho'chib ketadi. Yuzi qizarib, qo'llari bilan og'zini berkitadi va hadik bilan qaraydi menga. Ko'zlari yana yoshli! Ichidagi zahar oqdi. Gunoh mana shu yerda. Onasiga nisbatan his qilgan nafrati xuddi miltiqdan uzilgan o'qdek onasiga tegib, butun tezligi bilan qaytib

keladi va uning o'zini jarohatlaydi. O'sha ayolga nisbatan ichidagi nafrat bir daqiqada o'zini yashiradi, undan nafratlangani uchun ham o'zini ayblaydi va bu kechinma Alyani yer bilan yakson qiladi. Haqiqiy muammo mana shunda! Shu sababli tinmay o'zini aybdor, gunohkor va jahannamda yonishga loyiq inson sifatida ko'radi. Shuning uchun o'ziga yaxshi gap aytishlaridan ham bezovta bo'ladi. Shu sababli unga yaxshi munosabatda bo'lganlarga ishonmaydi va doim yomonlarning ortidan ergashadi.

Ongiga singib ketgan bu tushunchalarni nima bilan yuv-sam ham ketishi qiyin bo'lishi aniq. Bu hislar, aslida, uning kelajakdagi qismatini yozadi. O'zini yaxshi narsalarga munosib deb bilmagandan keyin doim yomonlikning, jazoning ketidan quvadi. Keyin esa qismatiga la'natlar aytib bu dunyodan ketadi. Qiziq, bu qismatni men o'zgartira olarmikinman? Bu uchun ko'p harakat qilishim kerakligi aniq. Ko'ramiz, qismat g'olib kelarmikin yoki men? Shu daqiqada biroz qattiqqo'l bo'lishim kerak. Bugungacha umuman bunday qilmadim. Gapirmadi, majburlamadim. Uning o'rniga o'zim gapirdim, men hikoya qildim, endi esa o'zi bilan bog'liq ba'zi haqiqatlarni ko'rishi kerak. Achinish, marhamat, sokinlik yo'q. Nashtarni yaraning aynan ustiga urish vaqti keldi.

- Yomonsan, aslida, juda yomonsan shundaymi, Alya?
- Nihoyat, oxiri yomon ekanimni anglab yetdingizmi?
- Buni boshidan beri bilardim.
- Qanday bildingiz?
- Qanday bo'lardi? Birinchi kun qilgan qiliqlaring esingdan chiqdimi?
- Yomon odamlar shunday qiladimi?
- O'zini hurmat qilmagan, o'zini yomon deb e'lon qilgan inson shunday qiladi. Sen o'z hukmingni o'qib bo'lgansan. Yomonsan. Bu hukmni men tugul oliy sud ham buza olmaydi. Eh, nimayam qilardik, modomiki, shunday bo'lishni istar ekansan, yomon bo'laver...

Yuzimga kin, g'azab bilan qaraydi. Ko'zlaridagi oxirgi umid nishonalari ham so'nib borarkan, ularning o'rnini g'a-

zab uchqunlari egallaydi. Men esa hamma ishlarimni tugatib, narsalarimni yig'ishtirib, uyimga ketayotgandek yonimdagi narsalarni yig'ishtiraman. Ya'ni uni endi men ham tashlab ketyapman. Yuzimga ishonqiramagan nigoh bilan qaraydi. Keyin bir qichqiriqni eshitaman. Uning vayronkor, baland, insonning yuragini o'rta yuboradigan ovozi xonani tutadi.

– Men o'zimdanda boshqa kimga yomonlik qilibman? Siz ham meni ayblayapsizmi?

Bu so'zlarni qanday qilib duduqlanmasdan, to'xtamasdan, qoqilmasdan aytyapti? Bu yig'loqi sahna oldida menda ters munosabat paydo bo'ldi. Kulgim keladi. Bunisini unga ko'rsatmaganim ma'qul. Nihoyatda jiddiy va barqaror ovozda unga javob beraman:

– Uyg'on endi, Alya, uyg'on. Ko'zlaringni och!

Shunchalik ko'p baqirdimki, o'zimni ovozimdan o'zim ham cho'chib ketdim. Nima demoqchi bo'lganimni tushunmasdan ko'zlarini qisgancha yuzimga tikiladi. Qo'rqdi. Birinchi kuni bu xonada nimalar bo'lgani esimga tushadi. O'sha kuni ham Alyaga shunday baqirgandim. Unda «Tur o'rningdan», deb baqirgan edim. Hozir ham shunga o'xshash narsa dedim. «Tur o'rningdan» o'rniga «Uyg'on» deyapman unga, «Uyg'on endi!»

Unga uyg'on der ekanman, ko'zlarini yummay turadi. Xuddi ko'zlarini oz bo'lsa-da yumsa, unga jahl qiladigandekman, bir tomondan tezda ko'zlarini pirpiratadi, yana boshqa tomondan ko'zlarini oxirigacha ochib turishga harakat qiladi. Bu qiz buyruq olishga va nima bo'lsa ham o'sha buyruqni bajo keltirishga o'rganib qolgan.

– Men ham seni ayblayman. Sen huquqshunossan. Aybsiz bir odamni ayblash ham jinoyat emasmi?

– Jinoyat.

Ovozi bolanikidek zaif va siniq... Qo'rqyapti.

– Ana shuning uchun ayblayapman seni. Aybsiz odamni ayblab jinoyat qilyapsan. O'zingga nisbatan jinoyat qilyapsan.

– O'zimga nisbatan?

– Ha, o'zingga nisbatan! Menga ko'p narsalarni aytib berding. Men ham seni diqqat bilan tingladim. O'sha bolani bundan keyin ayblashingga yo'l qo'ymayman. Men o'sha bola endi yaxshi yashashini, boshidan kechirgan yomon kunlarni unutishini istayman. Uni himoya qilishni, sevishni, dunyoda go'zalliklar ham borligini ko'rsatishni istayman. O'sha jahannamdan uni tezroq chiqarishni, yap-yangi yo'lda zavq bilan, baxtiyor, zafardan zafarga yugurib yurganini ko'rishni xohlayman. Senga o'xshab, «Hamma uni ayblaydi, men ham ayblay qolay», deylmayman.

– O'zim ham uni ayblayapmanmi?

– Ha, sen aynan shunday qilyapsan. O'zing ham ayblayapsan. O'zingga tashqaridan dushman qidirib o'tirma. O'zing turganda boshqasiga nima hojat?

– Dushman!

– Ha, dushman. O'ylab ko'rsam, kimdir jahannamda yonishi kerak bo'lsa o'sha odam sen emassan. Shu ustingdan tushib ketay deb turgan, vayron, eski kiyimlarni kiysang ham, kiymasang ham sen u emassan. Ehtimol, sening ham mayda-chuyda ayblaring, gunohlaring bordir, ammo ular kimda yo'q. Buning ustiga sen jinoyat qilgan odamlar bilan shug'ullanasan. Jinoyat hamma narsadan avval bir harakatdir. Bir insonga qattiq jahl qilib uni o'ldirishni xohlash jinoyat emas, ammo bu harakatga aylangach, uni o'ldirish eng katta jinoyatdir. Kim biladi, necha million odamning ichidan boshqalarni o'ldirish xayoli o'tarkin? Miyamiz, ehtimol, badanimizning eng qiziq, inkor qiluvchi va sirli a'zosidir. Mukammal yaratilgan bir a'zo! Mening ishim esa o'sha sirni ochish. Sening miyang ham orada sen bilan kichik o'yinlar o'ynabdi. Majbur bo'lmaganda bunday qilmasdi. Ammo o'sha kichik qizning miyasi boshidan o'tkazganlari sabab shunchalar ezilgan, bir burchakka siqilganki, shunday qilib, ro'yob va ro'yoni aralashtirib yuborgan. Sen nafratlangan o'sha kichik qizni men yaxshi ko'raman. O'sha kichik qizga hayotdagi eng yaqini – onasi ko'p aziyat beribdi. Jajji qizaloq ham onasiga tabiiy

ravishda jahl qilgan. Ichidan u haqida yomon gaplar chiqibdi. Bu, aslida, uning qo'lida emas... Istasa ham, istamasa ham bu tuyg'ular uning ichidan tabiiy ravishda chiqib kelaveradi. Keyin esa shunday o'ylagani, shunday his qilgani uchun sen ham uni aybdor deb e'lon qilibsan. U qizga umuman achinmabsan. Hozir esa qizaloq ulg'aygan. Aql-hushi joyida, ishi tayin qiz bo'ldi. Vazifang uni bo'lar-bo'lmasga ayblash emas, uni himoya qilish. Chunki balog'atga yetgan bir insonning ham egaga ehtiyoji bor. O'zingga ega chiqib, qo'llab, himoya qilish eng muhim mas'uliyatdir. Xudo ham shuni xohlaydi. U bizni o'zimizga omonat qilgan. Sen esa eng buyuk omonatga xiyonat qilyapsan. Endi bular senga yarashmaydi. O'zing bilan olishavermasdan hayotga qayt. U bilan jang qil. Modomiki, shunchalik aqlli qiz ekansan, hayot ham sendan nasibasini olsin. Ishla, yasha. Alya ismli qizning bu dunyoga kelib-ketganini bildiradigan izlar qoldir ortingdan. O'zingni qancha pastga tortgan bo'lsang, shuncha yuksal, o's. Avvalo, qilgan ishlaringni o'zing sev.

Qoshlarini chimirgancha diqqat bilan tinglaydi meni. Tinglab, gapirganlarimni anglab, anglaganlarini yuragi bilan his qilgach, yuzining mushaklari ancha yumshay boshlaydi. Endi ko'zlari umid bilan boqadi. Keyin chuqur nafas olib qaddini tiklaydi va gapirishni boshlaydi:

- Anqaraga kelgan vaqtimiz hammamiz hayratda edik. Nima qilishni bilmas, o'zimiz tanimagan yerda o'zimizni surgunda yurgandek his qilardik. Onam 4 oy qamoqxonada qolgandan keyin ozodlikka chiqdi, dadam onamni eski uyimizga olib bormay, meni ham Anqaraga, mana shu uyga olib keldi. Onam u yerda juda o'zgarib ketgandi. Xuddi yillab qamoqda yotgandek o'n yoshga qarigandi va menga bo'lgan dushmanligi yaxshigina ortgandi. Avval ham men bilan ko'p vaqt o'tkazmas, quchmas, yaxshi ko'rmasdi, lekin bunchalik dushman ham emasdi. Men uni birinchi marta ko'rganimda yoniga bordim. Quchoqlamoqchi bo'ldim. Ruksat bermadi. Qo'li bilan meni turtkiladi. Xuddi bir muz qolipidek muzlab qol-

gandi. Bo'yi ham cho'kkandi. O'sha salobatli go'zal ayol yo'q, o'rniga pakana bukchaygan, sariq yuzli, siniq nigohli ayol keltgandi. Bu nigohlar faqat meni ko'rgan paytidagina jonlanardi. Bu buqaning qizil rangni ko'rgandagi qarashlarga o'xshardi. Gaplashmas, tinglamas, hech kimdan, hech narsa so'ramasdi. Dadam qo'lidan kelgancha uyni yashasa bo'ladigan holatga keltirgandi. Onam uyga qaramasdi. Ko'pincha mehmonxonadagi divanda o'zi o'tirar, bo'sh qaroqlar bilan atrofga boqardi. Dadam meni maktabga yozdiribdi. Sumkamni, daftar va kitoblarimni, fartugimni olibdi. Birinchi kuni ham maktabga meni o'zi olib bordi. Maktabda o'zimni o'zga sayyoradan keltgandek his qildim. Bolalar yugurib o'ynar, tanaffuslarda qizlar bir joyga yig'ilib gaplashardi. Men yana yolg'iz edim. Ularga uzoqdan boqar, har birining qanchalar omadli ekani haqida o'ylardim. Maktabga hammalari ozoda bo'lib kelishardi. Qizlarning sochlariga taqinchoqlar qadalgan, orasta, oyoqlariga kiyib olgan oq paypoqlari ham top-toza edi. Orada onalari ham maktabga kelib turardi. O'qituvchilar bilan ko'rishar, ularga tabassum qilardi. Men go'yoki bola emas, inson ham emas, g'alati bir mavjudot edim. Men ham gaplashishni, ku'lishni, ular kabi o'ynashni istardim, ammo hech birini eplay olmasdim. Men ularga qarardim. Ular esa menga. Xuddi yelkamda tonna yuk bordek uyga amallab kelardim. Na maktabda qolishni, na uyga kelishni xohlardim. Eshik qo'ng'irog'ini istamaygina chalar, onamning menga nafrat bilan boqqan ko'zlarini ko'rmaslik uchun boshimni hecham ko'tarmasdim. Qornim och bo'lardi, ammo hech kim oldimga ovqat qo'ymasdi. Onam ko'ngli nimani tusasa, pishirib yerdi. Ovqat yeyotganda bog'ga chiqib turishimni aytardi. Menga ovqat bermaslik uchun bog'ga haydardi. Qolgan ovqat ko'z oldimda to'kilardi. Bog'dagi mushuklar yerdi qoldiqlarni. Yutiniygina ularga qarab qolardim. Keyin meni ichkariga kirgizardi. Oshxonaga borib, yeyishga nimadir izlardim. Quruq non, biroz pishloq, nima bo'lsa ham... Aslida, ko'nglim ovqat tusamasdi. Dadam o'z dardi bilan ovora. Oqshomlari chekar, uyga juda

kech kelardi. Bo'lgan voqeadan keyin ukalari merosni o'zaro bo'lishib olgan, dadamning ulushi sifatida unga pul berishgandi. Dadamda pul ko'p edi. Har hafta uyning butun ehtiyojlarini olar, ammo uyda ovqat bormi, yo'qmi, bilmasdi. Menga ham pul berardi. Boshida men ham o'zim uchun maktabda yegani nimalardir olardim, ammo keyinchalik onam hamma pullarimni cho'ntagimdan olib qo'yadigan bo'ldi. O'lishimni kutardi. Ochlikdan o'lishimni. Qarasa o'lmayapman, o'shanda umidini uzdi va meni kaltaklashni boshladi. Onamning ovozi faqat meni savalagan payti eshitardim. Bir tomondan kaltaklar, boshqa tomondan ovozi boricha baqirar va meni qarg'ardi.

Yo Xudoyim! Bunchalik borishini taxmin qilmagandim! Unga ko'p hikoyalar aytib berdim, ammo menikilar uning er-tagidek mahzun bo'lmagan ekan. Ko'zlarim to'lib tinglayman. U esa sokin...

- «Seni tug'may men o'lay. Seni tuqqandan ko'ra tosh tug'sam bo'lmasmidi... Iblissan... Shaytonsan», der edi menga. «Bu balalar boshimga seni deb keldi. Sen menga Xudoning bergan jazosisan. Meni ko'rsatgan o'sha barmog'ing uzilib tushsin. Kun ko'rmagin. Biroz aqlim bo'lsa, tuqqan kunimoq seni qo'llarim bilan o'ldirardim. Menga xiyonat qilding. Yuzing kabi ruhing ham xunuk sening... » Shunday derdi. Badanim chekkan azob kam edi, ruhim ham iztirobda qolishini istardi. Orada: «Ona, meni o'ldirasizmi?» deb so'rardim. Chunki meni o'lasi qilib kaltaklardi. «Dadangga aytsang shunday ham qilaman», derdi. Oxiri, dadam vaziyatni sezdi. Meni shifoxonaga olib bordi. Doktor tekshirganda, hamma yog'im momataloq edi. Meni xonadan olib chiqdi, dadamga nimalardir dedi. Politsiya degandek, shunday ishlar.

Yana politsiya! Politsiya bu qizning hayotida har doim bor. Esma Sulton hammomda yiqilgan kun, ona bu voqeadan ta'sirlangan, u barmog'i bilan ko'rsatgani uchungina Alyaga bu qadar jahl qilishi, uni o'ldirishga urinishi tushunarsizdek. O'sha paytlarda Alya hali juda kichkina, buning ustiga so'nggi

ko'rsatmalarida onasini ayblamagan. Shunga qaramay, ayolning bor xusumati qiziga qaratilgan. Surayyoning jiddiy ruhiy kasali bo'lganini boshidan taxmin qilgandim. Ammo bu ishning ichida yana boshqa masalalar ham bor, hanuz men ko'ra olmagan, anglamagan narsalar...

– Dadam qo'rqib qoldi. Shundan so'ng uyga erta kelishni boshladi. Oqshom kelar-kelmas birinchi ishi meni boshdan oyoq tekshirib chiqish edi. Keyin mendan tez-tez so'rardi «Oying yana seni urdimi?» Hech narsa demasdim. Chunki aytgudek bo'lsam, meni yana ham ko'proq kaltaklardi. Endi ertalablari meni maktabga dadam olib borib qo'yardi, oqshom men kelmasdan uyga qaytardi. Dadam doim uyda ekani onamni bezovta qila boshladi. Ham meni kaltaklab, alamini ololmas, ham dadamning tinmay ichishidan jahli chiqardi... Biroz xotirjam edim. Hech bo'lmasa, xonamga kirar va eshigimni yopardim, istasam dars qilardim, xohlasam kitob o'qirdim. Hatto orada dadam olib bergan radiodan past tovushda musiqa ham tinglay olardim.

– Do'stlaring yo'qmidi, Alya?

– Yo'q edi... O'zi maktabga borishdan tashqari uydan chiqishim taqiqlangandi. Na men biror joyga bora olar, na kimdir bizning uyimizga kela olardi. Dadamning do'stlari ham uyimizga kela olmasdi. Onam hammasini taqiqlagandi. Bir muddat dadam avvalgidek bo'lmasa ham ertalablari tez-tez avtobus bekatidagi ishiga bora boshladi. Ammo oqshomlari uyga erta kelar, ovqat stolining boshiga o'tirar va o'ziga mayda-chuyda narsalar tayyorlab ichkilik ichardi.

– Birgalikda ovqatlanmasmidingiz?

– Hech qachon birga ovqatlanmaganmiz. Onam ovqat tayyorlasa ham oshxonada bir o'zi yerdi... Dadam o'sha ovqatlarini yemas, har xil gazaklarni afzal ko'rardi.

– Sen-chi? Sen nima yerding?

– Onam qilgan ovqatni o'zi bermagani uchun yeyishni istamasdim. U ham menga bermasdi, lekin oshxonada nimalardir topib yerdim. Bir kecha dadam va onam o'rtasida menga

noma'lum sabab bilan janjal chiqdi. O'ylashimcha, onam dadamning ichishidan jahli chiqqan. Janjal kattalashdi va oxiri dadam onamni juda qattiq kaltakladi. Men shovqinni eshitim bilan xonadan chiqdim. Dadam onamga qo'lining ters tomoni bilan tarsaki tushirardi. Onam shapaloq zarbidan qo'zg'algach zina boshida meni ko'rdi. Ko'zlarimiz to'qnashdi. Bir daqiqa nima qilishni bilmay qoldim. Onam yana menga juda xunuk qaradi. Esmat Sulton o'lgan kuni ham shunday qaragan edi. Qo'rqdim. Darrov yuqoriga, xonamga chiqib, eshikni mahkam yopdim. Nimadir bo'lishini his qilardim, ammo qo'limdan hech narsa kelmasdi. Bir kecha tongga yaqin ustimda qandaydir og'irlik his qildim. Ko'zlarimni ochishim bilan onam bilan yuzma-yuz bo'ldik. U ustimda o'tirar, qo'limdagi soatni yechishga harakat qilardi. Maktabni a'lo baholarga birinchilardan bo'lib bitirganim uchun bu soat menga maktab tomonidan sovg'a qilingandi. Nima qilmoqchiligini tushunmasdim. Soatni olishi bilan xonamdan tez chiqib ketdi. Juda qo'rqdim. Orqasidan borish o'rniga xonamning eshiklarini mahkam yopdim, ichkaridan qulflab ham oldim, chunki menga juda yomon qarayotgan edi. Ertasi kuni soatim oshxonada majaqlanib yotardi. Soatimni ezib tashlabdi, parcha-parcha qilibdi. Dadam ham buni ko'rdi. Endi soatni deb janjallashishni boshladilar va dadam yana onamni kaltakladi. Endi har kuni kechasi uyimizda qiyomat bo'lardi. Agar dadam sokin, o'zi holicha o'tirib, ichayotgan bo'lsa, onam janjal uchun bir bahona topar va ikkisi ikki dushman kabi urishardi. Bu janjallar kundan kunga ortar, bir-birlarini atay urishardi. Yillar o'tgach, dadam ham kaltakning «doza»sini oshirdi, xuddi onam meni o'lasi qilib kaltaklagani kabi onamni urardi. Onam bunday paytlarda bor kuchi bilan baqirar, qichqirar, u ham dadamga qo'l ko'tarar, eshiklar sinar, buyumlar otilar, xullas, hammasi rasvo bo'lardi.

– O'sha paytlar o'zingni qanday his qilarding?

– Doim o'zimni ayblardim. Barchasi meni deb bo'layotganini o'ylar, eshik orasidan qo'rquv bilan poylarkanman, doim

yig'lardim. «Tug'ilgan kunim onam meni o'ldirib yuborganda edi, bular bo'lmadi», derdim ichimda. «Dunyoga kelishim bilan hammani baxtsiz va rohatsiz qildim», derdim. O'sha janjallarda har daqiqada kimdir o'lishi mumkin edi. Bundan ham qo'rqardim. Orada uyga politsiya kelardi. Yo'ldan o'ta-yotganlar shovqinni eshitganda shikoyat qilisharkan. Dadam politsiyaga nimadirlar der, ularni tinchlantirardi. Ikkisi ham bir-biridan shikoyat qilmasdi.

Yana politsiya. Qiziq tomoni, politsiya bilan aloqa yuridik kasbda ham davom etadi. Politsiyani ko'rgan paytida nimani his qilar ekan-a? Mening hikoyalarimdan ancha hayajonli, mahzun, urush-janjalli, ichida tez-tez politsiya ham bo'lgan o'z hikoyalarini menga aytib beryapti. Chap tomonga egilgan boshini qo'li bilan tutib olgan. Orada ba'zan uzoqlarga, ba'zan oldinga qaraydi; ingichka, titragan, siniq bola ovozi keladi ichidan.

- Dadam bir daqiqaga uydan chiqsa ham, onam bilan yolg'iz qolsak, menga kulardi. Keyin esa sochlarimdan tortib, sonlarimni tepkilardi. Dadam sonimdagi ko'kargan joylarni ko'rgach, bu safar onamni yana ham qattiq urardi. Bir mar-ta onamning qo'li sindi. Shifoxonada gips slab qo'yishdi. O'sha payt bir necha oy uyimizda sukunat hukm surdi. Onam qancha urinsa ham dadam uni kaltaklashiga erisha olmadi. Men ham biroz taskin topdim. Siniq qo'li bilan meni urolmasdi. Orada meni tepkilashga, bir qo'li bilan meni ushlashga harakat qilsa ham besamar edi, chunki qochib ketardim. «Mana shu gips hech olinmasaydi», derdim. Dadam ham o'sha paytlar ancha xotirjam tortgan edi. Ammo bu janjalsiz kunlar onamga yoqmasdi. O'ziga o'zi gapirishni, ertalabgacha uyda aylanib yurishni boshladi. Ovqat ham yemas, xuddi qarshisi-da kimdir bordek bo'shliqqa qarab gapirib turaverardi. Qarshisidagi odam juda hurmatli odamdek yergacha egilib salom berar, keyin namoz o'qiyotgandek qo'llarini ko'ksiga birlashtirib, uni tinglardi, pichir-pichir qilib, o'ziga nimadirlar deb gapirardi. Uni ko'rishim bilan dahshatga tushar, uyda arvoh-

lar borligi haqida o'ylardim, kechalari qorong'ilikda o'sha arvohlar yonimga kelishi mumkinligi haqidagi fikrni xayolimdan chiqarib yubora olmasdim. Har oqshom xonamning eshigini yaxshilab qulflar, eng past ovozni eshitsam ham dahshat ichida yotoqdan sakrab tushardim. Onamning sog'ligi borgan sari yomonlashganini ko'rgach, dadam ham xavotirlana boshladi. Endi uni urmas, onam yana boshlasa ham sekingina qo'lidan ushlab uni bir joyga o'tirg'izar, u yotmaguncha o'zi ham yotmasdi, mast bo'lsa ham ko'zlarini bir daqiqqa ham undan uzmasdi.

– Uni doktorga olib borish dadangning xayoliga kelmadimi?

– Keldi. Zotan, yillar davomida shunday qilishga urindi. Doktor qabuliga necha marta yozildi, onamni olib borishga harakat qildi, ammo uddalolmadi. Hatto bir marta uni olib borolmagach, qabulga o'zi ketdi. Doktor dori beribdi, «Bularni ichiring» debdi. Lekin onam ichishni istamadi. Bir necha marta dadam onam ichadigan suvga dori qo'shib damlayotganini ko'rdim, lekin onam buni ham tezda sezib qoldi. «Meni o'ldirmoqchisan», deb dadamga qo'l ko'tardi. U ham chorasiz qoldi. Oxiri qaradiki, agar shu ishga bir chora topmasa, bizning uyda fojialarning eng kattasi bo'ladi, o'sha paytda shifoxonaga bordi, onamni yotqizishga qaror qildi. Biroz o'sha yerda qolsa-yu, men ham biroz yengil nafas olsam deb xursand bo'lardim. Onam bunga ham qarshi chiqdi, ammo bu safar dadamning qarori qat'iy edi. «Xohlasang ham, xohlamasang ham shifoxonada yotasan», dedi. O'sha paytlarda onamning hasratlari ko'p edi. Xuddi ko'zlaridan olov chaqnar, ammo otolmas, tez-tez nafas olardi, maktablar yopilgan, men esa doim uyda edim. Unga qaraganim sari qo'rqqar, nima qilishni bilmay qolardim. Ertalab uyga tez yordam mashinasi kelishi va onamni istamasa ham majburlab shifoxonaga olib ketishi kerak edi. Tongda dadam ba'zi qog'ozlarni uydan olib chiqdi. Ketayotib onamga tayyorlanib turishini aytdi. Onam o'sha payt boshqa chorasi qolmaganini tushundi. Dadam nima qilsa ham uni shifoxonaga yotqizar edi.

– Onang bilan yolg'iz qoldingmi?

– Yolg'iz qoldik. Yuragim qinidan chiqib ketadigandek tez-tez urar, ko'zlarimni onamdan uzmasdim. Qo'rqardim. Avval hammomga kirib tahorat oldi. Keyin vannaga stul olib kirib ketdi. Ortidan avvalroq tayyorlab qo'ygan qalin arqonni qo'liga oldi, o'zini osadi deb o'yladim. Qo'l-oyoqlarim titrashni boshladi. Keyin meni yoniga chaqirdi. Ovozi hech qachon bunday bo'lmagan, juda sokin edi. Avval biroz tayyorlanib oldim, keyin esa xuddi gipnoz qilingan odamdek oldiga bordim. Stulni burchakka qo'ydi va o'tirishimni aytdi.

– O'tirdingmi?

– Ha.

Bu qiz nimalar qilyapti o'zi? Nega uning yoniga bordi? Nega o'sha stulga o'tirdi? Qo'rqmadimikin?

– Uni anchadan beri bunday sokin holatda ko'rmagandim. Xuddi uzoq davom etgan muammo yo'q bo'lgan va o'ziga kelib qolgandek edi. Ovozi ham boshqacha chiqayotgandi. Darrov o'tirishni istamadim, ammo qo'limdan ushlab o'tirg'izdi.

– Hech qo'rqmadingmi? Nega o'sha stulga o'tirding?

– Bilmadim... unga qarshi chiqish xayolimga kelmadi. Meni kaltaklaganda ham shunday qilardim. Faqat qo'llarim bilan boshimni himoya qilar, meni istaganidek kaltaklashi uchun qo'yib berardim.

Shu payt yodimga Alya klinikaga kelgan ilk kun tushdi. Uni xonamga kiritmoqchi bo'lganimda yiqilib tushgan va unga yaqinlashgan paytim hozir aytib berganidek qo'llari bilan boshini himoya qilgan edi. O'sha kuni qizning tayoq yeyishga odatlanganini tushungandim. Demak, adashmabman. Faqat yana bir g'alati narsa bor. Tayoqdan, hatto o'limdan ham qochmaydi. Onasining juda qattiq kasal ekanini bilgan holda uning aytganini qilyapti va hech cho'chimasdan u ko'rsatgan stulga o'tirdi. Hamma insonda tug'ilgan daqiqasidan bo'lgan himoya refleksi bu qizda umuman rivojlanmagandek! Buni tushunish juda qiyin!

– Onang, balki seni o'ldirishi ham mumkin, ammo sen haliyam uning aytganini qilyapsan, o'sha yerdan qochib ket-sang-chi!

– Ammo o'ldirmadi.

– Shunday-kuya, o'ldirib qo'yganda-chi?

– Men ham qutulardim.

– Bunday dushmaning bor ekan, hech bo'lmasa o'zingni himoya qilsang-chi! Mayli, bular haqida sen bilan keyinroq gaplashamiz. Keyin nima bo'ldi?

– Meni o'tirg'izgach, qo'llarimni orqaga qilib, arqon bilan mahkam bog'ladi, ham butun badanimni bog'ladi, qimir-la-maydigan ahvolga keldim.

– Seni bog'layotganda jim o'tirdingmi? Senga ishonaman.

– Siz ishona olmaydigan ko'p narsalarni aytib beraman bugun. Bularni eshitishga tayyormisiz?

Naqadar g'alati savol! Nima demoqchi bo'lyapti bu gapi bilan. Yengil, nozik, ammo chuqur iztehzo sezaman uning so'zlaridan. Aytib berayotganlaridan men ham ta'sirlanayot-ganimni biladi. Ta'sirlanishim boshidan o'tkazganlarini u bilan baham ko'rishim demak. Lekin u meni faqat sinayapti, tekshiryapti.

– Keyin borib oshxonadan pichoq olib keldi. O'sha payt hamma joyim titrashni boshladi. «Meni nimtalab tashlaydi», deb o'yladim. Yig'lashni boshladim.

Men ham qo'rqib ketdim! U ayolning qo'lidan hamma nar-sa keladi. Hali ham tirikligiga qaraganda unday qilmagan ko'-rinadi. Bunday ishlar omadga tashlab qo'yiladigan masalalar emas. Bu qiz rostdan ham o'limni bo'yniga olganmi?

– Turdi, ko'zlarimga uzoq tikildi. Qo'lidagi pichoqni ay-lantirdi, u qildi, bu qildi, keyin shiftdagi chiroq ostiga ishora qildi. Xuddi pichoqni oyna o'rnida ishlatar, o'zini ko'rishga harakat qilardi, yana pichoqning jilolanishiga hayron qarab turardi. Bir necha marta oyoq uchida turib, pichoqning uchi-ni tepadagi ilgakka tekkizishga urindi. Keyin birdan shoshi-lib hammomdan chiqdi. Pichoq haliyam qo'lida edi. Qaradim,

qo'lida boshqa bir stul bilan qaytib keldi. Stulni ilgakning ostiga joylashtirdi, keyin qo'lidagi pichoq bilan orqamga o'tdi. Menga yaqinlashgani sari titroqlarim ortib borardi. Egildi, qo'llarimni bog'lagan arqonning uchini pichoq bilan kesdi.

Xuddi qo'rqinchli filmga sho'ng'ib ketgandek tinglayman uni. Hamma aytib berayotganlari ko'z oldimda gavdalanar-kan, qo'l va oyoqlarim muzlab qolganini his qilaman.

– Qolgan arqonni ko'z oldimda bog'ladi va stulning ustiga chiqib ilgakdan o'tkazdi. Keyin ko'zlarini menga tikdi, ipni ilmoq bilan bo'ynidan o'tkazdi va gapira boshladi...

O'zini osadiganga o'xshaydi, yana qizining ko'z oldida. Bu naqadar dahshat, Xudoyim!

– O'sha kuni qo'llaringda sochiq bilan kutayotganingda bir daqiqa bo'lsa ham ko'zlaring qanday porlaganini ko'rmadi deb o'ylaysanmi?

Bu nima? Nega Aliyaning ovozi bunchalik o'zgardi? Qo'pol, titroq va ingichka ovoz ketdi; o'rniga juda qalin, zarbdor ovoz keldi. Modomiki shunday ovozi bor ekan, nega o'sha ovozda gapirmay, bolalardek ingichka tovushda gapiradi?

– Esma Sultonni o'ldirishimni mendan ko'proq sen xohlading.

Bularni unga onasi, Surayyo aytgan! Uning ovozida gapir-yapti. Ammo bu qizdan bunday ovoz chiqmasligi kerak edi. Bu yerda yana nimadir bor. Bu qizning haqiqiy ovozi qaysi ekan? Boshim aylanib ketdi. Hikoyaning eng g'amgin va hayajonli joyida bunday bo'lmasligi kerak edi.

– Lekin men uddalolmadim. Qo'limdan kelmadi. Sen, qora ilon, o'shanda ham meni barmoqlaring bilan ko'rsatding. «Sen qilding», deding.

Ha, bu Surayyo! Bo'ynida arqon, stulning ustida turib ayt-yapti bularni. Diqqat va hayrat bilan boqaman Alyaning yuziga. Uni o'z holiga qo'yaman, chunki u ham meni ko'rmaydi. Yuz mushaklari ham o'zgargan, xuddi boshqa odamga aylanib qolgandek. Kim ekanini bilaman, u hozir Alya emas, Surayyo. Chap qo'lga tayangan boshini tiklagan, lekin chap qo'li haliyam bo'ynini tutib turadi.

– Barmog'ing bilan ko'rsatib, Esmaning qotili men ekanimni hammaga e'lon qilding. Sening yashashingga izn bermasligim kerak edi. Buni ancha avval qilishim kerak edi. Avval seni, keyin esa o'zimni...

Ha, ha, hammasi ayon. Surayyo ancha avval qizini o'ldirishga qaror qilgan. Buni turli yo'llar bilan sinab ham ko'ribdi. Ba'zan och qoldirib, ba'zan o'lasini qilib kaltaklab. Bu qizning tirik qolishi mo'jizaga o'xshaydi!

– Payg'ambar menga tinmasdan «Uni o'ldir, o'ldirib undan qutul», dedilar... «Bo'lmasa, jahannam otashida yoqaman seni... Sen bir shayton tug'ding, o'z xatoyingni o'zing tuzat», deyishdi... Ko'p urindim, ammo bo'lmadi. Na Esmani o'z qo'llarim bilan yo'q qila oldim, na seni. Ammo Xudo menga shunday kuch berdiki, Esmani o'ldirishni istagan daqiqamda u o'ldi.

Juda ko'p uchrab turadigan holatlardan biri. Surayyo o'zini Payg'ambar bilan gaplashadigan darajada ustun, ehtimol, oliy bir shaxs deb biladi. Esma Sultonning o'lishini qattiq xohlagan va o'sha kuni hammomda Esma Sulton o'lgach, buni istaklari Xudo tomonidan qabul qilinib, amalga oshirishining isboti deb bilgan. Shunday qilib, o'zini Esma Sulton o'limining yagona javobgari va sababchisi sifatida ko'rgan.

– Sen men qanday inson ekanimni bilmaysan, ammo men o'ldirdim uni. Istadim va o'ldi... Hozir esa o'sha narsani aynan sen uchun o'ylayapman... Sen ham o'lasan. Mana, o'g'illarim o'ldi. Hech kim ularni, ular ham hech kimni o'ldirmasdan osongina o'lib ketishdi. Bekorga chiranma, o'ldirish yoki o'ldirilish sening qismatingda ham bor. Sening onang ham qotil, otang ham. Bu tamg'ani peshonangdan o'chirib tashlay olmayсан. Kun kelib yo o'ldirasan, yo kimdir seni o'ldiradi.

Kasallik bor savlati bilan bo'y ko'rsatdi. Surayyo anchadan beri arvohlarni ko'rib, ovozlari eshitadi. Qarshisida egilgan odam esa Payg'ambar ekan. Bu ko'p uchrashi bilan bir qator-da xavfli kasallik hamdir. Jinoyat qilishga moyil kishilarning eng ko'pi shunday xastalardir, chunki amri farmon yuqoridan,

ya'ni Tangridan yoki payg'ambardan keladi. Bunday odamlar ishora qilingan odamni yo'q qilib, dunyoni bir yomonlikdan qutqarganlari haqida o'ylashadi.

Bularning hammasi Alyaning onasidagi haqiqatlar, ammo Alyada-chi? Hozir uning vaziyati qanday? Bir onda shaxsiyatini o'zgartirib xuddi onasining roliga kirarkan, zehni qisqa yo'l ochdimi unga yoki bu yo'lning uchi ancha chuqurdam? Qiziq, xastalik onasidan keyin endi Aliyaning ruhida yashay boshlaganmikin?

– Bu hayotda yashar ekansan sen men bo'lasan. Endi sen yo'qsan. Men qila olmagan ishlarni qilasan, keyin men ketgan joyga borasan, birga yonamiz. Bu bizning qismatimiz. Payg'ambarimiz shunday dedi. Kel, birga yonamiz. U qo'l endi seniki emas, meniki. Barmoq ham mening barmog'im. U yerda o'tirgan sen emassan, menman. Endi sen yo'qsan, men borman.

Bu qiz nimalar deyapti o'zi? «Sen yo'qsan, men borman» nima degani? «Sen men bo'lasan» deyapti! Yo Xudoyim! Qanday buni tushunmadim? Demak, shuning uchun onasining kiyimlarini yechmaydi. Yoki rostdan ham Surayyoga aylandimi? Shunday deb o'ylaydimi? Afsus, agar shunday bo'lsa, ming afsus!

Demak, sirlar pardasini ko'taradigan kalitni ochiqlashni oxirgi kunga saqladi. Biroz avvalgi savolni yana ham yaxshiroq tushundim. «Siz ishona olmaydigan ko'p narsalarni aytib beraman bugun. Bularni eshitishga tayyormisiz?» deganda rost aytibdi. Bularni eshitishga tayyor emasdim. Demak, ich-ichidan bular uchun kulardi. Ich-ichidan kulish, aslida, juda sog'lom bir holat.

Bu bechora, chorasiz qiz qo'llari bog'liq holatda onasini eshitadi. Stolning ustiga chiqib, bo'yniga arqon osgan onasi gapiryapti bularni. Boshqa vaziyatda bunchalik ta'sirlanmasdi. Qanchalar dahshatli hodisalar o'tibdi boshidan. Buning ustiga, unga yelka tutuvchi, biroz bo'lsa ham jasoratlantirib, bo'lgan ishlarni bo'lishadigan odam ham yo'q yonida.

Ko'zlarida men ko'rishga o'rganmagan g'arib bir uchqun bor. Menga qarab turibdi, lekin go'yoki meni ko'rmayapti. Hozir endi nimadir qilishim va uni o'zi tushib qolgan xotira tuzog'idan chiqarishim kerak. Yangidan Alya bo'lishi, boshiga tushgan buncha voqealarni birgalikda baholashimiz, o'rtada baham ko'rishimiz kerak. Bir karra diqqat bilan Alyaga qarayman. Ko'zlaridagi g'arib uchqun hali ham bor, ammo avvalgidek bechora ko'rinmaydi. O'sha uchqunda aylanib yurgan g'azab yoniqlari borgan sari ortadi.

Biroz avval bir qo'li bilan bo'ynini tutib turgan edi, hozir ikki qo'li bilan bo'ynini ishqalaydi. Xuddi ko'rinmas arqon bo'ynini siqqan-u u esa arqondan qutulishga uringandek nimadirlar qilar edi. Ey voh! Agar shu onda u o'zini Surayyo kabi his qilayotgan bo'lsa, arqon bo'ynini siqadi va u o'ladi. Bu sahnada yashashiga izn bermasligim va tezroq nimadir qilishim kerak.

Ko'zim stolimda har doim turgan graf stakanga qadaladi. Shoshilgancha stakanga suv to'ldirib, o'rnimdan turib unga uzataman. Avvaliga meni ko'rmaydi, ammo yana takrorlayman. Chuqur uyqudan uyg'ongandek ko'zlarini menga qadaydi va qo'llarini bo'ynidan olib, uzatgan stakanimni oladi. Suvni bir necha marta ichishga urinadi, ammo bo'lmaydi. Xuddi yutolmayotgandek bir necha tomchi suv bo'ynidan pastga to'kiladi. Yana hayrat bilan yuzimga qaraydi. «Suvni ichib ol, senga yordam beradi», deyman. Bu safar bir urinishda suvni tugatadi. Qo'lidan stakanni olib yana o'rnimga o'tirmasimdan gapirishni boshlayman.

– Nimalar boshingdan o'tmadi, Alya! Qo'l-oyog'ing bog'langan, onangning bo'ynida esa arqon va sen yolg'izsan! Seni tushunish boshidan beri menga oson bo'lmadi, ammo oxiri tushundim, shekilli.. Bunday yukni bola bo'laturib jajji yelkalarining qanday ko'tardi? Sen juda kuchli qizsan! Ammo sendan tashqaridagi hamma, ya'ni biz seni yolg'iz deb bilibmiz! Hammasi o'tib ketdi. Endi ularni unut, hayotga qayt, Alya!

Hech qanday munosabat bildirmasdan gaplarimni eshitadi. Faqat ko'zlaridagi o'sha g'arib uchqun biroz ozaydi, o'ylashimcha, hozir meni ko'ryapti va eshityapti. Ammo bari-bir muzlagan surat kabi... Rasmdan chiqib yana jonlanishini ta'minlashim kerak.

– Onang nima qilmoqchi bo'lganini biroz bo'lsa ham tushunganga o'xshayman. U xasta bo'lgan o'shanda. Uning arvohlarni ko'rishini ancha avval tushunib yetgansan. Demak, u xayolida Payg'ambarni ko'rar va u bilan gaplashardi. Bunday kasalliklarda ko'p uchratadigan vaziyatimiz bu. Ammo baribir sen o'sha kuni hammomda boshdan o'tkazganlaring dahshatli edi. Ofarin senga! Mendan buni eshitish oson emas, ammo sen bunga haqlisan. Bo'lib o'tganlarga qaramay bu yerdasan! Birga bularni ham yengamiz. Nega menga unday qarayapsan.

Javob bermaydi. U javob bermagach, nutqimni cho'zaman va unga yaxshi narsalarni gapirishga, uni jasoratlantirishga va yana bugunga, hozirga qaytarishga urinaman. Og'zi ochiq, ko'zlari so'ngan, surat kabi turishda davom etadi.

– Kim biladi, sen uchun qanchalik qiyin bo'lgan ekan o'sha stulda qo'l-oyog'ing bog'liq o'tirish! Keyin dadang keldimi?

Yana javob bermaydi. To'g'ri savolni topa olsam, balki yana gapirishi mumkin, lekin o'sha to'g'ri savol nima? Qayerda qolgandik? Alya oxirida menga nima dedi? Onasining stul ustida unga gapirganini aytayotgandi. Demak, boshqa hech narsa demadi. O'shandan keyin o'zini osdi. Zotan, oxirgi jumladan keyin Alyaning qo'llari bo'yniga qadaldi va bo'g'ilishdan qutulishga uringan odamdek nimalardir qildi. Demak, xayoli hali ham o'sha kunda va o'sha daqiqada. Unutolmagan sahnalari bor ko'z oldida.

Balki o'zim bilmagan holda men ham o'sha sahnalardan gochayotgandirman. Bundan keyingilarini eshitishni istamayapman. Bu bechora qizning boshidan o'tkazganlarini eshitishga kuchim ham yetmayapti. Ha, asl haqiqat mana shu! Hozir biroz jasur bo'lishim va qilishim kerak bo'lganlarni, hech qanday taraddudsiz amalga oshirishim va juda ta'sirlangan

bo'lsam ham bundan keyingi voqealarni oxirigacha eshitim lozim. Nima ham qilardik, ishim shunga majbur qiladi.

– Onang juda qattiq kasal bo'lgan, Alya. Qara, senga nimalar degan. «Sen men bo'lasan», degan. Sen Alyasan, Surayyoning qizi Alya. Xasta onang, sen emas. Uning ko'ylaklarini qancha ko'p kiysang ham, sen u emassan. Bular kasal bir insonning so'zlari. Ishonchim komil, o'sha kuni uning so'zlaridan ta'sirlangansan. Haqsan. Ammo u kunlar ortda qoldi. Ustiga-ustak oradan yillar o'tdi va sen ulg'ayding. Yosh, sog'lom, aqlli qiz bo'lding. O'sha jarohatlarni davolaylik deb bu yerga kelding. Qo'rqma, hammasi ortda qoldi va men sening yoningdaman.

Ko'zlarini yerga tikkancha chuqur nafas oladi. Bu so'zlarim unga yaxshi ta'sir qilganini, biroz o'ziga kelganini his qilaman. So'zini yana boshlarkan, qaysi ovozdan foydalanishiga qiziqaman, chunki yana Alya bo'lishi va har doimgi ovozi bilan gapirishi kerak. Mening afzal bilganim ham bu. Gapirishni onasining ovozi bilan davom etsa, ishimiz juda qiyin bo'ladi.

Gap boshlarkan, ovozi chiqmay qolganini ikkimiz ham sezamiz. Bir necha marta yo'taladi, tomog'ini tozalaydi, keyin yana chuqur nafas olib, boshini ko'tarmasdan gapirishni boshlaydi:

– Bir zarbada stulni surib yubordi. Stul havoda uchib boshimning o'ng tomoniga tegib o'tdi. Boshimdan sizib qon oqardi. Avval ko'zlarimni yumdim, ammo chidolmadim, yana ochdim. Qo'llarim bog'lanmaganda hech bo'lmasa ko'zlarimni va quloqlarimni qo'llarim bilan yopar, ehtimol, o'sha yerdan qochardim. Ammo ularning hech biri qo'limdan keladi... Ham ko'rdim, ham eshitdim... O'layotganda men qanchalik qo'rqqanimni, aqldan ozay deganimni ko'rdi. Ishonmaysiz, ammo kulib o'ldi onam. Ko'zlarini mendan uzmasdan «Aytganlarimni unuta ko'rma», degandek kulib o'ldi...

Bu qanchalar dahshat, qanday beshafqatlik! Uni eshitar-kan, odamning eti jimirlaydi. Biroq bu paytda Alyaning ovozi-dagi o'zgarishni sezaman. Bu ovoz uniki emas, onasiniki ham emas. Gapirayotgan kim bo'ldi? Mayin, ipak kabi bir ovoz

chiqadi. Ko'zlarimni Alyadan uzmagani holda diqqat bilan kuzataman. Boshim aylanib ketdi. Shu paytda undan savol ham so'rolmayman, chunki u na gapiradigan, na eshitadigan vaziyatda emas. Qo'llarini quchog'ida birlashtirib, sassiz sokin o'tiradi. Xuddi nozik vujudi kichraygan, yelkalari cho'kkan, issiqni sezgan qor odami kabi erib yo'q bo'lib ketishni istaydi. Orada bir quchog'iga tushgan tomchilardan yig'laganini angalayman. Ichidagi chidab bo'lmas yolg'izlikdan sizib chiqqan tomchilar bular.

Bu bechora qizning hayotida ikki katta fojia bo'lgan va tasodifan ularning ikkisi ham hammomda sodir bo'lgan. «Ajabo, bu tasodifmikin yoki Surayyo o'lish uchun qasddan hammomni tanladimi?» deya o'ylamasam bo'lmaydi.

Uning hayotida yillar avval boshdan kechirgan va o'ylashimcha, hech unuta olmagan daqiqalar uyni hammomida sodir bo'lgan bo'lsa kerak.

Bularni anglash, yuragim bilan his qilish ham mening zimamga tushdi. Bu kasbni tanlaganlar ajabo, bu qarorni olarkan, ishlari davomida boshlariga nimalar kelishi mumkinligini biroz bo'lsa ham taxmin qilisharmikin? Iztirob chekishni sevadigan insonlarni har doim hayrat to'la ko'zlar bilan kuzatgan men haqiqiy iztirobni hayotimning naq markaziga joylashtiribmanki, o'zimning bundan xabarim yo'q.

Kutaman... Biroz o'ziga kelganini, gaplashishga tayyorligini ko'rsatadigan biror ishora izlayman Alyadan. Ko'ramiz, o'sha ishora qachon bo'larkin? Uni bezovta qilishni, majburlashni xohlamayman. Biroz o'tib asta boshini ko'taradi. Avval atrofiga, keyin esa diqqat bilan mening ko'zlarimga qaraydi. Xuddi qayerda ekanini unutmagan-u eslashga urinayotgan odamdagi ifoda bor yuzida. Keyin qo'llari bilan o'zini his qilishga harakat qiladi. Nima qilyapti o'zi? Egniga katta turadigan qora xirqasining qo'llarini bir necha marta o'ziga tortgandan keyin o'rnidan turadi. O'sha xirqaning kiyilaverib kengayib ketgan yenglarini nega menga uzatyapti. Hayron ko'zlar bilan unga qararkanman, kiyimning yengini burnimning uchida ko'ra-

man. «Hidlab ko'ring», degandek bo'ladi! O'ylab ham o'tirmasdan tabiiy harakatlar bilan kursimdan u tomon uzanib, xirqani hidlab ko'raman. Burnimga eski bir atir ifori bilan aralash, mog'or, chang hidi uriladi. Biroz hayratlanaman. Xuddi eski bir xirqani emas, bir o'likni mozorning ichini hidlagandek his qilaman o'zimni va darrov o'zimni orqaga tortaman.

Bezovta bo'lganimni, ichim titraganini Alya ham sezadi va «Men yillardir bu hidga chidayapman», degandek qoshi-ning birini behayo tarzda yuqori ko'tarib qaraydi. Ikkimiz ham joyimizda o'tirarkanmiz, «Bu hidni men yillardir ichga yutaman, u bilan birga yashayman», deydi. Bu uning o'lgan onasiniki va shuncha yil uning hidini ichiga yutib yashayapti. Nima deyishni, qanday o'ylashni bilmayman, ammo ichimda ta'rif etolmagan qorong'ilik, chuqur, yurakni ezuvchi bir tuyg'u paydo bo'ladi. Bu kechinma menga yoqmaydi. Ichimni titratadi, negadir undan tez qutula olmayman.

U esa ko'zlarini uzoqlarga tikib qolgan yerdan davom etadi:

– Bir muddat o'tib arqon uzildi, savlatli vujud gum etib yerga tushdi. Yiqilayotganda menga urilgani uchun stol bilan birga men ham yiqildim. U bilan quchoqlashgancha yerda yotardik.

Yana o'sha yumshoq ovoz bilan gapirishda davom etadi, ammo bundan ziyodasini eshita olmasam kerak. Ichimdagi qorong'ilik borgan sari kengayib boradi. Qo'limdagi tasbeh donalarini sanashni boshlayman. Bir, ikki, uch, to'rt, besh! Besh, to'rt, uch, ikki, bir! Bir, ikki, uch, to'rt, besh... Haliyam gapiryapti. Bir, ikki, uch, to'rt, besh... Men eshitishga toqat qilolmagan bu sahnalarni bechora qiz yillar avval, yana kichik yoshda boshdan kechirgan. Inson degani shunday borliq, aslida! Ya'ni biz o'ylagandan ancha kuchli va hayotga moslashish qobiliyati ancha yuksak! Yashash instinkti, butun iztiroblardan ancha quvvatli! Shunga qaramay, men bu yerda nima qil-yapman? Nega ortimga qaramasdan qochishga harakat qil-yapman? Donalarini sanagan tasbehimni ongsiz hovuchimni ichiga olib, tirnoqlarim qo'limni achitib yuborgunga qadar

siqaman. Jonim og'riydi, ammo bu olov ichimdagi otashchalik meni bezovta qilmaydi.

Bir silkinib o'zimga kelaman va Alyaning aytayotganlarini yana jonqulog'im bilan tinglashni boshlayman.

– O'sha yerda qancha yotganimizni bilmayman, ammo bu daqiqalar menga asrlardek tuyuldi. Biroz avval ham aytganimdek o'sha kunlarimni xotiramdan kimdir o'chirib yuborsa edi deb yillar davomida duo qildim. Kimdir kelsa-yu, qo'li-da otash yoqsa miyamning o'sha qismini yoqib yuborsa! O'z go'shtimning hidi kelsa burnimga! Miyam yonyapti, desam... Ammo bir tomondan o'sha kuygan hidni chuqur-chuqur hidlasam, oh desam. «Yondi mana... Qutuldim... O'sha onlarni boshqa eslamayman...» deya olsam.

Tasbeh o'ng qo'limda. Barcha eshitganlarimning alamini undan olmoqchi bo'lgandek o'ng qo'limdagi tasbehni bor kuchim bilan siqaman. «Kel, birga yonamiz», degandi onasi. U esa yolg'iz yonishni istayapti. Miyasini kimdir yoqishini, u esa bu hidni ichiga yutishni xohlayapti. Hozir miyamning ichida aylanib yurgan qora bulutlar tarqadi. Uning o'rniga miyam alanga olib yonmoqda. Men shifokorman! Shifokor! Bu ishni bilaman! Avval uni tushunib, keyin yordam berishim kerak. Qo'limni uzatib, uning qo'llaridan mahkam tutishim, yuqoriga olib chiqishim lozim. O'sha jahannamdan, o'sha dev kabi yuksalgan olovlardan uni qutqarishim, oydinlikka, xavfsiz bir dunyoda ko'zlarini ochishini ta'minlashga urinishim shart, ammo otashlar meni ham o'z domiga tortdi. Men ham yon-yapman! Birga yonyapmiz.

– Ammo yillar davomida ichimdagi olov so'nmadi. Shuning uchun boshimdan o'tganlarni biroz bo'lsa ham boshqalarga gapirib berishni, dardlarimni bo'lishishni, olovlarga yaxshigina suv sepishni istamadim. Hozir mana yana shitir-shitir yonmoqda ichim. O'sha olovlar orasida doim onamni ko'raman. Yonayotganda ham menga tabassum qiladi. O'sha kun o'layotganda kulgani kabi kuladi. O'sha yerda meni kutadi. Siz... Siz mana shu yong'inni so'ndira olasizmi?

Nima dedi? Mendan so'radi, shekilli. Bu yong'inni men so'ndira olamanmi? O'zim o'sha yong'in ichidaman-ku. O'zim qasirlab yonayotgan bir paytda qanday qilib uni o'chiray?

Ko'zlarini tikib menga qaraydi. Bu nigohlardagi chorasizlik, umidsizlik, ammo bu umidsizlikning yonboshiga yashirilgan kichik, jajji bir ishonch uchqunlari miltiraydi. So'z bitdi, endi ko'zlar suhbatlashmoqda. «Qani», deydi menga, «Qani, qo'llarimdan tuting».

Bir daqiqa ich-ichimdan ko'zlarimni uning ko'zlaridan olib qochmoqchi bo'laman. «Men ham yonyapman», deyish xuddi biroz avval u qilganidek qor odam bo'lish, bu yong'inda erib yo'q bo'lishni istayman. Ammo kichik uchqun meni qo'yib yubormaydi. Xuddi meni mahkam tutib olgandek.

U esa ko'zlarini ko'zlarimga qadagan, «Qani» deyishda davom etadi. Xudoyim, aqlimga nimalar kelmoqda? O'z zaifliklarim, o'z yong'inlarim, Olovuddinning sehrli chirog'ini chaqirgan kunlarim.

Endi ko'zlarimni undan olib qochmayman. Men ham qat'iyat bilan uning ko'zlariga qarayman. Mahzun, iztirob to'la nigoh bu! Endi qo'limdagi tasbehni siqmayman, tirnoqlarim bilan etimni tirnamayman. Ya'ni iztirobdan qochmayman, menga notanish bo'lmagan bu tuyg'u bilan janjallashmayman. Keyin o'zim ham sezmasdan lablarimdan so'zlar dona-dona to'kilishni boshlaydi:

– Hayotida hech qachon yonmagan inson bu yong'inni o'chira olmaydi, Alya. Meni tushunding deb o'ylayman. Sen qattiq yonibsan. Bu yong'inni birga o'chiramiz va kullaringdan qayta bunyod bo'lasan. Inson biz o'ylagandan ancha kuchli borliq! Sen bunga eng yorqin namunasan! Bugun o'sha yong'in o'chadi, chunki ko'z yoshlaring qalqon bo'ldi, uni so'ndirdi. Bunga ishonsang kifoya, men ham ishonay! Hozir bu mahzun hikoyaning oxirini ham aytib ber menga. Aytib berginki, bu ish shu yerda bitsin!

O'sha kichik uchqun Alyaning ko'zlarida ulg'aya boshlaydi va xuddi xonani yoritgan quyoshga aylanadi. Aniq-noaniq bir

tabassum yuzida zohir. Boshini oldinga egib qolgan joydan taloshsiz va sokin bola ovozi bilan gapirishda davom etadi. Ammo o'sha ovoznining ortida yashiringan oydinlikni ichimda his qilaman.

– Keyin dadam keldi. Ortidan tez yordam mashinasi, politsiya va boshqalar. Meni darrov shifoxonaga olib borishdi. Avval boshimni tekshirishdi. O'ng qo'lim singan ekan, gips qilishdi. Shifoxonaning ichida zambilda u yoqdan bu yoqqa borib kelardim. Zambildan chiqayotgan ovoz miyamning ichida titrar, lekin bir tomondan beshikka o'xshab, eshitishni istamagan o'sha qo'rqinchli ovozlarni pasaytirib turardi. Uyqu bilan uyg'oqlik orasida bir yerda edim. Ovozlarni eshitar, ammo javob bera olmasdim. Zamon tushunchasi butunlay yo'q bo'lgandi. Oxiri oq choyshabli bir yotoqqa qo'yishdi meni. Kimdir tinmay nimadir so'rar, meni o'z holimga qo'yishmasdi. O'sha yerda qandaydir g'alati hayqiriqlar kelardi qulog'imga. Bir qiz tinimsiz baqirar, to'xtamasdan hayqiraverardi. Oxiri, tomiriga botgan ignalar o'sha ovozlarni jim qildi. Quyuq, chuqur bir qorong'ilikka ko'mildim. O'sha yerda qancha qolganimni bilmayman. Keyin sekin-sekin yana ba'zi ovozlari kela boshladi qulog'imga. «Jim bo'ling, meni o'z holimga qo'ying», derdim ichimdan, ammo unday qilmadilar. Ko'zlarimni ochganimda dadamning ko'zlarini ko'rdim. Menga qarab egilgan, bir qo'li bilan sochlarimni silar, bir qo'li bilan ismimni aytardi. Qimirlolmasdim. Nafaqat qo'lim, balki butun badanim gipslagandek edi, go'yo. O'sha qizning hayqiriqlari yana boshlandi. Negadir jim bo'lmasdi, tomog'i yirtilgudek baqirishda davom etardi. Yana orqa tomondan ignalar, yana chuqur zimiston ichida kechdi kunlar. Hushyor tortish, qolgan joyimizdan davom etishni istamayman. Lekin oxiri istasam ham bu shafqatsiz dunyoga qaytishga majbur bo'ldim. Hamma tomonimda tasmlar bor edi. Boshim ikki tomondan yorilgan, o'ng qo'lim singan, qovurg'alarimning ikkitasi yorilgan, chap tizzamning bog'lamlari chiqqan, bir ko'zimning osti ko'karib ketgandi.

Menga tinmay savol berishardi, ammo xuddi gapirishni unutgandek edim. O'sha yerda qancha vaqt umuman gapirmay yotganimni eslolmayman. Tez-tez yosh xonim yonimga kelar va men bilan gaplashishga urinardi. U shifoxonaning psixiatr mutaxassisi ekan. Men bilan ancha vaqt shug'ullandi, lekin natija bo'lmadi. Men o'shanda boshimga tushganlarni qo'yib turing, ismimni ham to'g'ri ayto'lmasdim. Anchagina dori berdilar, ammo baribir kechalari meni uxlata olishmasdi. Biroz shovqin bo'lsa, baqirib uyg'onib ketardim. Bir muddat psixiatriya klinikasiga olib o'tish haqida o'ylashdi, lekin men qat'iy qarshilik ko'rsatdim. Chunki onam yotmagan joyda yotishga toqatim yetmaydigandek ko'rindi.

Chuqur nafas olib, o'sha kunlarning qorong'iligidan qutulmoqchiga o'xshaydi. Yana boshini menga qaratadi. Bir kuch, qandaydir dastak izlaydi. Biroz tabassum bilan izlagan javobini ko'zlarim orqali berishga urinaman. Bu dastakni olganiga amin bo'lishni istagandek qat'iyat bilan ko'zlarimga qaraydi. Keyin yana boshini oldinga egib, gapirishda davom etadi:

– Har kuni tushdan keyin dadam kelardi, yonimda biroz o'tirib ketardi.

– U bilan ham gaplashmasmiding?

– Yo'q, gaplashmasdik. U ham gapirmasdi, men ham. Qo'lari bilan boshimni silardi, keyin stul olib, yonimga o'tirardi. Boshini oldinga egar, shundayligicha o'tirardi.

– Dadangning kelishi senga yoqarmidi?

– Yo'q... tezroq ketishini kutardim. Hatto u kelgan paytlar vaqt o'tmas, ichimda sanay boshlardim.

«Sanarmiding?» deyman ichimda. «Xuddi biroz avval men qilganimdek, demak, sen ham sanar ekansan-da», ichimdan kulaman, unga emas, o'zimga kulaman. Uning zotan kuladigan ahvoli yo'q.

– Qachon shifoxonadan chiqding?

– Bilmadim... U yerda juda ko'p qoldim. Qo'limdagi gips yechildi, tasmalar ochildi, ko'zimning oldidagi ko'karishlar

ham yo'qoldi, keyin chiqdim. Chiqishdan oldin yana politsiya keldi, mendan ancha savol so'radi. Javob berolmadim. Dadam bilan psixiatr qiz mening o'rnimga gaplashdi ular bilan. Chunki xohlasam ham so'zlay olmasdim, ovozim negadir chiqmasdi. Keyin bir qancha dori berdilar qo'limga va meni chiqardilar. Bir muddat hammasini ichdim. Hatto kechalari berganlaridan ko'prog'ini ichardim. Kechalar tugamasdi. ham biroz avval uxlashni va hammasini unutishni istardim, ham uxlashdan qo'rqardim.

– Nega?

– Tush ko'rishdan qo'rqardim. O'zi qanday bo'ldi, bilmadim, lekin biroz vaqt o'tib, umuman tush ko'rmaydigan bo'ldim. Tungi qichqiriqlarim ham shunday qilib tugadi. Erta uxlar, peshinda uyg'onardim. Biroz o'tib yana uyqum keldi. O'sha yoz shunday kechdi.

– Dadang nima qilardi?

– Dadam so'nggi voqealardan keyin uyga qamalib oldi. Ikkimiz ham umuman gaplashmasdik. U yana oqshom tushmasdan ichkilik ichishni boshlar, oq pishloq va qovundan boshqa hech narsa yemas, mehmonxonaning bir burchagida cho'kkalab o'tirardi. Sentyabrda maktab ochildi va men dorilarni ichmay qo'ydim, maktabga borishni boshladim.

Qiyin bo'ldi. Onamdan keyin ilk bora uydan chiqqanimda o'zimni bu dunyoga begonadek his qildim. Na bu dunyo meni tanirdi, na men uni. Xuddi bosgan yerim mening unga oyoq qo'yishimni istamayotgandek edi. Barcha kiyimlarimni tashlab yuborib, onamning ko'ylaklarini kiyishni boshlagandim. Bu yolg'iz dunyoda kiyimlaridan unib chiqqan dushman hidi ham menga yolg'iz emasligimni eslatib turardi. O'sha hid dimog'imga urilishi bilan ham qo'rquv suyaklarimgacha yetib borar va men yana o'z uyimda, o'zim moslashib qolgan dunyoda his qilardim o'zimni. Onamni ham unutishni xohlar, ham unutishdan o'lgudek qo'rqardim. Qo'rqqanim sari har doim katta kelgan bu kiyimlarini quchoqlar, o'shanda onam bilan birlashib ketgandek, birga

yonayotgandek bo'lardim. Birga yonish yolg'iz o'zi yonishdan ancha oson tuyulardi menga. Ehtimol, u ham shuning uchun men bilan yonishni istagandir. Yolg'iz yonmaslik uchun...

Inson shunday bir borliq! Bu bechora qizning olamida mana nimalar yashirilgan ekan? Uni tanigan kunimdan beri javobini topa olmayotgan savollarimga mana endi birma-bir javob beryapti.

Aytib berayotganlari bir tomondan mening ham ichimni yoqarkan, bir tomondan unga yaqinlashib boruvchi bir hayrat his qilaman. Bir inson ham tashqi ko'rinishi bu qadar yomon, to'g'ri gaplashishni ham bilmaydigan bir inson boshidan o'tkazganlarini bunchalik qalbdan, shoirona bir til bilan ayta olishi mumkin?

Uni tinglar ekanman, tuyg'ularining boshqa bir tomoni ham e'tiborimni tortadi. Demak, yolg'izlik shunday qo'rqinchli hiski, inson dunyoda o'zini yolg'iz his qilishdan ko'ra dushman hidiga sig'inishi, u bilan birga yonishni tanlashi ham mumkin. Bunday yolg'izlik hissining chuqurligini inson ta'savvur ham qila olmaydi.

Bu mavzuda ona bilan bog'liq taassurotlari ham qalbimni og'ritadi. Onasi qanchalik uni yaxshi ko'rmaganini, qabul qilmaganini, hatto nafratlanganini bilsa ham yana uni tushunishga intiladi. O'zi bilan birga yonishni istagan onasining yolg'izligini ham ich-ichidan his qiladi. O'z yolg'izligi bilan onasining yolg'izligini bir-biriga o'xshatadi. Bir-biriga dushman bo'lsa ham ikki insonni bir yerda juftlashtiradi. Boshidan beri xuddi onasidek aybdor va gunohkor deb e'lon qilgan o'zligi bilan aybdor va gunohkor onani bir qozonda qaynatar ekan, boshqa tomondan bu ishi bilan yolg'izlikka urush ochadi.

– Maktabda menga qo'rquv ko'zlari bilan boqishardi. Hech kimga o'xshamagan bu kir va irkit qizdan imkon qadar uzoq turishga harakat qilishardi. Hech kim men bilan gaplashmas, yonimga o'tirmasdi, shunday qilib, yana gapirish kabi bir dabdabaga ega bo'la olmadim. Uyda dadam bilan ham majbur

bo'lmagunimizcha gaplashmasdik. Vaqt o'tib, yaxshi o'qishim insonlarning e'tiborini torta boshladi. Buning ustiga asta-sekin menga moslashib qolishgandi, bu ahvolim avvalgidek ularni qo'rqitmay qo'ygandi. Darsdan baho olish uchun yonimga kelishni boshladilar. Bu vaziyatdan xursand bo'lmasdim, chunki qo'rqardim. Nima deyishimni, ular bilan qanday gaplashishni bilmas, kimdir yonimga yaqinlashadigan bo'lsa, qo'l-oyog'im titrardi. Bir tomondan bu chuqur yolg'izlikni qanday yengishni bilmas ekanman, yana bir tomondan xuddi unga o'rganib qolgandek edim. Ikki kishilik bu dunyoga boshqalarning kirishini istamasdim.

– Ikki kishilik?

– Ha, ikki kishilik. Aslida, rostan ham ikki kishilikmi yoki bir kishilikmi, buni aniq bilmayman. Orada bir onam va men ikkita alohida inson edik. Men onamning ashaddiy dushmani edim. Ustimda hidi, ko'zlarimda o'layotgan paytdagi kulgan ko'zlari bor edi. O'ng qo'limning ko'rsatkich barmog'i uniki emas, meniki edi. O'sha payt tinmay dushmanim bilan birga yashash butun energiyamni olib qo'yar, meni toliqtirardi, ammo baribir ikki kishilik bir olam edi bu. Uning ashaddiy dushmani bo'lsam ham, meni o'ldirishni istasa ham, baribir men bor edim... Buning ustiga uning uchun o'ldirishni istashdek ahamiyatli, jahl qilgan va nafratlangan odami edim. Ba'zan onam bilan birlashib ketar va bir kishi bo'lib qolardik. Ikkisi ham aybdor, ikkisi ham gunohkor, ikkisi ham hech kim istamagan inson, ular birlashib bir kishi bo'lishi unchalik qiyin bo'lmasdi. O'sha payt dushmanliklar, kin, nafrat bitar, o'zimni faqat butunlay yomon va qadrsiz insondek his qilardim. Ancha oson bo'lar, meni kamroq toliqtirardi bu. O'sha payt o'ng qo'limning ko'rsatkich barmog'i ham o'z ahamiyatini yo'qotar, menga tegishli bo'lmay qolardi. Har istaganini berish, kulmaslik, gaplashmaslik, dunyoga bo'yin egish, boshqalarning quli bo'lish, aslida, o'ylaganimizchalik qiyin emas ekan. O'shanda nohaqlikka uchrash, kaltaklanish, haqorat qi-

lish, qabul qilinmaslik, xo'rlanish insonning yuragiga unchalik ozor bermaydi, hatto ko'pincha bu tabiiy holatdek tuyuladi. Vaqt o'tib osonini tanladim va mana shu bir kishilik dunyoldinga chiqa boshladi. Anchadan beri meni bo'g'ib kelayotgan muammolarim ozayishni boshladi va taslim bo'lishning ishonib bo'lmas yengilligi har tomonimni egallab oldi. Xuddi kimdir menga dori bergan-u ichimdagi barcha tuyg'ularni birlashtirgandi.

Kasallikka taslim bo'lyapti. O'zligini yo'q qilarkan, o'sha o'zlik ichidagi har qanday muammo va qayg'udan qutulgan bo'ladi. Ham ichki dunyosidan, ham ~~tashqari~~ dunyoning shartlari bir bo'lib, bu qizni omonsiz xastalik qo'llariga topshiradi. Faqat bu bunday davom etmabdi, bunga ishonchim komil, chunki qabulimga kelgan ilk kunida chap qo'lining ko'rsatkich barmog'ida matolar bor edi. Keyin o'sha barmoqda tez-tez yara va ko'karishlarni ko'rdim. O'sha barmoq ayblanishi uchun bu ikki kishi ayrilishi va barmoq yangidan asl sohibiga qaytishi kerak edi. Mana shu qaytish qachon va qanday bo'ldi? Savol berish o'rniga yana bir muddat uning so'zini bo'lmasdan eshita qolay.

– Juda kamyob bo'lsa ham bir-ikki so'z aytishim kerak bo'lganda maktabda ovozim o'zgarganini his qildim. Endi mendan ingichka ovoz chiqardi. Uni darrov tanidim. Bolaligimdagi ovozim qaytib kelibdi, shunday qilib, men yana kichik Alya bo'lgandim. O'shanda xotirjam bo'ldim. Chunki ovoz na meniki, na onamniki edi.

Regressiya bor, ya'ni ruhiyat bunday og'irlikni ko'tara olmagan paytda chorani ortga qaytishda deb biladi. Bolaligiga qaytib, ichidagi vaziyatga yechim topishga urinyapti. Bunchalik og'ir yuk ostida o'zi bo'lishni uddalay olmabdi, ammo onasining o'rnini egallashni ham rad qilibdi. Bu tamoman ongdan tashqaridagi mexanizm, demak, kichik bola kabi, ingichka ovoz bilan gapirishining sababi mana shu ekan. Shunday bo'lsa, hozir undan eshitgan bu ipak kabi ovoz haqiqiy ovozi!

Alya o'zi kirgan notekis qorong'iliklardan qaytib chiqyapti. Shiddatli sevinch to'liqini butun ruhimni egallab oladi. Ajabo, o'zi mana shu katta muvaffaqiyatidan xabardormikan?

– O'sha paytlarda dadamni ham yo'qotdim. O'zi uyda jonli inson yo'qdek edi. Ikkimiz ham xayolot kabi o'sha uyga kirib chiqar, bir-birimizga majbur bo'lmagunimizcha gapirmasdik, yurganda ham shovqin qilmaslikka qat'iy g'ayrat qilardik, borligimizni inkor qilardik. Men uyga kirar-kirmas, tezroq xonamga yo'l izlarkanman, u mehmonxonadagi ovqat stoliga mixlangandek joyidan umuman siljimas, faqat ichki-lik tugaganidan keyin muzlatkichdan yangisini olish uchun oshxonaga kirardi. Mehmonxonadagi televizorning ovozini ham faqat o'ziga eshitiladigan qilib qo'yardi, o'z uyimizda o'g'ri kabi qo'rqib, chekinib yashardik. Erta tong maktabga ketish uchun turganimda uni haliyam o'sha stolda o'tirgan holatda ko'rdim. Ko'zlari ochiq, stolda orqaga egilgan, qo'lidagi oxirgi sigaretning kullari uning qo'llarini kuydirgandi. Yuzida og'ir va uzoq davom etgan iztirobdan qutulish huzuri zohir edi. Birlashib olgan hislarim bilan nima qilishni bilmasdan shunday qarab turdim. O'shanda qanchalik uzoq muddat dadamning yuziga diqqat bilan tikilganimni sezdim. Ichimda ulkan bir bo'shliq bor edi faqat. Yig'lash, xafa bo'lish, qo'rqish yoki yana boshqa narsani his qilishni xohladim, lekin uddalolmadim. Uydan chiqdim, eshikni har doimgidek diqqat bilan qulfladim va politsiyaga bordim. U yerda meni yaxshi tanishardi. «Dadam o'ldi, bizning uyimizga boringlar», dedim...

Falokatlar bir-birini qidiradi. Buning ustiga yolg'iz!

– O'sha kuni uyga tergovchi kelib, menga ko'p savollar berdi. Qo'limdan kelgancha ularga javob berishga harakat qildim. Holimga achinishdi. Hammalari menga yordam berishga urinishdi.

– Bu voqealar bo'layotganda sen yolg'izmiding? Yoningda hech kim yo'qmidi?

– Kim ham bo'lardi? Hech kim yo'q edi. Politsiya ham shu savolni berdi, «Qizim, hech kiming yo'qmi?» deyishdi.

Yana politsiya, o'lik, so'roqlar. Bu qanday qismat bo'ldi ekan-a? Uni tinglar ekanman, dodlab yuborgim, mening ham isyon qilgim keladi.

– Keyin dadamning telefonida ismi topilgan odamlarga qo'ng'iroq qilishdi. Dadamning do'stlari kelguncha hammalari uyda kutishdi. Ular yetib kelguncha janoza hujjatlari tayyorlandi. O'sha kuni dadamni dafn qildik. Hammalari ular bilan bir necha kun qolishim uchun ko'ndirishga urindi, ammo men qabul qilmadim. Vorislik ishlarini ham ular hal qildi. Bank hamyonimni qo'limga berishdi, bir qog'ozga telefon raqamlarini yozib berishdi. «Nimadir kerak bo'lib qolssa, qo'ng'iroq qil», deyishdi.

– Ularga hech qo'ng'iroq qildingmi?

– Qilmadim.

– Ular-chi?

– Qilishdi, doim «Senga nimadir kerakmi», deb so'rashdi. Men esa yo'q dedim. Chunki uyga hech kim kelishini istamasdim. Ular kelgach, juda siqilar, nima qilishimni bilmasdim.

– Yo Xudoyim... Keyin bir o'zing yolg'iz qolding, shundaymi?

– Ha yolg'iz qoldim.

– Nimalarni his qilding o'sha paytlarda?

– Hech narsa, aytganimdek hech narsa his qilmasligimning chidab bo'lmas yengilligini tuyardim o'sha paytlar. Ham hammadan qochardim, ham yolg'izlik meni bo'g'ib qo'yardi. Erkaklar o'sha paytda hayotimga kirishni boshladi. Ular meni zo'rlashar, keyin kaltaklab, haqoratlashar, qo'llaridan kelgancha meni yerga urishardi. Men bularning bariga bo'yin egar, hech e'tiroz bildirmasdim. O'sha paytlarda ovozim yana o'zgarar, onamning qalin va bo'g'iq ovozi kelardi.

Erkaklar bilan birga bo'lganda o'zini onasi kabi his qilishi naqadar g'alati! Miyasining bir joylarida bir paytlar, ehtimol, onasi zarif bir ayol bo'lgani, erkaklar bilan bemalol

turli munosabatlarga kirisha olgani haqidagi tushunchalar bor. Buning ustiga, o'zini onasining o'rniga qo'ygach, bo'yin egish unga juda tabiiy tuyuladi. Demak, uni tanigan ilk kunimdan beri foydalanadigan o'tkir, quloq yirtmaydigan bola ovozi boshidan beri men tushunmagan umid nuri yashiringan ekan.

– Bu ovoz o'zgarishi o'z-o'zidan bo'larmidi?

– Ha... Men istasam ham uni o'zgartira olmasdim. Aslida, bir tomondan bundan ham qo'rqardim. Ayniqsa, onamning ovozi bilan gaplashgan paytlarim ichimga onamning ruhi kirdi va endi qaytib chiqmaydi degan qo'rquvlarim bo'lardi. Ba'zan qaysi ovozda gapirayotganimni sezmay ham qolardim. Yerga urishlaridan zavqlanadigan holga kelgandim. Mendan jirkangan, nafratlangan nigohlar xuddi ichimda nimalargadir darmon bo'lar, yerga urilgach, jazolangach rohatlanardim. Aslida, ular meni emas, men ularni topar, yomonlikni, jazoni hayotimga taklif qilardim. Keyin bir kun o'sha erkaklardan biri avval meni rosa kaltakladi, ammo so'ngra negadir meni yoniga o'tkazdi va «Sen kasalsan, doktorga bor, bo'lmasa bizning qo'limizda o'lasan va boshimizga balo bo'lasan», dedi. Keyin qo'liga telefonini oldi va men uchun o'zi taniydigan bir doktor qabuliga yozdirdi. «Bormaydigan bo'lsang o'zim seni o'ldiraman», dedi. O'shanda o'qish tugay deb qolgandi. Bir tomondan har kun kimdandir tayoq yer, berganlarini ichar, ba'zan ular bilan birga giyohvand modda ham qabul qilardim. Ammo bularning bariga qaramay stolning boshiga o'tirar va dars qilardim. Dars qilish men uchun ovqat yeyish, suv ichishdek tabiiy, ammo qilinishi majburiy qoidadek edi. Kerak bo'lsa ertalabgacha uxlamasdim, ammo tinmay ishlardim. Maktabni a'lo baholar bilan bitirdim. Mendan boshqa hamma bu vaziyatga hayron qolardi. Ahmoqmidim, aqldan ozganmi yoki hamma narsani bilib turib, atay qilarmidim, hech kim buni tushunolmasdi.

– O'zing bu savolning javobini bilarmiding?

- Bilardim. Yana ham aniqrog'i, meni doktor qabuliga o'sha yigitning aytganlarini eshitgach, buni juda yaxshi bilishimni angladim. Haq edi, men chindan ham kasal edim. Xuddi onam kabi. Ham xasta, ham yolg'iz. Nimadir qilishim kerak edi va nima qilishim zarurligini menga o'sha yigit aytardi. Birinchi marta o'shanda doktorga bordim. Yoshi katta erkak shifokor edi. Meni qarshisiga o'tkazdi. «Qani, gapir», dedi. Taxmin qilganingizdek hech narsani gapira olmadim. Menga muolaja ham yozdi, dorilarni qanday qabul qilishimni ham ta'riflab berdi va «Bir oydan keyin yana kel», dedi. Birinchi kuni bergan dorilarini olgach, bir necha kun o'zimga kelolmadim. Uyda yolg'izman, menga qaraydigan odam yo'q. Qaytib o'sha dorilarni qabul qilmadim. Keyingi safar o'zimga boshqa shifokor topdim. Bu safargi shifokor yosh ayol edi. Shifoxonada yonimga kelgan doktorga o'xshatdim uni. Jo'shqin, quvnoq ayol edi, undan hayot nafasi taralib turardi, go'yo. Ya'ni menda bo'lmagan nimadir unda bor edi. Menga yaqin bo'ldi, tushunishga urindi. Savollar berdi. Ba'zilariga javob berdim. So'ng har hafta muntazam unga boradigan bo'ldim. Har safar men bilan shug'ullanar, men haqimda ma'lumot to'plashga urinardi. Oldin borgan doktorim bergan dorilarni ko'rgan, ularni biroz o'zgartirgandi, ammo men bari-bir ularni qabul qilmasdim.

- Nega, Alya, nega bergan dorilarini ichmading?

- Yana dori qabul qilishga qo'rqdim. Buni unga ham aytdim, ammo parvo qilmadi. Buning ustiga doktor hali meni yaxshi tanimasdi, na men ularni tanirdim, na ular meni. Men haqimda juda oz narsa bilishardi... O'sha payt o'qishni bitirgan, endi nima qilishimni bilmasdan sarson kezardim. Ular ota-onamdan ayrilganimni, Anqarada yolg'iz yashashimni, maktabni a'lo baholar bilan bitirganimni bilishardi, xolos. Shugina ma'lumot bilan menga nima uchun dori berishlarini hech tushunolmasdim.

- Ularga nima sababdan o'zing bilan bog'liq ma'lumotlarni bermading? Doktor bemorini qanchalik yaxshi bilsa, unga

shunchalik ko'p yordam bera oladi. Bunga ishonchim komil, buni sen ham bilasan.

– Mening ruhiy muammolarim bo'lishi mumkindir, hatto ahmoq bo'lishim ham mumkin, ammo zinhor aqldan ozganim yo'q. Qarshimdagi doktor qiz meni yaxshilab tekshirar, ko'rar, ammo unga umuman ishona olmasdim. Yosh, aqlli, kiyimlariga e'tiborli, xushchaqchaq qiz edi. Sizningcha, shunday qiz menga yordam bera olishi mumkinmi?

Qiziq savol! Qanday javob berish haqida bir qarorga kelmasimdan Alya bu bir onlik sukunatni darrov buzadi.

– Bu savolga javob berishingizni kutmagandim. Aytsam, ishonamanki, meni qiziqish va hayajon bilan eshitardi. Ehtimol, bu qo'rqinchli mojarolarni oqshom uyga ketgach turmush o'rtog'iga yoki do'stlariga aytib berardi. Uning uchun qiziq ertak edim, xolos, bori shu. Bilaman, meni tushunmasdi... Muammolarimga chora izlash o'rniga menga taskin berishga urindimi, o'shanda bunga toqat qilolmay qolardim. Zero, mendan boshqa ko'p bemori ham yo'q edi. Borganimda asosan xonasi bo'sh bo'lar, ba'zan kotiba ham bo'lmasdi. Har hafta bergan pulim o'ylashimcha ko'p ishiga yarardi. Ba'zan seans bo'yi gaplashganlarimiz bir necha jumla ham chiqmasdi. Men gapirmaguncha u ham savol berishdan charchagan, men kabi vaqtini sovurardi.

– Bergan dorilarini ichmasligingni bilarmidi?

– Bilardi... Meni ichishga ko'ndirmoqchi bo'lardi, hatto orada, agar dorilarni ichmasam, oqibati qanday bo'lishi mumkinligi haqida qo'rqinchli hikoyalar aytdi. Uning menga yordam berolmasligini tushungandim. Tez-tez kulardi menga. Bu tabassumlarning qanchalik soxta ekanini bilar, anglar va borgan sari undan jahlim chiqardi. Aslida, hech kuladigan ahvolda emasdik. Balki ayb unda emas, menda edi, ammo qarshimda menga hurmat ko'rsatishga intilgan, biroq shunday qilayotib bir tomondan ham meni aldayotgan bir soxtakor ekanini o'ylardim. Uning savollarini javobsiz qoldirganim uchun ham menga munosabat bildirmas, o'shanda kulib turaverardi.

Doktorning xushchaqchaq, baxtli, hayotsevar ekani ham uni bezovta qilgan ko'rinadi. O'zi iztiroblar ichida yonarkan, boshqalar hayotdan rohatlanib yashayotganiga chiday olmagandir, ehtimol.

– Oxirgi borishimda nima qilishni boshidan bilardim... Kotiba ham yo'q edi o'sha kuni. Yana o'sha soxta tabassumi bilan qarshi oldi meni, dorilarni olmasam butun aqliy ko'nikmalarimni yo'qotishimni aytgandi menga. Ya'ni senariyni uning o'zi yozgan edi. Men ham o'sha senariyga moslashdim. Avval dorilarni ichmaganimni aytdim. Darrov tuzoqqa tushdi. Yana dorilarni qabul qilmasam nimalar bo'lishini tushuntirishni boshladi. Men ham «Shunday bo'ldi ham», dedim va atrofga qarashni boshladim. Qo'limga nima kelsa sindirdim, ag'dar-to'ntar qildim. Qattiq qo'rqib ketdi. Kimdir mendan qo'rqqani yoqib tushdi. Men kabi qadrsiz, tuban maxluqdan kap-katta shifokor qo'rqardi. Baqirishni boshladi. Ehtimol, ilk marta o'sha kuni kuldim. Xuddi u kabi men ham uning ustidan kuldim. Qo'rquvdan politsiyaga qo'ng'iroq qilish ham xayoliga kelmadi. Keyin kulganicha xonadan chiqdim.

U haqida haligacha bilmaydigan ko'p narsam bor ekan! Men bo'lsa shuncha oydan beri tez-tez ko'rib turgan bu qizni juda yaxshi taniyman deb o'ylabman. Menga ham ichidan kulganmikin, ajabo? U yosh hamkasbimni qanday qo'rqitibdi va jazolabdi!

– Shifokorga, ehtimol, u baxtli ayol bo'lgani uchun jahl qilgandirsan.

– Baxtlimi?

– Menga shunday tuyuldi.

Ko'zlarini qisib nima demoqchi ekanimni tushunishga urindi. Keyin boshini yana to'g'ri burib, kulib qo'yganini sezaman.

– Balki... Bu yerga birinchi kelgan kunim xayolimga keldi. Tan olishim kerakki, Tuna xonimga ham shu sabab jahl qildim. Shu yoshda, shunday jozibador, quvnoq, xushchaqchaq ekani yuragimni siqdi. Keyin siz qarshimga chiqdingiz. Kut-

ganimdek odam emasdingiz. Sizni yumshoqko'ngil, shafqatli, sevgiga limmo-lim inson deb o'ylagandim. Tuna xonim kabi.

– Demak, meni ko'rgach, umidsizlikka tushding.

– Nimasini aytasiz!

– Ammo Tuna xuddi sen o'ylaganingdek! Unga nega jahl qilding?

– Qildim-da... Men, aslida, sizga jahl qilishga tayyorlangandim. Biroq biroz muddat o'tib ovozingiz va harakatlaringiz Esma Sultonni eslatib yubordi menga. Hatto biroz vaqt u kabi shafqatsiz va yomon ekaningizni o'yladim. Bu his magnit singari meni sizga tortdi.

Yo Tangrim! Qanchalar g'alati vaziyat! Bu haqida umuman o'ylamabman. Demak, menda Esma Sultonga o'xshaydigan xususiyatlarni ko'rgani uchun mendan voz kechmagan. O'sha kuni men ham unga yumshoqlik bilan muomala qilganimda edi, bu muolaja boshlanmasdan nihoyasiga yetgan bo'lar-di. Men bo'lsam keyin shunday qilganim uchun qancha xafa bo'libman-a.

– Birinchi kun bu yerda bo'lib o'tgan ishlar keyinchalik yuragimni qattiq ezgandi, ammo endi o'ylasam, har ishda xayr bor ekan.

– Keyinroq men ham shuni o'yladim. Aslida, mening niyatim hech kim menga yordam berolmasligini o'zimga isbotlash edi. Bir necha marta sizni ham sinab ko'rardim va «Bo'lmadi» derdim. «Men qo'limdan kelganini qildim, ammo bo'lmadi. Taqdir izn bermadi». Qanchalar ahmoqona, shunday emasmi?

Buni ko'ra bilish uchun yuksak sezgi kerak va Aliya buning eng yaxshi misolini keltirdi menga. Insonlar hech bilmasdan, ongsiz o'yinga aralashadi hamda o'zlariga va yana o'zlariga to'squinlik qiladilar.

– Ofarin, Alya, buni ko'ra bilish muolajada juda muhim.

– Shuning uchun bu yerda meni rad etishingiz uchun avval qo'limdan kelganini qildim, ammo sizda Esma Sultonni eslatuvchi narsalarni ko'rgach, ishlar o'zgardi.

Yana yuzi qizaryapti. Bir tomoni hali qanchalar ma'sum!

– Yoqtirmaganimiz, yomon inson deb e’lon qilganimiz – Esmatultonning bir foydasi tegdi, demak!

– Bularni aslo sizga hurmatsizlik deb bilmang.

– Iltimos xotirjam bo’l, Alya. Bugun hech qanday to’siq qo’ymasdan bor hislaringni ochiqchasiga aytib beryapsan.

– Vaqti kelib, Esmatulton o’xshatgan shifokorim, aslida, undan qanchalar farqli inson ekanini bilish. O’ylaganingizdan ancha foydali bo’ldi men uchun. Shunday inson tomonidan qabul qilinish, hurmat ko’rish juda ajoyib ekan!

Muolajaning asl mohiyati ham shu, aslida. Transferansiya deganimiz tuyg’ular almashinishi bu yerda mo’jizalar yaratiladi. Ilk kundan beri meni hokimiyat namunasi sifatida ko’rganini bilgandim. Hatto shunday bo’lishi uchun qo’limdan kelganini qildim. Chunki hokimiyat bilan orasidagi muammolarni faqat hokimiyat qabul qilgan odam bilan yechish mumkin. Psixoterapiyaning asosiy qoidalaridan biri ham shu, ammo birinchi kundan Alyaning meni Esmatulton o’rniga qo’ygani to’liq bilgandim, deb ayta olmayman.

– Qabulingizga kelishimdan biroz oldin hozirgi boshlig’im menga xabar yuboribdi, «Kelib, bizning byuroda stajirovka boshlasin», debdi. Quloqlarimga ishonmadim, ammo eshitganlarim haqiqat ekan. Darrov borib ish boshladim. U yer mashhur, hurmatli va juda muhim shaxslar birga ishlaydigan avdokatlik byurosi edi va boshliqni butun Turkiya yaxshi bilganlar va yaxshi ko’rardi. Mendek odamning u yerda qanday ishi bo’lishi mumkin? Uzoq muddat buning tagida bir yomonlik bor deb o’yladim. Insonlar menga yaqinlashmasalar ham doim hurmat bilan munosabatda bo’lishardi. Byuro ishlari menga yaxshilab o’rgatishar va mendan natija kutishardi. Boshliq orada yonimdan o’tayotganda ishlarim unga ma’qul ekanini aytardi. Bu yerda nimadir bo’layotganiga amin edim. Paranoid tushunchalar, ya’ni shubhalar va xavotirlar asta-sekin o’sib borardi.

Aslida, bularning barchasi joy-joyiga tushgan. Boshliq uni nega chaqirdi ekan? Uni men ham taniyman. Yetti o’lchamas-

dan bir ish qilmaydi u. Nima qilayotganini har doim juda yaxshi biladi. Alyani o'qishdan juda yaxshi tanigan bo'lsa kerak, chunki o'zi ham o'sha fakultetda muallim. Unda hech kimda ko'rmagan nimanidir ko'rgan. Va hech o'ylamasdan shafqatli qo'llarini unga uzatgan.

– O'zim ham tinmay psixiatriyaga oid kitoblar o'qir, doktorlardan ololmaganlarimni o'z uslubim bilan o'rganishga harakat qilardim. Kasal ekanimni bilardim, ammo qanday yordam olishni bilmasdim. Barcha kitoblari qanday paranoid shizofreniya bo'lganimni aytardi. Ammo shunga qaramay, ishimni eng yaxshi shaklda bajarar, hech kim ko'ra olmaganlarni bilardim. Ya'ni oz bo'lsa ham hali sog'lom hujayralar bor edi menda. «Shizofreniyaga chalingan odam o'zi ni bilmaydi, kasallikni tan olmaydi», derdim ichimda. Chunki kitoblarda shunday yozilgandi. O'sha paytlar yana boshqa doktorga bordim. Aslida, ismingizni ancha oldin eshitgandim, ammo sizga kelishga qandaydir jasoratim yetmayotgandi. Internetda siz haqingizda qidirib, yozgan kitoblaringizni o'qigandim. Xuddi sizga kelsam, qo'lga tushadigandek edim. Buni ham juda istar, ham qo'lga tushishdan o'lgudek qo'rqardim. Keyin o'sha yoshi kattaroq professorga bordim. Hamma kabi u ham meni hurmat bilan kutib oldi. Qarshisiga o'tqazdi, savollar berdi. Men javob bermagach, bir-ikki taxmin qildi, hech biri o'xshamadi. Tush vaqti edi. O'ylashimcha, ovqatlanib kelgan edi. Yelkalariga charchoq ingan, uyqudan ko'zlarini ocholmayotgandek edi. Jim turib uni kuzatdim. «Mana shu mudroq odam meni qutqaradimi», dedim ichimda va uni uyg'otmasdan xonani sekingina tark etdim. Ammo izlam juda uzoqlab ketgandi. O'rta yoshli ayol shifokorga yana bordim. Davlat shifoxonasida ishlardi. Mashhur shifokor edi. Tez harakat qilishi va tezroq ishlarini bitirib, bemorlarini chiqarib yuborishi kerak bo'lardi. Go'zal ayol edi u, o'ziga yaxshi qarar, chiroyli kiyinardi. Jozibali ayol edi, doim kulib turardi. Men hali qarshisiga o'tirar-o'tirmas savollarga tutib tashladi. Uni yaxshi tushunib turardim. Tezroq dardimni tushunish,

ishimni bitirish va mendan qutulishni istardi, ammo u meni tushunmasdi. U o'ylaganchalik oson bemor emasdim Qaradiki o'xshamaydi. Meni boshqa bir shifokor do'stiga tavsiya qildi. «Mendan qutulishni xohlayapti», dedim ichimda. Xuddi men bilan yotib, keyin mendan qutulish yo'lini qidirgan erkaklar kabi...

Xuddi shu ishni men ham qilgandim. Birinchi kelganda uning psixolog do'stinga borishini istagandim. Bu tavsiyamni u qanday qabul qilganini hozir yana ham yaxshiroq tushunyapman.

– Psixologga emas, aynan unga kelishni istaganimni aytdim. Bundan juda xursand bo'lmagan bo'lsa ham tavsiyamni darrov qabul qildi. Endi har hafta uning qabuliga kelardim. Meni har doim kulib kutib olar, «Ko'ramiz, bugun hammasini aytib berasanmi?» deya so'rar va ko'zlaridagi sabrsizlikni menga his ettirishga urinardi. Uning ham dardi menga tezroq dori berish edi. Balki haq bo'lgandir, dori ichishim kerak bo'lgan, ehtimol. Yomon niyati yo'q edi. Yuzlab bemorlaridan biri edim, xolos. Ishini qilar, evaziga pulini olardi, aslida. Ammo menga jahl qilganini birinchi kuniyoq anglagandim. Shuncha ishi bo'laturib nima istashini ham bilmaydigan qiz bilan o'vora bo'lishni istamasdi, shikoyatlarimni tezroq aytib, keyin yozgan dorilarini olib ketishimni xohlardi. Qo'limdan kelsa qilardim, lekin buni qila olmasligimni ikkimiz ham yaxshi bilar edik. Bir necha marta qabulga borganimga qaramay muloqotimiz bir odim bo'lsa ham siljimadi. Shunga qaramay meni o'sha yerga chaqirishda davom etar, «Ketaqol, men senga yordam bera olmayman», deyishga ham jasorat qilolmasdi. Yana aldanar, yana yolg'on ichida edim. Xuddi butun dunyo kelishib olgan-u, meni aldayotgan edi. Jazoga, yerga urishlariga, kaltaklanishga ham e'tirozim yo'q edi. Shunchaki kim nima qilsa ham ochiqcha qilishini istardim. Menga yordam berishga urinayotgandek ko'rinib, ichidan meni yerga urishini istamasdim. Zero byuroda ham vaziyat boshqacha emasdi. Hamma birdan meni aldardi. Doktorga oxirgi marta

borganimda vaqt allamahol bo'lgandi. Oxirgi navbatda edim. Galim kelishini ancha kutishim kerak edi. Ichkariga kirib uning sabrsiz ko'zlarini ko'rgach, nazoratni butunlay yo'qotdim. Umuman shoshilmadim. Avval stol ustida turgan muolajalardan boshladim. Navbat bilan hammasini yirtдим. Keyin navbat sindirish, ag'dar-to'ntar qilishga keldi. Bularning barini uning ko'zlariga baqrayib turib qilardim. Avval sokin edi, menga yaxshi gaplar gapirib, tinchlantirishga urindi. Birinchi marta rostdan ham meni ko'rayotganini his qildim. Keyin kotibasini chaqirdi, xuddi qilgan ishlarim tabiiydek menga yumshoq muomala qilib, bolani aldagandek aldab eshik tashqarisiga olib chiqishdi. Shunday qilib, «Bu mojaro ham shu yerda tugadi», dedim ichimda. Demak, men yordam olishni ham uddalay olmaydigan darajada kasal edim.

– Berkingan joyingdan chiqishni istamaganing uchun ham borgan har doktoringga qulf taqibsan.

– Boshlig'imiz bir kuni meni yoniga chaqirdi, psixiatrğa borgan bormaganimni so'radi. Buni so'rayotib hech qanday taraddud ko'rsatmadi. Psixiatrğa borishimdan tabiiyroq hech narsa yo'qdek xotirjam gapirardi. Biroz o'zimga keldim, xayolimda qurgan shubhalarim biroz ozaygandek bo'ldi. Ishning ichida yomonlik bo'lganda bunday to'g'ridan-to'g'ri gapirmasdi, dedim. Ko'p shifokorlarga borganimni aytdim unga. O'sha payt manzilingizni berdi qo'limga. «Buni ham sinab ko'r», dedi. Haliyam darrov kelmadim, u ham bosim o'tkazmadi. Oxiri keldim, mana.

– Yaxshiyam kelibsan, Alya!

– Buni siz aytishingiz qanchalar yaxshi! Men bo'lsam qanday xayollar bilan kelgandim.

Buni aytarkan yana og'zini ochib kulishga urinadi. Mulozamat qilyapti! Shuncha iztirobdan keyin bu yerda mulozamat qilishi menga yoqadi va men ham kulishni boshlayman.

– Bilasan, boshida men ham sendan qutulishga uringandim.

– Bilaman, ammo ilk marta omad mening yonimda edi, ehtimol. Bu oxirgi omadim ekanini ham bilaman. Bundan o'l-

gudek qo'rqaman ham. Ammo baribir omad yordam berdi va o'sha oqshom meni hech tayyorgarliksiz eshikdan chiqarib yubordingiz. O'shanda meni to'xtatgan mexanizm jim qoldi, unga hojat qolmadi. Munosibman deb bilgan muomalani sizdan ko'rgach, xotirjam bo'ldim, tushuntirib berolmayman. Nihoyat meni aldamaydigan insonni topgandim. Meni aldamaydigan, lekin meni ochiqchasiga rad etadigan. O'sha payt ishlar o'zgardi. Bu safar shiddat bilan rad etgan bu shifokorga o'zimni qabul qildirish yo'lini izlay boshladim.

– Nega bunday qilganingni bilasanmi?

– O'sha payt bilmasdim. Ichimdan bir ovoz shunday qilishimni istardi, men ham qilardim, biroq hozir bilaman. Ortinigizdan yugurtirgan, sizga qabul qildirishga intilgan bu odam buni bir o'zi qilmadi. Onam bilan men hamkorlik qilayotgan ekanmiz. Nima bo'lsa ham ikkimizning ham tariximizda bor bu. U Esmatonga, men ham unga yillarcha shunday qilgandik. Bir-birining ortidan quvish, unga ko'rinishga, unga o'zini qabul qildirishga urinish ham biz tajribali bo'lgan soha. Ichimda qat'iy qaror bor edi. Ehtimol, ancha yillardan beri birinchi marta nima qilishni xohlashimni bilardim. Endi ikki kishilik xordan turli ovozlari chiqmas, ikkimiz ham bir qo'shiqni kuylardik. Ammo biroz o'tib, ishlar yana chalkashib ketdi. Siz na onamga, na Esmatonga o'xshardingiz. Ham ularchalik qattiq, ulardek barqaror munosabatda bo'lardingiz menga, ham meni qul sifatida qabul qilmasdingiz. Qarshingizda qul bo'lish, siz tomondan kaltaklanish, yerga urilishni istar va yo istamasam ham buni kutardim sizdan. Ayniqsa, boshida doim buni kutish bilan chiqdim qarshingizga. «Bugun bo'lmasa ham ertaga, albatta, buni qiladi, meni ezadi, yerga uradi», deb o'ylardim ichimda. Vaqt o'tib bunday qila olmasligingizni angladim. Bu yerga kelish uchun daqiqalarni sanaydigan bo'ldim. Hatto muolaja soatidan ham oldin kelar va siz bo'lgan muhitda ko'proq vaqt kechirish uchun harakat qilardim. Yana o'sha hikoyalar. Faqat men uchun aytilgan hikoyalar. Ba'zan

gaplashishni istasam ham jim bo'lar, sizning sabringizni sinashni istardim. Har so'zingizdan bir ma'no chiqarar, yuz ifodalaringsizni ham birma-bir xotiramga saqlab borardim. Vaqt o'tib, meni ulg'aytirdingiz. Hatto qo'llaringizni uzatdingiz, «tut» dedingiz. Avvallari tuta olmasdim, ammo vaqti kelib, qo'l tutish avvalgidek qo'rqitmay qo'ydi meni. Asta-sekin o'sha qorong'i jarlikdan chiqdim. Men bilan muloqotning bir yo'lini topdingiz. Bir qarasam, men borman. Yana bir qarasam, onam ketibdi. Ammo yolg'iz ham emasman, yonimda siz borsiz.

Bularni eshitib shunchalik ta'sirlanamanki, hatto bo'g'-zimga hiqichoqlar tiqiladi. Qanday go'zal tuyg'ularini ayt-yapti! Demak, hech bir mehnat bekorga ketmaydi! Xuddi bir quvonch buluti butun xonani qoplab olgandek. Ko'pincha mahzunlik bulutlarida ko'z-ko'zni ko'ra olmasdi bu xonada. Alyaga qarayman, jilmayib, menga iliq tabassumlar ulashadi. Men ham unga!

– Ovozining juda ham chiroyli ekan, buni bilarmiding?

– Nima?

Bir daqiqa xuddi tok urgandek cho'chib ketadi. Qo'llarini tezda yuziga olib borib, xuddi uyalgandek boshini oldinga egadi. Bu qiz o'zi bo'lishdan, yaxshi ishlar qilishdan nega haligacha uyalyapti?

– Ammo bu safar o'rningga men sevinyapman, chunki oylardir quloqlarimni tirnagan o'sha bola ovozidan meni qutqarding. Umid qilamanki, ipak singari go'zal ovozining bundan keyin faqat yaxshi narsalardan hikoya qiladi.

Qo'llarini sekingina yuzidan olarkan, «ha» degandek boshini asta silkib qo'yadi. Hozir endi uni yana ham suyuntiradigan ishlar qilishim va diqqatini boshqa bir tomonga qaratishim kerak. Unga shunday bir hikoya aytib berayki, ichida iztirobning mahzunlikning kurashi bo'lsin bu. Dunyolarga sig'magan ulkan bir omad va kuchni kichik bir ayol qisqa bir hayotga qanday sig'dira olganini ko'rsin.

– Unday bo'lsa chuqur nafas ol, o'zingga kel, suyanib ol va meni tingla.

– Hikoya aytib berasizmi?

Bolalardek quvonib ketadi. O'rindiqqa suyanadi va yuziga qiziqish va xush kayfiyat ifodasi joylashib oladi.

– Bugun Eva Peronning hikoyasini aytib bera qolay, biroz iztirobli, ammo baribir ajoyib muvaffaqiyat hikoyasi.

– Eva Peronmi? Argentinaning birinchi xonimi. Eva Peron nomini eshitgach, kuch va ehtiros keladi. Juda go'zal hikoya bo'lsa kerak.

– Tarix u hali bir aziza ayol yoki fohisha bo'lgani bo'yicha bir qarorga kelmagan. Kimningdir o'zidan yuksakda ekanini bilish hamma ham xotirjam qabul qila oladigan narsa emas. Ustiga-ustak ayol bo'lsang, o'sha kuch, o'sha mashhurlik ostida ezilish ehtimoli ham shunchalik ortadi. Ko'p ayollar erkaklar mustaqil bo'lgan bu dunyoda kuchli odamlarning soyasi ostida sukunatda yashaydi. O'sha soyani parchalab, yo'q qilgan va sahnaga ko'tarilgan noyob ayollardan biri Eva Peron. Eva 1917-yilda Argentinaning kichik qishlog'ida oilali odamga jazman bo'lib yashagan onaning beshinchi farzandi bo'lib dunyoga keladi. Bir muddat bu ayol va undan bo'lgan farzandlariga g'amxo'rlik qilgan Juan Eva bir yoshga to'lganda ularni tark etadi va turmush o'rtog'ining yoniga qaytadi. Ona tikish bilan shug'ullanib, bolalarini boqishga harakat qiladi. Ammo ahvollari juda achinarli edi. Eva ham xuddi sen kabi sokin va oriq bola bo'lgan.

– Meni u bilan taqqoslamang, iltimos. U ayolni juda yaxshi ko'raman.

– Umid qilamanki, kun kelib o'zingni ham xuddi o'sha ayolni yaxshi ko'rgandek yaxshi ko'rasan. Eva 15 yoshida uyidan qochib ketib, teatrlarda ishlashni boshlaydi. So'ng radio shoularda dong taratadi. Hali yosh qiz bo'lishiga qaramay, shuhratga eltadigan yo'l boy erkaklarning yotog'idan o'tishi ni biladigan darajada tajriba sohibi bo'ladi. Juan Peron bilan

tanishmaganda edi, u ikkinchi toifa san'atkor bo'lib qolaverar, ehtimol, hech kim uni eslamasdi ham.

– U nimadir qilar, ammo mashhur bo'lish yo'lini topgan bo'lardi, menimcha.

– To'g'ri aytasan, bunday zafarli bo'lishga qaror qilgan insonni hayot ham to'xtata olmaydi. Juda qiyin kunlarni boshdan kechirgan, ammo oxiri 1944-yilda Juan Peron bilan tanishadi. Peron o'sha paytda Mehnat vazirligi xodimi, baobro', ayni paytda juda xotinboz, ayollarga suyagi yo'q erkak bo'lgan ekan. Eva ilk kunlardan oq qat'iyati, ko'zlarida porlagan ishtiyoqi va otashin nutqi bilan polkovnikni ta'sirlantirishning uddasidan chiqibdi. Peron o'sha paytlar zilzilada zarar ko'rgan insonlar uchun bir kompaniya tashkillashtirar, Eva esa unga yordam berarkan. Evaning mahoratlari bilan ta'sirlangan Peron uning keyinchalik boshlaydigan harakatining ayollar yetakchisi bo'lishini istabdi va uni ham o'zi bilan olib ketibdi. Shunday qilib, Eva uning ham ishdagi hamkori, ham xushroga aylanibdi.

– Bu mavzuda onasi bilan bir qismatga ega bo'libdi.

Bu hikoyalarda doim o'zini izlaydi. Demak, qismatining onasini o'xshashidan qo'rqadi. Haq ham. Bu borada menimcha, juda e'tiborli bo'lishi kerak.

– Sening taqdiring ham onangnikiga o'xshaydimi?

– O'xshashiga izn bermayman.

– Demak, qaroring qat'iy. Ofarin senga. Aslida, Eva ko'zi yuksaklarda bo'lgan bir odamning siyosiy ideallarini haqiqatga aylantirish uchun tanlangan. Juan Peron avvalroq boshqasi bilan turmush qurgan, ammo uni bachadon saratonini sabab yo'qotgan ekan. Undan keyingi munosabatlarning hech birini jiddiy qabul qilmas va kundalik munosabatlarni afzal bilarkan.

– Peron juda mehnatkash va yangiliksevar askardir. Eva esa savodsiz, hech bir madaniy ilimga ham ega bo'lmagan kichik bir radio san'atkori, ammo aqlli va o'rganishga havasmand ayol edi. Peron atrofdagi bosimlarga qaramay, Eva

bilan jazman bo'lib yashashda davom etardi. 1944-yilda davlat to'ntarishida Peron hibsga olinadi. Kelasi yili ozod bo'lishi bilan qiladigan ilk ishi Eva bilan turmush qurish bo'ladi, chunki endi uning davlat rahbarligiga asosiy nomzodligi ko'rilyotgan, yo Evadan butunlay ayrilishi, yoki u bilan oila qurishi kerak edi. To'ydan keyin u davlat rahbari etib saylanadi va Eva ham birinchi xonimga aylanadi. Bu vazifani joyiga qo'ygan Eva Argentina xalqiga nutqlar o'qir va hamma joyda bor kuchi bilan turmush o'rtog'ini qo'llardi. Endi siyosat sahnasida o'zining o'rni bor edi va ba'zi sohalardan, hatto eri Juandan ham mashhurroq edi. Qayerda biror ochilish marosimi, tadbir bo'lsa, chaqirilgan odam Eva edi. Argentinaning birinchi xonimi sifatida bir o'zi Yevropa turiga chiqar va dunyo matbuoti bunga katta qiziqish bildirardi. Endi Evaning ko'ylaklari va taqinchoqlari Parijdan olib kelinardi. Bir muddat hashamatga qiziqish davom etadi, chunki ichida o'tmishdan qolgan va to'ldirilishi kerak bo'lgan ehtiyojlari bor edi.

– Uni tushunaman. Yo'qsil insonning orzulari ham yo'qsil bo'ladi. U uchun qimmat ko'ylaklar va taqinchoqlar, kim biladi, qanchalik muhim bo'lgan ekan? Har doim uzoqdan, hasad bilan qaragandir ularga. Qiziq, ichidagi yo'qsillikni ham tuza-ta oldimikin? Ichki dunyosini ham boyita oldimi? Faqat qimmat narsalar kiyib yoki taqib qirolicha bo'lib qolmaydi odam.

Bu qizning izohlari qanchalar chiroyli? Xuddi biroz oldingi qo'rqinchli voqealarni boshidan o'tkazgan u emasdek. Go'yo orada parishon kezgan, chang-g'ubor, kir ichidagi qiz boshqa odamga aylangan. Evani yaxshi ko'rishini biroz oldin aytgandi. Aslida esa malikalarning dushmani edi u! Bu orada faqat ovozi emas, gapirish tarzi ham borgan sari to'g'rilanyapti. Endi gaplarini uzmasdan gaplashadi, faqat gap oxirida kichik tanaffus qiladi.

– Haqsan, Eva ham buni tezda anglagan bo'lsa kerak, qisqa muddatda yo'qsillarga yordam berish uchun «Eva Peron jamiyati»ni tuzadi va ishlarni shu yerdan turib yuritishni boshlaydi.

- Bu tashkilot shunchaki bir ehson yoki yordam tashkiloti emasdi. Eva bu yerda xalq bilan muloqot qilar, ularni birma-bir eshitar, muammolariga yechim topishda yordam berardi. Kimgadir uy topar, hattoki ijarasini ham to'lar, yana boshqasiga puldan yordam qilar, kimningdir kasalligini davolatishga harakat qilardi. Tashkilotga kelgan odamlarning ko'pi kambag'al, bemor va irkit edi. Eva esa ularning badbo'y hidlariga qaramay, ularga muhabbat bilan munosabatda bo'lardi. Yonida ishlagan xodimlar ham bunga hayrat bilan qarardilar, chunki ular qochayotgan odamlarga Eva qo'rqmasdan, jirkanmasdan yaqinlashar, hatto quchoqlardi ham. Faqir insonlarga bo'lgan bu sevgisining sababi, ehtimol, o'zining ham yo'qsillikni boshdan kechirgani va ota mehrini umuman his qilmagani bo'lishi mumkin deya ta'riflanadi. Eva ba'zan ertalabgacha o'sha yerda ishlar, uni ko'rgani kelganlarga «Limuzin»ni ajratgan, o'zi esa uyga taksida kelardi. Ovqat yemas, uxlamas va fidoyilik hissi bilan ishlardi. Juan Peron bu vaziyatdan bezovta edi, chunki ayolini, hatto ko'ra olmasdi. Insonlar uni aziza ayol sifatida nomlar va unga davlat rahbarlaridan ko'proq e'tibor berishni boshlashgandi. Aslida, kichik qishloqda tug'ilib, hayotining muhabbati bilan turmush qurgan ayol edi Eva. Ammo qudrat insonlar orasidagi munosabatlarni, eng ko'p muhabbatni susaytiruvchi unsurdir. Qudrat va iqtidor urishi bo'lgan joyda ishqqa o'rin yo'q, chunki ishq o'zini ham, hech qanday iqtidorni ham qabul qilmaydi. Aslida, Eva va Peronning munosabatlari ikki qudrat va iqtidor munosabatidir.

- Qudratni juda chiroyli ta'rifladingiz... Umid qilamanki, bir kun buni men ham totib ko'raman... Bolalari bo'lmagan ekanmi?

- Farzand ko'rmabdi. Eva bu savolga doim parvarishga olingan bolalarni ko'rsatib javob berar, «Bizning haqiqiy bolalarimiz ular», der ekan. Shunday qilib, onglardagi aziza ayol ideali yanada kuchayib boribdi. Xuddi mamlakatning ma'naviy rahbari bo'libdi va hech kim tomonidan saylanmas,

so'roq qilinmas, borgan sari tekshirilmasdi ham. Hatto Juan Peronga ham hisob bermasdi. Ega bo'lgan qudrati, go'yo Evani sehrlab qo'ygandek edi. Doktorlarning barcha ogohlantirishlariga qaramay, ertalabgacha ishlar va sog'ligi bilan qiziqmas, borgan sari vazn yo'qotardi. Juan Peron uni majburan shifokorga olib boribdi va Evaning xuddi avvalgi turmush o'rtog'i kabi bachadon saratoniga chalinganini bilibdi. Ammo buni Evadan sir saqlabdi. Biroz vaqt o'tib, u yotoqdan tura olmaydigan ahvolga tushgach, xabar butun xalqqa tezlik bilan yoyilibdi. Aholi ko'chalarga chiqib, u uchun tonggacha duo qilishni boshlabdi. Hatto odamlar uni ko'rishni shu qadar istar ekanki, Juan Peron Evani quchog'iga olib balkonga chiqishga majbur bo'libdi.

– Yaxshi odamlar tez o'lib ketishadi. Kim biladi, yana ko'proq yashasa, ehtimol, ko'p insonlarga yordam bergan bo'larmidi?

– U uchun xafa bo'ldingmi?

– Ha, xafa bo'ldim... qismatning ishlarini ko'ring! Bu odamning har ikki turmush o'rtog'i ham bachadon saratonidan o'ldi. Juan Peron qattiq xafa bo'lgandir?

– Bilmadim. Eva 1956-yilda vafot etibdi.

– Necha yoshda olamdan o'tgan?

– O'ttiz uch!

– Qanchalar yosh ekan! Buncha ishni demak 33 yilga sig'irdira olgan.

– Haqsan. Bunchalik qisqa vaqt ichida ham o'zini butun dunyoga tanitgan, ham juda yaxshi ishlar qilgan. U olamdan ko'z yumgach, Argentina xalqi ko'chalarga chiqibdi. Qo'llarida shamlar bilan bir necha kunlab yig'labdi va hurmatli aziza ayol uchun motam tutishibdi. Peron Evaning vujudi mumiyolanishi uchun Ispaniyadan bu borada mashhur bo'lgan shifokor doktor Pedro Arani chaqiribdi. Bu odam Eva vafot etgandan keyin uning tanasi bilan naq ikki yil yolg'iz qolibdi. Uning ustida sinchkovlik bilan ishlabdi. Oxiri, Evani abadiylashtiribdi. Eva uni shunchalik ta'sirlantiribdiki, u bilan bog'liq kunda-

lik tutishni boshlabdi. Evaning vujudi yillar davomida buzilmay turibdi. Hatto doktor Ara ba'zi maxsus ovqatlanishlarga Evaning mumiyolangan tanasini ham olib borar va xuddi jonli odamdek stolga o'tqazar emish.

– Judayam g'alati vaziyat!

– To'g'ri aytasan, xuddi shunday! Peron va doktor unga juda g'alati bir mehr qo'yishgan edi. Vafot etganidan 16 yil o'tib nihoyat, jonsiz badanni tuproqqa ko'mishibdi.

– Xalq uni unutmabdimi?

– Peron prezidentlikdan ketganidan so'ng Eva Peron ismini ham Argentinadan o'chirishga urinishgan, byustlari buzilgan, ustida uning ismi bo'lgan mahsulotlar ham yo'q qilingan, ammo xalq uni unutmagan. Vafotidan oldin qilgan so'nggi nutqida «Hali qaytaman, millionlarga aylanib», degandi. Va u haq bo'lib chiqdi. Millionlab insonning ishonchi va ishtiyoqi bilan ta'sirlangan bu ayol eri Juan Perondan ancha ko'p insonlar xotirasida iz qoldirgan. Yillar o'tib uning hayoti haqida hikoya qiluvchi Evita myuziklidan o'rin olgan «Men uchun ko'z yosh to'kma, Argentina...»

Hali men jumalani tugatmasimdan baqirib yuboradi.

– Men uchun ko'z yosh to'kma, Argentina.

– Ha, myuzikldagi mana shu jumlar bilan Eva yana bir bor odamlarni hayratda qoldiradi. Katta ekranga ham olib chiqilgan ushbu musiqiy asar bilan Eva vafotidan so'ng ham yillar o'tib xotiralarda yashashda davom etadi.

– Uning o'rnida bo'lishni istardim. U qilgan barcha ishlarni qilish uchun, kim biladi, qanchalar katta qudrat kerak?

– Eva aslida bechora, yo'qsil, kimsasiz, chorasiz bir qishloq qizi edi. Uni zafarga eltgan menimcha, uning qat'iyati! Bu o'yinni unday yoki bunday tarzda yutishga qaror qilibdi va hech qachon voz kechmabdi. Hammasi shu!

– Ammo unga omad ham kulib boqqan.

– To'g'ri, Peron bilan tanishishini omad sifatida qabul qil-sak bo'ladi, ammo u ham bu omaddan yaxshi foydalana olgan.

Kim biladi, Peron undan boshqa yana qancha ayollar bilan tanishgan! Chunki u xotinboz edi. Faqat Evagina bundan to'g'ri foydalana olgan.

– Evita kichik Eva degani, shekilli.

– Ha, o'zi kichik, ammo ruhi ulkan Eva. O'sha qo'shiqni yaxshi ko'radiganga o'xshaysan!

– Ha, yoqtiraman.

– Musiqa eshitasanmi?

– Avval eshitardim. o'shanda juda ta'sirlanardim bunday qo'shiqlarni eshitishdan. Hozir musiqa ham tinglamayman.

– Nega?

– Uyda yolg'iz qolganimdan keyin faqat dars qildim va kitob o'qidim. Men bu o'yinni faqat shunday yutishim mumkin. Boshqachasiga o'zimga yashash huquqini bera olmayman.

– Juda yaxshi. Buning uchun xursandman. Unday bo'lsa qani boshlaylik. Oldin ham aytganimdek, ayniqsa, ish joyingga bunday borishingni xohlamayman. O'zim bilgan bir modalar uyi bor. Ularga qo'ng'iroq qilaman va yoshingga mos bo'lgan kiyimlarni berishlarini aytaman. Senga ma'qulmi?

– Ma'qul... Bu ahmoqlik yana davom etishini istamayman. Bir ahmoqlik, bir o'lim va siz bor edingiz hayotimda. Endi esa faqat siz qoldingiz.

Qanchalar ma'noli javob! Buni ancha avval ham men ga aytgandi. Ammo o'shanda uchalasi uning xayolida yonma-yon turardi. Hozir esa ikkitasidan voz kechdi. Demak, faqat men qoldim. Hayotidagi o'rnim va mas'uliyatimni borgan sari kuchaytiriyapti. Hal qilinishi, yengib o'tilishi kerak bo'lgan muhim bir muammo yana bor, demak. Bundan qo'rqish o'rniga buni yaxshi tushunib, qachon va qanday munosabatda bo'lishim haqida har doimgidek e'tiborli va qat'iyyatli bo'lishim kerak.

– Qolgan ikkisidan qutulganingni o'z og'zingdan eshitish ajoyib, to'g'risini aytsam! Umid qilamanki, mendan ham qutulasan!

– Yo'q, sizdan qutulishni istamayman. Meni aslo tark etmang.

– Yo'q, azizam, hech qayerga ketmayman. Men yana hayotingning turli yerlarida bo'lishni istayman, ammo o'rtada turish senga nisbatan nohaqlik bo'ladi. Istagan vaqting men doim yoningdaman. Hozir esa sening kiyimlaring masalasiga kelsak. Ertaga ertalab Tunaga qo'ng'iroq qil, u senga ma'lumotlarni beradi. Men kerakli joylar bilan gaplashaman. Maylimi? Kelishdikmi?

Qisqa taradduddan keyin boshini chayqab tasdiqlaydi. Keyin turib yonimga keladi. Men ham o'tirgan joyimdan asta turaman. Qo'lini uzatadi, ammo bu safar qo'limni siqish o'rniga sekingina o'pib peshonasiga qo'yadi, so'ng mahkam quchoqlaydi. Biroz vaqt shunday qolamiz. Ichim titraydi. Bir-birimizdan ayrilgach, ikkimizning ham yuzimizga tabassum yuguradi. So'ng darrov uyalgancha boshini egib oladi. Yelkasini silagancha eshikkacha uni kuzatib qo'yaman. Eshikni yopgach eshikka suyanib ko'zlarimni yumaman va biroz shunday turaman. Butun vujudimga shirin bir horg'inlik yoyiladi.

Xuddi butun uyni tozalagan, qozonlarni yuvgan, chanoqlarni sayqallagan va nihoyat kir yuvgan uy bekasidek his qilaman o'zimni. Horg'in va huzurli! Endi esa hoziroq klinikani tark etishim kerak.



Hademay yoz tugaydi, lekin men haliyam ta'tilga chiqmadim. Havo shu darajada issiqki, aslida, biroz salqin tushishini ham kutyapman. Buning ustiga xayolimni band qilgan Alya ham bor. Sog'ayish arafasida uni tashlab ketgim ham kelmayapti.

O'sha kuni deyarli hamma savollarga javob topildi, Alya ko'z o'ngimda o'zgardi. Hozircha tashqi ko'rinishi o'zgaragan bo'lsa-da, bilaman u endi boshqa Alyaga aylandi.

Yana biroz davom etsak, balki taqdirga to'xta deya olamiz va Alya butunlay boshqa hayotda qanot yozadi. Aslida, men boshidan uni qanchalik zukko, qanchalik qobiliyatli bir qiz ekanini bilardim, faqat o'sha kuni menga aytganlarini o'ylasam yana hayratlanaman. Shunday bir uyda har kun o'lgudek kaltaklaydigan ona bilan yashab, o'qishni a'lo baholarga tugatish naqadar buyuk mo'jiza!

Bunda ruhiy muammolarining muhim roli bor deb o'ylayman. Chunki hayot uni shunday ezganki, yuzaga chiqqan salbiy energiyalarining quvvatini, ehtimol, maktabga va darslarga yo'naltirgan. Bunday inson qila oladigan eng mukammal, eng ulug'vor ish shu bo'lsa kerak.

Tarixda mashhur san'atkorlarning hayotini o'qiganimda tez-tez bunday narsalarni uchratib turaman. Eng buyuk rassomlar, eng mashhur musiqachilar dunyoga mashhur asarlarini hayotining eng qora davrlarida yaratishadi. Go'yo ichidagi salbiy energiya bir sharshara ostidan o'tadi, yuviladi, tozalangani va shunday qilib, mo'jiza haqiqatga aylanadi. Biz buni psixiatriyada «sublimatsiya» deymiz. Juda kamchilik qila ola-

digan narsani bu qiz ham kichkinaligida uddalagan. Darslariga, o'qishdagi a'lo baholariga tayangan. Aslida, menga muvaffaqiyatlari haqida hech gapirmaydi. Ichidagi katta-kichik har qanday yomonlikni qiyinchiliksiz bo'rttirarkan, doimgiday yaxshi tomonlarini, muvaffaqiyatlarini ham kichraytiradi.

Odatda, insonlar buning teskarisini qiladilar. Yaxshi tomon bo'rttiriladi, yomonliklarni chetga surishadi. Bu har doim ham yomon mexanizm emas. Balki, qaddimizni tik tutishimizning yo'llaridan biridir. Alyaga kelsak, bugungacha atrofidagi barcha kabi ham Alyaga, ya'ni o'ziga hech yordam bermagan. O'zini yaxshi ko'rmagan, sevmagan. Buni o'zini yerga urish ham deb bo'lmaydi. Chunki bu tuyg'uda ham shubha, ikkilanish bor. Alyada bunday narsa yo'q. Yomon, uquvsiz, qadrsiz ekaniga boshqalar kabi u ham qat'iy ishongan. Shu sababli ilk tanishgan kunimizdan e'tiboran unga nisbatan kichik e'tiborimdan ham bezovta bo'ladi. Buni, albatta, soxtalik, riyokorlik deb qabul qiladi.

Klinikaga yetib bormasdan avval ilk qiladigan ishim doim xarid qiladigan mashhur kiyim do'konimni aylanish bo'ladi. Ular bilan uzoq suhbatlashaman. Bu qizning onasiga oid kiyimlarini tashlab yuborsak egniga kiyadigan kiyimi ham yo'q. Oyoq kiyim, sumka borasida ham yordam berishlarini iltimos qilaman. Mamnuiyat bilan rozi bo'lishadi. Yozning o'rtasida bunday mijozni qayerdan ham topishardi. Telefonda «Hisobni men ham ko'raman», deyman. Tashvishlanmang, deyshadi. So'ng Tunani chaqirib, undan ham yordam so'rayman. Alya u bilan bog'lanadi. U kerakli ishlarni hal qiladi.

Tuna qarshimda rohatlanib kuladi. Bu ayol dunyoga xursandchilik, baxt va huzur sochish uchun kelgan. Bu qiz u yoqqa yolg'iz borolmaydi deydi. U haq. Balki, bu safar ham Seliyha bizga yordam berar deb darrov telefonda Seliyhani xonamga chaqiraman. Seliyha u bilan tengdosh kiyim-kechakka qiziquvchi, har doim yasanib yuradigan, kelishgan, uddaburon psixolog. Bundan tashqari, klinikaning ma'muriy ishlarida ham bizga yordam beradi.

Seliyha darrov xonamga keladi. Undan nima xohlayotganimni eshitishi bilan tabiiyki, hayron qoladi. Keyin bizga jon deb yordam berishini aytadi. Tuna ularni tanishtiradi. Bu ishni ham hal qilib bo'lgach, biroz xotirjam bo'laman.

Kechqurun ishlarim tugashi bilan Seliha kulib xonamga kiradi. Men gapirib ulgurmasimdan u gap boshlaydi.

– Voy, ustoz, bu qanday qiz-a? Bunaqasini hech ko'rmagandim. Qanday g'aroyib narsalar kiyib olgan. Aslida, uni zalda ko'p ko'rgandim. Og'ir shizofrenik bemor deb o'ylardim. Boz ustiga u qiz huquqshunos ham ekan. Ishongim kelmaydi.

– Ko'p gapirmay ayt-chi, nimalar qildingiz bugun?

– Tuna opa bizni tanishtirdi, ammo hech gapirmaydi. Men gaplashish uchun qancha mavzu qidirsam, u shuncha kesib tashlaydi. Shunday qilib, oxiri siz aytgan joyga bordik. Juda hashamatli ekan. Men ham o'zimga bir qancha narsa xarid qildim. Hulya xonim Alyani ko'rib hayron qoldi. Keyin siz yuborganingizni bilishi bilan atrofida girdikapalak bo'lishdi, biroq bu qizni xursand qilish shunday qiyin ish ekanki...

– Yo'q azizam, biroz oshirib yubording.

– Yo'q ustoz, Xudo haqqi, rost gapiryapman. Nima kiydirisha, u qiz hammasiga labini burdi.

– U yoqdi deyishni bilmaydi, lab burdi deb o'ylamayman.

– Mayli, shukrki ular professional insonlar ekan. Uning bu qilig'iga e'tibor qilishmadi. Kiydirishdi, o'zgartirishdi, hatto oyog'iga oyoq kiyimini, qo'liga sumkasini tutqazib oyna oldiga olib borishdi. O'zini bu holatda ko'rib, qiz ham hayratlandi. Bu turishiga qaramasak, qiz juda go'zal ekan.

– Nima ekan?

– Ya'ni bu yerda ko'ringaniday emas ekan, demoqchiman. Buning ustiga yuzi pardo ham qilinmagan. Uni biror kosmetologga yuboraylik, ko'ramiz chiroyli ekanmi yoki xunukmi?!

– Aslida, to'g'ri aytyapsan. Hech xayolingma kelmabdi. Biror tanishing bo'lsa, olib boraver.

– Kosmetologmi?

– Ha.

– Bor, ustoz, bo'lmasligi mumkinmi? Biroq faqat kosmetolog yetarli emas, plastik jarrohlik ham lozim. Burnini ko'rmandingizmi?

– Ko'rdim, albatta, unisiga biz aralashmaganimiz ma'qul.

– Men so'rab ko'raman. Biz u yerdan chiqsak, kech tushib qolibdi. Garchi u yerdagi xizmat ko'rsatish bizni hayron qoldirgan bo'lsa ham biroz charchadik. – Kel, – dedim Alyaga, – shu yerdagi kafelardan biriga kiraylik. – Mayli, – dedi. Qarama-qarshi o'tirdik. Yana men bilan gaplashmasa kerak deb o'ylagandim, lekin bu safar men bilan gaplashishni boshladi. Biz u bilan bir soat suhbatlashdik. Juda g'alati gapiradi. Go'yo turkchani yangi o'rgangan kishiday. Yoki chetdan kelganmi?

– Yo'q.

– Nutqida muammosi borday. Tutilib, tutilib, o'ylab-o'ylab gapiradi, ammo ozginadan keyin uning gapirishiga odam o'rganib qolarkan.

– Birinchi kunlari nutqi juda yomon edi. Hozir ancha yaxshilangan.

– Umuman do'sti yo'q ekan. Do'stlar bilan qanday gaplashishni bilmaydi. Shunday qilib, nihoyat, menga yaqinlashdi. Istasangiz, men u bilan shug'ullanishda davom etaman.

– Juda yaxshi bo'lardi, Seliyha. Xursandman. Aslida, birinchi do'sti psixolog bo'lishi u uchun katta imkoniyat.

– Shu orada kafeda o'tirib, bir huquqshunosdan nima so'rash mumkin bo'lsa so'radim undan.

– Vaziyatni qo'ldan boy bermabsan.

– Lekin ustoz, unday demang. Qiz juda ilimli. Bunday narsalarni so'raganda juda chiroyli gapirarkan. Eh, kunim juda ajoyib o'tdi.

– Rahmat, Seliyha. Bu ishlaringni qadrlayman. Iltimos, Alya bilan aloqani uzma. Uning senga ehtiyoji bor.

– Xavotirlanmang, ustoz. Jonim bilan bajaraman. Aytdimku, menga ham juda qiziq bo'ldi.

Alya mavzusi tugaydi, biroq Seliyha xonamdan chiqmaydi. Darrov telefonda Hasanni chaqiradi, klinika bilan bog'liq muammolar, yangi hamkorliklar, kiritiladigan o'zgartirishlarni

muhoqama qilishni boshlaymiz. Shu payt Hasan kelib, yana yangiliklardan xabardor qiladi. Sog'liqni saqlash vazirligi ta-sarrufida ishlaganimiz uchun davlat chiqargan har bir yangi nizom klinika faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Bugun klinika faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadigan yangi nizom e'lon qilinibdi. Juda charchadim. Barcha qabullarni bekor qildiraman. Hozir ancha muhimroq, ko'pchilik bilan bog'liq bo'lgan ishlar bilan shug'ullanishim kerak. Yangi tizim tashkil qilishimiz, yangi qoidalar ishlab chiqishimiz lozim. Yarim kechagacha davom etadigan majlislar boshlanadi. Charchayman. Hasan esa qachon ta'tilga chiqishimni so'raydi. Qanday ta'til? Bu holatda men hech ta'tilga keta olmayman.

Ammo unday bo'lmaydi. Yag'mur va Hasan shunday reja qilishadiki, bir necha kun ichida o'zimni Izmirga uchayotgan samolyotda ko'raman. Izmirdan Didimdagi dala hovliga o'taman. Hamma do'stlarim o'sha yerda, ko'zlari to'rt bo'lib meni kutishyapti, lekin mening kayfiyatim juda yomon.

U yerga borib, biroz dam olaman. Havo ham oldingiday is-siq emas. Bundan tashqari, yolg'iz ham emasman, har kuni do'stlarim bilanman. Ertalabdan dengizga chiqamiz. Dengiz shunday chiroyli. Men qachon biror narsadan siqilsam Didimning dengizi haqida o'ylayman. Rangi ham o'zgacha. Yosh dengizdir u. Go'yo unga vaqt hech ta'sir qilmaydigandek. Rangi yangi tug'ilgan chaqaloqniki kabi toza, jonli, yorqin. Umonlar kabi qoraymagan, har qanday holatda ham shu yashil tusda qola olgan. Shom payti sohilda yurib, so'ng biror restoranda birga ovqatlanamiz. Hamma yoq gavjum. Gavjumlikni yoqtiraman. Buning ustiga ta'tildagi gavjumlik o'zgacha. Bazzan oqshomlari yarim tungacha balkonda o'tiraman. Bu uyni birinchi sotib olgan vaqtlarimda balkonda o'tirib, uyning oldidagi suvday oqqan odamlarni ko'rib biror konsert bor shekilli, deb o'ylardim. Holbuki, bu odatiy hol ekan. Har kuni bu odamlar to'lqini sohilda bir yuqoriga, bir pastga quyilarkan. Kulgi ovozlari yuqorigacha eshitiladi va menga bu ovozlار yoqadi. Juda shovqin uyda qanday yashaysan, deyishadi. Bi-

lishmaydiki, ular o'sha shovqin degan ovozlari yoqtiraman men. Bundan tashqari, har on bu ulkan dengiz bilan yuzma-yuz kelish menga huzur bag'ishlaydi. Ustimdagi horg'inlik asta-sekin meni tark etadi.

Ba'zan kechki ovqatdan keyin yig'ilib qarta o'ynaymiz. Choy, shirinlik, bo'reklar yaxshi ketadi. Inson o'yin o'ynaganda hamma narsani unutadi. U vaqtda na dard, na qayg'u qoladi. Do'stlarimning ko'pchiligi men kabi turmush o'rtoqlaridan erta ayrilishgan. Oldinlari borgan restoranlarimizda o'tirishimiz uchun joy topilmasdi. Guruhimiz yigirma o'ttiz kishidan kam bo'lmasdi. Hozir kamaydik. Endi restoranlarda bir-ikkita stol bizga yetadi. Ya'ni guruhda faqat men g'amgin emasman.

Ba'zida o'tirib eski xotiralar haqida gaplashamiz. O'tmishdan qolgan shunday xotiralarimiz borki. Bu suhbatlar oxirida hammamizning ko'zlarimiz yoshga to'lib, yig'lasak ham ularni eslashni yaxshi ko'ramiz.

Shu orada Yag'murning Bodrumdagi dala hovlisiga boraman. Zaynab va Kichkina Aydin bilan vaqt o'tkazish juda maroqli. Yag'mur juda baxtiyor. Birga dengizga boramiz, oqshomlari Bodrumning bashang va yoqimli gavjumligiga g'arq bo'lamiz.

Xullas, yoz shunday yakunlanadi. Bu paytlarda xayolim tez-tez Alyaga ketadi. Tuna ve Seliyha u haqida menga tez-tez ma'lumot berib turishadi, u bilan yaxshi munosabatda ekanliklarini, tashvishlanmasligimni aytishadi. Bugungacha ta'tilda hech bunchalik uzoq vaqt qolmagandim. Biroq ba'zi narsalar iziga tushmasdan Anqaraga qaytishni men ham istamayman.

Nihoyat, oktabr boshida uyni berkitib chiqaman. Aeroportda meni Hasan kutib oladi. Uni juda sog'inganman. Meni yubordi, lekin o'zi ta'tilga chiqolmadi. Mashinaga chiqib, uyga birga qaytamiz. Hasan bilan yo'l bo'yi gaplashib ketamiz. Faqat uni emas, Anqarani ham sog'inibman. Bir tomondan Hasanni tinglayman, bir tomondan go'yo ilk marotaba ko'rib turgandek qiziqish, hayajon bilan atrofga qarayman. Salom, Anqara. Salom, eski do'st, dardlarga, muammolarga, mas'uliyatlarga salom!



Tong otishi bilan shoshib o'rnimdan turaman. Madalyon klinikasi meni sog'ingan. Darrov tayyorlanib, yugurgudek bo'lib klinikaga ketaman. Mashinam klinikaga yaqinlashgach sog'inch ancha bosiladi. Haydovchisidan kotibasigacha, psixologidan doktorigacha yo'limda uchragan odam bilan quchoqlashaman. Ular ham meni sog'inishibdi. Ba'zan jahlim chiqsa ham, ba'zan ovozimni ko'tarsam ham ularning har birini boshqacha yaxshi ko'raman. Tuna shunday quchoqlaydiki, bir on nafas ololmay qoldim deb o'ylayman.

Aslida, men Didimdaligimda u ham bordi. Shundan beri ko'rishmaganimizga bir hafta yo bo'ldi, yo bo'lmadi. Yag'mur meni xonamda kutadi. Ona-qiz quchoqlashib to'ymaymiz. Xonam birpasda bayramxonaga aylanib ketadi. Men ularni yaxshi ko'raman. Ular ham meni. Bundan yaxshi nima bo'lishi mumkin hayotda?

Qizim Yag'murdan ko'z uzolmayman. Sariq sochlarini har doimigiday o'rib olgan, derazaga suyanib, ham gapirib, ham qiqir-qiqir kuladi. Ichimda suvday beg'ubor qiz deyman. Shunday chiroyli, shunday samimiy, shunday hissiyotliki, kishi unga qaraganda hayotni ko'radi. Yashil ko'zlari doim chaqnab turadi, har doim gaplashadigan, kulishadigan nima-dir topishga usta. Hasan qanchalik sokin bo'lsa, Yag'mur shu qadar jo'shqin. Xonamda choy, qahva suvday ketadi. Tushga yaqin kutib olish marosimi tugaydi va hamma o'z joyiga qaytadi. Ular chiqib ketishi bilan xonamga Seliyhani chaqiraman. Alya bilan qiziqaman. Ko'raylik-chi, nima xabarlar ekan? Seliyha darrov kiradi. Uni nimaga chaqirganimni biladi. Eshikni yopishi bilan gapirishni boshlaydi.

– Eh ustoz, ko'zlaringizga ishonmaysiz, deydi Seliyha. Alya hurliqoga aylandi. Men sizga bu qiz go'zal qiz degandim, ishonmagandingiz. Mana endi ko'ring-chi, chiroylimi yoki xunukmi! Aqlli, zakovatli, qobiliyatli ekanini bilaman, lekin go'zallik bilan Alyani yonma-yon tasavvur qila olmayapman.

Uy muammosini nima qildingiz, deb so'rayman. Uni ham hal qilishibdi. Chankayadan jihozli bir uy topishibdi. Uch kun oldin uyga ko'chib o'tibdi. Bizniklar ko'chib o'tishiga ham yordam berishibdi. Yanglishmasam, Seliyha uning ilk do'sti bo'ldi. Bugun Seliyhaning og'zini yopib bo'lmaydi. Qilgan ishlari o'zini ham juda hayajonlandiribdi shekilli, to'xtamay gapiryapti.

– Ustoz, aslida, biz sizga hech narsa aytmay syurpriz qilmoqchi edik, ammo shunday hayajondamanki, gaprimay turolmadim. Siz ketgandan keyin bu qiz bilan ancha qalin do'st bo'lib qoldik. Avval juda sovuq ko'ringandi, lekin uni taniganimdan keyin uning juda aqlli va zukko qiz ekanini bildim. Ko'z tegmasin, bilmagan narsasi yo'q bu qizning! Umumiy bilimi ajoyib. Psixologiyani ham deyarli menchalik biladi.

– U bilmagan narsa bormi? Barakalla, demak, u bilan ancha shug'ullanibsan.

– Ko'chishida yordam berish uchun uyiga bordim. Eh ustoz, bu qiz u uyda qanday qilib shuncha vaqt yashagan? Pari-lar makoniga o'xshaydi. Men qo'rqaman, unaqa joyda yashay olmayman. Shunday qilib, uy jihozlari, aslida, juda eski, lekin noodatiy. Uydan kitoblaridan boshqa hech narsa olishni istamadi. Uy jihozlarini bir xayriya jamiyatiga topshirdik.

– Hech narsa olmadimi?

– Mehmonxonadagi stolda qo'lda to'qilgan bir dasturxon bor ekan. Faqat o'shanigina oldi. Dasturxon stolga yopishib ketgan ekan. Rangi ham o'chib ketgan. Yaxshi tozalovchiga berdik. Yuvi, kraxmallashibdi, juda ajoyib bo'libdi. Biroq uy xarobaga aylandi. U holatida uni hech kim ijaraga olmaydi. Uning ham chorasini topdik. Hasanbeyning shunaqa ishlar

bilan shug'ullanadigan tanishi bor ekan. Butun uyni ta'mirlashadi. Aslida, ta'mirlansa, juda yaxshi joy. Ozigina ko'proq pul sarflanadi, ammo boshqa yo'l yo'q.

– Yana nimalar qildingiz?

– Nima qilmadik deng. Siz ketishingiz bilan bir kosmetologga bordik. Qizni boshdan oyoq ko'rib chiqishdi. Burnida jiddiy muammo bor ekan, nafas olishda qiynalarkan. Doktorga ham birga bordik. Bolaligida singan, shekilli. Suyaklari noto'g'ri o'sgan ekan. Doktor darhol operatsiya qildi.

– Operatsiya qildimi?

– Ha. Necha kundan beri burni bog'langan edi, lekin o'zi xursand. Birinchi marta kechqurun burnim bitmay uxlayapman, dedi. Bechora qiz, inson achinadi unga. Qanday yolg'izligini ko'rsangiz edi! Menga har kuni o'n martalab rahmat aytadi. Men uchun nima qilishini bilolmaydi. Har ko'rishganimizda menga nimadirlar buyurtiradi. Qarz bo'lib qolishni xohlamaydi. Holbuki, men buni zavq bilan qilyapman. Ancha yillardan beri xarid qilmagan ko'rinadi. Haligi, siz bizni yuborgan brend kiyim do'koni bor edi-ku, o'sha kundan keyin yana narsalar olishni istadi. Unga birgalikda nimalar olganimizni bilsangiz edi.

– Nimalar oldingiz?

– Tirnoq bo'yoqlari, atirlar, kremlar, ich kiyimlar, tungi ko'ylaklar, shampunlar, xullas, xayolingizga nima kelgan bo'lsa, hammasini oldik. Puldan muammosi ham yo'q, nima xohlasa oladi. Kitobga o'zgacha qiziqishi bor. Har chiqqanimizda avval kitob do'koniga kiramiz. Hamma joy kitobga to'ldi. Vanihiyat, kecha uyga yeyishga narsalar oldik. Oshxonasi bo'm-bo'sh edi.

– Demak, yeguliklar oldingiz.

– Ha, ustoz. Meva, sabzavot, go'sht, choy, qahva, yarim tayyor mahsulotlar, nima bo'lsa oldik.

– Barakalla, Seliyha. Qanday yaxshilik qilganingni bilasanmi?

– Unday demang, ustoz, siz aytasiz-u, qilmaymanmi?

- Yana biror ish qoldimi?

Seliyha g'alati ifoda bilan kulib qo'yadi.

- Ohho, qilinishi kerak bo'lgan ko'p narsa bor hali. Bu qiz xuddi g'orda yashaganga o'xshaydi. Qaddini rostlab yurishni ham bilmaydi, hattoki. Bunga Tunalida bir modellik kursi bor. Haftada ikki kun ishdan chiqib o'sha yoqqa boryapti. Hech bo'lmasa u yerda yosh qizday yurishni o'rgansin.

- Yana-chi?

- Mashinasi yo'q, guvohnomasi ham. Uning ham chorasini topamiz. Shuningdek, juda bilimli, biroq gaplashishni bilmaydi. Logoped va notiqlik kurslariga borishi kerak.

- Haqsan, hammasini yaxshi o'ylabsan, ammo o'zi nima deydi?

- Nimani tavsiya qilsam, xursand bo'lib qabul qilyapti. E'tiroz bildirmayapti. Ertaga ham birga ko'z shifokoriga boramiz. Ko'zida ham muammo bor. Bugungacha shifokorga borish xayoliga ham kelmabdi.

- Yaxshi o'ylabsan. Sen bu qizni yaxshi ko'rib qolding, shekilli, Seliyha.

- Juda boshqacha qiz! Bunaqa qizni hech ko'rmagandim. Avval odam yaqinlashgisi kelmaydi, lekin uni yaxshiroq tanishi bilan unga nisbatan iliydi inson. Bularning barchasiga nima deyishingizga juda qiziqyapti. Sizdan juda tortinadi. Ismingizni eshitishi bilan oyog'ini yig'ishni boshlaydi.

- Tortinaversin-chi! Albatta, u kimdandir tortinib turishi kerak. Yangi uyi qayerda?

- Chankayada. Ishiga ancha yaqin. Shunday o'ng keldi. Qanday omad, shunday emasmi?

- Omad deysanmi? Seliyha, senga hammasi uchun rahmat. Sog' bo'l. iltimos, bu qizdan qo'lingni tortma. Yana biror narsa so'rasa, yordam ber, maylimi?

- Albatta, ustoz, siz xavotir olmang. Jonim bilan.

Shu paytda Tuna eshikdan bosh suqib, tayyor bo'lsangiz, bemorlar keldi, qabul qilishni boshlaymizmi, deb so'raydi. Seliyha kulib xonamdan chiqadi. Nihoyat, bemorlarimga nav-

bat keldi. Chuqur nafas olib, stol ustini tartibga keltirgandan so'ng ilk bemorni qabul qilaman.

Ishimni, inson deb atalgan ajoyib yaratiq bilan shug'ullinishni, ularga nimadir deyishni, ulardan bir chimdim g'amni olib, o'rniga bir chimdim tabassum hadya qilishni sog'inibman. Kechgacha xonamning devorlariga singgan qayg'u, dard, alam, umidsizlikning, intihoning soyasi asta-sekin quyuqlashib boradi. Doktorlikning ham turlari bor. Kimdir mikroskop qarshisida, kimdir jihozlar bilan band, kimdir har kuni yangi hayot bilan salomlashadi. Kimdir kesib, tikadi, kimdir dardlarga, og'riqlarga, iztirobga to'xta deydi. Kimdir esa bizga o'xshab kechgacha dard, qayg'uni egasining o'zidan tinglaydi. Iztirob ham kamida baxtsizlik va kayfiyat qadar insonga xos. Ayniqsa, bu holat Sharq falsafasida juda aniq ko'rinadi. Balki, biz oshno bo'lgan bu tuyg'uni baxtdan oldin dardni, g'amni anglaganimiz uchun ham sevamiz.

Bemorlar ketma-ket kirib chiqishadi, biroq mening xayolim Alyada. Chindan bizning telba qizimiz aytganlarichalik o'zgardimikan?

Ayten bir stakan issiq choy bilan ikki dona shirin kulcha keltiradi. Ularni ko'rib ovqatlanmaganim esimga tushadi. U ham aynan shuning uchun tayyorlagan bu ajoyib shirin kulchalarni. Choyimni ichayotganimda Tuna xonamga shoshilib kiradi. Eshikni yopib ulgurmay ko'zlari quvna gap boshlaydi.

– Ko'zlarimga ishonmayman, xonim! Go'yo bizning telba qizimiz ketib, o'rniga malika kelgandek. Sal qolsa tanimasdim. Yanayam men sizdan keyin necha martalab ko'rdim. Oh, bu qiz qanday qilib...

Tuna tez-tez qo'lini og'ziga qo'yib, menga ishoralar qilib to'xtamay gapiradi. Aslida, Tuna doim shunday faqat so'zlar bilan emas, ishoralar bilan ham gapiradi. Egilib, bukiladi, qosh-ko'zini o'ynatadi, qorachilari to'xtamay harakat qiladi. Bu ayol hech qarimaydimi? Ichidagi bolakay ulg'aymaydimi?

Bir tomondan issiq shirin kulcharimni yeb, maza qilib kuli-
lib eshitaman uni. Faqat men emas devorlar ham tinglaydi
bu hazilkash, xushchaqchaq ayolni. Nima bo'lganda ham xur-
sandchilikni, muhabbatni birga kutdik. Demak, Alya ancha
o'zgardi. Bunga men ham o'zimni tayyorlashim kerak. Men
insonlarni osonlikcha xunuk demayman. Hammaning o'ziga
yarasha chiroyi bo'ladi va men uni, albatta, ko'raman. Agar
aqlli bo'lsa, o'zini go'zal ko'ratishning yo'lini, albatta, topadi.
Bu Tuna bilan Seliyhaga bunchalik nima bo'ldi? So'zni biri
qo'yib, biri qo'lga olyapti va to'xtamay uni maqtashyapti. Ular
haq bo'lsin-da, ishqilib.

Tuna menga qarab-qarab xonadan chiqadi. Yo'q, chiqmadi.
Alyani ko'rish menga qanday ta'sir qilishini ko'rishga qiziq-
yapti, shekilli, bir qo'li bilan eshikni ochib, boshqa qo'li bilan
Alyani ichkariga kiritadi. Ko'zi hali ham menda. U ochib qo'y-
gan eshikdan yosh bir xonim kiradi. Bu kim bo'ldi? Bu qiz sal-
pal Alyaga o'xshaydi, ammo u emas. Yoki o'shami? Ko'zimni
kattaroq ochib hayrat bilan unga qarayman. Ko'chada uch-
ratsam aslo tanimasdim. Aslida, Tuna uni o'zi shaxsan olib
kirib yaxshi qilibdi, shekilli. U menga o'ynoqilik bilan qarar-
kan, qosh-ko'zini uchiradi. Men esa nihoyatda jiddiymen. Bu
qanday o'zgarish bo'ldi? Tuna nihoyat, eshikni sekin yopadi.
Alya ekani aytilgan yosh xonim sekin-asta yonimga keladi.
Qaddi-qomati kelishgan, nihoyatda yosh, go'zal yuzli inson
qarshimda turibdi. Chehrasida ham bolalarga, ham ayollarga
xos ifodalar ko'raman.

Yuzimga qarashga qiynaladi, mendan uyaladi. Mana bu
unga xos xususiyat. Hatto ko'zlarining rangi ham o'zgaribdi.
Ko'zini tez-tez pipirratib qaraydi. Egnida anor guli rangi-
dagi yupqa bir ko'ylak. Ko'ylakka qaraboq uning «Misso»-
ning brendiniki ekanini bilsa bo'ladi. «Chanel» brendining
zanjirli sumkasi va «Christian Louboutin» brendining qizil
poshnali oyoq kiyimlari ust-boshini mukammallashtirgan.
Yorqin tamaki rangli sochlari nozik band bilan orqaga yig'il-
gan. Peshonasi ochilgan. Bu keng peshonasiga bir necha tola

sochlari tushib turibdi. Go'yo bir haykaltarosh yasagan haykalining yuzidan ko'ngli to'lmay u yuzni olib butunlay bos-hqa chiroyli yuz yasagandek. Bir paytlar men uni bug'doy-rang deb o'ylardim, biroq rangi oqaribdi. Terisi yorqin. Qoshlari ingichkalagan, chakkasiga qarab to'g'ri yurgan va chakkasida biroz ko'tarilib, yana pastga tushirilgan. Burni haqida biror narsa deyishga ojizman. Ko'rinib turibdiki, haykaltarosh eng ko'p burni bilan ishlagan, bu kichik yuzga yarashadigan kichkina va nihoyatda nozik qirrali burun yasagan. Ingichka lablar ketgan, o'rniga kichkina, dumaloq, pushti va shaklli lablar kelgan.

Qarshimga kelishi bilanoq mayin tabassum qilgandek lab buradi va mana shu onda og'zida marvaridday porlagan oppoq tishlarini ko'raman. Alyaning u qing'ir-qiyshiq tishlari qayerga ketdi? Seliyha hamma narsani aytgan, ammo tishlari haqida aytmagandi. Ko'zlarini yerga qadaganda kipriklari yerga tegguday bo'ladi. Sun'iy kiprikmikan yoki tush bilan shu darajaga yetdimi? So'ngra oqqushday bo'yni diqqatimni tortadi. Ingichka bir tilla zanjir uchidan suv tomchisi kabi olmos osilib turibdi. Chap bilagida «Chopard»ning yangi chiqqan sport, lekin doimgidek ichida yetti turli olmos suzib yuruvchi qimmatbaho soati bor.

U bilan birga xonaga shirin ifor taraladi. Upa ifori kabi mayin, lekin ichni qitiqllovchi bir ifor. Hech narsa demasdan qarshimda shunday turadi. Unga diqqat bilan qarab hayajondan titrayotganini sezaman. Faqat u emas men ham hayajondaman. Shu onda o'zimni bir haykaltaroshday his qilaman. Uzoq vaqtdan beri ustida ishlayotga haykalim bitdi va ustidagi pardani ochdim, asarimga hayrat bilan boqaman, bu go'zal asar o'zimga ham yoqadi.

Bu haykalni boshlaganimda oxiri, bu qadar go'zal, hatto shu darajada mukammal bir asar yuzaga kelishini men ham o'ylamagandim.

Hayrat bilan unga qarayman. O'sha xunuk, egri-bugri, yoqimsiz qiz qanday qilib bu darajada o'zgardi, Xudoyim? Qal-

bimga quvonch, go'zallik, umid yoyiladi. Unga qarab ko'zimda yosh balqqanini sezaman. O'zgacha xarakterli bu go'zal chehrali qiz umid to'la nigohlar bilan menga qaraydi. So'ng sekin egilib avvalgi safargidek qo'limni o'pib peshonasiga suradi. O'rnida turganda men bilan quchoqlashgisi kelayotganini sezaman va bir-birimizni qattiq quchoqlaymiz. Ikkimizning ham ko'zimiz yoshga to'lgan.

Keyin bir og'iz gapirmasdan joyimizga o'tiramiz. Qanday so'z boshlashni bilmaymiz. «Juda go'zal bo'lib ketibsan» desam bu mening tuyg'ularimni to'liq ifoda etib bera olmaydi. Keyin yana men so'z boshlayman...

– Alya?!

– Xonim!

– Qanday qilib bunchalik o'zgara olding?

– Siz tufayli xonim. Sizdan minnatdorman. Aslida, bundan yaxshiroq gap aytishim kerak, lekin nima desam ham ozlgini bilaman.

– Seliyha menga o'zgarishlar haqida aytgandi, biroq bu qadarini kutmagandim. Demak, senga ishonishda haq ekanman.

– Menga ishonasizmi?

– Ishonmmaslik mumkinmi?

– Bu ko'rinishimga qaramang. Oynada har safar o'zimga qaraganimda bir tomondan qalbim hayajondan dukkillarkan, bir tomondan ichimga bir qo'rquv kiradi. O'zimni umidli bo'lganimchalik chorasiz, kuchli bo'lganimchalik zaif his qilaman. Nega bilmayman, bu favqulodda o'zgarish menga qattiq ta'sir qilyapti.

– Bunday tezlikda yuksalishning tushishi, kuch zaifligi, mas'umlik, umid ham doim chorasizlikni uyg'otadi. Yaxshiman, desang, hayron qolardim.

– Oh, bundan xursand bo'ldim. Bilasiz, Seliyha bilan tanishdik. Uni har ko'rganimda ko'zlariga diqqat bilan qarayman. Mendagi qo'rquvlar unda yo'q. Lekin juda aqlli, yaxshi qiz. Menga ko'p yordam berdi. Menimcha, u bilan do'stlashib oldik. Bilasiz, oldinlari mening hech do'stim yo'q edi.

– Bilaman, Alya, ammo hamma narsaning boshlanishi bo'ladi.

– Xuddi tushga o'xshaydi. Yangi uydagi xonamga bo'yim baravar oyna oldim. Har kuni u oynaga qarab to'ymayman. Tez-tez chindan bu menmanmi, deb so'rayman. Chiroyli bo'lish ajoyib tuyg'u ekan. Xuddi bu bir tush va uyg'onsam yana eski Alyaga aylanib qoladigandekman. Qo'rqib ketaman. Ammo siz keldingiz-ku, endi hech narsadan qo'rqmayman. Siz yo'qligingizda menga qiyin bo'ldi. O'zimni juda yolg'iz his qildim.

– Biroq bu bir necha oyda juda ko'p narsaga ulgurubsizlar.

– Yaxshiyam shunday bo'ldi. Har kuni kechgacha qayerlar-gadir ulgurishim kerak edi. Lekin yana sizni qidirdim. Ichim-da meni tashlab ketdi, dedim. Yoki nohaqmanmi?

– Haqsan, Alya, haqsan.

– Iltimos, unday demang. Xuddi sizni urishganday bo'lyapman. Sizni yo'qotishdan qo'rqaman. Aslida, dam olishga haqqingiz bor, odamlar shunday xudbin bo'larkan.

– Yo'q, sen rostdan haqsan. Ammo bir kun keladi men juda uzoq muddatga ketsam ham meni urishmaysan. Chunki u vaqtda o'zingning o'z hayoting, yaqinlaring, do'stlaring, sevgiling, balki turmush o'rtog'ing ham bo'ladi.

– Menimi? Sizningcha kun kelib men ham sevib qola olamanmi?

– Nega sevolmaysan? Sevishni istamaysanmi?

– Baxtsiz odamning sevgisi ham o'zi kabi puch bo'ladi.

– Nega o'zingni bunday deb o'ylayabsan.

– Shundayman, biroq hech qachon o'zimga o'xshagan odamni sevib qolmayman. Men sevadigan odam kuchli va ishonchli bo'lishi kerak. Zaif, bir u shoxga, bir bu shoxga sakraydigan odamni sevmayman. Zaif odamning tuyg'ulariga ham, so'zlariga ham ishonib bo'lmaydi. Xiyonatga moyil odamlar hayotdan kutgan narsalari ko'p, ko'ksida olib yurgan qalbi esa zaif odamlardir. Zotan, ular o'zlari bilan shunchalik

ovoraki, oshiq-ma'shuqlik ular uchun emas. Tutadigan tolani qidirishadi. Men aslo u tola bo'lmayman.

Juda jiddiy gapiryapti. Bugun hech qanday to'siqlarsiz, hamma narsani borligicha gapiryapti. Shu bilan birga, aslida, o'ziga bo'lgan nafratini ham yuzaga chiqaryapti. Shunday yaxshi kunda uni bunday mavzular bilan qiynashni xohlamayman. Kulib yarim hazil, yarim chin so'rayman:

– Achinasanmi u odamga?

– Hech kimga achinmayman. U ham aqlli bo'lsin. Undan foydalanishlariga yo'l qo'ymasini.

– Ya'ni sen foydalanasan.

– Bu foydalanish emas, bu chorasizlik. Avvallari yaxshi bir ishim, ozroq pulim bo'lsa, baxtli bo'laman deb o'ylardim... Yanglishgan ekanman. Kutubxonalardagi barcha kitoblarni o'qidim, o'qishlarni a'lo baholarga tamomladim. Yaxshi ishim bor, lekin mana yana bo'lmadi-ku. Yana nimalardir kam. Bugungacha yo'qotgan faqat men bo'ldim. Endi g'alaba qozongan tarafda bo'lishni istayman. Kun kelib haqiqatan o'zim bilan kurashib, vayron qilishdan voz kecha olsam, o'shanda hayotimda ko'p narsa o'zgaradi...

– Demak, o'zingni barbod qilayotganingni bilasan!

– Bilmasdim, ammo endi bildim. Miyam ishlaydi, biroq hayotda aqli noqis odamdan farqim yo'q. Ichimdagi bo'shliq shu qadar chuqurlashdiki, muvozanatga kelishi uchun juda kuchli silkinish kerak.

Hozir go'yo bu xonada rollar almashti. Mening o'rnimga u gapiryapti va psixiyatr kabi o'zi haqida juda muhim izohlar beryapti. Aytganlarining hammasi to'g'ri, lekin bularni bilish qutqaradimi? Bilmayman. Juda erta va yetarlicha his qilinmasdan qilingan xulosalar bular. Koshki bunchalik ko'p narsani bilmasa edi. Koshki hamma narsani shu qadar yaxshi anglashini o'ylamasa edi. Biroz vaqtdan keyin aqli bilan ko'r-ko'rona kurash boshlanadi.

– Balki, kitoblarimda sen haqingda ham yozarman. Muvaffaqiyat hikoyasi sifatida. Bu go'zal xotiralarni faqat ikkimiz emas, boshqalarga ham ulasharmiz.

– Muvaffaqiyat hikoyasimi? Meni muvaffaqiyatli deb hisoblaysizmi?

– Seningcha muvaffaqiyat bo'lmay nima?

– Hali o'rganishim kerak bo'lgan juda ko'p narsa bor.

– Yana nimalarni o'rganasan?

– Modellik kursiga boryapman. U yerda yosh qizlarday yurishni o'rganyapman. Logoped kursiga ham borishim kerak. Shu bilan birga yana biror til o'rganishni xohlayman.

– Nima uchun?

– Xalqaro ishlarda ishlasam, juda kerak bo'ladi.

– Tashqi ko'rinishiga juda ko'p e'tibor qaratyapti. Chiroyli bo'lishga, yaxshi ko'rinishga, diqqatni tortishga berildi. Aslida, jamiyatga moslashish urinish yomon narsa emas. Umid qilamanki, bu borada haddan oshib ketmaydi. Yana til ham o'rganar ekan. Bo'lishi mumkin, kasbiy faoliyatida foydali bo'lishi mumkin, biroq shuning uchungina o'rganadimi u tilni? Yoki bu o'zini qondirishmi? O'zini o'ziga yoqtirishga harakat qilyaptimi? Shuncha yilda shuncha muvaffaqiyat, shuncha bilim bilan uddalay olmagan narsasini til o'rganib uddalaydimi? Yoki boshqa narsaning payidami?

Insonning psixiatriya kabi kasbi bo'lsa, hamma narsani o'zgacha izohlay oladi. Chunki bemorlarimizning bir qismi umrini hayotga tayyorlanish bilan o'tkazadi. O'yin maydoniga chiqishdan oldin hech qanday kamchilik qolmasligini istashadi. Ammo u tayyorgarliklar doim ham tugayvermaydi, maydonga chiqishga ulgurishmaydi. Agar shunday bo'lsa, bu qizga qiyin bo'ladi. Uni bu yo'ldan qaytarishni juda istayman, lekin istakning o'zi yetmaydi. O'yin maydoniga tushishga kuchi yo'q insonni maydonga itarish falokatdir. Hayot uni maydonda parchalab tashlaydi. Shuning uchun bu qizning nimaga qodirligini to'g'ri baholashim lozim.

Odatda, bu kabi bemorlarning deyarli hammasi juda zukko bo'lishadi, lekin har doim ham aql hayotda yashab qolish uchun yetarli bo'lavermaydi. Agar maydonga chiqolmasa bu narsalarda uni qo'llashim, hamisha o'ziga yangi, uddalay ola-

digan maqsad topishida yordam berishim kerak. Hozircha bu narsalarga juda erta. Eng yaxshisi, to'xtagan joyimizdan davom etish.

– Nutqing oldingidan ancha yaxshi, sezyapsanmi?

– Ha, sezyapman. Bu holat menga umid beryapti demak, ba'zi narsalarni o'zgartirish o'ylaganimchalik qiyin bo'lmaydi. Garchi shu oyog'imdagi oyoq kiyimlarga ham haligacha ko'nikma olmadim.

– Xavotir olma, ko'nikasan. Poshnali oyoq kiyim senga juda yarashibdi. Juda chiroyli kiyinibsan. Barakalla!

– Yo'q, men haligacha qayerda nima kiyishni bilmayman... Xarid qilgan do'konimizdagi qizdan qaysi kiyimni qaysinisi bilan moslashni birma-bir so'rab oldim. Kulishingiz mumkin, hatto bularni daftarga yozib ham qo'ydim. Endi bu mavzuda boshim aylansa, Seliyhaga murojaat qilaman.

– Yaxshi, sening bunday qobiliyating bor ekan, ularni ham yaqinda o'rganib olasan. Ishlaring qanday ketyapti?

– Aslida, adliya bayrami tufayli ta'tilda edim. Keyin yana bir oy ruxsat oldim. Amaliyotim allaqachon tugadi. Bir nechta ish taklifi oldim. Yaqinda Yevropa Inson huquqlari Kengashi-ning sinovi bor. Unga kiraman.

– Maqsadlaring g'oyat ulkan, biroq men senga ishonaman. Boshlig'ing nima dedi, u ishga taklif qilmadimi?

– U bilan shu hafta boshida ko'rishamiz.

– Yaxshi, ko'raylik-chi, nima derkin.

– U yerga borish uchun kiyishga rasmiy kiyimlarim bor. Yana toza teridan sumka ham oldim o'zimga.

– Tadbirkor ayollarning sumkasimi?

– Ha, juda bashang.

– Barakalla, Alya. Sen bilan faxrlanaman.

Shu orada faqat tashqi ko'rinishining o'zgarishi yetarli emasligini, umumiy holati, o'zini tutishida ancha jiddiy o'zgarishlar lozimligini ta'kidlayman. Men bularni aytarkanman bolalarday, juda sodda savollar beradi. Imo-ishoralargacha,

har bir mazvuda alohida gaplashamiz. Go'yo u Zolushkadan malikaga aylanmoqda. Shu paytda ovozing naqadar yoqimli ekanini sezaman.

– Sizningcha mening oxirim nima bilan tugaydi?

Qayerdan chiqdi endi bu savol?

– G'alati savol. O'zimni folbin kabi his qildim.

– Aslida, psixiatrlar kelajakni folbinlardan ko'ra ancha yaxshi bilishadi.

Sizningcha, mening hayotimda ham yaxshi narsalar bo'ladimi?

– Bo'ldi-ku. Ko'rmayapsanmi, butunlay boshqa qizga aylanib.

– Ha, lekin men haliyam juda qo'rqqapman. O'tmishim qo'rqityapti. Balki, siz uni ongosti dersiz.

– Haqsan, aslida, bizning taqdirimizning katta qismini ongostimiz yozadi. U ham dunyoga kelgan kunimizdan boshlab qoidalarini belgilashni boshlaydi. Ya'ni inson baxtli yoki baxtsiz bo'lishiga ancha oldin qaror qiladi.

– Biror yaxshi narsa bo'lsa, inson baxtli bo'ladi. Bunga qarorning nima aloqasi bor?

– Sening hayotingda shu kungacha juda yaxshi narsalar yuz berdi. O'qishni a'loga tamomlading. Mashhur huquq tashkilotida amaliyot o'tading va eng muhimi, u xunuk o'rdak bolasi ketdi va o'rniga pari qiz keldi. Bularning hammasi seni baxtli qila oldimi?

Ko'zlarini qadab mahzun nigoh bilan boqadi.

– Sevindimmi, bilmayman, ammo chiroyli bo'lish meni hayajonlantirdi.

– Ruxsat ber, pari qiz! Mana senga nima demoqchi edim. Lekin biroz yuragingni siqqan biror narsa sodir bo'lsa xafa bo'lishni, qayg'urishni, jahl qilishni juda yaxshi uddalaysan, shunday emasmi?

– Ha, ayniqsa, jahl qilishni, hamma narsaga la'nat o'qishni juda yaxshi bilaman...Biroq bu mening o'tmishim bilan bog'liq.

– Yaxshi, ongostimiz ham o'tmishdagilarni asta-sekin yozadi axir. Endi biroz oldin bergan savolingga javob beraman, tayyormisan?

– Ya'ni kelajagimni aytasiz!

– Ha. Agar nimadir qila olmasak juda chiroyli, omadli inson bo'lasan, lekin baxt bilan tanisha olasanmi aniq bilmayman.

– Nega?

Bu savolni baqirgudek beradi.

– Chunki ongosting baxtsizlikka, dardga, adolatsizlikka nisbatan isyonga ko'ra dasturlangan. Eng yaxshi bilgan tuyg'ularing g'azab, hirs, intiqom va aybdorlik tuyg'ularidir. Yaxshilikni, baxtni, hayotga muhabbatni, kimnidir sevishni, sevilishni, boshqalarning baxtiyorligidan xursand bo'lishni, achchiq-shirin ba'zi tuyg'ularni baham ko'rishni bilmaysan. Bunday insonning qanchalik chiroyli, qanchalik bilimli, qanchalik boy, qanchalik omadli bo'lsa bo'lsin hayotdan zavq olish imkoni deyarli yo'q.

– Ustimni go'zallashtirdingiz, biroq ichimdagi botqoqlik turibdi.

– Ularni ham quritish uchun shu gaplarni aytyapman. Osonlikcha qurimaydi, buni ikkimiz ham bilamiz, biroq ko'rib turganingdek, men umidimni uzmadim. U botqoqlikni quritish uchun yana ozgina ishlashimiz kerak.

– Siz menga qanchalik ishonsangiz, men ham sizga shunchalik ishonaman... Sizning bu ochiqligingiz, hech narsani yashirmaganingiz menga umid beryapti. Biroz avval aytganlaringizda qanchalar haq ekaningizni o'ylayapman. Shunchalik yaxshi narsalar bo'ldi, ammo men hech qaysinisida o'zimni baxtli his qila olmadim. Go'yo bir tomonim kemtik. Hech uni to'ldira olmayapman. Na muvaffaqiyat, na go'zallik, hech qaysisi yetmayapti.

– Bundan qo'rqma, Alya. Ruhijihatdan eng sog'lom inson ham ko'pincha kemtik bo'ladi. Buni ko'p his qilamiz, lekin senchalik aniq izohlay olmaymiz. Doim bu kemtiklikka baho-na topamiz. Shu narsa yo'q, u bo'lsa edi, bunday bo'lardi, dey-

miz. Insonlar o'zlariga umr yo'ldosh tanlayotganlarida ham ba'zi narsalardan ko'z yumadilar. Chiroylimi, yaxshi xulqlimi, meni sevadimi, ta'lim darajasi qanday kabi muhim, biroq yetarli bo'lmagan ma'lumotlarga e'tibor qaratadilar. Eng muhim narsa insonning o'tmishidir. Chunki tarix doim takrorlanadi. Kaltak yeb ulg'aygan inson uradi yoki boshqatdan kaltak yeyish uchun o'zi sezmasdan harakat qiladi. Janjalli oilada ulg'aygan janjal qiladi, chunki shuni o'rgangan. Baxtni ko'rmagan, totmagan bo'lsa, o'zi buni yarata olmaydi. O'tmishida qasos, intiqom, aybdorlik hissi, kamsitilish bo'lsa, o'zi ham shularni takrorlaydi, o'ziga shu narsalarning qilinishi uchun qo'lidan kelganini qiladi. Ayblansa, ayblaydi, xiyonatga uch-rasa, xiyonat qiladi, haqqi yeyilgan bo'lsa, haq yeydi. Masalan, doim haqqi yeyilgan, tahqirlangan, sevimagan, qabul qilinmagan, qadrlanmagan kishi...

– Ya'ni men.

– Ha, sen kabi inson unga bunday munosabatda bo'lmagan, aksincha, qadrlagan, sevgan, e'zozlagan, unga hurmat ko'rsatgan kishiga aslo ishonmaydi. Hatto o'zini bunday insonning oldida xotirjam his qila olmaydi. Chunki bu munosabat avvalgilariga o'xshamaydi. Shuning uchun ham bundan, albatta, biror yolg'on, soxtalik yoki xiyonat qidiradi.

– Lekin nega?

– Chunki o'zining bularga loyiq emasligiga ishonchi ko'mil. Agar qarshi tomon unga shunchalik yaxshi munosabatda bo'lsa, bu o'tkinchi holat, ortidan biror narsa chiqadi va kelajakda u inson haqiqiy yuzini ko'rsatadi. Bir tomondan shunday bo'lishidan ich-ichidan qo'rqsa-da, ikkinchi tarafdan shuni ko'zi to'rt bo'lib kutadi.

– Biroq mening hayotimda doim shunday bo'ldi. Kimdir menga yaqinlashsa, ortidan, albatta, nimadir chiqdi.

– Bilaman, oldin shunday edi, lekin diqqatli bo'lmasang yoki nimalarnidir o'zgartirmasang, doim shunday davom etadi. Munosabat yaxshi davom etsa ham bunday insonlar ko'pincha o'zlariga yaxshi munosabatda bo'lgan insondan

bir yo'lini topib qochadi, chunki ularga ishonishmaydi. Ba'zi tuyg'ular bizga begonalik qiladi. Go'zallikdan ham bahra ololmaymiz, chunki bizga tegishli emas u.

Bir on nima deyishini bilmaydi. Qo'llarini birlashtirib, iya-giga tiraydi, o'ylanadi. Oldin ham shunday qilardi, ammo u qiz hozir qarshimda o'tirgan bashang, go'zal va jozibali bu yosh xonimga hech o'xshamasdi.

– Yaxshi narsalar insonni baxtli, yomon narsalar baxtsiz qiladi derdim. Bir holat yaxshi bo'lsa, chiroyli bo'lsa, bundan hamma bir xil ta'sirlanadi deb o'ylardim. Holbuki, qanchalar yanglishgan ekanman. Hamma odamlar baxtli bo'lishni xohlaydi, deb o'ylardim.

– Aslida, aytganlaring to'g'ri. Hamma odamlar shuni xohlaydi. Yoki biroz avval aytganingdek baxtli bo'lishni juda xohlashlariga, hatto bu uchun qattiq kurashishlariga ishonishadi. Ammo holatlarni mikroskop ostida ko'rganimizda buning aslida, bunday emasligini ko'rib hayron qolamiz.

– Demak, taqdir bitigi ham hikoyadek. O'z taqdirimizni o'zimiz yozamiz.

– Unchalik ham emas. Bizning taqdirimizni, aslida, otalarimiz, yaqinlarimiz yozadi. Ayniqsa, onalarimiz.

– Mening ishim qiyin, chunki ortga qarasam o'tmishim faqat qorong'ilik.

– Ha, qorong'ilik va men u zulmatga chiroq tutishga urin-yapman. U chiroq nurida ba'zi narsalarni ko'ra olasan, buni qattiq istasang va kuching yetsa bu taqdirni o'zgartira olasan.

– Qattiq istasang va kuching yetsa, deyapsiz. Juda xohla-shimni siz ham bilasiz, ammo kuchim yetadimi, buni bilmay-man. Kuchli bo'lishni hamma narsadan ko'p xohlayman. Men baxtli emas, kuchli bo'lishim kerak. Kuchli bo'lgandan keyin qolgani oson. Ko'ramiz u chiroq nurida men ham bir kuni kuchni va qat'iyatni topa olarmikinman?

– Umid qilamanki, topasan. Aslida, bir tomondan sening kuchli bo'lishing meni tashvishlantiryapti.

– Meni ham...

– Ichingdagi kuchli va falokatli g‘azabdan qo‘rqaman. Hozirgacha u g‘azabning yagona maqsadi sen eding. Agar bu yerga kelmaganingda bu kuch seni yo‘q qilishgacha borardi. Unda o‘zing o‘zingni yo‘q qilarmiding yoki boshqa birovning qo‘lida qolib, uning hayotini ham o‘zgartirarmiding, bunisini bilmayman. Biroq hozir vaziyat o‘zgardi. Hayotingdagi ko‘p narsani o‘rganding. Sening raso aqling asta-sekin narsalarni joyiga qo‘yishni, ko‘rishni, anglashni boshladi. Endi u g‘azab seni nishonga olishdan voz kechadi.

– Buni men ham his qilyapman. Ichimda chaqirtikanakday turibdi, lekin tez orada menga sanchilmaydi.

– Uni sug‘urib tashlash o‘rniga boshqalarga sanchishni o‘ylayapsanmi?

– Bilmayman. Ichimdagi nafrat bilan kuch birlashsa, nimalar bo‘ladi, hozircha bir narsa deyolmayman. Aslida, mening genlarim yomon. Hammasiga qaramay, men yaxshi bo‘la olishni xohlardim. Ichimdan bir ovoz «Sen doim yengilishga, tahqirlanishga, turtilishga mahkumsan, jazoying tugamadi», deydi. Kun kelib u ovozni ham o‘chiraman. Siz bilan gaplashsam, boshdan kechirganlarimni sizning aql g‘alviringizdan o‘tkazsam u ovoz avvalgidek hayiqtirmaydi meni. Bilaman, u ovoz meni aldashga, aybdor ekanimga ishontirishga urinadi... Onamning ovozi u... Kun kelib u jim bo‘ladi, men gapiraman.

– Sen nimalarni gapirasan, Alya?

– Oldin taqdirimning meni tortqilagan yo‘liga kirmaslik uchun qo‘limdan nima kelsa qilaman. Endi u meni qayerga olib borishini bilaman, lekin u boshlagan yerga bormayman. So‘ng o‘zimga yap-yangi chiziq chizaman. Ichida g‘am, dard, umidsizlik, nohaqlik, adolatsizlik va mag‘lubiyat bo‘lmagan yo‘llar. Buning uchun sizga ko‘p ehtiyoj sezaman. Siz yonimda bo‘sangiz, ko‘p narsalarni qila olishimga umid uyg‘onadi. Meni tashlab ketmaysiz-a?

– Men hamisha shu yerdaman, Alya!

– Unday bo‘lsa, mendan qo‘rq, dunyo! Yetar, mening shuncha qo‘rqqanim, endi sen qo‘rq!

Shunday deb, tabassum qilib o'rnida turadi. Biroz hayrat, biroz xavotir bilan unga qarayman. Haqiqatdan naqadar go'zal bo'libdi telba qizimiz! Ammo aqli joyiga kelishi bilan ilk ishi dunyoga qarshi bosh ko'tarish bo'ldi. Mayli, xayrli bo'lsin..

Meni qattiq quchoqlagandan keyin qaddini mag'rur tutib, oqqush kabi sollanib xonadan chiqadi.

Qiziq, peshonamizga yozilgan taqdirni bir psixiatr qanchalik o'zgartira olarkin. Uddaladik deb o'ylaganimizda u taqdir qiyofasini o'zgartirib qarshimizga chiqmaydimi?

Alyaning o'z o'tmishi, shaxsiy tarixi bilan shiddat-la kirgan kurashida kim g'olib bo'ladi? Oldindan aytolmayman.

Ya'ni hikoya bu yerda tugamadi.

Anqara-Kipr-Didim,

2009-2011

Adabiy-badiiy nashr

GULSEREN BUG'DAYJIOG'LU

HAYOTGA QAYT

Psixologik roman

Muharrir

Feruza EGAMOVA

Musahhih

Iroda UMAROVA

Badiiy muharrir

Bobur MURODOV

Sahifalovchi

Dildora JO'RABEKOVA

Texnik muharrir

Surayyo AHMEDOVA

Litsenziya raqami: AI № 252. 02.10.2014 da berilgan.
Bosishga 07.09.2023-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 1/32.
Garnitura «Cambira». Ofset qog'ozi.
Bosma tabog'i 13,5. Shartli bosma tabog'i 22,68.
Adadi 3000 nusxa. Buyurtma № 260-23.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.
«Yoshlar matbuoti» MChJda chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – (71) 230-00-50;
Savdo va Marketing bo'limi – (77) 013-00-50;
(77) 013-00-60;
[@bookuzbekistan](http://www.book.uz)
email: yangiasravlodi@mail.ru

Men eshitishga toqat qilolmagan bu sahnalarni bechora qiz bolaligida, buning ustiga kichik yoshda boshdan kechirgan. Inson degani shunday borliq aslida! Ya'ni biz o'ylagandan ancha kuchli va hayotga moslashish qobiliyati juda yuksak!

Bu qanday qismat ekan-a? Uni tinglar ekanman, dodlab yuborgim, isyon qilgim keladi...

WWW.BOOK.UZ

ISBN 978-9910-9722-4-9



9 789910 972249



YANGI ASR AVLOQI



/ @bookuzbekistan